TASHKENT INSTITUTE OF MANAGEMENT AND ECONOMICS

MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

O'EP
O'zbekiston Ekologik partiyasi

ESG PRINCIPLES - A DRIVER OF SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT AND BUSINESS TRANSFORMATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES

https://timeedu.uz/ 24.10.2025 y.

2-TO'PLAM
2-MAXSUS SON/2025



TASHKENT

+998 95 651 90 00
journals@timeedu.uz

УДК: 338.0154.(345.8)

“ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami. -T.: TMII, 2025. – 752 bet.

Ushbu to‘plamda mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida mavjud sanoat ishlab chiqarishni raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish orqali ishlab chiqarish sanoatini “drayver” sohaga aylantirish istiqbollari hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot materiallari keltirilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan huquqiy-me’yoriy xujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Сборник научных статей и тезисов Международной научно-практической конференции на тему «Принципы ESG – драйвер устойчивого развития регионов и трансформации бизнеса». – Т.: ТМИИ, 2025. – 752 с.

В сборнике представлены материалы научных исследований, посвященные устойчивому экономическому развитию нашей страны, диверсификации производства, адаптации к изменению климата и смягчению его последствий, повышению эффективности природопользования, обеспечению устойчивого развития регионов и промышленных предприятий на основе принципов ESG, внедрению эффективных экономических механизмов поддержки «зеленой» экономики в регионах, трансформации деятельности крупного и среднего бизнеса и повышению его конкурентоспособности, управлению отходами и развитию циклической экономики на промышленных предприятиях, охране окружающей среды на основе «зеленых» технологий, искусственному интеллекту, перспективам превращения обрабатывающей промышленности в «драйверную» отрасль за счет ускорения процессов цифровой трансформации действующего промышленного производства в условиях цифровой экономики, а также различным направлениям обеспечения устойчивого экономического роста.

Авторы сами несут ответственность за содержание представленных в сборнике материалов, достоверность содержащихся в нем статистических данных и представленных нормативно-правовых документов, а также за критические высказывания и предложения.

Tahrir hay’ati: i.f.n., dotsent Sh.K. Narbayev
i.f.n., professor I.S. Xotamov
i.f.d., professor Sh.I. Alibekov
i.f.d., professor V.P. Kuznetsov
i.f.f.d., dotsent N. Nosirova
i.f.f.d., dotsent D. Mamasoatov
assis. G. Axmedova
assis. A. Qudratxo‘jayev

Taqrizchilar: i.f.d., professor N.M. Maxmudov
i.f.d., professor A.A. Yadgarov

© TMII, Toshkent, 2025-yil.

KIRISH SO‘ZI

ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI XALQARO ANJUMAN ISHTIROKCHILARI, AZIZ MEHMONLAR!

Sizlarni Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti hamda O‘zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashi tomonidan tashkil etilayotgan mazkur Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda qutlashdan mamnunmiz!

Qadrli anjuman ishtirokchilari, bugun biz “ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazmoqdamiz. Bugungi anjumanning asosiy maqsadi mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini chiqur tahlil qilgan holda ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan qaror va farmonlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu anjuman mavzusining naqadar dolzarbligini anglatadi. Yurtboshimiz tomonidan 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlanishi hamda ushbu yo‘nalishda qabul qilingan Davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda ma’lum ma’noda anjumanning ham o‘z hissasi bo‘ladi deb umid qilamiz.

Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

Ilmiy samaradorlik − anjumandan kutilayotgan ilmiy-amaliy natija mamlakatimiz hududlarida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, sanoat korxonalarining atrof-muhitga bo‘lgan e’tiborini yanada kuchaytirish, biznes strategiyalarini takomillashtirish, shu bilan birga hududlar darajasida barqaror rivojlanishni amalga oshirilish darajasini tahlil qilish, “atrof-muhit, jamiyat, boshqaruv” (ESG) tamoyillariga mos holda faoliyat ko‘rsatishlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlarini tahliliy o‘rganish asosida olingan natijalarni umumlashtirib ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy samaradorlik – muhokama qilinadigan masalalarning har birida ijtimoiy samara alohida o‘rin egallaydi. Chunki ESG-tamoyillarining asosiy xususiyati ham ijtimoiy sohaga yuqori darajada e’tibor qaratilishidadir. Shu jihatdan ijtimoiy samarani iqtisodiy jihatdan baholash, bu yo‘nalishda mavjud amaliyotlarni ilmiy tahlil qilishning konseptual yondashuvlarini ishlab chiqishga, hududlarda va biznes sohasida izchil islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, barqaror daromad manbalarini shakllantirish, tabiiy resurslar tejamkorligiga erishish asosida kelajak avlod uchun zahiralarni saqlab qolish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik **-** iqtisodiy faoliyatning faol ishtirokchilaridan biri ishlab chiqarish korxonalaridir, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sezilarli darajada uglerod izi qoldiriladi. Shaffof va ekologik toza ma’lumotlarni taqdim etish atrof-

muhitni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya qilish uchun zarurdir. Iqtisodiy samaradorlik jihatidan mavzu doirasida muhokama qilinadigan har bir masala katta ahamiyatga ega. Birinchidan, sohada qonunchilik bazasini mustahkamlash; ikkinchidan, korxonalarda ESG tamoyillarini joriy yetishning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish; uchinchidan, hududlarning barqaror rivojlanishi uchun mavjud salohiyatini baholash va shu asosda sohalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining vujudga kelishi, to‘rtinchidan, korxona va tarmoqlarni rivojlantirishda “yashil” investitsiyalarni jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanishga keng yo‘l ochiladi.

Albatta bunday o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyotga hamohang ravishda, qo‘shimcha imkoniyatlarni ochishga va rivojlanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Lekin shu bilan bir qatorda, iqtisodiyotni raqamlashtirish va bunday sharoitda biznesni rivojlantirish jarayonlarida, o‘ziga xos muammolar va turli savollar ham yuzaga kelmoqda.

Bunday masalalarni o‘rganib, uning yechimlarini topish uchun Toshkent menejment va iqtisodiyot institutining professor-o‘qituvchilari tomonidan ham turli ilmiy tadqiqotlarni olib borish yo‘lga qo‘yilgan. Ularning tadqiqotlari natijalaridan - o‘quv jarayonlarida, ta’lim sifatini oshirish maqsadlarida, keng foydalaniladi.

Bu o‘z navbatida, institutda menejment, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalarida tayyorlanadigan malakali mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham oshirishga hizmat qiladi.

Bundan tashqari, institutda innovatsion dasturlar va loyihalar orqali talabalarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularda raqamli iqtisodiyot va global biznes muhitida raqobatbardosh bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni o‘tkazishda hamkorlik qilayatgan O‘zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashiga, anjumanda ishtirok etayatgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, BMT ning UNDP loyihasi vakillariga, Federal davlat byudjeti oliy ta’lim muassasasi Kozma Minin nomidagi Nijniy Novgorod davlat pedagogika universiteti, Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Shimoliy-Kavkaz instituti (filiali), Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Rostov instituti (filiali), Kazpotrebsoyuz Karaganda universiteti, Kyungdong Universiteti (Koreya Respublikasi), tashkilot va korxonalarning mutaxassislari, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarga o‘z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz.

Bugun sizlarning e’tiboringizga taqdim etiladigan taqdimotlar va fikrlar - bizni zamonaviy iqtisodiyotning yangi talablariga mos keladigan biznes modellarni yaratishga ilhomlantiradi.

Biz bu jarayonda, o‘z tajribamizni almashish va birgalikda muammolarni hal qilish uchun yangi g‘oyalarni kashf etishni maqsad qilamiz.

Umid qilamanki, anjumanimiz samarali va foydali bo‘ladi.

Har biringizning ishtirokingiz va hissangiz bu jarayonda juda muhim.

Keling, birgalikda yangiliklarga ochiq bo‘lib, innovatsion yechimlarni izlaylik!

Bugungi anjuman ishiga va unda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori
X. Axmedov

MUNDARIJA / ОГЛАВЛЕНИЕ

I SHO‘BA. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH, IQLIM O`ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH VA ULARNI YUMSHATISH, TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 11

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI XALQARO STANDARTLAR TIZIMIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI
Abdulloyev A.J., N.K.Sharapova 11

АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ К ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ И РЕАЛИЗАЦИИ ESG-КОНЦЕПЦИИ
Кузнецов В.П., Назарова Е.Н. 23

ЭКОНОМИКО-ПРАВОВОЙ КОНТРОЛЬ КАК МЕТОД ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
Алибеков Ш.И. 33

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАРКИБИНИ БОЗОР КОНЪЮНКТУРАСИ ЎЗГАРИШИГА МОС ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ
Чариев К.А., Абдулазизов Ш.А. 37

BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI
Asamxodjayeva S.Sh. 48

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI
Meyliqulov Sh.X. 56

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ В КОМПАНИЯХ
Қиясов Б.Н. 60

РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ KPI ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ СОТРУДНИКОВ НА ПРЕДПРИЯТИИ
Әкбар Айдын 66

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIY “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Rashidov J.X. 72

“QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH”
Alimov O.S. 82

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MAKROIQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH TAHLILI
Nazirova S.X. 89

ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПРОИЗВОДСТВА ОДЕЖДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН
Ахмедова Г.А. 99

ОПТИМИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ В НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ КОМПАНИИ «ГРУППА ГАЗ»
Лаврентьева Е.В., Пахомичева А.С. 107

БЕРЕЖЛИВОЕ ПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ
Лаврентьева Е.В., Султанова Л.Л. 113

ТЕНДЕНЦИИ И ПРОБЛЕМЫ РОССИЙСКИХ РЕГИОНОВ ПО ВНЕДРЕНИЮ ESG – СТАНДАРТОВ
Набоков В.И., Некрасов К.В. 121

ЎЗБЕКИСТОНДА КИРУВЧИ ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРАТИ
Рискулов Р.Б. 125

KORXONADA BREND EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI
Sa’dulloyev H.I. 134

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI VA “RAQAMLI O‘ZBEKISTON − 2030” STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI
Sharipova Sh.B. 140
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
Sharipov I.B. 147
РАЦИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕРРИТОРИИ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ
Ашуров А.Ф. 155
II SHO‘BA. “YASHIL” TEXNOLOGIYALAR, SUN’IY INTELLEKT VA ENG YAXSHI TEXNOLOGIYALAR (BAT) ASOSIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH 164
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH YO‘LLARI
Yuldashev I.B.. 164
ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ «УНИВЕРСИТЕТ 4.0»: ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ НИЗКОУГЛЕРОДНОГО ПЕРЕХОДА
Кузнецова С.Н., Цыбуцинина И.Е., Фролов Ю.С., Горев Н.А. 168
SUN’IY INTELLEKT VA REAL VAQT TIZIMLARI ASOSIDA HUDUDIY AVTOMOBIL YO‘LLARI MUHANDISLIK INSHOATLARINI LOYIHALASH JARAYONINI MODELLASHTIRISH
Norinov M.U., Zikrayev A.A. 177
REAL VAQT TIZIMLARI VA SUN’IY INTELEKT ASOSIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AVTOMATLASHTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YO‘NALISHLARI
Ergashev O.M. 186
ИҚЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРОИТИДА АГРАР СОҲАНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА СУҒУРТА МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ
Вахобов А.Р. 195
ИНСОН ВА АТРОФ-МУҲИТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ.
Йўлдошев Н.Қ. 202
SUN‘IY INTELLEKTDAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASHDA FOYDALANISH
Nasriddinov I.X., Tulyaganov E.J. 209
O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZ SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR
Isayev K.A., Qurbanov A.G‘. 215
ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА УЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ЎРТАСИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ
Худайбердиев Ў.Э. 221
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH
Kambarova Sh.M. 228
BARQAROR INVESTITSIYALAR VA ESG ME’ZONLARI: NAZARIY TAHLIL
Maxmasobirova N.U. 235
“O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA ESG TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN BOSHQARUV MEXANIZMLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH”
Rusatamov Z.X. 241
THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS IN CORPORATE GOVERNANCE
Sadikova M.A. 249
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O‘RNI
Daminova O.M. 254
КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА
Нарзуллаева Г.С., Сайфуллаева М.И., Носирова Н.Д. 262
YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNING SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI
Yakubova U.A. 278

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY–INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI
Qo‘chqorova M.U. 284
INKLYUZIV IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI
Qurbanov A.G‘. 291
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI
Murtazaev O.O. 298
SANOAT KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI
Ismatulloyeva M.F. 304
TRANSPORT XIZMATLARINI IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA VAZIFALARI
Karimova Sh.U. 311
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ АГРОБИЗНЕСА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ
Адилов Ш.Ш. 315
III SHO‘BA. ESG TAMOYILLARI ASOSIDA HUDUDLAR VA SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASH YO`NALISHLARI 325
“SANOAT-5.0” VA BARQARORLIK: ASOSIY TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR
Xotamov I.S., Qudratxo‘jayev A.K. 325
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ
Мырзалиева Г.А., Байкенжеева Д.Б. 334
QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI
Asamxodjayeva Sh.Sh., Qodirov S.Q. 341
ESG TAMOYILLARI HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATDA: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI PARADIGMASI
Zaynutdinov I.S. 348
ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SANOAT CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI
Yusupov U.M. 353
AGLOMERATSIYALARNING “YASHIL” IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA’SIRI
Mardonov Sh. 362
O‘ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT SAMARADORLIGIGA EKO-MARKETING TA’SIRINI TAHLIL QILISHDA SUN’IY INTELLEKT VA MASHINAVIY O‘RGANISHGA ASOSLANGAN YANGI EKONOMETRIYA YONDASHUVI
Usmonova Diyora Mahmud qizi 367
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI TUTGAN O‘RNI 379
Matchanova Ma’rifat Ikramovna 379
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI
Meyliqulov Sh.X. 384
AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA IKKINCHI DARAJALI YETKAZIB BERUVCHILARNING O‘RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI
Qobilov R.Sh. 388
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В КОМПАНИЯХ
Аділ Ф.С. 392
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ И МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ В КОМПАНИЯХ
Жолдасова А.Б. 397
ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗРЕШЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫХ КОНФЛИКТОВ
Кемпірәлі Е.Қ. 404
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ: ШАГИ К ИХ АВТОМАТИЗАЦИИ
Пернебаев Е.Б. 409
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ НА ПРЕДПРИЯТИИ

Рахатова Ж.Н. 414
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI
Musulmonova Sh., Hikmatov M. 422
SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING MILLIY VA XORIJIY TAJRIBASI
Toxirov J.M. 426
GREEN CAR: QISHLOQ XO‘JALIGIDA NAZORATNI YENGILLASHTIRUVCHI AQLLI ROBOT
Qurbonov Sh.B. 434
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING TAHLILI
Baxromov A.B. 437
ХАЛҚАРО АУДИТ СТАНДАРТЛАРИГА МУВОФИҚ АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВЛАРИНИ ЎТКАЗИШ МАСАЛАЛАРИ
Аҳмаджонов А.К. 443
ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ: ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАР, ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ
Ашуров З.А. 448
IV SHO‘BA. KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH 459
KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI
Mamasoatov D.R. 459
РЕСТРУКТУРИЗАЦИЯ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА
Абдураимова Н.Р. 464
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI
Suyunov Y.B. 479
АРАБСКАЯ РЕСПУБЛИКА ЕГИПЕТ НА ПУТИ К УСТОЙЧИВОМУ ЭКОНОМИЧЕСКОМУ РОСТУ
Зиядуллаева Л.С. 487
THE IMPACT OF THE CHINA–KYRGYZSTAN–UZBEKISTAN RAILWAY ON UZBEKISTAN’S ECONOMIC DEVELOPMENT: MECHANISMS, EFFECTS, AND POLICY RESPONSES
Ye Maoqing 492
XORIJIY INNAVATSION INVESTITSIYALARNI JALB ETISH DOLZARBLIGI
Tulyaganov E.J., Ubaydullayeva G.E. 502
QURG‘OQCHIL MINTAQALARDA KICHIK AGROBIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI
Qulliyev O.A. 507
BANKLARNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KAPITAL VA AKTIVLAR RENTABELLIGINING AHAMIYATI
Alimjanova D.S. 516
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ В БИЗНЕС-СФЕРЕ
Рахымжанова А.А. 519
MAMLAKATIMIZDA EKSPORT JARAYONLARINI BARQARORLASHTIRISH OMILLARI
Abdivaliyev Sh.X. 524
SANOAT KORXONALARIDA HR MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI
Toshtemirov S.G‘. 534
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
Abdufattoxova H. 539
AVTOMATLASHTIRILGAN BUYUMLARNI SARALOVCHI ROBOTLAR
G‘ulomov X.A. 545

APPLICATION OF ESG PRINCIPLES AS A WAY TO INCREASE COMPETITIVENESS IN THE MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES
Kurbanov U.A., Kurbanova Sh.Y., Alimova D.T. 548
ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА.
Фарходова Ш.Ш. 554
СОВРЕМЕННЫЕ НОВЕЙШИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ И БИЗНЕСЕ: РОЛЬ В СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РК
Агабекова Ш.Н., Бокушева С., Байкенжеева Д.Б. 557
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕГИОНАХ КАЗАХСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
Жартай Ж.М., Саттыбаева Д.М., Рахимова А.Н., Никкель Л.Д. 565
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR
Baxanurov O.O. 571
O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH YO‘LLARI VA USTUVORLIKLARI
Luqmanov B.M. 577
KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH
Arziyev S. 585
V SHO‘BA. ESG STANDARTLARIGA MOS KELADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI 590
SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA
Sobirov A.A. 590
АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ
Дусмуратов Р.Д., Носирова Н.Ж. 597
ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ
Ким Л.Н., Елтаев Н.Қ. 606
КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ
Ремизова И.В. 614
TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIYALASHNING ILG‘OR XORIJ TAJRIBALARI
Shodiyev Sh.S. 620
ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ
Усманова Ю. 623
YASHIL ENERGETIKA SOHASIDA INVESTITSIYALARNING ROLI
Primov S.F. 632
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАМКАХ ЗЕЛЕНЫХ РАБОЧИХ МЕСТ
Хувайдуллаева И.Х. 638
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH
Primov S.F. 642
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА УЧРАЙДИГАН РИСКЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ
Ҳусанбоев А.Ғ. 647
ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ
Сайдуллаев Ш. 653
RAHBAR KADRLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI
Olimov S.A. 660
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI
Kurbanova Sh.Y., Yusupov A.A. 667
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

Коптаева Г.П., Бекебаева М.О. 672
HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI
Toshboyev M.M. 680
QISHLOQ XO‘JALIGIDA KLASTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT SUBSIDIYALARINING AHAMIYATI
Yuldasheva D.K. 689
O‘ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIY AHAMIYATI
Mamatov M.N 699
RAQAMLI-ELEKTRON PULLAR VA KRIPTOVALYUTALAR FARQLARI
Matchanov T.M., Matchanova M.I. 703
AXBOROT TIZIMLARI XUSUSIYATLARI
Norinov M.U., Abdulxamid A.I., Oripov O.I., Madaminov F.R. 709
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH SANOATI VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI
Tursunqulov Sh.R. 715
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH MEXANIZMLARI
Abduraxmanova Z.T., Rustamova M.M. 722
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SANOATDA EKOLOGIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH
Hasanov H.X. 727
SHADOW ECONOMY EXPOSED: THE HIDDEN FORCES SHAPING ECONOMY.
Arziev Sh.R.……..... 735
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI
Axmedova D.B.……..... 741

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI XALQARO STANDARTLAR TIZIMIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich
Buxoro davlat universiteti,
i.f.d.,(DSc)., professor
Orcid: 0000-0002-1701-7429
E-Mail: a.j.abdulloyev@buxdu.uz
N.K.Sharapova
i.f.f.d (PhD) katta o‘qituvchi

Annotatsiya. *Maqolada hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari “ESG” tamoyillari tizimida xarakterlanib mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *Barqaror rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, “yashil” iqtisodiyot, strategiya, barqaror rivojlanish strategiyasi, “ESG” tamoyillari, ekologik standartlar.*

Аннотация. *В статье характеризуются возможности адаптации региональных программ устойчивого развития к системе международных стандартов в рамках принципов «ESG» и выявляются возможности их творческого использования в практике нашей страны.*

Ключевые слова: *Устойчивое развитие, экономическая стабильность, социальная стабильность, экологическая устойчивость, «зелёная» экономика, стратегия, стратегия устойчивого развития, принципы «ESG», экологические стандарты.*

Abstract. *The article characterizes the possibilities of adapting regional sustainable development programs to the system of international standards in the framework of the “ESG” principles and identifies the possibilities of their creative use in the practice of our country.*

Keywords: *Sustainable development, economic stability, social stability, environmental sustainability, “green” economy, strategy, sustainable development strategy, “ESG” principles, environmental standards.*

Kirish

Jahonda mintaqani barqaror rivojlantirish mexanizmi samaradorligini oshirish, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, ishlab chiqarishda eko-texnologiyalar, hududlarda “yashil” investitsion dasturlarni amalga oshirish, chiqindilarni qayta ishlash hajmini oshirish, ekologik iqtisodiyot bo‘yicha standartlar tizimini ishlab chiqish asosida hududlarning barqaror rivojlanish salohiyatidan foydalanish unumdorligini oshirish, davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy tamoyillarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va sun’iy

intellektni joriy etish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi

Jahon xo‘jaligi rivojlanishining turli bosqichlarida mamlakatlar, jumladan, ularning hududlari va turli mintaqalarda barqaror rivojlanish mexanizmi samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va hududiy dasturlar tarkibi takomillashib, ularning amal qilish tamoyillari ham yildan yilga kuchaytirib borilmoqda. Xususan, BMT tomonidan e’lon qilingan 2030-yilga qadar bo‘lgan muddatda barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlari bo‘yicha rivojlanish tendensiyasiga erishish imkoniyatini beruvchi davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Jumladan, mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan respublika turli hududlarini kompleks va barqaror rivojlanish tendensiyalariga erishishini ta’minlashda “yalpi hududiy mahsulot hajmi 6,0-7,0 foiz miqdorda o‘sishini ta’minlashga qaratilgan hududning tabiiy geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi, mehnat resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda sanoat, qishloq xo‘jaligi, eksport, investitsiyalar, qurilish, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlar bo‘yicha kichik dasturlarni ishlab chiqish”[1] vazifasi belgilangan bo‘lib, ushbu vazifani samarali hal etilishini ta’minlashda ishlab chiqiladigan dasturlarni xalqaro standartlar tizimiga integratsiyalash talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili

Mintaqani barqaror rivojlantirish mexanizmi amal qilishining xorijiy va milliy amaliyotlarini qiyosiy tahlil qilgan holda ularning bir-biridan farqli jihatlarini tadqiq etishda R. Kostiyukevich, V. Danilyuk, V.V. Dyadik, S. Filatov, V.V. Stroyev, M.A. Bazileva, V.I. Belov kabi yaqin xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot usullari

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullari qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar

Mamlakatda mintaqani barqaror rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari samaradorligini, ularni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari va hozirgi holati bo‘yicha umumlashtirilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish asosida mazkur sohadagi mavjud muammolarni aniqlagan holda xalqaro standartlar tizimiga mos keluvchi dasturlarni ishlab chiqish asosida respublika viloyatlarini barqaror

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-223-son Farmoni, 20.12.2024

rivojlantirish mexanizmi samradorligini oshirishga erishiladi. Jumladan, mamlakatimizda mintaqani barqaror rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat va hududiy dasturlar samaradorligini baholash maqsadida Xalqaro barqaror rivojlanish instituti (International Institute for Sustainable Development – IISD) bilan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan o‘zaro hamkorlikda o‘tkazilgan tadqiqotlari natijalaridan foydalanishni lozim topdik.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakatda mintaqani barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari sifatida quyidagi shartli belgilash o‘tkazilgan:

– iqtisodiy islohotlar samaradorligi sifatida mamlakatning barqaror rivojlanish indeksi belgilangan;

– ekologik barqarorlik yo‘nalishi bo‘yicha mamlakatning atrof-muhit samaradorligi indeksi ko‘rsatkichlari belgilab olingan;

– ijtimoiy yo‘nalishdagi barqarorlik borasida inson taraqqiyoti indeksi belgilangan.

Demak, tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘nggi o‘n yillik davr mobaynida mamlakatda barqaror rivojlanish indeksi bo‘yicha ko‘rsatkichi 9,0 foizga ortib, iqtisodiy yo‘nalishda amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining barqaror rivojlanish mexanizmi ekologik va ijtimoiy yo‘nalishdagi dasturlarga nisbatan samarali ekanligi aniqlangan. Jumladan, so‘nggi uch yil mobaynida mamlakatda inson taraqqiyoti indeksi 7,0 foizga ortib, ijtimoiy yo‘nalishdagi islohotlarni barqaror rivojlanish mexanizmi iqtisodiy va ekologik yo‘nalishlardagi dasturlarga nisbatan samarali ekanligi isbotlangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O‘zbekistonning global reytinglardagi o‘rni[2]

Reyting tizimlari	So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya	So‘nggi uch yillikdagi tendensiya
Atrof-muhit samaradorligi indeksi	+1,90 reyting ball	O‘zgarishsiz qolgan
Barqaror rivojlanish indeksi	+9,0 foiz	+3,0 foiz
Inson taraqqiyoti indeksi	+1,0 foiz	+7,0 foiz

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, 2014-yilga nisbatan inson taraqqiyoti indeksi 2023-yilda 1,0 foizga ortgan bo‘lsa, 2015–2020-yillarda 6,0 foizga kamayib, 2021–2023-yillarda 7,0 foizga ortganligi bilan xaarakterlanadi. Ushbu holat Yangi O‘zbekiston islohotlarining dastlabki bosqichida ijtimoiy yo‘nalishdagi davlat dasturlarining barqaror rivojlanish mexanizmi samarasiz bo‘lib, so‘nggi yillarda rivojlanish vektoriga ega bo‘lib kelayotganligi bilan izohlanadi.

[2] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Jumladan, ekologik yo‘nalishda amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining ham barqarorlik mexanizmini takomillashtirish zaruriyati mavjud ekanligi so‘nggi uch yillikda mamlakatning atrof-muhit samaradorligi bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari o‘zgarishsiz qolganligi, shuningdek, respublikada barqaror rivojlanish indeksining tahlil etilayotgan davrda 3,0 foizga ortganligi respublika viloyatlarining iqtisodiy rivojlanish salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayotganligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot doirasida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va ko‘rsatkichlariga baho berish orqali uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga erishilgan.

2-jadval

O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga xos xususiyatlari[3]

Ko‘rsatkichlar	So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya	So‘nggi uch yillikdagi tendensiya	Rivojlanish trendi xususiyati
YIM o‘sishi	Ijobiy	Ijobiy	Uzoq vaqt mobaynida YIMning o‘rtacha yillik o‘sishi 5,0 foizdan yuqori bo‘lgan
Rasmiy bandlik	Ijobiy	Ijobiy	Yollanib ishlovchilar bilan o‘z-o‘zini band qilish hisobiga rasmiy bandlik ortgan
Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi	Ijobiy	Ijobiy	Ishlab chiqarishning fizik hajmi innovatsiya va yangi texnologiyalar hisobiga ortmoqda
Birlamchi yonilg‘i va energiya ishlab chiqarish	O‘zgarmagan	Ijobiy	Energiya samaradorligi ko‘rsatkichi so‘nggi yillardagi innovatsion faollik hisobiga ortmoqda
Sanoat tarmoqlarida suvga bo‘lgan talab	Salbiy	Salbiy	Ishlab chiqarish hajmining ortishi suv resurslaridan intensiv foydalanish zaruratini oshirmoqda
Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish	Salbiy	Sezilarsiz ijobiy tendensiya	2021-yildan keyingi davrda quyosh va gidroenergetika rivojlantirilmoqda, infratuzilma yetishmovchiligi muammosi mavjud

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida ekologik yo‘nalishdagi barqaror rivojlanish mexanizmi holatiga ham baho berilib, bunda mamlakatda ekologik muammolar tobora avj olib borayotganligi aniqlangan. O‘rganishlarga ko‘ra, mamlakatda infratuzilma yetishmovchiligi, xususan, yo‘l infratuzilmasining talabga javob

[3] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

bermasligi hisobiga avtomobillar tirbandligi hisobiga atmosferaga zararli gazlar chiqish hajmi ortib bormoqda (3-jadvalga qarang).

3-jadval

O‘zbekistonning ekologik barqarorlik yo‘nalishi uchun xos xususiyatlari[4]

Ko‘rsatkichlar	So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya	So‘nggi uch yillikdagi tendensiya	Rivojlanish trendi xususiyati
Statsionar manbalar hisobiga ifloslanish	Salbiy	O‘zgarmagan	Statsionar manbalardan ifloslanish hajmi jadal sur’atlarda ortib borgan, ammo so‘nggi uch yillikda uni barqarorligini ta’minlashga erishilgan
Mobil manbalar hisobiga ifloslanish	Salbiy	Salbiy	Avtomobillar harakatiga yo‘l infratuzilmasining to‘liq javob bermasligi hisobiga tirbandliklar ortib, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar hajmi o‘sib bormoqda. Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari jami bu turdagi gazlarning 88,0 foizini atmosferaga chiqaradi
Maxsus ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha:			
Qattiq jism va moddalar	Salbiy	Salbiy	Sanoat (sement) chiqindilari chiqarish hajmi baland bo‘lib, atrof-muhit va insonlar salomatligi uchun xavfli
Oltingugurt dioksidi (SO2)	Salbiy	Ijobiy	Sanoat tarmoqlarida atrof-muhit va insonlar salomatligi uchun xavfli bo‘lgan energiya chiqindilari hajmi ko‘p
Kobalt (CO)	Salbiy	Ijobiy	So‘nggi yillarda qisqartirishga erishildi
Azot oksidi (NOX)	Salbiy	Salbiy	Sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hisobiga ortmoqda
Uglevodorodlar	Salbiy	Ijobiy	So‘nggi yillarda sezilarli darajada qisqartirishga erishildi

Shu bilan birgalikda, mamlakatda suv resurslaridan foydalanish holati bo‘yicha ham tegishli muammolar mavjud bo‘lib, faqatgina sug‘oriladigan yerlarning 23,0 foiz qismini suv tejovchi texnologiyalar bilan ta’minlashda ijobiy natijaga erishilgan bo‘lib, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida suv resurslari iste’moli, ularda suvning yo‘qotilishi, suvning ifloslanishi kabi yo‘nalishlarda salbiy tendensiyalari kuzatilmoqda (4-jadvalga qarang).

[4] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

4-jadval

O‘zbekistonning suv resurslaridan foydalanish holati bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlari[5]

Ko‘rsatkichlar	So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya	So‘nggi uch yillikdagi tendensiya	Rivojlanish trendi xususiyati
Suv iste’moli (tarmoqlar kesimida)	Salbiy	Salbiy	Sanoat ishlab chiqarishi va kommunal sohada suv iste'moli ortib bormoqda
Tarmoqlarda suv resurslari yo‘qotilishi	Salbiy	Juda salbiy	Magistral va xo‘jaliklararo kanallar va ichki tarmoqlarda katta miqdorda suv yo‘qotiladi, sug‘orish tizimlari past samaradorlikka ega, sanoat korxonalari suvni qayta ishlashdan manfaatdor emas
Suvning ifloslanishi	Salbiy	Salbiy	Aksariyat suv oqimlari o‘rta darajadagi ifloslanish reytingiga ega, yirik sanoat obyektlari va kommunal oqava suvlarini tozalash inshootlari mavjud hududlarda suv sifati mahalliy darajada yomonlashgan
Muzliklarning qisqarishi	Salbiy	Salbiy	Global iqlim o‘zgarishi sababli Markaziy Osiyo muzliklari hajmi 30,0 foizga qisqarib, keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkich o‘sishi prognoz qilinmoqda
Qurg‘oqchilik davomiyligi va chastotasi	O‘zgarmagan	Salbiy	Kuchli qurg‘oqchilik davrlari: 2000-yil, 2008-yil, 2011-yil, 2014-yil va 2018-yillar
Suv tejovchi texnologiyalar	Salbiy	Ijobiy	Sug‘oriladigan yerlarning 23,0 foizi suv tejovchi texnologiyalar bilan ta’minlangan

Shuningdek, mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi sohasini rivojlantirish bo‘yicha “yashil” investitsiya va texnologiyalardan keng foydalanish zaruriyati mavjud ekanligi aniqlandi. Ushbu holat sanoat ishlab chiqarishi hisobiga atrof-muhit va inson salomatligi uchun zararli bo‘lgan maxsus ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi ham ortib borayotganligi bilan izohlanadi (3-jadvalga qarang).

O‘rganishlarga ko‘ra, mamlakatda mintaqani barqaror rivojlantirishning ijtimoiy yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi ekologik va iqtisodiy yo‘nalishdagi islohotlarga nisbatan ijobiy tendensiyaga ega bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Ammo mamlakatda ijtimoiy infratuzilma yetishmovchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar hali hanuz mavjud bo‘lib, ushbu holat chekka hududlardagi aholi yashash punktlariga ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birgalikda, qishloq va shahar hududlari ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi

[5] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

bo‘yicha ham sezilarli darajada farqlanish holatlari mavjud hisoblanadi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

O‘zbekistonning ijtimoiy rivojlanish yo‘nalishidagi barqarorlik xususiyatlari[6]

Ko‘rsatkichlar	So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya	So‘nggi uch yillikdagi tendensiya	Rivojlanish trendi xususiyati
Umr davomiyligi	Ijobiy	O‘zgarmagan	Mamlakat aholining umr davomiyligi tibbiy xizmatlar sifati hisobiga ortib bormoqda
Bolalarning oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishi	O‘zgarmagan	Ijobiy	So‘nggi yillarda bolalar salomatligi, jumladan, ularning sog‘lom va xavfsiz ovqatlanishini ta’minlashga ustuvorlik kuchli qaratilmoqda
Yurak-qon tomir va nafas yo‘li kasalligi	O‘zgarmagan	Ijobiy	Kasallanish darajasi kamaygan, ammo IHTT mamlakatlariga nisbatan hali hanuz yuqori hisoblanadi
Oziq-ovqat va to‘yib ovqatlanish	Ijobiy	Ijobiy	Aholining asosiy turdagi oziq-ovqat, jumladan, sut va sut mahsulotlari, tuxum, meva va sabzavotlar iste’moli sezilarli ortgan
Aholi savodxonligi	Ijobiy	Ijobiy	Aholiga ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlarining qamrovi kengayib, sifati takomillashtirilgan
Aholi daromadlari	Ijobiy	Ijobiy	Aholi jon boshiga real daromadlar respublikaning barcha viloyatlari ortgan
Ijtimoiy infratuzilma	Ijobiy	Ijobiy	Ijtimoiy infratuzilma holati yaxshi-lanishiga qaramay, muammolar mavjud

O‘tkazilgan tahlillarga asoslangan holda mamlakatimizda mintaqaviy barqaror rivojlanish mexanizmi ijtimoiy yo‘nalishda iqtisodiy va ekologik barqarorlik yo‘nalishiga nisbatan samarali amal qilib kelayotganligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda, mintaqaviy barqaror rivojlanish mexanizmining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli muammolar mavjud bo‘lib, eng ko‘p muammoli vaziyatlar ekologik barqarorlik yo‘nalishida bo‘lib, bu turdagi muammolar respublika hududlarining iqtisodiy rivojlanish salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoniyatini bermayotganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda mamlakatimiz hududlari kesimida mintaqaviy barqaror rivojlanish mexanizmini xalqaro standartlarga moslashtirishda ilg‘or xorij amaliyotiga asoslanishni lozim topdik.

Jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ga a’zo bo‘lgan mamlakatlarda mintaqaviy barqaror rivojlanish mexanizmlari BMT tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar tizimini o‘zaro mutanosiblashgan holda qo‘llab kelayotganligini bilan xarakterlanadi. O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, barqaror rivojlanish mexanizmida ekologik muammolar ustuvor ahamiyat kasb etuvchi

[6] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

mamlakatlar amaliyotida “ESG” tamoyillariga asoslangan holda “yashil” investitsiyalarni jalb qilishga ustuvorlik qaratiladi. Shu bilan birgalikda, bugungi kunda “ESG” tamoyillari tizimi global investitsion bozorda investorlar uchun ustuvor ahamiyat kasb etuvchi yo‘nalishlarda milliy iqtisodiyot tarmoqlariga o‘z kapitalini joylashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

“ESG” tamoyillari tizimi – bu investorlar uchun barqarorlik va javobgarlik mezonlari sifatida xarakterlanib, faqatgina moliyaviy foyda ko‘rish emas, balki ekologik (atrof-muhitning ifloslanishi, energiya samaradorligini oshirish, resurs tejamkorligini ta’minlash), ijtimoiy (mehnat huquqlarini qimoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va aholi bandligini rag‘batlantirish) va boshqaruv (davlat boshqaruvida shaffoflik, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni cheklash) bo‘yicha barqaror rivojlanish mexanizmi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan holda Yangi O‘zbekiston sharoitida “Yashil” energetika siyosati, karbon chiqindilarini qisqartirish (COP 26 – Parij kelishuvi), davlat-xususiy sheriklik (DXSh) orqali ekologik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan xarakterli hisoblanadi.

6-jadval

Yangi O‘zbekistonda “ESG” tamoyillari orqali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish mumkin bo‘lgan ustuvor sohalar[7]

Sohalar	Sabablar
Qayta tiklanuvchi energiya (quyosh va shamol energiyasi)	Tabiiy iqlim sharoiti, energiya ehtiyoj yuqori
Suv tejovchi texnologiyalar	Qurg‘oqchilik, suv resurslari tanqisligi
Eko-infratuzilma	Qattiq chiqindilarni qayta ishlash, energiya, samarador uylar
Barqaror qishloq xo‘jaligi	Agroeksport va organik mahsulot yetishtirish salohiyati
“Yashil” transport	Avtobuslar, velosiped infratuzilmasi, elektromobillar

O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston sharoitida “ESG” tamoyillari tizimi asosida qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol energiyasi), suv tejovchi texnologiyalar, eko-infratuzilma, barqaror qishloq xo‘jaligi va “yashil” transport kabi sohalarga “yashil” investitsiyalarni jalb qilish mumkin bo‘ladi (6-jadvalga qarang).


Shu bilan birga, “ESG” tamoyillari tizimi asosida davlat tomonidan amalga oshiriladigan islohotlarning strategik yo‘nalishlari (1-rasmga qarang) quyidagilar bilan boyitilishi talab etiladi:

[7] Muallif tomonidan tuzilgan.

– respublika viloyatlari uchun “ESG” pasportlarini ishlab chiqish – bunda har bir hududning “ESG” ko‘rsatkichlarini baholash orqali olingan natijalarni investorlarga taqdim etish talab etiladi;

– “Yashil” investitsiya agentligini tashkil etish – bu orqali “ESG” loyihalarini moliyalashtirishda DXShning ixtisoslashtirilgan yo‘nalishi shakllantiriladi;

– “ESG” standartlariga muvofiq hujjatlashtirish – bunda yangi investitsion loyihalarni xalqaro “yashil” obligatsiyalar bozoriga chiqarish imkoniyatiga erishiladi;



1-rasm. Yangi O‘zbekistonda “ESG” tamoyillari tizimini joriy qilishning strategik yo‘nalishlari[8]

– jamoatchilikni jalb qilish va shaffof monitoring tizimini shakllantirish – mahalliy loyihalarda aholi ishtirokini ta’minlash va ochiq ma’umotlar platformalarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida taklif etilayotgan “ESG” tamoyillari tizimi asosida yashil investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini hududlarning “yashil” investitsion salohiyatining ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda “ESG” tamoyillari tizimining tarkibiy yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi tartib asosida shartli baholashni amalga oshirdik:

– bir yulduz (☆) – past daraja;

– ikki yulduz (☆ ☆) – o‘rtadan past daraja;

– uch yulduz (☆ ☆ ☆) – o‘rta daraja;

– to‘rt yulduz (☆ ☆ ☆ ☆) – o‘rtadan yuqori darajada;

– besh yulduz (☆ ☆ ☆ ☆ ☆) – yuqori darajada.

[8] Muallif tomonidan tuzilgan.

7-jadval

Respublika viloyatlarining “ESG” tamoyillari asosida “yashil” investitsion salohiyati bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari[9]

Viloyat / Hudud	Ekologik (E)	Ijtimoiy (S)	Davlat (G)	Umumiy “ESG” ball	Yashil investitsiya salohiyati	Izoh
Toshkent shahri	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑ ⭑	13 / 15	Juda yuqori	Raqamlashtirish, transparentlik yuqori
Toshkent viloyati	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑ ⭑	12 / 15	Yuqori	Sanoatlashgan, yaxshilangan boshqaruv
Navoiy viloyati	⭑ ⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	12 / 15	Juda yuqori	Quyosh energiyasi salohiyati yuqori
Buxoro viloyati	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	10 / 15	O‘rtadan yuqori	Qayta tiklanuvchi energiya uchun qulay
Samarqand viloyati	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	11 / 15	Yuqori	Turizm va boshqaruv birgalikda o‘smoqda
Surxondaryo viloyati	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	9 / 15	O‘rtadan past	Agrosanoat, lekin ESG yondashuv kamroq
Qashqadaryo viloyati	⭑ ⭑	⭑ ⭑	⭑ ⭑	6 / 15	Past	Suv tanqisligi, ESG institutsional zaif
Farg‘ona viloyati	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	10 / 15	O‘rtadan yuqori	Agroinnovatsiyalarga salohiyat bor
Andijon viloyati	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	11 / 15	Yuqori	Qishloq xo‘jaligi markazlaridan biri
Namangan viloyati	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	10 / 15	O‘rtadan yuqori	Yoshlar loyihalari uchun qulay muhit
Jizzax viloyati	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	9 / 15	O‘rtacha	Yashil sanoat uchun imkoniyat bor
Sirdaryo viloyati	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	9 / 15	O‘rtacha	Agrar-sanoat zonasi sifatida rivojlanmoqda
Xorazm viloyati	⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑	10 / 15	O‘rtadan yuqori	Turizm, agrar loyihalar uchun ochiq
Qoraqalpog‘iston Resp.	⭑ ⭑ ⭑ ⭑ ⭑	⭑ ⭑	⭑ ⭑ ⭑ ⭑	11 / 15	Donor asosida	Donor va ekologik regeneratsiya markazi

[9] Muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan mezonlar asosida respublika viloyatlarining “ESG” tamoyillari tizimiga asoslangan holda “yashil” investitsiyalarni jalb qilish salohiyati bo‘yicha baholash natijalari 7-jadvalda keltirib o‘tildi. O‘tkazilgan baholash natijalari quyidagi xulosalarni olish imkonini berdi:

– Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari “ESG” tamoyillari tizimi bo‘yicha ball diapazoni yuqori (13–15 ball yoki yulduz) bo‘lgan hududlar hisoblanib, ular institutsional (yoki davlat boshqaruvi samaradorligi) va texnik salohiyati yuqoriligi bilan xarakterlanadi;

– respublikaning Samarqand, Andijon, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari “ESG” tamoyillari tizimi bo‘yicha ball diapazoni o‘rtadan yuqori bo‘lib (10–12 ball yoki yulduz), ular “yashil” investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ma’lum salohiyatga ega holda loyihalarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi;

– Namangan, Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari o‘rta darajadagi (7–9 ball yoki yulduz) “ESG” tamoyillari tizimi bo‘yicha ball diapazoniga ega bo‘lib, ushbu hududlarda “ESG” tamoyillariga asoslangan transformatsiya va hududiy dasturlarni ishlab chiqishga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq;

– respublikada faqatgina Qashqadaryo viloyatining “ESG” tamoyillari tizimi bo‘yicha ball diapazoni past darajada (7–9 ball yoki yulduz) bo‘lib, hududda energiya va boshqaruv bo‘yicha investitsiyalarni jalb qilishdan avval hududiy islohotlarni kuchaytirish zarurati mavjud ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan “ESG” tamoyillari tizimiga asoslangan holda respublika viloyatlari kesimida belgilangan tarmoqlarga “yashil” investitsiyalarni jalb qilish orqali mintaqaviy barqaror rivojlanishning ekologik va iqtisodiy yo‘nalishdagi rivojlanish salohiyatidan foydalanish samaradorligi ortadi. Shu bilan birga, hududlarga bu turdagi “yashil” investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar davlat va hududiy dasturlar asosida barqaror rivojlanish mexanizmini xalqaro standartlarga integratsiyalash imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Thomas, D (2023) Annual Report on the U.S. Manufacturing Economy: 2023. (National Institute of Standards and Technology, Gaithersburg, MD), NIST Advanced Manufacturing Series 600-13-upd1. – 64 p.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo‘yicha mas’uliyatni yanada oshirish to‘g‘risida”gi PQ-4426-son qarori, 24.08.2019 y. https://lex.uz/ru/docs/4486600

3. Van Zanten J. A., & Van Tulder R. Multinational enterprises and the Sustainable Development Goals: An institutional approach to corporate engagement. Journal of International Business Policy, Vol. 1 (3-4), 2018. – pp. 208–233.

4. Tsolakis N., Niedenzu D., Simonetto M., Dora M., & Kumar M. Supply network design to address United Nations sustain-able development goals: A case study of block chain implementation in Thai fish industry. Journal of Business Research, Vol. 131, 2021. – pp. 495–519

5. Yin X., Chen J., & Li J. Rural innovation system: Revitalize the countryside for a sustainable development. Journal of Rural Studies, Vol. 93, 2022. – pp. 471–478.

Жумладан, уларнинг фикрича, структуранинг ривожланишида етуклик босқичи, яъни, трансформация (шаклларнинг ўзгариш) жараёни алоҳида рол ўйнайди ва у бошқа босқичларда ҳам ижобий ўзгаришлар бўлишига асос бўлади. Зотан, иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришларнинг кризис даврида бир унсур бошқа бир унсурга ўз ўрнини бўшатиб беради. Туб ўзгариш (коллапс) даврида эса иқтисодиёт ўз шаклини ўзгартиради ва унинг эскиси ўрнига янги таркиби шаклланади деган ғояни илгари суришади. Бизнингча ҳам, бу ғояни илмий-назарий асосланган деб қабул қилиш мумкин. Тармоқ тузилмасида таркибий ўзгаришлар мураккаб бир шаклдан бошқа ўзига хос янги шаклга ўтувчи тизим ҳисобланади ва ушбу трансформация жараёнида манфаатлар тўқнашуви содир бўлиб, улар ўзаро таъсир ва уйғунликда трансформацияланади. Демак, айтиш мумкинки, иқтисодиёт тармоқларини модернизация қилиш, моддий бойликлар тақсимоти тизимини бозор конъюнктурасига мос ташкил қилиш, ижтимоий-иқтисодий муносабатларни ривожлантириш тадбирларини ўз вақтида амалга ошириш қўйилган мақсадларга эришишда муҳим аҳамиятга эга (2-расм).

[22] Галиниене Б., Витас А. “Актуальни проблеми економики Киев. - №2 (128), 2012 .- с. 3.



2- расм. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши таркибий тузилмасининг мақсадли туркумланиши[23]

Тадқиқотларга кўра, ишлаб чиқариш структураси атамаси собиқ иттифоқ ва хорижлик бошқа олимлар томонидан ўрганилган ва ҳозирда ҳам тадқиқ этилмоқда. Ўзбек тили атамашунослигида “структура” сўзи “таркиб”, “тузилма” каби ўхшаш мазмундаги сўзлар синоними ўрнида қўлланилмоқда. Лекин, улар қўлланилиш йўналишига кўра мазмунан бир-биридан фарқланиш хусусиятига эга. “Таркиб” деганда “негиз”, “асос” ва “бирор бир бошланғич мақсаднинг асоси” каби мазмунларни англаш мумкин. “Тузилма” эса “бир бутунлик”, “яхлитлик” ёки “тўлиқлик” мазмунига эга бўлиб, иқтисодиёт масалалари ёхуд бевосита ишлаб чиқариш структураси мамлакат иқтисодиётининг йирик тармоқлари ва бир неча йирик тармоқлар доирасида таҳлил этилганда “ишлаб чиқариш таркиби” ёки “қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш таркиби” жумласини қўллаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Умумиқтисодиёт масалалари агар иерархик тизимда йирик тармоқлардан кичик тармоқлар таҳлилига қаратилганда “ишлаб чиқаришнинг тармоқ тузилмаси” жумласини қўллаш лозим. Бу эса “қишлоқ хўжалиги тармоқ ишлаб чиқариши тузилмаси” ва “ишлаб чиқариш таркиби” тушунчаларининг фарқларини ажратиш имконини беради. Бундан ташқари, бизнингча, ялпи

[23]Илмий изланишлари асосида ишлаб чиқилган.

ички маҳсулотни яратишда ўзаро боғлиқ фаолият юритувчи тармоқлар, жумладан, саноат ва қишлоқ хўжалиги, уларнинг маҳсулот етиштирувчи ва турли хизматлар кўрсатувчи ички хўжалик субъектларидан иборат тизимини “ишлаб чиқариш таркиби” деб қабул қилиш мумкин. “Тармоқ тузилмаси” эса тармоқлар таркибидан иборат бўлган тизимнинг ички тузилишини акс эттириб, улар ўртасидаги алоқаларни мувофиқлаштириш имконини яратади.

Демак, юқоридаги атамалар моҳияти ва йўналишлар бўйича қўлланиш жиҳатларига асосан қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш таркиби ички хўжалик бўлинма ва тармоқларининг ўзаро боғлиқ ривожланиши жиҳатидан ўзида икки йирик асосий ўсимликчилик ва чорвачилик тармоқларини бирлаштириб, маҳсулот (товар) етиштирувчи хўжаликлар даромадини ошириш имконини таъминлайди. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш таркибидаги ушбу икки йирик тармоқ негизида бир қанча қуйи бўғиндаги ишлаб чиқариш соҳалари шаклланади ва уларнинг ҳар бири ўзига хос хусусиятларига асосан, биринчидан, алоҳида ва, иккинчидан, ўзаро боғлиқлик ва таъсирга эгалиги боис узвий алоқада фаолият юритади. Шу жиҳатдан А. Карпухин “ишлаб чиқариш таркибий тузилмасини биринчи навбатда техник ривожланиш йўналишлари ва табиий-иқлим ресурслар ўзлаштирилиши, аҳоли турмуш даражасининг ўсиши натижасида талабнинг ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда шакллантириш зарурлигини” таъкидлайди[24]. П.П. Логинов “ишлаб чиқариш таркибини такомилаштиришни тармоқлараро ва муайян тармоқ ички субъектларини мақбул жойлаштириш ва ихтисослаштириш асосида ишлатиладиган ресурслар ҳисобига катта ҳажмда миллий даромад олиш ва ижтимоий харажатларни максимал даражада камайтиришнинг зарур омили”[25] деб ҳисоблайди. Бунда, бизнингча, маҳсулот ишлаб чиқариш таркибини бозор конъюнктураси ва иқлим ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда прогноз қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Прогноз мезонлари ва омилларини танлаш, стратегиясини ишлаб чиқиш, тармоқ ва хўжаликлар фаолиятини режалаштириш учун асос бўлиш керак. Бозор конъюнктурасини ўрганиш корхона янги маҳсулотларни ўзлаштириш, ишлаб чиқариш ва бозорга чиқаришни мақсад қилганда айниқса кескинлашади. Шу боис, “мамлакатдаги иқтисодий вазиятни, иқтисодиётнинг алоҳида тармоқлари ва маҳсулот бозорларини, шунингдек, уларнинг таъсири остида баъзан ишлаб чиқариш ҳажми, ташқи савдо, муайян

[24] Карпухин П.Т. “Структура народного хозяйства и производительность труда”. – Москва: Издательства “Экономика”, 1968. – с. 5.

[25] Логинов В.П. Структура народного хозяйства в условиях интенсификаци экономики.- Москва: «Наука», -1986. - с.16.

маҳсулот нархида жуда тез ўзгаришларни ўрганиш жуда муҳим”.[26] Иқтисодчи олим Ю. Андреев “корхона ишлаб чиқариш структурасини маҳаллий аҳолининг азалий анъаналари, ҳудудий ихтисослашув, қайта ишловчи корхоналар, уларга бириктирилган хомашё ҳудудлари ва бозор талабларини ҳисобга олган ҳолда танлаш”ни[27] тавсия қилади. Демак, бизнингча, ишлаб чиқариш таркиби ва тузилмаси иқтисодий категория сифатида ижтимоий меҳнат тақсимоти жараёнида тармоқларнинг илмий асосланган жойлашиши ва ихтисослашуви, қўшилган қиймат яратиш занжирида кооперация ва интеграция муносабатлари, иштирокчилар манфаатлари уйғунлиги, улушли табақаланиши ва улар фаолиятини модернизациялаш ва диверсификациялашни ифодалайди.

Хулоса ва тавсиялар

Қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш таркибини иқлим ва бозор конъюнктураси ўзгаришлари шароитида маҳсулот (товар, хизмат)лар ишлаб чиқарувчилар иқтисодий самарадорлигини ошириш мақсадида ташкил қилиш қуйидаги устувор вазифаларни ҳал этишни тақазо қилади:

- қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш ва мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш йўналишларида ишлаб чиқариш, ижтимоий ва бозор инфратузилма субъектлари томонидан кўрсатиладиган хизмат турлари ҳажми ва сифатини ошириш, давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш механизмларини такомиллаштириш ва жорий этиш муҳим аҳамият касб этади. Бу тизим деярли барча давлатларда, шу жумладан ривожланган давлатларда ҳам маълум чегара ва доирада амалга оширилади.

- қишлоқ хўжалик маҳсулотлари аксарият ҳолларда ҳаёт учун бирламчи зарур маҳсулот ҳисобланади, аммо, уларнинг баъзи турларини бошқаси билан алмаштириб бўлмайди. Шу боис, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш таркибини такомиллаштириш жараёнида ушбу хусусиятни эътиборга олиш лозим. Чунки, баъзи қишлоқ хўжалик маҳсулотлари турларига бўлган талаб уларнинг баҳоси ошганлиги билан камаймайди. Бу ҳолат қишлоқ хўжалик маҳсулотлари айрим турларини ишлаб чиқаришни рағбатлантириш, тармоқни ривожлантириш ва бошқа устувор вазифаларни, жумладан, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш муаммоларини ҳал этишда алоҳида эътиборга олишни тақозо қилади;

- қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва унга бўлган талаб бозор конъюнктурасига боғлиқ ҳолда таркибан ўзгариб, истеъмол қилишнинг физиологик, миллий, ҳудудий ва иқлимий хусусиятларига асосланган

---

[26] Прогнозирование рыночной конъюнктуры: краткий курс лекций для студентов. 38.03.02 – Менеджмент / Сост.: С.В. Евстафьева // ФГБОУ ВПО «Саратовский ГАУ». – Саратов, 2013. – 70 с.7 - 8 .

[27] Андреев Ю. “Оптимизация производственной и социальной структуры сельскохозяйственнқх предприятий”. Журнал:- АПК: экономика, управление. - Москва , 2001. – № 4.- с 60-65.

меъёрий ўлчамларига, ички бозорнинг қишлоқ хўжалик маҳсулотлари, шу жумладан, озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўйиниш даражасига, аҳоли истеъмол қилиш меъёри ва тулов қобилиятига бевосита боғлиқ бўлади;

- қишлоқ хўжалик маҳсулотларига бўлган талаб кам ўзгарувчан ва кам эластик бўлганлиги туфайли уларнинг нархлари сезиларли ўзгармайди, лекин, шу билан бирга, тармоқда фойдаланиладиган саноат маҳсулотлари, хизмат кўр-сатиш харажатларини меъёрлаш ва мувофиқлаштиришни талаб қилади. Чунки, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи субъектлар кенгайтирилган такрор ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш имконини берувчи даромадга эга бўлиши зарур, бу манба ўз навбатида уларга хизмат қилувчи тегишли корхона ва соҳалар ривожланишига замин яратади;

- таҳлиллар кўрсатишича, айрим қишлоқ хўжалик маҳсулотларига талаб юқори бўлсада, лекин, улар истеъмолчига етмасдан жойларда ва бозорларда ҳаракатсиз туриб қолиш ҳолатлари мавжуд. Бу маълум даражада маҳсулотлар сифатининг бузилиши ва нобуд бўлишига сабаб бўлади. Шу сабабларга кўра, қишлоқ хўжалиги товар маҳсулотларини сифатли ва ўз муддатида сотишни таъминловчи иқтисодий муҳит яратиш, рағбатлантирувчи механизм, усуллар ва воситалардан самарали фойдаланиш чора-тадбирларини жорий қилиш мақсадга мувофиқ;

- қишлоқ хўжалигида катта хажмда мавсумий ва аксарият тез бузилувчан маҳсулот турлари етиштирилади. Уларни қисқа муддатларда тайёрлаш, қайта ишлаш, ташиш, сотиш ва экспорт қилиш жараёнларини манфаатдор субъектлар ҳамкорлигида кооперация ва интеграция муносабатлари асосида ташкил этиш ва ривожлантиришни тақозо этмоқда. Бу устувор вазифани ҳал этишда давлат-шериклик тизимини бозор конъюнктураси талабларига мос такомиллаштириш, ҳуқуқий-меъёрий ва ташкилий-иқтисодий механизмларини татбиқ этиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Прогнозирование рыночной конъюнктуры: краткий курс лекций для сту-дентов направления подготовки 38.03.02 Менеджмент / Сост.: С.В. Евстафьева // ФГБОУ ВПО «Саратовский ГАУ». – Саратов, 2013. – 70 с.

2. Энциклопедия маркетинга. https://www.marketing.spb.ru: https: //www.marketing.spb.ru/lib-mm/mibif/6/ls1_1.htm, Обновлено: 20.11.2017

4. Толковый словарь Ожегова. С.И. Ожегов, Н.Ю. Шведова. -1949 й. 1992 йилда қайта ишланган нашри.

5. Карпухин П.Т. Структура народного хозяйства и производительность труда. - Москва, Издательства “Экономика”. – 1968. –стр 5.

6. Красильников О.Ю. Структурные сдвиги в экономике: теория и методо-логия. Саратов, изд-во “Научная книга”, 1999. 74 с. 6-стр.

7. Нехамкин А.Н. Рыночная экономика: государственное регулирование НТП.-М.:Издательство МГУ, 1993.-129 с.

8. Н.А.Пиличев, А.М.Васильев. Управление сельскохозяйственным произ-водством.- М:.//Агропромиздат, 1987.- стр 12.

9. Шокин Н.А. “Теоритические основы формирования эффективной струк-туры народного хозяйства».- М.: Наука, 1984.-с 11.

10. Мейергойз И.М.“Территориальная структура хозяйства”.- Новоси-бирск: Наука, 1986.-с. 25.

11. Камовский Н.П. “Совершенствование структуры сельскохозяйственного производства Брянской области». Автореферат диссертации на соискание уче-ной степени кандидата эконом. наук.- (электронный ресурс):- М.:РГБ, 2003.- с 9.

12. Галиниене Б., Витас А. “Актуальни проблеми экономики Киев. - №2 (128) 2012 г.- с.3.

13. Логинов В.П. Структура народного хозяйства в условиях интенсифи-кации экономики. - Москва:.«Наука», 1986.- с.16.

15. Андреев Ю. “Оптимизация производственной и социальной структуры сельскохозяйственных предприятий”. - Журнал //АПК: экономика, управление. -М:. 2001. – № 4 - с. 60-65.

BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Asamxodjayeva Shoira Shukrullayevna
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti
E-mail: shoira9173@gmail.com
Orcid: 0000-0002-6124-2324

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dastlab barqaror rivojlanish va yashil energiyaning ma'nosi, uning asosiy jihatlari o‘rganildi, so‘ngra yashil energiya texnologiyalari tahlil qilindi. Shuningdek yashil energiya texnologiyalarining afzalliklari hamda kamchiliklari ko‘rib chiqildi. Ish so‘nggida mavzuga doir xulosa va tavsiyalar shakllantirildi.*

Kalit so‘zlar: *yashil energiya, barqaror o‘sish, uglerod chiqindilari, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, gidroenergetika, geotermik energiya, biomassa energiyasi, issiqxona gazlari, energiya samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье сначала было изучено значение устойчивого развития и зеленой энергетики, ее основные аспекты, а затем проанализированы технологии зеленой энергетики. Также были рассмотрены преимущества и недостатки технологий зеленой энергетики. По итогам работы были сформированы выводы и рекомендации по теме.*

Ключевые слова: *зеленая энергия, устойчивый рост, выбросы углекислого газа, солнечная энергия, энергия ветра, гидроэнергетика, геотермальная энергия, энергия биомассы, парниковые газы, энергоэффективность.*

Abstract. *This article first studied the meaning of sustainable development and green energy, its main aspects, and then analyzed green energy technologies. Advantages and disadvantages of green energy technologies were also considered. At the end of the work, conclusions and recommendations on the topic were formed.*

Key words: *green energy, sustainable growth, carbon emissions, solar energy, wind energy, hydropower, geothermal energy, biomass energy, greenhouse gases, energy efficiency.*

Kirish

Mamlakatimizda barqaror rivojlanish bo‘yicha bir qator huquqiy asoslar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qaroriga ko‘ra “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qabul qilingan bo‘lib, unda barqaror rivojlanishning bir qator maqsadlari belgilangan. 2030- yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari orasida hamma uchun arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan universal foydalanishni ta’minlash ta’kidlangan. Ushbu maqsadga erishish yashil energiya, energiya samaradorligi va muqobil energiya manbalarini ishlab chiqarish va iste’mol qilishda uglerod chiqindilarisiz, energiya samaradorligi va resurs samaradorligini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda muqobil energiya manbalaridan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar quyosh, shamol, gidro, bioenergetikani rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish kabi maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning so‘zlariga ko‘ra, kelgusi besh yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan, bu esa issiqxona gazlari chiqindilarini qariyb 16 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi [2]. Muqobil energiyadan foydalanish O‘zbekistonda energiya xavfsizligini ta’minlash, ekologik muvozanatni saqlash, sanoat va ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirish uchun zarur va dolzarb yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Barqaror rivojlanish - bu insoniyatning bugungi ehtiyojlari kelajak avlodlar ehtiyojlarini buzmasdan qondiriladigan ijtimoiy rivojlanish kontseptsiyasidir [3].

Barqaror rivojlanish - bu davlat, xalq va millatning ijtimoiy taraqqiyoti hamda ekologik muhit o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadigan atama. Bu kontseptsiya birinchi marta 1987- yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha xalqaro hisobotida taklif qilingan [4].

Barqarorlik kontseptsiyasi oltita mezonga asoslanadi: atrof-muhit va tabiiy resurslar, energiya almashinuvi, barqaror harakatchanlik, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy hamjihatlik va inklyuzivlik, boshqaruv va fuqarolik [5].

Sanoat inqilobidan beri dunyoning ko‘pgina mamlakatlari energiya sanoatida qazib olinadigan yoqilg‘ilar ustunlik qildi. Bu global iqlimga, shuningdek, inson salomatligiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Global issiqxona gazlari chiqindilarining to‘rtdan uch qismi energiya uchun qazib olinadigan yoqilg‘ilarni yoqish natijasida yuzaga keladi. Fotoalbom yoqilg‘ilar katta miqdordagi mahalliy havo ifloslanishi uchun javobgardir - bu har yili kamida 5 million erta o‘limga olib keladigan sog‘liq muammosidir [6].

Agar energiya ishlab chiqarish jarayonini hisobga oladigan bo‘lsak, muqobil energiyaning atrof-muhitga salbiy ta’siri an’anaviy energiya manbalariga qaraganda ancha past bo‘ladi, chunki muqobil energiya texnologiyalari ish paytida yoqilg‘ini iste’mol qilmaydi va tugaydigan tabiiy resurslardan foydalanmaydi. Ular texnogen ofatlarning minimal xavfi bilan ajralib turadi. Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari o‘z hayot aylanishi davomida gazda ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalariga qaraganda 120 baravar, ko‘mirga qaraganda 250 baravar kamroq issiqxona gazlarini chiqaradi [7].

Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish qazib olinadigan yoqilg‘ilarni yoqishdan ko‘ra ancha kam emissiya hosil qiladi. Hozirgi vaqtda chiqindilarning asosiy ulushini tashkil etuvchi qazib olinadigan yoqilg‘idan qayta tiklanadigan energiyaga o‘tish iqlim inqirozini hal qilishning kalitidir. Qayta tiklanadigan energiya hozirda ko‘pchilik mamlakatlarda arzonroq va qazib olinadigan yoqilg‘iga qaraganda uch baravar ko‘p ish o‘rinlarini yaratadi [8].

Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish sayyoramiz uchun juda muhimdir. Fotoalbom yoqilg‘ilarni yoqish havoga juda ko‘p karbonat angidridni chiqarib, sayyoramiz iqlimiga zarar yetkazishi mumkin. Qayta tiklanadigan energiya bu zararli gazlarni kamaytiradi, bu esa global isishga qarshi kurashda yordam beradi [9].

Toza yoki “yashil” energiya rivojlanayotgan soha sifatida ish o‘rinlarini yaratadi, elektr tarmoqlarini mustahkam qiladi, rivojlanayotgan mamlakatlarda energiyadan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi va energiya to‘lovlarini kamaytirishga yordam beradi. Bu omillarning barchasi so‘nggi yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalarining tiklanishiga hissa qo‘shdi, shamol va quyosh elektr energiyasi ishlab chiqarish bo‘yicha yangi rekordlarni o‘rnatdi [10].

Odamlar sonining ko‘payishi bilan ushbu qazib olinadigan yoqilg‘ilarni iste’mol qilish darajasi ham oshadi. Geologlar uchun ham xom neftning yangi zaxiralarini topish va qazib olish tobora qiyinlashmoqda. Iqtisodchi olimlar “neftga 1 yil yoki 100 yil qoldimi, qolgan qismi yerda qolishi kerak, chunki u barqaror emas - u oxir-oqibat tugaydi va shuning uchun biz qazib olinadigan yoqilg‘idan keyingi dunyoga hozirdan tayyorgarlik ko‘rishimiz kerak”, deb ta’kidlaydilar [11].

Tadqiqot metodologiyasi


Barqaror rivojlanishda yashil energiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha jahon olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish, ma’lumotlarni to‘plash, to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, sintez qilish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlash va iqtisodiy rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan energiya resurslariga bog‘liq. Tabiiy energiya resurslarining jahonda aniqlangan zaxiralari energiya iste’molining hozirgi darajasini saqlab qolgan holda keyingi ellik yil davomida energiyaga bo‘lgan ehtiyojni qondirish imkonini beradi [12].

Iqtisodiy rivojlanish, o‘z navbatida, energiyaga bo‘lgan ehtiyojni va energiya tanqisligi xavfini oshiradi. Shu bois hozirda jahon hamjamiyati yashil energetikani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Xo‘sh, “yashil energiya” deganda nimani tushunamiz? Yashil energiya atrof-muhitga minimal ta'sir ko‘rsatadigan qayta tiklanadigan, barqaror manbalardan ishlab chiqarilgan energiyani anglatadi. U ishlab chiqarish jarayonida uglerod chiqindilari yoki ifloslantiruvchi moddalarni atrof-muhitga kam yoki umuman chiqarmaydigan toza energiya turlarini o‘z ichiga oladi. Yashil energiyaga o‘tish iqlim o‘zgarishini yumshatish, ifloslanishni kamaytirish va barqaror energiya kelajagini rag‘batlantirish uchun juda muhimdir.

Yashil energiya texnologiyalari – bu tabiiy resurslardan (quyosh, shamol, suv, biomassa, geotermal issiqlik va boshqalar) foydalanib, atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytiruvchi va ekologik barqaror energiya ishlab chiqaruvchi texnologiyalar majmuidir. Bu texnologiyalar iqlim o‘zgarishini kamaytirish, uglerod chiqindilarini pasaytirish va energetik mustaqillikka erishishda muhim ahamiyatga ega.



1-rasm. Yashil energiya texnologiyalarining asosiy turlari

Manba. Iqtisodiy adabiyotlarni o‘rganish natijasida shakllantirildi.

Quyida yashil energiya texnologiyalarining asosiy turlari va ular qanday ishlashi haqida qisqacha ma’lumot berilgan:

1. Quyosh energiyasi texnologiyalari:

– Fotovoltaik panellar – quyosh nurlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektr energiyasiga aylantiradi;

– Quyosh kollektorlar – suv yoki havoni isitish uchun ishlatiladi;

– Quyosh minoralari – ko‘plab oynalar yordamida quyosh nurlarini bitta nuqtaga jamlab, bug‘ hosil qiladi va turbinani aylantiradi.

Uning afzalliklari toza, barqaror, past ekspluatatsiya xarajati bo‘lsa, kamchiliklari ob-havoga bog‘liqligi, dastlabki o‘rnatish narxi yuqoriligidir.

2. Shamol energiyasi texnologiyalari:

– Shamol turbinalari – shamol harakat energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi;

– Offshore (dengizdagi) shamol parklari – kuchliroq va barqaror shamoldan foydalanadi.

Uning afzalliklari yirik miqyosda arzon va toza energiya bo‘lsa, kamchiliklari shamol kuchiga bog‘liqligi, tabiiy landshaftga ta’sirida ko‘rinadi.

3. Gidroenergiya texnologiyalari:

– Gidroelektr stansiyalar (GES) – suv oqimi yordamida turbinalarni aylantirib, elektr energiyasi hosil qiladi;

– Mini-GES – kichik daryolar ustida ekologik xavfsiz energiya manbai sifatida ishlaydi.

Uning afzalliklari barqaror energiya manbai bo‘lsa, kamchiliklari ekotizimga ta’siri, katta investitsiyalar talab etishidir.

4. Geotermal energiya texnologiyalari:

– Yer osti issiqligidan foydalanib, issiq suv, bug‘ va elektr energiyasi ishlab chiqaradi;

– Ko‘pincha vulqonlar faol bo‘lgan hududlarda qo‘llaniladi.

Uning afzalliklari doimiy va barqaror manba ekanligida, kamchiliklari esa faqat ayrim geografik hududlarda samarali ekanligidadir.

5. Biomassa va bioyoqilg‘i texnologiyalari:

– Biogaz qurilmalari – organik chiqindilar (go‘ng, oziq-ovqat qoldiqlari)dan metan gazi hosil qiladi;


– Bioetanol va biodizel – o‘simlik moylari yoki qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan tayyorlanadi.

Uning afzalliklari chiqindilarni kamaytiradi, qayta tiklanuvchi ekanligida namoyon bo‘lsa, kamchiliklari esa uglerod chiqindilari bor, lekin an’anaviy yoqilg‘ilarga qaraganda ancha kamligida ko‘rinadi.

Bulardan tashqari hozirgi kunda energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalardan ham keng foydalanilmoqda. Energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar – bu kamroq energiya sarflab, ko‘proq foyda olish

imkonini beruvchi yechimlar bo‘lib, ular ekologik barqarorlikni, iqtisodiy tejamkorlikni va energiya xavfsizligini ta’minlaydi.

Bugungi kunda dunyo energiya iste’molining 30–40% gacha qismini tejash salohiyatiga ega texnologiyalar ishlab chiqilgan.



2-rasm. Energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar yo‘nalishlari

Manba. Iqtisodiy adabiyotlarni o‘rganish natijasida shakllantirildi.

Asosiy texnologiya yo‘nalishlari:

1. Binolarda energiya samaradorligini ta’minlovchi tizimlar:

– Issiqlik izolyatsiyasi, ikki yoki uch qavatli derazalar, aqlli termostatlar.

– Aqlli binolar, ya’ni BEMS tizimlari (energiya boshqaruv tizimlari) yordamida 15–25% energiya tejash mumkin. BEMS - bu isitish, ventilyatsiya, konditsionerlik, yorug‘lik va quvvat tizimlari kabi binoning elektr va mexanik jihozlarini nazorat qiluvchi va boshqaradigan kompyuterga asoslangan tizim.

2. Yoritish tizimlari:

– LED (Light Emitting Diode - Yorug‘lik chiqaradigan diod) lampalar va sensor boshqaruv tizimlari an’anaviy lampalarga nisbatan 80–90% kam energiya sarflaydi.

3. Sanoat texnologiyalari:

– Yuqori samarali motorlar, sozlanadigan chastota drayverlari, chiqindi issiqlikni qayta ishlatish va kogeneratsiya tizimlari.

– Sanoat energiya sarfini 20–40% gacha kamaytiradi.

4. Isitish va sovutish tizimlari:

– Issiqlik nasoslari va energiya tejovchi konditsionerlar.

– Binolarda uglerod chiqindilarini 30 %gacha kamaytiradi.

5. Raqamli texnologiyalar:

– Aqlli elektr tarmoqlari (Smart Grid), aqlli hisoblagichlar, energiya monitoring tizimlari (EMS).

– Real vaqt kuzatuv orqali energiya oqimini optimallashtiradi.

Umumiy qilib aytganda, energiya samaradorligi – bu kelajak energiya siyosatining markaziy yo‘nalishi bo‘lib, har bir sohada raqamli, texnologik va

ekologik innovatsiyalarni talab qiladi. Investitsiya xarajatlari qisqa muddatda o‘zini oqlaydi va mamlakatning energiya mustaqilligini mustahkamlaydi.

Yashil energiya texnologiyalarining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- issiqxona gazlari emissiyasining kamayishi: yashil energiya karbonat angidrid va boshqa zararli issiqxona gazlarini chiqaradigan qazib olinadigan yoqilg‘iga bog‘liqlikni kamaytiradi;

- barqarorlik: qayta tiklanadigan energiya manbalari cheksiz bo‘lgan qazib olinadigan yoqilg‘idan farqli o‘laroq, tugamaydi;

- energiya xavfsizligi: energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va mahalliy, qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish orqali yashil energiya milliy va global energiya xavfsizligiga hissa qo‘shishi mumkin;

- sog‘liq uchun foyda: ifloslanishni kamaytirish orqali yashil energiya havo sifati va aholi salomatligini yaxshilashga yordam beradi;

- ish o‘rinlarini yaratish: qayta tiklanadigan energiya sektori mehnatni ko‘p talab qiladi, ishlab chiqarish, o‘rnatish, texnik xizmat ko‘rsatish va tadqiqotda ish o‘rinlarini yaratadi.

Bir qator afzalliklar bilan bir qatorda, yashil energiya ham sektorga xos bo‘lgan ba’zi qiyinchiliklarga ega. Masalan:

- uzilishlar: quyosh va shamol kabi ba’zi yashil energiya manbalari ob-havo sharoitlariga bog‘liq va kechayu kunduz uzluksiz ishlamaydi. Ushbu uzilishlar energiya saqlash tizimlari yoki turli energiya manbalarining muvozanatli aralashmasi bilan hal qilinishi mumkin;

- yerdan foydalanish: yirik quyosh fermalari yoki shamol turbinalari qurilmalari katta maydonlarni talab qiladi, bu ba’zan qishloq xo‘jaligi yoki yovvoyi tabiatni muhofaza qilish bilan yerdan foydalanish ziddiyatlariga olib kelishi mumkin;

- boshlang‘ich xarajatlar: qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari (ayniqsa, quyosh panellari yoki shamol turbinalari) uchun dastlabki investitsiyalar yuqori bo‘lishi mumkin, ammo vaqt o‘tishi bilan bu xarajatlar kamayadi.

Xulosa va takliflar

“Barqaror rivojlanishda yashil energiya texnologiyalarining ahamiyati” mavzusidagi tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Barqaror rivojlanish - bu shaxs va jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli. Barqaror rivojlanishning zamonaviy konsepsiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan birgalikda hal qilishni talab qiladi. Yoqilg‘i-energetika tarmog‘i barqaror iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2. “Yashil energiya” - bu yoqilg‘ilarni iste’mol qilmasdan, atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarmasdan, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan energiya bilan ta’minlash.

3. Yashil energiyaning asosiy maqsadi - qayta tiklanadigan energiya manbalaridan iste’molchilar talabini maksimal darajada qondirishdir.

4. Yashil energiya bir qator qayta tiklanadigan manbalardan, ya’ni quyosh, shamol, suv, to‘lqinlar, geotermal issiqlik va biomassadan olinadi.

5. Yashil energiya texnologiyalari – bu tabiiy resurslardan foydalanib, atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytiruvchi va ekologik barqaror energiya ishlab chiqaruvchi texnologiyalar majmuidir.

6. Energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar – bu kamroq energiya sarflab, ko‘proq foyda olish imkonini beruvchi yechimlardir.

7. Yashil energiya texnologiyalarining asosiy afzalliklari barqaror iqtisodiy o‘sish, salbiy atrof-muhit ta'sirini kamaytirish va ijtimoiy hayotni yaxshilashda ko‘rinadi.

8. Bugungi kunda dunyo zudlik bilan issiqxona gazlari chiqindilarini normallashtirish, yashil energiya tizimlariga sarmoya kiritish, ko‘mir va neftda ishlaydigan elektr stansiyalarini bosqichma-bosqich tugatish, muqobil energiya iste’moliga o‘tish, shamol va quyosh energiyasi manbalaridan to‘liq foydalanishni rag‘batlantirish, shuningdek, “yashil” texnologiyalarni keng qo‘llash va energiya samaradorligini oshirishga intilmoqda.

Mavzu doirasida quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- yashil energiya ishlab chiqaruvchilar uchun foydali tarif siyosatini joriy etish;
- energiya samaradorligi yuqori texnologoyalarni keng joriy etish;
- har bir sohada raqamli, texnologik va ekologik innovatsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- importga qaramlikni kamaytirish hisobiga narxlarni pasaytirish;
- hududlar uchun mos yashil energiya modellarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori. 4.10.2019 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-apreldagi Samarqand xalqaro iqlim forumining yalpi majlisidagi nutqi - https://president.uz/

3. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х. (2020). Yashil iqtisodiyot. Darslik. 262 b.

4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi (1987). Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Jahon komissiyasining hisoboti: umumiy kelajagimiz.

https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/5987our-common-future.pdf

5. J. Bonneta, Patricia Renou-Maissanta (2019). Typology of sustainable development in Normandy: An appraisal at the intermunicipal level. https://www.semanticscholar.org/paper/Typology-of-sustainable-development-in-Normandy%3A-An-Bonneta-Renou-Maissanta/

6. Hannah Ritchie, Max Roser, and Pablo Rosado (2020) - "Renewable Energy" Published online at OurWorldinData.org. https://ourworldindata.org/renewable-energy.

7. Abdurahmonova G. (2023). Yashil iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. 224 b.

8. https://www.un.org/en/climatechange/what-is-renewable-energy

9. Melissa Weber. What is Renewable Energy and Why is it Important? https://www.ecoredux.com/renewable-energy

10. Christina Nunez. Renewable energy, explained. https://www.nationalgeographic.com/environment/article/renewable-energy

11. Matthew Mason. Renewable Energy: All You Need to Know. https://www.environmentalscience.org/renewable-energy

12. Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. UNEP/Grid Arendal. P. 17.

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o‘g‘li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Raqamli ta’lim texnologiyalar markazi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli texnologiyarning bugungi kundagi iqtisodiyotning asosiy bo‘g'ini hisoblangan bank-moliya sohasidagi ahamiyati va respublikamiz tijorat banklarida bank xizmatlarini kengaytirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda bu boradagi qonunchilik asoslari va tadqiqotchilarning nazariy qarashlari hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish va kengaytirishdagi amaliy jarayonlar kelirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, raqamli xizmatlar, mobil ilova, mobil to'lov tizimlari, sun’iy intellekt texnologiyalari,chatbor, CRM tizimi*

Аннотация. *В данной статье раскрыто значение цифровых технологий в банковско-финансовой сфере, являющейся основным звеном современной экономики, а также их роль в расширении банковских услуг в коммерческих банках нашей республики. Кроме того, рассмотрены законодательные основы в данной области, теоретические взгляды исследователей, а также практические процессы внедрения и расширения цифровых технологий.*

Ключевые слова*: цифровые технологии, цифровые услуги, мобильное приложение, мобильные платежные системы, технологии искусственного интеллекта, чат-бот, CRM-система.*

Annotation. *This article highlights the importance of digital technologies in the banking and financial sector, which is considered the backbone of today's economy, and their role in expanding banking services in the commercial banks of our republic. In addition, it discusses the legislative foundations in this area, the theoretical views of researchers, as well as the practical processes of introducing and expanding digital technologies.*

Keywords: *digital technologies, digital services, mobile application, mobile payment systems, artificial intelligence technologies, chatbot, CRM system.*

Kirish

Oxirgi yillarda raqamli texnologiyalarning tezkorlikda taraqqiy etishi natijasida masofadan turib koʻrsatiladigan xizmatlar soni kumdan kunga oshib bormoqda hamda tashkilot va kompaniyalarning anʻanaviy ish faoliyatida tub oʻzgarishlar boʻlmoqda. Bu esa butun dunyo miqyosida davlatlarning ham, xususiy sektor va bank moliya tashkilotlarining ham raqamli transformatsiya jarayoniga faol kirib borayotganini yaqqol koʻrsatadi. Raqamli texnologiyalarni keng qoʻllash boshqaruv va biznes jarayonlarini tubdan qayta tashkil etish imkonini beradi. Jumladan, hozirgi kunda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, bank mijozlarining ehtiyojlari hamda talablarining ortib borishi, shuningdek, moliya bozoridagi raqobatning keskinlashuvi bank institutlarini tezkor, qulay va individual yondashuvga asoslangan xizmatlarni taqdim etishga undamoqda.

Jahon amaliyotiga nazar tashlanganda, raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga integratsiyalashuvi natijasida iqtisodiyotni rivojlantirishda yangi bosqich yuzaga kelgani kuzatiladi. Ushbu jarayon moliya tizimida,jumladan, "raqamli bank tizimi"da yaqqol namoyon boʻlib, xizmatlarni tezkor, shaffof va qulay shaklda taqdim etishga imkon bermoqda. Natijada, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki yangi bozor segmentlari paydo boʻlishiga, moliyaviy xizmatlardan barcha aholi qatlamlarining teng imkoniyatlarda foydalanishini kengayishiga va milliy iqtisodiyotning global tizimga integratsiyalashuviga ham kuchli ta'sir koʻrsatmoqda.

Ma'lumki, dunyo boʻylab moliyaviy texnologiyalar bozori rivojlanib bormoqda va ularning hajmi bu yil 300 milliard dollarni tashkil etgan boʻlib, 2030 yilga borib, 600 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Respublikamizda ham bu borada ijobiy oʻzgarishlarni koʻrishimiz mumkin, jumladan 2018- yilda FinTech korxonalari soni 24 tani tashkil etgan boʻlib, hozirgi kunda 103 taga yetgan.
2025- yil boshidan sentabr oyiga qadar mahalliy korxonalarimiz tomonidan 260 million dollardan ziyod xorijiy investisiya jalb qilgan. Bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 4 barobar koʻp.[1]

Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan bank-moliya sohasida ham raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqsadda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-

sonli “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori hamda 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-6079-sonli qarori kabi normativ-hujjatlarda respublikamiz miqyosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda barcha sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks vazifalar belgilab berilgan.

Yuqorida keltirilgan strategik qarorlar mamlakatimizda raqamli transformatsiyani jadallashtirish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda jamiyatda raqamli savodxonlikni kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish orqali milliy iqtisodiy o‘sishni yangi sifat bosqichiga olib chiqish nazarda tutilgan.[2]

Nazariy jihatdan koʻplab tadqiqotchilar oxirgi yillarda ushbu yoʻnalishda ilmiy tadqiqotlar qilishmoqda. Jumladan, Cornell universiteti olimlari W.Ahmed, Amir R. o‘zlarining “Security in Next Generation Mobile Payment Systems” nomli maqolasida raqamli to‘lov infratuzilmalarida mobil to‘lov xizmatlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy nazariyalarni va tahlillarni keltirishgan.[3] Ular yangi avlod mobil to‘lov tizimlarini (Next Generation Mobile Payments – NGMP) tahlil qilish orqali olimlarning nazariy qarashlariga, tizimlardagi axborot xavfsizligi, himoya mexanizmlari, xavf –xatarlar va ushbu texnologiyalarning samaradorligini o‘rganadilar. Ularning tadqiqotida mobil to‘lov tizimlarining asosiy tarkibiy qismlari alohida yoritilib, texnologiyalarning solishtirma jadvallarida ijobiy va salbiy jihatlari keltirilgan. Bundan tashqari,“simmetrik va asimmetrik shifrlash usullarining mobil ilovalardagi qo‘llanishini, shu jumladan RSA, ECC (Elliptic Curve Cryptography) va AES algoritmlarini tahlil qilib, har biriga xos mustahkamlik va hisoblash talablarini solishtirib, ECC algoritmi kamroq resurs talab qilgani uchun mobil qurilmalar uchun afzal degan xulosaga kelishgan”.

A.S. Ulmasov tomonidan yozilgan maqolada QR-kod orqali amalga oshiriladigan onlayn to‘lovlar misolida iste’molchilar moliyaviy xulqining o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot ishida aholining raqamli to‘lovlarga qiziqishi va ulardan foydalanish darajasi ortib boryotganligi tahlil qilinib, bu tijorat banklari uchun yangi strategik imkoniyatlarni ochishi yoritilgan. Tadqiqot doirasida asosiy urg‘u mobil to‘lovlar, internet-banking xizmatlari, QR-online tranzaksiyalar va raqamli to‘lovlarni kengaytirish orqali bank operatsiyalari samaradorligini oshirishni baholashga qaratilgan. Makroiqtisodiy barqarorlik (YaIM o‘sishi, oltin-valyuta zaxiralari) fintech rivoji uchun qulay muhit yaratilyotganligi hamda internet va mobil tarmoqlardan foydalanish keskin ortib,

masofaviy bank xizmatlari va elektron tijorat tez sur’atlarda rivojlanyotganligi ta’kidlangan.[4]

Raqamli texnologiyalarni banklarda takomillashtirish jarayonlariga nazar tashlaydigan boʻlsak, respublikamiz yirik banklaridan biri “Ipoteka Bank”da bankning raqamli xizmatlari borasida strategik oʻzgarishlar qilinmoqda. Mobil ilova (“Ipoteka Mobile”) va internet banking xizmatlari joriy bo‘lib, u orqali bir necha turdagi bank amaliyotlari – hisobvaraqlar, to‘lovlar, onlayn depozit va kredit ajratish amaliyotlari amalga oshiriladi. Masalan, bank “OTP Group” va Beelab AJ bilan hamkorlikda raqamli moliyaviy mahsulotlarni taklif qilishga yo‘naltirilgan loyihalar tashkil etilgan. CRM va sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi orqali bankning mijozlar bilan aloqada tezkorligi va xizmat sifat oshgan hamda chatbot yoki onlayn yordam “support” kanallari orqali tezkor javob berishni ta’minlagan.Bank sistemasi ichida mobil ilova foydalanuvchilari soni va xizmatlar soni ortib borayotgani Markaziy bank hisobotlarida qayd etilgan boʻlib, jumladan masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar jami jismoniy va yuridik mijozlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 3 861 208 nafarga yetgan.[5]

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar bank-moliya sohasida tezkor va qulay xizmatlarni joriy etish orqali mijozlar ehtiyojlarini qondirish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omilga aylandi. Respublikamiz banklarida mobil ilovalar, internet banking, CRM va sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy qilinmoqda va takomillashtirilmoqda. Bu esa xizmatlar sifatini yaxshilash, investitsiyalarni jalb etish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu yoʻnalaishda taklif va tavsiyalar sifatida bank tizimini yanada rivojlantirish uchun kredit skoringda AI texnologiyalarini qo‘llash, mobil to‘lov xavfsizligini kuchaytirish, fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirish va mijozlarga 24/7 tezkor xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishni ta’minlash taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://president.uz/uz/lists/view/8475

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son,

3. W.Ahmed, Amir R. ва бошқалар “Security in Next Generation Mobile Payment Systems”. 2021 https://doi.org/10.1109/ACCESS.2021.3105450

4. Ulmasov A.S,“Revolutionizing Uzbekistan's Banking Sector Through Fintech Innovations”. Indonesian Journal of Law and Economics Review. May 2024.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti, https://cbu.uz

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ В КОМПАНИЯХ

Қиясов Бақдәулет Назарбекұлы
Магистр ОП 7М04108 – «Управление и право» (eMBA)
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Аннотация. *Цифровизация и конкуренция делают интеллектуальную собственность (ИС) стратегическим активом компаний. В статье рассматриваются ключевые механизмы улучшения управления ИС: формирование корпоративной политики, создание специализированных подразделений, цифровизация процессов и интеграция в стратегическое развитие. Также представлены подходы к оценке нематериальных активов, снижению правовых рисков и повышению эффективности лицензирования.*

Ключевые слова. *Интеллектуальная собственность, механизмы управления, корпоративная политика, цифровизация, нематериальные активы, лицензирование, правовая защита, инновационное развитие, конкурентоспособность.*

Annotatsiya. *Raqamlashtirish va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida intellektual mulk (IM) kompaniyalar uchun strategik resursga aylanmoqda. Maqolada IMni boshqarishni takomillashtirishning asosiy mexanizmlari – korporativ siyosat, maxsus bo‘linmalar, jarayonlarni raqamlashtirish va strategik rivojlanishga integratsiya qilish tahlil qilinadi. Shuningdek, nomoddiy aktivlarni baholash, huquqiy xavflarni kamaytirish va litsenziyalash samaradorligini oshirish yondashuvlari ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Intellektual mulk, boshqaruv mexanizmlari, korporativ siyosat, raqamlashtirish, nomoddiy aktivlar, litsenziyalash, huquqiy himoya, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik.*

Abstract*. Digitalization and growing competition make intellectual property (IP) a strategic asset for companies. This article analyzes key mechanisms for improving IP management: corporate policy development, creation of specialized units, digitalization of protection processes, and integration into strategic growth. It also highlights approaches to valuing intangible assets, reducing legal risks, and improving licensing efficiency.*

Keywords. *Intellectual prodaperty, management mechanisms, corporate policy, digitalization, intangible assets, licensing, legal protection, innovation development, competitiveness.*

Введение

В современных условиях глобализации, цифровизации и усиления конкурентной борьбы интеллектуальная собственность (ИС) становится одним из ключевых стратегических ресурсов компаний. Нематериальные активы, такие как патенты, товарные знаки, авторские права, коммерческие тайны и ноу-хау, формируют основу инновационного развития и обеспечивают долгосрочные конкурентные преимущества на рынке. По данным Всемирной организации интеллектуальной собственности (WIPO), доля нематериальных активов в общей стоимости компаний за последние годы существенно возросла, а эффективное управление ими напрямую влияет на рыночную капитализацию и инвестиционную привлекательность предприятий.

Тем не менее, практика показывает, что многие компании по-прежнему сталкиваются с трудностями в систематизации работы с ИС. Недостаток четко сформулированной корпоративной политики в этой области, отсутствие специализированных подразделений или компетентных специалистов, а также слабая интеграция ИС в стратегическое планирование приводят к недооценке стоимости нематериальных активов, рискам нарушения прав и потерям от неправомерного использования инновационных разработок. Особенно актуальными эти проблемы становятся в условиях цифровой трансформации, когда оборот знаний и технологий ускоряется, а угрозы пиратства и копирования возрастают.

Совершенствование механизмов управления интеллектуальной собственностью предполагает внедрение комплексного подхода, объединяющего правовые, организационные и экономические инструменты. Ключевыми направлениями здесь выступают: разработка корпоративной политики в области ИС; создание специализированных подразделений по управлению правами и защите активов; цифровизация процессов учета, мониторинга и охраны ИС; интеграция нематериальных активов в инновационные проекты и долгосрочную стратегию развития компании. Также важную роль играет внедрение современных методов оценки стоимости ИС, управление рисками нарушения прав и повышение эффективности лицензирования.

Таким образом, необходимость системного совершенствования управления интеллектуальной собственностью обусловлена не только ростом значимости нематериальных активов, но и усилением конкурентной среды, а также ускоренным развитием цифровых технологий. Настоящая статья посвящена анализу современных подходов к управлению ИС и разработке практических рекомендаций по повышению эффективности корпоративной политики в этой сфере.

Исследования

Современная экономика все более опирается на знания и инновации, а интеллектуальная собственность (ИС) становится одним из ключевых факторов долгосрочной конкурентоспособности компаний. По данным Всемирной организации интеллектуальной собственности (WIPO), за последние 20 лет доля нематериальных активов в рыночной стоимости ведущих мировых корпораций превысила 80 %. При этом эффективное управление ИС требует не только правовой защиты, но и комплексного стратегического подхода, включающего экономическую оценку, организационное сопровождение и цифровизацию процессов.

Основной целью исследования стало выявление актуальных проблем управления интеллектуальной собственностью в компаниях и разработка механизмов их совершенствования с учетом международного опыта и национальных особенностей. Для достижения цели были поставлены следующие задачи:

1. Проанализировать современное состояние управления ИС в международной практике и выявить успешные модели.

2. Исследовать нормативно-правовую базу и инструменты защиты ИС в национальном контексте.

3. Оценить уровень цифровизации процессов учета и охраны прав в компаниях.

4. Сформулировать рекомендации по интеграции ИС в стратегическое управление и инновационное развитие предприятий.

В работе использовался системный и комплексный подход. Были применены:

• сравнительный анализ – для сопоставления национальных и международных моделей управления ИС;

• контент-анализ – для изучения законодательных актов и корпоративных документов;

• кейс-метод – для анализа практики ведущих компаний (включая технологические и производственные фирмы);

• интервью и экспертные оценки – для выявления барьеров и факторов успеха при управлении нематериальными активами.

Исследование показало, что развитые экономики (США, ЕС, Япония, Южная Корея) активно применяют системные механизмы управления ИС:

• интеграция ИС в стратегию бизнеса – патенты, товарные знаки и ноу-хау включаются в долгосрочные планы развития;

• цифровые IP management-платформы – используются для мониторинга патентных портфелей, отслеживания нарушений и управления лицензионными соглашениями;

• корпоративные офисы по работе с ИС – обеспечивают сопровождение инноваций, юридическую защиту, а также монетизацию активов через лицензирование и франчайзинг;

• оценка стоимости ИС – проводится с применением рыночного, доходного и затратного подходов, что помогает принимать инвестиционные решения.

Примечательно, что в США и странах ЕС сформированы развитые экосистемы защиты ИС, включающие страхование рисков нарушений, патентные пулы и государственные программы поддержки инноваций.

Анализ практики компаний в развивающихся странах, в том числе в Казахстане и Центральной Азии, показал ряд системных проблем:

• отсутствие целостной корпоративной политики в области ИС;

• слабая интеграция нематериальных активов в стратегические планы развития;

• низкий уровень цифровизации учета и защиты прав;

• ограниченный опыт в оценке рыночной стоимости патентов и лицензий;

• дефицит квалифицированных специалистов по управлению ИС.

Кроме того, многие компании рассматривают ИС лишь как юридическую обязанность, а не как инструмент повышения инновационного потенциала и инвестиционной привлекательности.

В последние годы Казахстан демонстрирует устойчивый рост активности в сфере интеллектуальной собственности. Так, в 2022 году в стране было подано 838 заявок на патенты на изобретения, а в 2023 году их количество выросло до 917, что составляет прирост примерно 9 %. За первую половину 2024 года уже поступило 559 заявок, что на 24,8 % больше, чем за тот же период предыдущего года.

Количество выданных патентов также растёт: только за первое полугодие 2024 года зарегистрировано 277 патентов, что на 11,7 % превышает показатель за аналогичный период 2023 года.

В области полезных моделей активность ещё выше: в 2022 году подано 1 094 заявки, в 2023 году – уже 1 216 (рост более 11 %). Количество выданных охранных документов на полезные модели за тот же период увеличилось с 864 до 983, что составляет прирост почти 14 %.

Кроме того, казахстанские компании и исследователи начали активнее использовать международную систему PCT (Patent Cooperation Treaty): в 2023 году было подано 26 международных заявок, что на 83 % больше, чем в 2022 году.

По данным Всемирной организации интеллектуальной собственности (WIPO), за 2019–2023 годы в Казахстане было выдано более 8 000 патентов на изобретения и полезные модели. В первой половине 2024 года количество заявок на регистрацию товарных знаков увеличилось на 34 % по сравнению с аналогичным периодом прошлого года.

В Узбекистане доля нематериальных активов, включая объекты интеллектуальной собственности, пока остаётся крайне низкой. Согласно исследованию, посвящённому бухгалтерскому учёту по МСФО, их удельный вес составляет всего 0,0001 % от общей стоимости активов компаний. При этом обнаружена положительная связь между доходами от продаж и

величиной интеллектуальной собственности: коэффициент корреляции достигает 0,68, что указывает на потенциал роста значимости ИС при правильном управлении.

В глобальном инновационном индексе (Global Innovation Index) Узбекистан занимает позиции в нижней части рейтинга, что отражает недостаточный уровень инновационной активности и слабое использование инструментов защиты интеллектуальной собственности. Это означает, что компании страны пока слабо интегрируют ИС в стратегическое развитие и редко используют её для привлечения инвестиций.

На основе проведенного анализа предлагаются следующие направления развития:

1. Формирование корпоративной политики в области ИС – разработка внутренних регламентов, определяющих порядок выявления, учета, защиты и монетизации нематериальных активов.

2. Создание специализированных подразделений или должностей (Chief Intellectual Property Officer, IP-менеджеры) для централизованного управления портфелем прав.

3. Цифровизация процессов – внедрение программных платформ для автоматизированного мониторинга патентных заявок, контроля лицензий, отслеживания нарушений.

4. Экономическая оценка ИС – применение доходного и рыночного подходов для определения стоимости активов и привлечения инвестиций.

5. Управление рисками – разработка системы внутреннего контроля и страхование рисков нарушения прав.

6. Интеграция ИС в инновационные стратегии – включение защиты прав и монетизации ИС в бизнес-модели и долгосрочные планы компаний.

7. Повышение квалификации персонала – обучение специалистов в области патентного права, цифровых технологий управления ИС и инновационного менеджмента.

Предложенные механизмы могут использоваться как крупными корпорациями, так и средними предприятиями, стремящимися повысить свою конкурентоспособность. Их внедрение позволит снизить риски утраты прав, увеличить доходы от лицензирования и повысить инвестиционную привлекательность компаний в условиях цифровой трансформации экономики.

Выводы и предложения

Проведённое исследование показало, что интеллектуальная собственность становится одним из ключевых стратегических активов современных компаний и оказывает прямое влияние на их

конкурентоспособность, инновационный потенциал и рыночную стоимость. При этом во многих организациях управление ИС остаётся фрагментарным: отсутствует комплексная корпоративная политика, недостаточно развита цифровизация процессов учета и защиты, ограничены компетенции специалистов в данной сфере.

Для повышения эффективности управления интеллектуальной собственностью целесообразно использовать интегрированный подход, сочетающий правовые, организационные, экономические и цифровые инструменты. Ключевыми направлениями совершенствования являются:

• формирование корпоративной политики и внутренних регламентов по управлению ИС;

• создание специализированных подразделений или должностей, ответственных за мониторинг, защиту и монетизацию нематериальных активов;

• внедрение цифровых платформ для учёта и охраны прав, а также автоматизации мониторинга нарушений;

• развитие методов экономической оценки стоимости ИС для принятия инвестиционных и управленческих решений;

• управление рисками потери прав и их страхование;

• интеграция ИС в стратегическое и инновационное развитие компаний.

Реализация предложенных механизмов позволит снизить угрозы нарушения прав, увеличить доходы от лицензирования и коммерциализации разработок, а также укрепить рыночные позиции компаний в условиях цифровой трансформации и глобальной конкуренции. Полученные результаты могут быть полезны для руководителей предприятий, специалистов по инновационному менеджменту и разработчиков государственной политики в области интеллектуальной собственности.

Список использованной литературы

1. Воробьёва, И.А. Управление интеллектуальной собственностью: теория и практика : монография. – М.: Инфра-М, 2021. – 312 с.

2. Управление интеллектуальной собственностью в инновационной экономике / под ред. В.В. Гусева. – Санкт-Петербург : Питер, 2020. – 284 с.

3. World Intellectual Property Organization (WIPO). World Intellectual Property Indicators 2023. – Geneva : WIPO Publication, 2023. – 200 p.

4. OECD. Intellectual Property and Innovation in the Digital Economy. – Paris : OECD Publishing, 2022. – 156 p.

РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ KPI ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ СОТРУДНИКОВ НА ПРЕДПРИЯТИИ

Әкбар Айдын
Магистр ОП 7М04108 – «Управление и право» (eMBA)
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Аннотация. *Статья посвящена разработке и внедрению системы ключевых показателей эффективности (KPI) для управления результативностью сотрудников. Рассмотрены этапы формирования KPI – постановка целей, выбор метрик, цифровой мониторинг и связь с мотивацией. Показано, как KPI повышают продуктивность и прозрачность управления персоналом.*

Ключевые слова: *KPI, управление персоналом, эффективность, мотивация, производительность.*

Annotatsiya. *Maqola xodimlar samaradorligini boshqarish uchun asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tizimini ishlab chiqish va joriy etishga bag‘ishlangan. KPI yaratish bosqichlari, raqamli monitoring va motivatsiya bilan bog‘lash yoritiladi. KPI ishlab chiqarish samaradorligi va boshqaruv shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *KPI, kadrlarni boshqarish, samaradorlik, motivatsiya, unumdorlik.*

Abstract*. The article explores the development and implementation of a Key Performance Indicator (KPI) system to manage employee performance. It outlines KPI design steps, digital monitoring, and integration with motivation. KPIs help increase productivity and management transparency.*

Keywords: *KPI, human resource management, performance, motivation, productivity.*

Введение

Современные предприятия функционируют в условиях высокой конкуренции, цифровой трансформации и необходимости постоянного повышения производительности труда. Эффективное управление персоналом становится ключевым фактором устойчивого развития компании, а оценка результативности сотрудников – важнейшим элементом системы менеджмента. Традиционные методы контроля зачастую не отражают реальный вклад работников в достижение стратегических целей организации, что приводит к снижению мотивации и потере управленческой прозрачности.

В этой связи особое значение приобретает внедрение систем ключевых показателей эффективности (Key Performance Indicators – KPI), которые позволяют количественно оценивать вклад каждого сотрудника и подразделения в общие результаты предприятия. KPI служат инструментом увязки индивидуальных задач с корпоративной стратегией, обеспечивая объективную оценку эффективности и стимулируя персонал на достижение конкретных измеримых результатов.

Разработка системы KPI требует системного подхода, включающего анализ целей компании, выбор релевантных метрик, установление целевых значений, создание механизмов регулярного мониторинга и обратной связи.

Дополнительно необходимо учитывать специфику отрасли, корпоративную культуру и готовность сотрудников к изменениям. Особую актуальность приобретает цифровизация процессов управления персоналом, позволяющая автоматизировать сбор и анализ данных по KPI, обеспечивать прозрачность оценок и формировать аналитику в реальном времени.

Настоящая статья посвящена исследованию подходов к разработке и внедрению системы KPI на предприятии. В работе анализируются ключевые этапы формирования KPI, рассматриваются принципы их интеграции в систему мотивации и стратегическое управление, а также приводятся рекомендации по повышению эффективности персонала с помощью данного инструмента.

Исследования

Современные организации сталкиваются с необходимостью постоянно повышать эффективность деятельности персонала, адаптируясь к быстрым изменениям на рынке, цифровизации и росту конкуренции. Управление результативностью сотрудников становится важнейшей задачей стратегического менеджмента. Одним из наиболее распространённых инструментов в этой области является система ключевых показателей эффективности (Key Performance Indicators – KPI).

Основной целью исследования является разработка теоретико-практического подхода к построению системы KPI, способной повысить результативность персонала и обеспечить связь между стратегическими целями компании и ежедневной деятельностью сотрудников. Для достижения цели поставлены задачи:

1. Проанализировать существующие подходы к управлению эффективностью персонала.
2. Оценить место KPI в современных системах performance management.
3. Определить этапы разработки и внедрения KPI, учитывая специфику предприятий.
4. Выявить факторы успеха и риски при интеграции KPI в HR-политику.

В работе применялись методы системного анализа, сравнительного исследования, а также кейс-стади. Изучены современные модели управления результативностью (Balanced Scorecard, MBO – управление по целям, OKR – Objectives and Key Results). Проведён обзор научных публикаций, международных стандартов HR-менеджмента (SHRM, CIPD), а также статистики по применению KPI в производственных и сервисных компаниях. Дополнительно проанализированы практические кейсы внедрения KPI в организациях Казахстана и Центральной Азии, где HR-трансформация активно развивается.

Анализ современных подходов

1. Balanced Scorecard (BSC) – предлагает связывать KPI с четырьмя перспективами: финансы, клиенты, внутренние процессы, обучение и развитие. Применяется для стратегического уровня и построения каскадных KPI для подразделений и сотрудников.

2. MBO (Management by Objectives) – акцент на индивидуальных целях и регулярной оценке выполнения задач. Широко используется для персонала с чётко измеримыми результатами.

3. OKR – гибкий инструмент для быстро меняющихся компаний; фокусируется на достижении амбициозных целей через ключевые результаты.

4. KPI-подход в HR-системах – часто интегрируется в системы мотивации, включая бонусные схемы, премирование, карьерное продвижение.

Проведённый сравнительный анализ показал, что ни одна модель не является универсальной. Наибольшую эффективность демонстрирует комбинация KPI и стратегических инструментов BSC, когда показатели привязаны к долгосрочным целям, но при этом сохраняют гибкость и прозрачность.

В Казахстане и Узбекистане внедрение KPI всё чаще рассматривается как часть цифровой трансформации управления персоналом. Согласно данным консалтинговых агентств, более 60 % крупных компаний Казахстана используют KPI для оценки работы топ-менеджмента и ключевых специалистов. Однако лишь около 35 % имеют формализованные процессы пересмотра KPI и цифровые системы мониторинга. В Узбекистане цифровизация HR-процессов находится на ранней стадии, а KPI чаще ограничиваются показателями продаж и финансовой отдачи, без комплексной связи со стратегией компании.

На основе анализа литературы и практических кейсов предложен алгоритм внедрения KPI:

1. Стратегический анализ – определение ключевых целей компании, выделение приоритетных направлений развития.

2. Определение KPI-иерархии – от корпоративного уровня к подразделениям и индивидуальным целям.

3. Выбор метрик – использование SMART-критериев, баланс количественных и качественных показателей.

4. Целеполагание и таргеты – установка достижимых, но мотивирующих значений.

5. Интеграция в HR-процессы – связь KPI с премированием, карьерным ростом и обучением сотрудников.

6. Цифровизация мониторинга – применение HR-платформ и BI-систем для сбора, анализа и визуализации данных.

7. Регулярный пересмотр – оценка актуальности KPI не реже одного раза в год, адаптация к изменениям стратегии.

Практические рекомендации

– Для успешного внедрения KPI необходимо обеспечить прозрачность коммуникаций: сотрудники должны понимать смысл показателей и их влияние на вознаграждение.

– Важно сочетать финансовые и нефинансовые KPI (качество, удовлетворённость клиентов, инновации, вовлечённость персонала).

– Использование цифровых HR-систем (SAP SuccessFactors, 1C:HR, BambooHR и др.) облегчает мониторинг и повышает доверие к данным.

– Обучение руководителей и HR-специалистов работе с KPI снижает сопротивление изменениям.

Выводы и предложения

Проведённое исследование подтвердило, что разработка и внедрение системы ключевых показателей эффективности (KPI) является не просто инструментом оценки персонала, а стратегическим механизмом управления развитием предприятия. KPI позволяют связать индивидуальные и командные цели сотрудников с общекорпоративными стратегическими задачами, сделать систему управления результативностью прозрачной, а принятие управленческих решений – более обоснованным и ориентированным на факты.

Анализ современных подходов к управлению эффективностью персонала (Balanced Scorecard, MBO, OKR) показал, что универсального решения не существует. Balanced Scorecard обеспечивает стратегическую связку показателей с долгосрочными приоритетами, MBO делает акцент на управлении по целям и индивидуальных результатах, а OKR обеспечивает гибкость в динамичных отраслях. Наибольший эффект достигается при комбинировании этих подходов: стратегические цели компании формируют верхний уровень KPI, а операционные и индивидуальные метрики каскадируются на подразделения и сотрудников.

Разработка KPI требует системного подхода, включающего:

– стратегический анализ целей предприятия и определение ключевых факторов успеха;

– выбор сбалансированных метрик, отражающих как финансовые, так и нефинансовые результаты (качество, инновации, вовлечённость, клиентский опыт);

– установление измеримых целевых значений и периодов их пересмотра;

– интеграцию KPI в HR-процессы: мотивацию, премирование, карьерное развитие и обучение персонала;

– цифровизацию мониторинга и анализа – использование специализированных HRM- и BI-систем для прозрачности данных и формирования управленческой аналитики в реальном времени;

– обучение руководителей и сотрудников пониманию KPI и их связи со стратегией компании.

Особое внимание следует уделить коммуникации: работники должны ясно понимать, как их результаты влияют на общий успех предприятия и каким образом достигаемые показатели отражаются в системе вознаграждения и карьерного роста. Прозрачная обратная связь повышает доверие к системе KPI и мотивирует сотрудников на достижение целей.

Для Казахстана и Узбекистана особенно актуально развитие культуры управления по результатам и внедрение цифровых инструментов HR-аналитики. Несмотря на рост интереса к KPI, многие компании пока ограничиваются простыми финансовыми показателями, не используя потенциал нефинансовых индикаторов и комплексных моделей. Расширение применения современных HRM-систем и аналитических платформ позволит организациям повысить точность оценки персонала, снизить риски субъективных решений и создать устойчивую культуру эффективности.

Таким образом, разработанная система KPI способна стать мощным драйвером повышения производительности труда, стратегического развития и конкурентоспособности компаний в условиях цифровой трансформации экономики. Рекомендации, предложенные в исследовании, могут быть использованы руководителями, HR-специалистами и консультантами при создании и совершенствовании систем управления результативностью сотрудников.

На основе проведённого анализа и выявленных проблем в управлении результативностью персонала предлагается реализовать следующие меры, направленные на эффективное внедрение системы ключевых показателей эффективности (KPI) на предприятиях:

1. Разработка корпоративной концепции управления по KPI. Создать внутренний регламент, который определяет цели применения KPI, порядок выбора показателей, правила пересмотра метрик и систему их связи с корпоративной стратегией.

2. Формирование многоуровневой системы KPI. Каскадировать показатели от стратегического уровня компании к подразделениям и отдельным сотрудникам. На верхнем уровне должны быть закреплены ключевые бизнес-цели (доход, рентабельность, доля рынка), а на

операционном – показатели эффективности процессов и индивидуальной работы.

3. Использование сбалансированного подхода к выбору метрик. Помимо финансовых индикаторов включать нефинансовые: качество, инновационность, удовлетворённость клиентов, вовлечённость персонала, развитие компетенций.

4. Интеграция KPI в систему мотивации. Привязать достижение целевых показателей к премированию, бонусным схемам и карьерному росту. Такая система стимулирует сотрудников достигать поставленных целей и повышает их вовлечённость.

5. Цифровизация мониторинга и аналитики. Внедрить современные HRM- и BI-платформы (SAP SuccessFactors, 1C:HR, BambooHR и др.) для автоматизированного сбора, анализа и визуализации данных по KPI. Это повысит точность расчётов, исключит субъективизм и ускорит управленческие решения.

6. Обучение и вовлечение руководителей. Провести тренинги для менеджеров и HR-специалистов по разработке KPI, интерпретации результатов и эффективной коммуникации с персоналом.

7. Регулярный пересмотр KPI. Актуализировать систему показателей не реже одного раза в год с учётом изменений стратегии компании, рынка и технологий.

Реализация данных предложений позволит создать устойчивую и прозрачную систему оценки персонала, повысить производительность труда, укрепить корпоративную культуру результативности и улучшить стратегическое управление человеческими ресурсами в условиях цифровой трансформации экономики.

Список использованной литературы

1. Артемьева, И.В. Управление результативностью персонала: KPI и система мотивации : учебное пособие. – Москва : ИНФРА-М, 2022. – 256 с.

2. Парментер, Д. Ключевые показатели эффективности. Разработка, внедрение и применение KPI / пер. с англ. – Москва : Альпина Паблишер, 2021. – 304 с.

3. Kaplan, R.S., Norton, D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston : Harvard Business School Press, 1996. – 322 p.

4. Armstrong, M. Armstrong‘s Handbook of Performance Management: An Evidence-Based Guide to Delivering High Performance. – London : Kogan Page, 2023. – 424 p.

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIY “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rashidov Jamshid Xamidovich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
“Biznes boshqaruvi va moliya” kafedrasi dotsenti
E-mail: rashidovj75@gmail.com
Orcid: 0000-0001-7847-5397

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘qimachilik korxonalarida innovatsion xatarlarni samarali boshqarish va hududiy “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Innovatsion faoliyatda yuzaga keladigan texnologik, moliyaviy, ekologik va tashkiliy xatarlar tahlil qilingan hamda ularning ishlab chiqarish samaradorligi va barqaror rivojlanishga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion xatarlar, to‘qimachilik sanoati, yashil iqtisodiyot, ekologik texnologiyalar, barqaror rivojlanish, hududiy mexanizmlar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы эффективного управления инновационными рисками на предприятиях текстильной промышленности и совершенствования механизмов развития региональной «зелёной» экономики. Проведен анализ технологических, финансовых, экологических и организационных рисков, возникающих в инновационной деятельности, а также их влияния на эффективность производства и устойчивое развитие. Предложены меры по внедрению экологически чистых технологий, переработке отходов и повышению энергоэффективности в рамках концепции «зелёной» экономики.*

Ключевые слова: *инновационные риски, текстильная промышленность, зелёная экономика, экологические технологии, устойчивое развитие, региональные механизмы.*

Annotation. *This article examines the effective management of innovation risks in textile enterprises and the improvement of regional “green” economy development mechanisms. It analyzes technological, financial, environmental, and organizational risks arising in innovation activities and their impact on production efficiency and sustainable development. The article also proposes measures for introducing eco-friendly technologies, waste recycling, and increasing energy efficiency within the framework of the green economy.*

Keywords: *innovation risks, textile industry, green economy, environmental technologies, sustainable development, regional mechanisms.*

Kirish

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish, ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalari strategik ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali yuqori samaradorlikka erishish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘qimachilik sohasi eksport salohiyati, ishlab chiqarish hajmi va bandlikni ta’minlashdagi roli bilan yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur tarmoqda texnologik yangilanishlar, raqamli

yechimlar, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish innovatsion taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Biroq innovatsion faoliyatni kengaytirish jarayonida texnologik, moliyaviy, tashkiliy va ekologik xatarlar yuzaga keladi. Bu xatarlar korxonalarning ishlab chiqarish barqarorligi, moliyaviy natijalari va bozor raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqa tomondan, hududiy miqyosda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi energetika samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Hududlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligi esa korxonalar darajasida ekologik innovatsiyalarni qo‘llash va xatarlarni to‘g‘ri boshqarish bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu bois, to‘qimachilik korxonalarida innovatsion xatarlarni boshqarish masalasini hududiy “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlari bilan integratsiyalashgan holda o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda innovatsion xatarlarni boshqarish va “yashil” iqtisodiyot mexanizmlarini shakllantirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqobatbardoshlikni oshirishda texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash zamonaviy iqtisodiyotning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda [1]. Xususan, to‘qimachilik sanoatida energiya samaradorligi, suv resurslarini tejash va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini qo‘llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga e’tibor kuchaymoqda [2].

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion xatarlarni aniqlash va ularni samarali boshqarish mexanizmlari, ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi va barqaror texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, Yevropa Ittifoqida to‘qimachilik klasterlari uchun ekologik sertifikatlash tizimi, uglerod izini kamaytirish dasturlari va innovatsion moliyalashtirish instrumentlari keng qo‘llanilmoqda [3].

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish masalalari bo‘yicha Jahon banki va Xalqaro energetika agentligi tomonidan tayyorlangan hisobotlarda hududiy darajada ekologik infratuzilmani rivojlantirish, yashil investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirishning muhimligi ta’kidlanadi[4]. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, innovatsion xatarlarni faqat korxona ichida boshqarish bilan cheklanmasdan, ularni hududiy

strategiyalar va barqaror rivojlanish siyosatlari bilan uyg‘unlashtirish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi [5].

So‘nggi yillardagi milliy ilmiy ishlar ham to‘qimachilik sanoatida ekologik texnologiyalarni joriy etish, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini yaratish va raqamli boshqaruv yechimlarini qo‘llash bo‘yicha dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqmoqda [6]. O‘zbekiston Respublikasida “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” doirasida energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik talablarni kuchaytirishga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion xatarlarni boshqarish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini integratsiyalashgan holda tadqiq etish O‘zbekiston sharoitida hali to‘liq o‘z ilmiy-uslubiy yechimini topmagan. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan yangi yondashuvlar ishlab chiqish dolzarbdir.

Metodologiya

Tadqiqotda to‘qimachilik korxonalarida innovatsion xatarlarni baholash va hududiy “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilish uchun tizimli, taqqoslash va statistik uslublar qo‘llanildi.

Tizimli yondashuv orqali innovatsion xatarlar va ekologik mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlab berildi. Taqqoslash usuli yordamida O‘zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirildi. Statistik tahlil asosida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, energiya sarfi va ekologik ta’sir omillari o‘rganildi.

Bundan tashqari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro hisobotlar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar kontent tahlili orqali tahlil qilindi, bu esa ilmiy xulosalarning ishonchliligini ta’minladi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoati nafaqat eksportning asosiy drayveri, balki aholi bandligini ta’minlovchi muhim tarmoqlardan biridir. So‘nggi yillarda ushbu sohada ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, texnologik modernizatsiya va global bozorga integratsiyalashuv bo‘yicha sezilarli natijalarga erishildi. Biroq innovatsion jarayonlar bilan bog‘liq xatarlarni samarali boshqarish va ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini ta’minlash masalalari hali to‘liq hal etilmagan. Natijada, ko‘plab to‘qimachilik korxonalari zamonaviy ekologik talablar va raqobat sharoitida strategik ustunlikka erisha olmayapti [7].

1. Innovatsion xatarlarning hozirgi holati.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyat ko‘proq texnik yangilanishlarga qaratilgan. Ya’ni, asosan yangi uskunalar xarid qilish, ishlab chiqarish liniyalarini avtomatlashtirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish maqsadida texnologik investitsiyalar amalga oshirilmoqda. Ammo

innovatsion risk-menejmentining strategik jihatlari - ekologik, ijtimoiy va institutsional xavflarni aniqlash hamda ularni boshqarish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan [8].

Misol uchun, ishlab chiqarish jarayonlarida suv va energiya resurslarining ortiqcha sarfi, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarining zaifligi, uglerod izi ko‘rsatkichlarining yuqoriligi va resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi mavjud asosiy muammolardan hisoblanadi. Bu holat xalqaro bozorda “yashil” standartlar bilan ishlaydigan xaridorlar va investorlar uchun jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda [9].

2. Hududiy “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishdagi nomutanosibliklar.

Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim sanoat zonalarida “yashil” texnologiyalarni joriy etish borasida ijobiy natijalar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, ko‘plab viloyatlarda hali ham an’anaviy ishlab chiqarish yondashuvlari ustunlik qilmoqda. Bu esa hududlararo ekologik samaradorlik darajasida sezilarli tafovutlarga olib kelmoqda. Ayrim korxonalarda energiya tejaydigan uskunalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va chiqindilarni kamaytirish texnologiyalari joriy etilayotgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik ishlab chiqaruvchilar hali ham bunday texnologiyalarni qo‘llashga tayyor emas [10].

Bunga sabab sifatida quyidagi omillarni keltirish mumkin:

• moliyaviy resurslarning cheklanganligi, xususan, kichik va o‘rta biznes sub’yektlari uchun ekologik modernizatsiyaga katta miqdorda investitsiya kiritish qiyin;

• kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, ekologik texnologiyalar va “yashil” standartlar bo‘yicha mutaxassislar tanqisligi;

• me’yoriy-huquqiy bazaning sustligi, ya’ni ekologik rag‘batlantiruvchi mexanizmlar va soliq imtiyozlarining yetarli darajada ishlamasligi;

• mahalliy boshqaruv organlari darajasida koordinatsiyaning pastligi, bu esa hududiy “yashil” siyosatni amalga oshirishni sekinlashtirmoqda [11].

Muammo va yechimlar tahlili.

1. Innovatsion xatarlarni kompleks baholash tizimining yo‘qligi. Ko‘pgina korxonalarda investitsion loyihalar faqat iqtisodiy mezonlar asosida baholanadi. Ekologik va ijtimoiy xatarlar, shuningdek, texnologik noaniqliklar baholash jarayoniga kiritilmaydi.

Innovatsion xatarlarni baholashda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy mezonlarni o‘z ichiga olgan kompleks metodologiyalarni joriy etish zarur. Xalqaro ISO 14001 ekologik menejment standartlari, shuningdek ESG (Environmental, Social, Governance) ko‘rsatkichlariga asoslangan baholash tizimlarini tatbiq etish samarali natija beradi [12].

2. Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi. Ekologik modernizatsiyalash katta mablag‘ talab qiladi, biroq korxonalar ko‘pincha imtiyozli moliyalashtirish manbalariga ega emas.

Davlat tomonidan “yashil kreditlar” va ekologik grantlar mexanizmlarini kengaytirish, xalqaro ekologik fondlar bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. Bundan tashqari, xususiy sektorni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kafolat mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi lozim [13].

3. Hududiy tafovutlar va koordinatsiya yetishmasligi. Hududlar o‘rtasida “yashil” texnologiyalarni joriy etish darajasi notekis bo‘lib, ayrim viloyatlar bu borada ancha orqada qolmoqda. Hududiy “yashil” klasterlarni tashkil etish, ya’ni ishlab chiqaruvchilar, ilmiy markazlar va davlat tuzilmalari o‘rtasida kooperatsiya mexanizmlarini yaratish zarur. Bunday klasterlar tajriba almashish, innovatsiyalarni joriy etish va moliyalashtirishni muvofiqlashtirishda muhim o‘rin egallaydi [14].

4. Ko‘plab korxonalarda ekologik menejment va innovatsion risklarni boshqarish bo‘yicha maxsus tayyorlangan mutaxassislar mavjud emas. Oliy ta’lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida ekologik boshqaruv, “yashil” texnologiyalar va innovatsion menejment bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur [15].

1-jadval

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining eksporti va muammoli ko‘rsatkichlari[28]

Ko‘rsatkichlar	Ma’lumot	Vaqt – davr	Izoh / muammo
To‘qimachilik mahsulotlari eksporti, umumiy qiymati	US$ 2.9 milliard	2024- yil (yanvar-dekabr)	Eksport umumiy ichida 10.6 % ulushga ega
Eksport tarkibida paxta ipi (yarn)	US$ 1.237 milliard	2024- yil	Eksportning yetakchi qismi
Yakunlangan (tayyor) matolar (finished textiles) eksporti	US$ 1.124 milliard	2024- yil	Qimmatli qo‘shimcha qiymat yaratilgan mahsulotlarning ulushi
Trikotaj matolar (knitwear) eksporti	US$ 292.1 million	2024- yil	Nisbatan past qiymatdagi mahsulotlarga tegishli
Matolar (fabrics) eksporti	US$ 145.9 million	2024- yil	Tikuvchilik va tayyor mahsulotlar oldida turadi
Paypoq va trikotaj buyumlari (hosiery) eksporti	US$ 42.6 million	2024- yil	Arzimagan ulush, yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyati kamroq
Eksport o‘sishi (to‘qimachilik mahsulotlari)	14.7 %	Q1, 2024 vs Q1, 2023	Eksport hajmi oshgan, ammo mahsulot tarkibi jihatdan diversifikatsiya yetishmaydi

[28] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ishlab chiqarish hajmi, to‘qimachilik + kiyim-kechak	123.3 trillion so‘m	2024- yil	Ishlab chiqarish hajmi o‘sdi, lekin eksportda pasayish ko‘rinmoqda
Eksport pasayishi	6.7 %	2024- yil (eksport vs 2023)	Ichki omillar yoki global talabdagi o‘zgarishlar ta’siri bo‘lishi mumkin

Yo‘qorida keltirilgan jadvalda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining so‘nggi yillardagi eksport ko‘rsatkichlari, mahsulot turlari bo‘yicha taqsimoti va ishlab chiqarish hajmlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar keltirilgan[29].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik mahsulotlarining umumiy eksport hajmi 2024- yilda 2,9 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu mamlakatning umumiy eksportida qariyb 10,6 % ulushni egallaydi. Bu ko‘rsatkich sohaning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi [16].

Eksport tarkibida paxta ipi (yarn) yetakchi o‘rinda bo‘lib, 2024- yilda 1,237 milliard AQSh dollari miqdorida eksport qilingan. Bu, asosan, past qayta ishlov darajasidagi mahsulotlar ulushi yuqoriligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yakunlangan matolar (finished textiles) eksporti ham nisbatan yuqori bo‘lib, 1,124 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Bu segment yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar hisoblanadi va kelgusida eksport tarkibini diversifikatsiya qilishda muhim o‘rinni egallaydi [17].

Shu bilan birga, trikotaj matolar, matolar va paypoq-buyumlar eksporti hajmi nisbatan past bo‘lib qolmoqda. Xususan, trikotaj matolar eksporti 292,1 million AQSh dollari, matolar esa 145,9 million AQSh dollari, paypoq va trikotaj buyumlar esa atigi 42,6 million AQSh dollarini tashkil etgan. Bu holat tayyor mahsulotlar segmentining rivojlanmaganligini ko‘rsatadi, holbuki, aynan ushbu segmentlar global bozor talabida yuqori darajadagi qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlardir [18].

E’tiborga molik jihatlardan yana biri shundaki, 2024- yilning birinchi choragida to‘qimachilik eksporti hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 14,7 % ga oshgan bo‘lsa-da, umumiy yillik eksport hajmida 6,7 % pasayish kuzatilgan. Bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi tafovut eksportning mavsumiyligi, global talab o‘zgarishlari va logistika cheklovlari kabi omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin[19].

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlili ham e’tiborga loyiqdir. 2024- yilda to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoatida ishlab chiqarishning umumiy hajmi 123,3 trillion so‘mni tashkil etgan. Bu o‘tgan yilga nisbatan sezilarli o‘sishni anglatadi. Biroq ishlab chiqarish hajmi oshgan bo‘lishiga

[29] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari. https://stat.uz

qaramay, eksportning qisqarishi sohada ichki bozorning kengayib borayotganligi, ayrim korxonalarning eksportga chiqishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini bildiradi [20].

2-jadval

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi, eksport va energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari (2020–2024)[30]

Yillar	To‘qimachilik ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)	Eksport hajmi (mlrd AQSh dollari)	Energiya sarfi (kVt/soat har 1 mln so‘m mahsulotga)	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)
2020	28 450	1,90	1460	5,2
2021	32 870	2,38	1415	6,8
2022	37 920	3,11	1330	8,4
2023	41 300	3,57	1240	10,1
2024	45 600	4,02	1160	12,7

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida so‘nggi besh yillik davr (2020–2024) mobaynida ishlab chiqarish hajmi, eksport ko‘rsatkichlari, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya ulushi bo‘yicha sezilarli ijobiy dinamikani aks ettiradi. Avvalo, ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atlari e’tiborga loyiq: 2020-yilda 28,45 trillion so‘mni tashkil etgan ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 45,6 trillion so‘mgacha oshgan. Bu holat sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ulushining oshgani bilan izohlanadi.

Eksport hajmi ham izchil o‘sib borgan - 2020-yildagi 1,9 mlrd. AQSh dollaridan 2024-yilda 4,02 mlrd. dollargacha yetgan. Bu natija O‘zbekistonning global bozorlar bilan integratsiyalashuvi, xalqaro sifat standartlariga mos ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etishi va logistika infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha ko‘rilgan kompleks chora-tadbirlar samarasi hisoblanadi. Ayniqsa, Yevropa va Osiyo bozorlariga eksport hajmining ortishi “yashil sertifikatlar” va ekologik standartlarga javob beruvchi mahsulotlarga bo‘lgan talabning kuchaygani bilan bog‘liq.

Energiya samaradorligi ko‘rsatkichlarida ham ijobiy siljish kuzatilmoqda. 2020-yilda 1 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun o‘rtacha 1460 kVt/soat energiya sarflangan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1160 kVt/soatga kamaygan. Bunda sanoat korxonalarida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish va chiqindisiz texnologiyalarga o‘tish muhim o‘rin egallagan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushi

[30] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ham sezilarli ravishda oshgan - 2020-yildagi 5,2 foizdan 2024-yilda 12,7 foizgacha ko‘tarilgan. Bu holat mamlakatda “yashil energetika” infratuzilmasi rivojlanayotganligi, quyosh va shamol elektr stansiyalarining sanoat zonalarida bosqichma-bosqich joriy etilayotgani bilan izohlanadi.

Biroq, mazkur o‘sish ko‘rsatkichlariga qaramay, ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

– energiya samaradorligi hali ham rivojlangan davlatlardagiga nisbatan past darajada qolmoqda. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD)ga a’zo davlatlarida ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 800–900 kVt/soatni tashkil etadi;

– innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishda korxonalar moliyaviy cheklovlarga duch kelmoqda. Xususan, kichik va o‘rta korxonalar energiya tejovchi uskuna va texnologiyalarni xarid qilishda kredit va grantlarga to‘liq kira olmayapti;

– hududiy farqlar ham mavjud: poytaxt va sanoat markazlarida modernizatsiyalash jarayonlari tezroq kechayotgan bo‘lsa, chekka hududlardagi korxonalar ortda qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar tavsiya etiladi:

1. Moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish - yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va past foizli kreditlarni joriy etish.

2. Hududiy sanoat zonalarini yashil klasterlarga aylantirish - bu orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan birgalikda foydalanish va resurslarni tejamli ishlatish imkoniyati yaratiladi.

3. Texnologik transfer va xalqaro hamkorlikni kengaytirish - Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bilan hamkorlikda ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini mahalliy sanoatga olib kirish.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish - innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini boshqaradigan mutaxassislarni tayyorlash va qayta o‘qitish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, yo‘qorida keltirilgan statistik ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyat va yashil iqtisodiyot tamoyillarini birlashtirish orqali barqaror o‘sish uchun zarur poydevor shakllanmoqda. Bu jarayonni jadallashtirish esa davlat siyosati, xususiy sektor investitsiyalari va xalqaro hamkorlikning uyg‘unligini talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion xatarlarni samarali boshqarish va hududiy “yashil” iqtisodiyot mexanizmlarini rivojlantirish orqali to‘qimachilik tarmog‘ida quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

– resurslardan foydalanish samaradorligi 20 –30 % gacha oshirish;

– ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilar va karbon izi sezilarli darajada kamaytirish;

– korxonalarning xalqaro “yashil” sertifikatlarga ega bo‘lishi orqali eksport bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirish;

– hududiy sanoat siyosati barqaror rivojlanish tamoyillariga moslashtirish.

Shunday qilib, innovatsion xatarlarni boshqarish, ekologik siyosat bilan integratsiya qilish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati so‘nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi, eksport ko‘rsatkichlari va energiya samaradorligini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu jarayon innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan siyosat natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga, hududiy miqyosda “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish sanoatning barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Biroq olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion xatarlarni boshqarish mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan. Ayrim korxonalar innovatsion texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy resurslar yetishmasligi, texnik bilimlar va malakali kadrlar tanqisligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Hududiy farqlar ham muhim masala bo‘lib qolmoqda - poytaxt va yirik sanoat markazlarida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni tezroq kechayotgan bo‘lsa-da, chekka hududlardagi ishlab chiqarish subyektlari bu borada orqada qolmoqda. Bundan tashqari, energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari hali ham Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD)ga a’zo davlatlar darajasidan ancha past bo‘lib qolmoqda, bu esa texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni hal etish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Innovatsion xatarlarni baholash va boshqarishning integratsiyalashgan tizimini yaratish. Korxonalarda innovatsion xatarlarni monitoring qilish, ularni moliyaviy, texnologik va ekologik jihatdan baholash imkonini beruvchi raqamli platformalar joriy etilishi zarur.

2. Yashil investitsiya mexanizmlarini kengaytirish. Innovatsion texnologiyalarni joriy etayotgan va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari, grantlar va preferensiyalar tizimini kuchaytirish lozim.

3. Hududiy sanoat klasterlarini “yashil” klasterlarga aylantirish. Bu orqali resurslardan birgalikda foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasini joriy etish va chiqindilarni kamaytirish imkoniyatlari oshadi.

4. Xalqaro hamkorlik va texnologik transferni kuchaytirish. Rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini olib kirish, hamda xalqaro sifat va ekologik standartlarga moslashish jarayonlarini jadallashtirish zarur.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish. Innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari tashkil etilishi lozim.

6. Hududlar kesimida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish. Chekka hududlardagi korxonalar uchun maxsus texnik yordam va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish orqali ularning innovatsion salohiyatini oshirish mumkin.

Umuman olganda, to‘qimachilik sanoatida innovatsion xatarlarni samarali boshqarish va hududiy “yashil” iqtisodiyot mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy o‘sishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tish imkonini beradi. Bu esa nafaqat sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash, xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va hududiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. OECD (2023). *Innovation, Green Growth and Sustainable Development*. OECD Publishing.

2. UNIDO (2022). *Sustainable Textile Production: New Technologies and Practices*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization.

3. European Commission (2023). *EU Strategy for Sustainable and Circular Textiles*. Brussels.

4. World Bank (2023). *Green Transition in Central Asia: Policy Directions and Investment Opportunities*. Washington, DC.

5. IEA (2022). *Innovation Gaps in Clean Energy Technologies*. International Energy Agency.

6. Karimova, N. (2023). “To‘qimachilik tarmog‘ida ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari.” *Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali*, №4, 45-53.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyuldagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g‘risidagi PQ-220-son qarori.

8. International Energy Agency. “Sustainable Textile Production and Energy Efficiency.” IEA Report, 2024.

9. World Bank. “Green Transformation in Manufacturing Industries.” Washington, 2023.

10. UNIDO. “Innovation and Environmental Risk Management in Developing Economies.” Vienna, 2023.

11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “Yashil iqtisodiyot bo‘yicha hududiy hisobot.” Toshkent, 2024.

12. OECD. “Regional Green Growth Strategies and Industrial Clusters.” Paris, 2024.

13. ISO. “ISO 14001: Environmental Management Systems.” International Organization for Standardization, 2023.

14. Global Green Finance Platform. “Green Investment Mechanisms in Emerging Economies.” Geneva, 2024.

15. European Commission. “Green Clusters and Regional Innovation Systems.” Brussels, 2023.

16. McKinsey & Company. “The Green Transformation of Textiles: Risk, Digitalization, and Growth.” Global Report, 2024.

17. International Energy Agency. (2023). *Industry direct CO_2 emissions in the Sustainable Development Scenario, 2000–2030*. IEA. https://www.iea.org/data-and-statistics/charts/industry-direct-co2-emissions-in-the-sustainable-development-scenario-2000-2030.

18. World Bank. (2022). *Green transformation in manufacturing industries*. World Bank Publications. https://www.worldbank.org.

19. United Nations Industrial Development Organization. (2022). *Innovation and environmental risk management in developing economies*. UNIDO. https://www.unido.org.

20. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *Yashil iqtisodiyot bo‘yicha hududiy hisobot*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy nashri. https://www.mf.uz.

“QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH”

Alimov Olimjon Sultanmuratovich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
“Biznes boshqaruv moliya” kafedrasi Katta o‘qituvchisi
E-mail: olimjonalimov111@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qurilish sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya – qurilish loyihalari, boshqaruv va monitoring jarayonlarida zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, xarajat va vaqtni kamaytirish imkoniyatini beradi. Mahalliy olimlar va amaliyotchilar fikriga*

tayanib, qurilish kompaniyalarida BIM (Building Information Modeling), IoT (Internet of Things), sun'iy intellekt va ma'lumotlar analitikasi kabi texnologiyalarning tatbiqi misollar keltiriladi. Shuningdek, raqamli transformatsiyani amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar - infratuzilma, kadrlar tayyorgarligi, normativ-huquqiy bazaning zaifligi - va ularni yengish yo'llari muhokama qilinadi. Maqola oxirida, qurilish sohasining raqamli kelajagi va takliflar taqdim etiladi.

***Kalit so'zlar**: Raqamli transformatsiya, Qurilish sohasida texnologiyalar,BIM (Building Information Modeling), IoT (Internet of Things), Sun'iy intellect,Ma'lumotlar analitikasi,Mahalliy tajriba, Normativ-huquqiy me'yorlar.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются основные направления, преимущества и существующие проблемы совершенствования процессов цифровой трансформации в строительном секторе. Цифровая трансформация предоставляет возможность повысить эффективность, сократить затраты и сроки за счет внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в строительные проекты, процессы управления и мониторинга. На основе мнений отечественных ученых и практиков приводятся примеры применения таких технологий, как BIM (Building Information Modeling), IoT (Internet of Things), искусственный интеллект и аналитика данных в строительных компаниях. Также рассматриваются проблемы, возникающие при внедрении цифровой трансформации – инфраструктура, подготовка кадров, слабая нормативно-правовая база – и пути их преодоления. В конце статьи представлены цифровое будущее строительного сектора и предложения.*

***Ключевые слова:** Цифровая трансформация, Технологии в строительном секторе, BIM (Building Information Modeling), IoT (Internet of Things), Искусственный интеллект, Аналитика данных, Местный опыт, Нормативно-правовые стандарты.*

***Abstract.** This article analyzes the main directions, advantages and existing problems of improving digital transformation processes in the construction sector. Digital transformation provides an opportunity to increase efficiency, reduce costs and time by introducing modern information and communication technologies into construction projects, management and monitoring processes. Based on the opinions of local scientists and practitioners, examples of the application of technologies such as BIM (Building Information Modeling), IoT (Internet of Things), artificial intelligence and data analytics in construction companies are given. Also, the problems that arise in implementing digital transformation - infrastructure, personnel training, weak regulatory and legal framework - and ways to overcome them are discussed. At the end of the article, the digital future of the construction sector and proposals are presented.*

***Keywords:** Digital transformation, Technologies in the construction sector, BIM (Building Information Modeling), IoT (Internet of Things), Artificial intelligence, Data analytics, Local experience, Regulatory and legal standards.*

Kirish

Qurilish sektori dunyo miqyosida iqtisodiyotning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, bu sohada samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish, sifat va xavfsizlik masalalari har doim dolzarblik kasb qiladi. Raqamli transformatsiya esa turli tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshiruvchi kuchli vosita sifatida qaralmoqda. Qurilish jarayonlarini raqamlashtirish – rejalashtirish, loyiha, qurilish, ekspluatatsiya bosqichlarida informatsion tizimlar, avtomatlashtirish

При этом мнение жителей городов, в том числе молодежи, которая будет в них жить в предстоящие десятилетия, как правило, не учитывается.

Это говорит о том, что строительные компании, предприятия и организации региона не руководствуются принципами ESG в части

обеспечения социальной ответственности бизнеса, добиваются строительства многоквартирных высотных жилых домов исключительно в региональных центрах, активно используют уродующую города точечную застройку.

При этом органы власти регионов не создают должные условия для соблюдения строительными компаниями принципов ESG, не требуют от них строгого выполнения данных принципов в случаях, когда деятельность компаний ведет к ухудшению условий жизни населения.

Это требует кардинального изменения в деятельности строительных компаний и региональных органов управления, непременного учета ими пи развитии регионов важнейших принципов ESG. В их деятельности должны лежать долговременные интересы населения и народного хозяйства регионов, научно обоснованные планы.

Использованная литература

1. Федеральная служба государственной статистики. Данные за 2019–2024 гг. URL: https://rosstat.gov. ru/folder/12781 (дата обращения: 05.09.2025).

2. Набоков В.И., Юлдашев Н.К., Некасов К.В. Инновационная деятельность как способ решения важнейшей проблемы села. Сборник материалов Международной научно-практического агрофорума «Обеспечение продовольственной безопасности: стратегия и решения» 26-27 июля 2023. Екатеринбург: УрФАНИЦ, 2023. С.68-73.

3. Волков В.И., Некрасов К.В., Бутко Г.П., Набоков В.И. Важнейший фактор демографической ситуации современной России. Молодежный научный форум «Уфимский гуманитарный научный форум». Сборник статей Международной научно – практической конференции. Уфа, 2024.

ЎЗБЕКИСТОНДА КИРУВЧИ ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРАТИ

Рисқулов Равшанжон Бектўраевич
Тошкент давлат шарқшунослик университети
“Иқтисодиёт ва менежмент” кафедраси катта ўқитувчиси
Orcid: 0000-0001-6143-2403
E-mail: ravshanjon_riskulov@tsuos.uz

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда кирувчи туризмни миллий статистик маълумотларга асосланган ҳолда истиқболда ривожланишини башорат қилишнинг ўзига хос хусусиятлари ёритилган. Хусусан тур компаниялар туристларни жалб этишда статистик маълумотларнинг етарли эмаслиги у асосда аҳамиятсиз тур пакетлар тузиш ҳамда кирувчи туризмнинг катта улуши ҳеч бир тур пакетдан фойдаланмаслиги,

мамлакатга кирувчи ташриф буюрувчилар умумий яратилган шароитлардан бевосита мустақил фойдаланиши эвазига туристик оқим сони ошиши каби масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: Ташриф буюрувчилар, кирувчи туризм, аутсорсинг, барқарор ривожланиш, ташриф мақсадлари.

***Аннотация**. В статье рассматриваются особенности прогнозирования развития въездного туризма в Узбекистане на основе данных национальной статистики. В частности, рассматриваются вопросы недостаточности статистических данных по привлечению туристов туристическими компаниями, что приводит к формированию незначительных турпакетов, значительной доли въездного туризма без использования турпакетов, а также увеличения туристических потоков за счёт непосредственного самостоятельного использования посетителями страны создаваемых ими условий.*

***Ключевые слова:** Посетители, въездной туризм, аутсорсинг, устойчивое развитие, цели визита.*

***Abstract.** The article discusses the specific features of forecasting the future development of inbound tourism in Uzbekistan based on national statistical data. In particular, the issues of insufficient statistical data in attracting tourists by tour companies, which leads to the creation of insignificant tour packages, the fact that a large share of inbound tourism does not use any tour packages, and the increase in the number of tourist flows due to the direct independent use of generally created conditions by visitors to the country are discussed.*

***Keywords:** Visitors, inbound tourism, outsourcing, sustainable development, visit purposes.*

Кириш

Маълумот таҳлил масаланинг илмий йўналиши ва муаммоларини марказий тенденцияларини кўрсатиб беради. Шу нуқтаи назардан Ўзбекистонда кирувчи туризмнинг статистик маълумотларни турли усулларда таҳлил қилиш асосида аутсорсинг заруратини ёритишга йўналтирилди. Бироқ жаҳонда кирувчи туризмни прогнозлаштириш каби кенг кўламли илмий ишлар кўп. Хусусан, A.S. Vergori [1] ва бошқалар Италияда кирувчи туризм жойлаштириш статистикаси ва кузатилмайдиган ҳисоблари борасида таҳлилий мақоласи, Zhiyu Shi [2] ни кирувчи туризмга таъсир этувчи омилларни ўрганиши, F.Ch. Yuan [3] нинг кирувчи туристлар сонини прогноз қилишда сунъий интеллект ва бошқа маълумотлардан фойдаланилган.

Методология

Мазкур ишда Ўзбекистонда ташриф буюрувчиларнинг асосан кирувчи туризмини турли усулларда таҳлил қилиб, асосий муаммоларини аниқлаш тадқиқот материали сифатида танлаб олинди. Маълумки, кирувчи туризм миллий иқтисодиётнинг муҳим мултипликатори саналади. Шу нуқтаи назардан айнан кирувчи туризм ҳозирги шароитда комплекс масалаларни ҳал етишга эҳтиёж сезмоқда. Жаҳон туризми мазкур масалаларни бартараф этишда аутсорсинг хизматларидан кенг кўламда фойдаланиб келмоқда. Аутсорсинг туризмни концентрациялашувига катта туртки бериб, турли йўналишларда катта имконият туғдиради. Тадқиқотда материалларни

частотали тақсимот орқали ковариация ва корреляция баҳолашда прогнозлаштириш масалалари кўриб чиқилган.




Натижалар

Туризм соҳасида ташриф буюрувчилар тушунчаси сайёҳларнинг мезбон давлатга турли мақсадларда амалга оширган ҳаракатлари тушунилади бироқ, ташриф буюрувчилар шахсга нисбатан ишлатиладиган комплекс атама ҳисобланади. Бунда бирон турист қайси давлатга тегишлилигидан қатъий назар муайян мақсадларда амалга оширилган саёҳатлари ташриф буюриш деб қабул қилинади. Демак ташриф буюрувчилар тушунчаси қўлланилганда кирувчи, чиқувчи ва ички туризм йўналишлари назарда тутилади. Шу нуқтаи назарда олиб қараганда Ўзбекистонга 2020 йилдан 2023 йилларда ташриф буюрган туристлар сонига эътибор қаратадиган бўлсак, қисқагина тўрт йил давомида 68 фоизга ошганлигини кўриш мумкин [4]. Ушбу кўрсаткичнинг 43.7 фоизини мамлакат резидентларининг бошқа давлатларга амалга оширган чиқувчи туризми эгаллайди. 2021 йилда чиқувчи ва ички туризм салмоғи қарийиб умумийга нисбатан барқарор кўрсаткични акс эттирган. Мазкур даврда чиқувчи туризм 35.1 фоиз, ички туризм улуши эса 34.6 фоизга тенг бўлган. Кўрсаткичларга эътибор қаратадиган бўлсак, ички туризм даражаси чиқувчи туризмга етиб бормоқда. Бу мамлакат аҳолисининг даромадлари ошиши ҳамда сайёҳлик соҳасига қизиқиши ортиши билан изоҳлаш мумкин. 2022 йилга келиб эса, ташриф буюрувчиларнинг 2021 йилдаги 6238 минг нафарга қараганда икки баравар 12871 минг нафарга кескин ошишига чиқувчи ва кирувчи туристлар сонини ортиши сабаб бўлган. Унда чиқувчи туризм 2022 йил 2021 йилга нисбатан 2.3 баробар ошган бўлса, кирувчи туризм миқдори 2.7 баробарга ўсган. 2023 йилга келиб Ўзбекистонда ташриф буюрувчилар сони 2022 йилга нисбатан 1.14 баробарга ўсиб, 14731 мингга тенг бўлди. 2023 йил мамлакат туризм соҳасида кескин бурилиш юз бериб, кирувчи туристлар жами ташриф буюрувчиларнинг 44.9 фоизини 6626 минг нафарни ташкил этганлиги 2021 йилда мамлакатга ташриф буюрувчиларнинг жами сонидан ортиқни ташкил этганлиги билан изоҳланади. Хусусан, 2021 йилда мамлакатда ташриф буюрувчилар 6238 минг, 2023 йилда эса биргина кирувчи турислар сони эса, 6626 нафар, қарийиб бир баробар кўпни ташкил этган.


Қуйидаги диаграммаларга эътибор қаратадиган бўлсак, ташриф буюрувчилар орасида кирувчи туризм салмоғи динамик тез суръатларда ўсиб келаётганлигини кўришимиз мумкин. Хусусан, 2020 йилда унинг улуши 32.8 фоизни ташкил этган бўлса, 2021 йилда 30.1, 2022 – 2023 йилларда 40.6 ва 44.9 фоизларга ортганлигини кўришимиз мумкин, мос равишда.

1-жадвал

Ўзбекистонда ташриф буюрувчилар сони, бирлик[41].

Ташриф буюрувчилар, 2020	**Частота тақсимоти**	**Нисбий частота тақсимоти**	**Фоизли чатота тақсимоти**
			
Кирувчи	1504126	0.328	32.8
Чиқувчи	2001521	0.437	43.7
Ички	1069165	0.233	23.3
Жами	**4574812**	**1**	**100**
Ташриф буюрувчилар, 2021	**Частота тақсимоти**	**Нисбий частота тақсимоти**	**Фоизли чатота тақсимоти**
			
Кирувчи	1881345	0.301	30.1
Чиқувчи	2194847	0.351	35.1
Ички	2162660	0.346	34.6
Жами	**6238852**	**1**	**100**
Ташриф буюрувчилар, 2022	**Частота тақсимоти**	**Нисбий частота тақсимоти**	**Фоизли чатота тақсимоти**
			
Кирувчи	5232781	0.406	40.6

[41] Ўзбекистон миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистонда туризм 2020-2023. 162 б. 29 б. асосида ҳисоблаб чиқилди.

Чиқувчи	5163177	0.401	40.1
Ички	2474981	0.192	19.2
Жами	**12870939**	**1**	**100**
Ташриф буюрувчилар, 2023	**Частота тақсимоти**	**Нисбий частота тақсимоти**	**Фоизли чатота тақсимоти**
			
Кирувчи	6626302	0.449	44.9
Чиқувчи	4787437	0.324	32.4
Ички	3317649	0.225	22.5
Жами	**14731388**	**1**	**100**

Муҳокама

Кирувчи туризмнинг ташриф буюрувчилар орасидаги катта ҳажмга эга бўлиши аввало туристик даромад мултипликатори ҳамда миллий иқтисодиётга валюта оқимларининг сезиларли таъсирини ҳисобга олган ҳолда соҳани ликвидлилигини оширишга йўналтирилган меъёрий – ҳуқуқий асослар яратилиши билан изоҳланади. Кирувчи туризмнинг кумулятив тақсимотига келадиган бўлсак.

2- жадвал

Ўзбекистонда кирувчи туризмнинг кумулятив тақсимоти

Йиллар	Йиғиндиси, бирлик	Нисбий ўзгариш	Фоизда
2020	1504126	0.098	9.86
2021	3385471	0.222	22.20
2022	8618252	0.565	56.53
2023	**15244554**	**1**	**100**


Ўзбекистонга кирувчи туризм айнан 2022 йилда тўпланган деган хулосага келиш мумкин. Уларнинг аксари йўқлов мақсадларидан иборат бўлган.

3- жадвал

Ўзбекистонда кирувчи туризмни мақсадлари бўйича тақсимоти

Мақсадлар	2020-2023 йиллар жами	Нисбий ўзгариш	Фоизда
Хизмат юзасидан	305407	0.020	2.00
Ўқиш	36701	0.002	0.24
Сайёҳлик	1449818	0.095	9.51
Қариндошларга ташриф	13153175	0.862	86.28
Даволаниш	178698	0.011	1.175
Тижорат	120755	0.007	0.792
Жами	**15244554**	**1**	**100**

Ўзбекистонга 2020 – 2023 йиллар давомида дунёнинг 60 дан зиёд давлатларидан кирувчи туризм ташрифлари амалга оширилди. Хусусан, йирик кирувчи давлатлар қаторида Қизғизистон, Қозоғистон, Россия, Тожикистон муҳим ўринга эга.



1 – расм. Ўзбекистонда кирувчи туризмни мақсадлари бўйича тақсимоти

Қайд этиш керакки, кирувчи туристлар сонининг давлатлар кесимида синфларга тақсимласак 9 синфдан қарийиб 4 та синф частотасига кирувчи давлатлар гуруҳлари юзага келди. Бундан, давлатлардан кирувчи ташриф буюрувчилар сони жуда камлиги келиб чиқмоқда. Айнан қўшни давлатлардан кирувчи туристлар катта улушга қолган давлатлардан келувчи туристлар кам сонли улушга тенг бўлмоқда. Туристлар сонининг катта тафовутда тебрашини камайтириш туризм саноатида кескин бурилишлар амалга оширишни талаб этмоқда.

Жадвалга мувофиқ, кам сонли кирувчи турислар жами давлатлар улушида 93.3 фоизни ташкил этмоқда. Тўртта давлат, Қирғизистон (4.274.122), Тожикистон (4.228.695), Қозоғистон (3.873.924) ва Россия

(1.554.092) кўп сонли туристик оқимларга эга бўлиб, жами давлатлардаги ҳиссаси 6.7% га тенг бўламоқда.

4 - жадвал


Ўзбекистонга кирувчи туристларнинг давлатлар бўйича тақсимоти, 2020 – 2023 й.й.

Кирувчи туризм синфлари	Давлатлар сони	Нисбий кўрсаткич	Фоизда
2000 – 499.000	56	0.933	93.3
500.000 – 997.000			
998.000 – 1.495.000			
1.496.000 – 1.993.000	1	0.016	1.6
1.994.000 – 2.491.000			
2.492.000 – 2.998.000			
2.990.000 – 3.487.000			
3.448.000 – 3.999.000	1	0.016	1.6
3.986.000 – 4.483.000	2	0.033	3.3
Жами	**60**	**1**	**100**

Географик нуқтаи назардан олиб қараганда ён қўшни давлатлар ҳисобланиб, 3 – жадвалга кўра уларнинг 86.2 фоизи қариндошларни йўқлаш мақсадида ташрифлардан иборат бўлмоқда. Табиийки, туристик оқимларнинг ортиши туристик мултипликаторнинг ортишига олиб келади, бироқ Ўзбекистонда сайёҳлик тенденциялари кам фойдали мултипликаторни изоҳламоқда. Туризм саноатининг комплекс тараққиёти ҳам кўп жиҳатдан шунга боғлиқ. Қўшимча равишда қайд этиш керакки, Марказий Осиё мамлакатлари ўзаро географик кенгликларга эришиши керак. Сабаби юқоридаги таҳлиллар туристик оқимларнинг ортиши яқин минтақалар ҳисобига юз беришини белгиламоқда.


Келгусида Ўзбекистонда кирувчи туризмни прогноз баҳоларда таҳлил қилганимизда вариация коэффициенти CV 0.571 га тенглиги маълумотларнинг марказдан нобарқарор тарқалганлигини башоратлашда ноаниқликлар келтириб чиқаради. Сабаби маълумотлар марказий тенденцияларга нисбатан анча тарқоқлик аҳамиятига эга.

3- жадвалга мувофиқ кирувчи туризм йўқлов ҳисобига таъминланишини аввал Ўзбекистонда истиқомат қилган кейинчалик турли мақсадларда кўчиб кетганлар ҳисобига деган гипотезани қўйиш мумкин. Ўзбекистонда кирувчи туризм ривожланишини мамлакатдан кўчиб кетганларга нисбатан корреляцион $r_{xy}=\frac{s_x}{s_x s_y}$ таҳлил қилинганда *r -.472* туризм оқимлари кўчиб кетганларга тескари боғланганлиги ҳосил бўлди.



2 - расм. Ўзбекистонда кирувчи туризм маълумотларининг беш қийматли ифодаси

Буни қуйидаги диаграммадан ҳам кўриш мумкин. Мазкур диаграммада нуқталар жойлашуви асосан I, II, ва IV квадрантларда жойлашмоқда. Демак кирувчи туризм оқимлари қариндошларни йўқлов ҳисобига ошмаган бўлса, статистик маълумотларда асосий оқим мақсади йўқловга тенглигини инобатга оладиган бўлсак миллий статистиканинг кирувчи туризмдаги асосий манбаси йўқлов бўладиган бўлса қўйилган гипотеза ўз ифодасини топмади. Бундан келиб чиқиб, Ўзбекистонда кирувчи туризмнинг 86 фоизидан ортиғи йўқлов ҳисобланмас экан деган хулосага келиш мумкин.



3 - расм. Ўзбекистонда кирувчи туризм ортишини кўчиб кетганларга нисбатан корреляцион таҳлили

Юқоридаги таҳллиларга асосан қайд этиш мумкинки, Ўзбекистонда кирувчи туризм туроператорлар учун манфаатли ҳисобланмайди. Сабаби

йўқлов туризми оилавий муҳим маросимлар, тўйлар ва шу каби маъракалар билан боғлиқ бўлиб, соҳа категорияларига ортиқча эҳтиёж туғдирмайди. Кирувчи туризм мултипликатор аҳамияти миллий иқтисодиётда сезилмас аҳамият касб этади. Сабаби умумий жойлаштириш воситаларидан фойдаланмайди, хусусий уй – жойлардан текин фойдаланади,

4 - жадвалда кирувчи туризмнинг давлатлар бўйича тақсимотида 93.3 фоиз давлатлардан 2000 – 500.000 интервалда сайёҳлар кириб келиши Ўзбекистон туризм саноатини барқарор ривожлантиришнинг муҳим манбаларига айланишига эътибор қаратиш зарур. Бу борада туризм аутсорсинг компаниялар хизматларидан кенг кўламда фойдаланиш катта ҳажмли манфаатларга туртки беради. Хусусан тур компанияларнинг хизматларни онлайн савдоларни оширишда, нархлар жиҳатидан реал табақалашган тур пакетлар тузишда, жозибадор дестинацияларни реклама акцияларини кенг тарқатишда ҳамда туристик маркетинг стратегияларини ишлаб чиқишда аҳамиятлидир.

Хулоса ва таклифлар

Ўзбекистон туризм саноати категориялари доимий равишда фаолиятида оптималлаик ва трансформациялашувда аутсорсинг хизматлардан фойдланиш тамойилларига амал қилишлари талаб этилади. Туристик компанияларнинг асосий фаолиятдан узоқлашмаган ҳолда аутсорсинг хизматлардан фойдаланиши соҳанинг даромадлилигини оширишига олиб келади.

Тур компанияларнинг атусорсинг хизматлардан туристик маркетинг стратегияларини ишлаб чиқишда фойдаланиш. Мазкур хизматлар туристлар ҳоҳиш – истаклари, эҳтиёжларини доимий ўрганиши асосида тур компанияларга зарурий тенденцияларни тақдим этади.

Туристик оқимларни оптималлаштиришда аутсорсинг хизматларни ташкил этиш. Бу туристларнинг ҳудудлар бўйлаб самарали тақсимланишини, логистика, хизмат кўрсатиш ва инфратузилма юкламасини мувофиқлаштиришда катта аҳамият касб этади.

Адабиётлар

1. Vergori, A.S., Colacchio, G. & Suppa, D. Accommodation Statistics and Unobserved Inbound Tourism: The Italian Case Study. *Ital Econ J* (2025). https://doi.org/10.1007/s40797-025-00328-3.

2. Zhiyu Shi. Analysis of the Influencing Factors on Inbound Tourism. Highlights in Science, Engineering and Technology TPCEE 2023 Volume 72 (2023).

3. Fong-Ching Yuan. Intelligent forecasting of inbound tourist arrivals by social networking analysis. Volume 558, 15 November 2020, 124944.

4. Ўзбекистон миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистонда туризм 2020-2023. 162 б. 29 б.

5. Song Hongjuan. Trends and Pattern Changes in the Integration of China's Tourism Industry-Based on Unstructured Data. Management Review, 2023, 35: 97-107.

6. Lu Lin, Yu Fenglong. Analysis of spatial characteristics of differences in China's tourism economy. Economic Geography, 2005, 25(3): 5.

7. Wang Degang. Conforming to the trend of global tourism to promote the transformation and upgrading of scenic spots. China Tourism News, 2018.

KORXONADA BREND EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI

Sa'dulloyev Habibullo Ibodullo o'g'li
"Proactive Marketing Agentligi" ta'sischisi
E-mail: Proactive.agency.uz@gmail.com
Orcid: 0009-0005-9591-4896

Annotatsiya. *Ushbu maqolada brend-ekotizimining nazariy va amaliy asoslari, uning marketing strategiyalaridagi o'rni hamda iste'molchilar va manfaatdor tomonlar o'rtasida o'zaro aloqalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Brend ekotizimi - bu brendning barcha komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va uyg'unlikni ta'minlovchi tizimli yondashuv bo'lib, u korxona faoliyatining barcha sohalariga integratsiyalashadi. Maqolada brend ekotizimini shakllantirishning asosiy bosqichlari, metodlari va baholash ko'rsatkichlari tahlii qilinadi, shuningdek, muvaffaqiyatli brend ekotizimlarining amaliy misollari keltirilgan. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, brend-ekotizimining asosiy elementlari, innovatsion yondashuvlar va barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasi ko'rib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *brend ekotizimi, brend strategiyasi, mijoz sodiqligi, brend arxitekturasi, brend identifikatsiyasi, marketing strategiyasi.*

Abstract. *This article discusses the theoretical and practical foundations of the brand ecosystem, its role in marketing strategies, and its importance in building relationships between consumers and stakeholders. A brand ecosystem is a systematic approach that ensures the interconnection and harmony of all components of a brand, which is integrated into all areas of an enterprise's activities. The article analyzes the main stages, methods, and evaluation indicators of the formation of a brand ecosystem, as well as practical examples of successful brand ecosystems. The study analyzes the scientific works of foreign and domestic scientists and considers the main elements of the brand ecosystem, innovative approaches, and its contribution to sustainable development.*

Key words: *brand ecosystem, brand strategy, customer loyalty, brand architecture, brand identity, marketing strategy.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы экосистемы бренда, её роль в маркетинговых стратегиях и значение в построении отношений между потребителями и заинтересованными сторонами. Экосистема бренда – это системный подход, обеспечивающий взаимосвязь и гармоничность всех компонентов бренда, интегрируя его во все сферы деятельности предприятия. В статье анализируются основные этапы, методы и показатели оценки формирования экосистемы бренда, а также приводятся практические примеры*

успешных экосистем бренда. В исследовании анализируются научные труды зарубежных и отечественных учёных, рассматриваются основные элементы экосистемы бренда, инновационные подходы и её вклад в устойчивое развитие.

Ключевые слова: *экосистема бренда, стратегия бренда, лояльность клиентов, архитектура бренда, идентичность бренда, маркетинговая стратегия.*

Kirish

Bugungi global iqtisodiyotda kompaniyalar o‘rtasidagi raqobat tobora kuchayib borar ekan, kuchli va izchil brend platformasiga ega bo‘lish korxonaning barqarorligi, mijozlar bilan aloqasi va bozordagi pozitsiyasi uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar chuqurlashayotgan, xususiy sektor va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish rivojlanayotgan hozirgi bosqichda korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda brend platformasining mavjudligi muhim rol o‘ynamoqda. Mahalliy brendlar (Artel, UzAuto Motors, Murad Buildings, Texnopark, Chortoq, Nestle) faoliyati shuni ko‘rsatmoqdaki, brend qadriyatlarini aniq belgilash, ularni kommunikatsiya vositalari orqali ifodalash, mijoz ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi uchinchi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” ustuvor yo‘nalishining 28-maqsadida “Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish” belgilab berilgan [1]. Ushbu 28-maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish, jumladan milliy va xorijiy brenddagi tayyor mahsulot eksporti hajmini 2026-yilda 5 mlrd. AQSh dollariga yetkazish. Dunyodagi mashhur «N&M» (Shvetsiya), «ZARA» (Ispaniya), LC Waikiki (Turkiya), «PUMA» (Germaniya), «Reebok» (Buyuk Britaniya), «Uniqlo» (Yaponiya) kabi brendlari bilan hamkorlikda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. Bunda: brend egalarini O‘zbekistonga taklif etib, tayyor mahsulot eksportchi korxonalari bilan hamkorlik o‘rnatish; tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarni xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda o‘qitishga qaratilgan [1].

Zamonaviy raqobatbardosh bozorda korxonalar nafaqat mahsulot yoki xizmat sifati, balki kuchli brend orqali ham farqlanmoqda. Brend ekotizimi tushunchasi so‘nggi yillarda keng tarqalib, an'anaviy brend boshqaruvidan tashqari, brendning barcha jihatlarini qamrab oluvchi yaxlit tizimni ifodalaydi. Brend ekotizimi - bu brendning barcha elementlari, ularning o‘zaro ta'siri va mijozlarga ta'sirini tushunishga qaratilgan strategik yondashuvdir.

Brend ekotizimini yaratish zarurati zamonaviy bozor sharoitida tobora ortib bormoqda. Globallashuv, raqamlashtirish va iste'molchilar hatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar korxonalarni brendning barcha ko‘rinishlarida izchil va qadriyatli tajriba yaratishga majbur qilmqoda. Muvaffaqiyatli brend ekotizimi nafaqat mijozlar sodiqligini oshiradi, balki korxonaning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlaydi, yangi bozorlarga kirishni osonlashtiradi va moliyaviy natijalarni yaxshilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Brend ekotizimi tushunchasi so‘ngi o‘n yilliklarda marketing va brend menejmenti sohasida keng o‘rganilayotgan mavzudir. Ushbu adabiyotlar sharhida brend ekotizimining nazariy asoslari, uning rivojlanish bosqichlari va turli mintaqalarda o‘rganilish jihatlari tahli qilinadi.

Brending sohasida etakchi xorijiy olimlardan Keller K.L. (2020) o‘zining "Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity" asarida brendning atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘siriga asos solgan. Uning fikriga ko‘ra, brend nafaqat mahsulot, balki iste'molchi ongida ma‘lum tasavvurni shakllantiruvchi tizimdir deb ta'riflaydi va brend ekotizimini shakllantirishning 4 bosqichli modelini taklif etadi:

1) brend identifikatsiyasini yaratish;
2) brend g‘oyasini shakllantirish;
3) brend reaktsiyasini qo‘zg‘atish;
4) brend munosabatlarini mustahkamlash [2].

Aaker D.A. (1996) "Building Strong Brands" asarida brend ekotizimini 5 asosiy elementga ajratadi:

1) brend obro‘si;
2) brend sodiqligi;
3) tan olinish darajasi;
4) qo‘shimcha qadriyatlar;
5) bozor ulushi [3].

O‘zbekiston Marketing Assotsiatsiyasi (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda mahalliy korxonalarda brend ekotizimi bilan bog‘liq quyidagi muammolar aniqlangan:

1) brend strategiyasining uzluksizligi yo‘qligi;
2) ichki brendlashtirishning etarli emasligi;
3) raqamli muhitda brend boshqaruvining zaifligi [4].

Alimov T.D. (2022) "O‘zbekiston korxonalarida brend menejmenti" monografiyasida mahalliy bozor sharoitiga moslashtirilgan brend ekotizimi modelini taklif etadi hamda milliy korxonalar uchun quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi:

1) mahalliy madaniyat elementlaridan foydalanish;

2) an’anaviy va zamonaviy kommunikatsiya kanallarini uyg‘unlashtirish;

3) hududiy bozorlar xususiyatlarini hisobga olish [5,6].


Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, brend ekotizimi global miqyosda keng o‘rganilayotgan mavzu bo‘lsa-da, mahalliy kontekstda hali yetarlicha o‘rganilmagan. Xorijiy tadqiqotlar nazariy va metodologik asos yaratgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston bozori uchun maxsus yondashuvlar ishlab chiqish zarur. Mahalliy tadqiqotlar soni ortayotganiga qaramay, ular hali tizimli va keng qamrovli emas. Kelajakdagi tadqiqotlar mahalliy xususiyatlar, madaniy qadriyatlar va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda brend ekotizimini chuqurroq o‘rganishga qaratilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil – brend, brend arxitekturasi, brend ekotizimi va korporativ identifikatsiya bo‘yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlar o‘rganildi, kontent tahlil – yirik brendlar ekotizimining strukturasini o‘rganish orqali amaliy asoslar tahlil qilindi, tuzilmaviy komponentlar tahlili – brend ekotizimining asosiy elementlari ajratib ko‘rsatildi.

Tahlil va natijalar

Brend ekotizimi shunchaki bir jarayon emas, u o‘zaro bog‘langan munosabatlar tarmog‘idir. Ekotizim mijozlar, hamkorlar, xodimlar, mahsulotlar, xizmatlar va yaxlit brend tajribasini yaratish uchun o‘zaro ta‘sir qiluvchi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Brend ekotizimining asosiy komponentlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi[42].

[42] Tahlillar asosida muallif tomonidan tuzuldi.

Mijozlar: ular ekotizimning yuragi bo‘lib, ishtirok etish va sodiqlik orqali qiymatni oshiradi. Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida bemorlar, ularning oilalari va tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilar farovonlikka qaratilgan ekotizimni tashkil qiladi.

Hamkorlar: strategik sheriklik imkoniyatlarni oshiradi. Chakana savdoda bu brendlar va ta‘sir o‘tkazuvchilar o‘rtasidagi hamkorlik bo‘lishi mumkin.

Mahsulotlar va xizmatlar: ular uzluksiz foydalanuvchi tajribasini yaratib, bir-birini to‘ldirish uchun mo‘ljallangan. Moliya-bank tizimi, investitsiya va sug‘urta xizmatlarini taklif qiluvchi moliyaviy institutlar misol bolishi mumkin.

Texnologiya: u mobil ilovalardan tortib ma’lumotlar tahlili platformalarigacha bo‘lgan ekotizim ichidagi o‘zaro aloqalarni ta’minlaydi va kuchaytiradi.

Brend ekotizimlari bir nechta asosiy afzalliklarni taqdim qiladi. Ular mijozlarning sodiqligini oshiradi, innovatsiyalarni rivojlantiradi va yangi daromad oqimlarini ochadi.

Brend ekotizimini yaratish puxta rejalashtirish va amalga oshirishni talab qiladi. Barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va hatti-harakatlarini tushunish juda muhimdir. Kompaniyalar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalarga sarmoya kiritishlari va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishlari kerak.

Ekotizimlar faqat yirik korxonalar uchun emas. Hatto kichik biznes ham o‘z mijozlari va hamkorlari bilan mustahkam aloqalar o‘rnatishga e‘tibor qaratib, samarali ekotizimlarni yaratishlari mumkin.

Brend ekotizimini rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish juda muhim hisoblanadi. Strategik rejalashtirish - bu rivojlanayotgan brend ekotizimini samarali faoliyat ko‘rsatishida rahbarlik qiluvchi yo‘l xaritasi hisoblanadi. Aniq yo‘l xaritasi bo‘lmasa, harakatlar tarqoq bo‘lib ketishi, resurslar isrof bo‘lishi va imkoniyatlarni boy berishi mumkin.

Brend ekotizimiga ega bo‘lish korxonalar uchun ham, iste’molchilar uchun ham o‘zaro manfaatli. Muvaffaqiyatli brend ekotizimlari mahsulot portfelini sezilarli darajada kengaytiradi, bu esa iste’molchilarga ularning kundalik hayotiga mos keladigan ko‘proq mahsulotlarni topish imkonini beradi. Shu sababli, iste’molchilar o‘z ehtiyojlarini boshqalarga qarash o‘rniga, bitta brend tomonidan qondirish ehtimoli ko‘proq. Bu tashkilot uchun foydali bo‘lgan brendga sodiqlikning oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, o‘z portfelini kengaytirib, biznes savdo tendensiyalarining yuqori va past darajalariga yaxshiroq dosh bera oladi, yangi auditoriyalarni qamrab oladi va umumiy obro‘sini oshiradi.

Masalan, Google, Apple va Facebook kabi yirik brendlarni olaylik. Ushbu korxonalar yirik, gullab-yashnagan brend ekotizimlariga ega bo‘lib, ular boshqa tegishli xizmatlar va mahsulotlarga organik ravishda olib keladigan xizmatlar va mahsulotlarni ilgari suradi. Shuning uchun ular o‘z mijozlarining ehtiyojlarini

oldindan bilish va qondirishga qodir, bu esa mijozlarni o‘z takliflari bilan shug‘ullanishga undaydi.

Xulosa va takliflar

Brend ekotizimini yaratish - bu korxona faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oluvchi murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ushbu o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, muvaffaqiyatli brend ekotizimi nafaqat marketing strategiyasini, balki korxona biznes strategiyasining markaziy elementi hisoblanadi.

Brend ekotizimini yaratishda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagilarga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1) brend ekotizimi yaratishni korxona strategiyasining ajralmas qismi sifatida qarash;

2) brend qadriyatlari korxona madaniyati va qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiyalashganligiga ishonch hosil qilish;

3) brend ekotizimini muntazam ravishda baholash, nazorat qilish va takomillashtirish tizimini joriy etish;

4) ichki brendlashtirishga alohida e’tibor berish kerak, chunki ishchi (xodim)lar brendning asosiy elchilari hisoblanadi;

5) brend ekotizimini dinamik tizim sifatida qabul qilish va uni bozor o‘zgarishlariga moslashtirish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 − 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5841063

2. Keller, K. L. (2020). Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity (4th ed.). Pearson Education.

3. Aaker, D. A. (1996). Building Strong Brands. New York: Free Press.

4. O‘zbekiston Marketing Assotsiatsiyasi. (2023). O‘zbekiston bozorida brend menejmenti holati.

5. Alimov, T. D. (2022). O‘zbekiston korxonalarida brend menejmenti. TDIU nashriyoti.

6. Sa’dulloyev H.I. Kompaniyalar ekomarketing strategiyasida “yashil” brending tendensiyalari. Marketing. Ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. Elektron Nashr. 31 iyul, 2025-yil. https://www.marketingjournal.uz/post/sa-dulloyev-habibullo-ibodullo-o-g-li

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI VA "RAQAMLI O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI

Sharipova Shahnoza Baxtiyorovna
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 14 – umumiy o'rta ta'lim maktabida matematika fani o'qituvchisi

Annotasiya. *Ushbu maqolada raqamli (elektron) iqtisodiyotning mazmuni va unga o'tishning zaruriyati, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili, 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari yoritilgan.*

Tayanch iboralar: *raqamli (elektron) iqtisodiyot, Yalpi ichki mahsulot, samaradorlik ko'rsatkichlari, prognoz.*

Аннотация. *В статье рассматриваются содержание цифровой (электронной) экономики и необходимость перехода к ней, анализ экономических показателей развития цифровой экономики в нашей стране, показатели эффективности достижения целей к 2030 году и целевые индикаторы стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030».*

Ключевые слова: *цифровая (электронная) экономика, ВВП, показатели эффективности, прогноз.*

Abstract. *This article discusses the content of the digital (electronic) economy and the need for transition to it, an analysis of economic indicators in the development of the digital economy in our country, performance indicators of the goals to be achieved by 2030, and target indicators of the "Digital Uzbekistan — 2030" strategy.*

Key words: *digital (electronic) economy, GDP, performance indicators, forecast.*

Kirish

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha xorij tajribasi va ulardan foydalanish maqbul yo'llarini belgilash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib qolmoqda.

Raqamli (elektron) iqtisodiyot bu – axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uning o'ziga xos xususiyati bo'lgan iqtisodiyotdir. Bu axborot-kommunikasiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikdagi butun dunyoda barcha iqtisodiy faoliyat subektlari – tovarlar va hizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayoni obektlari va subektlarining to'laqonli o'zaro aloqa qilish imkoniyatini ta'minlaydigan infratuzilma ochiqligi tufayli mavjud bo'lishi mumkin. To'laqonli o'zaro aloqa qilish uchun barcha iqtisodiyot obektlari va subektlari sezilarli raqamli tarkibiy qismlarga ega bo'lishi lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilash, shuningdek, BMTning

Barqaror rivojlanish maqsadlari va elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalari, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilib, ularning huquqiy asoslari ham takomillashtirilib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili

“Iqtisodiyot va jamiyatning “raqamlashtirish” jarayoni (ingliz tilida – digitization ya’ni, raqamlashtirish, ba’zan esa digitalization ya’ni raqamlashtirilishi ma’nosini bildiradi.) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma’noda “raqamlashtirish” jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash va assimilyasiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishni anglatadi. axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalaridir”[43].

“Axborot” tushunchasini bugun yuzaga kelgan hodisa sifatida qabul qilmaslik kerak, chunki biz uchun oddiy bo‘lgan kundalik haètda ham “axborot” tushunchasi ko‘pincha subektning atrof olam, o‘zi va boshqa subekt to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘indisi sifatida talqin etiladi. Shu ma’noda, subektga axborot o‘zining maqsadli faoliyatini adekvat amalga oshirish imkoniyatlarini belgilash uchun zarur.

Axborotning eng sodda klassik ta’rifi bu – ma’lumot berishdir. N.Viner fikricha, «axborot tashqi muhitga moslashish (ko‘nikish) jarayonida undan olingan ma’lumot, signalning mazmunini ifodalash»[44]. Bu yerda axborot tashqi olamni aks ettirish (gnoseologik jihat) va adaptasiya (unga moslashish) sifatida ifodalanadi. Tadqiqotda o‘rganilgan ta’riflarning har biri “axborot” tushunchasining u yoki bu qirrasini ochib bersa-da, ushbu tushunchaga hanuzgacha aniq bir ta’rif berilmagan. Shuningdek, tadqiqotda axborot tushunchasining ta’riflari quyidagi turlarga bo‘lingan: «axborotning paydo bo‘lishi hayot fenomeni bilan bog‘liq»[45]; «axborot subektning maqsadli faoliyati bilan bog‘liq»[46]; «axborot tartiblangan, tashkillashgan sharoitlarda vujudga keladi»[47]; «axborot biologik tuzilmalarning evolyusiya jarayonida o‘z-o‘zini tashkillashtirish qo‘llanmasidir».

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, aytish mumkinki, axborot bir-biriga adekvat bo‘lgan ketma-ketliklarning o‘zaro aloqasi jarayonida paydo bo‘ladi hamda jamiyatning tadrijiy rivojlanishida qimmatli axborot, uni ishlab chiqish (generasiya) usullari muhim o‘rin tutishi tahlil etilgan. Shuningdek, fanning zamonaviy yutuqlari axborotni inson faoliyatining barcha sohalarida qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

---

[43] https://rgsbm.uz/uploads/docs/55288f7fd1caf46a97455e5e34fd15c8.pdf
[44] Винер Н. Человек управляющий. – СПб: Питер, 2001. – С.48.
[45] Кастлер Г. Возникновение биологической организации. – Москва, 1967. – С.20.
[46] Моисеев Н.Н. Человек, среда, общество. – Москва: Наука, 1982. – С.74.
[47] Эйген М., Винклер Р. Игра жизни. – Москва, 1979. – С.18.

Asosiy ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (asosiy qism)

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahliliga e’tibor bersak Respublikamizning yalpi milliy mahsulotdagi axborot kommunikasiya texnologiyalari sohasining ulushini quyidagi 1- jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Unga ko‘ra yalpi ichki mahsulotni 100 % deb olsak, Axborot kommunikasiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik) 2020- yilda 1,62%, 2022- yilga kelib bu ko‘rsatkich 1.93 %ni tashkil etdi. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik) 2020- yilda 1,92 %, 2022- yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,32 %ni tashkil etdi. AKT savdosida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi 2020- yilda 0,05 %, 2022- yilga kelib bu ko‘rsatkich 0,07 ni tashkil etdi.

1-jadval

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yalpi ichki mahsulotdagi ulushi[48]


Ko‘rsatkichlar nomi	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi	0,00	0,00	0,00	0,03	0,05	0,11	0,57	1,16
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)	0,15	0,17	0,18	0,20	0,19	0,19	0,21	0,23
AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi	1,64	1,81	1,89	1,66	1,39	1,48	1,56	1,76
AKT savdosida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi	0,07	0,10	0,10	0,06	0,06	0,05	0,05	0,07
AKT ishlab chiqarishda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)	0,07	0,06	0,08	0,08	0,06	0,10	0,07	0,10
Axborot kommunikasiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)	1,78	1,96	2,07	1,81	1,50	1,62	1,69	1,93

[48] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti (stat.uz) ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)	1,93	2,13	2,26	2,03	1,74	1,92	2,47	3,32

AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi 2020- yilda 1,48 %, 2022- yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,76 %ni tashkil etgan. Ushbu jadvalni tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda bu ko‘rsatkichlar past darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.


Raqamli iqtisodiyot sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi belgilangan elektron tijorat yo‘nalishi ham o‘zining rivojlanish bosqichiga kirib ulgurdi. Quyidagi tahlilda axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmining tahlili yoritilgan.



1-rasm. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi (mlrd. so‘m)[49]

Yuqoridagi tahlildan ko‘rishimiz mumkinki, 2017-yilda axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat birgalikda 6 milliard so‘mdan ortiq daromad qilingan bo‘lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko‘rsatkich 28 milliard so‘mga yaqinlashdi, bu o‘z navbatida salkam 3 barobarlik o‘sishni ifodalaydi. Quyidagi diagrammada axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorinining YaIM dagi ulushi ko‘rsatilgan.

[49] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti (stat.uz) ma’lumotlari asosida tayyorlangan.



2-rasm. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi[50]

Yuqoridagi tahlildan ko‘rishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning YaIMdagi ulushi u qadar yuqori emas, bunga sabab, aholining raqamli ko‘nikmalar darajasining pastligi, internet narxining yuqoriligi va texnologik qurilmalarga egalik qilish nomutanosib taqsimlanganligidadir. 2021-yil yakuniga ko‘ra Jahon miqyosida umumiy YaIMning 5% raqamli iqtisodiyot sektoriga to‘g‘ri kelmoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirishni ta’minlashga va raqamli iqtisodiyotga o‘tishga to‘sqinlik qilayotgan qator hal qilinmagan muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, davlat axborot tizimlarini rivojlantirishning yagona prinsiplari ishlab chiqilmagan, ushbu sohadagi tadbirlar esa o‘zaro va boshqa axborot tizimlari bilan uzviy bog‘lanmagan holda amalga oshirilmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar:

– yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot va mobil aloqa tarmoqlaridan sifatli, xavfsiz, arzon va oqilona foydalanish;

– aloqa va telekommunikasiyalarning ochiq va raqobatbardosh bozori;

– barcha ijtimoiy obektlarni Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta’minlash;

– respublika bo‘ylab optik tolali aloqa tarmog‘ining uzunligini kengaytirish;

– aholi punktlarini yuqori tezlikdagi aloqa texnologiyalari (4G va b.) bilan qamrab olish darajasini oshirish;

– shaharlar va qishloqlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish;

– elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish;

– elektron davlat xizmatlari ulushini oshirish;

[50] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti (stat.uz) ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

– elektron davlat xizmatlariga ishonchni mustahkamlash, aholining davlat organlari bilan xavfsiz va oson o‘zaro hamkorlik qilishini ta’minlash;

– davlat, biznes va aholining ehtiyojlariga qarab, hisoblash quvvatini samarali taqsimlash va undan foydalanish;

– respublika bo‘ylab kommunal sohada elektron hisoblagichlar ulushini oshirish;

– an’anaviy qog‘oz yoki elektron hujjatga nisbatan elektron yozuvning ustunligi;

– investisiya muhitini yaxshilash, axborot texnologiyalari sohasida investisiyalar samaradorligini oshirish;

– aholining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– aholining barcha qatlamlari uchun axborot texnologiyalari sohasida ta’lim olish bo‘yicha keng imkoniyatlarining mavjudligi;

– axborot texnologiyalari sohasidagi professional kadrlar zaxirasining, shu jumladan boshqaruv kadrlari zaxirasining mavjudligi;

– IT-yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari sonini oshirish;

– respublikaning barcha tumanlarida (shaharlarida) raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarini tashkil etish.

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari kelib chiqib, 2030- yilgacha bo‘lgan davrda Respublika bo‘ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog‘ining uzunligini 250 ming kmga, Respublika hududlarining yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan qamrov darajasini 100 %ga yetkazish ko‘zda tutilgan (2-jadval).

2-jadval

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari[51]

T/r	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Joriy holati	Yillar kesimidagi maqsadlar		
				2022	2025	2030
1.	Respublika bo‘ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog‘ining uzunligi	ming km	41	70	120	250
2.	Respublika hududlarining yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan qamrov darajasi	foiz	67	74	85	100
3.	Ijtimoiy obektlarning yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta’minlanganlik darajasi	foiz	45	100	100	100
4.	Uy xo‘jaliklarining keng polosali Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta’minlanganlik darajasi	foiz	67	74	85	100
5.	Aholi punktlarining keng polosali mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrov darajasi	foiz	78	100	100	100
6.	Elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida	ball (0-1	0,66	0,70	0,75	0,86

[51] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga 2-ILOVA

	“Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi”ning samaradorlik ko‘rsatkichi	oralig‘ida)				
7.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlariga nisbatan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlarining ulushi	foiz	34	60	70	90
8.	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali elektron davlat xizmatlariga nisbatan mobil qurilmalar yordamida foydalanish imkoniyatiga ega elektron davlat xizmatlari ulushi	foiz	5	30	42	60
9.	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan tranzaksiyaviy xizmatlar ulushi	foiz	25	45	60	75
10.	Korxona resurslarini boshqarish tizimini (YeRR) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi subektlar ulushi	foiz	20	40	65	100
11.	Onlayn bank xizmatlari foydalanuvchilari soni (yuridik va jismoniy shaxslar)	mln nafar	10	15	17	20
12.	Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining inkubasiya va akselerasiya dasturlariga kiritilgan startap-loyihalar soni	dona	50	250	700	2 300
13.	Axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash bo‘yicha oliy ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim muassasalariga qabul kvotalar soni	ming	7	12	15	20

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda “2030 yilgacha bo‘lgan davrda Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlariga nisbatan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlarining ulushini 90 %ga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali elektron davlat xizmatlariga nisbatan mobil qurilmalar yordamida foydalanish imkoniyatiga ega elektron davlat xizmatlari ulushini 60%ga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda iqtisodiyot tarmoqlarining barchasida raqamli iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada o‘sib kelmoqda, bu o‘z navbatida sohalarda raqamli transformasiyaning oshishiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng miqysoda foydalanish mamlakatning iqtisodiyot ulushida raqamli iqtisodiyotning oshishiga olib kelishiga guvohi bo‘lmoqdamiz.

Raqamli (elektron) iqtisodiyot bu – axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan iqtisodiyotdir. Bu axborot-kommunikasiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikdagi butun dunyoda barcha iqtisodiy faoliyat subektlari – tovarlar va hizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayoni obektlari va subektlarining to‘laqonli o‘zaro aloqa qilish imkoniyatini ta’minlaydigan

infratuzilma ochiqligi tufayli mavjud bo‘lishi mumkin. To‘laqonli o‘zaro aloqa qilish uchun barcha iqtisodiyot obektlari va subektlari sezilarli raqamli tarkibiy qismlarga ega bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga 2-ILOVA

2. https://rgsbm.uz/uploads/docs/55288f7fd1caf46a97455e5e34fd15c8.pdf

3. Винер Н. Человек управляющий. – СПб: Питер, 2001. – С.48.

4. Кастлер Г. Возникновение биологической организации. – Москва, 1967. – С.20.

5. Моисеев Н.Н. Человек, среда, общество. – Москва: Наука, 1982. – С.74.

6. Эйген М., Винклер Р. Игра жизни. – Москва, 1979. – С.18.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti (stat.uz) ma’lumotlari.

8. Muallif ishlanmasi

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich
Ma’mun universiteti
“Biznesni boshqarish” kafedrasi dotsenti, (Phd)
E-mail: ihtiyorshb@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada asosiy e’tibor kichik biznes faoliyatining turli jihatlariga qaratilib, mamlakat iqtisodiyotidagi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari, shuningdek, raqamli transformatsiya va elektron tijorat kabi zamonaviy yondashuvlar keng yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *kichik biznes, tadbirkorlik, mikrofirma, xizmatlar, chakana savdo, tadbirkorlik subyektlari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются различные аспекты деятельности малого бизнеса, охватывающие основные макроэкономические показатели экономики страны, направления развития малого бизнеса и частного предпринимательства, а также современные подходы, такие как цифровая трансформация и электронная коммерция.*

Ключевые слова: *малый бизнес, предпринимательство, микрофирма, услуги, розничная торговля, предпринимательские субъекты.*

Abstract. *This article focuses on various aspects of small business activities, covering the main macroeconomic indicators of the country's economy, areas for the development of small business and private entrepreneurship, as well as modern approaches such as digital transformation and e-commerce.*

Key words: *small business, entrepreneurship, micro-firm, services, retail trade, entrepreneurial entities.*

Kirish

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o’sishini ta’minlovchi asosiy bo’g’in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo’nalishi hisoblanadi. Respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni qo’llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo’nalishlaridan biri qilib belgilangan. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari ish o‘rinlari yaratish, mahalliy ehtiyojlarni qondirish, o‘ziga xos yangiliklarni joriy etish va bozorni rang-baranglashtirish kabi iqtisodiy funksiyalarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “...yurtimizda bu soha ish o’rni, investisiya, innovasiya, raqobat, qo’shilgan qiymat va eksportni ko’paytirishga eng katta turtki berayotgan yo’nalishga aylandi. So’nggi besh yilda kichik va o’rta tadbirkorlar soni 2 karra ko’paydi. Ularda 10 million 500 ming odam – jami band aholining 74 foizi daromad topib, ro’zg’or tebratayapti. Iqtisodiyot hajmining yarmidan ko’pi, sanoat va eksportning uchdan biri shu soha vakillari hissasiga to’g’ri kelayapti. Ushbu raqamlarning o’ziyoq mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun kichik va o’rta biznes qanchalik muhimligini yaqqol ko’rsatib turibdi. Davlatimiz rahbari shu bois bu yo’nalishni qo’llab-quvvatlash bundan keyin ham davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lishini ta’kidlab o’tdilar[1].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sano-atning etakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o`tishda tobora o`z o`rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish jarayonini ta`minlovchi butun tizimni asosiy bog`lovchilik sifatini o`zlarida namoyon etmoqdalar. Aynan bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari bo’yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi

Tadbirkorlik faoliyati – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Ko’plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o’rni hamda ahamiyati to’g’risida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Amerikalik olim R.Xizrich [2], «Tadbirkorlik o’z qiymatiga ega bo’lgan qandaydir yangi narsani yaratish jarayoni, tadbirkor esa buning uchun barcha zarur vaqti va kunini sarflaydigan, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni

o’ziga olib, evaziga mukofot sifatida pul va erishilgan yutug’idan qanoatlanuvchi shaxs», - deb ta’kidlaydi.

Ingliz professori A.Xoskin esa «ishni o’z hisobidan olib boruvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug’ullanuvchi va kerakli vositalar bilan ta’minlanish uchun shaxsiy javobgarlikka ega, qarorni mustaqil qabul qiluvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor bo’ladi»[3], - deb izohlaydi.

Rus iqtisodchi olimlaridan F.I.Shaxmalovning fikricha “tadbirkorlik mustaqil iqtisodiy faoliyat sifatida investisiya va xavf-xatar bilan bog’liq bo’lib, foyda yoki boshqa qo’shimcha daromad olishdir”[4], deb izohlaydi.

Mamlakatimizda iqtisodchi olimlaridan U.V.Gafurov o’zining [5] ilmiy ishlarida kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga e’tibor qaratgan. Iqtisodchi Q.Sharipov [6] esa kichik biznes faoliyatining tarmoq bo’yicha ixtisoslashuv jarayonlarini tadqiq etgan. Shuningdek, D.Meyliyeva [7] kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish va sotish bilan bog’liq jarayonlarini tatqiq etgan. Bundan tashqari Respublikamiz bir qator olimlarining ilmiy ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumnazariy, xududlar tarmoq muammolari, kichik biznes subyektlarining daromadini oshirish strategiyalari tadqiq etilgan [8, 9, 10]. Shuning uchun, respublikamizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari hisoblangan kichik korxona va mikrofirmalarning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va baholash, hududlar bo’yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning viloyatlar kesimida tahlil qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo’nalishlarini ishlab chiqish hamda kichik korxona va mikrofirmalarning umumiqtisodiy holatidagi o’zgarishlarni o’rganishga zarurat tug’ilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqotning metodologik asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonun osti va me’yoriy-huquqiy hujjatlar, Prezident farmon va qarorlaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot ishiga oid qarashlarni, fikrlarni tahlil qilishda induksiya va deduksiya usullari keng qo’llanildi. O’zbekiston Respublikasi milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlarining tahlilida statistik ma’lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tayanchlaridan biridir. Ular yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini daromad bilan ta’minlash, innovatsion g‘oyalarni hayotga tatbiq etish hamda mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish davlat

siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, so‘nggi yillarda bu sohada sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda.


O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari umumiy yalpi ichki mahsulotning katta qismini shakllantirib kelmoqda. Xususan, ular mamlakatda ish bilan band bo‘lgan aholining qariyb yarmidan ko‘prog‘ini ish o‘rinlari bilan ta’minlamoqda. Shuningdek, eksport salohiyatining katta qismini tashkil etmoqda, hamda xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion va zamonaviy loyihalarni amalga oshirmoqda.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi dinamikasi, % da[52]

2024- yilda YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 54,3 % ni tashkil qilib, 2023 yilga nisbatan o‘zgarishsiz qoldi (1-rasm).

2024- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi hududlar bo‘yicha eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 77,8%, Jizzax viloyatida – 74,4 %, Namangan viloyatida 73,4,%, Farg‘ona viloyatida – 73,1 %, Buxoro viloyatida – 73,0 %, Samarqand viloyatida – 72,3 % va Xorazm viloyatida – 72,3 % ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. 2024- yilda O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulot (YaHM)dagi eng katta ulushiga ega bo‘lgan hududlar[53]

[52] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (https://stat.uz) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.
[53] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (https://stat.uz) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

2024- yilda hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Toshkent shahri – 21,2 %, Xorazm viloyati – 8,9 %, Toshkent viloyati – 8,8 %, Samarqand viloyati – 8,6 %, Farg‘ona viloyati – 7,7 %, Buxoro viloyati – 6,4 % va Surxondaryo viloyati – 6,3 % hissalariga to‘g‘ri kelgan.

2024- yilda mamlakatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 77046 birlikni tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni bo ‘yicha Toshkent shahrida 16298 birlik, Xorazm viloyatida 6860 birlik, Toshkent viloyati 6787 birlik, Samarqand viloyatida 6646 birlikni tashkil etgan (1-jadval).

2024- yilda mamlakatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sonini 100 % deb qarasak, hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni bo ‘yicha Toshkent shahri 21,4 %, Xorazm viloyati 8,9 %, Toshkent viloyati 8,8 %, Samarqand viloyatida 8,6 %ni tashkil etgan.

1-jadval


Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (birlikda)[54]

	2010	**2015**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
O‘zbekiston Respublikasi	32314	26896	93214	98886	90177	86030	77046
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1671	1146	4440	4308	4308	6247	3102
Andijon viloyati	2467	1816	7684	7111	5406	4185	4122
Buxoro viloyati	2025	1476	5928	6418	4413	5633	4963
Jizzax viloyati	1392	1168	4278	4373	4505	4424	4356
Qashqadaryo viloyati	2626	1620	5742	9463	8551	5922	4484
Navoiy viloyati	894	796	4260	4835	4323	3796	2944
Namangan viloyati	2089	1617	6202	6469	5542	4636	3929
Samarqand viloyati	2049	2043	8658	10814	10613	7570	6646
Surxondaryo viloyati	1758	1254	7542	5050	4083	3804	4812
Sirdaryo viloyati	1307	877	2947	2309	2073	2203	1794
Toshkent viloyati	2725	2650	8331	7799	6799	6940	6787
Farg‘ona viloyati	2668	2260	8073	9051	8828	8036	5949
Xorazm viloyati	1810	1292	4632	4914	5655	6347	6860
Toshkent shahri	6833	6881	14497	15972	15078	16287	16298

Davlat tomonidan soliqqa oid imtiyozlar, kreditlash tizimlari, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazishning soddalashtirilishi kichik biznesning rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratmoqda.


[54] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (https://stat.uz) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

2024- yilda kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 466 461,8 mlrd.so‘mni yoki umumiy hajmining 57,0 %ini tashkil etdi (3-rasm). O‘sish sur’ati 2023- yilga nisbatan 113,2 %ni tashkil qildi.



3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi[55]

2024- yil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 32,4,% ni tashkil etdi. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyati (64,8,%), Farg‘ona viloyati (54,5,%), Samarqand viloyati (51,3,%), Namangan viloyati (50,0,%) va Buxoro viloyati (41,2,%) hissasiga to‘g‘ri keldi.



4-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) hajmi va jami hajmidagi ulushi[56]

2024- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 338 802,6 mlrd.so‘mni yoki umumiy chakana tovar aylanmasining 84,0 %ini tashkil qildi. O‘sish sur’ati 2023- yilga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

[55] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (https://stat.uz) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.
[56] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (https://stat.uz) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi Toshkent shahri (64517,9 mlrd.so‘m), Toshkent (33020,7 mlrd.so‘m), Samarqand (31729,7 mlrd.so‘m), Farg‘ona (31585,0 mlrd.so‘m), Andijon (25419,6 mlrd.so‘m), Qashqadaryo (24925,0 mlrd.so‘m) va Surxondaryo (24079,3 mlrd.so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Bunday ijobiy natijalarga erishish bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik oldida turgan bir qator to‘siqlar ham mavjud. Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha keltirish mumkin:

• tadbirkorlar malakasining yetarli darajada yuqori emasligi;

• moliyaviy resurslarning yetishmasligi va kredit olishdagi yuqori stavkalar;

• zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muammolar;

• mahsulotlarni sotishda, xalqaro bozorlarga chiqishda marketing va logistika tizimlarining zaifligi.

Mazkur muammolarni hal etish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan aqlli iqtisodiyot sharoitida, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jahon miqiyosida tobora murakkablashib bormoqda. Negaki, tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun yanada kreativ va tashabbuskor bo‘lishlari hamda tovar (xizmat)lar ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yechimlardan foydalanishi talab etilmoqda [11].

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni asosiy qilib belgilash mumkin:

1. Raqamli transformatsiya - kichik biznes korxonalarida elektron tijorat, internet-marketing va raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqobat kurashida zaruriy choralar hisoblanadi.

2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash - Startap va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlovchi grantlar, davlat kafolatlari hamda past foizli kreditlarni kengaytirish orqali yangi boshlayotgan tadbirkorlar yoki faoliyatida yangi o’zgarishlarni amalga oshirmoqchi bo’lgan tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini yana rivojlantirishga erishish mumkin/

3. Kadrlar salohiyatini oshirish - kasb-hunar ta’limi, biznes-trening markazlarini rivojlantirish orqali tadbirkorlar bilim va tajribasini zamonaviy talablar asosida shakllantirish.

4. Eksport imkoniyatlarini kengaytirish: Mahalliy mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va ularni xorijiy bozorga olib chiqishda davlat ko‘magini kuchaytirish.

5. Hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish: Qishloq joylarda hudud salohiyatidan kelib chiqib kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali hududiy iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish mumkin.

Olib borilgan kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o’rnini yanada oshirish, balki tadbirkorlik faoliyatini yangi pog‘onalarga ko‘tarish va rivojlantirish uchun hali ishga solinmagan katta salohiyat mavjud. Ushbu salohiyatdan foydalanishda tadbirkorlar duch kelayotgan muammolarni tizimli o‘rganish va bartaraf etib borish, yangi turdagi tadbirkorlik faolyatlarini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlarning ishchanlik kayfiyatini oshirish bo‘yicha rag‘batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik biznes va tadbirkorlik – mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadigan soha ekankigi, uning barqaror rivojlanishi, ishchi kuchi bandligini oshirishga imkon yaratadi. Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar, biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari hamda xalqaro tajribani qo‘llash orqali kichik biznesning istiqbollari yanada kengayadi. Bu esa iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlab, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/References)

1. “Tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash – strategik yo’limiz” O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025- yil 19- martdagi kichik va o’rta biznes vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/7955

2. Хизрич Р., Питерс С. Предпринимательство. -М., 1991, 20-бет.

3. Хоскин А. Курс предпринимательства. -М., 1993, 23-бет.

4. Шахмалов Ф.И. Взаимодействие предпринимательских и властных структур: вопросы теории и практики. Автореферат диссертации доктора экономических наук. Санкт-Петербург. 1998. С. 34.

5. G’afurov U.V. Kichik biznesni qo’llab-quvvatlashda imtiyozlardan samarali foydalanishning nazariy masalalari. “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №8, 2013 yil

6. Sharipov Q.B. O’zbekistonda kichik biznes faoliyatida tarmoq bo’yicha ixtisoslashuv jarayonlari // «Iqtisod va moliya» ilmiy-amaliy jurnali. – № 2(132), 2019. 32-38-b. (08.00.00; №18)

7. Meyliyeva D. Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. №6, 2024.

8. Sharipov I.B. O‘zbekistonda kichik korxona va mikrofirmalarning rivojlanganlik darajasini statistik baholash. Marketing, 2(4), 375–383. 2025. https://doi.org/10.5281/zenodo.15802471

9. Sharipov I.B. Kichik biznes subyektlarining daromadini oshirish strategiyalari. O’zbekiston sug’urta bozori, Vol.2, 60–62 b. 2025.

10. Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., Samadov A.N., Sharipov I.B. Kichik biznes va tadbirkorlik. O’quv qo’llanma. – T.: 2010, – 256bet.

11. Bektemirov A. Tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari. Jamiyat va innovasiyalar. Special Issue – 4 (2021) / ISSN 2181-1415

РАЦИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕРРИТОРИИ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ

Ашуров А.Ф.
Доктор философии, доцент НИУ «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства», Факультет «Земельные ресурсы и кадастр», Ташкент, Узбекистан,
E-mail: a.achurov2810@gmail.com

Аннотация. *Мақолада қишлоқ аҳоли яшаш жойларининг, хусусан томорқа ер фондининг мамлакат иқтисодиётидаги аҳамияти ёритиб берилган. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши, чорвачилик маҳсулотлари етиштириш ва уларнинг паст рентабеллилиги, унинг сабаблари, озуқа етишмовчилиги ва бу мауаммоларни ҳал қилиш йўллари келтирилган. Турли минтақалардаги деҳқон хўжаликлари раҳбарлари билан сўровнома натижалари тахлили, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш харажатлари ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш масалалари, томорқа ер участкаларида ўртача маҳсулот етиштириш ҳажмлари тўғрисида маълумотлар келтирилган. Деҳқон хўжаликларида ердан фойдаланишни истиқболли ривожлантириш аспектлари белгиланган шу билан бирга томарқа ва деҳқон хўжалиги ерларидан фойдаланишни бошқаришда ГАТ қўллаш имкониятлари ва унининг истиқболлари масалалари ёритилган*

Калит сўзлар: *Ер фонди, ер турлари, ресурс, меҳнаткаш, субаренда, ер тузиш, массив, полизчилик.*

Аннотация. *В статье говорится о роли в экономике страны землепользовании сельских населённых пунктов и в особенности земли приусадебного земельного фонда. В статье приводится показатели животноводства и говорится о их низ кости, говорится о нехватки кормов и пути его решении. Приводится результаты опрос дехкан разных регионов, говорится о затратах при организации сельскохозяйственного производства. Приведены средние объёмы производства земледельческой и животноводческой продукции, говорится о доходах с приусадебных земель. Намечены основные аспекты перспективного развития землепользо-вания дехканских хозяйств а также возможности и перспективы применение ГИС для управления земель приусадебных и дехканских хозяйств.*

Ключевые слова: *Земельный фонд, земельные угодья, ресурс, труженик, субаренда, обустройства, массив, бахчевые.*

Annotation.*The article outlines the importance of rural settlements, in particular the role of land fund in the national economy. Agricultural production, livestock production and their low profitability, its causes, nutritional deficiencies and ways to address these problems. The*

heads of dehkan farms in different regions have analyzed the results of surveys, expenditures for the production of agricultural produce and the organization of production, and the average production volume on the land plots. The perspectives of perspectives development of land use in peasant farms/And the perspectives of GIS application in monaging the use of land and peasant farms are highlighted/

Keywords: *Landfund, types of land, resource, hardworker, rent, massive, horticulture.*

Введение

Развитие рыночной экономики требует рационального использования всех видов ресурсов и, прежде всего, земельных. Важную роль в землепользовании страны играют земли сельских населенных пунктов и, особенно, приусадебный земельный фонд. Эффективное использование его способствует увеличению производства продукции земледелия и животноводства в стране, развитию малого бизнеса и частного предпринимательства, улучшению снабжения населения продовольствием, повышению занятости и росту доходов сельского населения. «Труженик села–этопрочный столп жизни, крепкая опора нашего благополучия» подчеркнул Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев на торжественном собрании по случаю дня работников сельского хозяйства, состоявшего 9 декабря 2017 года. Он отметил на своём выступлении «В сфере сельского хозяйства имеются ещё незадействованные возможности, ожидающие своего решения проблемы и недостатки».

В выступлении ещё было сказано «445 тысяч гектаров самой плодородной земли переданы населению в качестве приусадебных земельных участков. Но использование этих участков находится на низком уровне» /1/. Чтобы задействовать имеющихся одним из этих возмож-ностей указанном на выступлении Президента Республики во многом определяется всемер-ным повышением эффективности использования земель дехканских хозяйств.

Несмотря на значительные успехи в развитии дехканских хозяйств все еще имеют место проблемы в землепользовании сельских населенных пунктов и, прежде всего, в дехканских хозяйствах: улучшение мелиоративного состояния земель, вопросы обеспечения животноводства кормами, пастбищными территориями, обеспечение субаренды земли. Реальное наделение права пожизненного наследуемоговладения приусадебным земельным участком залоговым обязательством, развитие ипотеки, улучшение состояния дорог и транспортных коммуникационных услуг, вопросы переработки выращенной продукции, вопросы введения научно обоснованного чередования посева культур на приусадебном земельном участке и др. Все это требует своего решения и дальнейшего совершенствования правовой базы землепользования сельских населенных

пунктов. Анализ состояния и использования существующих земель сельских населенных пунктов свидетельствуют о недостаточной эффективности их использования, в том числе и земель дехканских хозяйств. Бесплатность землепользования, много лет определявшая бесхозяйственное отношение к земле в нашей стране, способствовала расточительному, нерациональному использованию этого ценнейшего ресурса, что привело к гипертрофированному росту территорий населенных пунктов и к необоснованному изъятию сельскохозяйственных земель под строительство в завышенных размерах. Увеличивалась протяженность инженерных и транспортных коммуникаций, деградировала природная среда вокруг населенных пунктов, росли стоимость всех видов обустройства их территорий. Все это негативно отразилось на эффективности использования приусадебного земельного фонда и качестве проживания населения.

Основным причинами такого положения явились отсутствие достоверного учета земель сельских населенных пунктов, необходимой градостроительной документации их комплексного развития, ухудшение мелиоративного состояния земель на массивах размещения сельских населенных пунктов.

В ходе аграрно-земельной реформы на селе сформировалась новая организационно–правовая структура хозяйствования-дехканское семейное мелкотоварное хозяйство, осуществляющее производство и реализацию излишков сельскохозяйственной продукции (на основе личного труда членов семьи на приусадебном земельном участке, предоставленном в пожизненное наследуемое владение) /2/. Динамика производства показывает, что доля этого вида хозяйств в общем объеме валовой продукции сельского хозяйства постоянно увеличивается и составляет 81% -картофеля, 56% - бахчевых, 66%- овощей, 50%- винограда; здесь сосредоточен практически весь крупный рогатый скот страны - 6.5 млн. голов (92,8%), в том числе коров 2,8 млн. голов (94,5%); на их долю приходится 95% - мяса, 97 % - молока, 57,9%- яиц, 71,7% - шерсти, производимых в стране /3/.

Вместе с тем, анализ существующего состояния и использования приусадебных земель в республике свидетельствует, что их потенциальные возможности еще далеко не исчерпаны. На приусадебных участках получают преимущественно не более 2-х урожаев, за счёт которых дехкан обеспечивают свои потребности в картофеле и овощах, а излишки реализуют на рынке. Такие культуры как ранние (зимние) капуста, свекла и некоторые другие практикуются всё ещё редко. Показатели животноводства довольно низкие, нехватка кормов объясняется небольшой площадью земельного участка, огород в первую очередь занимается продовольственными

культурами. Качественное состояние земель приусадебных участков невысокое. Минеральные удобрения часто вносятся в недостаточном количестве, полив производится не всегда в лучшие агротехнические сроки и необходимой нормой, земли посёлков не редко находятся на массивах засолённых земель, коллекторно-дренажная сеть в пределах посёлков своевременно не очищается. Отсутствует оптимизация структуры культур и экономически обоснованное их чередование на приусадебном огороде.

Опросы дехкан в разных регионах страны показали, что затраты на ведение хозяйства составляют 1000-2000 тыс.сум. (без учета затрат на животноводство), стоимость продукции 4000-6000 тыс.сум, доход–2000-4000 тыс. Сум. или в среднем на семью около 3000 тыс.сум. Более чем в 85% дехканских хозяйствах содержится домашний скот и птица. Примерно в 70% хозяйств имеются дойные коровы, в том числе в 35% и бычки на откорм. Продуктивность коров в хозяйствах довольно низкая – около 1700 кг молока. На одну семью в среднем ежегодно потребляется около 1100 кг молока и 150 кг мяса, что составляет в денежном выражении соответственно 3,3 и 5,25 млн.сум. Стоимость реализованной продукции хозяйства от животноводства в среднем составляет 3,7 млн.сум, а в целом с учетом продукции растениеводства 4,9-5,0 млн.сум. Средний объем потребления семьёй выращиваемой продукции составляет 60-65% (примерно 3,2 млн.сум), остальная продукция реализуются на рынке. Опыт передовых дехканских хозяйств и исследования показывают, что эффективность их может, быть повышены в тричетыре раза.

Постановлением Первого Президента страны И.А. Каримова от 23.03.2006г. за №ПП-308 в целях дальнейшего развития дехканских хозяйств, усиления их роли в производстве сельскохозяйственной продукции и оказания государственной помощи сельскому населению, лицам, занимающимся, выращиванием КРС на личных приусадебных участках предоставлено право заведения трудовых книжек и оформления трудового стажа. Кроме того, предусмотрено выделение малоимущим семьям за счет спонсорских средств дойных коров. Поголовье скот увеличивается, но обеспечение их кормой остаётся проблемой. Обеспеченность животных собственными кормами недостаточная (25-30% за счеткукурузы, ячменя и стеблей овощей). Особенно не хватает пастбищных земельи пастбищные корма. В настоящее время в Республике почти все сельскохозяйственные земли розданы на фермерские хозяйства и не каждый фермер разрешает представителям дехканских хозяйств пасти скот даже на окраинах своей участки или заготавливать сено на территории фермерского хозяйства.

Летние и зимние пастбища расположены очень далеко на больших расстояниях от населенных пунктов.

Одним из ключевых факторов устойчивости землепользования является эффективная организация использования природных ресурсов. Дехканские хозяйства должны развиваться на системной основе, включающей создание нормальных условий для жизнедеятельности населения, обеспечения сельскохозяйственной продукцией сельской семьи на основе внедре-ние ресурсосберегающих технологий и оптимизации использования территории приусадебного земельного участка, обоснованную круглогодичную ротацию культур, экспорт части излишков произведенной продукции, восстановление плодородия почвы. Можно наметить следующих аспектов перспективного развития землепользования дехканских хозяйств:

1. Рациональная организация территории дехканских хозяйств; Данный аспект предусматривает рациональное размещение жилых и подсобных помещений, многолетних насаждений и сельскохозяйственных культур(огород) и угодий на территории приусадебного земельного участка. Наиболее целесообразной формой его является прямоугольная, обеспечивающая наиболее эффективную планировку территории для застройки, размещение сада и огорода. Планировка приусадебного участка должна обеспечивать максимальные удобства для проживания семьи, ведения хозяйства и отдыха, необходимые санитарно-гигиенические условия и пожарную безопасность, эффективное использование земли и воды, гармонировать с благоустройством поселка.

2. Выделение дополнительных территорий из числа нерационально используемых и неиспользуемых земель (в том числе и пастбищных земель): Не все дехканские хозяйства имеют соответствующих площадей указанной в Земельном кодексе Республики, если проанализировать и дехканским хозяйствам которые успешно функционируют и добываются хороших показателей то можно их площадей расширить до нормативного. Надо разрабатывать механизм выделение пастбищной территории. Расширения территории землепользования дехканского хозяйства должно производиться с учетом имеющихся у семьи ресурсов (финансовых и трудовых), гарантирующих эффективное использование земли.

3. Рациональное размещение сельскохозяйственных культур и угодий: Предусматривает подбор и размещение на приусадебных земельных участках таких видов и сортов сельскохозяйственных культур, которые обеспечивают необходимое оптимальное их чередование круглый год. При этом непрерывное чередование культур не должно истощать землю, а напротив восстанавливать и повышать плодородие почв. Предусмотреть

восстановление плодородия почв на основе рациональной системы земледелия, внедрения почвозащитных технологий, сохранения гумуса. Земля при правильном использовании восстанавливает свои производительные свойства. Развитие общества, непрерывный рост его населения и потребностей объективно требуют расширенного характера сельскохозяйственного производства, что является причиной необходимости расширенного воспроизводства плодородия почвы.

4. Использование геоинформационных систем (ГИС);

Проблема управления земельными ресурсами сельских населённых пунктов и прежде всего приусадебного земельного фонда всегда была актуальной. Увеличение субъектов ведения хозяйства на земле вследствие роста численности населения приусадебного земельного фонда инициировало расширение круга участников земельных отношений. Современные работы по территориальному планированию, землеустройству, кадастру, оценке состояния окружающей природной среды непременно предусматривают использование геоинформационных систем (ГИС), которые позволяют сделать кардинальные сдвиги в отрасли информационного обеспечения принятия управленческих решений.

Объектом моего исследования выбраны земли приусадебных и дехканских хозяйств Сурхандарьинской области, который является идеальным полигоном для разработки системы информационного обеспечения управления земельными ресурсами с использованием ГИС на основе инвентаризации земель для оперативного принятия управленческих решений.

Для создания системы управления земельными ресурсами приусадебных и дехканских хозяйств с использованием ГИС-технологий применялся метод системного анализа рациональности использования земель и выделение территорий нерационального использования земель, использования не по целевому назначению, методы натурный наблюдений: по дворовой обход, геодезическая съемка на инвентаризируемых площадях, методы организации данных путем создания базы геоданных, методы пространственно-логического моделирования.

Для фрагмента земель приусадебных и дехканских хозяйств разработана и апробирована автоматизированная картографическая система (АКС), которая является ядром ГИС управления земельными ресурсами приусадебных и дехканских хозяйств, и представляет собой комплекс программных средств, которые обеспечивают создание и непосредственное использование карт.

Создание полноценной ГИС управления территориями приусадебных и дехканских хозяйств целесообразно осуществить в 2 этапа: подготовительный и производственный.

Подготовительный этап включает: сбор, анализ и систематизацию архивных земельно-кадастровых данных, планово-картографических материалов, землеустроительной документации на земельные участки (материалы отвода, материалы инвентаризации земель, земельно-учетной документации), а также данных о составе и численности населения.

С целью уточнения и актуализации плановокартографического материала, а также для ускорения и снижения себестоимости работ можно использовать данные дистанционного зондирования, уточненные в процессе проведения производственного этапа при геодезической съёмке.

Кроме геодезической съемки и подворового обхода на производственном этапе проводятся землеустроительные и земельно-кадастровые работы, в процессе которых осуществляется нанесение и корректировка (уточнение) границы, границ территорий земель приусадебных и дехканских хозяйств, границ отдельных земельных массивов и участков.

В результате формируются цифровые карты местности, и составляется база геоданных (БГД).

Земельные участки формируются с применением топологических правил, что позволяет исключить некорректность данных, таких как перекрытия земельных участков или наоборот щели между ними.

База геоданных представляет собой пространственно-логическую модель, которая может быть использована для:

-инвентаризации земель приусадебных и дехканских хозяйств;

-отслеживания состояния сетей инженерных коммуникаций;

- поддержки, обновления и развития генплана сельского населённого пункта, создания проектов детальной планировки;

- информационного обеспечения выбора места под строительство хранилиш, складских помещений коммерческих объектов (например, заготовительных организаций), требующих предварительного подробного пространственного анализа территории;

- информационных услуг и консультаций для потенциальных пользователей земли и недвижимости: пространственная информация о нормативной и рыночной стоимости земельных участков, картографическое обслуживание риэлтерских баз данных.

Большой объем накопленной информации и интеграция геоинформационных систем (ГИС) позволяют быстро и в полном объеме

удовлетворить самые разнообразные информационные потребности, как по содержанию, так и по форме - в виде отчетов, тематических карт, аналитических результатов в электронном и бумажном виде для информационной поддержки принятия управленческих решений.

Апробация результатов исследования, которая проведена на примере земель приусадебных и дехканских хозяйств Сурхандарьинской области, показала, что ГИС является эффективным инструментом для управления земельными ресурсами территорий сельских населённых пунктов, например:

- в сфере экономики - определение современного состояния использования участков, выявления возможностей оптимизации и совершенствования использования земель приусадебных и дехканских хозяйств области путем изменения территориальной и отраслевой структуры земель, анализа ее состояния и тенденций развития.

- в сфере экологии – выявление особенностей экологического состояния земель и предотвращения развития негативных процессов.

Достоверная и полная информация о земельных ресурсах способствует увеличению поступлений в бюджеты всех уровней средств от платы за землю, организации ее рационального использования и охраны, оперативному регулированию земельных отношений и внедрению регулируемого рынка земли.

Использованная литература

1. Ш.М. Мирзиёев. «Выступление на торжественном собрание по случаю дня работников сельского хозяйства состоявшего 9 декабря 2017 года.

2. Закон Республики Узбекистан «О дехканском хозяйстве» Т.-1998.

3. Земельный кодекс Республики Узбекистан Утвержденный Законом РУз от 30.04.1998 г. N 598-I Введенный в действие с 01.07.1998 г. Постановлением Олий Мажлиса от 30.04.1998 г. N 599-I С внесенными изменениями в соответствии с Законом Р.Уз от 30.08.2003 г. N 535-II,Законом Р.Уз от 30.04.2004 г. N 621-II,Законом Р.Уз от 03.12.2004 г. N 714-II,Законом Р.Уз от 28.12.2007 г. N ЗРУ-138

4. Сафаров Э., Мусаев И., Абдурахманов Х. Геоахборот тизимлари ва технологиялари. ТИМИ, 2008-160в.

5. Paul Longley et al. Geographic Information Systems and Science.-UK 2nd edition "John Wiley & Sons Ltd., 2005. - 517 p

6. Чертовицкий А. Рынок прав аренды земли – важный фактор повышения эффективности ее использования// Международный сельскохозяйственный журнал. № 2. 2003. С. 51-53.

7. Шадманова Г., Мирзаев С.С. Экономико-математические методы и модели// ТИИМ. Ташкент. 2011. С. 22-70

8. Шадманова Г., Мирзаев С.С. Современные информационно-коммуникационные технологии. ТИИАМЭ. Ташкент2018. С. 158-161.

9. Умурзаков Ю.П., Абдурахимов И.Л. Управление водой. // Экономика финансов. Ташкент. 2008. С. 235-240.

10. Кардаш В.А. Оптимизация экономико-математических моделей и методов анализа в ирригации// Наука. Новосибирск. 1973. С.142-145.

11. Шадманова Г., Абдуллаев З.С. Экономико-математические методы и модели в землеустройстве // Музыка. 2007. С. 190

12. Беркинов Б.Б. Рахманкулова Б.О., Каримова Х.Х. Оценка эффективности сельскохозяйственной производственной деятельности и моделирование развития производственного процесса. Монография.// Экономика. Ташкент. 2013. С. 105

13. Абдуллаев З.С. Основы информационного обеспечения оценки земель. // Поклонник. Ташкент. 2008. С. 93-95. Abutaliev F.B. (1972), Solving problems of transient filtration.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH YO‘LLARI

Yuldashev Iskandar Bahromovich
Tashkent international university rektori, PhD
E-mail; iskandar.b.yuldashev@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-7464-0841

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy raqamli texnologiyalarni oliy ta’lim menejmenti tizimiga integratsiya qilish orqali innovatsion yondashuvlarni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlarini o‘rganadi. Tadqiqot raqamli transformatsiyaning ta’lim jarayonlari, ma’muriy boshqaruv va strategik rivojlanishga ta’sirini tahlil qiladi hamda samarali integratsiya uchun tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, innovatsion menejment, raqamli texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili, raqamli madaniyat, agrar menejment.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы и практические направления формирования инновационных подходов посредством интеграции современных цифровых технологий в систему управления высшим образованием. Проанализировано влияние цифровой трансформации на образовательные процессы, административное управление и стратегическое развитие, а также даны рекомендации по эффективной интеграции.*

Ключевые слова: *Высшее образование, инновационный менеджмент, цифровые технологии, анализ данных, цифровая культура, аграрный менеджмент.*

Annotation. *This article examines the theoretical foundations and practical directions of forming innovative approaches through the integration of modern digital technologies into the higher education management system. The study analyzes the impact of digital transformation on educational processes, administrative management and strategic development, and provides recommendations for effective integration.*

Keywords: *Higher education, innovation management, digital technologies, data analysis, digital culture, agrarian management.*

Kirish

Zamonaviy jamiyatni rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalari bilim va innovatsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Global raqamlashuv sharoitida oliy ta’lim muassasalari an’anaviy boshqaruv usullaridan voz kechib, raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion menejment tizimlarini joriy qilishga majbur. “Innovatsion menejment” tushunmasi nafaqat yangi texnologiyalarni qo‘llashni, balki boshqaruvning tashkiliy madaniyati, jarayonlari va strategiyasini tubdan o‘zgartirishni nazarda tutadi.

Jahonning ko‘plab mamlakatlarida oliy ta’lim muassasalari tashkil etilgan bo‘lib, ular milliy iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlab berishda asosiy institut vazifasini o‘taydi. Umuman olganda, iqtisodiyotda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularni iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini mustahkamlashda oliy ta’lim muassasalari nafaqat milliy darajada, balki xalqaro darajada ham raqobatga kirishishiga zaruratning shakllanganligini kuzatish mumkin. Xalqaro va milliy mehnat bozoridagi raqobatning keskin rivojlanayotganligi nafaqat inson va inson o‘rtasidagi kurashish bilan ifodalanadi, balki inson va yuqori texnologiyalar o‘rtasidagi kurashning vujudga kelganligi bilan ham o‘z aksini topadi. Bu esa, insonlardan sifatli ta’limni olishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishiga olib kelmoqda.

Ma’lumki, bizning asrimiz axborot texnologiyalari davri bo‘lishi bilan ham yangi rivojlanish bosqichini boshlab bermoqda. Bunda axborot-roboto texnologiyalarning mehnat bozoriga kirib kelishi alohida ahamiyatga bo‘lmoqda. Shu boisdan, oliy ta’lim muassasalari to‘xtovsiz takomillashayotgan xalqaro standart mezonlariga moslashishi va uning doirasida yuqori reputatsiyaga ega bo‘lishi oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy omillardan biri hisoblanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oliy ta’lim muassasalari bugungi kunda jadal o‘zgarishlarning markazida turibdi. To‘rtinchi sanoat inqilobi, sun’iy intellekt (SI), katta ma’lumotlar va raqamli platformalar kabi texnologiyalar ta’lim tizimini tubdan qayta shakllantirmoqda. An’anaviy boshqaruv modellari, ko‘pincha byurokratiya va statik jarayonlar bilan to‘lib-toshgan, endi global raqobat va talabalar ehtiyojlariga javob bera olmaydi. Shu sababli, OTMlar uchun innovatsion menejmentni rivojlantirishning asosiy yo‘li – raqamli texnologiyalarni strategik integratsiya qilishdir. Bu nafaqat texnik o‘zgarish, balki rahbarlik, pedagogika va tashkiliy madaniyatning chuqur transformatsiyasini talab etadi.

Innovatsion menejmentning birinchi yo‘li – o‘qitish va o‘rganish jarayonini raqamlashtirishdir. An’anaviy darslik va doskada asoslangan ta’lim endi yetarli emas; talabalar moslashuvchan, interaktiv va shaxsiylashtirilgan o‘quv tajribasini kutmoqda.

Yana bir muhim texnologiya – sun’iy intellekt va adaptiv o‘rganish tizimlaridir. Sun’iy intellekt talaba faoliyatini real vaqtda tahlil qilib, o‘quv dasturini individual ehtiyojlarga moslashtiradi. O‘zbekiston oliy ta’limida bu texnologiyani joriy etish, ayniqsa, masofaviy ta’limni kuchaytirgan pandemiya davrida muhim bo‘ldi. Bu xavfsiz, arzon va samarali ta’limni ta’minlaydi, natijada talabalar amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Innovatsion menejment rahbarlari bu texnologiyalarni joriy etishda o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Ikkinchi yo‘l – ma’muriy va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirishdir. OTMlarning ko‘p vaqti byurokratiyaga sarflanadi: talaba qabulidan tortib, moliyaviy hisobotlargacha. Korxona resurslarini rejalashtirish tizimlari barcha jarayonlarni yagona platformaga birlashtiradi. Bu ma’lumot siloslarini yo‘q qiladi, hujjat aylanishini tezlashtiradi va xatolarni kamaytiradi.. O‘zbekistonda ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida OTMlarda korxona resurslarini rejalashtirish tizimlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Rahbarlik uchun “Yagona Boshqaruv Paneli” – KPIni real vaqtda ko‘rsatuvchi vosita – muhimdir. U talaba qabul darajasi, bitiruv statistikasi, tadqiqot natijalari va moliyaviy holatni kuzatadi. Bu rahbarlarga intuitiv emas, balki dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, SI bilan quvvatlangan chat-botlar talaba savollarini avtomatik hal qiladi, xodimlarni murakkab vazifalarga yo‘naltiradi. Blokcheyn texnologiyasi esa diplomlarni xavfsiz saqlash va tasdiqlashda foydali: firibgarlikni oldini oladi va xalqaro tan olinishni osonlashtiradi. Bu texnologiyalar orqali menejment inson resurslarini strategik rollarga o‘tkazadi, samaradorlikni oshiradi.

Uchinchi yo‘l – ma’lumotga asoslangan qaror qabul qilishdir. OTMlar har kuni ulkan ma’lumotlar hosil qiladi: talaba baholari, kutubxona foydalanishi, tadqiqot loyihalari. Katta Ma’lumotlar esa makro darajada ishlaydi: mehnat bozori tendentsiyalarini o‘rganib, yangi mutaxassisliklarni ochishga yordam beradi. Masalan, AQShdagi MIT Universiteti Big Data orqali o‘quv dasturlarini yangilab, ishga joylashuv darajasini 15% ga oshirgan. O‘zbekiston OTMlari uchun bu, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishga mos ta’limni shakllantirishda foydali.

Ammo texnologiyani integratsiya qilish faqat texnik emas, balki insoniy va madaniy muammo. Eng zamonaviy tizimlar ham, agar xodimlar tayyor bo‘lmasa, muvaffaqiyatsiz bo‘ladi. Innovatsion menejment rahbarlari raqamli madaniyatni shakllantirishi kerak: tajribalarni rag‘batlantirish, o‘sish fikrini rivojlantirish. Fakultet va xodimlar uchun doimiy treninglar – raqamli pedagogika, ma’lumotlar analitikasi bo‘yicha – zarur. Rag‘batlantirish tizimi innovatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekistonda Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘tkazilayotgan seminarlar bu jarayonni tezlashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, OTMlarda innovatsion menejmentni rivojlantirish raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali mumkin. Bu o‘qitishni interaktivlashtirish, ma’muriyatni avtomatlashtirish, qarorlarni ma’lumotga asoslash va madaniyatni o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Natijada, muassasalar global raqobatbardosh bo‘lib, talabalarga 21-asr ko‘nikmalarini beradi. O‘zbekiston OTMlari uchun bu nafaqat imkoniyat, balki zaruriyat: raqamli transformatsiya orqali bizning universitetlarimiz xalqaro miqyosda gullab-yashashi mumkin. Bu yo‘lni bosib o‘tish rahbarlarning jasorati va strategik yondashuviga

bog‘liq. Boshqacha aytganda Kelajak innovatorga tegishli – va OTMlar bu kelajakni shakllantiruvchilar bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Teshabayev T.Z. Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2019. – 83 b.

2. Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: O‘zMU, 2019. – 84 b.

3. Sa’dullayeva G.S. Oliy ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2020. – 68 b.

4. Zufarova N.G. Oliy ta’limda brend kapitali boshqaruvini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 58 b.

5. Nishonov D.Sh. Oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalari: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.

6. Adizov B.I. Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish (Buxoro viloyati misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.

7. Xamidova A.A. Ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (oliy ta’lim muassasalari misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – S.: SamDU, 2022. – 61 b.

8. Abdullayev J.A. Oliy ta’lim tizimida davlat-xususiy sherikligi mexanizmi rivojlanishini boshqarish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDTU, 2023. – 77 b.

9. Lee, J. (2013). Creating world-class universities: Implications for developing countries. Prospects, 43, 233-249.

10. De los Rios-Carmenado, I., Sastre-Merino, S., Lantada, A. D., Garcia-Martin, J., Nole, P., & Perez-Martinez, J. E. (2021). Building world class universities through innovative teaching governance. Studies in Educational Evaluation, 70, 101031.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ «УНИВЕРСИТЕТ 4.0»: ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ НИЗКОУГЛЕРОДНОГО ПЕРЕХОДА

Кузнецова Светлана Николаевна
ФГБОУ ВО «Нижегородский государственный педагогический университет имени Козьмы Минина», кандидат экономических наук, доцент кафедры экономики предприятия
Цыбуцинина Ирина Евгеньевна
ФГБОУ ВО «Нижегородский государственный педагогический университет имени Козьмы Минина», студент магистратуры

Фролов Юрий Сергеевич
ФГБОУ ВО «Нижегородский государственный педагогический университет имени Козьмы Минина», студент бакалавриата
Горев Никита Алексеевич
ФГБОУ ВО «Нижегородский государственный педагогический университет имени Козьмы Минина», студент бакалавриата

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования реализации образовательной модели "Университет 4.0" в Мининском университете (Нижний Новгород) в контексте подготовки кадров для низкоуглеродной трансформации экономики. Методология исследования включала комплексный анализ образовательной деятельности, научно-исследовательской работы, цифровой трансформации и взаимодействия с промышленными партнерами. Результаты выявили, что лишь 14,3% образовательных программ университета включают модули по низкоуглеродной тематике, а объем внебюджетного финансирования от промышленных партнеров составляет лишь 8%. Предложены конкретные механизмы усиления роли университета как интегратора образовательных инициатив в области низкоуглеродного развития, включая создание Регионального центра компетенций и разработку междисциплинарных образовательных программ.*

Ключевые слова: *Университет 4.0, низкоуглеродный переход, устойчивое развитие, ESG-трансформация, образовательная модель, подготовка кадров, цифровизация образования, Нижегородская область.*

Abstract. *The article presents the results of a study on the implementation of the "University 4.0" educational model at Minin University (Nizhny Novgorod) in the context of training personnel for the low-carbon transformation of the economy. The research methodology included a comprehensive analysis of educational activities, research work, digital transformation and interaction with industrial partners. The results revealed that only 14.3% of the university's educational programs include modules on low-carbon topics, and the volume of extra-budgetary funding from industrial partners is only 8%. Specific mechanisms are proposed to strengthen the university's role as an integrator of educational initiatives in the field of low-carbon development, including the creation of a Regional Competence Center and the development of interdisciplinary educational programs.*

Keywords: *University 4.0, low-carbon transition, sustainable development, ESG transformation, educational model, personnel training, digitalization of education, Nizhny Novgorod region.*

Введение

Глобальный переход к низкоуглеродной экономике, детерминированный Парижским соглашением и целями устойчивого развития ООН, формирует новые вызовы и возможности для национальных экономик. Для Российской Федерации, чей ВВП традиционно зависит от углеводородного сектора, обеспечивавшего до 40% бюджетных доходов, диверсификация становится не просто экономическим императивом, но и вопросом национальной безопасности. В условиях ужесточения международного регуляторного давления, в частности, введения Европейским союзом трансграничного углеродного корректировочного механизма (CBAM), прогнозируемые потери для российских экспортеров к 2025 году могут составить от 1,1 до 1,9 млрд евро ежегодно. Данный контекст актуализирует потребность в структурной

трансформации региональных экономик и формирует беспрецедентный запрос на новые компетенции, выходящие далеко за рамки традиционных образовательных программ [2,5].

So‘nggi yillarda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ekologik monitoring sohasida yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqardi. Xususan, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish va real vaqt tizimlari asosida ishlovchi datchiklar tarmog‘i ekologik axborotni aniqlik bilan qayta ishlashni ta’minlamoqda. Bu texnologiyalar yordamida havo, suv va tuproq sifatini doimiy kuzatish, ifloslanish manbalarini aniqlash va xavfli holatlarda avtomatik ogohlantirish berish mumkin. Eng yaxshi mavjud texnologiyalar (BAT – Best Available Techniques) bilan uyg‘unlashgan ekologik nazorat tizimlari chiqindilarni minimal darajaga tushirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt algoritmlari real vaqt rejimidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, ekologik tendensiyalarni bashorat qilish imkonini beradi. Bu esa nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki ularni oldini olish uchun ham samarali vosita hisoblanadi. Dunyo miqyosida “aqlli shahar” konsepsiyalari aynan shu yondashuvlar asosida shakllanmoqda. Ekologik ma’lumotlar asosida avtomatik boshqaruv mexanizmlarini joriy etish insoniyatning barqaror kelajagi uchun yangi bosqichni

belgilaydi. Shu bois, real vaqt tizimlari va sun’iy intellekt asosidagi “yashil” texnologiyalar kelajak ekologik xavfsizligining poydevori sifatida e’tirof etilmoqda.

Metodlar

Ushbu tadqiqotda atrof-muhit monitoringini avtomatlashtirish uchun real vaqt tizimlari va sun’iy intellekt algoritmlarining integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, modellashtirish va eksperimental sinov usullari tanlandi. Tizimli tahlil jarayonida ekologik ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish va qayta ishlash bosqichlari aniqlanib, ularning o‘zaro aloqasi modellashtirildi. Real vaqt tizimi moduli uchun Python va C++ tillarida dasturiy prototip ishlab chiqildi, bunda sensorlardan olinadigan ma’lumotlar mikroprotsessor orqali markaziy serverga yuboriladi. Sun’iy intellekt moduli uchun esa neyron tarmoqlarga asoslangan bashoratlash algoritmi TensorFlow kutubxonasi yordamida yaratildi. Har bir modulning ishlash tezligi va aniqlik darajasi eksperimental ravishda baholandi. Ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish uchun interaktiv grafik interfeys ishlab chiqilib, unda foydalanuvchi real vaqt ko‘rsatkichlarini kuzatishi mumkin. Tadqiqot davomida “yashil texnologiyalar” konsepsiyasi asosida energiya samaradorlik parametrlari ham nazoratga olindi. Shu orqali tizimning ekologik samaradorligini aniqlash imkoniyati yaratildi. Natijalar keyingi bosqichda tahliliy modellashtirish uchun asos bo‘ldi. [1]

1-jadval

Real vaqt tizimlari va sun’iy intellekt integratsiyasining ekologik monitoringdagi afzalliklari

№	Yo‘nalish	Tavsif
1	Ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish	Real vaqt tizimlari ekologik parametrlarni (havo sifati, namlik, bosim, chiqindi darajasi) bir zumda qayd etib, SI algoritmlariga uzatadi.
2	Avtomatik ogohlantirish mexanizmi	Tizim ifloslanish darajasi oshganida foydalanuvchini vizual yoki ovozli signal orqali ogohlantiradi.
3	Inson xatoligini kamaytirish	Sun’iy intellekt yordamida qaror qabul qilish jarayoni avtomatlashtiriladi, bu esa inson omilini minimallashtiradi.
4	Resurslardan oqilona foydalanish	Energiya samarador sensorlar va algoritmlar tizimning barqaror ishlashini ta’minlaydi.
5	Ekologik xavflarni erta aniqlash	Ma’lumotlar asosida ifloslanish manbai va joylashuv koordinatalari aniqlanib, erta chora ko‘rish imkonini beradi.
6	**Barqaror rivojlanishga hissa**	Integratsiyalashgan tizim “yashil texnologiyalar” tamoyillariga mos ravishda ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi.

Metodik asos sifatida tadqiqotda **Internet of Things (IoT)** va **Edge Computing** texnologiyalari bilan birgalikda ishlovchi arxitektura ishlab chiqildi. IoT sensorlari orqali havo sifati, harorat, namlik, CO_2 miqdori kabi parametrlar real vaqt rejimida o‘lchandi.

Edge Computing orqali dastlabki ma’lumotlar joyida qayta ishlanib, tarmoqdagi kechikish kamaytirildi. Ma’lumotlar tozalangach, ular markaziy serverdagi sun’iy intellekt algoritmiga uzatildi. SI algoritmi **supervizorli mashinaviy o‘rganish (supervised learning)** usulida o‘qitildi va bashorat modelini ishlab chiqdi. Trening jarayonida 100 mingdan ortiq ekologik o‘lchov ma’lumotlari asosida modelning aniqlik darajasi 96% gacha oshirildi. Bunda **Gradient Boosting** va **Recurrent Neural Network (RNN)** modellari taqqoslab tahlil qilindi. RNN modelining vaqt ketma-ketligi bo‘yicha o‘rganish qobiliyati ekologik monitoring uchun eng mos deb topildi. Sinov natijalari ma’lumot oqimini kechikishsiz qayta ishlashni ta’minladi. Shu tarzda ishlab chiqilgan metodologiya ekologik xavfsizlikni real vaqt rejimida baholash uchun poydevor yaratdi. [2]

Tadqiqotning eksperimental qismi Angren sanoat hududida o‘rnatilgan real sensor tarmog‘i orqali amalga oshirildi. Sensorlar “MQ-135” havo sifatini aniqlovchi modullar bilan jihozlanib, ularning ma’lumotlari Raspberry Pi mikrokontrolleri orqali uzatildi. Har bir o‘lchov natijasi 5 soniya interval bilan serverga yetkazildi va ma’lumotlar SQLite ma’lumotlar bazasida saqlandi. Keyinchalik ushbu ma’lumotlar sun’iy intellekt moduli tomonidan real vaqt rejimida qayta ishlanib, ifloslanish darajasining dinamikasi grafik shaklida tasvirlandi. Sinov jarayonida tizimning ishlash ishonchliligi, kechikish va uzatish tezligi o‘lchandi. Aniqlik mezoni sifatida **Mean Absolute Error (MAE)** va **Root Mean Square Error (RMSE)** ko‘rsatkichlari qo‘llanildi. O‘rtacha MAE 0.08, RMSE esa 0.11 ni tashkil qildi, bu esa tizimning yuqori aniqlikda ishlayotganini ko‘rsatdi. Shuningdek, tizimning energiya sarfi ham kuzatilib, “yashil” texnologiyalarga muvofiq optimallashtirildi. Eksperiment natijalari ekologik monitoringda real vaqtli SI tizimlarining samaradorligini ilmiy asoslash imkonini berdi. Ushbu sinovlar keyingi modellashtirish va matematik optimallashtirish bosqichiga tayanch bo‘lib xizmat qildi. [3]


Tadqiqot natijalarini qayta ishlash bosqichida statistik tahlil, korrelyatsiya va regressiya metodlari qo‘llanildi. Dastlab ma’lumotlar filtrlash, normallashtirish va o‘rta qiymatlarni hisoblash orqali tayyor holatga keltirildi. Keyin AI modeli yordamida havo sifati indeksining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi bashorat qilindi. Buning uchun **Long Short-Term Memory (LSTM)** neyron tarmog‘i asosida chuqur o‘rganish modeli yaratildi. Model 30 kunlik tarixiy ma’lumotlar asosida o‘qitildi va 10 kunlik bashorat uchun sinovdan o‘tkazildi. Natijada, modelning aniqlik darajasi 95,6% ni tashkil etdi, bu esa real vaqtli ekologik kuzatuv uchun

yetarli aniqlikdir. Bundan tashqari, ishlab chiqilgan tizim **Power BI** orqali vizual interfeysda tasvirlandi, foydalanuvchi uchun qulay tahliliy ko‘rinishlar yaratildi. Monitoring natijalari “aqlli shahar” infratuzilmasiga integratsiya qilish uchun moslashtirildi. Shu asosda metodik yondashuv ekologik nazoratning yangi avlod tizimlarini yaratish uchun ilmiy asos sifatida taklif etildi. Ushbu metodologiya “yashil” iqtisodiyot va sun’iy intellektning o‘zaro uyg‘unlashgan yo‘nalishiga amaliy asos yaratdi. [4]

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, real vaqt tizimlari va sun’iy intellekt integratsiyasi ekologik monitoring jarayonining samaradorligini keskin oshiradi. Eksperimental tahlillar davomida ishlab chiqilgan tizim sensorlardan olingan ma’lumotlarni 0,5 soniyalik kechikish bilan qayta ishlay oldi. Bu esa ekologik holatdagi o‘zgarishlarni real vaqt rejimida aniqlash va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini berdi. Tizimning aniqlik darajasi 95% dan yuqori bo‘lib, bashorat natijalari real kuzatuv ma’lumotlariga juda yaqin chiqdi. Havo sifatining CO_2, PM2.5 va NO_2 kabi asosiy ko‘rsatkichlari uchun baholashda model xatoligi minimal darajada bo‘ldi. Shuningdek, AI algoritmi yordamida “xavfsiz”, “o‘rtacha iflos” va “xavfli” zonalar avtomatik tarzda klassifikatsiya qilindi. Ushbu klassifikatsiya foydalanuvchi interfeysida rangli indikatorlar orqali aks ettirildi. Natijada, tizim ekologik holatni baholashda inson aralashuvisiz ishlay oladigan darajaga yetdi. Sinovlar ko‘rsatdiki, real vaqt tizimi barqaror ishlashni ta’minlaydi va uzatish tezligi yuqori. Bu natijalar ekologik monitoringni raqamlashtirish yo‘lidagi muhim bosqich sifatida e’tirof etildi.

Modelning ishlash samaradorligi ko‘rsatkichlari matematik va vizual tahlil orqali ham isbotlandi. Sinov jarayonida **Root Mean Square Error (RMSE)** qiymati 0.11, **Mean Absolute Error (MAE)** esa 0.08 ni tashkil etdi, bu juda yuqori aniqlikni bildiradi. Tizim 24 soatlik uzluksiz ishlash sharoitida ham ishonchli natijalar ko‘rsatdi. Harorat, namlik va havo bosimi kabi parametrlar uchun model bashoratlari real kuzatuv natijalari bilan 96 % mos keldi. Ma’lumotlar oqimi uzatilishida hech qanday uzilish kuzatilmadi, bu esa real vaqt tizimining ishonchliligini tasdiqlaydi. Grafik tahlil natijalari asosida ekologik o‘zgarishlarning dinamikasi aniq vizual ko‘rinishda aks ettirildi. Har bir parametr uchun vaqt bo‘yicha chiziqli va doiraviy diagrammalar ishlab chiqildi. Bu diagrammalar foydalanuvchiga ekologik holatning o‘zgarishini intuitiv tarzda tushunish imkonini berdi. Tahlillar natijasida tizim “yashil texnologiyalar” tamoyillariga to‘liq mos kelishi aniqlangan. Shuningdek, energiya sarfi 12 %ga kamaygani ekologik barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatdi [5].



1-rasm. Ekologik monitoring ko‘rsatkichlari bo‘yicha real vaqt tahlil natijalari

Tizimning amaliy sinovlari davomida ekologik xavf darajalari bo‘yicha avtomatik ogohlantirish mexanizmi muvaffaqiyatli ishladi. Havo sifati keskin yomonlashganda tizim foydalanuvchi interfeysida vizual signal va ovozli ogohlantirish yubordi. Bunday yondashuv ekologik xavfning tarqalishini erta aniqlash imkonini berdi. AI algoritmlari yordamida ifloslanish manbalari aniqlanib, ularning joylashuv koordinatalari xaritada ko‘rsatildi. Sun’iy intellekt tizimi havoning ifloslanish manbaini aniqlashda 93% aniqlikka erishdi. Shu bilan birga, tizim chiqindilar hajmini aniqlashda ham barqaror natijalar berdi. Model yordamida o‘lchangan chiqindi massasi sanoatning o‘rtacha ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan solishtirildi va 1,3 % og‘ish aniqlangan. Bu raqamlar modelning yuqori darajadagi moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, “aqlli tahlil paneli” (Smart Dashboard) foydalanuvchi uchun real vaqt rejimidagi barcha ko‘rsatkichlarni bir joyda ko‘rsatish imkonini berdi. Natijada, tadqiqot yakunida avtomatlashtirilgan ekologik monitoring tizimi yuqori aniqlik, tezkorlik va barqarorlik jihatdan sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi.

Tahlil natijalari asosida ishlab chiqilgan tizimni kengroq ekologik boshqaruv infratuzilmasiga joriy etish imkoniyatlari ham o‘rganildi. Real vaqt tizimining modullari energiya tejovchi sensorlar asosida ishlab chiqilgani sababli, u uzoq muddatli monitoring uchun mos bo‘lib chiqdi. AI moduli o‘z-o‘zini o‘qitish (self-learning) funksiyasi orqali yangi ma’lumotlarga moslashdi va o‘zining aniqlik darajasini vaqt o‘tishi bilan oshirib bordi. Buning natijasida, tizim har xil ob-havo sharoitlarida ham barqaror ishladi. Tizimdan olingan statistik ma’lumotlar ekologik siyosatni shakllantirishda foydali bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. Xususan, chiqindi emissiyasini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun aniq qarorlar ishlab chiqish imkonini berdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik boshqaruvda real vaqt tizimlari va

sun’iy intellekt integratsiyasi 30% gacha samaradorlikni oshirishi mumkin. Shuningdek, AI modellarini milliy ekologik ma’lumotlar bazalariga ulanib ishlatish istiqbollari ko‘rsatildi. Bu esa O‘zbekiston sharoitida barqaror raqamli ekologik nazorat tizimlarini yaratish uchun zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari xalqaro “yashil texnologiyalar” konsepsiyasi bilan uyg‘un bo‘lib, barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi. [6]

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, real vaqt tizimlari va sun’iy intellekt integratsiyasi ekologik monitoringni avtomatlashtirishda samarali yechim bo‘la oladi. An’anaviy monitoring tizimlarida ma’lumotlar yig‘ilishi va tahlili inson aralashuvisiga bog‘liq bo‘lib, bu ko‘pincha kechikishlar va aniqlikning pasayishiga olib keladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan avtomatik tizim esa ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish va tahlil qilish imkonini berdi. Bu yondashuv ekologik xavflarni erta aniqlash va tezkor qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt moduli ifloslanishning asosiy manbalarini aniqlashda yuqori aniqlik ko‘rsatdi, bu esa ekologik boshqaruv tizimlarini optimallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, real vaqt tizimining yuqori tezligi va ishonchliligi ekologik jarayonlarni uzluksiz nazorat ostida ushlab turish imkonini yaratdi. Ushbu natijalar ilgari o‘tkazilgan xorijiy tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, ular ham ekologik muhitda real vaqt tahlili samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, AQSh va Yaponiya tajribasida “smart monitoring” tizimlari shunga o‘xshash natijalarni ko‘rsatgan. Demak, ishlab chiqilgan tizim global standartlarga mos ishlash imkoniyatiga ega. Bu holat O‘zbekiston sharoitida ekologik barqarorlikni ta’minlashning yangi texnologik bosqichini belgilaydi. [7]

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ekologik monitoringdagi o‘rni tobora ortib bormoqda, chunki u katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan **Recurrent Neural Network (RNN)** va **Long Short-Term Memory (LSTM)** modellari ekologik o‘zgarishlarning vaqt ketma-ketligini aniqlashda samarali natijalar berdi. Bu modellar havo tarkibidagi gazlar, harorat, namlik va bosim kabi parametrlar orasidagi yashirin bog‘lanishlarni tahlil qila oldi. Aniq bashoratlar asosida ekologik xavf darajalari oldindan baholanib, potentsial ifloslanish zonalari aniqlangan. Bu natija ekologik boshqaruv organlariga resurslarni to‘g‘ri taqsimlash imkonini berdi. Shuningdek, real vaqt tizimlari yordamida bu ma’lumotlar doimiy ravishda yangilanib boradi. O‘z navbatida, bu yondashuv ekologik qaror qabul qilishda inson xatoligini kamaytiradi. Muhimi, ushbu tizim “yashil iqtisodiyot” tamoyillari bilan hamohang tarzda energiya samaradorligini saqlaydi. Shu sababli, tadqiqot natijalari kelajakda ekologik siyosatni raqamlashtirish uchun muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu yondashuv ekologik barqarorlikni

ta’minlashda innovatsion yo‘l sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan model nafaqat texnik jihatdan, balki ekologik va ijtimoiy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Avvalo, tizim ekologik monitoring jarayonida inson aralashuvini kamaytirib, avtomatlashtirilgan boshqaruv muhitini yaratdi. Bu esa inson xatosi ehtimolini sezilarli darajada qisqartirdi. Shuningdek, tizimning vizual interfeysi foydalanuvchilarga ekologik ma’lumotlarni oson anglash va tahlil qilish imkonini berdi. Bu amaliyot ekologik ta’lim va axborot madaniyatini oshirishda ham foydalidir. Bundan tashqari, real vaqt tizimi “aqlli shahar” konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ekologik xavfsizlikni shahar infratuzilmasining tarkibiy qismiga aylantiradi. Shu orqali, sun’iy intellekt yordamida ekologik boshqaruv shahar rejalashtirish jarayonlariga integratsiya qilinadi. Bu esa nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki aholining hayot sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlar iqtisodiy jihatdan tejamkor va ekologik jihatdan foydali yechimlardir. Shu asosda, real vaqt tizimlari va sun’iy intellektning uyg‘unligi ekologik muammolarni hal qilishda yangi paradigma sifatida qaraladi.

Olingan natijalarni xalqaro tajribalar bilan taqqoslash, ishlab chiqilgan metodologiyaning amaliy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi. Masalan, Germaniya va Janubiy Koreyada ekologik monitoring tizimlari real vaqt tahlilga asoslangan sun’iy intellekt modullarini muvaffaqiyatli tatbiq etgan. Ushbu davlatlarda avtomatik havo nazorati stansiyalari ifloslanish darajasini sekundlik aniqlikda kuzatib, natijalarni AI yordamida qayta ishlaydi. Bizning tadqiqotda ishlab chiqilgan tizim ham shu yo‘nalishga yaqin natijalar ko‘rsatdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida ishlab chiqilgan yechimlar iqlim, sanoat va energiya infratuzilmasiga moslashtirilgani bilan ajralib turadi. Bu tizimning milliy ekologik siyosatga moslashuvchanligini oshiradi. Tadqiqot natijalari “yashil texnologiyalar” konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ekologik nazoratning barqaror mexanizmini yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqotning amaliy natijalari kelgusida xalqaro darajada “aqlli ekologik nazorat” platformalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, real vaqt tizimlari va sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi ekologik monitoringni avtomatlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv ekologik ma’lumotlarni tez, aniq va kechikishsiz qayta ishlash imkonini beradi. Tizim yordamida atmosferadagi gazlar, suv sifati, chiqindilar miqdori va boshqa ekologik parametrlarni uzluksiz kuzatish imkoniyati yaratildi. Sun’iy intellekt algoritmlari ifloslanish manbalarini aniqlash va ularning tarqalish dinamikasini bashorat qilishda yuqori aniqlik ko‘rsatdi. Real vaqt tahlili asosida avtomatik ogohlantirish

tizimi ekologik xavf zonalarini aniqlashni osonlashtirdi. Shu orqali ekologik boshqaruv jarayonlari inson aralashuvisiz, raqamli tizimlar asosida amalga oshiriladigan darajaga yetdi. Tadqiqot natijalari ekologik xavfsizlikni ta’minlashda “yashil texnologiyalar” tamoyillarining amaliy samarasini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, energiya tejamkorlik va chiqindilarni kamaytirish ko‘rsatkichlari ekologik barqarorlikni mustahkamladi. Tizimning ishonchliligi va samaradorligi eksperimental sinovlar orqali isbotlandi. Natijada, bu metodologiya ekologik nazoratning yangi avlod raqamli modellarini ishlab chiqishda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot yakunlari asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi. Birinchidan, real vaqt tizimlari yordamida ekologik jarayonlarni doimiy kuzatish atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga tezkor javob berish imkonini beradi. Ikkinchidan, sun’iy intellekt algoritmlarining qo‘llanilishi ekologik ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, ifloslanish manbalarini aniqlash va bashoratlashni yuqori aniqlikda amalga oshirishga yordam beradi. Uchinchidan, ishlab chiqilgan tizim “yashil texnologiyalar” konsepsiyasiga to‘liq mos kelib, energiya sarfini kamaytirish va chiqindilarni minimallashtirishda samarali natija berdi. To‘rtinchidan, mazkur yondashuvni “aqlli shahar” infratuzilmasiga joriy etish ekologik xavfsizlikni boshqarishning raqamli modelini yaratadi. Beshinchidan, tizimning vizual interfeysi foydalanuvchilarga real vaqt ma’lumotlarini qulay tarzda kuzatish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu tadqiqot natijalari ekologik siyosatni raqamlashtirish, ishlab chiqarishni optimallashtirish va barqaror rivojlanishga erishishda qo‘llanilishi mumkin. Tizimning modulli tuzilishi uni turli ekologik sohalarga moslashtirish imkonini beradi. Natijalar ekologik monitoringning kelajakda to‘liq avtomatlashtirilgan raqamli tizimga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bois, real vaqt tizimlari va sun’iy intellekt uyg‘unligi ekologik boshqaruvning istiqbolli yo‘nalishi sifatida qaraladi. Tadqiqot kelgusida ekologik xavfsizlikni oshirish bo‘yicha kompleks milliy platformalarni yaratish uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Narayana, T.L., “Advances in real time smart monitoring of environmental systems”, Journal of Environmental Monitoring & Assessment, 2024.

2. G.M. Umesha, A. C. Meghashree, “A Study on Real Time Environmental Monitoring System”, Compliance Engineering Journal, Vol. 11, No. 7, 2020, pp. 343-346.

3. Alam, M., Islam, M. M., Nayan, N. M., Uddin, J., “An IoT Based Real-Time Environmental Monitoring System for Developing Areas”, Journal of

Advanced Research in Applied Sciences and Engineering Technology, (n.d.).

4. Li, X., et al., “Development and application of an environment monitoring system based on IPv6”, Scientific Reports, 2022.

5. Ullo, S. L., et al., “Advances in Smart Environment Monitoring Systems Using WSN and IoT”, International Journal of Environmental Research and Public Health, 2020.

6. “Artificial intelligence in environmental monitoring: in-depth analysis”, Environmental Science & AI Journal, 2024.

7. “Artificial intelligence and IoT driven technologies for environmental pollution monitoring”, Frontiers in Environmental Science, 2024.

ИҚЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРОИТИДА АГРАР СОҲАНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА СУҒУРТА МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ

Вахобов Абдурашид Расулович
“Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти”
Иқтисодиёт кафедраси доценти, иқтисод фанлари номзоди
E-mail: abdurashidvoxobov058@gmail.com
Orcid: 0009-0007-9568-7552

Аннотация. *Мазкур мақолада аграр соҳада суғурталаш механизмининг хорижий мамлакатлар тажрибаси, ушбу соҳада мавжуд муаммолар ва суғурта механизмини такомиллаштириш бўйича тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *Суғурта пули (бирлашмаси). Суғурта шартномаси, Суғурта қиймати, Суғурта товони, Суғурта таваккалчиликлари, Суғурта мукофоти, Суғурта суммаси. Субсидия.*

Аннотация. *В данной статье изложены опыт зарубежных стран и механизм страхования в аграрной сфере, рекомендации по существующим проблемам в этой сфере и совершенствованию механизма страхования.*

Ключевые слова: *Страховая сумма (объединение). Страховой договор, Страховая стоимость, Страховое возмещение, Страховые риски, Страховая премия, Страховая сумма. Субсидия.*

Abstract. *This article outlines the experience of foreign countries and the mechanism of insurance in the agricultural sector, as recommendations regarding existing issues in this sector and the improvement of the insurance mechanism.*

Keywords: *Insurance Amount (combined). Insurance Contract, Insurable Value, Insurance Compensation, Insured Risks, Insurance Premium, Insurance Amount. Subsidy.*

Кириш

Аграр соҳа суғуртаси мамлакатимиздаги қишлоқ хўжалиги корхоналари, фермер хўжаликлари хусусан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчиларни молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ҳамда аграр соҳанинг ўзига хос ҳусусиятларидан ва иқлим ўзгаришларидан келиб чиқиб, ҳар томонлама ҳимоялашнинг самарали механизми ҳисобланади. Аграр соҳа

суғуртасининг ривожлантиришнинг кенг тарқалган йўналишлари сифатида экинлар ҳосили суғуртаси, чорвачилик суғуртаси, қишлоқ хўжалиги техникаларини суғурталаш, шунингдек, соҳада амалга оширилаётган лойиҳалар бўйича кредит қайтмаслик хатарини суғурталаш бўйича кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.

Ушбу ислоҳотларни амалга ошириш доирасида соҳани рақамлаштириш, жумладан суғурта шартномаларини электрон расмийлаштириш, суғурта даъволарини кўриб чикиш жараёнининг онлайн тизимига ўтказиш каби масалалар бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири хисобланади.

Бу борада Хукуматимиз томонидан бир қатор қарорлар қабул қилинганлиги ҳам бу масаланинг аҳамиятини янада орттиради.

Жумладан: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 октябрдаги 5265-сонли «Суғурта бозорини рақамлаштириш ва ҳаёт суғуртаси соҳасини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги қарорига мувофиқ “2023 йил 1 январдан бошлаб мажбурий суғуртанинг барча турлари бўйича суғурта полисларини қоғоз бланкаларда расмийлаштириш амалиёти бекор қилинади”[57] шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 1 мартдаги 108-сонли «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантиришнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарорида “2024 йил 1 сентябрдан бошлаб барча суғурта турлари бўйича суғурта полисларини фақат қоғоз шаклда расмийлаштириш амалиёти бекор қилинади”[58] деб белгиланиши ушбу соҳада рақамли технологияларни жорий этилишидаги муҳим қадам хисобланади.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг иш юритиш жараёнларини ягона онлайн платформада юритишга мўлжалланган, шу жумладан имтиёзли кредит маблағларининг қайтарилишини суғурталаш жараёни электрон амалга ошириш дастури жорий этилган.

Ушбу дастур орқали 2022 йилда ғалла етиштиришни молиялаштириш учун ажратилган имтиёзли кредитларни суғурталаш бўйича 6 **604 та**, пахта хосилини суғурталаш буйича 250 та, 2023 йилда эса пахта ва ғалла етиштиришни молиялаштириш учун ажратилган имтиёзли кредитларни суғурталаш бўйича 4 738 **та** ва пахта хосилини суғурталаш буйича 698 та суғурта шартномалари онлайн тарзида имзоланган[59].

---

[57] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 октябрдаги 5265-сонли «Суғурта бозорини рақамлаштириш ва ҳаёт суғуртаси соҳасини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги қарори Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 23.10.2021 й., 07/21/5265/0992-сон

[58] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 1 мартдаги 108-сонли «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантиришнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарори Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 04.03.2024 й., 07/24/108/0171-сон

[59] Ўзагросуғурта акциядорлик жамиятининг 2022-2023 йил хисобот маълумотлари https://agros.uz

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, қишлок хужалиги корхоналарига сифатли сугурта хизматларини кўрсатишда бир қатор ечимини кутаётган муаммолар мавжуд. Жумладан:

– Қишлоқ хўжалиги рискларини баҳолаш тизимини ташкил этилмаганлиги;

– сифатли статистик маълумотлар базасини мавжуд эмаслиги.

– рақамлаштириш бўйича олиб борилаётган ишларнинг ўзаро уйғунлаштирилмаганлиги;

– Қишлоқ хўжалиги суғурта бозоридаги рақабат муҳитини йўқлиги;

– Ўзбекистон суғурта бозорида қишлоқ хўжалик рискларини қайта суғурталаш тизимини мавжуд эмаслиги;

– аҳолини ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг суғурта маданиятини етарли шаклланмаганлиги;

– Суғурта соҳасида малакали кадрлар (андеррайтер, актуарий, аджастер, сюрверейлар ва х.к.) етишмаслиги ва х.к.

Қишлоқ хўжалиги суғуртаси бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, ушбу соҳа асосан давлат томонидан қўллаб қувватлаш механизмига асосланган.

Халқаро амалиёт қишлоқ хўжалик хатарларини суғурталашнинг давлат-хусусий шерикчилик (PPP – Public-Private Partnership) форматидаги самарали моделларни ривожлантириш зарурлигини кўрсатмоқда. Бугунги кунда халқаро амалиётда ушбу моделнинг 5 турини ажратиб кўрсатиш мумкин. Булар: а) АҚШ; б) Канада, Исроил; в) Испания, Туркия; г) Австрия, Швейцария ва д) Германия моделларидир.Ушбу моделлар ичида самарали ишлаб келаётгани Испания ва Туркия моделларидир.

Ушбу мамлакатлар тажрибаси асосида узоқ йиллар давомида шаклланган давлат ва хусусий секторнинг ўзаро самарали хамкорлигига асосланган. Испанияда “Agroseguro (27 та суғурта компанияларни ўз ичига олади), Туркияда эса TARSIM (15 та суғурта компаниялари) ихтисослашган ташкилоти орқали самарали тизим йўлга қўйилган.

Суғурта пули (бирлашмаси) ёрдамида субсидиялар бериш орқали суғурта қийматини пасайтириш, суғуртанинг кўламини ошириш; фермерларни фалокатли хатарлардан ҳимояланганлиги; қишлоқ хўжалиги суғурта тизимини узлуксиз ва режали ривожланиши ҳисобланади. Ҳозирги кунда Туркия модели асосида МДҲ мамлакатларидан Озарбайжон Республикасида қишлоқ хўжалиги суғуртасини самарали тизим жорий этилган.

Хорижий мамлакатлар амалиётида кредитларни суғурталаш туридан деярли фойдаланилмайди ва асосан кредит маблағлари таъминоти сифатида бўлғуси ҳосилни суғурталаш амалиёти кенг жорий этилган.

Жумладан: Испания. 1978 йилда Испанияда “Seguros Agrarios Combinados” миллий агросуғурта дастури ташкил этилди, мазкур дастур махсус ташкил этилган Agroseguro давлат компанияси томонидан амалга оширилади (бугунги кунда 27 та суғурта компаниясини ўз ичига оладиган суғурта бирлашмаси).

Компания имзоланган барча суғурта шартномаларини бошқаради, суғурта шартномалари бўйича етказилган зарарларни баҳолайди ва суғурта товонларини тўлаб беради. Ушбу компания доирасида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларни етиштирувчилар учун 100 дан ортиқ суғурта маҳсулотлари таклиф этилади. Фермерлар маҳсулот ишлаб чиқаришда фаол иштирок этадилар. Agroseguro суғурта таваккалчиликларининг актуар ҳисоб-китоблари билан мустақил равишда шуғулланса, ўз навбатида, турли суғурта маҳсулотлари учун ажратилган субсидиялар миқдорини давлат белгилайди.

Испанияда фермерларнинг 70 фоиздан ортиғи, қишлоқ хўжалиги экинларининг 90 фоизи ва ҳайвонларнинг 70 фоизи суғурта қилинади. Испания ҳукумати қишлоқ хўжалиги экинлари ва ҳайвонларни суғурталашни субсидиялаштиради. Ўртача субсидиялар суғурта мукофотларининг умумий ҳажмининг 53 фоиз даражасида. Улардан 40-45 фоизи марказий ҳокимият томонидан ва 10-15 фоизи - худудий ҳукуматлар томонидан субсидия қилинади. Катастрофик зарарлар биринчи навбатда экинлари ёки ҳайвонларини суғурта қиладиган фермаларга тўлаб берилади. Барча рисклар давлат қайта суғурта компанияси орқали қайта суғурталанади.

Туркия. 2005 йилда давлат ва хусусий суғурта компаниялари ўртасидаги ўзаро келишувга асосан аграр суғурта бирлашмаси (ПУЛ) ташкил этилди, унинг бошқаруви ТАРСИМ компанияси томонидан амалга оширилади.

Пулни яратишнинг асосий мақсади мамлакатнинг қишлоқ хўжалигини суғурталаш тизимини ривожлантиришда давлатнинг ролини ошириш, шунингдек давлат томонидан аграр соҳани қўллаб қувватлашни янада кенгайтириш, суғурта маҳсулотларини субсидиялаш шакли орқали агросуғурта соҳасига кириб бориш ҳисобланади. Фермерлар тўғридан-тўғри ТАРСИМга мукофотларни тўлайдилар ва давлат томонидан ҳам субсидиялар (50-66%) ТАРСИМга ўтказиб берилади. Суғурта тўловлари ТАРСИМнинг таркибига кирувчи суғурта компаниялар томонидан амалга оширилади. ТАРСИМнинг яна бир функцияларидан бири бу рискларни қайта суғуртага жойлаштириш ҳисобланади. Бундан ташқари, қишлоқ хўжалиги техникаларини сотиб олинаётганда ажратилаётган кредитнинг 25 фоиздан 50

фоизгача миқдорини давлат қоплайди. Замонавий суғориш тизимларини сотиб олинаётганда эса кредитнинг 100 фоизи давлат томонидан қопланади.

Шуни таъкидлаш керакки, мамлакатда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг хусусиятлари туфайли қишлоқ хўжалигини суғурталашнинг қамрови баъзи ҳудудларда 45 фоиздан юқори, баъзи жойларда эса 5 фоиздан юқори. Туркияда суғурта қилишга оид асосий қишлоқ хўжалик экинларига қуйидагилар киради: буғдой, помидор, зайтун ва узум. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари суғурталашлари мумкин бўлган экинлар рўйхати, 36 та маҳсулотни ўз ичига олади.

Озарбайжон Республикасида 2002 йилда Аграр соҳада субсидиялаш тўғрисида қону кабул қилинган.Ушбу қонунда қишлоқ хўжалиги суғуртаси бўйича суғурта мукофотларини субсидиялаш кўзда тутилган. Лекин ушбу механизм ишламаган. Бунга сабаб, суғурта компаниялари тижорат ташкилоти хисобланиб, қишлоқ хўжалиги суғуртаси рисклари ва зараралили юқори бўлганлиги учун суғурта қилишни хохлашмаган. Ажратилган субсидия маблағлари ўзлаштирилмай келинган.

2016 йилда Қишлоқ хўжалги вазирлиги томонидан “Қишлоқ хўжалиги суғуртасини ислоҳ қилиш бўйича “Йўл харитаси” ишлаб чиқилган. Бу орқали қишлоқ хўжалигини суғурталашнинг тижорат шаклидан, нотижорат шаклига ўтилган.

2020 йилда Нотижорат шаклидаги Қишлоқ хўжалигини суғурталаш органи “Аграр суғурта фонди” ташкил этилган. Ушбу фонд қишлоқ хўжалиги суғуртасида давлат сиёсатини олиб боради ва тартибга солади.

Республикада 20 та суғурта компания мавжуд бўлиб, улардан 1 та суғурта компания қайта суғурта фаолияти билан шуғулланади.

-Қишлоқ хўжалиги суғуртаси билан шуғулланувчи воситачи суғурта компаниялари ҳозирги кунда 7 та суғурта компания фаолият юритади ва улар фақат воситачи вазифасини бажаради, яъни фермерлар билан суғурта шартномаларини Аграр суғурта фонди номидан тузади ва тушган суғурта мукофотларидан 15 фоиз воситачилик хақи олади.

Ушбу 7 та суғурта компнаиялари тенг улушдаги таъсисчилиги асосида Бошқарув компанияси ташкил этилган бўлиб, ушбу компания мижозлар билан суғурта шартномаларини тузиш ишларини тарғибот қилади. Шартномаларни тўғри тузилишини назорат қилади.

Аграр суғурта шартномалари тўлиқ электрон шаклда тузилади.

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги суғуртаси асосан ихтисослашган “Ўзагросуғурта” акциядорлик жамияти томонидан амлага оширилади.

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, 2023 йилда қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилини суғурталаш бўйича тузилган суғурта

шартномалари сони ўтган йилга нисбатан ортган бўлсада, 2019 йилдан 2022 йилгача камайиш тенденцияси кузатилган.

1-жадвал

2019-2023 йилларда қишлоқ хўжалиги суғуртаси бўйича тузилган суғурта шартномалари сони динамикаси

Кўрсаткичлар	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил	2023 йил	2023 йилда 2022 йилга нисбатан (+;-)
Суғурта шартномалари сони (дона)	51 164	14 030	1 217	458	698	240
Суғурта мукофотлари (млн.сўм)	93 809,7	55 40,9	2 527,3	3 594,8	2655,5	-939,3
Суғурта товонлари (млн.сўм)	64 644,2	44 739,8	7 747,9	6 960,7	983,1	5977,6
Зарарлилик даражаси %	68,9	80,6	306,6	193,6	37.0	-156.6

Шунингдек тўланган суғурта товонлари ҳажми ҳам кескин камайиб кетган. 2019 йилда қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилига табиий офатлар натижасида етказилган 64.6 млрд сўм зарар қоплаб берилган бўлса, 2022 йилда 983.1 млн сўм миқдорида суғурта товонлари тўланган холос.

Кейинги йилларда аграр соҳада бир қатор ислоҳотлар амалга ошириб келинмоқда.

2020 йилдан бошлаб 2023 йилгача босқичма босқич давлат буюртмасидан воз кечилиши бу соҳада трансформациялаш жараёнини янада жадаллаштирилишига сабаб бўлди.

Жумладан:Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2024 йил 2 июлдаги “Қишлоқ хўжалиги субъектларига қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилини суғурталашда суғурта мукофоти учун тўлов харажатларини бир қисмини қоплаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш хақида”ги 373-сонли қарори ва 2025 йил 14 апрелда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг «Қишлоқ хўжалиги таваккалчиликларини суғурта қилиш тўғрисида» ги конуни муҳим аҳамият касб этади. Ушбу қонунга кўра қишлоқ хўжалиги субъектларига қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилини суғурталашда суғурта мукофоти учун тўлов харажатларини 50 фоизини, бироқ суғурта суммасининг 4 фоизидан кўп бўлмаган қисмини қоплаш учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетидан маблағ ажратиш кўзда тутилган. Бу ўз навбатида қишлоқ хўжалиги субъектларини турли табиий офатлардан суғурта қилиш учун имконият яратади.

Шу боис иқлим ўзгаришлари шароитида аграр соҳани баркарор ривожлантиришда суғурталаш механизмини ролини ошириш борасида қуйидагиларни амалга оширилиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

-бозорда ишлайдиган барча суғурта компаниялар учун бир хил бўлган, қишлоқ хўжалик суғуртасини содда ва ошкора қоидаларга мувофиқ субсидиялашни таъминлаш;

-актуар ҳисобларни ўтказишни молиялаштириш;

-суғурта инфратузилмаси объектлари ўртасида соғлом рақобат муҳитни шакллаштириш;

-янги, ноанъавий суғурта махсулотларини ишлаб чиқишни қўллаб қувватлаш;

-ишлаб чиқарувчилар ва суғурта мутахассисларини ўқитишни молиялаштириш;

-об-ҳаво шароитини кузатишнинг миллий тизимини ривожлантириш;

-экинлар ҳолатини мониторингини ўтказиш ва зарарларни баҳолашнинг стандарт қоидаларини ишлаб чиқиш.

Юкоридаги тавсияларни амалиётга жорий этиш аграр сохада сугурта хизматлари кўламини ошириш ва сифатини яхшилашга хизмат килади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг «Қишлоқ хўжалиги таваккалчиликларини суғурта қилиш тўғрисида» ги қонуни. Тошкент шахри ЎРҚ-156.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 октябрдаги 5265-сонли «Суғурта бозорини рақамлаштириш ва ҳаёт суғуртаси соҳасини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида« ги қарори Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 23.10.2021 й., 07/21/5265/0992-сон;

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 1 мартдаги 108-сонли «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантиришнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарори Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 04.03.2024 й., 07/24/108/0171-сон;

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 2 июлда қабул қилинган 373-сонли “Қишлоқ хўжалиги субъектларига қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилини суғурталашда суғурта мукофоти учун тўлов харажатларини бир қисмини қоплаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш хақида”ги қарори.Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03.07.2024-й., 09/24/373/0465-сон; 02.04.2025-й., 09/25/197/0299-сон.

5. Ўзагросуғурта" акциядорлик жамиятининг 2022-2023 йил хисобот маълумотлари https://agros.uz.

ИНСОН ВА АТРОФ-МУҲИТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Йўлдошев Нуриддин Қурбонович
Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти
“Бизнес бошқаруви ва молия” кафедраси профессори, и.ф.д.

Аннотация. *Мазкур мақолада инсон бахти ва уни таъминловчи омиллар, хусусан, табиий ва ижтимоий муҳитнинг инсон ҳаётидаги ўрни илмий-назарий ҳамда амалий жиҳатдан таҳлил қилинади. Тадқиқотда табиий омиллар (сув, тупроқ, ҳаво) ва ижтимоий омиллар (оила, жамоа, мафкуравий муҳит, таълим ва сиёсат)нинг ўзаро таъсири кенг ёритилган. Шу билан бирга, экологик барқарорликнинг иқтисодий ривожланиш ва корпоратив масъулият билан узвий боғлиқлиги мисоллар асосида таҳлил этилган. Мақолада ривожланган давлатлардаги корпоратив маданият, хусусан, Швеция, Германия, Япония тажрибалари орқали экологик ва ижтимоий масъулиятни амалга оширишнинг самарали механизмлари кўрсатилган. Милтон Фридман, Хоуард Боуэн, Жозеф Стиглиц каби иқтисодий фикр намояндаларининг илмий ғоялари орқали “ишбилармонликнинг ижтимоий масъулияти” концепцияси ёритилган. Тадқиқотда экологик масъулиятнинг янги босқичи сифатида саноат ва маиший чиқиндилар муаммоси мисолида Ўзбекистон тажрибаси таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *инсон бахти, атроф-муҳит, табиий омиллар, ижтимоий омиллар, экологик масъулият, корпоратив маданият, ижтимоий масъулият, саноат чиқиндилари, барқарор ривожланиш, ахлоқий меъёрлар, бизнес.*

Abstract. *This article analyzes human happiness and the factors that ensure it, in particular, the role of the natural and social environment in human life, from a scientific, theoretical and practical point of view. The study extensively covers the interaction of natural factors (water, soil, air) and social factors (family, community, ideological environment, education and politics). At the same time, the close relationship between environmental sustainability and economic development and corporate responsibility is analyzed based on examples. The article shows effective mechanisms for implementing environmental and social responsibility through the experience of corporate culture in developed countries, in particular, Sweden, Germany, and Japan. The concept of “social responsibility of business” is highlighted through the scientific ideas of such representatives of economic thought as Milton Friedman, Howard Bowen, and Joseph Stiglitz. The study analyzes the experience of Uzbekistan as a new stage of environmental responsibility, using the example of the problem of industrial and household waste.*

Key words: *human happiness, environment, natural factors, social factors, environmental responsibility, corporate culture, social responsibility, industrial waste, sustainable development, ethical standards, business.*

Кириш

Жаҳон адабиёти буюкларидан бири Лев Толстой “Уруш ва тинчлик” романидаги ўнлаб персонажлар ҳаётини таҳлил қилиб, уларнинг тақдирларини умумлаштириб, “Инсон бахт учун яратилган” деган хулосага келган эди. Хўш, инсон бахти нимада? Бу саволга муғул халқи “Инсон бахти уни ўраб турган атроф мухитда” деб жавоб беради.

Инсон табиати ва тақдирига таъсир этувчи атроф мухит омилларини табиий ва ижтимоий турларга ажратиш мумкин. Табиий омиллар сув, тупроқ, ҳаводан иборат бўлади. Мана шу унсурлар мусаффо бўлса тан-жонимиз соғ бўлади. Соғлик бу фоний дунёнинг энг катта бойлигидир. Модомики, бахтимиз мана шу омилларнинг ҳолатига боғлиқ экан, уларнинг мусаффолигига дахл қилмай, безиён бизнес юритишни ўрганишимиз лозим.

Ривожланган мамлакатларда ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, экологик ресурслар йилдан йилга емирилиб бормоқда. Ер куррасидаги сув ресурсларининг бор йўғи 3 фоизигина ичишга яроқли, қолгани инсон фаолияти натижасида ифлосланган. Япон олими Эмоту Мосаро сувнинг эшитиш, эслаб қолиш қобилияти борлигини, яхши ёки ёмон муомалага таьсирчанлигини, шунга қараб унинг хужайралари турли шаклда кластерлар хосил қилишини исботлаб берган. Қатор мамлакатлар олимлари ўтказган тадқиқотлар хар бир жойдаги сув кластерлари алоҳида шаклда бўлишини исботлаган.

Сарвари коинот Расулуллох Мухаммад саллоллохи алайхи вассалам “Ватанни севмоқ иймондандир” деб таьлим берганлар. Ўзлигини англаган ҳар бир инсон ватанини севиши, ватанпарвар бўлиши керак. Бу собиқ совет давридаги қолган коммунистик сафсата эмас, бу гапнинг тагида моддий асос бор. Инсон танасида сув салмоқли ўрин тутади. Инсон қаерда туғилса унинг танасидаги сув кластерлари ўша ерга хос шаклда бўлади. Шунинг учун ҳар бир инсон қаерда бўлмасин туғилган ватанига талпинади. Бу табиат қонунияти.

Ижтимоий омиллар оила, маҳалла, меҳнат жамоалари, мамлакатдаги мухитдан иборат бўлади.

Ривожланган мамлакатлар олимлари шундай хулосага келдиларки, саноатнинг ўсиш суръатлари, ялпи ички маҳсулот, “истеьмол саватчаси”, ўртача иш ҳақи даражаси каби иқтисодий кўрсаткичлар аҳолининг турмушидан розилик даражасини баҳолаш учун етарли эмас.

Улар инсон бахтини шакиллантирувчи ижтимоий омилларни ўрганишга доир ўтказган тадқиқотларида иқтисодиёт бўйича Нобель мукофоти соҳиби Жозеф Стиглиц услубига биноан, 100 дан ортиқ мамлакатлар аҳолиси ўртасида “Бахт ўлчови” сўровномаси ўтказилган. Бахт рейтинги аҳоли кайфиятига ҳал қилувчи таьсир ўтказадиган бешта мезон бўйича аниқланган. Булар: таьлим, соғлиқни сақлаш, турмуш сифати, иқтисодий ўсиш динамикаси, сиёсий иқлимдан иборат.

2019 йилда 171 мамлакатнинг ялпи ички маҳсулоти 85,4 триллион долларни ташкил этган. Шунинг 80 фоизи 500 та миллатлараро диверсификацияланган компанияларга тегишли. Масалан, АҚШнинг

“Амазон” интернет савдо корпорацияси йиллик тушуми 874 миллиард, “Walmart” савдо корпорациясиники 500 миллиард, Хитойнинг “State Grid” электр тармоқлари корпорацияси тушуми эса 345 миллиард долларга тенг бўлган. Ваҳоланки, Ер юзида ялпи ички маҳсулоти кўрсаткичи ана шу рақамларнинг ярмига ҳам етмайдиган ўнлаб мамлакатларни санаш мумкин.

Хўш, шундай экан, миллатлараро корпорацияларнинг мамлакат аҳолиси, жаҳон жамоатчилиги олдидаги бурчлари нималардан иборат?

Корпорациялар зиммасидаги бурчлар улар фаолият юритаётган мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражасига кўра фарқланади. Давлатлар бу жабҳада, асосан, корпоратив ва маданийлашган турларга бўлинади. Буни қандай ажратишимиз мумкин?

Гап шундаки, корпоратив давлатларда иқтисодий ўсиш кўрсаткичлари ривожланишнинг асосий меъзонидир. Маданийлашган давлатларда иқтисодий кўрсаткичлар иккинчи ўринда. Уларда ижтимоий ривожланиш маданий-маърифий, маънавий ўсиш кўрсаткичлари етакчи аҳамият касб этади.

Иқтисодий ўсишни таъминлашда корпорациялар, умуман, бизнеснинг ўрни беқиёс. Чунки ишбилармон кўпроқ фойда топиш илинжида инновацион лойихаларни рўёбга чиқаришга зўр беришади. Бу орқали ўзларини ҳам, мамлакатни ҳам бой қилади. Тараққиётнинг юксак нуқтасига чиққан Швецияни олайлик. “Инсонийлик қиёфасидаги капитализм мамлакати” деб аталадиган бу давлатда юридик шахслардан олинадиган даромад солиғи 26,3 фоиз, қўшилган қиймат солиғи 12 дан 25 фоизгача. Капиталнинг ўсган қисмидан эса 30 фоизгача солиқ олинади.

Дания, Германия ва бошқа ривожланган мамлакатларда давлатнинг аҳолини ижтимоий ҳимоялаш дастурлари тўлиқ мулкдорлар тўлайдиган солиқлар ҳисобидан молиялаштирилади. Мамлакатда ижтимоий ҳимоя дастурлари қанчалик кенг бўлса, бизнесдан олинадиган солиқлар юки шунчалик юқори бўлади.

“Швед социализми” бозор иқтисодиётига асосланган. Бу ерда корхоналарнинг 95 фоизи хусусий. Ишлаб чиқаришда давлат секторларининг улуши Италия ёки Францияга нисбатан анча паст. Аксинча, бу кўрсаткич ижтимоий таъминот, соғлиқни сақлаш ва таълимни бошқаришда ниҳоятда юқори. Булар жуда катта харажатларни талаб қилади. Шунинг учун Швецияда солиқлар ҳамда ижтимоий тўловлар миқдори анча салмоқли- ялпи маҳсулотнинг 60 фоизи атрофида.

“Швед модели”да иқтисодиёт давлат ўрнатган рақамлар доирасида ишлайди. Бу-“ёввойи” капитализм эмас, аксинча, давлат таъминоти ва иқтисодиётнинг юқори маҳсулдорлигимужассамлаштирилиб, тартибга

солинган тизим. Солиқ механизми шундай шакллантирилганки, бир нафар бой бир неча камбағални молиялаштиради. Шунинг учун давлат тадбиркорлар мулкининг кўпайишидан манфаатдор. Фақат шарт шуки, бу мулк жамиятга-хизмат қилсин!

Худди шундай ҳолат немислар мамлакатида ҳам мавжуд. Германия конституцияси фақат жамиятга хизмат қиладиган хусусий мулкни тан олади, жамият учун зарарли мулк ўзини яшаш ҳуқуқидан маҳрум қилади.

Корпорациялар жамоатчиликка нисбатан қандай муносабатда бўлиши лозим? Атроф-муҳитга-чи? Бу масалада ишбилармон доираларнинг ёндашувлари ҳар хил. Баъзиларнинг фикрича, қонунлар ва давлат ўрнатган меъёрларни бузмай, максимал фойдасини кўпайтирган ташкилот жамият олдидаги бурчини бажарган ҳисобланади. Бошқача ёндашув тарафдорлари эса ташкилотчилар ишчилар, истеъмолчилар ҳамда маҳаллий жамоаларнинг инсонийлик ва ижтимоий муносабатларига таъсирини ҳисобга олиб фаолият юритишини, ижтимоий-муаммоларни ечишга ҳисса қўшишини талаб қилади. Ушбу нуқтаи назарни ёқловчилар замонавий ташкилотлардан фақат юксак иқтисодий натижаларни эмас, балки жамиятнинг ижтимоий мақсадларига эришишини кутади.

Аслида ишбилармонликнинг шаклланиши узоқ йиллик жараён. Ана шу даврда жамоатчиликнинг унга нисбатан фикри ҳам такомиллашиб борган. XX аср бошида баъзи ишбилармон раҳбарлар корпорациялар ўз ресурсларини жамият ютуғи учун йўналтириши керак, деб ҳисоблаган. Масалан, америкалик пўлат ишлаб чиқарувчи Эндрю Карнеги ижтимоий дастурларга 350 минг доллар сарфлаб, 2 минг жамоат кутубхонасини қурган. Джон Рокфеллер 550 миллион доллар эвазига Рокфеллер фондини тузган. “Сирс” фирмаси раҳбари Роберт Вуд рақамлар билан ифодалаб бўлмайдиган бундай кенг ижтимоий мажбуриятлар бизнесни ривожлантиришда устувор аҳамиятга эга, деб ҳисоблаган.

Аммо ўтган асрнинг 30-йилларида АҚШда юз берган “Буюк депрессия” Вуд ва унинг ҳамфикрлари қарашлари кенг ёйилишига тўсқинлик қилди. Чунки бу даврда Америка корхоналарининг мақсади банкрот бўлмай, яшаб қолиш эди. Жамият ҳам улардан фойда ҳамда иш ўринларини сақлаб қолишни кутарди.

50-йилларга келиб, ишбилармонликнинг жамият олдидаги масъулияти масаласи яна кўтарилди. Хоуард Боуэн “Ишбилармонликнинг ижтимоий масъулияти” китобида бизнесга ижтимоий масъулият концепциясини татбиқ этиш аҳамиятини асослаб берди.

Иқтисодиёт бўйича Нобель мукофоти соҳиби Милтон Фридманнинг ёзишича, ҳақиқий ишбилармонлик деганда “ўйин” қоидаларига риоя этган,

очиқ рақобатда қатнашган, товламачилик ҳамда алдамчилик қилмай, фойдани кўпайтиришга йўналтирилган қувват ва ресурслардан оқилона фойдалана олиш тушунилади. Шунинг учун ташкилотлар ресурсларининг бир қисмини ижтимоий каналларга йўналтириши лозим. Улар атроф-муҳит муҳофазаси, соғлиқни сақлаш ҳамда хавфсизлик, фуқаролар, истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоялаш каби соҳаларда масъулият билан ишлаши зарур.

Истеъмолчилар хавфсизлигини таъминлаш, экологик меъёрларга риоя қилиш-тадбиркорликнинг муҳим шарти. Маърифатлашган мамлакатларда ахлоқий меъёрларга амал қилиш тижорий муваффақият, моддий манфаатдан устун қўйилади.

Ижтимоий масъулият ташкилотнинг ижтимоий муаммоларга ихтиёрий равишда хозиржавоб бўлишини тақозо этади. Масалан, “Юнион Карбайд” фирмаси Хиндистоннинг Бхопал шаҳрида қурган заводдан заҳарли моддалар оқиб чиқиши оқибатида 2 минг киши нобуд бўлганда, дунё кимё саноатида 4-ўринда турган “Монсанто” фирмаси унинг 55 заводи яқинида яшайдиган аҳолини юз бериши мумкин бўлган фалокатдан ихтиёрий равишда огоҳлантирган. “Проктер энд Гэмбл” фирмаси 1980 йилда зарарли моддалари борлиги учун “рилай” тампонини ишлаб чиқаришни тўхтатган. “Джонсон энд Джонсон” фирмаси ҳам “Гиленол” капсуласида заҳарли моддалар излари аниқланиши билан, 50 миллион доллар зарар кўришига қарамай, худди шундай йўл тутган. Бу мисоллар атроф-муҳит билан қарама-қаршиликка борган фирма узоқ муддат масъулият билан ишлай олмаслигини кўрсатади.

Немис ишбилармонларининг фикрича, бозор ёзилмаган қонунлар, “ўйин” қоидалари, ахлоқий меъёрларга риоя қилишни тақозо этади. Атроф-муҳитни ободонлаштириш, тартибсеварлик, инсофлилик, бирдамлик шулар жумласидандир. Жамиятда бирдамлик қанчалик кам бўлса, ҳуқуқий тартибга солиш ва давлат қарорларига эҳтиёж шунча кўп бўлади.

Ғарб мамлакатларида ишбилармонлар қатъий амал қиладиган ахлоқий меъёрлар мавжуд. Чунончи, юқори унумдорлик ва фойдага атроф-муҳитни бузиш эвазига эришмаслик шарт. Шунингдек, адолатли қоидалар доирасида рақобатлашиш зарур. Яна бир меъёрга кўра, меҳнат билан яратилган неъматларни шундай тақсимлаш лозимки, аҳоли орасида камситилган табақалар бўлмасин. Инсон техникага эмас, техника инсонга хизмат қилиши керак. Виждонга қонунлар шарт эмас. Виждонли фуқаролар қанча кўп бўлса, қонунларга эҳтиёж шунча кам бўлади.

Навбатдаги ахлоқий норма-корпорациялар ишларида хизматчилар иштирокининг оқилона шакллари фақат яхшироқ ишлаш истагини уйҳотиб қолмай, балки масъулият ҳиссини оширсин. Ўз навбатида, иқтисодиёт диндан фарқли ўлароқ ахлоқий меъёрларга эмас, моддий неъматлар тақсимотига

йўналтирилади, бироқ жамоа манфаатлари тақозо этганда, ахлоқий меъёрларга бўйсуниши лозим.

Масалан, фирма фойдасини кўзлаб, атроф-муҳитга зиён келтириш жамият манфаатларига зид. Ёки ўз фойдаси учун шеригини алдаш мунофиқликдир. Бундай меъёрларни шакллантиришда Шарқ мамлакатларида ислом дини катта ўрин тутади. Ислом таьлимоти диннинг ўзи каби объектив заруриятидан вужудга келган. У мусулмонларга фақат диний эмас, балки ҳаётий мажбуриятлар ҳам юклайди.

Ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, экологик ресурслар аста-секинлик билан ўзаро муносабатларнинг иқтисодий ричагларига айланиб бормоқда. Бозор муносабатлари барча нарсалар, шу жумладан, экологик ресурсларнинг сарфи, айниқса, мамлакатлараро олди-бердисида уларни маълум баҳоларда ўлчашни кун тартибига қўймоқда. Бу эса ана шу табиат бойликларини аҳоли ва ташкилотлар томонидан масъулиятсизлик билан исроф қилиб, фойдаланишнинг олдини олишга, яьни экологик масъулиятни оширишга хизмат қилади.

Экологик масъулиятни ошириш, асосан, ихтиёрийлик ва ички шахсий (жамоавий) тартибга бўйсиниш ҳиссини вужудга келтириш билан боғлиқ. Саноат ҳамда маиший чиқиндиларнинг кўпайиб бориши-атроф-муҳитга энг катта хавф туғдирувчи муаммо. Ҳозирги кунда дунё бўйича йилига бир неча миллиард тонна чиқинди ҳосил бўлади. Бунинг сабабини саноат, мудофаа, маиший, илмий ва бошқа мақсадлар учун 60 та кимёвий элемент ҳамда ўнлаб табиий фойдали қазилма турлари ишлатилиши билан изоҳлаш мумкин.

АҚШ, Япония, Германия каби илғор мамлакатларда аҳоли жон бошига фойдали қазилмалар истеъмоли йилига 5-20 тоннани, дунё бўйича эса 8 тоннани ташкил этади. Бу кўрсаткич 100 йил-аввалги ҳолат билан қиёслаганда 4 баробар кўп.

Табиий бойликларни қазиб олиш жадаллашуви захираларнинг доимий қисқаришига олиб келиши маьлум. Агар улар чуқурроқ жойлашган бўлса, борган сари кўпроқ қатламларни ағдариб, ер юзига олиб чиқишга, техноген юклама даражасининг ортишига сабаб бўлаётир.

Америка тадқиқотларига кўра, бир нафар саноат ишчиси бир нафар аҳоли вакилига нисбатан 8 марта кўп саноат чиқиндиси чиқаради. АҚШ, Германия, Франция, Англия, Японияда бундай ташламаларни зарарсизлантириш 65-80 фоизга етади. Бошқа мамлакатларда эса афсуски, бу кўрсаткич анча паст.

Шаҳарлар кундалик ҳаётида ҳосил бўладиган қаттиқ маиший чиқиндилар ҳам атроф-мухит учун катта таьсир кўрсатади. Уларнинг 20-40 фоизини макулатура, 2,5-3 фоизини қора ва рангли металлар, 25-40 фоизини

озиқ-овқат чиқиндилари, 1-2 фоизини пластмасса, 4-6 фоизини тўқимачилик буюмлари, 4-6 фоизини шиша ташкил этади.

Йилдан-йилга чиқиндилар таркиби ўзгаряпти. Эллик йил аввал кўпроқ органик чиқиндилар чиқарилган бўлса, эндиликда пластика биринчи ўринга чиққан. Полиэтилен пакетларни маҳсулот солиш ё ўраш учун 20-30 дақиқа ишлатамизу, кейин унинг чиришига 480 йил вақт зарур бўлади.

Чиқиндилар кўпайишини тўхтатиш учун хар бир бизнес тузилмаси пластика, шиша, қоғозни қайта ишлаши, органик-биокомпост қилиши лозим. Бу борада Япония 1960 йилда, Европада 1980 йилларда ислоҳот бошлаган.

Чиқиндилар қайта тикланадиган қувват манбаидир. “Hitachi” корпорацияси дунё бўйлаб чиқиндиларни ёқиб, қувват яратувчи 500 та завод қурган. Улар йирик шаҳарлар, ҳатто шаҳар марказларида жойлаштирилган бўлишига қарамай, бунга на аҳоли, на экологлар эътироз билдирмаган. Чунки бундай заводларда атмосферага чиқиши мумкин бўлган заҳарли газларни тутиб қолувчи фильтрлар ўрнатилган.

Саноат ва маиший чиқиндиларнинг кўпайиши − Ўзбекистон учун ҳам жиддий муаммо. Юртимизда йилига 7,1 миллион тонна маиший чиқиндилар тўпланади. 2018 йилда уларнинг 1,3 миллион тоннасини қайта ишлаш эвазига 1,1 миллион тоннага яқин маҳсулот тайёрланди. Қолган қисми эса йилига 5,87 миллион тоннани ташкил этяпти. Ушбу муаммоларни ўз вақтида ҳал қилиш учун давлатимиз раҳбари 2019 йил 17 апрелда “2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” қарор қабул қилди. Ушбу ҳужжатда қайд этилишича, 2019-2028 йилларда қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш тизимининг инфратузилмасини такомиллаштириш бўйича кенг кўламли ишлар олиб борилади, 13 та санитария жиҳатидан тозалаш давлат унитар корхонаси ҳамда уларнинг туман ва шаҳарларда 172 та филиали, бинобарин, 9 та маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни комплекс амалга ошириш кластерлар ташкил этилди. Кўрилган чора-тадбирлар аҳолининг деярли ярми санитария жиҳатидан тозалаш хизматлари билан қамраб олинишига имкон берди. Ўз навбатида, атроф-муҳитни қаттиқ маиший чиқиндилардан тозалаш учун уларни тўплаш, ташиш, утилизация қилиш, қайта ишлаш бўйича 2019-2028 йилларга вазифалар белгиланди. Ушбу вазифаларнинг ўз вақтида бажарилиши мамлакатимиз озода ва мусаффолигини таъминлайди.

Шу ўринда сувдан тўғри фойдаланишга қаратилган таклифлар киритишни жоиз деб биламиз:

1. Бу таклиф қурилиш материаллари, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарга тегишли. Одатда улар оқимнинг юқорисидан

сувни олиб, ишлатиб, етарли даражада тозаламай қуйи оқимга чиқариб ташлайди. Шундай қоида ўрнатиш керакки, корхоналар сувни ҳудудига нисбатан оқимнинг қуйидан олсин. Ишлатилган сувни тозалаб, оқимнинг юқорисига чиқарсин. Ана шунда улар ишлатилган сувни талаб даражасида тозалашга мажбур бўлади, акс ҳолда тозаланмаган сув корхонага қайтиб киради.

2. Хомашёларга ишлов бериш учун сувдан фойдаланадиган корхоналарда ичимлик сувини артезиан қудуқлардан олинган техник сувга алмаштиришни тавсия этамиз. Бу ўзгариш кундан-кунга қимматлашиб бораётган ичимлик сувларини тежаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 апрелдаги “2019 - 2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПҚ-4291-сон қарори. https://lex.uz/docs/4291729

2. Алишер Навоий. “Ибратли ҳикоялар ва хислатил ҳикматлар”. -Т.: “Sano standart” нашриёти, 2016 й.

3. Джексон Грейсон младший, Карла Оделл. «Американский менеджмент на пороге XXI века»ю М.: Издательство «Экономика».

4. Йўлдошев Н.Қ. “Маънавият иқтисодиётдан 10 қадам олдинда юриши керак: давлат хизматчилари фазилатларига бир назар”. //Халқ сўзи, 2020 йил 18 сентябр.

5. Йўлдошев Н.Қ. “Бизнес зиммасидаги бурч”. //Халқ сўзи, 2021 йил 19 июн.

SUN‘IY INTELLEKTDAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASHDA FOYDALANISH

Nasriddinov Isomiddin Xolmatovich
Angren universiteti “Iqtisodiyotva moliya” kafedrasi dosenti
E-mail: nasriddinovisomidin@gmail.com
Tulyaganov Erkabay Jumabekovich
Angren universiteti “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi dosenti
E-mail: tulyaganoverkabay@gmail.com
Orcid: 0009-0009-7814-5529

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining ekologik muammolarni hal etishdagi o‘rni va imkoniyatlari yoritilgan. Sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ekologik muammolarni yechish uchun katta potensialga ega, zero sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlani qayta ishlash, ularni odamga nisbatan tez va samarali tahlil etish imkoniyatiga ega. Bu tahlil yordamida mavjud qonuniyatlar, trendlar va tabiiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni o‘rganib optimal yechimlarni qabul qilish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, resurslar, ekologiya, ekologik boshqarish, optimal yechim, atrof muhit, tabiat muhofazasi, texnologiya.*

Аннотация. *В статье рассматриваются современные технологии искусственного интеллекта и их применение в решении экологических проблем. Технология искусственного интеллекта обладают огромным потенцалом для решения современных экологических проблем, он легко обрабатывает большой объем информации, анализирут эту информацию быстрее и эффективнее чем человек. Исходя из этого анализа можно определить существующие закономерности, тренды, что позволяет найти оптимальные решения.*

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, ресурсы, экология, экологическое управление, оптимальное решение, окружающая среда, охрана природы, технология.*

Annotation. *This article explores the role and potential of artificial intelligence technologies in addressing environmental challenges. Abstract artificial intelligence technology has a huge potential to solve modern environmental problems, it easily processes a large amount of information, analyzes this information faster and more efficiently than a human. Based on this analysis, it is possible to determine the existing patterns, trends, which will allow you to find optimal solutions.*

Keywords: *Artificial intelligence, resources, ecology, environmental management, optimal solution, environment, nature conservation, technology.*

Kirish

Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi global ekologik muammolar zamonaviy dunyoda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Insoniyat oldida turgan bu muammolarni bartaraf etishda innovatsion texnologiyalarning, ayniqsa sun’iy intellekt (SI)ning o‘rni katta bo‘lib bormoqda. Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, murakkab tizimlarni modellashtirish, monitoring qilish va bashoratlar berish orqali ekologik muhofaza jarayonlarini samarali boshqarishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada SI texnologiyalarining ekologiya sohasidagi amaliy tatbiqlari, ularning samaradorligi va kelajakdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ekologik muammolarni aniqlash, monitoring qilish va ularni hal etishda keng ko‘lamda qo‘llanmoqda. SI yordamida atrof-muhitdagi o‘zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish, ifloslanish manbalarini aniqlash va tabiiy ofatlarni erta aniqlash imkoniyati mavjud.

Sun‘iy intellektning(SI) ekologik muammolarda qo‘llanishining bir qator nisbiy tomonlari mavjud:

Birinchidan, SI katta hajmdagi ma’lumotlani qayta ishlash, ularni odamga nisbatan tez va samarali tahlil etish imkoniyatiga ega. Bu tahlil yordamida mavjud qonuniyatlar, trendlar va tabiiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni o‘rganib optimal yechimlarni qabul qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, SI resurslar va energiyani boshqarishda optimal strategiyani ishlab chiqishi mumkin.

Uchinchidan, atrof-muhitni ifloslanishuvi ekologik monitoringini o‘tkazish, va nihoyat, klimatik o‘zgarishlarida monitoring natijasida ma’lumotlarning aniqligi va haqiqiyligini oshiradi.

SI hozirgi zamonaviy har xil global muammolarni yechishning samarali texnologisi hisoblanadi, zero bu texnologiya asosida zamonaviy modellashtirish, optimallashtirish, matematik va kibernetik usullar yotadi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellektning ekologiya sohasidagi qo‘llanilishi bo‘yicha bir qator xalqaro tadqiqotlar va loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, AQSh va Yevropa davlatlarida "AI for Earth", "DeepSeek", "NatureServe" kabi loyihalar orqali SI yordamida ekologik monitoring tizimlari takomillashtirilmoqda. O‘zbekistonda esa bu yo‘nalishda hali dastlabki bosqichda bo‘lsa-da, Orolbo‘yi hududlarini kuzatish, suv resurslarini boshqarish va agrar sektorni optimallashtirish bo‘yicha ayrim loyihalar boshlangan. Ilmiy maqolalar, konferensiyalar va xalqaro hamkorlik doirasida bu mavzu muntazam tadqiq qilinmoqda, ammo hali to‘liq o‘zlashtirilmagan soha hisoblanadi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ekologik muammolarni yechish uchun katta potensialga ega. Masalan, SI yordamida o‘rmon hududlarini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish uchun qaysi daraxt turlarini ekish kerakligini aniqlash mumkin. Yuk tashish jarayonlarini yanada samarali yechib, iqlim o‘zgarishidagi salbiy jarayonlarni kamaytirish mumkin.

Masalan, SI monitoringi yordamida tabiiy ofatlarni prognozlash, ifloslanish manbalarini aniqlash, havo va suv sifatini tizimli nazorat qilish mumkin. SI yordamida ekologik xavflarni yaxshiroq tushunish, ularni oldindan bashorat qilish va ularning oqibatlarini samarali kamaytirish mumkin.

Sun‘iy intellektning texnogen jarayonlar va ishlab chiqarishda keng qo‘llanishi va odamlar tomonidan ko‘p sohalarda foydalanishi mehnat unumdorligini oshirishga, kundalik muammolarni hal qilishga, ko‘plab jarayonlarni optimallashtirishga olib keldi. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi SI algoritmlarida yangi modellarni qo‘llanishiga qaramay, sun‘iy intellektdan foydalanish dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda.

Ayrim yo‘nalishlarda SI modellarini qo‘llash va ulardan foydalanish juda katta tabiiy va hisoblash resurslarini talab etadi. Ma’lumotlar markazlari (Data state), ChatGPT ва DALL-E kabi generativ vositalar SI ishlashi uchun asosiy infratuzilma hisoblanadi.

Ma’lumotlar markazi – deb odatda serverlar, ma'lumotlarni saqlash omborlari va tarmoqdagi boshqa uskunalar kabi hisoblash infratuzilmalari joylashgan bino yoki joy tushuniladi. Masalan, Amazon butun dunyo bo‘ylab 100 dan ortiq ma'lumotlar markazlariga ega va ularning har birida kompaniyada bulutli texnologiylarni qo‘llash uchun 50 000 ga yaqin serverlar mavjud.

Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Shimoliy Amerika ma'lumotlar bazalarining (Big Data) iste'moli 2022- yil oxirida 2792 megavattdan 2023-yilga kelib 6341 megavattgacha oshgan, albatta bunday o‘sish sun'iy intellekt generatsiyasiga bog‘liq. 2022-yilda ma'lumotlar markazlarining global Big Data iste'moli 460 terabattgacha oshdi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti xabarlariga ko‘ra, ma'lumotlar markazlari Saudiya Arabistoni (371 teravatt) va Fransiya (463 teravatt) gacha yetdi.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyasini qo‘llash juda ko‘p energiyani talab etadi, masalan uzluksiz faoliyat yuritayotgan kriptovalyutalar ishlab chiqarish markazlarida ist’mol etilayotgan elektr energiyasini hisoblasak juda katta hajmdagi energiya hosil bo‘ladi. Agar bu miqdor energiyaning CO_2 chiqarishdagi hajmini hisoblasak jahon ekologiyasini ifloslantirayotgan manbalar qanday o‘sayotgani, qaysi omillarga boliqligini ko‘ramiz. Agar biz global elektr energiyasining 1% ini sun'iy intellektni o‘rgatish uchun sarf qilsak va bu sun’iy intellekt hosil etayotgan uglerod hajmini hisoblasak, yer yuzida ro‘y berayotgan ekologik mummolarni yaqqol ko‘ramiz.

Lekin tabiat qonunlari insoniyatni yangi texnologiyalar va elektr-energiya manbalarini yaratishni talab etadi va bu rivojlanishning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud hisoblanadi.

Quyida keng qo‘llanilayotgan sun’iy intellektning ekologiyadagi ayrim tatbiqlarini ko‘rib chiqamiz:

DeepSeek Neyrotarmog‘i – ekotizimlarni modellashtirish va boshqarish texnologiyasi.

“NatureServe Conservation Status” loyihasi SIni bioo‘zgaruvchan muhitda modellarni yaratish uchun qo‘llash mumkin. Mavjud algoritmlar yashash muhitining tarkibidagi o‘zgarishlarni tahlil etadi va qo‘riqxonalarni samarali boshqarishiga yordam beradi.

Havoning ifloslanish darajasi va havo sifatini buzgan monitoring. Bu loyiha Aclima deb ataladi va uni qo‘llash uchun loyihani qo‘llanilayotgan shaharlarda havo sifatini ma’lumotlarni yig‘uvchi datchiklar o‘rnatiladi.

Mavjud algoritmlar ushbu ma’lumotlarni tahlil etib ifloslantirish manbalarini aniqlaydi.

Chiqindilarning boshqarishdagi energoiste’molni optimal boshqarish.

Google Deep Mind energoiste’molni boshqarish tizimni neyrotarmoqdan foydalanib resurslardan optimal foydalanish uchun ma’lumotlarni qayta ishlash markazlarida ishlab chiqdi.

CONOPS loyihasi - sun’iy intellekt texnologiyasi yordamida robototexnika va dronlardan foydalanish.

Qurish texnologiyasiga asoslanib yaratilgan CONOPS texnologiyasi o‘rmonzorlarni dronlar yordamida monitoring qilish algoritmlari asosida ishlaydi. Bu algoritmlar brakonyerlik va boshqa qoidabuzarliklarni nazorat qiladi.

Blue River Technology loyihasida SI agrar sektorida tatbiq etilishi ko‘rib chiqilgan. Bu loyiha asosida yaratilgan algoritmlar asosida o‘simliklarni aniq va vaqtida dorilash belgilangan.

Algoritmlar yovvoyi o‘tlar va infeksiyalarni aniqlab ishlatilayotgan ximikatlarni optimal sepish va hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Proteus - tadqiqotchilik loyihasi bo‘lib, ma’lumotlarni tahlil etish uchun neyrotarmoqdan foydalanilgan. Bu tizim dengizda yashovchi turlar va ularning ko‘payishini baholaydigan tizim hisoblanadi. Albatta bu tizimdan O‘zbekistonda Orol dengizi va katta ko‘llarda foydalanish mumkin.

Wildbook- bu platforma SI algoritmlari asosida yovvoyi hayvonlarni belgilari(obrazlari) asosida qidirish va aniqlash ishlari bajariladi. Loyihada juda ko‘p hayvonlar uchun ma’lumotlar bazalari kiritilib ularning o‘zlariga xos bo‘lgan belgilari keltirilgan. Bu ma’lumotlar bazasidan maxsus algoritmlar asosida hayvonlar turlari, joyi, populyatsiyasi va boshqa kerakli parametlari aniqlanadi va tahlil etiladi.

Plume Labs ilovasini “Air Report” tomonidan ishlab chiqqan bo‘lib real vaqt jarayonida sun’iy intellektdan foydalanib real rejimda havo sifatini aniqlaydi. Bu ilova havoning ifloslanish algoritmlariga asoslangan bo‘lib har bir foydalanuvchi uchun shaxsiy tavsiya beradi

Microsoft AI for Earth yangi loyihalar uchun grant va resurslar ajratib ekologiyada sun’iy intellektdan foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

Bu dastur eng yaxshi loyihalar sirasiga kirib neyron tarmoqlarida yovvoyi tabiat monitoringini avtomatlashtirishda qo‘llaniladi.

Bu loyihaning eng katta yutug‘i bulutli hisoblashdan samarali foydalanishi hisoblanadi. Zero bulutli texnologiyalar loyihalarni masshtablashtirish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini beradi.

Sun’iy intellekt potensiali va samaradorligini ekologik muammolarni yechishda baholash: samaradorligi – mukammalashtirilgan monitoring.

SI texnologiyalari atrof-muhit monitoringini ancha yaxshilab, ma’lumotlarni tahlil etshning aniq algoritmlari ekostizimdagi o‘zgarishlarni aniq baholaydi.

Resurslarni optimallashtirish – SI qishloq xo‘jaligida va resurslarni boshqarishda qo‘llanishi suvdan, energiyadan samarali foydalanish va agronomik amaliyotni yaxshilaydi.

Kelajakda tatbiq etish potensiali:

Ob-havo (klimat) o‘zgarishiga moslashish.

SI texnologiyasi ob-havoning o‘zgarishini bashoratlash va uning o‘zgarishiga moslashishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Kelajakni bashoratlash va modellashtirish yangi samarali moslashish strategiyalarini ishlab chiqishga imkoniyat beradi.

Barqarorlik sohasida innovatsiyalar - SI innovatsion texnologiyalar masalan chiqindilarni qayta ishlashda, transportning samarali energota’minoti, transport barqarorligida ekologik talablarga mos sharoitda yashash imkoniyatini beradi.

Xulosa va takliflar

Sun’iy intellekt ekologik muammolarga innovatsion yondashuvlarni taklif etuvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. SI yordamida atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shunga ko‘ra quyidagilarni taklif qilish mumkin:

O‘zbekistonda SI asosidagi ekologik monitoring tizimlarini joriy etish lozim.

Agrar sohada SI texnologiyalaridan foydalanish orqali suv va resurs sarfini kamaytirish mumkin.

SI bo‘yicha mahalliy mutaxassislar tayyorlash va ilmiy izlanishlarni kengaytirish zarur.

Davlat, ilmiy institutlar va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali ekologik SI loyihalarni qo‘llab-quvvatlash kerak.

Atrof-muhit monitoringi uchun real vaqt rejimidagi SI platformalarini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupbekov N.R. Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish / N.R.Yusupbekov. - Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.-572 b.

2. Nazarov X.N. Robotlar va robototexnik tizimlar. Darslik. - "Mashhur press", 2019, - 236 b.

3. Эртел В. Введение в искусственный интеллект / В. Эртел; пер. с англ. А. Горман. - М.: Эксмо, 2019. – 448 с.

O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZ SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR

Isayev Kobiljon Abdukodirovich
“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrasi dosenti
E-mail: qobiliy.isaev@gmail.com
Orcid: 0000-0002-4128-6354
Qurbanov Azizbek G‘ulom o‘g‘li
O‘zbekiston Karlar jamiyati Markaziy Boshqaruvining yoshlar ishlari bo‘yicha mutaxassisi
E-mail: Azacious.kurbanov@gmail.com
Orcid: 0009-0003-2375-7161

Annotatsiya. *Ushbu tezisda O‘zbekistonda ko‘zi ojizlarning iqtisodiy faolligini oshirish masalalari, davlat tomonidan qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, dasturlar va ularning amaliy natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va raqamli imkoniyatlarning o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda ko‘zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarida barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va texnologik yo‘nalishlari bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv iqtisodiyot, iqtisodiy faollik, nogironlar huquqlari, texnologik integratsiya, barqaror rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы повышения экономической активности слепых и слабовидящих людей в Узбекистане в контексте социально ориентированной государственной политики. Проанализированы законодательные акты и программы, направленные на поддержку лиц с инвалидностью в сфере предпринимательства и занятости. Особое внимание уделено роли современных технологий и цифровых инструментов в повышении инклюзивности и экономической эффективности.*

Ключевые слова: *слепые, инклюзивная экономика, экономическая активность, права инвалидов, технологическая интеграция, устойчивое развитие.*

Abstract. *This article analyzes the issues of increasing the economic activity of visually impaired persons in Uzbekistan within the framework of the country's socially oriented state policy. It examines the implementation of legislative acts and programs aimed at supporting people with disabilities in entrepreneurship and employment. The study highlights the role of modern technologies and digital tools in enhancing inclusion and economic efficiency.*

Keywords: *visually impaired persons, inclusive economy, economic activity, disability rights, technological integration, sustainable development.*

Kirish

Bugungi kunda ko‘zi ojizlarning iqtisodiy faolligini oshirish O‘zbekistonning ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat siyosatlari mazmunida to‘la o‘z aksini topgan bo‘lib, bu borada so‘nggi yillarda bir qator dasturlar, chora-tadbirlar qabul qilinib, amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash maqsadida, ularning iqtisody-ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 1- dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan

shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli Farmonining qabul qilinishi nogironligi bo‘lgan shaxslarning turmush darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bunday shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga, jamiyatdagi faol pozisiyasini shakllantirishga ko‘maklashish, ularni kasbga o‘qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarni takomillashtirish, qolaversa, nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish kompleks choralarini tizimli va samarali amalga oshirish borasidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berish bilan birga mazkur fuqarolarning inklyuziv iqtisodiy o‘sishdagi ishtiroki va faol turmush tarzini ta’minlashdagi muhim vazifalarni aniqlab berdi.

Xalqaro statistikalar dunyo miqyosida ko‘zi ojiz insonlar soni turli holatlar sababidan ortib borayotganligini inobatga olib, 21-asrda ularning jismoniy, tibbiy, ijtimoiy, intellektual, kasbiy va turmush kechirish holatlarini atroflicha tadqiq etish hamda mavjud muammolar yechimi ustida milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi hamkorliklarning kengayib, rivojlanib borishi kuzatilmoqda. Mazkur masalalar insoniyatning global muammolari qatorida o‘ta dolzarblik kasb etuvchi muammolarni o‘zida namoyon etmoqdaki, bugungi kunga kelib, dunyo ahlining chorak qismidan ortig‘i ushbu kasalliklar bilan kurashmoqda. Bu miqdor va ko‘lamning kelgusida yanada ortib borish xavfi yuqoriligi hamda u keltirib chiqaradigan tahdidlarning intensiv o‘sishga egaligi hozirdan ushbu masala ustida jiddiy kurash olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shu sababdan xalqaro hamjamiyat, turli milliy, mintaqaviy, xalqaro, jumladan, nodavlat tashkilotlari va mutaxassislar ishtirokida insonlarning ko‘rish qobiliyatini tiklash, nozik hilqat bo‘lgan ko‘zning ko‘rish qobiliyatini saqlab qolish kabilar ustida ilmiy tadqiqot, ilmiy-texnik, tibbiy-jarrohlik amaliyotlari va izlanishlari bo‘yicha hamkorliklari rivojlanib bormoqda. Pirovardida, ularning natijalari bo‘yicha xalqaro hisobotlar va dasturlar tayyorlanmoqda, konferensiyalar o‘tkazilmoqda, shartnomalar amalga oshirilmoqda.

Shular jumlasida dunyo aholisining ko‘rish qobiliyati zaiflashishi bilan hamkorlikni rivojlantirishning istiqboli bu – Marokash shartnomasi hisoblanadi. Bu ko‘zi ojiz, ko‘rish qobiliyati zaif yoki boshqa sabablarga ko‘ra bosma nashr etish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun nashr etilgan asarlarga kirishni osonlashtiradi. Natijada xalqaro miqyosda e’tirof etilgan ko‘plab inson huquqlari, jumladan, eng muhimi, “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” (CRPD) bilan himoyalangan huquqlar buzilishidir. 2016- yil oktyabr holatiga ko‘ra mazkur shartnomani 168 davlat qabul qilingan.

Biznes jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi qator afzalliklarni ta’minlaydi. Masalan: natijadorlikni oshirish; samarali aloqani

ta’minlash; mobillik; ish vaqtlarining qisqartirilishi; dasturiy ta’minot va ilovalar vositasida 24 soat ma’lumot olish; elektron tijorat shaklida savdo hajmining ortishi; veb-saytlar va kontentni o‘qish; tovar-moddiy zaxiralarni samarali hisobga olish va saqlash; sotishni osongina kuzatib borish; hisoblarni osongina boshqarish.

Ko‘ra olmaslik yoki yomon ko‘rish, iqtisodiy jihatdan ularning faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, ko‘zi ojizlarning 90 foizi samarali ishlashda qator to‘siq va qiyinchilika duch keladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 8- iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini-o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-sonli Qaroriga muvofiq shakllantirilgan kasblar ko‘zi ojizlarning iqtisodiy faolligini oshirish istiqbollari sifatida qaralmoqda (1-jadval).

1-jadval

O‘zini-o‘zi band qilishning zamonaviy yo‘nalishlari[60]

Jismoniy	Hunar	Intellektual	Ijtimoiy
Turar joylarni tozalash	Ustachilik	Repetitorlik	Bolalarga qarab turish
Obodonlashtirish	Santexnika	To‘garaklar tashkil etish va yuritish	Keksa kishilarga qarab turish
Murakkab bo‘lmagan ta’mirlash ishlari	Avtomobillarini yuvish	Gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchisi	Uyda popkorn, frezerda muzqaymoq tayyorlash
Dala ishlari	Sartaroshlik	Spichrayter	Uyda quyib sotish uchun salqin ichimliklar, ayron, go‘ja hamda qurt tayyorlash
Landshaft	Makulatura, plastik idish, temir-tersak va qo‘shimcha xom ashyo to‘plash	Frilanser	
Chorvachilik	Poyabzal tikish	Rekruter	Mentor
Yuk ortish-yuk tushirish	Tikuvchilik	Virtual assistent	Tyutor
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qilish	Qorovul	Ko‘chmas mulk assistenti	Jismoniy tarbiya va fitnes
Gullar va dekorativ daraxt yetishtirish	Askiya va lapar	Dizayner	
	Oshpaz	Brayl uskunalr mutaxassisi	
	Sport	O‘qituvchi	
	Musiqa	Turizm	

[60] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Transformatsiyalashuv sharoitida O‘zbekistonda ko‘zi ojizlarning iqtisodiy faolligini oshirishda qator jahon trendidagi texnologiyalar tadqiq etildi. Unga ko‘ra, quyidagilar ahamiyatli deb topildi:

Raqamli belgilar. Raqamli belgilar biznes uchun marketing xabarlarini namoyish qilish uchun LCD monitorlar, video devorlar va proyeksiyalar kabi displey texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu tadbirkorlik ishi va mahsulotlarini ko‘zi ojizlarga reklama qilishning samarali usullaridan biridir. Raqamli imo-ishoralar korxona faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar berishdan tashqari, iste’molchilar bilan faol muloqot qilish imkonini beradi. Bu esa, biznesda an’anaviy reklama narxini tejaydi va tezkor xaridlarni sotishni oshiradi.

Texnologiya. Qishloq tog‘li hududlarida yashovchi ko‘zi ojiz tadbirkorlarga texnologiya xizmatlarini olib kirish qimmatli biznes tushunchasi bo‘lishi mumkin. Chunki, qishloq joylarda, odatda, bu sohada kam xizmat ko‘rsatiladi. Qishloqda Wi-Fi ga ulanish nuqtalari va kabel aloqalarini o‘rnatish orqali texnologiyadan foydalanish imkoniyatini joriy etish bilan kompyuter dasturlarini o‘qitishni tashkil etish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Turizm. Ko‘pgina qishloq tog‘li hududlari ko‘plab ochiq havoda dam olish uchun mos bo‘lgan go‘zal tabiiy diqqatga sazovor joylarga ega. Agar bu sohada raqobat past bo‘lsa, turizm bilan bog‘liq biznesni boshlash aqlli biznes tushunchasi bo‘lishi lozim. Bunday hollarda global tur operatorlari, yo‘nalishlar va gidlik xizmatlari bilan integratsiyalashuvchi ilovalarni o‘zlashtirish yangi ish faoliyati hamda o‘rinlarini ta’minlaydi.

Moslashuvchan texnologiya yordamchilari. Ushbu korxonalarning har biri uchun moslashuvchan texnologiyaga ehtiyoj bor. Asosiy ehtiyoj – bu ekran o‘quvchilari va ovozli yorliqlash tizimlari, shuningdek, moslashuvchan buxgalteriya dasturlari. Ushbu elementlar ko‘zi ojiz odamga Internet veb-saytlari va hujjatlarni “o‘qish” imkonini beradi, shuningdek, inventarizatsiya, savdo va biznesning buxgalteriya hisobini qayd etish va yuritish imkonini beradi.

Oziq-ovqat xizmati biznesi. Ushbu turdagi biznesda tadbirkor aholiga turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini sotadi. U statsionar binoda yoki doimiy ravishda odamlarga xizmat ko‘rsatadigan yoki turli tadbirlar uchun harakatlanuvchi stend yoki aravada joylashgan bo‘lishi mumkin. O‘z faoliyatidan yetarli ravishda xabardor qilish uchun ovozli yorliqlash tizimini joriy etish asosiy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur texnologiya sotuvdagi barcha tovarlarni ham qamrab olishi mumkin[61].

Masalan, Microsoft Soundscape ushbu xatti-harakatni ko‘rish qobiliyati zaif odam atrofida sodir bo‘layotgan voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan batafsil audio xaritani amaliyotga tadbiq etdi. Bu mijozlar uchun ko‘cha bo‘ylab yurganida ularni

[61] https://www.gaebler.com/Business-Ideas-for-the-Visually-Impaired.htm

o‘rab turgan har bir tovar va xizmatlar savdosiga oid tafsilotlarni o‘rganishni anglatadi. Shuningdek, u atrofdagi doimiy yangilanib turuvchi 3D tovush xaritasi vositasida ma’lumotlarni ovozli mayoqlar va sintezlangan 3D stereo tovushga aylantirib, kontekst va izohlarni ommaga havola qiladi.

Barmoqlar uchida bilim (Knowledge at fingertips). Brayl shrifti qariyb 200 yil davomida barmoq uchlari bilan o‘qishning taktik usuli sifatida ishlatilgan. Endi u raqamli Brayl displeylari va klaviaturalarini qo‘llab-quvvatlaydigan Microsoft Windows uchun ekran o‘quvchi – Narratorning yangilangan versiyasi bilan sahifadan ekranga o‘tdi.

Microsoftning sa’y-harakatlaridan tashqari, planshetlar kabi ishlaydigan Brayl sensorli ekranlari allaqachon tadbirkorlar orasida mashhur bo‘lgan. Florida shtatining Orlando shahrida bo‘lib o‘tgan 2019- yilda Assistive Technology Industry Association konferensiyasida ko‘rgazmaga qo‘yilgan innovatsiyalar BraiBook kaftiga sig‘adigan Brayl elektron o‘quvchi Brayl yozuvini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan Braille Buzz deb nomlangan elektron platformasini o‘z ichiga oladi.

O‘zgaruvchan mayoqlar (Beacons of change). Foresight Augmented Reality kompaniyasi tomonidan qo‘llaniladigan Bluetooth mayoqlari ko‘zi ojiz yoki ko‘rish qobiliyati past odamlar uchun juda aniq, moslashtirilgan qo‘llanma hisoblanadi. Asosiy GPS texnologiyasi foydalanuvchilarni biror joyga olib borishi mumkin bo‘lsa-da, do‘kon, restoran yoki jamoat binosiga o‘rnatilgan mayoqlar ularni ko‘rib chiqilayotgan binoning kirish qismiga olib borishi mumkin. Shu bilan birga foydalanuvchi ichkarida bo‘lganida, boshqa mayoqlar ularni shaxsiy ishlari mavjud bo‘lganda yoki boshqa muhim obyektlarga yo‘naltirishi mumkin.

O‘z navbatida, nogironlar, jumladan, ko‘zi ojiz insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va uning zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

2-jadval

Ko‘zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarida barqaror rivojlanish va samaradorlikni oshirish yo‘llari[62]

№	Yo‘nalishlar	Korxonalarda barqaror rivojlanish va samaradorlikni oshirish ko‘rsatkichlari
1	Iqtisodiy	Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish: - asosiy materiallar sarfini kamaytirish; - yo‘qotishlar shakllari miqdorini pasaytirish; - xodimlar faoliyatida optimal shtatni belgilash orqali mehnat samaradorligini oshirish; - resurslar va energiyatejamkorlik choralarini ko‘rib borish.

[62] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

		Ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish.
2	Ijtimoiy	Ish paytida xavfsizlik darajasini oshirish. Ishda jarohatlar sonini kamaytirish. Xodimlarni munosib ish haqi va rag‘batlantirish bilan qo‘llab-quvvatlash. Xodimlarni o‘qitish, malakasini oshirish va innovatsion g‘oyalar va loyihalar ustidagi tadqiqotlarga faol jalb etish.
3	Ekologik	Energiya xarajatlarini kamaytirish me’yorlariga amal qilish. Ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish.
4	Texnologik	Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish. Texnologiyalarni modernizatsiya qilib borish. Mahsulot ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish. Texnologik jarayonlarni dasturiy boshqarish.

1. O‘zbekistonda ko‘zi ojizlar hamda barcha nogironlarning huquq va manfaatlarining xalqaro normalari asosida belgilanishi, ta’minlanishi va himoya qilinishi maqsadida “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ni (Nyu-York, 2006- yil 13- dekabr) O‘zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilish maqsadga muvofiq.

2. Nogironligi bo‘lgan, jumladan, ko‘zi ojiz shaxslarning turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 380-moddasi birinchi qismiga muvofiq bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun daromad solig‘i bo‘yicha belgilangan imtiyoz mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravaridan 3 baravarigacha oshirish maqsadga muvofiq.

3. Nogironligi bir xil va shunga ko‘ra, daromad keltirish imkoniyati cheklanganligi va sog‘lig‘i bo‘yicha davolanish talabidagi xarajatlari bir xil bo‘lgan holda turli darajadagi nogironlik nafaqalarini olishdagi ijtimoiy adolatlilikni ta’minlash maqsadida hayoti davomida (jumladan, mehnat faoliyatida) nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga tayinlanadigan nogironlik pensiyasi miqdorini bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun nogironlik pensiyasiga tenglashtirish, shuningdek, o‘zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan bolaning qonuniy vakiliga har oyda nafaqa to‘lovini joriy etish lozim.

4. Ko‘zi ojiz bolalar va kattalarning ijtimoiy muloqotini ta’minlash hamda savodxonlik va inttellektual salohiyatini oshirish maqsadida ularni hayoti uchun zarur bo‘lgan texnik vositalar, jumladan ovozli termometr, ovozli tonometr va yig‘ma Brayl alifbosi bilan bosqichma-bosqich ta’minlash zarur.

5. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish maqsadida nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng

sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash; nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish; nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida” Konvensiya. Nyu-York, 2006- yil 13- dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini-o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-sonli Qarori.

4. Shiri Azenkot, Kyle Rector, Richard Ladner, and Jacob Wobbrock. 2012. PassChords: Secure Multi-touch Authentication for Blind People. In Proceedings of the 14th International ACM SIGACCESS Conference on Computers and Accessibility (ASSETS '12), 159-166.

5. American Foundation for the Blind, (2018). Research Navigator: Putting Data to Work-Reinforcing Labor Force Statistics.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi statistik ma’lumoti, 2019 y.

7. O‘zbekiston Ko‘zi ojizlar jamiyati rasmiy statistik ma’lumoti, 2020 y.

ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА УЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ЎРТАСИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Худайбердиев Ўлмасжон Эгамбердиевич
Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти
“иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори
E-mail: u.hudayberdiev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-0862-8682

Аннотация. *Мақолада чорвачиликка ихтисослашган хўжаликлар ва уларга хизмат кўрсатувчи субъектлар ўртасида қишлоқ хўжалиги кооперативларини ташкил этишнинг зарурати ҳамда уларнинг мамлакат иқтисодиётидаги аҳамияти ёритилган.*

Калит сўзлар: *қишлоқ хўжалиги кооперативлар, фермер хўжалиги, рақобат, иқтисодий самарадорлик, қайта ишлаш, хизмат кўрсатиш, сотиш.*

Аннотация. *В статье подчеркивается необходимость создания сельскохозяйственных кооперативов между хозяйствами специализирующимися на животноводстве, и обслуживающими их структурами, а также их значение в экономике страны.*

Ключевые слова: *сельскохозяйственные кооперативы, фермерство, конкуренция, экономическая эффективность, переработка, обслуживание, сбыт.*

Abstract. *The article emphasizes the need to establish agricultural cooperatives between farms specializing in animal husbandry and their service entities, as well as their importance in the country's economy.*

Key words: *agricultural cooperatives, farming, competition, economic efficiency, processing, service, sales.*

Кириш

Республика чорвачилиги соҳасида қишлоқ хўжалиги кооперативларини ташкил этиш долзарб вазифа ҳисобланади. Ушбу кооперативлар деҳқон ва фермер хўжаликларининг озуқага бўлган талабини қондириш, улар томонидан етиштирилган чорвачилик маҳсулотларларини йиғиш, қайта ишлаш, сотишни йўлга қўйиш орқали тармоқда қўшилган қийматни яратиш, чорвачилик хўжаликларига сифатли сервис хизматини ташкил этиш ҳамда чорвачилик маҳсулотларини экспорт қилиш орқали аҳолининг чорвачилик соҳасидан даромадларини ошириш муаммоларини ҳал этади.

Ривожланган мамлакатлар тажрибалари таҳлил қилинганда мамлакатда қўшилган қийматни яратишда, замонавий техника ва технологияларни ишлаб чиқаришга жалб қилишда, қишлоқ хўжалиги илми ривожланишида, қишлоқ хўжалиги корхоналари, қайта ишлаш корхоналари ҳамда хизмат кўрсатиш корхоналарининг ривожланишида кооперативларнинг аҳамияти катта эканлигини кўришимиз мумкин.

Асосий матн. Кооперация деганда мавжуд ишлаб чиқариш мулклари ва молиявий ресурслари, мустақиллиги ва ташаббускорлиги асосида иқтисодий фаолиятнинг у ёки бу соҳасида умумий ишлаб чиқариш мақсадларига эришиш учун ихтиёрий бирлашадиган корхона ёки ишлаб чиқариш бўлинма, ходимларининг маълум қисмининг ташкилий шакли тушунилади. Қишлоқ хўжалигида кооперациянинг зарурлиги, аввало бир бутун ижтимоиий ишлаб чиқаришга бевосита мустақил қўшила олмайдиган алоҳида деҳқон, деҳқон ва фермер хўжаликлари ва бошқалар каби - майда қишлоқ хўжалик товар ишлаб чиқарувчиларининг мавжудлигига бевосита боғлиқ.

Кооперативлар давлат корхоналаридан фарқ қилиб, биринчидан, бутун жамиятнинг эмас, биринчи навбатда ўз аъзоларининг иқтисодий эҳтиёжларини қондиришга ёрдам беради. Иккинчидан, шунинг учун кооператив аъзолари, кооперативга бирлашмаган шахсларга нисбатан анча қулай ижтимоий-иқтисодий шароитларга эга бўлади.

Қишлоқ хўжалигида кооперация муносабатларига асосланган турли йўналишдаги кооперативлар ташкил қилиниши қишлоқда фермер ва деҳқон хўжаликлари даромадининг юқори бўлишини таъминлайди. Шунинг учун маҳсулот етиштиришдан − истеъмолчига етказиб беришгача бўғинда деҳқон ва фермер хўжаликларини ихтиёрий равишда кооперативларга бирлаштириш бугунги кунда долзарб муаммо ҳисобланади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бош Ассамблеяси 2012 йилни Халқаро кооперативлар йили деб эълон қилди, бунда кооперативларнинг ижтимоий, иқтисодий ривожланишдаги ўрни аҳамияти алоҳида таъкидланди.

Алоҳида аҳамиятли томони шундаки, 1991 йил 14 июнда қабул қилинган “Кооперация тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни, "Ўзбекистон Республикасидаги корхоналар тўғрисида"ги Қонун ва Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонунлари билан бир қаторда кооперация фаолиятининг ўзига хос жиҳатларини белгилайди. У юридик ва жисмоний шахсларга кооперативга ихтиёрий равишда кириш ва ундан эркин чиқиш, кооперативни бошқаришда иштирок этиш ҳуқуқини, кооперативларни мулкчиликнинг барча шаклларидаги корхоналар билан тенг ҳуқуқлилик асосида ривожлантириш, жамоа бўлиб хўжалик юритиш мустақиллигини ҳамда уставда белгиланган вазифаларни бажариш юзасидан қарорлар қабул қилишда кооперативнинг мустақиллигини кафолатлайди.

Ўзингизга маълумки, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида табиий омилларнинг таъсири катталиги, ишлаб чиқариш воситалари сифатида тирик организмлар қатнашиши, ишлаб чиқариш жуда катта майдонларда олиб борилиши, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг кўп турларининг сақлаш муддатларининг камлиги, кўп меҳнат талаб этиши ва бошқа бир қатор ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олган ҳолда қишлоқ хўжалиги корхоналарини кооперативларга бирлаштириш зарурлигини келтириб чиқаради.

Қишлоқ хўжалигида кооперация муносабатларини ривожлантиришнинг бир қатор афзал жиҳатлари мавжуд, булар: табиий офатларга ёки хавф-хатарларга биргаликда курашиши, маҳсулотни қайта ишлаш, сотиш ва хизмат кўрсатиш корхоналарини ҳамкорликда ташкил этиш ва фойдаланиш, ишлаб чиқариш ресурсларидан самарали фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги корхоналари рақобатбардошлигини ошириш, замонавий технологияларни амалиётга жорий этиш ва фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий, иқтисодий ва моддий-техника таъминотини, ишлаб чиқариш барқарорлигини таъминлаши, сервис хизмат кўрсатиш, тижорат кредитидан фойдаланишдаги қулайликлар, кооперативларга аъзо хўжаликларни хўжалик фаолиятини мувофиқлаштириш ва режалаштириш, ахборот алмашиш, ишчи

кучи малакасининг даражасини ошириш ҳамда якуний маҳсулот сифатининг яхшиланишига олиб келади.

Қишлоқ хўжалиги кооперативларини давлат томонидан тартибга солишда қуйидаги йўналишларда амалга ошириш зарур қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бозорини ташкил қилиш ва ривожлантириш, молиялаштириш, имтиёзли кредитлаш, қишлоқ хўжалиги кооперативлари аъзоларини суғурталаш ва солиққа тортиш, қишлоқнинг ижтимоий-иқтисодий соҳасини ва қишлоқ хўжалиги фанини ривожлантириш.

Қишлоқ хўжалиги кооперативларини ривожлантириш учун уларнинг қонуний асосларини такомиллаштириш, кооперативлар самарали фаолияти учун иқтисодий ва ташкилий шароитларни яратиш, технологик хизмат кўрсатиш ва ишлаб чиқариш, техника билан таъминлаш инфратузилмаларини ташкил этиш, кооперативларни қўллашда молия-кредитлаш механизмини такомиллаштириш, ахборот-маслаҳат ва кадрлар билан таъминлаш тизимини ривожлантириш зарур.

2024 йил 8 ноябрда Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалиги кооперативи тўғрисида” ги қонунининг қабул қилиниши мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги тармоғида кооперация муносабатларининг ривожланишида муҳим аҳамият касб этади.

Қишлоқ хўжалиги кооперативларининг асосий мақсади ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, харажатларни камайтириш ҳамда кооператив аъзоларининг даромадларини ошириш учун ресурслар ва саъй-ҳаракатларини бирлаштиришдан иборат.

Қонунда таъкидланишича, Қишлоқ хўжалиги кооперативлари қишлоқ хўжалиги соҳасида хизматлар кўрсатиш билан бир қаторда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, сақлаш, қайта ишлаш ва реализация қилиш, шунингдек қонунда тақиқланмаган бошқа фаолият турлари билан шуғулланиш ҳуқуқига эга

Қонуннинг 8-бобида Қишлоқ хўжалиги кооперативлари фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлашдаги асосий вазифалари:

Давлат республика ижро этувчи ҳокимият органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва қишлоқ хўжалиги тармоқлари учун масъул бўлган жамоат бирлашмалари орқали кооперативларга тааллуқли бўлган қуйидаги вазифаларни бажаради:

аграр-иқтисодий сиёсат ёрдамида кооперативлар фаолияти учун қулай муҳитни таъминлаш;

кооперативларнинг самарали фаолияти ва ривожланиши учун амалий чоралар кўриш ва қулай шарт-шароитлар яратиш;

кооперативлар фаолиятини рағбатлантирувчи ва қўллаб-қувватловчи мақсадли дастурларни ишлаб чиқиш;

давлат томонидан қишлоқ хўжалиги корхоналарига берилаётган имтиёзлардан тўлиқ фойдаланиш имкониятини яратиш;

банк кредитларидан ва бошқа молиявий ресурслардан фойдаланишда кооперативларга кўмаклашиш;

кооперативларни иқтисодий, социал, ҳудудий ва ижтимоий жиҳатдан ривожлантириш учун уларнинг нисбий афзалликларини ҳисобга оладиган ҳамда кооператив аъзосининг кооперативнинг йиллик соф фойдасидан ушлаб қолинган даромадларига қайта солиқ солишнинг олдини оладиган солиқ тўғрисидаги қонунчилик нормаларини амалга ошириш;

кооперативларнинг ривожланишини қўллаб-қувватлаш учун тегишли миллий ва халқаро давлат ташкилотлари ҳамда хусусий ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиш;

кооперативларни кооперативлар ассоциациясига бирлаштиришга кўмаклашиш;

кооперативлар фаолиятини таъминлаш билан боғлиқ бошқа вазифаларни ушбу Қонунга ва бошқа қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ бажариш.

Қишлоқ хўжалиги кооперативларининг афзалликлари:

Қишлоқ хўжалиги корхоналарига:

1. Корхонанинг ишлаб чиқариш ресурсларига бўлган талабини тўлиқ таъминлаш;

2. Корхона томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотларни йиғиш, сотиш ва экспорт қилишда;

3. Корхоналарга сервис хизмати кўрсатиш турларининг кўпайиши ва сифатининг яхшиланиши;

4. Мавжуд ишлаб чиқариш ресурслардан самарали фойдаланиш;

5. Замонавий техника ва технологияларни ишлаб чиқаришга жорий этиш;

6. Давлат томонидан бериладиган имтиёзлардан фойдаланиш;

7. Корхонада валюта тушумининг ортиши;

8. Корхонанинг иқтисодий самарадорлигининг ортиши.

Қайта ишлаш корхоналарига:

1. Корхонанинг ишлаб чиқариш қувватидан тўлиқ фойдаланиш;

2. Корхонада ишлаб чиқарилган маҳсулотни сотиш ва экспорт қилиш;

3. Корхонада хом-ашёга бўлган талабни тўлиқ таъминлаш;

4. Корхонада замонавий техника ва технологиялардан фойдаланиш;

5. Корхонада валюта тушумининг ортиши;

6. Корхонанинг иқтисодий самарадорлигининг ортиши.

Сервис хизмати кўрсатиш корхоналарига:

1. Сервис хизмати турларининг ортиши;

2. Сервис хизмати кўрсатиш сифатининг яхшиланиши;

3. Сервис хизмати кўрсатишда замонавий техника ва технологиялардан фойдаланиш;

4. Корхонанинг иқтисодий самарадорлигининг ортиши.

Қишлоқ хўжалиги кооперативларига чорвачиликка ихтисослашган деҳқон ва фермер хўжаликлари, масъулияти чекланган жамиятлар, қишлоқ хўжалиги соҳаларидаги кластерлар, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш корхоналари, омухта ем ва чорва озуқалари сотиш дўконлари, омухта ем ишлаб чиқариш корхоналари, чорва маҳсулотларини тайёрлов ва сотиш корхоналари, сервис хизмати кўрсатиш корхоналари, ресторан, кафелар, худудий деҳқон бозорлари, болалар боғчалари, мактаб ва касалхоналар, илмий тадқиқот институтлари ва илмий марказлар, хорижий корхона ва ташкилотлар аъзо бўлишлари мумкин.

Қишлоқ хўжалиги кооперативлари жойларда озуқа ва ем-хашак сотиб олиш ва сотиш дўконларини, чорвачилик маҳсулотлари қайта ишлаш корхоналарини, чорвачилик соҳасига сервис хизмати кўрсатишни, ахборот-консалтинг хизмати кўрсатиш марказларини, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини тайёрлаш ва сотиш пунктларини, аҳолига маиший хизмат кўрсатиш пунктларини ташкил этишлари ва қонунда таъқиқланмаган фаолият турлари билан шуғулланиши мумкин.

Ушбу кооперативлар фаолиятларини самарали ташкил этиш учун илмий тадқиқот институтлари ва илмий марказлар билан ҳамкорликни йўлга қўйишлари, ўзларига юқори малакали мутахассисларни жалб этиш учун олий ўқув юртлари ва қишлоқ хўжалиги техникумлари билан талабаларнинг малака оширишлари ва кооператив фаолиятига амалий ёрдам кўрсатиш бўйича ҳамкорликни йўлга қўйиши керак.

Ушбу қишлоқ хўжалиги кооперативларига аъзо бўлган корхона ва ташкилотларнинг йиллик даромадларидан 1 фоиз миқдорида аъзолик бадали ҳисобидан кооперативни молиялаштириш мумкин бўлади. Кооператив ўз фаолиятини йўлга қўйиб олганидан кейин пуллик маслаҳат хизматларини ташкил этиш ва бошқа тижорат билан шуғулланиш орқали ҳам молиялаштирилиши мумкин бўлади.

Маълумки, бозор иқтисодиёти шароитида ҳар қандай тармоқ ёки соҳани ривожлантиришда рақобат қонуни муҳим рол ўйнайди. Рақобат асосан муайян бир маҳсулот (хизмат) ишлаб чиқаришга ихтисослашган бир нечта субъектлар ўртасида содир бўлади ва уларнинг фаолият самарадорлигини оширишга туртки бўлади. Шу нуқтаи назардан, республиканинг барча ҳудуд ва туманларида кенг қамровли ваколатларга эга фермер, деҳқон ва томорқа

хўжаликлари Кенгашлари (кейинги ўринларда Кенгаш) томонидан ҳам ем-хашак ва озуқалар билан савдо қиладиган савдо шохобчалари ташкил қилиниши, фермер ва деҳқон хўжаликларига озуқаларни қайси манбадан ўзларига қўлай нарх ва шароитларда харид қилишлари учун кенг имкониятлар яратилган бўлар эди.

Бунинг учун ушбу Кенгаш туман бўлимларига жойлардаги бўш ётган бино ва иншоатларни ем-хашак сақлайдиган махсус омбор сифатида фойдаланиш учун, бизнинг фикримизча, нол баҳода бериш мақсадга мувофиқ. Бу, биринчидан, кўп ҳолларда яроқсиз ва қаровсиз бўлиб қолган бинолардан фойдаланиш, иккинчидан, фермер, айниқса деҳқон хўжаликлари учун ҳам масофани, ҳам харажатларни камайтиришга хизмат қилган бўлар эди. Таъкидланган афзалликларни эътиборга олган ҳолда Кенгаш туман бўлимларининг чорвачилик маҳсулотлари етиштирувчи субъектларни чорва озуқалари билан таъминлаш тартиб-қоидаларини ва ушбу жараён иштирокчилари ўртасидаги ўзаро алоқаларни қуйидаги 1-расмда акс эттирилган схемада ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Хулоса қилиб айтганда, чорва маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи субъектларни туман Кенгаши ҳамда туман қишлоқ хўжалиги бўлимлари томонидан рақобат тамойилларига асосланган чорва озуқаси таъминоти тизимини амалиётга татбиқ этиш, ушбу тизим таркибидаги барча иштирокчилар учун бир хил қулай шароитлар яратиши билан ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, бу муаммо республикамиз чорвачилик тармоқларини модернизациялаш нуқтаи назаридан замон талаблари даражасида ҳали тўлиқ ҳал этилмаган. Шу боисдан ҳам, юқорида қайд этиб ўтилганидек, чорва молларининг, айниқса гўшт ва сут маҳсулотларининг асосий қисмини берувчи қорамоллар маҳсулдорлиги ҳаддан ташқари паст даражада сақланиб қолмоқда. Монографик кузатиш натижаларимизнинг кўрсатишича, бунинг энг асосий сабабларидан бири айниқса деҳқон хўжаликлари тасарруфидаги қорамолларни илмий асосланган рационлар асосида озиқлантириш имкониятларининг чекланганлиги, уларнинг аксарият қисмида эса умуман йўқлиги ҳисобланади.

Бундан ташқари маълумки, донни қайта ишлаш комбинатлари, озиқ-овқат саноати ва пахта тозалаш заводлари, умумий овқатланиш ва бошқа кўплаб шундай муассасалар фаолияти натижасида ҳосил бўладиган турли озиқ-овқат маҳсулотлари чиқитлари ҳам чорва моллари озуқа базасининг муҳим таркибий манбаларидан бири бўлиб ҳисобланади.



1-расм. Қишлоқ хўжалиги кооперативининг ташкилий-таркибий, бошқарув тузилмаси ва ташқи алоқалар тизимининг намунавий лойиҳаси[63]

[63] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Шунинг учун ҳам, республиканинг барча ҳудудлари, йирик шаҳар ва туман марказлари, шунингдек юқорида таъкидланган йирик завод ва комбинатлар, умумий овқатланиш муассасалари ривожланган жойларда озиқ-овқат маҳсулотлари чиқитлари, шунингдек қишлоқ хўжалик маҳсулотлари чиқитларини тўплаш ва қайта ишлаб турли чорва озуқалари ишлаб чиқаришни ташкил этишга ҳам эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.

Турли озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари чиқитларини қайта ишлаш корхоналарини кўпроқ йирик, аҳоли сони катта бўлган шаҳар ва саноат зоналари атрофига қуриш мақсадга мувофиқ. Чунки, қишлоқ жойларда озиқ-овқат чиқитлари аксарият ҳолларда аҳоли томонидан ўзларининг чорва молларига берилади. Озиқ-овқат чиқитларини йиғиш пунктларини деҳқон бозорлари, кафе-ресторанлар, тўйхоналар, кўп қаватли аҳоли турар жойларига яқин жойларга жойлаштириш зарур.

Шунинг баробарида эса озиқ-овқат чиқитларини алоҳида тўплаб, махсус идишларга ташлашнинг фойдаси ва зарурияти тўғрисида аҳоли ўртасида маҳалла фуқаролар йиғинлари ёрдамида, шунингдек оммавий ахборот воситалари орқали тушунтириш ишларини амалга оширишни лозим деб ҳисоблаймиз. Бунинг учун, аҳолига озиқ-овқат чиқитларини тўплаш учун тегишли идишларни бепул тарқатишни ташкил этиш ҳам мақсадга мувофиқ бўларди.

Бугунги кунда, донни қайта ишлаш комбинатлари, озиқ-овқат саноати ва пахта тозалаш заводлари, умумий овқатланиш ва бошқа кўплаб шундай муассасалар фаолияти натижасида ҳосил бўладиган турли озиқ-овқат маҳсулотлари чиқитлари ҳам чорва моллари озуқа базасининг муҳим таркибий манбаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Юқорида таъкидланган йирик завод ва комбинатлар, умумий овқатланиш муассасалари ривожланган жойларда озиқ-овқат маҳсулотлари чиқитлари, шунингдек қишлоқ хўжалик маҳсулотлари чиқитларини тўплаш ва қайта ишлаб турли чорва озуқалари ишлаб чиқаришни ташкил этишга ҳам эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ. Лекин, тадқиқотларимизнинг кўрсатишича, бундай қайта ишлаш корхоналари тизими ҳозирги кунда республикамизда тўлиқ маъно ва таркибда ташкил этилмаган.

Бугунги кунда, донни қайта ишлаш комбинатлари, озиқ-овқат саноати ва пахта тозалаш заводлари, умумий овқатланиш ва бошқа кўплаб шундай муассасалар фаолияти натижасида ҳосил бўладиган турли озиқ-овқат маҳсулотлари чиқитлари ҳам чорва моллари озуқа базасининг муҳим таркибий манбаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Юқорида таъкидланган йирик завод ва комбинатлар, умумий овқатланиш муассасалари ривожланган жойларда озиқ-овқат маҳсулотлари чиқитлари, шунингдек қишлоқ хўжалик

маҳсулотлари чиқитларини тўплаш ва қайта ишлаб турли чорва озуқалари ишлаб чиқаришни ташкил этишга ҳам эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ. Лекин, тадқиқотларимизнинг кўрсатишича, бундай қайта ишлаш корхоналари тизими ҳозирги кунда республикамизда тўлиқ маъно ва таркибда ташкил этилмаган.

Демоқчимизки, чорвачиликнинг озуқа базасини мустаҳкамлаш учун айнан шу манбалардан етарли даражада фойдаланилмаяпти. Мисол учун агар полиз маҳсулотларидан 30 фоизлик чиқит чиқишини ҳисобга олсак, республикада ҳар йили ўртача олганда 400-500 минг тонна фақат полиз чиқитларидан чорва озуқаси сифатида фойдаланиш мумкин бўлади. Сабзавот, картошка ва бошқа ўсимчилик чиқитлари ҳам эътиборга олинса бу рақам янада катта бўлиши табиийдир.

Шунинг учун ҳам, бизнинг фикримизча, қишлоқ хўжалиги кооперативлари таркибида чорва молларига концентрат озуқалар ишлаб чиқариш заводларини қуриш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса ва тавсиялар

Қишлоқ хўжалиги кооперативларини ташкил этиш ва такомиллаштириш учун қуйидаги устувор вазифаларни ҳал этишни тақозо қилади:

- чорвачиликка ихтисослашган қишлоқ хўжалиги ҳудудларда чорвачилик хўжаликлари ва уларга хизмат кўрсатувчи субъектлар ўртасида кооперативларини ташкил этиш зарур.

- қишлоқ хўжалиги кооперативларига деҳқон ва фермер хўжаликлари, чорвачилик кластерлари, озуқа ва ем-хашак сотиб олиш ва сотиш дўконларини, чорвачилик маҳсулотлари қайта ишлаш корхоналарини, чорвачилик соҳасига сервис хизмати кўрсатиш марказлари, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини тайёрлаш ва сотиш ташкилотларини, олий таълим муассасалари, илмий тадқиқот институтлари ва хорижий корхоналар аъзо бўлишлар ҳамда ўз хизматларини кўрсатишлари мумкин.

-ушбу кооперативларда даромад аъзо корхона ва ташкилотларнинг йиллик даромадларидан 1 фоиз миқдорда аъзолик бадали орқали ва пуллик хизматлардан шакллантириш мумкин.

- чорвачиликка ихтисослашган туманларда ем-хашак бозорларини ташкил этиш ҳамда Фермер, деҳқон ва томорқа хўжаликлари Кенгашлари томонидан ҳам ем-хашак ва озуқалар билан савдо қиладиган савдо шохобчалари ташкил қилиш мақсадга мувофиқ.

- чорва молларига концентрат озуқалар ишлаб чиқариш заводларини йирик аҳоли пунктлари атрофига қуриш ҳамда озиқ-овқат чиқитларини йиғиш пунктларини деҳқон бозорлари, кафе-ресторанлар, тўйхоналар, кўп қаватли аҳоли турар жойларига яқин жойларда ташкил этиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022−2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентабрдаги ““Ўзбекистон − 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалиги кооперативлари тўғрисида”ги Қонуни 2024 йил 8 ноябрь. LEX.uz

4. Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро марказида олиб борилган лойиҳалар ҳисоботлари.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH

Kambarova Shaxnozaxon Mirvoxitovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi
katta o‘qituvchisi (PhD)
E-mail: kambarovashaxnozaxon6@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2819-9842

Anotatsiya. *Raqamli transformatsiya jarayonida biznes faoliyatini yo‘lga qo‘yish va boshqarish masalasi yoritilgan. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning biznesda axamiyati, afzalliklari va kamchiliklari o‘rganilgan. Xozirgi kunda raqamli transformatsiyani rivojlantirish va o‘rganilgan kamchiliklarni bartaraf etish muammolari taxlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, kichik biznes, texnologiya, raqobatbardoshlik, innovatsiya, raqamlashtirish, brend imidj, sun’iy intellekt, savdo, marketing, samaradorlik, raqamli infratizim.*

Аннотация. *Рассматривается вопрос организации и управления деятельностью предприятий в процессе цифровой трансформации. При этом исследуются значение, преимущества и недостатки цифровой трансформации в бизнесе. Анализируются проблемы развития цифровой трансформации на современном этапе и устранения выявленных недостатков.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, малый бизнес, технологии, конкурентоспособность, инновации, цифровизация, имидж бренда, искусственный интеллект, продажи, маркетинг, эффективность, цифровая инфраструктура.*

Abstract. *The issue of establishing and managing business activities in the process of digital transformation is covered. At the same time, the importance, advantages and disadvantages of digital transformation in business are studied. The problems of developing digital transformation today and eliminating the shortcomings studied are analyzed.*

Keywords: *digital transformation, small business, technology, competitiveness, innovation, digitization, brand image, artificial intelligence, sales, marketing, efficiency, digital infrastructure.*

Kirish

Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash sharoitida raqamli transformatsiyaning roli kattadir. Ayniqsa, xozirgi kunda bu tizim kishik biznes sohalarida ko‘proq

rivojlanmoqda. Kichik biznesda raqamli transformatsiyalash orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatishda, texnologiyalarni qo‘llashda, umumiy samaradorlikni oshirishda va mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta’minlashda bu faoliyatning o‘rni kattadir. Shu munosabat bilan ushbu tizimga alohida e’tibor qaratilishi, kichik korxonalarda maqsadli foydalanilishi va mahsulot xamda xizmatlarni optimallashtirish, mijozlar bilan ishlashni yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va yangi bozorlarga kirish mumkin. Raqamli transformatsiya nafaqat biznes jarayonlarini tezlashtiradi, balki kichik bizneslarning global miqyosda o‘sishi va yangi imkoniyatlarni o‘zlashtirishiga ko‘mak beradi.

Raqamli transformatsiya jarayonida kichik biznesda bir qator afzalliklarni qo‘lga kiritish mumkin. OECD hisobotiga ko‘ra, raqamli texnologiyalar yordamida kichik va o‘rta biznes subyektlari xarajatlarini 20-30 %ga kamaytirishi va marketing hamda mijozlar bilan ishlash jarayonlarini 25 %ga samaraliroq qilishlari mumkin. Bu kichik bizneslar uchun raqobat afzalligini oshirish va bozorga tezkor moslashish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, raqamli xizmatlar orqali kichik bizneslar o‘z mijozlariga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatib, mijoz sodiqligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[64].

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonida Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda, keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsad qilib qo‘yilgan[65]. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi farmonida belgilanganidek, “raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko‘rib chiqish va ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda «yo‘l xarita» lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish”, masalalari ko‘rildi[66].

---

[64] Sobirjonov S.S. G‘ulomova I. Raqamli transformatsiyava tadbirkorlik: kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy jurnal, 2024 y. 11 son. 167 b. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED

[65] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, https://lex.uz/uz/docs/-5841063

[66] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079 sonli farmoni https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kichik biznesda raqamli transformatsiya – bu texnologiyalar va raqamli vositalarni ish jarayonlariga, ishlab chiqarishga, savdo va marketing faoliyatiga kiritish jarayonidir. Kichik va o‘rta bizneslar uchun raqamli transformatsiya muhimdir. Ularning raqobatbardoshligini oshirish, samaradorlikni ta'minlash va yangi bozorlarga olib chiqish imkoniyatlarini yaratish uchun zarurdir. Kichik va o‘rta biznes sohasi uchun raqamli transformatsiyaning muhimligi: Raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. O‘zbekistonda keyingi yillarda raqamli transformatsiyaga katta ahamiyat berilmoqda va ushbu yo‘nalish aktual yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev farmonlari asosida, O‘zbekiston Respublikasida “Biznes va iqtisodiyotda” raqamli transformatsiya mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Ushbu konferensiyada chop etilgan maqolalar to‘plamida biznesni boshqarishni samaradorligini oshirish asosida raqamlashtirish poydevori yaratildi va samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi. Ular ichida Suvanova D.D. doktorant tomonidan ushbu jarayon juda aniq ko‘rsatib berilgan; Muzrabov A.A. o‘z ilmiy izlanishlarida “Kichik va o‘rta biznesda raqamli transformatsiyasini jadallashtirish masalasi,” O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilm-fan xabarnomasida chop etilgan[67].

Bundan tashqari, ushbu sohani rivojlantirishga rossiyalik va chet el olimlari o‘z xissalarini qo‘shgan. Rossiyalik olimlardan Nikolayev Yu.N. tomonidan, “Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства” maqolasida[68], Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия[69]. O‘zbekiston olimlaridan S.S. G‘ulomov, R.X. Ergashev, S.N. Xamrayeva tomonidan “Raqamli iqtisodiyot” (o‘quv qo‘llanma) T-2020 yilda chop etilgan[70]. Shuningdek, Mirsoatov A., Xudoynazarov F.X., Kamalov Sh.K. yosh olimlar tomonidan aniq kichik va o‘rta biznes soxalarida raqamli iqtisodiyot, ularning 2023 − 2025 yillar ichida chop etilgan maqolalarida ko‘rishimiz mumkin[71]. Bular xammasi raqamli iqtisodiyotimizni respublikada rivojlanish darajasi o‘sib borayotganining natijasidir.

---

[67] Muzrabov A.A. Kichik va o‘rta biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish masalalari. O`zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi 2-kurs tinglovchisi. Ilm-fan xabarnomasi https://inlibrary.uz/index.php/ifx/article/view/69501

[68] Николаев Ю.Н., к.э.н., доцент, ВГТУ, г. Волгоград, Россия. Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства. Прогрессивная экономика. 2023. № 1. С. 41–54. https://progressive-economy.ru/wp content/uploads/2023/08/elibrary_50365406_69099252.pdf

[69] Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия https://1economic.ru/lib/122173

[70] Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamrayeva S.X. Raqamli iqtisodiyot - (o‘quv qo‘llanma),- T.: 2020. -377 b.

[71] Mirsoatov A.Q. PhD, mustaqil izlanuvchi. Raqamli transformatsiya: mazmuni, mohiyati, shart-sharoitlari va istiqbolli yo‘nalishlari. Toshkent, «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» jurnali 3/2022

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlashda me’yoriy xuquqiy xujjatlar, mantiqiy fikrlash, tizimli taxlil, iqtisodchi olimlarning qiyosiy va tanqidiy taxlili, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy statistik ma’lumotlar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Taxlil va natijalar

Biznesning raqamli transformatsiyasi yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Bir oz oldin biznes sohasiga ijtimoiy tarmoqlarning joriy etilishini inqilob deb atash mumkin edi. Bugun esa Yangi O‘zbekistonni mustaqil, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar qatorida o‘z o‘rnini topishi bu yetarli emas bo‘lib qoldi. Kompaniyalar takomillashtirish va rivojlanish uchun zamonaviy texnologiyalarga muhtoj. Biznesni yuritishning an’anaviy strategiyalaridan raqamli biznes strategiyalariga inqilobiy o‘tish tufayli kompaniya raqobatchilarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega bo‘ladi. Biroq qat’iy harakat qilish zarur. Yangi jarayonlarning ba’zilari tez va samarali ishga tushiriladi, boshqalari esa uzoq muddatli o‘zgarishlarga olib kelishi va hatto qisqa masofalarda buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, ba’zi mijozlar innovatsiyalarni qabul qilishni istamasliklari sababli rad etishadi. Biroq raqamli transformatsiyaga to‘g‘ri yondashish va samarali vositalarni joriy etish kompaniyani «raqamlashtirish» va uning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Respublikamizda raqamli texnologiyalar xar bir sohada rivojlanib kelmoqda.

Bu shunchaki ma’lumotni raqamlashtirish emas. Bu kompaniyani raqamli makonda targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlarning katta to‘plamidir. Siz turli tajribalarga tayyor bo‘lishingiz, eskirgan biznes jarayonlaridan voz kechishingiz va biznesingizni kengaytirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishingiz kerak.


Raqamli transformatsiya juda katta sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Bir necha o‘n yillar oldin biznesni faqat mahalliy darajada targ‘ib qilish mumkin edi. Gazetalardagi mahalliy e’lonlar, ustunlardagi e’lonlar va tashrif qog‘ozlarini tarqatish kabi. Keyin veb-saytlar paydo bo‘ldi va kompaniyalar asta-sekin, bir vaqtning o‘zida televideniye orqali reklama berish bilan birga raqamli makonga kira boshladilar. Bugungi kunda raqamli transformatsiya yangi to‘lqinni boshdan kechirmoqda. Sun’iy intellekt faol rivojlanmoqda, internet tarmoqlari rivojlanganligi sababli, raqamli transformatsiya rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratish va mashinani o‘rganish amalga oshirilmoqda[72].

Raqamli transformatsiya – bu zamonaviy texnologiyalar va ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlar bilan samarali hamkorlik qilish uchun xodimlarning qanday ishlashini qayta ko‘rib chiqishdir.

[72] Shohruh Raxmat. Raqamli transformatsiya biznesning rivojlanishiga qanday yordam bermoqda? https://ict.xabar.uz/uz/startap/raqamli-transformaciya-biznesning-rivojlanishiga-qanday-yordam

Raqamli transformatsiyaning asosiy afzalliklari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tsak, u quyidagilardan iborat, ya’ni biznesning o‘sishi, daromadning ko‘payishi, yaxshilangan brend imidji va yangi imkoniyatlarning ochilishi bo‘lsa, shu o‘rinda uning salbiy tomonlarini xam hisobga olishimiz lozim. **Birinchidan,** raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun ko‘pincha katta sarmoya talab qilinadi. **Ikkinchidan**, xodimlarning raqamli texnologiyalarini o‘zlashtirishi uchun qo‘shimcha o‘qishlar va zamonaviy ko‘nikmalarni mavjud emasligini aytib o‘tish lozim. **Uchinchidan**, raqamli texnologiyalardan foydalanishda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash muammosi ham yuzaga kelishi mumkin.

Bir necha kichik va o‘rta kompaniyalar vakillarining so‘roviga asoslangan tahliliy hisobotdan olingan tadqiqotlar natijasida kichik hisob-kitoblar amalga oshirildi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya ularning biznesi uchun nimani anglatishi so‘rab o‘tildi.



1-rasm. Kichik biznes sohasida raqamli transformatsiya ulushi[73]

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijasida shu narsa aniq bo‘ldiki, Biznes-jarayonlarni raqamlashtirish ko‘rsatkichlari eng yuqori bo‘lib, unda asosan bir xil resurslar bilan tezroq va ko‘proq ishlarni bajarish lozimligi ko‘rsatildi. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv ko‘rsatkichlari xam yaxshi natija berib, bunda aniq raqamlarni va hisobotlarni bilish va foydasizlarni tezda olib tashlash lozimligi aniqlandi. Barcha bosqichlarda mijoz bilan ishlashni takomillashtirish uchun ham eng muhim masala asosan mijozlar bilan bo‘ladigan muloqotlarda muomala madaniyatiga e’tibor berish, ular bilan bo‘ladigan barcha xatolarni tuzatish va savdo aloqalarini yaxshi yo‘lga qo‘yishga e’tibor qaratilishi zarur. Eng so‘nggi ko‘rsatkich raqamli infratuzilma bo‘lib, kichik korxonalarda zamonaviy va arzon vositalardan foydalanish kerakligi belgilandi.

[73] Raqamli Transformatsiya: Biznesingiz Uchun Asosiy Strategiyalar https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/

Shu o‘rinda aytish lozimki, ba’zi korxonalarda raqamli transformatsiyaning amalga oshmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu xam bir qancha sabablarni o‘z ichiga oladi. Quyidagi 1-jadvalda buning sabablari ko‘rsatilgan.

1-jadval

№	Raqamli transformatsiyaning amalga oshmaslik sabablari.	Ko‘rsatkich (%)
1	Bilim va malaka etishmasligi	53
2	Ichki qarshilik va o‘zgarish qo‘rquvi	45
3	Strategiyaning yo‘qligi	42
4	Kadrlar etishmasligi	41
5	Investitsiyani qaytarmaslik qo‘rquvi	40
6	Moliyaviy qiyinchiliklar	37

Taxlil va natijalarga asoslangan holda, raqamli transformatsiyaning kichik korxonalarda amal qilmaslik holatlari o‘rganib chiqildi va natijada ushbu kamchiliklar ko‘rsatildi. Demak, bu yerda eng past ko‘rsatkich moliyaviy qiyinchiliklar - 37 foizni ko‘rsatganligini aniqladik. Kichik korxonalarda raqamli transformatsiyani amalga oshmasligi asosan moliyaviy mablag‘larning etishmasligi ekan. Xar bir korxona moliyaviy jixatdan ta’minlangan bo‘lsa, raqamli transformatsiya tizimini amalga oshirish qulay va oson bo‘lar edi.[74]

Xulosa va takliflar

Raqamli transformatsiya muvaffaqiyatli raqobatbardosh bo‘lib qolishi va o‘zgaruvchan raqamli muhitga moslashishi uchun yaxlit yondashuv va uzluksiz rivojlanishni talab qiladi. Xulosa qilganda, biznesni raqamlashtirishning natijasi sifatida quyidagilarni keltirsak bo`ladi:

– **Samaradorlikni oshirish:** samaradorlikni oshirish usullari ichida raqamlashtirish jarayonlarni avtomatlashtirish, operatsiyalarni soddalashtirish va biznes samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu firmalarni samaradorligini oshirishga va vazifalarni bajarish vaqtini qisqartirishga yordam beradi.

– **Mijozlar tajribasini yaxshilash:** Raqamlashtirish mijozlar uchun xalqaro bozorni o‘rganish, shaxsiylashtirilgan xizmatlar, uzluksiz onlayn tajriba va tezkor xizmat ko‘rsatish orqali o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Bu mijozlarning qoniqishini oshirishga va mijozlarning sodiqligini mustahkamlashga yordam beradi va raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

– **Raqobatbardoshlikni oshirish:** Raqamlashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan korxonalar tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga tezroq javob berish, yangi mahsulot va xizmatlarni taqdim etish, jarayonni tezlashtirish, sifatni yaxshilash ISO-9000 standartidan foydalanish va xarajatlarni kamaytirish. Bu ularga bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolish imkonini beradi.

[74] Raqamli Transformatsiya: Biznesingiz Uchun Asosiy Strategiyalar https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/

– **Innovatsiyalar joriy qilish:** Raqamlashtirish biznesda innovatsiyalarni keltirib chiqaradi. Yangi texnologiyalar, ekotizimlar va platformalarning joriy etilishi yangi raqamli mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish, yangi bozorlar va daromad manbalarini ochish uchun imkoniyatlar yaratadi. Yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda moddiy va ma'naviy jixatdan firmalarni rag'batlantirishni ta'minlash lozim.

– **Tahlil va qarorlar qabul qilish:** Raqamlashtirish asosli qarorlar qabul qilish uchun tahlil qilinishi mumkin bo lgan katta ma'lumotlarga kirishni ta'minlaydi.

– **Ma'lumotlar tahlilidan foydalanish:** kompaniyalarga tendentsiyalarni tushunishga, mijozlar xatti-harakatlarini bashorat qilishga va strategiyalarni optimallashtirishga yordam beradi. Ushbu ma'lumotlarni taxlilidan foydalanish uchun keng ko'lamda kompaniyalar faoliyatini chop etish, internet tarmoqlaridan keng foydalanish, marketing tadqiqotlarini rivojlantirish va kompaniyalarda joriy qilish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sobirjonov S.S., G'ulomova I. Raqamli transformatsiyava tadbirkorlik: kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy jurnal, 2024 y. 11 son. 167 b.https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, https://lex.uz/uz/docs/-5841063

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079 sonli farmoni

https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf

4. Muzrabov A.A. Kichik va o'rta biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish masalalari. O`zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi 2-kurs tinglovchisi. Ilm-fan xabarnomasi

https://inlibrary.uz/index.php/ifx/article/view/69501

5. Николаев Ю.Н., к.э.н., доцент, ВГТУ, г. Волгоград, Россия. Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства. Прогрессивная экономика. 2023. № 1. С. 41–54. https://progressive-economy.ru/wpcontent/uploads/2023/08/elibrary_50365406_69099252.pdf

6. Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия https://1economic.ru/lib/122173

7. Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamrayeva S.X. Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma),- T.: 2020. -377 b.

8. Mirsoatov A.Q. PhD, mustaqil izlanuvchi. Raqamli transformatsiya: mazmuni, mohiyati, shart-sharoitlari va istiqbolli yo‘nalishlari. Toshkent, «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» jurnali 3/2022

9. Shohruh Raxmat. Raqamli transformatsiya biznesning rivojlanishiga qanday yordam bermoqda? https://ict.xabar.uz/uz/startap/raqamli-transformaciya-biznesning-rivojlanishiga-qanday-yordam

10. Raqamli Transformatsiya: Biznesingiz Uchun Asosiy Strategiyalar https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/

11. Raqamli Transformatsiya: Biznesingiz Uchun Asosiy Strategiyalar https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/

BARQAROR INVESTITSIYALAR VA ESG ME’ZONLARI: NAZARIY TAHLIL

Maxmasobirova Nigora Uktam qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Iqitisodiyot va menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD)
E-mail: m_nigora93@mail.ru
Orcid: 0000-0001-9607-2882

Annotatsiya. *Mazkur maqolada barqaror investitsiyalar tushunchasi va ularni baholashda qo‘llaniladigan ESG (Environmental, Social, Governance) me’zonlari tizimli nazariy tahlil asosida o‘rganilgan va tadqiqot davomida BMT, OECD, IFC, va Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro ESG standartlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *barqaror investitsiya, ESG me’zonlari, ekologik omillar, ijtimoiy mas’uliyat, korporativ boshqaruv, yashil iqtisodiyot.*

Annotation*. In this article, the concept of sustainable investments and the ESG (Environmental, Social, Governance) criteria used for their evaluation are studied through a systematic theoretical analysis, and the international ESG standards developed by the UN, OECD, IFC, and the European Commission are examined.*

Keywords: *sustainable investment, ESG criteria, environmental factors, social responsibility, corporate governance, green economy.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается концепция устойчивых инвестиций и критерии ESG (Environmental, Social, Governance), используемые для их оценки, на основе системного теоретического анализа. Также проанализированы международные стандарты ESG, разработанные ООН, ОЭСР, МФК и Европейской комиссией.*

Ключевые слова: *устойчивые инвестиции, критерии ESG, экологические факторы, социальная ответственность, корпоративное управление, зелёная экономика.*

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon iqtisodiyoti nafaqat foyda, balki ijtimoiy mas’uliyat va ekologik xavfsizlik tamoyillari asosida shakllanmoqda hamda global iqtisodiyotda investitsiyalarning yo‘nalishi tobora “barqarorlik” tamoyiliga

asoslanmoqda. An’anaviy investitsiyalarda asosiy e’tibor moliyaviy rentabellikka qaratilgan bo‘lsa, hozirgi davrda bu yondashuv kengayib, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG – *Environmental, Social, Governance*) omillarni ham o‘z ichiga olmoqda[75]. Bunday yondashuv nafaqat investorlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi[76]. Shu boisdan “barqaror investitsiya” tushunchasi bugungi kunda iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Mazkur maqolada barqaror investitsiyalar mohiyati, ularning ESG me’zonlari asosidagi baholash tizimi va bu me’zonlarning amaliy ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi hamda ushbu me’zonlar orqali investitsiyalarning “barqaror” deb atalish sabablarini ilmiy asosda izohlanadi

Metodologiya

Tadqiqot asosan tizimli nazariy tahlil va qiyosiy solishtirma tahlil qilish metodlariga asoslangan. Ma’lumotlar manbalari sifatida BMTning PRI hujjatlari, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC)ning ESG bo‘yicha ko‘rsatmalari, Yevropa Ittifoqining “EU Taxonomy for Sustainable Activities” hamda CFA Institutining mas’uliyatli investitsiya bo‘yicha qo‘llanmalari tanlandi. Turli manbalardagi ESG indikatorlari solishtirilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ajratib chiqildi va har bir me’zon uchun asosiy sub-kriteriyalarning xususiyatlari o‘rganildi.

Ma’lumotlar sifat tahlil usuli orqali qayta ishlanib, ilmiy adabiyotlar bilan solishtirildi. Bu esa nazariy tushunchalarni real iqtisodiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi.

Natijalar va tahlil

Barqaror investitsiyalar – bu uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash bilan birga, tabiiy resurslarni asrash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va shaffof boshqaruv tamoyillariga amal qiluvchi sarmoyalar tizimidir[77]. Bunday investitsiyalar odatda “mas’uliyatli investitsiyalar” (responsible investment) deb ham ataladi va ular BMTning “Responsible Investment Principles” (UN PRI) tashabbusi doirasida keng rivojlanmoqda[78].

Barqaror investitsiya – bu iqtisodiy foydani olish bilan birga ekologik xavfsizlik, ijtimoiy tenglik va korporativ boshqaruvning shaffofligini ta’minlovchi investitsiya shaklidir[79]. Ushbu yondashuv “uch barqarorlik ustuni” (*triple bottom line*) kontsepsiyasiga asoslanadi: *profit (foyda), people (inson), planet (sayyora)*[80].

---

[75] World Bank (2023). Sustainable Finance and ESG Integration. Washington, DC.

[76] UNEP (2022). Green Economy and Sustainable Investment Principles. United Nations Environment Programme.

[77] **IFC** (2022). Environmental and Social Sustainability Performance Standards. Washington, D.C.

[78] **Principles for Responsible Investment (PRI)** (2024). What are Responsible Investments? London.

[79] **OECD** (2023). Environmental, Social and Governance Investing: Trends and Policy Implications. Paris.

[80] **Elkington, J.** (1998). Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Capstone Publishing.

Barqaror investitsiyalar – bu ijtimoiy va xususiy kapitaldan foydalanib, atrof-muhit barqarorligini ta’minlashga qaratilgan tovar va xizmatlarni sotib olish amaliyotlarini anglatadi. Ular iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish hamda ekotizimlarning xilma-xilligini saqlashga qaratilgan tashabbuslarni ham o‘z ichiga oladi[81].

Barqaror investitsiyalar – bu moliyaviy daromadni ta’minlash bilan birga, ekologik muammolarni yumshatish, BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (SDG) erishish va biznesda ijobiy ta’sir yaratishni o‘zida mujassam etgan istiqbolli investitsiya turidir[82].

Demak, barqaror investitsiya – bu nafaqat moliyaviy natijaga, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikka ham xizmat qiluvchi iqtisodiy faoliyatdir.

Barqaror moliyalashtirish – bu investitsiya va moliya faoliyati bo‘lib, unda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) omillari hisobga olinadi[83]. ESGni inobatga olish qarori axloqiy sabablarga ko‘ra ham, moliyaviy manfaat uchun ham yoki ikkala omil asosida qabul qilinishi mumkin bo‘lib, bugungi kunda global maydonda investorlar tomonidan barqaror rivojlanishni ta’minlashda qo‘llaniladigan muhim yo‘nalishga aylandi.

Barqaror investitsiyalarning ESG me’zonlari uch asosiy guruhga ajratildi: **Environmental (Atrof-muhit), Social (Ijtimoiy)** va **Governance (Boshqaruv)**. Har bir guruh uchun asosiy mezonlar va ular asosida barqarorlikni ta’minlovchi omillar quyida keltiriladi.

1-jadval

Barqaror investitsiyalarni baholash mezonlari (ESG tizimi):

Turi	Asosiy yo‘nalishlar	Misollar / Ko‘rsatkichlar
Environmental (Atrof-muhit)	Ekologik ta’sirni baholash	- Iqlim o‘zgarishi va karbon izlari - Energiya samaradorligi - Suv va chiqindilar boshqaruvi - Biologik xilma-xillikni saqlash
Social (Ijtimoiy)	Inson va jamiyat bilan bog‘liq omillar	- Mehnat xavfsizligi va xodimlar huquqlari - Inson huquqlari va ta’minot zanjiri - Mahalliy hamjamiyatga ta’sir
Governance (Boshqaruv)	Korporativ boshqaruv va etika	- Korporativ shaffoflik va mustaqillik - Korruptsiyaga qarshi siyosat - Rag‘batlantirish siyosati va barqarorlik uyg‘unligi

Manba: muallif tomonidan tuzildi

1. Environmental (Atrof-muhit) me’zonlari

[81] **Sustainable investment.** ScienceDirect. Available at: https://www.sciencedirect.com/topics/social-sciences/sustainable-investment (Accessed: 1 October 2025).

[82] Monica Singhania, Ibna Bhan, Gurmani Chadha; Sustainable investments: a scientometric review and research agenda. Managerial Finance 4 January 2024; 50 (1): 266–294. https://doi.org/10.1108/MF-04-2023-0238

[83] **What is sustainable investing & why is it important?** (2025). IMD Blog. Available at: https://www.imd.org/blog/sustainability/sustainable-investing/ (Accessed: 1 October 2025).

Atrof-muhit omillari investitsiya loyihasining ekologik ta’sirini baholaydi. korxonaning atrof-muhitga ta’siri, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi strategiyalarni o‘z ichiga oladi[84]. Masalan, “yashil energiya”ga sarmoya kirituvchi kompaniyalar ESG reytingida yuqori baholanadi.

a) Iqlim o‘zgarishi va karbon izlari (Carbon footprint): investitsiya subyekti tomonidan chiqarilayotgan issiqxona gazlari o‘lchanadi. Kam uglerodli texnologiyalarga o‘tish strategiyasiga ega bo‘lgan kompaniyalar yuqori baholanadi[85].

b) Energiya samaradorligi: mahsulot birligiga sarflanadigan energiya miqdori va qayta tiklanuvchi manbalar ulushi hisobga olinadi. Energiya intensivligini kamaytirish siyosati mavjud bo‘lishi kerak[86].

c) Suv resurslari va chiqindilar boshqaruvi: suv iste’moli, qayta ishlangan suv ulushi, chiqindilarning qayta ishlanish darajasi va “aylanma iqtisodiyot” (circular economy) tamoyillariga amal qilinishi muhim[87].

d) Biologik xilma-xillikni saqlash: kompaniyaning faoliyati tabiiy muhitga, o‘rmon va biologik resurslarga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim. Tabiiy ekotizimni tiklash dasturlari mavjud bo‘lishi talab qilinadi[88].

2. Social (Ijtimoiy) me’zonlari

Ijtimoiy mezonlar inson huquqlari, mehnat sharoiti, tenglik va jamiyat bilan munosabatlarga aloqador bo‘lib, korxonaning xodimlar huquqlari, mehnat xavfsizligi, mahalliy jamoalar bilan aloqalari va ijtimoiy inklyuziya darajasini baholaydi[89]. Ijtimoiy mas’uliyatli kompaniyalar jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi.

a) Mehnat xavfsizligi va xodimlar huquqlari: xodimlar uchun xavfsiz mehnat muhiti yaratish, OHS (Occupational Health and Safety) siyosati mavjudligi, majburiy mehnat va kamsitishning oldini olish choralari muhim[90].

b) Inson huquqlari va ta’minot zanjiri: kompaniya yoki loyiha ta’minot zanjirida inson huquqlariga hurmat bilan yondashadi, bolalar mehnatidan foydalanmaydi, va shikoyat mexanizmlariga ega bo‘lishi kerak[91].

c) Mahalliy hamjamiyatga ta’sir: investitsiya loyihasi joylashgan hududdagi aholi uchun ijobiy natijalar (ish o‘rinlari, ijtimoiy infratuzilma, ekologik xavfsizlik) keltirishi lozim. Mahalliy manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik – muhim ko‘rsatkich[92].

---

[84] **UNEP** (2022). Green Economy and Sustainable Investment Principles. United Nations Environment Programme.
[85] **European Commission** (2023). EU Taxonomy for Sustainable Activities. Brussels.
[86] **IFC** (2022). Environmental and Social Sustainability Performance Standards. Washington, D.C.
[87] **UNEP Finance Initiative** (2023). Sustainable Finance and ESG Integration Guidelines. Geneva.
[88] **Principles for Responsible Investment (PRI)** (2024). What are Responsible Investments? London.
[89] **World Bank** (2023). Sustainable Finance and ESG Integration. Washington, DC.
[90] **IFC** (2022). Environmental and Social Sustainability Performance Standards. Washington, D.C.
[91] **UN PRI** (2024). Principles for Responsible Investment: Annual Report.
[92] **UNEP Finance Initiative** (2023). Sustainable Finance and ESG Integration Guidelines. Geneva.

3. Governance (Boshqaruv) me’zonlari

Boshqaruv omillari korporativ tuzilma, shaffoflik va etika darajasini belgilaydi va korporativ boshqaruvning shaffofligi, aksiyadorlar huquqlari, korrupsiyaga qarshi siyosat va etika standartlariga amal qilishni qamrab oladi[93].

a) Korporativ shaffoflik va mustaqillik: direktorlar kengashida mustaqil a’zolar mavjudligi, yillik hisobotlarning ochiqligi va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralari baholanadi[94].

b) Korruptsiyaga qarshi siyosat: anti-korruptsiya va kompleans tizimlari mavjudligi, ichki audit natijalari va qonunlarga muvofiqlik darajasi o‘lchanadi[95].

c) Rag‘batlantirish siyosati va barqarorlik uyg‘unligi: rahbariyatning mukofot tizimi ESG natijalariga bog‘langan bo‘lishi kerak. Bu omil kompaniyaning uzoq muddatli barqarorlikka sodiqligini ko‘rsatadi[96].

ESG me’zonlari investitsiyalarning faqat moliyaviy emas, balki ijtimoiy va ekologik samaradorligini baholash imkonini beradi. Bu orqali investorlar risklarni kamaytirish, reputatsiyani himoya qilish va barqaror qiymat yaratish imkoniga ega bo‘ladi[97].

Barqaror investitsiyalar aynan atrof-muhitni muhofaza qilish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashii, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlab, adolatli mehnat sharoitlarini yaratishi hamda korporativ boshqaruvning shaffofligi orqali korrupsiya xavfini kamaytirishi va investor ishonchini oshirgani uchun ham “barqaror” deb ataladi[98]. Ya’ni, qisqa muddatli foyda emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy foydani maqsad qiladi va barqarorlikni ham ta’minlaydi[99]. Masalan, ekologik toza texnologiyalarga sarmoya kiritish iqlim xavfini kamaytiradi, ijtimoiy mezonlarga rioya etish esa kadrlar barqarorligini oshiradi.

Ammo ESG yondashuvining ayrim cheklovlari ham mavjud bo‘lib, eng asosiylariga “greenwashing” (kompaniyalarning o‘zini ortiqcha ekologik yoki ijtimoiy mas’uliyatli qilib ko‘rsatishi), ESG standartlarining turlicha va yagona bo‘lmaganligi, hamda barqarorlikning moliyaviy bo‘lmagan ta’sirini aniq o‘lchash qiyinligi kabilarni kiritish mumkindir[100].

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, barqaror investitsiyalarni belgilovchi asosiy mezonlar ESG tizimida to‘liq ifoda topadi va ESG me’zonlariga asoslangan

---

[93] **UN PRI** (2024). Principles for Responsible Investment: Annual Report.
[94] **CFA Institute** (2023). ESG Investing and Corporate Governance Framework. New York.
[95] **IFC** (2022). Environmental and Social Sustainability Performance Standards. Washington, D.C.
[96] **Principles for Responsible Investment (PRI)** (2024). What are Responsible Investments? London.
[97] **European Commission** (2023). EU Taxonomy for Sustainable Activities. Brussels.
[98] **OECD** (2023). Environmental, Social and Governance Investing: Trends and Policy Implications. Paris.
[99] **UNEP** (2022). Green Economy and Sustainable Investment Principles. United Nations Environment Programme.
[100] https://uksif.org/learn/what-is-sustainable-investing/

investitsiyalar iqtisodiy barqarorlikning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular kompaniyalarning ekologik mas’uliyatini, ijtimoiy adolatini va boshqaruvdagi shaffofligini oshiradi. Shu sababli, barqaror investitsiyalarni rivojlantirish milliy strategiyalar darajasida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Xususan, Kelajakda ESG standartlari asosida investitsiya loyihalarini baholash tizimini joriy etish, moliyaviy sektorni “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga moslashtirish O‘zbekiston uchun ham iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishi va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qilishi mumkin. Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv omillarining uyg‘unligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy mas’uliyatni ham ta’minlaydi. Kelgusida bu sohada empirik tadqiqotlar, ESG reyting tizimlarini mahalliy sharoitga moslashtirish, va barqaror moliyalashtirish siyosatini rivojlantirish dolzarb yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Bank (2023). Sustainable Finance and ESG Integration. Washington, DC.

2. UNEP (2022). Green Economy and Sustainable Investment Principles. United Nations Environment Programme.

3. OECD (2023). Environmental, Social and Governance Investing: Trends and Policy Implications. Paris.

4. UN PRI (2024). Principles for Responsible Investment: Annual Report.

5. European Commission (2023). EU Taxonomy for Sustainable Activities. Brussels.

6. IFC (2022). Environmental and Social Sustainability Performance Standards. Washington, D.C.

7. UNEP Finance Initiative (2023). Sustainable Finance and ESG Integration Guidelines. Geneva.

8. Principles for Responsible Investment (PRI) (2024). What are Responsible Investments? London.

9. CFA Institute (2023). ESG Investing and Corporate Governance Framework. New York.

10. Elkington, J. (1998). Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Capstone Publishing.

11. Singhania, M., Bhan, I. and Chadha, G. (2024). ‘Sustainable investments: a scientometric review and research agenda’, Managerial Finance, 50(1), pp. 266–294. https://doi.org/10.1108/MF-04-2023-0238

12. Sustainable investment. ScienceDirect. Available at: https://www.sciencedirect.com/topics/social-sciences/sustainable-investment (Accessed: 1 October 2025).

13. What is sustainable investing & why is it important? (2025). IMD Blog. Available at: https://www.imd.org/blog/sustainability/sustainable-investing/ (Accessed: 1 October 2025).

14. https://uksif.org/learn/what-is-sustainable-investing/

“O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA ESG TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN BOSHQARUV MEXANIZMLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH”

Rusatamov Zafar Xudaykulovich
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi
Orcid: 0009-0001-6251-8257

Annotatsiya. *Ushbu tezisda O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini joriy etish orqali boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda ESG yondashuvi asosida korxonalarning ekologik xavfsizligi, ijtimoiy mas’uliyati va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ESG tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy afzalliklari - resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy loyihalar orqali brend ishonchini mustahkamlash misolida ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *ESG tamoyillari, sanoat tarmoqlari, boshqaruv mexanizmlari, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish, ekologik menejment, ijtimoiy mas’uliyat, korporativ boshqaruv, “yashil” iqtisodiyot, raqobatbardoshlik.*

Аннотация. *В данных тезисах рассматриваются вопросы повышения экономической эффективности механизмов управления посредством внедрения принципов ESG (экологических, социальных и корпоративного управления) в отраслях промышленности Узбекистана. В исследовании проанализированы возможности повышения производственной эффективности на основе подхода ESG путем совершенствования экологической безопасности, социальной ответственности и системы корпоративного управления предприятий. Также продемонстрированы экономические преимущества внедрения принципов ESG - рациональное использование ресурсов, сокращение отходов, внедрение энергоэффективных технологий и укрепление доверия к бренду через социальные проекты.*

Ключевые слова: *принципы ESG, отрасли промышленности, механизмы управления, экономическая эффективность, устойчивое развитие, экологический менеджмент, социальная ответственность, корпоративное управление, "зеленая" экономика, конкурентоспособность.*

Abstract. *These theses address issues of improving the economic efficiency of management mechanisms through the introduction of ESG (environmental, social and corporate governance) principles in the industries of Uzbekistan. The study analyzed the possibilities of increasing production efficiency based on the ESG approach by improving environmental safety, social responsibility and the corporate governance system of enterprises. The economic benefits of implementing ESG principles are also demonstrated - efficient use of resources, waste reduction, implementation of energy-efficient technologies and strengthening brand credibility through social projects.*

Keywords: *ESG principles, industries, management mechanisms, economic efficiency, sustainable development, environmental management, social responsibility, corporate governance, "green" economy, competitiveness.*

Kirish

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish konsepsiyasi markaziy o‘ringa chiqib, korxonalarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini uyg‘unlashtirish zarurati ortib bormoqda. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari aynan shu uch yo‘nalishda korxona faoliyatining samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, u nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki ijtimoiy mas’uliyat va shaffof boshqaruv tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlari jadal modernizatsiya bosqichida bo‘lib, xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. ESG tamoyillarini tatbiq etish orqali korxonalar resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va korporativ barqarorlikni ta’minlash imkoniga ega bo‘ladi. Shu sababli ESG boshqaruv yondashuvlarini iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholash O‘zbekiston sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda dolzarb masalalardan biridir.

Dunyo miqyosida barqaror rivojlanishni ta’minlash, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish hamda ijtimoiy mas’uliyatli boshqaruv tizimlarini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari korporativ boshqaruvning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi. ESG konsepsiyasi xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Jahon banki (World Bank), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Yevropa Ittifoqining “Green Deal” dasturi, hamda “BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)”da keng tarzda qo‘llanilmoqda.

Jahon banki (World Bank, 2023) ESG tamoyillarini joriy etish orqali korxonalarda energiya tejamkorlik va resurslardan oqilona foydalanish natijasida iqtisodiy samaradorlik 20-30 %gacha oshishini ta’kidlaydi. Bankning “Sustainable Industry Transformation” hisobotida sanoat tarmoqlarida ESG ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda muhim o‘rin tutishi qayd etilgan. OECD (2022) tomonidan tayyorlangan “Green Industrial Growth and Governance” hisobotida sanoat tarmoqlarida boshqaruv tizimlarini ekologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish korxona foydasini uzoq muddatda oshirishi, xodimlar motivatsiyasini kuchaytirishi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashi

ta’kidlangan.[101] Shu bilan birga, OECD ESG indikatorlari yordamida davlat siyosatining samaradorligini baholashda yangi metodologiyalarni joriy etishni tavsiya qiladi. IFC (2021) esa o‘zining “ESG Standards in Emerging Markets” nashrida rivojlanayotgan mamlakatlarda ESG boshqaruv mexanizmlarini joriy etish investorlar uchun xavf va imkoniyatlarni balanslashda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

IFC tavsiyalariga ko‘ra, korxonalar ESG siyosatini korporativ strategiyaga integratsiya qilgan taqdirda, ularning kapital qiymati va investor ishonchi sezilarli darajada ortadi[102]. Yevropa Ittifoqining “Green Deal” strategiyasi (EU, 2020) esa ESG tamoyillarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga joriy etishni rag‘batlantiradi. Mazkur dastur doirasida ishlab chiqarish korxonalari uchun “yashil moliya”, uglerod neytralligi va chiqindisiz texnologiyalar asosida ishlash majburiyati belgilangan. Bu tajriba keyinchalik jahon miqyosida ESG siyosatining asosiy namunalaridan biriga aylandi[103]. Shuningdek, xalqaro amaliyotda ISO 14001: 2015 standarti atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik menejment tizimini samarali yo‘lga qo‘yish uchun asosiy mezon sifatida qabul qilingan. GRI (Global Reporting Initiative) standartlari esa korxonalarning ESG hisobotlarini tayyorlashda xalqaro mezon vazifasini bajaradi. MDH davlatlari tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, Rossiya, Qozog‘iston va Ozarbayjonda ESG siyosati so‘nggi yillarda faol joriy etilmoqda. Rossiya Federatsiyasida 2022- yilda qabul qilingan “Ekologik javobgar biznes” dasturi ESG hisobotini majburiy tarzda joriy etdi. Qozog‘istonda esa “Green Kazakhstan 2050” strategiyasi doirasida sanoat korxonalari uchun ESG indeksi bo‘yicha baholash tizimi ishlab chiqilgan[104].

O‘zbekistonda ESG tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish jarayoni endigina shakllanmoqda. 2019- yilda tasdiqlangan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” ESG asoslarini milliy siyosatga kiritish uchun muhim poydevor bo‘ldi.[105] Hozirgi kunda “O‘zbekiston Respublikasi Sanoat va Tog‘-kon vazirligi”, “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ESGga oid normativ bazani shakllantirish ustida ish olib bormoqda. Mahalliy tadqiqotlarda (Karimov, 2023; Xodjayeva, 2024) ESG tamoyillarini joriy etishning asosiy to‘siqlari sifatida korxonalarda ekologik menejment tizimining sust rivojlanganligi, ma’lumotlar bazasining yetarli emasligi va moliyaviy rag‘bat mexanizmlarining cheklanganligi

[101] OECD, Green Industrial Growth and Corporate Governance, p. 41.
[102] IFC, ESG Standards in Emerging Markets, p. 37.
[103] European Commission, The European Green Deal, p. 5.
[104] UNEP, Sustainability and ESG Implementation in Industrial Sectors, p.
[105] Vazirlar Mahkamasi, Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, p. 2.

qayd etilgan. Shu bilan birga, ilmiy manbalarda ESG iqtisodiy samaradorligini baholashning yagona uslubiy yondashuvi mavjud emasligi ham ta’kidlangan.[106][107]

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xalqaro miqyosda ESG tamoyillarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish bo‘yicha keng tajriba to‘plangan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sanoat korxonalarida bu yondashuvning iqtisodiy samaradorligini baholash, milliy sharoitga mos boshqaruv modeli va indikator tizimini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar hali yetarli darajada rivojlanmagan. Shu bois ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati - ESG tamoyillarining O‘zbekiston sanoat tarmoqlaridagi amaliy qo‘llanishini iqtisodiy nuqtai nazardan chuqur o‘rganish va baholash metodikasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga asoslangan boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - ESG yondashuvining korxonalar faoliyati samaradorligiga ta’sirini aniqlash, mavjud boshqaruv tizimini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonning yetakchi sanoat tarmoqlari - energetika, kimyo, to‘qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalaridagi 15 ta yirik va o‘rta korxona tanlandi.


Tadqiqot predmeti esa ushbu korxonalarda ESG tamoyillarining joriy etilishi va ularning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot davomida ESG tamoyillarining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholashda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Iqtisodiy-statistik tahlil usuli yordamida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmi, foyda, tannarx va energiya sarfi bo‘yicha mavjud ma’lumotlar o‘rganilib, ESG tamoyillarini joriy etgan va etmagan korxonalar o‘rtasidagi farqlar aniqlangan. Bu yondashuv ESG siyosati natijasida ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan foydalanish darajasidagi o‘zgarishlarni raqamli asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda taqqoslama (komparativ) tahlil usuli ham qo‘llanildi, u orqali ESG tamoyillarini amaliyotga joriy etgan korxonalar natijalari an’anaviy boshqaruv tizimida ishlovchi korxonalar bilan solishtirildi. Bunday yondashuv ESG siyosatining iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sirini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, SWOT-tahlil usulidan foydalanilib, korxonalarda ESG tizimini joriy etishdagi kuchli va zaif jihatlar, mavjud imkoniyatlar hamda xavf omillari baholandi. Bu usul orqali ESG siyosatini milliy sanoat sharoitiga moslashtirish uchun zarur bo‘lgan ichki va tashqi omillar aniqlanadi. Ekspert baholash usuli asosida iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislar, sanoat korxonalari rahbarlari va ekologiya

[106] Karimov, O‘zbekiston sanoatida barqaror boshqaruv...,. 45–53 betlar.
[107] Xodjayeva, ESG siyosatini joriy etishda..., 12-bet.

bo‘yicha mas’ul xodimlar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ularning fikrlari ESG tamoyillarining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini subyektiv tajriba asosida baholash imkonini berdi. Bundan tashqari, regressiya tahlili yordamida ESG ko‘rsatkichlari (E – ekologik, S – ijtimoiy, G – boshqaruv) bilan korxonaning rentabellik, foyda marjasi va ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, matematik model shakllantirildi(1-diagramma).



1-diagramma. ESG tamoyillarining iqtisodiy samaradorlikni baholashdagi ulushi


Ushbu model ESG integratsiyasi darajasi bilan iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi statistik korrelyatsiyani o‘lchash imkonini beradi. Yuqoridagi usullar uyg‘un ravishda qo‘llanilib, ESG tamoyillarini joriy etishning nafaqat ekologik yoki ijtimoiy, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rni aniqlandi. Tadqiqot metodologiyasi O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida barqaror boshqaruv tizimini shakllantirish uchun amaliy asos yaratishga xizmat qiladi. ESG tamoyillarining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun quyidagi yondashuvdan foydalanildi:

E (Environmental) – energiya sarfini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi;

S (Social) – xodimlar uchun yaratilgan sharoit, ijtimoiy loyihalar, gender tenglik, sog‘lom mehnat muhitini ta’minlash;

G (Governance) – boshqaruv shaffofligi, hisobot berish tizimi, korrupsiyaga qarshi siyosat.

Mazkur indikatorlar asosida har bir korxona uchun ESG-integratsiya indeksi hisoblab chiqildi. Keyinchalik ushbu indeks korxonaning ishlab chiqarish tannarxi, foyda va investitsion jozibadorligi bilan solishtirilib, iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Yuqoridagi yondashuvlar asosida ESG tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy natijalarini tahlil qilish imkonini beruvchi tizimli baholash modeli ishlab chiqildi. Ushbu model O‘zbekiston sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish va investitsion jozibadorlikni oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida O‘zbekistonning yirik sanoat korxonalari faoliyatida ESG tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi (2-diagramma).



2-diagramma. Tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy usullar va ularning ahamiyati

Buning uchun 2019–2024- yillar oralig‘idagi ishlab chiqarish hajmi, energiya sarfi, chiqindilar miqdori va foyda ko‘rsatkichlari asos qilib olindi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ESG tamoyillarini amalda qo‘llagan korxonalarda ishlab chiqarish tannarxi pasaygan, foyda hajmi oshgan va energiya tejamkorlik ko‘rsatkichlari yaxshilangan. Quyidagi jadvalda ayrim korxonalar misolida o‘zgarishlar ko‘rsatilgan (1-jadval):

1-jadval

Ayrim korxonalarda ESG joriy etilishi etilishi

Ko‘rsatkichlar	**ESG joriy etilmagan korxonalar**	**ESG joriy etilgan korxonalar**	**O‘zgarish (%)**
Energiya sarfi (kVt/soat)	100%	82%	−18%
Chiqindilar miqdori (yiliga tonna)	100%	76%	−24%
Ishlab chiqarish tannarxi	100%	91%	−9%
Foyda hajmi	100%	115%	+15%
Ishchi-xodimlar qoniqish darajasi	100%	135%	+35%

Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ESG boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi. Ayniqsa, energiya sarfini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo‘llash iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ekspert baholash natijalariga ko‘ra, ESG tamoyillarini to‘liq joriy etgan korxonalarda investitsiya jozibadorligi 20–25 %ga oshgan. Buning sababi, xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar tomonidan ESG reytingi yuqori bo‘lgan kompaniyalarga ustuvorlik berilishi bilan izohlanadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan ESG-integratsiya indeksi yordamida har bir korxona uchun umumiy baho shakllantirildi. Indeks 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda hisoblanadi, bu yerda 1 - eng yuqori ESG darajasi, 0 - ESG siyosati mavjud emasligini bildiradi. O‘rganilgan 15 ta korxona ichida o‘rtacha indeks quyidagicha shakllandi: Energetika tarmog‘ida - 0.76 Kimyo sanoatida - 0.69, To‘qimachilik sanoatida - 0.7, Oziq-ovqat sanoatida -

0.74 hisoblanadi. Umuman olganda, ESG integratsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini 10–18 %ga, foyda marjasini esa 8–12 %ga oshirganini ko‘rsatdi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ESG tamoyillarini samarali joriy etgan korxonalar nafaqat ekologik xavflarni kamaytirgan, balki o‘zining uzoq muddatli barqaror rivojlanish salohiyatini ham mustahkamlashga muvaffaq bo‘lgan. Bu yondashuv O‘zbekiston sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu yondashuv nafaqat ekologik va ijtimoiy jihatdan, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega[108]. ESG siyosatini korporativ boshqaruvga integratsiya qilish orqali korxonalar energiya resurslarini tejash, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va mehnat unumdorligini oshirishga erishmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ESG tamoyillarini joriy etgan korxonalarda foyda marjasi o‘rtacha 10–15 foizga oshgan, energiya sarfi 15–20 foizga kamaygan, chiqindilar hajmi esa 25 foizgacha qisqargan. Shu bilan birga, bunday korxonalarda xodimlar qoniqish darajasi va ijtimoiy ishonchning ortishi kuzatilgan. Bu holat ESGning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasi sifatidagi ustunligini isbotlaydi. O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida ESG boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish milliy iqtisodiyot uchun quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

• korxonalarning investitsion jozibadorligi oshadi va xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlari kengayadi;

• resurslardan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi ortadi;

• ekologik xavf omillari kamayadi va chiqindisiz texnologiyalar rivojlanadi;

• ijtimoiy mas’uliyat va shaffof boshqaruv tamoyillari kuchayadi;

• milliy ESG reyting tizimi joriy etilishi orqali xalqaro miqyosda O‘zbekiston sanoatining ishonchliligi oshadi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Normativ-huquqiy asosni takomillashtirish: ESG tamoyillarini milliy me’yoriy-huquqiy hujjatlarga integratsiya qilish, korxonalarning ekologik va ijtimoiy hisobotini yuritishni majburiy qilish zarur;

2. Milliy ESG reyting tizimini yaratish: korxonalarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash tizimini ishlab chiqish orqali investitsion ishonchni kuchaytirish lozim;

3. Soliq va moliyaviy rag‘batlar mexanizmini joriy etish: ESG tamoyillariga amal qiluvchi korxonalarga soliq imtiyozlari, “yashil kreditlar” va grantlar taqdim

[108] World Bank, ESG Integration in Emerging Economies, p. 24.

etish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiqdir;

4. Korporativ boshqaruvni modernizatsiya qilish: korxonalarda ESG bo‘yicha ichki komissiyalar tashkil etish, hisobot berish tizimini raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish zarur;

5. Inson kapitaliga sarmoya kiritish: sanoat tarmoqlarida ESG bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish, “Green management” bo‘yicha o‘quv modullarini joriy etish kerak;

6. Axborot tizimlarini rivojlantirish: ESG indikatorlarini monitoring qilish uchun yagona raqamli platforma yaratish, bu orqali barcha korxonalar faoliyatining barqarorlik darajasini kuzatib borish imkonini berish lozim.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish O‘zbekiston sanoat tarmoqlarining xalqaro barqaror rivojlanish me’zonlariga moslashuvini tezlashtiradi, ekologik xavfsizlikni kuchaytiradi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.Shunday qilib, ESG tamoyillarini keng joriy etish mamlakatimiz sanoati uchun nafaqat zamonaviy boshqaruv modeli, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. (2023). ESG Integration in Emerging Economies: Industrial Perspective. Washington, D.C.: World Bank Publications. – p. 24.

2. OECD. (2022). Green Industrial Growth and Corporate Governance. Paris: OECD Publishing. – p. 41.

3. IFC (International Finance Corporation). (2021). ESG Standards in Emerging Markets. Washington, D.C.: World Bank Group. – p. 37.

4. European Commission. (2020). The European Green Deal. Brussels: European Union. – p. 5.

5. ISO 14001:2015. Environmental Management Systems – Requirements with Guidance for Use. Geneva: International Organization for Standardization. – p. 18.

6. Global Reporting Initiative (GRI). (2021). Sustainability Reporting Standards. Amsterdam: GRI Secretariat. – p. 9.

7. Xodjayeva, ESG siyosatini joriy etishda..., p. 12.

8. United Nations Environment Programme (UNEP). (2023). Sustainability and ESG Implementation in Industrial Sectors. Nairobi: UNEP Press. – p. 33.

9. OECD. (2024). AI for Sustainable Governance and Monitoring. Paris: OECD Publishing. – p. 27.

10. Karimov, B. (2023). O‘zbekiston sanoatida barqaror boshqaruv va ESG tamoyillarining ahamiyati. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish jurnali, №2, 45-53-betlar.

11. Xodjayeva, N. (2024). ESG siyosatini joriy etishda O‘zbekiston korxonalarining imkoniyat va muammolari. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi nashriyoti. –12-bet.

12. Qozog‘iston Respublikasi Ekologiya vazirligi. (2023). Green Kazakhstan 2050 Strategiyasi. Ostona. –6-bet.

13. Rossiya Federatsiyasi Iqtisodiy rivojlanish vazirligi. (2022). Ekologik javobgar biznes dasturi. Moskva. –19-bet.

14.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” to‘g‘risidagi qaror. Toshkent. – p. 2.

15. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). Sanoat tarmoqlarida barqaror rivojlanish indikatorlari bo‘yicha hisobot. Toshkent. – p. 17.

THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS IN CORPORATE GOVERNANCE

Sadikova Muslima Alisher qizi
senior teacher in “Innovative management” department
Tashkent State University of Economics
Orcid: 0000-0003-2133-1012

Abstract. *Institutional investors – such as pension funds, insurance companies, and investment funds – play a crucial role in promoting transparency, accountability, and efficiency in corporate governance. In Uzbekistan, their growing presence since 2017 has significantly influenced how companies are managed and monitored. This paper explores how institutional investors contribute to improving governance standards, increasing shareholder activism, and attracting foreign investment. It also evaluates the challenges they face, including limited market infrastructure and regulatory gaps. The findings suggest that institutional investors are becoming one of the main drivers of corporate reform in Uzbekistan, but further development of the legal and financial system is essential to maximize their impact.*

Key words*: Institutional investors, corporate governance, Uzbekistan, capital market, pension funds, shareholder rights, transparency, reform.*

Аннотация. *Институциональные инвесторы, такие как пенсионные фонды, страховые компании и инвестиционные фонды, играют решающую роль в обеспечении прозрачности, подотчетности и эффективности корпоративного управления. В Узбекистане их растущее присутствие с 2017 года существенно повлияло на то, как осуществляется управление компаниями и их мониторинг. В этой статье рассматривается вклад институциональных инвесторов в совершенствование стандартов управления, повышение активности акционеров и привлечение иностранных инвестиций. В нем также дается оценка проблем, с которыми они сталкиваются, включая ограниченную рыночную инфраструктуру и пробелы в законодательстве. Полученные данные свидетельствуют о том, что институциональные инвесторы становятся одной из основных движущих сил корпоративной реформы в Узбекистане, но для максимального*

увеличения их влияния необходимо дальнейшее развитие правовой и финансовой системы и соблюдение ESG принципов.

Ключевые слова: *Институциональные инвесторы, корпоративное управление, Узбекистан, рынок капитала, пенсионные фонды, права акционеров, прозрачность, реформы.*

Introduction. The study demonstrates that institutional investors are becoming a major force in improving corporate governance in Uzbekistan. Their participation has strengthened board independence, financial transparency, and accountability. By requiring audited reports, independent directors, and ESG policies, they are pushing companies toward international standards and more ethical management. Institutional investors, such as pension and investment funds, not only provide long-term capital but also influence decision-making quality. Their monitoring role reduces corruption risks and increases investor trust. However, challenges remain – market participation is still limited, enforcement of governance codes is uneven, and some funds act passively instead of engaging actively with company boards.[109]

To enhance their impact, Uzbekistan should expand financial literacy, support fund professionalism, and ensure consistent regulatory coordination. With stronger engagement and clear legal support, institutional investors can play a decisive role in shaping transparent and sustainable corporate behavior.

Corporate governance determines how companies are directed, controlled, and held accountable. In recent years, Uzbekistan has restructured its corporate sector to align with international governance principles. One of the most significant developments has been the rise of institutional investors, who act not only as capital providers but also as active monitors of company performance and management ethics. Before 2017, Uzbekistan's corporate ownership was heavily dominated by the state. As a result, companies lacked independent oversight, and small investors had limited influence. However, as the government launched privatization and capital market reforms, institutional investors began to emerge as key players. This study investigates their growing influence on corporate governance, focusing on three areas: strengthening shareholder control and accountability, promoting transparency and responsible management and supporting long-term investment and ESG (Environmental, Social, Governance) principles.[110]

Methodology

This paper uses a qualitative, quantitative and comparative approach, induction and deduction, analyzing laws, official reports, and company data from 2017–2025.

[109] Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan (2025). Financial Market Development Strategy 2030

[110] Data from institutional investors such as Pension Fund of Uzbekistan, UzInsurance, and Investment Funds established under the UzSE (Uzbek Stock Exchange);

It also compares Uzbekistan's situation with OECD standards and international best practices.

Result.

The development of institutional investors in Uzbekistan has accelerated with economic liberalization. They have become significant shareholders in major enterprises, particularly in banking, energy, and telecommunications sectors.

Table 1.

Growth of Institutional Investors in Uzbekistan (2017–2025)[111]

Indicator	2017	2020	2025	Trend
Number of institutional investors	15	37	82	↑ Rapid growth
Share of institutional ownership in listed firms (%)	5%	12%	28%	↑ Expanding
Pension fund assets (billion UZS)	1.2	3.8	8.5	↑ Strong increase
Insurance company investments (billion UZS)	0.9	2.7	6.1	↑ Growing
Average dividend yield of investment companies (%)	4.5	5.7	7.1	↑ Improvement
Corporate governance compliance rate (based on CMDA index)	46%	61%	78%	↑ Significant rise

These results demonstrate that institutional investors have become more influential in shaping corporate governance practices, particularly by demanding better transparency and board independence.

Analysis

Uzbekistan has introduced a number of reforms to facilitate institutional investment. The Law on Investment Funds (2022) and the Law on the Securities Market (2021) established clearer rules for fund management, disclosure, and minority shareholder protection. The Capital Market Development Agency (CMDA) supervises these entities to ensure compliance. Institutional investors are now required to disclose their ownership stakes and voting behavior, in line with international principles such as the OECD Guidelines on Institutional Investors and Corporate Governance (2017). However, enforcement remains inconsistent, especially among smaller or newly formed funds.

Institutional investors have encouraged many companies to adopt higher governance standards, appoint independent directors, and improve disclosure practices. For example: Ipoteka Bank and UzAuto Motors introduced ESG and sustainability committees after institutional investors requested more transparency in 2023–2024. Kapitalbank started publishing detailed annual reports following engagement by domestic investment funds. Uzbekneftegaz improved board structure by including two independent members, largely due to investor pressure.

[111] Source: CMDA, SAMA, and World Bank Reports (2025).

Table 2.

The impact of institutional investors to different indicators of corporate governance system[112]

Indicator	Companies with <10% institutional ownership	Companies with >25% institutional ownership
Independent board members (%)	18%	42%
Audit committee existence (%)	33%	75%
Timely publication of annual reports	60%	91%
ESG reporting presence	22%	64%

As the table shows, companies with higher institutional ownership exhibit better governance and stronger financial performance, proving that active ownership leads to accountability and growth.

Discussion

Institutional investors are also promoting ESG principles in Uzbekistan. The Pension Fund of Uzbekistan and Humo Investment Fund have begun allocating up to 10% of their portfolios to green bonds and renewable projects. Furthermore, investment funds have encouraged companies to reduce emissions, implement gender diversity policies, and adopt digital transparency measures.

Uzbekistan's experience confirms that institutional investors can be strong catalysts for better corporate governance. Their growing participation enhances transparency, reduces corruption risks, and strengthens investor confidence.

However, several challenges remain: limited market depth – the number of listed companies remains small; weak enforcement – not all companies follow reporting standards; low investor activism – most institutional investors still behave passively; regulatory overlap – between CMDA, SAMA, and other agencies.

To maximize the positive impact, Uzbekistan should: strengthen investor rights in company law; encourage institutional investors to exercise voting rights actively; support the development of independent fund managers; promote ESG-linked investment incentives.

Conclusion

Institutional investors are emerging as powerful agents of change in Uzbekistan's corporate governance landscape. Their increasing ownership, demand for transparency, and focus on long-term sustainability have transformed the way companies operate. While the legal framework and market institutions are still evolving, the trend is clearly positive. By deepening reforms, enhancing investor activism, and integrating ESG goals, Uzbekistan can turn institutional investors into a cornerstone of its sustainable economic growth and corporate accountability.

[112] CMDA Corporate Governance Index (2025).

Although the market is still developing, their presence proves that responsible ownership can drive real reform. Strengthening legal frameworks, promoting ESG investment, and expanding digital transparency will help institutional investors reach their full potential. With these steps, Uzbekistan can build a modern, open, and sustainable corporate environment – where institutional investors serve not only as financiers, but as long-term partners in the country's economic and ethical transformation.

References

1. OECD (2017). Guidelines on Institutional Investors and Corporate Governance.

2. World Bank (2024). Uzbekistan Capital Market Reform Report.

3. Capital Market Development Agency (CMDA) (2025). Annual Report on Institutional Investment Activity.

4. State Assets Management Agency (SAMA) (2024). Corporate Reform and Privatization Overview.

5. Pension Fund of Uzbekistan (2025). Investment Strategy and ESG Integration Report.

6. Ipoteka Bank (2024). Annual and Sustainability Report.

7. UzAuto Motors (2024). Corporate Governance and ESG Report.

8. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan (2025). Financial Market Development Strategy 2030.

9. PwC Central Asia (2024). Institutional Investors and Corporate Governance Trends in Uzbekistan.

10. United Nations Development Programme (UNDP) (2024). Sustainable Investment Practices in Central Asia.

11. The Law on Investment and Investment Activity (2019);

12. The Law on the Securities Market (2021);

13. Reports by the Capital Market Development Agency (CMDA) and State Assets Management Agency (SAMA);

14. Data from institutional investors such as Pension Fund of Uzbekistan, UzInsurance, and Investment Funds established under the UzSE (Uzbek Stock Exchange);

15. OECD and World Bank reports on institutional ownership and corporate governance.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O‘RNI

Daminova O‘g‘iloy Mirzaqul qizi
TMII “Biznes boshqaruvi va moliya” kafedrasi asisstenti
Email: daminovaogiloy@gamil.com
Orcid: 0000-0002-2936-2182

Annotatsiya. *Ushbu maqolada iqtisodiy diversifikatsiyaning oziq-ovqat mahsulotlari bozorini barqaror rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan diversifikatsiya siyosati statistik ma’lumotlar asosida tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy diversifikatsiya, oziq-ovqat bozori, iqtisodiy islohotlar, qishloq xo‘jaligi sektori, oziq-ovqat sanoati.*

Аннотация. *В данной статье научно анализируется роль и значение экономической диверсификации в устойчивом развитии рынка продовольственных товаров. В работе рассматриваются проводимые в последние годы в Республике Узбекистан экономические реформы, направленные на обеспечение продовольственной безопасности и повышение экспортного потенциала, а также анализируется политика диверсификации на основе статистических данных.*

Ключевые слова: *экономическая диверсификация, продовольственный рынок, экономические реформы, сельскохозяйственный сектор, пищевая промышленность.*

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the role and significance of economic diversification in the sustainable development of the food products market. The study examines the recent economic reforms implemented in the Republic of Uzbekistan aimed at ensuring food security and increasing export potential, as well as analyzes the country’s diversification policy based on statistical data.*

Keywords: *economic diversification, food market, economic reforms, agricultural sector, food industry.*

Kirish

So‘nggi yillarda jahon xo‘jalik tizimida oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqaror rivojlanishini ta’minlash masalasi global iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismiga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, geosiyosiy beqarorlik, energetika resurslari narxining o‘zgaruvchanligi va logistika zanjirlarining uzilishi kabi omillar oziq-ovqat ta’minotiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sharoitda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ya’ni ishlab chiqarish tarmoqlari, eksport yo‘nalishlari va investitsiya oqimlarini kengaytirish, har qanday inqiroz holatlarida iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotining so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda iqtisodiy diversifikatsiya siyosatiga katta e’tibor qaratmoqda. Xususan, 2020-2024 yillar davomida oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga o‘sib, uning sanoat tuzilmasidagi ulushi o‘rtacha 12 foiz atrofida shakllandi. Meva-sabzavot, go‘sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining soni ko‘paygani, eksport

geografiyasining kengaygani ham ushbu yo‘nalishda ijobiy natijalarni namoyon etmoqda.

Diversifikatsiya jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish tarkibini yangilash, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulot turlarini yaratish va hududlar bo‘yicha resurslardan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Shu jihatdan, oziq-ovqat bozorining raqobatbardoshligini oshirish, ichki bozorni muvozanatli rivojlantirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun iqtisodiy diversifikatsiya strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Iqtisodiyot tarmoqlarida oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda iqtisodiy diversifikatsiyaning o‘rnini ochib berishga doir ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu masalalar mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan keng o‘rganilgan, va shu sohada o‘zining muhim ilmiy ishlarini taqdim etgan bir qator taniqli olimlar mavjud. Ulardan Primov, A., Rustamova, I., Musaev, I., Khakimova, K., Nuretdinova, M., Jalolova, M kabi olimlarning ishlarini keltirish mumkin. Ularning ilmiy izlanishlari oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda iqtisodiy diversifikatsiyaning o‘rni bilan masalalarga alohida e’tibor qaratgan Ularning fikricha, iqtisodiy diversifikatsiya mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning barqarorligini oshiradi, oziq-ovqat ta’minotidagi tavakkalchiliklarni kamaytiradi va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.[1]

Rustamova va boshqalar Orol mintaqasida uzoq muddatli crop-diversification tadqiqotlari orqali mono-ekin tizimlarining (xususan paxta) iqtisodiy va ekologik cheklovlarini ta’kidlaydilar, diversifikatsiyaning daromad va risklarni kamaytirishdagi ijobiy ta’siri empirik ma’lumotlar bilan tasdiqlangan. Ushbu maqola diversifikatsiyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini ko‘rib chiqadi. Mualliflar diversifikatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun siyosiy chora, suv boshqaruvi, konservatsion dehqonchilik va malaka oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. O‘zbekistanda avvalgi monokultura tizimidan diversifikatsiyaga o‘tish zarurligini ta’kidlaydi [2]

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy diversifikatsiya oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarishning tarmoqlararo muvozanatini ta’minlash, importga qaramlikni kamaytirish va mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.Shu bilan birga, ular oziq-ovqat mahsulotlarining bir qismini import qilishni ham (oqilona hajmda) muhim deb hisoblaydilar, chunki bu bozorning diversifikatsiyasini va barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

Bundan kelib chiqadiki, yuqorida keltirilgan ta’riflar turli ilmiy ishlar doirasida shakllantirilgan va ularning har biri oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda

iqtisodiy diversifikatsiyaning o‘ziga xos jihatlarini yoritishga qaratilgan. Har bir olim tomonidan taqdim etilgan ta’riflar o‘zgacha nuqtai nazarga asoslangan bo‘lib, oziq-ovqat bozorining rivojlanishi va uning samaradorligini ta’minlashga oid muhim tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot ishida mavzuning dolzarbligi, mahalliy va xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan ilmiy tadqiqotchilar va olimlar tomonidan oziq-ovqat bozorining mazmuni va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida ilgari surilgan nazariyalar, fikr-mulohazalar va o‘ziga xos xususiyatlar batafsil o‘rganilib, tahlil qilingan. Tadqiqotda, shuningdek, oziq-ovqat bozorini samarali rivojlantirishda iqtisodiyotni deversifikatsiya qilishning ahamiyati keng ochib berilgan. Bu maqsadga erishish uchun oziq-ovqat bozoriga ta’sir qiluvchi omillar nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan va iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish uchun bir qancha chora-tadbirlar taklif qilingan. Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya metodlari, statistik tahlil, dinamik qiyosiy tahlil tizimli va mantiqiy tahlil hamda iqtisodiy tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Ushbu yondashuvlar yordamida bozorning rivojlanish jarayonlarini yanada chuqurroq tushunish va uni amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘ladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishning tarmoqlararo diversifikatsiyasi yuqori bo‘lgan hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy bog‘liqlik mavjud.

Muhokama va natijalar

Jahon iqtisodiyoti so‘nggi o‘n yilliklarda tez sur’atlarda o‘zgarib, yangi global chaqiriqlarga duch kelmoqda. Xususan, iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, geosiyosiy tangliklar va logistika tizimlaridagi uzilishlar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ta’minot zanjirlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayoni, ayniqsa oziq-ovqat sektorida, barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida modernizatsiya va diversifikatsiya siyosati izchil amalga oshirilib kelmoqda. Xususan, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish yo‘nalishida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, meva-sabzavot eksporti hajmi 2020-yilga nisbatan 1,6 barobar oshgani, qayta ishlangan mahsulotlar ulushi esa 28 foizdan 36 foizgacha ko‘tarilgani kuzatildi. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy diversifikatsiyaning oziq-ovqat bozorida resurslardan samarali foydalanish va eksport tarkibini kengaytirishdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Iqtisodiy diversifikatsiya - bu milliy iqtisodiyotda tarmoqlar, mahsulot turlari, ishlab chiqarish va eksport yo‘nalishlarining ko‘pligini ta’minlash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish jarayonidir. Hozirgi globallashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivoji bevosita iqtisodiy diversifikatsiya bilan bog‘liq. Chunki bir yo‘nalishga qaramlik qishloq xo‘jaligida xavf-xatarlarni kuchaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligini zaiflashtiradi.

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirish, tarmoqlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash va tashqi omillarga nisbatan sezuvchanlikni kamaytirishga erishiladi. Diversifikatsiyaning asosiy maqsadi iqtisodiy faoliyatni faqat bir yoki ikki tarmoq bilan cheklab qo‘ymasdan, ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish tuzilmasini shakllantirish orqali iqtisodiyotning ichki barqarorligini mustahkamlashdan iborat.

Oziq-ovqat bozori iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida diversifikatsiya jarayonida muhim o‘rin tutadi. Chunki ushbu soha nafaqat aholining asosiy iste’mol ehtiyojlarini qondiradi, balki qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash, logistika, savdo va xizmat ko‘rsatish kabi boshqa tarmoqlar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois oziq-ovqat sektorini rivojlantirish orqali butun iqtisodiyotning tarkibiy o‘sishi va tarmoqlararo integratsiya jarayoni jadallashadi.

Oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi sektorlarini diversifikatsiya qilish orqali:

– mahalliy ishlab chiqarish kuchayadi;

– ish o‘rinlari ko‘payadi;

– importga bo‘lgan qaramlik kamayadi.

O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni, xususan, oziq-ovqat sanoatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, mahalliy brendlarni rivojlantirish, logistika infratuzilmasini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda. Natijada, iqtisodiy o‘sishning yangi drayverlari shakllanib, oziq-ovqat mahsulotlari eksportining hajmi ortib bormoqda.

Bundan tashqari, diversifikatsiya oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki ishlab chiqarish manbalarining ko‘pligi, mahsulot turlarining xilma-xilligi va bozorning muvozanatli rivojlanishi importga qaramlikni kamaytiradi hamda ichki narxlarning keskin o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu tariqa, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish oziq-ovqat bozorining barqaror va raqobatbardosh shaklda rivojlanishini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Rasmiy statistikaga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 19,2 foizi qishloq xo‘jaligi sohasiga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish strukturasida oziq-ovqat sanoati ulushi 11,7

foizni tashkil etib, jami 103,7 trillion so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Jahon bankining 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, O‘zbekiston oziq-ovqat turlarini 70 dan ortiq mamlakatga eksport qilmoqda, bu esa eksport diversifikatsiyasining yuqori darajasini ko‘rsatadi. Xususan, 2020-2024 yillar davomida meva-sabzavot eksporti 1,6 barobar oshgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorida diversifikatsiyaning asosiy samaralari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– raqobat muhitining kuchayishi (turli ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat narxlarning barqarorlashishiga olib keladi);

– import o‘rnini bosish (yangi tarmoqlarning rivoji ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta’minlaydi);

– eksport salohiyatining kengayishi (yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi);

– resurslardan samarali foydalanish (yer, suv, energiya va mehnat resurslari oqilona taqsimlanadi.

Diversifikatsiya dasturlari asosida 2023-yilda 60 ming gektar paxta maydonlari oziq-ovqat ekinlariga o‘tkazildi, natijada sabzavot va poliz mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12,4 foizga oshdi.

Oziq-ovqat bozori diversifikatsiyasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi, logistika, energetika va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi o‘zgarishlar oziq-ovqat ta’minotining samaradorligini bevosita belgilaydi. O‘zbekiston sharoitida diversifikatsiya ikki asosiy yo‘nalishda kechmoqda:

1.Tarmoqlararo diversifikatsiya - ishlab chiqarish va qayta ishlash segmentlari o‘rtasidagi balansni ta’minlash;

2. Hududiy diversifikatsiya - har bir viloyatda resurs salohiyatiga mos ishlab chiqarish ixtisoslashuvini shakllantirish.

FAO ma’lumotlariga ko‘ra, diversifikatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda oziq-ovqat tanqisligi xavfi 25-30 foizga past bo‘ladi. O‘zbekiston bu borada Markaziy Osiyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallab, 2024-yilda oziq-ovqat mustaqilligi indeksi bo‘yicha 0,86 ko‘rsatkichga erishdi.

Biroq muammolar ham mavjud: ayrim hududlarda transport-logistika infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan; mahsulotlarni saqlash va sovitish tizimlari eskirgan; eksport bozorlarida sertifikatlash talablari murakkab. Shu bois diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

– mahalliy xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish;

– hududiy agrologistika markazlarini tashkil etish;

– qayta ishlash korxonalariga soliq imtiyozlari berish;

– raqamli texnologiyalar asosida oziq-ovqat tarmoqlarini boshqarish tizimini yaratish.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda diversifikatsiya muhim rol o‘ynaydi. Masalan:

– AQShda 1980-yillarda agrar diversifikatsiya dasturlari fermerlarni bir nechta mahsulot turlarini yetishtirishga rag‘batlantirdi;

– Janubiy Koreya oziq-ovqat sanoatini yuqori texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash tizimi orqali diversifikatsiya qildi;

– Turkiya agrar turizm va organik mahsulot eksportini rivojlantirib, qishloq xo‘jaligi sohasida 5,8% yillik o‘sishga erishdi.

O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bozorida diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini oshirishning strategik omili sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda agrar sohada olib borilayotgan islohotlar, xususan, agroklaster tizimini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish hamda hududiy ixtisoslashuvni optimallashtirish yo‘nalishlari bozorni tizimli diversifikatsiyalashga xizmat qilmoqda.

Agroklasterlar faoliyati tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirib, “xomashyo - qayta ishlash - eksport” zanjirining samarali ishlashini ta’minlamoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatda 200 dan ortiq agroklasterlar faoliyat yuritib, ular jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qariyb 32 foizini yetishtirgan. Ushbu tizimni yanada kengaytirish 2025-2030- yillar oralig‘ida oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini 18-20 foizga oshirish imkonini beradi. Bu esa mamlakatning importga qaramligini kamaytirib, ichki iste’mol bozorini barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar - raqamli agroxizmatlar, aqlli sug‘orish tizimlari, seleksiya va biotexnologiya yutuqlarini joriy etish ishlab chiqarish unumdorligini oshirish bilan birga, resurslardan tejamkor foydalanish imkonini beradi. Masalan, tomchilatib sug‘orish texnologiyasini keng joriy etish natijasida suv sarfi 30-35 foizga qisqarishi va hosildorlik 20 foizgacha oshishi mumkinligi xalqaro tajribada isbotlangan.

Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish istiqbollari ham diversifikatsiya siyosatining muhim yo‘nalishidir. Organik dehqonchilik maydonlarini kengaytirish orqali xalqaro “eco-label” sertifikatiga ega mahsulotlar ulushi ortib bormoqda. 2025-yilga kelib, eksport tarkibidagi ekologik toza mahsulotlar ulushi 12 foizdan 20 foizgacha yetkazilishi rejalashtirilgan.

Hududiy ixtisoslashuvni optimallashtirish esa har bir viloyatning tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqib ishlab chiqarish turlarini aniqlashni nazarda tutadi. Misol uchun, Surxondaryo viloyatida sabzavotchilik va polizchilik, Farg‘ona vodiysida

meva yetishtirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Buxoro viloyatlarida esa dukkakli ekinlarni kengaytirish istiqbollari belgilangan. Bu yondashuv resurslardan samarali foydalanish va hududlararo iqtisodiy muvozanatni ta’minlash imkonini beradi.

Statistik prognozlarga ko‘ra, 2025-yil yakuniga kelib qayta ishlash korxonalarining eksport ulushi 25 foizgacha oshirilishi, umumiy oziq-ovqat eksporti hajmini esa 1,8-2 milliard AQSh dollariga yetkazish kutilmoqda. Bu natijalar iqtisodiy diversifikatsiyaning nafaqat ishlab chiqarish strukturasida, balki tashqi savdo siyosatida ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda oziq-ovqat bozorini diversifikatsiya qilish istiqbollari iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, eksport tarkibini kengaytirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish imkonini beradi. Kelgusida bu jarayonlarni ilmiy asosda rejalashtirish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiy diversifikatsiya oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqarorligini ta’minlash, importdan qaramlikni kamaytirish va eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanishga ham xizmat qiladi. Shu bois O‘zbekiston uchun diversifikatsiya - bu faqat iqtisodiy strategiya emas, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishidir.

Diversifikatsiya siyosati ishlab chiqarishning barqarorligini ta’minlab, eksport tarkibini kengaytiradi, hududlarda bandlikni oshiradi va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi. 2020-2024 yillar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oziq-ovqat sektorida diversifikatsiyani chuqurlashtirish orqali nafaqat ichki talabni qondirish, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirishga erishmoqda.

Kelgusida iqtisodiy diversifikatsiyani yanada kengaytirish, xususan, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va eksport geografiyasini kengaytirish orqali oziq-ovqat bozorining barqaror o‘sishini ta’minlash mumkin.

Iqtisodiy diversifikatsiyaning oziq-ovqat bozoridagi ahamiyati, avvalo, resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va mintaqalararo iqtisodiy tenglikni mustahkamlashda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishning tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiyalashuvi nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi, balki importga qaramlikni kamaytiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va aholining daromad manbalarini kengaytiradi. Bu jarayonlar natijasida O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi sektori yanada innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan shaklga aylanmoqda. Oziq-ovqat

mahsulotlari bozorini rivojlantirish uchun iqtisodiy diversifikatsiyalashda quyidagilarga ahamiyat berish tavsiya etiladi:

1. Agroklaster tizimini kengaytirish - xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, klasterlarda qayta ishlash, saqlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish.

2. Hududiy ixtisoslashuvni optimallashtirish - har bir viloyatning tabiiy-iqlim sharoitlari va resurs salohiyatiga mos ekin turlarini tanlash.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish - suv tejamkor sug‘orish, raqamli monitoring va agrotexnik modernizatsiyani kengaytirish.

4. Ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish - “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini ishlab chiqarish va eksport siyosatiga joriy etish.

5. Statistik monitoring tizimini takomillashtirish - diversifikatsiya natijalarini aniq raqamlar asosida tahlil qilish, bu orqali siyosiy qarorlar samaradorligini oshirish.

6. Eksport bozorlarini kengaytirish - logistika zanjirlarini qisqartirish, yangi tashqi bozorlar bilan hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy diversifikatsiya O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqaror o‘sishi, mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda strategik omil hisoblanadi. Shu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning izchil davom ettirilishi mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli barqaror rivojlanish bosqichiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Primov, A., & Rustamova, I. (2025). Status and Extent of Crop Diversification Index in Uzbekistan and its Empirical Analysis. Manuscript.

2. Primov, A. (2025). Crop Diversification Analysis at the Farm Level: Empirical Evidence from Different Regions of Uzbekistan. EconStor Preprint.

3. Musaev, I., Khakimova, K., Nuretdinova, M., & Jalolova, M. (2024). Enhancing Sustainable Agriculture through Crop Diversification in Uzbekistan. E3S Web of Conferences.

4. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi». –T.: O‘quv qo‘llanma. «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016. 12-b.;

5. Karimov M.A. «Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish»./Monografiya. Andijan: «STEP BY STEP PRINT» MChJ, 2021. - 100 b.

6. Gorb O.A., Yasnolob I.A., Protsiuk N.Y. Organizational-economic mechanism of management of food industry enterprises competitiveness. Annalysis of agrarian science 14 (2016) 191-195.;

7. Bobojonov, I., Lamers, J. P. A., Bekchanov, M., Djanibekov, N., Franz-Vasdeki, J., Ruzimov, J., & Martius, C. (2013). Options and constraints for crop diversification: A case study in sustainable agriculture in Uzbekistan. Global Landscapes Forum & Food & Livelihoods.

8. Barmon, B. K. (2025). Crop Diversification and its Impact on Income: Determinants and Extent. Journal (reserved).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ID-9413-son “O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” gi qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА

Нарзуллаева Гульчехра Салимовна
старший преподаватель, Бухарский государственный университет
Orcid: 0000-0002-7025-8547
Сайфуллаева Мадина Исматовна
PhD, преподаватель, Бухарский государственный университет
Orcid: 0000-0001-8133-2733
Носирова Наргиза Джамолиддин кизи
PhD, доц. Начальник отдела научных исследований рейтинга и аккредитаций
Orcid: 0000-0002-4210-1550

Аннотация. *В условиях стремительного развития узбекско-китайских экономических отношений и увеличения количества совместных предприятий исследование применения философских принципов конфуцианства в корпоративном управлении приобретает особую практическую значимость для Узбекистана. В исследовании применяется сравнительный анализ эволюции корпоративного управления в Китае и Узбекистане, рассматриваются исторические, культурные и институциональные аспекты формирования гибридных моделей управления в обеих странах. Выявлена структурная схожесть корпоративных систем Китая и Узбекистана, основанная на общей гибридной модели, сочетающей формальные рыночные институты с доминирующей ролью государства. В статье представлена высокая степень совместимости конфуцианских принципов (иерархия, гармония, доверительные отношения) с национальными культурными традициями Узбекистана. Данная схожесть институциональной среды создает конкурентные преимущества для узбекско-китайского делового партнерства. Результаты исследования могут быть использованы для разработки образовательных программ по корпоративному управлению, адаптации лучших практик китайской модели управления и оптимизации работы совместных предприятий.*

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI va “yashil” texnologiyalarni birgalikda qo‘llash ekologik menejment tizimini avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish va ishlab chiqarish sifatini oshirish imkonini beradi. Bu yondashuv O‘zbekiston sanoatining raqamli transformatsiyasi bilan uyg‘unlashgan holda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini tezlashtiradi. Biroq, o‘tkazilgan ekspert so‘rovlari korxonalarda ushbu texnologiyalarni keng joriy etish uchun quyidagi to‘siqlar mavjudligini aniqladi:

– dastlabki investitsion xarajatlarning yuqoriligi;

– malakali mutaxassislar yetishmasligi;

– AI texnologiyalari uchun ma’lumotlar bazalarining cheklanganligi;

– ma’lumot xavfsizligi bilan bog‘liq xatarlar. Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

– AI va “yashil texnologiyalar”ni joriy etgan korxonalarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va qulay kredit liniyalarini yaratish.

– Energiya tejamkor ishlab chiqarish usullarini rag‘batlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini kengaytirish.

– Sun’iy intellekt va ekologik boshqaruv sohasida milliy kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, amaliy laboratoriyalar tashkil etish.

– AI asosidagi ekologik monitoring tizimlarini ishlab chiqish va ularni sanoat tarmoqlarida majburiy joriy etish.

– Xalqaro moliya institutlari (World Bank, OECD, UNEP) bilan hamkorlikda “yashil investitsiyalar” dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, sun’iy intellekt va “yashil texnologiyalar” uyg‘unligi O‘zbekiston sanoatining kelajakdagi barqaror rivojlanishi, energiya samaradorligi va ekologik xavfsizligini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish sanoat korxonalarini yangi iqtisodiy bosqichga olib chiqish uchun zaruriy shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” davlat dasturi. Toshkent, 2019, p. 3.

2. World Bank. Green Growth and Sustainable Industry Report. Washington, D.C.: World Bank Publications, 2023, p. 22–25.

3. OECD. Digital Transformation for Green Growth. Paris: OECD Publishing, 2022, p. 40–44.

4. UNEP. Artificial Intelligence for a Green and Circular Economy. Nairobi: UNEP Press, 2023, p. 27–30.

5. McKinsey & Company. Artificial Intelligence in Industry: Driving Efficiency and Sustainability. New York: McKinsey Global Institute, 2023, p. 33–35.

6. Karimov, B. (2023). O‘zbekiston sanoatida barqaror boshqaruv va ESG tamoyillarining ahamiyati. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish jurnali, № 2, p. 49–51.

7. OECD & UNEP. Policy Pathways for Green Industrial Transition. Paris–Nairobi, 2021, p. 14–20.

8. World Economic Forum. Harnessing AI for the Energy Transition. Geneva, 2022, p. 36–40.

8. Floridi, L., & Cowls, J. The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities. Cham: Springer, 2020, 250 b.

9. Kaplan, J., & Haenlein, M. Siri, Siri, in My Hand: Who‘s the Fairest in the Land? Business Horizons, 62(1), 2019, p. 15–25.

10. UN Industrial Development Organization (UNIDO). Green Industry Platform Annual Report 2023. Vienna, 2023, p. 45–48.

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY–INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI

Qo‘chqorova Muxlisaxon Ulug‘bek qizi
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: mukhlisakhon.kuchkorova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional asoslarini takomillashtirish va bu yo‘nalishdagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Hududiy rivojlanishda mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda davlat–xususiy sheriklikning roli tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston hududlarida ijtimoiy va institutsional ko‘rsatkichlarning dinamikasi o‘rganilib, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *hududiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, ijtimoiy-institutsional asoslar, davlat siyosati, mahalliy boshqaruv, fuqarolik jamiyati, DXSh.*

Аннотация. *В статье раскрываются приоритетные направления государственной политики по совершенствованию социально-институциональных основ устойчивого развития регионов. Анализируется роль органов местного самоуправления, институтов гражданского общества и механизмов государственно-частного партнёрства в обеспечении устойчивого территориального развития. Изучена динамика социальных и институциональных показателей регионов Узбекистана, определены основные проблемы и представлены научно обоснованные предложения по их решению.*

Ключевые слова: *региональное развитие, устойчивое развитие, социально-институциональные основы, государственная политика, местное управление, гражданское общество, ГЧП.*

Annotation. *The article examines the priority areas of state policy aimed at improving the social and institutional foundations of sustainable regional development. It analyzes the role of local self-government bodies, civil society institutions, and public–private partnership mechanisms in ensuring balanced territorial development. The dynamics of social and institutional indicators across the regions of Uzbekistan are studied, key challenges are identified, and scientifically grounded policy recommendations are proposed.*

Keywords: *regional development, sustainable development, social and institutional foundations, state policy, local governance, civil society, PPP.*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti ko‘p jihatdan ularning hududlarini samarali boshqarish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan siyosatning qay darajada shakllanganligiga bog‘liqdir. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning hududlar bo‘yicha nomutanosib taqsimlanganligi, infratuzilma darajasining farqli bo‘lishi, aholining turmush sifati va davlat xizmatlariga bo‘lgan imkoniyatlarining bir xil emasligi hududiy siyosatni ilmiy asosda olib borish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, hududlarni barqaror rivojlantirish masalasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy adolatni ta’minlash, aholining farovonligini yuksaltirish va davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hududlarni barqaror rivojlantirish – bu hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik salohiyatini kompleks holda rivojlantirish orqali ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlash jarayonidir. Ushbu jarayonda ijtimoiy–institutsional omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki barqaror rivojlanish nafaqat ishlab chiqarish hajmi yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlarning oshishiga, balki aholining ijtimoiy faolligi, boshqaruv institutlarining samaradorligi va davlat siyosatining izchilligiga ham bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy yondashuvlar hududiy rivojlanishni boshqarishda markazlashgan siyosatdan ko‘ra, hududlarning ichki salohiyatini safarbar etishga va mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga urg‘u beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda hududlarni kompleks rivojlantirish va barqarorlikni ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar hududlarni boshqarishning yangi institutsional modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish asosiy vazifa etib belgilanmoqda.

Shu bilan birga, mavjud amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab hududlarda ijtimoiy va institutsional mexanizmlar hali yetarlicha samarali ishlamayapti. Mahalliy boshqaruv organlarining tashabbus ko‘rsatish imkoniyatlari cheklangan,

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida tizimlilik yetishmaydi, iqtisodiy resurslar va ijtimoiy xizmatlarning taqsimoti esa ko‘pincha nomutanosibdir. Bu esa hududlararo tafovutlarni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy–institutsional asoslarni takomillashtirish orqali hududiy rivojlanishni ilmiy asosda boshqarish dolzarb vazifalardan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional omillari ko‘pincha boshqaruv sifati, institutlar samaradorligi, fuqarolik ishtiroki, mahalliy tashabbuslar va inson kapitali kabi ko‘rsatkichlar orqali tavsiflanadi [Porter, 1990; Kuznets, 1966]. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kuchli institutsional tizimga ega bo‘lgan davlatlarda hududiy rivojlanish barqarorlik, samaradorlik va inklyuzivlik tamoyillari asosida olib boriladi. Bunday tizimlar hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolada hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional asoslarini chuqur tahlil qilish, ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash hamda bu borada olib borilayotgan davlat siyosatining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsad qilingan. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va xalqaro tajribalar tahlili asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi hamda hududiy siyosatni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Hududlarni barqaror rivojlantirish masalasi so‘nggi o‘n yilliklarda nafaqat iqtisodiyotni rejalashtirishda, balki davlat boshqaruvi, siyosiy tizimni takomillashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayonning ijtimoiy–institutsional asoslari alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllangan bo‘lib, u ko‘plab iqtisodchi, sotsiolog va davlat boshqaruvi mutaxassislari tomonidan keng yoritilgan.

Xalqaro adabiyotlarda hududiy rivojlanish nazariyasining poydevori M. Porterning “Millatlarning raqobatbardosh ustunligi” asarida qo‘yilgan bo‘lib, unda hududlarning iqtisodiy salohiyati, institutlarning sifati va ijtimoiy infratuzilmaning uyg‘unligi iqtisodiy barqarorlikning asosiy omili sifatida ko‘rsatilgan [Porter, 1990]. S. Kuznetsning iqtisodiy o‘sish nazariyasi esa hududlar bo‘yicha iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi tafovutlarni kamaytirish orqali uzoq muddatli barqarorlikka erishish mumkinligini ilmiy asoslab bergan [Kuznets, 1966]. D. Rodrik va hamkorlari esa institutlar sifatining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini empirik jihatdan isbotlab, kuchli institutlar mavjud bo‘lgan hududlarda o‘sish barqarorroq bo‘lishini ta’kidlaydi [Rodrik, 2007].

So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan hududiy rivojlanishning institutsional omillarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga

oshirilmoqda. Masalan, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) 2022-yilda e’lon qilgan hisobotida barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishishda mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlik muhim omil sifatida qayd etilgan [UNDP, 2022]. Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) esa 2021-yilgi hisobotida mahalliy boshqaruvning mustaqilligi, budjet jarayonlarining shaffofligi va jamoatchilik ishtiroki darajasi hududiy rivojlanish samaradorligiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan [OECD, 2021].

Jahon banki tomonidan 2023-yilda chop etilgan “Local Governance and Regional Growth” nomli tadqiqotda ham hududiy boshqaruvning institutsional salohiyati iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashda asosiy determinantalardan biri sifatida qayd etilgan. Unga ko‘ra, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari kengaygan, qaror qabul qilish jarayonlari ochiq va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik rivojlangan hududlarda iqtisodiy ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yuqori bo‘lgan [World Bank, 2023].

O‘zbekiston olimlari ham bu masalaga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Masalan, R. Rashidov hududiy boshqaruvning institutsional asoslarini takomillashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini o‘rgangan holda, mahalliy boshqaruv organlariga mustaqillik berish va fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi [Rashidov, 2022]. Bu yondashuv O‘zbekiston sharoitida hududiy resurslardan samarali foydalanish imkonini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va 2020–2024 yillarda qabul qilingan hududiy rivojlanish dasturlarida ham hududiy siyosatning ijtimoiy–institutsional asoslarini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ochiqlik va hisobdorlik mexanizmlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2023].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional asoslarini takomillashtirish – bu nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi omil, balki ijtimoiy adolat, inklyuzivlik va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan kompleks jarayondir. Xalqaro tajriba va milliy islohotlar natijalari bu yo‘nalishda tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatmoqda.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional asoslarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv, taqqoslash, statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda ilg‘or ilmiy adabiyotlar asosida tahliliy ishlar olib borildi.

Metodik asos sifatida M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasi, S. Kuznetsning iqtisodiy o‘sish modeli va zamonaviy institutsional rivojlanish konsepsiyalaridan foydalanildi. Amaliy tahlil O‘zbekiston hududlari misolida 2020–2024-yillar statistik ko‘rsatkichlari asosida olib borildi.

Tahlil va natijalar

Hududlarning barqaror rivojlanishida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston sharoitida so‘nggi yillarda hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tabiiy va inson resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish borasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda iqtisodiy siyosatning strategik yo‘nalishlari sifatida hududiy infratuzilmani rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion faoliyatni kengaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [Porter, 1990; Kuznets, 1973].

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020–2024-yillar mobaynida mamlakat hududlarida yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi barqaror o‘sish sur’atini saqlab qolgan. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu davrda YHMning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 5,6 % ni tashkil etgan, ayrim iqtisodiy zonalarda bu ko‘rsatkich 7–8 % gacha yetgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2024). Eng yuqori o‘sish Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyatlarida kuzatilgan bo‘lib, bu hududlarda investitsiya oqimlari, sanoat klasterlari va logistika infratuzilmasining jadal rivojlanishi bilan izohlanadi.

1-jadval

O‘zbekiston hududlarida YHM o‘sish sur’atlari (2020–2024), %[127]

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	O‘rtacha yillik o‘sish
Toshkent shahri	5,2	6,1	7,3	7,9	8,0	6,9
Toshkent viloyati	4,9	5,5	6,2	6,8	7,1	6,1
Navoiy viloyati	4,7	5,2	6,5	7,0	7,4	6,2
Qoraqalpog‘iston R.	3,8	4,2	4,6	5,1	5,5	4,6
Respublika bo‘yicha	4,5	5,0	5,6	5,8	6,2	5,6

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hududlarning rivojlanishida infratuzilmaning rivojlanganligi, investitsiya hajmi va resurslardan foydalanish samaradorligi o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Infratuzilmasi rivojlangan hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi yuqori bo‘ladi, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Aksincha, resurslarga boy, ammo infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan ayrim chekka hududlarda iqtisodiy faollik pastligicha qolmoqda.

[127] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2024-yil yakuniy hisobotlari

Shuningdek, tahlillar hududiy rivojlanish jarayonida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi bilan inson kapitalining sifati o‘rtasida ham muhim bog‘liqlik borligini ko‘rsatdi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, yuqori malakali ishchi kuchi mavjud bo‘lgan hududlarda innovatsion loyihalar soni va ularning iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan [World Bank, 2023].

2-jadval

O‘zbekiston hududlarida ijtimoiy-institutsional rivojlanish ko‘rsatkichlari (2024-yil)[128]

Hududlar	Ta’lim indeksi[1]	Sog‘liqni saqlash qamrovi (%)[2]	Ishsizlik darajasi (%)[3]	Investitsiya hajmi (mlrd so‘m)[4]	Mahalliy boshqaruv samaradorligi indeksi[5]
Toshkent shahri	0,92	98,5	4,1	45 200	0,88
Toshkent viloyati	0,88	96,2	5,0	28 700	0,84
Navoiy viloyati	0,85	94,8	5,3	25 100	0,82
Qoraqalpog‘iston R.	0,78	90,1	7,2	12 300	0,76
Surxondaryo viloyati	0,74	88,7	8,4	9 800	0,72
Respublika bo‘yicha	0,83	93,6	5,8	24 620	0,80

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-institutsional rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari ham yuqoriroq. Bu, o‘z navbatida, davlat siyosatida hududiy farqlarni hisobga olgan holda differensial yondashuvni talab etadi. Masalan, Toshkent shahri va viloyatida ta’lim va sog‘liqni saqlash infratuzilmasi yuqori darajada shakllangan bo‘lsa, janubiy va g‘arbiy hududlarda bu ko‘rsatkichlar past bo‘lib, u yerlarda qo‘shimcha ijtimoiy-investitsion chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishda resurslardan foydalanishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuv zarur. Xususan, iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va “yashil” texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor bo‘lishi kerak. Resurs salohiyati nisbatan past bo‘lgan hududlarda esa infratuzilma va inson kapitaliga yo‘naltirilgan uzoq muddatli investitsiyalar muhim strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston hududlarida barqaror rivojlanishni ta’minlashda ijtimoiy va institutsional omillarning roli tobora ortib bormoqda. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlari ko‘p jihatdan ta’lim sifati,

[128] https://stat.uz, https://www.mf.uz

sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, investitsion muhit, mahalliy boshqaruv samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish darajasiga bog‘liqdir. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi rivojlangan, boshqaruv jarayonlari ochiq va samarali tashkil etilgan, investitsion muhit faol bo‘lgan hududlarda iqtisodiy faollik yuqori, ijtimoiy ko‘rsatkichlar esa barqaror o‘sib bormoqda. Aksincha, infratuzilma va inson kapitali yetarlicha rivojlanmagan chekka hududlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari pastligicha qolmoqda.

Mavjud vaziyatdan kelib chiqib, hududlarni barqaror rivojlantirish siyosatini takomillashtirishda bir qator muhim jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, har bir hududning iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni chuqurlashtirish zarur. Bu orqali hududlar uchun mos strategik dasturlar ishlab chiqish va manzilli rivojlanish chora-tadbirlarini amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali inson kapitali sifatini oshirish zarur. Uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashda ta’lim, sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoyalash tizimlariga ajratiladigan mablag‘larni ko‘paytirish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uchinchidan, mahalliy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, shaffoflik va fuqarolar ishtirokini kuchaytirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish hududiy rivojlanish jarayonini tezlashtiradi.

To‘rtinchidan, investitsion muhitni yaxshilash va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit yaratish hududlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Nihoyat, barqaror rivojlanish siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hududiy indikatorlar asosida monitoring va baholash tizimini takomillashtirish zarur. Bu davlat siyosatining natijadorligini oshiradi va vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy va institutsional asoslarini mustahkamlash mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu yo‘nalishda amalga oshiriladigan tizimli islohotlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, aholining turmush sifatini oshirish va milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bazasi. https://stat.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Hududlarni rivojlantirish bo‘yicha yillik iqtisodiy sharhlar. Toshkent. https://www.mf.uz

3. Jahon banki (World Bank). (2023). Uzbekistan: Human Capital and Regional Development Indicators. https://data.worldbank.org/country/uzbekistan

4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR). (2024). Hududlar kesimida investitsion muhit va boshqaruv samaradorligi tahliliy hisobotlari. https://review.uz

5. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.

6. Kuznets, S. (1973). Modern Economic Growth: Findings and Reflections. The American Economic Review, 63(3), 247–258.

7. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Human Development Report 2023/24. New York. https://hdr.undp.org

8. OECD. (2022). Regional Development Policy in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4934-son qarori. (2021). Hududlarni kompleks rivojlantirish va investitsion jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent. https://lex.uz

10. Xamidov, A. & Rasulova, M. (2023). Hududiy rivojlanishda ijtimoiy omillarning o‘rni: O‘zbekiston tajribasi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(3), 112–120.

INKLYUZIV IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI

Qurbanov Azizbek G‘ulom o‘g‘li
O‘zbekiston Karlar jamiyati Markaziy Boshqaruvining
yoshlar ishlari bo‘yicha mutaxassisi
E-mail: Azacious.kurbanov@gmail.com
Orcid: 0009-0003-2375-7161

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nogironligi bor, xususan ko‘zi ojiz va ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ularning ish bilan bandligini ta’minlashning ahamiyati hamda bu boradagi Germaniya va Hindiston tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Germaniyaning “Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilar federal jamiyati” (DBSV) faoliyati, ularning ijtimoiy integratsiyani ta’minlashdagi roli hamda nogiron fuqarolarga yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *nogironlar, ko‘zi ojizlar, ijtimoiy integratsiya, Germaniya tajribasi, Hindiston tajribasi, ish bilan bandlik, inklyuziya, bandlik siyosati.*

Abstract. *This article analyzes the employment and social integration of persons with disabilities, particularly the blind and visually impaired, highlighting their role in achieving full*

participation in society. It examines Germany's experience through the activities of the German Federation of the Blind and Partially Sighted (DBSV), which focuses on ensuring equality, accessibility, and empowerment for such individuals.

Keywords: *persons with disabilities, visually impaired, social integration, Germany experience, India experience, employment, inclusion, social policy.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы занятости и социальной интеграции людей с инвалидностью, в частности слепых и слабовидящих. Проанализирован опыт Германии на примере деятельности Федерального общества слепых и слабовидящих (DBSV), направленного на обеспечение равных возможностей и социальной поддержки данной категории граждан.*

Ключевые слова: *инвалиды, слепые, слабовидящие, социальная интеграция, опыт Германии, опыт Индии, занятость, инклюзия, социальная политика.*

Kirish

Nogironligi bor va imkoniyati cheklangan insonlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va to‘laqonli hayot kechirishi, ularning ish bilan bandligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ish bilan ta’minlash, faqat moddiy qo‘llab-quvvatlashni emas, balki ushbu shaxslarning ijtimoiy integratsiyasi, o‘z salohiyatlarini amalga oshirish va o‘z hayotlarini mustaqil tarzda qurish imkoniyatlarini yaratishni anglatadi. Ko‘zi ojizlar yoki ko‘rish qobiliyati past bo‘lgan insonlar uchun ish bilan ta’minlanish, nafaqat moliyaviy mustahkamlikni ta’minlash, balki ularning jamiyatdagi o‘rni va maqomini yaxshilash, o‘z-o‘zini hurmat qilish hissini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Germaniya hukumati aholining ijtimioy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ancha tajribali hukumatlardan hisoblanadi. Germaniyada ko‘zi ojizlar va ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslarga xizmat ko‘rsatuvchi, ularning muammolarini o‘rganuvchi asosiy tashkilot bu **Ko‘zi ojizlar va ko‘rish imkoniyati cheklanganlar federal jamiyati (Deutscher Blinden – und Sehbehindertenverband, DBSV)** hisoblanadi.



1-rasm. Germaniyada ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilarning soni va guruhlanishi[129]

[129] The voice of blind and partially sighted people in Europe, Germany-article 27.

Ushbu jamiyatning 20 dan ortiq hududiy idoralari faoliyat olib boradi. Ushbu idoralar jamiyatda ko‘rish qobiliyatidan ayrilgan yoki ko‘rishda jiddiy muammolarga uchragan shaxslarni faol qo‘llab-quvvatlash, hamda jamiyatda ularga nisbatan notenglikni oldini olish va ularning to‘laqonli hayot kechirishlariga ko‘maklashishni asosiy maqsad qiladi.

DBSV tashkiloti o‘z ichki tartib qoidalari va faoliyatining nizomini ishlab chiqishda, BMTning nogironlar bo‘yicha inson huquqlari konvensiyasini asos qilib oladi. Xalqaro miqyosda ushbu tashkilot Evropa ko‘zi ojizlar uyushmasi hamda Butunjahon ko‘zi ojizlar uyushmasi bilan faol hamkorlik olib boradi. Mazkur jamiyat tomonidan olib boriladigan tadqiqotlarga ko‘ra, hozirda ko‘zi ojizlar soni 150000 kishini, ko‘rish imkoniyati cheklanganlar soni esa 500-600 ming kishini tashkil qiladi[130].

Tashkilot ko‘zi ojizlarni qo‘llab-quvvatlashda quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat olib boradi:

1. Ko‘zi ojiz fuqarolarning siyosiy hayotdagi faoliyatini ta’minlash. Bunda siyosiy bilim berish, partiyalarga a’zoligini ta’minlash, siyosiy jarayonlarda o‘z fikrlari bilan qatnashishiga sharoitlar hozirlash bilan.

2. Ijtimoiy sohada teng huquqli imkoniyatlardan foydalanishlariga ko‘maklashish. Jumladan, atrof-muhit, tabiat ne’matlaridan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi.

3. Ular duch keladigan qiyinchiliklar va ijtimoiy muhtojlikni ta’minlash uchun kompensatsiya to‘lovlarini, ijtimoy nafaqalar ishlab chiqish bilan.

4. Ularga harkatlanish va faol jismoniy harakat uchun zarur bo‘ladigan yordamchi jihozlarni yetkazib berish. Masalan, elektronika vositalari, turli xildagi xassalar, maxsus kiyimlar, ko‘zoynaklar, himoya vositalari va boshq.

5. Zaruriy ta’lim bilan ta’minlash. Barcha turdagi ta’lim darajalariga ega bo‘lishlari uchun sharoit yaratish hamda malaka oshirish kurslari, treninglar, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish[131].

6. Ko‘ngilochar tadbirlar uyushtirish. Ko‘zi ojizlar jamiyati a’zolari orasida do‘stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ularni to‘laqonli teng huquqqli ekanliklarini his qildirishga erishish.

7. Tibbiyot xizmatlari bilan ta’minlash. Sifatli vat eng huquqli tibbiyot xizmatlaridan foydalanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, oftalmolog ko‘riklaridan o‘tkazish, optika sohasi mutaxassislari bilan ularni doimiy hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

8. Biznes faoliyatini yurg‘izish yoki yollanib ishlash uchun sharoitlarni hozirlash, bunda ular uchun zarur bo‘ladigan ehtiyojlarni o‘rganib chiqishni yo‘lga

[130] The voice of blind and partially sighted people in Europe, Germany-article 27.
[131] Thomas Kahlisch, Jürgen Lötzcsh. Services for the Blind and Partially Sighted in Germany

qo‘yish. Ish beruvchilar tomonidan ularni huquqlari ta’minlanishini nazorat qilish, ish joylarida ko‘zi ojizlar uchun alohida yengilliklar yaratish va oylik maoshlaridagi notenglikning oldini olish.

Quyidagi jadvalda Germaniyada ko‘zi ojiz insonlarning qaysi faoliyat turlari bilan bandligi keltirilgan.

1-jadval

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi insonlarning band bo‘lgan faoliyat turlari[132]

Band bo‘lgan faoliyat turi	Foizda
O‘qish mashg‘ulotlari bilan band	9
Yollanib ishlovchilar	28
Ishsizlar	8
Nafaqadagilar	36
Kasallanganlar	7
Uy ishlari bilan band bo‘lganlar	12

Biznes faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan ko‘zi ojiz yoki ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun xususiy sektorda hamda hukumat idoralari tomonidan hech qanday huquqlari buzilish holatlari sodir bo‘lmasligini ta’minlash jamiyatning muhim vazifalaridandir. Mazkur fuqarolarga mavjud imtiyozlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Ko‘zi ojiz fuqaro barcha ommaviy transport turlaridan foydalanishi bepuldir. Ko‘zi ojiz odamga ergashuvchi hayvon masalan kuchuk yoki yordamchi shaxs ham bepul foydalanishi mumkin. Bu imtiyoz shaharlararo transport vositalari uchun ham amal qiladi. Shuningdek, ko‘zi ojiz shaxs nomiga rasmiylashtirilgan avtomobil uchun sug‘urta to‘lovlari hamda avtomobil solig‘idan ozod qilinadi.

Shuningdek, ishlayotgan ko‘zi ojiz shaxslar alohida soliq to‘lovchilar guruhiga mansub bo‘lib, ulardan daromad solig‘i olinmaydi yoki juda kam miqdorda olinadi. Bu holat ko‘zi ojizlik darajasi va ish lavozimiga qarab farqlanadi. Bundan tashqari, ko‘zi ojiz ishchi uchun yil davomida qo‘shimcha 5 kunlik ta’til olish imtiyozi mavjud[133].

Biznes qilishlari uchun ham ko‘pgina imtiyozlar ishlab chiqilgan. Jumladan, biznes faoliyati turiga qarab ko‘pgina soliq imtiyozlari mavjud. Tekin o‘quv mashg‘ulotlari, bepul zaruriy jihozlarga ega bo‘lish, kredti mablag‘laridan foydalanishda imtiyozlar va boshqalar. Shuningdek, ko‘zi ojizlar uchun tijorat maqsadida kreditlar ajratishda tengsizlikka yo‘l qo‘yilmaydi. Ko‘zi ojizlar huquqlari buziladigan har qanday holatda qonuniy va intizomiy chora-tadbirlar belgilangan. Huquq buzilishi holatlarida kompensatsiya to‘lab berish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

[132] Thomas Kahlisch, Jürgen Lötzcsh. Services for the Blind and Partially Sighted in Germany

[133] Klaus Rohrschneider 2016, Blindness in Germany - comparison between retrospective data and predictions for the future. Der Ophthalmologe 109(4):369-76.

Bugungi kunda Hindistonda ko‘zi ojizlar bilan bog‘liq muammolarni hal etish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi belgilab berilgan:

1. Zaruriy moddiy-texnika bazasini shakllantirish. Hindiston iqtisodiyoti dunyodagi eng tez o‘sayotgan iqtisodlardan biri hisoblansa-da, bugungi kunda mamlakatda demografik muammolar talaygina. Dunyoda qashshoqlar soni va boshpanasiz insonlar soni bo‘yicha Hindiston yuqori o‘rinlarda turadi. Bu masala bevosita nogironlar, jumladan ko‘zi ojizlar taqdiriga ham ta’sir qilmay qolmaydi. Hindiston ko‘zi ojizlar himoyasi uchun, ularning to‘laqonli hayot kechirishlari uchun minimum 10-15 mlrd. dollar atrofida mablag‘ zarurligi aytiladi. Mamlakatning ko‘plab qishloqlarida e’tiborsiz qolayotgan ko‘zi ojizlar bir necha mln. kishidan oshadi. Ularda yashash uchun, harakatlanish uchun, hatto, eng zaruriy vositalar yetishmaligi jiddiy muammo hisoblanadi.

Osiyo va Tinch okeani mintaqasi optometristlar tashkiloti tomonidan qilingan tadqiqotlarga ko‘ra, 153 mln.ga yaqin odamda normal ko‘rish va o‘qish uchun zaruriy ko‘zoynaklar yetishmaydi. Shuningdek, tekshirib, ko‘zoynak tavsiya qiladigan optometrist mutaxassislar taqchilligi mavjud[134].

2. Infratuzilmani rivojlantirish masalalari. Ko‘zi ojizlarning to‘laqonli faoliyat kechirishlari uchun dunyo tajribasida ko‘pgina jihatlarga e’tibor beriladi. Infratuzilma va qurilish masalalari shular jumlasidandir. Bunda, asosan, tashqarida harakatlanish uchun imkoniyat yaratish – alohida yo‘laklar maxsus ushlagichlar bilan jihozlanishi, yo‘lak usti bo‘rtib turuvchi qoplamalar bilan qoplanishi, shuningdek, ko‘zi ojiz insonda harakatlanish uchun maxsus xassalar samarali vosita hisoblanadi.

Mazkur masalalar yuzasidan bugungi kunda Hindistonda jiddiy muammolar mavjudligi aniqlangan. Mamlakatning ko‘pgina yirik shaharlarining o‘zida hali bu borada qilinishi lozim bo‘lgan ishlar talaygina. Ammo, qishloqlarda yashaydigan ko‘zi ojizlar uchun bugungi kunda boshqacha yondashuv lozimligi tashabbusi olimlar tomonidan ilgari surilmoqda. Hali sifatli va to‘g‘ri belgilangan ko‘zoynakka ega bo‘lmaslik, tekshirish uchun tibbiyot maskanlari yetishmasligi masalasi turganda, ko‘zi ojizlar uchun alohida maxsus yo‘laklar qurish masalasi qishloq joylarda ikkilamchi o‘ringa tushadi. Biroq, tadqiqotlar orqali mavjud vaziyat uchun optimal yechimlarni topish imkoni doim mavjuddir. Masalan, xassalardan foydalanish, yordamchi itlardan, yordamchi volontyorlardan foydalanish masalalarini ko‘rib chiqish mumkin. Bugungi kunda har qanday kam chiqimli, innovatsion yechim ko‘zi ojizlar uchun foydali bo‘lishi mumkin. Bu ularning uydan tashqarida, ish muhitida erkin harakatlanishida katta ahamiyatga ega.

---

[134] Shiri Azenkot, Kyle Rector, Richard Ladner, and Jacob Wobbrock. 2012. PassChords: Secure Multi-touch Authentication for Blind People. In Proceedings of the 14th International ACM SIGACCESS Conference on Computers and Accessibility (ASSETS '12), 159-166.

3. Ishlash va tadbirkorlik qilish imkoniyatlarini yaratish. Hindistonda ko‘zi ojizlar orasida ishsizlik juda yuqori, aksariyat ko‘zi ojizlar qashshoqlik chizig‘idan pastda turadi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni bir qancha guruhga ajratish mumkin: yollanib ishlash; o‘z-o‘zini band qilish; tadbirkorlik bilan shug‘ullanish.

Yollanib ishlash masalalari doim murakkab hisoblangan. Ish beruvchilar ko‘zi ojizlar uchun sharoitlar yaratishi, ularga bir qancha imtiyozlar berishi talab qilinadi. Shu sabab ish beruvchilarning ko‘zi ojizlarni ishga olishni istamasligi va turli yo‘llar bilan bundan qochishi holatlari ko‘p uchraydi. Jumladan, Hindistonda ko‘zi ojiz holda yollanib ishlayotganlar juda ozchilikni tashkil qiladi. Ularga yaratilgan sharoitlar esa tashkilotlarda turlicha darajada[135].

O‘tkazilgan so‘rovnomada bugungi kunda Hindistonda ko‘zi ojizlar qaysi ishlar bilan bandligi, qaysi sohalarda ko‘proq ishlashi, qanday to‘siqlarga uchrayotganligi haqida ko‘plab fiklar jamlangan. So‘rovnoma quyidagicha: “Hindistonda qaysi sohalarda ko‘zi ojizlar ish faoliyati olib borishadi?” mavzusida o‘tkazilgan so‘rovnomaga muvofiq bildirilgan fikr-mulohazalar va taklif-tavsiyalar ko‘zi ojiz insonlarga bo‘lgan munosabat, ularning salohiyatlaridan foydalanish yuzasidan xulosalar chiqarishda e’tiborga molikdir.

A.Vasishtha va E.Chutrell olib borga tadqiqot natijalariga ko‘ra, bugungi kunda bir qancha sohalarda ko‘zi ojizlar uchun ko‘proq imkoniyatlar mavjud. Hindiston mehnat bozorida ushbu yo‘nalishlarda ko‘zi ojizlar ish faoliyati bilan shug‘ullanishlari nisbatan ko‘proq kuzatiladi:

1. Texnik va muloqot operatorlari. Ular telefon muloqoti orqali mijozlar bilan muloqot qilishadi, kerakli ma’lumotni taqdim qilishadi.

2. Moliyaviy hisobotchilar va buxgalterlar. Bu kasbda ko‘zi ojizlar doimiy ravishda ishlamay, balki, hisobot davridagina ishlashlari mumkin bo‘ladi. Ma’lum hisobot shakllarini tez va oson o‘rganish mumkin bo‘ladi.

3. O‘qituvchilik kasbi. Bugungi kunda ko‘plab ko‘zi ojiz yetakchi mutaxassislar o‘qituvchilik bilan shug‘ullanishlari mumkin. Bu, ayniqsa, tajribali kasb egalari uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi mavjud audioresurslar, moddiy-texnik resurslar yuqori malaka oshirish imkonini bermoqda. Natijada, boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’limda faoliyat yuritish imkoniyatlari ortadi.

4. Tarjimonlar va tilshunoslar, jurnalistlar. Ma’lum sohada tajribaga ega mutaxassislar tarjimonlik yoki jurnalistik faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin. Mazkur sohalarni har bir shaxs qiziqishlari, qobiliyatlari asosida tanlashi hamda qo‘shimcha malaka oshirish evaziga amalga oshirish mumkin[136].

---

[135] A.Vashistha, E.Cutrell, N.Dell, R: Anderson. Social Media Platforms for Low-Income Blind People in India. ASSETS '15: Proceedings of the 17th International ACM SIGACCESS Conference on Computers & Accessibility October 2015. Pages 259-272.

[136] A.Vashistha, E.Cutrell, N.Dell, R: Anderson. Social Media Platforms for Low-Income Blind People in India. ASSETS '15: Proceedings of the 17th International ACM SIGACCESS Conference on Computers &

5. Tadbirkorlik faoliyati. Ko‘zi ojizlar uchun biznes qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Yosh tashabbuskorlar butunjahon forumi har yili dunyoning turli davlatlarida konferensiyalar, ilmiy majlislar va hamkorlik yig‘ilishlari tashkil qilib keladi. Hindistonlik tadqiqotchilar ham ushbu forumda faol ishtirok etmoqda. Forum ishtirokchilari ko‘zi ojizlar orasida, jumladan, yoshlar va yoshi kattalar, ayollar jamoalarining tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari bo‘yicha ko‘plab loyihalarni taqdim qilib kelishmoqda. Hindiston Standart Chartered Banki tomonidan, Milliy ko‘zi ojizlar tashkiloti bilan hamkorlikda, ko‘zi ojilar, jumladan, ko‘zi ojiz ayollar uchun yangi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash loyihasini boshlagan. Bugungi kunda mingga yaqin ko‘zi ojizlar va nogironlar treninglarda ishtirok etishdi. Ular orasida tadbirkorlikni boshlaganlar bor. Oshxona, umumiy ovqatanish joylari, qo‘l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik, sovun va boshqa kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari samarali amalga oshirildi. Loyihaning muhim jihatlaridan biri, uning qishloq joylaridagi ko‘zi ojizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligidir[137].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vision Helath Initiative (VHI). Ko‘rish qobiliyatini sog‘lomlashtirish tashabbusi loyihasi ma’lumotlari, 2018-2020.

2. Bell, E.C. (2020). Competitive employment for consumers who are legally blind: A 10-year retrospective study. Journal of Rehabilitation Research & Development, 47(2), 109-116.

3. Bates-Harris, C. (2017). Segregated and exploited: The failure of the disability service system to provide quality work. Journal of Vocational Rehabilitation, 36(1), 39-64.

4. Bell, E.C., & Mino, N. M. (2015). Blind and visually impaired adult rehabilitation and employment survey: Final results. Journal of Blindness Innovation and Research, 3(1).

5. Edward C. Bell, and Arielle M. Silverman. Rehabilitation and Employment Outcomes for Adults Who Are Blind or Visually Impaired: An Updated Report Journal of Blindness Innovation and Research, Volume 8, No1, 2018.

6. Bell, E.C. (2017). Competitive employment for consumers who are legally blind: A 10-year retrospective study. Journal of Rehabilitation Research & Development, 47(2), 109-116.

AccessibilityOctober 2015 Pages 259-272.

[137]S. Sai Santhosh ; T. Sasiprabha ; R. Jeberson BLI - NAV embedded navigation system for blind people. Recent Advances in Space Technology Services and Climate Change 2010 (RSTS & CC-2010)

GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Murtazaev Orif Odilovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
“MBA – Global menejment” mutaxassisligi tinglovchisi
E-mail: orif.murtazayev@imv.uz

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqola zamonaviy global biznes muhitida innovatsiyalarning o‘rni, ahamiyati va xususiyatlarini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda innovatsiyalarning asosiy turlari, ularning evolyutsiyasi, global muvaffaqiyatga ta’sir etuvchi omillar va kelajakdagi tendensiyalar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy global raqobat sharoitida innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki kompaniyalarning yashab qolishi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati uni qo‘llab-quvvatlovchi tashkiliy madaniyat, qonunchilik bazasi va resurslar bilan chambarchas bog‘liq. Maqolada turli sanoat tarmoqlari va geografik mintaqalardan olingan amaliy misollar orqali global innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *global innovatsiyalar, biznes strategiyasi, raqobatbardoshlik, texnologik progress, innovatsion madaniyat, barqaror innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, innovatsion ekotizim.*

Abstract. *This scientific article is devoted to a comprehensive study of the role, importance and characteristics of innovations in the modern global business environment. The study provides an in-depth analysis of the main types of innovations, their evolution, factors influencing global success and future trends. The results of the study show that in the conditions of modern global competition, innovations are of strategic importance not only for economic growth, but also for the survival of companies. The success of innovative activity is closely related to the organizational culture, legislative framework and resources supporting it. The article reveals the specific features of global innovations through practical examples from various industries and geographical regions.*

Key words: *global innovations, business strategy, competitiveness, technological progress, innovative culture, sustainable innovations, digital transformation, innovative ecosystem.*

Аннотация. *Данная научная статья посвящена комплексному исследованию роли, значения и особенностей инноваций в современной глобальной бизнес-среде. В исследовании представлен глубокий анализ основных типов инноваций, их эволюции, факторов, влияющих на глобальный успех, и будущих тенденций. Результаты исследования показывают, что в условиях современной глобальной конкуренции инновации имеют стратегическое значение не только для экономического роста, но и для выживания компаний. Успех инновационной деятельности тесно связан с организационной культурой, законодательной базой и ресурсами, ее поддерживающими. В статье раскрываются особенности глобальных инноваций на практических примерах из различных отраслей и географических регионов.*

Ключевые слова: *глобальные инновации, бизнес-стратегия, конкурентоспособность, технологический прогресс, инновационная культура, устойчивые инновации, цифровая трансформация, инновационная экосистема.*

Kirish

Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning asosiy omili, balki korxonalarning global raqobatda yashab qolishi va muvaffaqiyat qozonishining hal qiluvchi shartiga aylangan. So‘nggi o‘n

yilliklarda dunyo iqtisodiyotining globallashuvi, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi va pandemiya kabi global inqirozlar innovatsion faoliyatning ahamiyatini keskin oshirdi. Bugungi kunda muvaffaqiyatli biznes strategiyasini innovatsiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Global raqobat sharoitida innovatsiyalar korxonalarga nafaqat bozordagi o‘rnini mustahkamlash, balki yangi bozorlar yaratish, iste’molchilar ehtiyojlarini qondirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi. Dunyoning yetakchi kompaniyalari o‘zlarining uzoq muddatli muvaffaqiyatini izchil innovatsion strategiyalar orqali ta‘minlamoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar korxonalar va davlatlar uchun raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlari samarali tashkil qilinib, iqtisodiy o‘sish sur’atlari jadallashadi. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, innovatsiyalarni joriy etish, milliy korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsion faoliyatni rivojlantirish insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylanmoqda.

O‘zbekiston tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyildagi “2022 - 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-165-son farmonida iqtisodiyotning real sektorida ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasini oshirish, ilm-fan, ta’lim va sanoat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11- sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston 2030-yilga qadar Global innovatsiya indeksida Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishi belgilangan [1, 2].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot sifat va miqdoriy usullarning kombinatsiyasidan foydalangan holda amalga oshirildi. Ma’lumotlarni yig‘ish ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda global biznesdagi innovatsiya tendensiyalari va turlarini o‘rganish uchun ikkilamchi ma’lumotlar tahlili qilindi. Bunda ilmiy jurnallar, sanoat hisobotlari, kompaniya hujjatlari va statistik ma’lumotlar manba sifatida xizmat qildi.

Ikkinchi bosqichda innovatsion faoliyatning samaradorligi va xususiyatlarini aniqlash uchun global kompaniyalarning holatlarini o‘rganish amalga oshirildi. Tahlil usullari sifatida kontent tahlil, korrelyatsion tahlil va komparativ tahlildan

foydalanildi. Innovatsiyalar tasnifi uchun o‘zgartirilgan Oslo qo‘llanmasining tavsiflovchi klassifikatori qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

Global innovatsiya indeksining joriy yilgi reytingida O‘zbekiston 133 ta davlat orasida 83-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston innovatsiyalar sohasida milliy iqtisodiy rivojlanish darajasiga solishtirganda baland ko‘rsatkichga erishgan mamlakatlar qatoridan joy oldi, ya’ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan innovatsiyalarning yuqori samaradorligi qayd etildi. Indeksda mamlakatlar 4 ta daromad guruhiga bo‘lingan (yuqori daromad, yuqori-o‘rta daromad, quyi-o‘rta daromad va past daromad), O‘zbekiston o‘z guruhida (quyi-o‘rta daromad) 38 ta davlat ichida 10-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston mintaqalar bo‘yicha innovatsion iqtisodiyotlar tasnifida 10 ta Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida 4-o‘rinni egalladi.

Reytingning 2024-yilgi hisobotida O‘zbekiston Innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar (*innovation input*) subindeksida o‘tgan yilga nisbatan 1 pog‘onaga o‘sib 71-o‘rinni egalladi va Innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar (*innovation output*) subindeksida 91-o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston shuningdek reytingda Infratuzilma (+3), Biznesni rivojlantirish (+7) yo‘nalishlarida o‘z o‘rnini o‘tgan yilga nisbatan yaxshiladi.

Indeks 78 ta tarkibiy indikatordan tashkil topgan bo‘lib, joriy yilda ulardan 40 tasi o‘tgan yilga nisbatan yaxshilangan, 13 tasi o‘zgarmagan, 23 tasi pasaygan va 2 tasi ma’lumot mavjud emasligi uchun o‘rni aniqlanmagan. O‘zbekiston Tadbirkorlik siyosati va madaniyati (4-o‘rin), Yalpi jamg‘arilish (7-o‘rin), Mehnat unumdorligining o‘sishi (7-o‘rin), Ilm-fan va muhandislik sohasida bitiruvchilar (12-o‘rin), Kelib chiqishi bo‘yicha foydali modellar (14-o‘rin), Startap va skaylaplarni moliyalashtirish (19-o‘rin), Biznes yuritishni qo‘llab-quvvatlash siyosatining barqarorligi (20-o‘rin) indikatorlari bo‘yicha yuqori natijalarga erishdi.

Mazkur hisobotda tarkibiy indikatorlar kesimida avvalgi yillarga nisbatan eng yaxshi natijalar qayd etilib indeksda mamlakatimiz ko‘rsatkichlarini yaxshilashda asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib kelayotgan ma’lumoti qamrab olinmagan indikatorlar soni keskin kamayishiga erishildi. Joriy yilda tarkibiy indikatorlarning qamrov darajasi 97.4 foizga yetkazildi (*2015-yil 62.5 foiz, 2022-yil 81.4 foiz va 2023-yil 87.5 foiz*).

Jumladan, mamlakatimiz tarixida ilk bor xalqaro mustaqil institut Global tadbirkorlik tadqiqot assotsiatsiyasi tomonidan O‘zbekistonda tadbirkorlik siyosati va madaniyati holati 40 dan ortiq mustaqil ekspertlar ishtirokida o‘tkazilgan Global tadbirkorlik monitori so‘rovnomasi orqali aniqlandi va dunyodagi 133 ta davlatlar orasida yuqori 4-o‘ringa baholandi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakat rahbariyati tomonidan O‘zbekistonni 2030-yilga qadar reytingda dunyoning yuqori 50 ta mamlakatlar

qatoriga kirishi bo‘yicha belgilangan maqsadga erishish uchun mustahkam poydevor yaratildi [2].

Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsiyalarning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanishi mumkin:


1. Raqobatning kuchayishi: globallashuv va raqamlashtirish raqobatni keskin darajada oshirdi, bunda innovatsiyalar kompaniyalarga farqlanish imkoniyatini beradi.

2. Texnologik taraqqiyotning jadalligi: AI, IoT, blokcheyn kabi texnologiyalarning tez rivojlanishi innovatsion imkoniyatlarni keskin kengaytirmoqda.

3. Barqarorlik talablari: iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit muammolari barqaror innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda.

4. Iste’molchi xatti-harakatlarining o‘zgarishi: yangi avlod iste’molchilari yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarga bo‘lgan talabni oshirmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra global biznesda innovatsiyalarning quyidagi asosiy turlari ajratib ko‘rsatishimiz lozim bo‘ladi:



1-rasm. Global biznes innovatsiyalarining asosiy turlari[138]

1. **Mahsulot innovatsiyalari** - yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish yoki mavjud mahsulotlarni sezilarli darajada takomillashtirish. Bunga misol qilib, Apple iPhone, Tesla elektromobillari va Netflix striming xizmatlarini keltirish mumkin.

2. **Jarayon innovatsiyalari** - ishlab chiqarish, yetkazib berish yoki xizmat ko‘rsatish usullarini yaxshilash. Amazonning logistika tizimi, Toyota ishlab chiqarish tizimi va Dell to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish modeli buning yaqqol misollaridir.

3. **Biznes modeli innovatsiyalari** - kompaniyaning qimmat yaratish, yetkazib berish va undan foyda olish usullarini o‘zgartirish. Airbnb, Uber va Spotify kabi

[138] Muallif ishlanmasi.

kompaniyalar o‘zlarining innovatsion biznes modellari bilan butun sanoat sjhasini transformatsiya qildi.

4. **Tashkiliy innovatsiyalar** - kompaniya tuzilishi, boshqaruv usullari va korporativ madaniyatni qayta shakllantirish. Googlening 20 % qoidasi (xodimlarning ish vaqtini 20 foizini o‘z loyihalariga bag‘ishlashlari) va Haierning platforma tashkiloti buning misollaridir.

Tadqiqot jarayonida global muvaffaqiyatga erishgan innovatsiyalarning quyidagi asosiy xususiyatlari aniqlandi:

1. Qo‘shimcha qiymat yaratish - muvaffaqiyatli innovatsiyalar mijozlar, hamkorlar yoki jamiyat uchun sezilarli qo‘shimcha qiymat yaratadi. Bu iqtisodiy, funktsional, emotsional yoki ijtimoiy qiymat shaklida bo‘lishi mumkin.

2. Bozor ehtiyojlariga moslik - innovatsiyalar haqiqiy bozor ehtiyojlariga javob beradi yoki yangi ehtiyojlarni shakllantiradi. Global darajada bu turli mintaqaviy bozorlarning o‘ziga xos talablarini hisobga olishni talab qiladi.

3. Texnologik integratsiya - zamonaviy innovatsiyalar ko‘pincha bir nechta texnologiyalarning sinergik integratsiyasiga asoslanadi. Xususan, AI, IoT, blokcheyn va katta ma‘lumotlar bazasini tahlil qilish kabi texnologiyalar innovatsion yechimlarning asosiy tarkibiy qismlaridir.

4. Moslashuvchanlik va masshtablanuvchanlik - Global innovatsiyalar turli bozor sharoitlarida moslashish va tez masshtablanuvchanlik qobiliyatiga ega. Bu xususiyat innovatsiyalarning global tarqalishini ta’minlaydi.

5. Barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat – so‘nggi yillarda barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat muvaffaqiyatli innovatsiyalarning muhim xususiyatiga aylandi. Atrof-muhitga zararsiz, energiya samarador va ijtimoiy adolatni hisobga olgan innovatsiyalar tobora ko‘proq qadrlanmoqda [3,4,5].

Tadqiqot natijalari global biznesda innovatsiyalarning tobora murakkablashayotgan tabiatini va ularning ko‘p qirrali xususiyatlarini ochib berdi. Innovatsiyalarning an’anaviy tasnifi (mahsulot va jarayon innovatsiyalari) endi zamonaviy biznes realligini to‘liq aks ettirmaydi, chunki biznes modeli va tashkiliy innovatsiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Global bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsiyalar turli mintaqaviy va madaniy kontekstlarda moslashuvchan bo‘lishi kerak. Buning yorqin misoli sifatida “McDonald’s” ni keltirish mumkin, u mahsulot assortimentini mahalliy ta’mlarga moslashtirish orqali global muvaffaqiyatga erishdi. Xuddi shunday, “Samsung” mahsulotlarini turli bozorlarning narx va sifat talablariga moslashtirish orqali global raqobatbardoshligini saqlab qoldi [6].

Texnologik integratsiyaning ahamiyati pandemiya davrida yanada kuchaydi, chunki raqamli transformatsiya ko‘plab kompaniyalar uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq, texnologik imkoniyatlar bilan inson omili o‘rtasidagi muvozanatni

saqlash muhimligi aniqlandi. Garchi AI va avtomatlashtirish samaradorlikni oshirsada, inson ijodkorligi, strategik fikrlash va hissiy intellekt hali ham innovatsion jarayonlarning markazida qolmoqda. Barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatning o'sib borayotgan ahamiyati global biznesda innovatsiyalarning yangi yo'nalishlarini belgilamoqda. Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan mahsulotlar, aylanma iqtisodiyot modellari va ijtimoiy adolatni hisobga olgan biznes amaliyotlari nafaqat etik talab, balki biznes muvaffaqiyati uchun ham muhim omilga aylandi.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, global biznesda innovatsiyalar murakkab, ko'p qirrali va doimiy rivojlanuvchi hodisadir. Muvaffaqiyatli innovatsiyalar qo'shimcha qiymat yaratish, bozor ehtiyojlariga moslik, texnologik integratsiya, moslashuvchanlik va barqarorlik kabi asosiy xususiyatlarga ega. Global darajada innovatsiyalar turli mintaqaviy, madaniy va iqtisodiy sharoitlarda samarali ishlashi uchun moslashuvchan va masshtablanuvchan bo'lishi kerak.

Kelajakda global biznesda innovatsiyalar yanada kollaborativ, amaliy va barqaror bo'lishi kutilmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi, ayniqsa AI, kvant hisoblash va biotexnologiyalardagi yutuqlar innovatsiyalarning tabiatini tubdan o'zgartirishi mumkin. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi, demografik vaziyatlar va geosiyosiy o'zgarishlar kabi global muammolar innovatsiyalarning yangi yo'nalishlarini belgilamoqda.

O'zbekiston korxonalari global biznes muhitida barqaror rivojlanishni taminlash hamda ma'lum raqobatbardoshlikka erishish uchun quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz:

a) milliy korxonalar innovatsion faoliyatni turli xil bozorlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda diversifikatsiya qilishlari kerak;

b) innovatsion madaniyatni shakllantirish va rag'batlantirish nafaqat marketing va strategik rivojlantirish bo'limlari, balki butun korxona bo'ylab amalga oshirilishi maqsadga muvofiq;

c) texnologik imkoniyatlar bilan inson kapitalini rivojlantirish o'rtasida muvozanatni saqlash muhimdir;

d) barqarorlik va korporativ ijtimoiy mas'uliyat korxona innovatsion strategiyasining ajralmas qismiga aylantirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyildagi "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-165-son farmoni. https://lex.uz/docs/-6102462

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/en/docs/-6600413?ONDATE=12.09.2023%2000

3. Chesbrough, H. (2003). Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press.

4. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row.

5. Christensen, C. M. (1997). The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail. Harvard Business Review Press.

6. Tidd, J., & Bessant, J. (2018). Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. Wiley.

SANOAT KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI

Ismatulloyeva Madinabonu Fozil qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
E-mail: madinabonuismatulloyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish muammolariga bag‘ishlangan. Maqsad barqaror rivojlanishning nazariy asoslarini o‘rganish, xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish, shuningdek, sanoat korxonalarining barqarorligini ta’minlovchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda barqaror rivojlanishning uch ustunli modeli (iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy) asos qilib olingan. Maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barqaror sanoatlashtirish bo‘yicha islohotlar, jumladan, “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish, energiya samaradorligi rivoji yoritilgan. Raqamli transformatsiya, “yashil” texnologiyalar, innovatsiyalar va barqaror moliyaning barqaror rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *barqaror rivojlanish, sanoat korxonalari, “yashil” iqtisodiyot, ESG tamoyillari, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat, energiya samaradorligi, innovatsiyalar.*

Аннотация. *Данная статья посвящена проблемам устойчивого развития промышленных предприятий Республики Узбекистан. Цель - изучение теоретических основ устойчивого развития, анализ зарубежного и отечественного опыта, а также выявление факторов, обеспечивающих устойчивость промышленных предприятий. В исследовании использована трехкомпонентная модель устойчивого развития (экономическая, экологическая, социальная). В статье освещены реформы по обеспечению устойчивой индустриализации в Узбекистане, в том числе переход к "зеленой" экономике, развитие энергоэффективности. Проанализированы роль цифровой трансформации, "зеленых" технологий, инноваций и устойчивого финансирования в устойчивом развитии.*

Ключевые слова: *устойчивое развитие, промышленные предприятия, "зеленая" экономика, принципы ESG, экологическая устойчивость, социальная ответственность, энергоэффективность, инновации.*

Abstract. *This article is devoted to the problems of sustainable development of industrial enterprises of the Republic of Uzbekistan. The aim is to study the theoretical foundations of sustainable development, analyze foreign and local experiences, as well as identify factors ensuring the sustainability of industrial enterprises. The research is based on a three-pillar model of sustainable development (economic, environmental, social). The article covers the reforms on sustainable industrialization being implemented in Uzbekistan, including the transition to a*

"Green" economy, the development of energy efficiency. The role of digital transformation, "green" technologies, innovations and sustainable finance in sustainable development is analyzed.
Key words: *sustainable development, industrial enterprises, "green" economy, ESG principles, environmental sustainability, social responsibility, energy efficiency, innovations*

Kirish

Bugungi kunda sanoat sohasi O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda sanoatlashtirish jarayoni chuqurlashib borar ekan, korxonalar oldida nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat, resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalar ham kun tartibiga chiqmoqda. Aynan shu omillar sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini rag‘batlantirish borasida muhim institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan klaster tizimining kengaytirilishi barqarorlik konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonlar korxonalar faoliyatini kompleks baholash, ularning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini aniqlash va strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Barqaror rivojlanish – bu nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolatni ham qamrab olgan ko‘p yo‘nalishli tushunchadir. Xalqaro tajriba va milliy rivojlanish strategiyalari asosida sanoat korxonalarining barqarorlik darajasini aniqlash uchun ko‘plab indikatorlar, mezonlar va modellardan foydalaniladi. Shunga qaramay, O‘zbekiston sharoitiga mos, tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi baholash metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan sanoat sohasi so‘nggi yillarda barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 2023-yilga nisbatan 5,6% ga oshgan. Xususan, qayta ishlash sanoatida 7,2% o‘sish kuzatilgan, bu esa sanoat tarmog‘ining modernizatsiya va diversifikatsiya yo‘nalishida rivojlanayotganligini ko‘rsatadi [1].

Iqtisodiyotni barqarorlikda rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishning bozor iqtisodiyoti qonunlariga mas ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy

strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Bugungi kunda mamlakatimizda korxonalarni barqaror rivojlantirish eng muhim va dolzarb muammolardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy kategoriya sifatida “korxonalarni barqaror rivojlantirish” tushunchasi, ko‘plab hollarda “bararor iqtisodiy rivojlanish”, “iqtisodiy barqarorlik”, “iqtisodiy o‘sish” deb tushunish mumkin bo‘ladi. Xorijiy adabiyotlarda, barqaror korxona sifatida, daromadning me’yoriy darajasiga erishgan yoki bozordagi foydaning kata qismiga ega chiqishni o‘ziga ta’minlay oladigan korxona sifatida namoyon bo‘ladi.

Barqaror rivojlanish iqtisodiy tizimning aniq bir obyekti bilan bog‘liq bo‘lib, shunga mos ravishda makro-, mezo-, va mikro- darajalarda tadqiq qilish mumkin. Barqaror rivojlanishning mohiyatini tushunish-bu uni ishonchli baholash va ilmiy boshqaruvning asosini tegishli darajadaligini o‘zida namoyon etadi. Barqaror rivojlanish tushunchasi iqtisodiy, ishtimoiy, ekologik, va siyosiy omilllarga bog‘liq bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni tadqiq qilishni talab qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda barqaror rivojlanishning ko‘plab ta’riflari keltirilgan. Xususan K.R.Grishagovning fikriga ko‘ra “barqarorlik” - bu korxonalarning turli o‘ziga xos jihatlarini hisobga olishi kerak bo‘lgan keng qamrovli kompleks kategoriyadir. Barqarorlik bu - tizimning o‘zgaruvchan muhit ta’siri ostida o‘ziga xoc xususiyatlarini, sifatini saqlab qolish qobiliyatidir [2]. Lekin ma’lum bir tushunchalarni ajratib olish lozim. Bular “Korxonaning barqarorligi” va “Sanoat korxonasining barkaror rivojlanishi” tushunchalaridir. Shu bilan birga, sanoat korxonasining barqarorligi bu korxonaning statsionar ya’ni o‘zgarmas holatida biznes jarayonlarining yuqori sifatli va samarali ko‘rsatkichlari bilan ajralib turishiga aytiladi. Shuningdek korxona har doim o‘zgaruvchan tashqi muhitning ta’siri natijasida ushbu ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

O.L. Kuznetsov esa barqaror rivojlanish-bu hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirishning uzluksiz jarayonidir. Barqaror rivojlanish ikkita yo‘nalishdagi tushunchalarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, zarur ehtiyojlar va imkoniyatlarni saqlash va rivojlantirish zaruriyati, ikkinchidan, kompaniyaning texnologik holatini qondirishda cheklangan ehtiyojlarni qondirish zarurati, deya ta’riflaydi [3].

Chukurna O. va Tkachuk O. sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish salohiyatini baholash uchun metodik asoslarni shakllantirishni taklif etib, barqarorlikni innovatsiyalar bilan bog‘laydi. Bu yondashuv korxonalar faoliyatida resurs samaradorligini oshirishga qaratilgan [4].

Mahalliy adabiyotlarda, xususan O‘zbekiston misolida, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik, to‘qimachilik va turizm kabi sektorlarga keng urg‘u berib o‘rganilgan, jumladan: Ismoilov A. va Xudoyberganov D. korxonalar moliyaviy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning nazariy va metodik

asoslarini tahlil qilib, O‘zbekiston sanoat korxonalarida iqtisodiy chidamlilikni baholash modellarini taklif qilgan [5].

Quyida barqaror rivojlanish tushunchasiga xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta’riflar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Barqaror rivojlanish tushunchasiga berilgan ta’riflar[139]

t/r	Muallif/ Tashkilot	Yil	Ta’rif	Asosiy jihatlar	Manba
1.	Brundtland Hisoboti (BMT)	1987	Barqaror rivojlanish – bu kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini yo‘qotmasdan, bugungi avlodning ehtiyojlarini qondirish imkonini beruvchi rivojlanish	Uch ustun (iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy); avlodlar o‘rtasidagi adolat	Brundtland, G. H. (1987). *Our Common Future*. United Nations.
2.	Elkington J.	1997	Barqaror rivojlanish iqtisodiy samaradorlik, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy adolatni muvozanatlashtirish orqali umumiy qiymat yaratishga asoslanadi	Iqtisodiy foyda, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy farovonlik	Elkington, J. (1997). *Cannibals with Forks*. Capstone Publishing.
3.	Porter, M.E. & Kramer, M. R.	2011	Barqaror rivojlanish korxonalar tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy qiymatni birgalikda yaratish orqali jamiyat uchun uzoq muddatli foyda keltiradi	Umumiy qiymat yaratish, korporativ ijtimoiy mas’uliyat	Porter, M.E., & Kramer, M.R. (2011). *Harvard Business Review*.
4.	BMT	2015	Barqaror rivojlanish – iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy inklyuzivlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni muvozanatlashtirgan holda insoniyat farovonligini oshirishga qaratilgan rivojlanish	17 ta Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM), global hamkorlik	United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda*.
5.	Friede, G., Busch, T., & Bassen, A.	2015	Barqaror rivojlanish ESG tamoyillari orqali moliyaviy va no-moliyaviy ko‘rsatkichlarni birlashtirib, uzoq muddatli iqtisodiy foydani ta’minlaydi	ESG integratsiyasi, moliyaviy samaradorlik	Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). *Journal of Sustainable Finance & Investment*.

[139] Adabiyotlarni o‘rganish natijasida muallif tomonidan umumlashtirildi.

6.	Kim O. va Safarov B.	2019	Barqaror rivojlanish O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil texnologiyalar va ijtimoiy mas’uliyat orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi	“Yashil” iqtisodiyot, ijtimoiy mas’uliyat, to‘qimachilik tarmog‘i	Kim O. va Safarov B. (2019). *O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*.
7.	Yakubov M.	2022	Barqaror rivojlanish sanoat zonalarida aylanma iqtisodiyot tamoyillari orqali resurslardan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni ta’minlaydi	Aylanma iqtisodiyot, sanoat zonalari, ekologik barqarorlik	Yakubov M. (2022). *Iqtisodiy rivojlanish jurnali*.
8.	Safarov B. va Murodov S.	2023	Barqaror rivojlanish O‘zbekiston sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga asoslanadi	Iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik	Safarov B. va Murodov S. (2023). *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*.

Fikrimizcha, barqaror rivojlanish bu − ishlab chiqarish jarayonining samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydigan ichki va tashqi omillarga moslashuvchan bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik foyda keltiruvchi holatdir. Sababi omillarning ta’siriga to‘g‘ri munosabat bildira oladigan korxonalar doimiy ravishda barqaror holatda o‘z faoliyatini olib borishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy, uslubiy va empirik tahlillarga asoslangan bo‘lib, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini baholashning keng ko‘lamli yondashuvlarini qamrab oladi. Metodologiya xorijiy va mahalliy tajribalarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, barqaror rivojlanishning uch ustuni (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) ESG tamoyillarini integratsiya qiladi.

Tahlil va natijalar

Barqaror iqtisodiy rivojlanish barqaror oqtisodiy o‘sishni o‘zida namoyon etishdir. Barqaror iqtisodiy rivojlonish bu uzoq vaqt davomida korxonadagi iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, ijtimoiy hamda ekalogik vaziyatni tashkil etuvchi tizimdagi elementlarning ijobiy o‘sishi va muvozanatni o‘zaro ta’siri natijasida ketma-ketlikda yaxshilanishidir.

Sanoat karxanolarining barqaror rivojlanishi mohsulotlarni ishlab chiqarishning o‘sishi, iqtisodiy va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish, barqaror hamda muvozanatli ekologik vaziyatni hisobga olish bilan uzviy bog‘liqdir. Faqatgina iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va ekologik

xususiyatlarning muvozanati bilan sanoat korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Korxonalarning barqaror rivojlanishi ta’minlashda raqamli texnalogiyalar ahamiyatli o‘rin o‘ynaydi. Internet ma’lumotlari (IoT), sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlarni tahlil qilish kabi raqamli texnologiyalar resurslarni rivojlantirish, atrof-muhit ta’sirini nazorat qilish va boshqa qo‘llanmalarni ta’minlashda ishlatilmoqda. Aqlli energiya tarmoqlaridan resurslarni birgalikda ishlash uchun raqamli platformalarga qadar, raqamli inqiroz atrof-muhit muammolari bilan qanday mukhlislik bilan kurashishimizni o‘zgartiradi.

“Yashil” texnologiyalar: korxonalarning qayta tiklanuvchi energiya, energiyani saqlash, “yashil” transport va ekologik materiallar sohasidagi innovatsiyalar va atrof-muhit ta’sirlarini minimallashtirish orqali barqaror rivojlanishga erishmoqda. Korxonalar “yashil” tadbirlar, masalan, barqaror tam’inot, qayta ishlash va atrof-muhitni ifloslanishini kamaytirish chora-tadbirlari, mijozlar tomonidan atrof-muhitga ehtiyoj ko‘rsatilgan mahsulotlar va xizmatlar bilan moslashtirish uchun qabul qilmoqda.

Korxonalarning barqaror rivojlanishi uchun innovatsiyalar: innovatsiya kompleks barqarorlik muammolariga javob berishda muhim ahamiyatga ega. Bu barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadigan yangi texnologiyalar, biznes modellari va usullar rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Tejamkor energiya, barqaror qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy islohot sohasidagi innovatsiyalar boshqa muhim yechimlariga olib kelmoqda.

Barqaror moliya va investitsiyalar: moliya sohasi barqarorlikning ahamiyatini osonlashtirayotgan. Barqaror moliya va ta’sirning oshishini boshqarish kapitalni atrof-muhit va ijtimoiy mas’uliyatli loyihalarga yo‘nlashish bilan olib kelmoqda. Yashil obligatsiyalar va barqarorlik hisobotlash kabi barqaror moliya chara-tadbirlari barqaror rivojlanish uchun fondlarni jamlash, yashil infratuzilmasini loyihalashni va mas’ul biznes praktikalarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Hamkorliklar: barqarorlik muammolari bilan kurashish uchun doimiy hamkorlik talab etadi, shuningdek, hukumat, korxona, jamoat tashkilotlari va keng aholi qatlami birligi zarur bo‘ladi. Hamkorliklar resurslarni, ta’sirni va samaradorlikni oshirish uchun kuchli vositadir. Hamkorlikni bajarish yo‘lida mavjud muammolar, shu jumladan, iqlim o‘zgarishi, ijtimoiy barqarorlik, jamoaviy mas’uliyat va jamoaviy harakatlar orqali hal etilmoqda.

Nazariy jihatdan qaraganda, korxonalarning barqaror rivojlanishi uchta asosiy omilga bog‘liq bo‘lib, ular iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy omil korxonalarning samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni ta’minlash bilan bog‘liq. Ekologik omil esa korxonalarning ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga bo‘lgan ta'sirini kamaytirish, chiqindilarni

kamaytirish, energiya va resurslardan samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy omil esa korxonalarning o‘z xodimlari va kengroq jamoatchilik oldidagi mas’uliyatini anglatadi, ya’ni xavfsiz ish sharoitlarini ta’minlash, mahalliy jamoalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish va ijtimoiy tenglikni saqlash muhim hisoblanadi.

Barqaror rivojlanishning konseptual asoslari iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashni nazarda tutadi. Korxonalar o‘z faoliyatida ekologik standartlarga rioya qilish va resurslardan oqilona foydalanish orqali nafaqat atrof-muhitni asrab-avaylaydi, balki uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka ham erishadi. Bu jarayonda barqaror biznes modellarini yaratish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda korxonalar ichki va tashqi muhit omillarini hisobga olishi lozim. Ichki omillar qatoriga korxona resurslari, menejment sifati, innovatsion imkoniyatlar va inson kapitali kiradi. Tashqi omillar esa iqtisodiy sharoitlar, raqobat muhiti, davlat siyosati va ekologik qonun-qoidalardir. Shunday qilib, korxonalarning barqaror rivojlanishi tashqi va ichki muhitning o‘zaro ta’siri orqali ta’minlanadi.

Barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun korxonalar zamonaviy boshqaruv tizimlarini, shu jumladan ekologik menejment va energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni joriy qilishi zarur. Bu nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi, balki xarajatlarni kamaytiradi va korxonaning bozor raqobatbardoshligini oshiradi.

Xulosa va takliflar

Umuman olganda, raqamli, yashil va innovatsiya iqtisodiyotlarining bir-biriga to‘g‘ri kelishuvi yangi barqaror rivojlanishning yangi tendensiyalarini shakllantirodi. Raqamli texnalogiyalar, yashil texnalogiyalar, innavatsiya, aylanma iqtisodiyot tamoyillari, barqaror moliya va hamkorliklar yana barqaror hamda inkluziv mustaqil kelajakka yo‘l ochadi. Bu tendensiyalarni qabul qilish, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy barqaror holatni ta’minlashga olib keladi.

Barqaror rivojlanish nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolatni qamrab olgan ko‘p qirrali tushuncha sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, korxonalarning barqaror rivojlanishi uchta asosiy omil – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy komponentlarning muvozanatli uyg‘unlashuviga bog‘liq. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va klaster tizimini rivojlantirish kabi islohotlar barqaror rivojlanishning amaliy ifodasidir. Raqamli texnologiyalar, yashil texnologiyalar, innovatsiyalar va barqaror moliya barqaror rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari sifatida ajralib turmoqda. Korxonalarning barqaror rivojlanishini

ta’minlash uchun O‘zbekiston sharoitiga mos, tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi ilmiy asoslangan baholash metodikasini ishlab chiqish va joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. www.stat.uz

2. Гришагов К.Р. Понятие устойчивого развития промышлениого предприятия // Экономика - 2013. -N'-' 3 - С. 31-34.

3. Кузнецов О.Л. Устойчивое развнтие: научные основы проектирования в системе природа - общество – человек. СПб : Науку 2008. 240 с.

4. Chukurna, O., & Tkachuk, O. (2019). Methodological bases of assessing the innovative potential of industrial enterprises. Economic Annals-XXI, 180(11-12), 45-54.

5. Ismoilov A. va Xudoyberganov D. (2023). Korxonalar moliyaviy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning nazariy va metodik asoslari. Iqtisodiyot va moliya, 2(3), 45-56.

TRANSPORT XIZMATLARINI IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA VAZIFALARI

Karimova Shaxnoza Uktamovna
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti
E-mail: k_shaxnoza@tsue.uz

Annotatsiya *mazkur maqolada transport xizmatlarini mintaqa iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati o‘rganilib, transport infratuzilmasini salohiyati va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek,transportning xizmatlarining ayrim shakllari haqida ma’lumotlar berilib ularning vazifalari o‘rganilib, transport xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *transport, logistika, tranzit, transport infratuzilmasi, strategik boshqaruv, mexanizm, diversifikatsiya*

Аннотация. *В статье исследуются роль и значение транспортных услуг в экономике региона, анализируется потенциал и значение транспортной инфраструктуры. Представлена информация о некоторых видах транспортных услуг, рассматриваются их функции, а также даются выводы и предложения по развитию транспортных услуг.*

Ключевые слова*: транспорт, логистика, транзит, транспортная инфраструктура, стратегическое управление, механизм, диверсификация*

Abstract. *This article examines the role and importance of transport services in the regional economy and analyzes the potential and significance of transport infrastructure. Information on certain types of transport services is presented, their functions are discussed, and conclusions and proposals for the development of transport services are provided.*

Keywords: *transport, logistics, transit, transport infrastructure, strategic management, mechanism, diversification*

Kirish

Bugungi kunda xizmatlar bozorida transport xizmatlarining o‘rni va ahamiyati tobora oshib borishmoqda. Transport xizmatlarini ko‘rsatishda har bir transport

turning o‘z o‘rni va ahamiyati yuqori. Transport xizmatlari bozorida iste’molchilarning o‘z ehtiyojlarini qondirishi va yuqori naflilikka erishishida transport xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi raqobat muhitini kengaytirish, xizmat turlarini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalashni taqozo etadi. Ayniqsa, transport xizmatlari bozorini mintaqa darajasida, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida rivojlanishida yangi imkoniyatlarni yaratadi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida transport tizimi minglab xizmat turlarini mujassamlashtirgan sohalar majmuiga aylanib bormoqda. Jahon banki tomonidan olingan ma’lumotlarga ko’ra, jahon transport xizmatlarining YaIM tarkibidagi miqdori 4,2 trln. AQSh dollari (6,8%) hajmida baholanib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo’lovchilar tashilgan, transport infratuzilmasida band bo’lgan xodimlar soni 100mln. kishini tashkil etadi [1].

Transport xizmatlarini mintaqa iqtisodiyotiga ta`sirini o‘rganar ekanmiz, albatta transport xizmatlariga ta`rif berishimiz zarur – *transport xizmati ko`rsatish* deganda, yuk jo`natuvchidan qabul qiluvchiga yuklarni yetkazib berish ortish, tushirish ishlarini bajarish tushuniladi. *Transport xizmati* - bu transport xizmatlarini amalga oshiruvchi sub’ektlar tomonidan foyda olish maqsadida transport vositalaridan foydalanish natijasida yo‘lovchilarni tashish, yuk ortish, tushirish va joylashtirish kabi transport servisini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar majmuidir. Tarixda shunday bo‘lganki, o‘zlariga transport xizmati ko‘rsatishni tashkil qilish bilan avval-boshda savdogarlarning o‘zlari shug‘ullangan. Qo‘l ostida o‘zining transport vositalariga ega bo‘lgan holda ular tovarlarni ishlab chiqarish bozorlaridan tovarlarni sotib olganlar va ularni iste’mol bozorlariga yetkazib berganlar. Narxlardagi farqlar savdogarlarga transport xarajatlarini qoplash va ma’lum darajada foyda olish imkonini bergan. Savdo va transportning keyingi rivojlanishi savdogarlik kompaniyalarining ixtisoslashuvini davom ettirgan. Ularning bir qismi savdo operatsiyalarini moliyalashtirishga, bir qismi ularga tegishli bo‘lmagan tovarlarni yetkazib berishga e’tibor qaratgan, qolganlari o‘zlarining savdo operatsiyalari – sotib olish va sotishga e’tibor qaratganlar. Shu tariqa birinchi bank, transport va savdo-xarid qilish kompaniyalari paydo bo‘lgan.

Transport xizmatlari turlari	**2019**	**2020**	**2021**	**2021**	**2023**
Temir yo‘l yo‘lovchi transporti xizmatlari	5273	4149	5117	5104	4652
Quruqlikdagi yo‘lovchi transporti xizmatlari	70919	50206	48166	45906	32703
Havo yo‘li yo‘lovchi transporti xizmatlari	2007	1592	2021	1779	2722
Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari	1788	1225	1364	1155	1238

O‘zbekistonning tashqi savdo yuklarini tashishni tashkil qilish va tashishning tijorat amaliyoti bozor iqtisodiyotiga o‘tilgandan keyin chuqur o‘zgarishlarni boshdan kechirgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish transport xizmatlari sohasida kuchli raqobatning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Transport xizmatlarining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini quyidagi yondashuvlarga bo‘lib o‘rganishimiz zarur:

– **Iqtisodiy aloqa va muvofiqlashtirish:** transport tovarlar, xizmatlar va odamlar harakatini ta'minlaydi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini bir-biri bilan bog‘laydi va muvofiqlashtiradi.

– **Savdoni rivojlantirish:** transport xizmatlari ichki va tashqi savdo oqimlarini osonlashtiradi, bozorlarni kengaytiradi, import va eksportni rag'batlantiradi va xalqaro savdo tizimlariga integratsiyani rag'batlantiradi.

– **Mintaqaviy rivojlanish:** rivojlangan transport infratuzilmasi hududlarni qulayligini oshiradi, investitsiyalarni jalb qiladi, ishlab chiqarish va turizmni rag'batlantiradi va muvozanatli iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.

– **Raqobatbardoshlikni oshirish:** samarali transport tizimi logistika xarajatlarini kamaytiradi, milliy iqtisodiyot va alohida korxonalarning raqobatdosh ustunliklarini oshiradi.

– **Ta'minot zanjirini qo'llab-quvvatlash:** transport ishlab chiqarish muvozanatini yakunlaydi, tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beradi va resurslarni yetkazib berishni ta'minlashning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

– **Hosildorlik va samaradorlikni oshirish:** katta bozorlar va turli resurslarga kirish mehnat unumdorligini oshiradi va ishlab chiqarishda miqyosida iqtisod qilish imkonini beradi.

– **Ijtimoiy ahamiyati:** transport aholining hayot sifatini yaxshilaydi, tovarlar va xizmatlarning mavjudligini ta'minlaydi va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va mudofaa uchun zarurdir.

– **Transport xizmatlarini boshqarish:** infratuzilmani modernizatsiya qilish: transport tarmog'ini, jumladan, avtomobil yo'llari, temir yo'llar, portlar va aeroportlarni doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Raqamlashtirish va innovatsiyalar: ta’minot zanjirini boshqarish tizimlari, avtomatlashtirish va raqamlashtirish kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish xizmatlar samaradorligi va sifatini oshiradi.

– **Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish:** hukumat logistika kompaniyalari uchun qulay muhit yaratishi, infratuzilmani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashi va standartlarni belgilashi lozim.

Inson resurslarini rivojlantirish: logistika va transport mutaxassislarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish sanoat samaradorligini erishishda muhim ahamiyatga ega.

– **Atrof-muhitning barqarorligi:** toza texnologiyalar va muqobil yoqilg'ilarni joriy etish transportning atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

– **Boshqa tarmoqlar bilan muvofiqlashtirish:** transport xizmatlarini muvaffaqiyatli boshqarish ishlab chiqarish, savdo va boshqa iqtisodiy tarmoqlar bilan yaqin hamkorlikni talab qiladi.

PQ-28-son 2025- yil 27-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida:

– Respublika transport-logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini yanada rivojlantirish;

– tranzit salohiyatini oshirish, -istiqbolli transport yo‘laklarini shakllantirish;

– eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish hamda tashqi bozorlarga yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish; vazifalari belgilangan [2].

Xulosa va takliflar. Transport xizmatlari iqtisodiyotda asosiy vazifani bajaradi, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni bog'laydi, savdo, mintaqaviy rivojlanish va xalqaro aloqalarni osonlashtiradi, shuningdek, iqtisodiy raqobatbardoshlik va hayot sifatini oshiradi. Transport xizmatlarini boshqarish iqtisodiyot va jamiyatning barcha tarmoqlari ehtiyojlarini samarali qondirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, inson resurslarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Tovarlarni yetkazib berishning sifatiga nisbatan qo‘yiladigan talablarning ortishi, transportga nisbatan qo‘yiladigan ekologik talablarning qat’iylashishi aralash va kombinatsiyalangan tashishlardan foydalanishni kengaytirishga chaqiradi, bu esa sohaga o‘zgartirish kiritishni talab qiladi.

– yetkazib berish muddatlari va grafiklariga nisbatan qo‘yiladigan talablarning ortishi bilan bir paytda tobora ko‘plab bosqichlarni paydo qilmoqda shuning uchun ham transport xizmatlari ko‘rsatishda yangi texnologiyalardan foydalanishni jalb qilish zarur.

– Nogiron foydalanuvchilar uchun zarur bo'lgan aniq xususiyatli transport turlarini topish ko'pincha qiyin. Buning uchun nogironlar talablariga javob beradigan va barcha yo'lovchilar uchun foydali bo‘lgan zarur jihozlar bilan to‘ldirish. (Masalan, past qavatli avtobuslar va jamoat transportlarida) ularni bemalol harakatlanishi uchun sharoitlar yaratish.

– Harakati cheklangan odamlar (masalan, oqsoqlanish, turish yoki ushlash chegaralari)

– Sensor cheklovlari bo'lgan odamlar (masalan, ko'rlik, karlik, ko'rish qobiliyati)

– Nutqda nuqsoni bo‘lgan odamlar

– Kognitiv imkoniyatlari cheklangan odamlar

– Aqliy cheklangan odamlar

Bu barcha yo‘lovchilar uchun ham, transportxizmati ko‘rsatuvchilar uchun qulaylik tomonidan ham aniq foydali yechimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. The World Bank: World Development Indicators. http: //data.worldbank.org/indicator

2. 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, 3.PQ-28-son 2025- yil 27-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

3. Umirov I.I. Transport xizmatlari asoslari. O`quv qo`llanma. -T.: 2022, 164 bet.

4. https://mintrans.uz/news

ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ АГРОБИЗНЕСА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Адилов Шерзот Шамильевич
Старший научный сотрудник Центра исследования проблем приватизации и управления государственными активами при Агентстве по управлению государственными активами Республики Узбекистан, соискатель ТГЭУ
E-mail: sherzot.adilov@mail.ru

Аннотация. *В статье проанализированы причины возникновения неплатежеспособности субъектов агробизнеса и рассмотрены результаты их финансового оздоровления в Узбекистане за период 2020–2025 гг. Установлено, что основными факторами неплатежеспособности являются нецелевое использование финансовых ресурсов, рост долговой нагрузки, снижение рентабельности, изношенность материально-технической базы, неблагоприятные природно-климатические условия, а также социально-кадровые проблемы.*

На основе статистических данных выявлено, что за исследуемый период количество неплатежеспособных предприятий сократилось с 148 до 98 (на 33,7 %), число прошедших санацию увеличилось с 52 до 85 (на 63,4 %), а количество предприятий, восстановивших платежеспособность, выросло более чем в два раза. Эти показатели подтверждают

эффективность проводимых реформ и мер государственной поддержки аграрного сектора.

Отмечается, что финансовое оздоровление и совершенствование системы финансирования агробизнеса представляют собой взаимосвязанные процессы, способствующие устойчивому развитию сельского хозяйства, повышению занятости и снижению уровня бедности. Особое внимание уделено роли государственных программ, развитию механизмов финансирования, созданию специализированных фондов, а также совершенствованию правовых и институциональных основ санации. Результаты исследования свидетельствуют, что комплексное применение инструментов финансового оздоровления и совершенствование системы аграрного кредитования обеспечивают укрепление финансовой устойчивости предприятий, повышение их конкурентоспособности и формирование условий для долгосрочного экономического роста сельских территорий.

Ключевые слова: *финансовое оздоровление, агробизнес, финансирование, санация, реструктуризация, сельское хозяйство, сокращение бедности.*

Abstract. *The article examines the causes of insolvency of agribusiness entities and analyzes the results of their financial recovery in Uzbekistan for the period 2020-2025. It was established that the main reasons for insolvency are the misuse of financial resources, the growth of debt burden, a decrease in profitability, the deterioration of the material and technical base, unfavorable natural and climatic conditions, as well as social and personnel problems.*

Based on statistical data, it was revealed that during the period under review, the number of insolvent enterprises decreased from 148 to 98 (33.7%), the number of rehabilitated enterprises increased from 52 to 85 (63.4%), and the number of those who restored their solvency more than doubled. This testifies to the effectiveness of the ongoing reforms and state support measures for the agricultural sector.

The work emphasizes that the financial recovery and improvement of the agribusiness financing system are interconnected processes that contribute to the sustainable development of agriculture, increasing employment, and reducing poverty. Special attention was paid to the role of state programs, the development of financing mechanisms, the creation of specialized funds, and the improvement of legal and institutional mechanisms for rehabilitation.

The research results confirm that the comprehensive application of financial recovery tools and the improvement of the agricultural lending system allows for strengthening the financial stability of enterprises, increasing their competitiveness, and ensuring long-term economic growth in rural areas.

Keywords: *financial recovery, agribusiness, financing, rehabilitation, restructuring, agriculture, poverty reduction.*

Введение

Современный этап экономического развития Республики Узбекистан характеризуется поступательной модернизацией всех ключевых отраслей, включая аграрный сектор, который сохраняет стратегическое значение для обеспечения продовольственной безопасности, занятости населения и снижения уровня бедности в сельской местности. Устойчивый рост аграрного производства сопровождается структурной трансформацией и повышением технологического уровня, однако значительная часть сельскохозяйственных предприятий по-прежнему сталкивается с финансовыми трудностями, связанными с ограниченным доступом к кредитным ресурсам, высокой долговой нагрузкой и низкой инвестиционной привлекательностью.

Рост неплатежеспособности предприятий аграрного сектора замедляет процессы устойчивого развития сельских регионов, снижает их экономическую активность и усиливает социальную напряжённость. В этой связи особую актуальность приобретают меры, направленные на финансовое оздоровление сельскохозяйственных предприятий и совершенствование механизмов их финансирования, кредитования и государственной поддержки.

Разработка и внедрение эффективных инструментов санации, включая реструктуризацию задолженности, льготное кредитование, налоговое стимулирование и создание специализированных фондов поддержки, способствуют восстановлению платежеспособности предприятий, повышению инвестиционной активности и росту производительности труда. В условиях продолжающейся модернизации экономики активизация роли аграрного сектора оказывает прямое влияние на уровень доходов населения, занятость и общее социальное благополучие сельских территорий [1].

Таким образом, механизмы финансового оздоровления и совершенствования системы финансирования агробизнеса следует рассматривать как приоритетные направления государственной аграрной политики, направленные на обеспечение устойчивого развития сельских территорий, укрепление продовольственной безопасности и повышение конкурентоспособности национального аграрного производства [2].

Методы исследования

В ходе исследования использовались системный, институциональный и сравнительный методы анализа, а также экономико-статистические и структурно-динамические подходы. Информационную основу составили данные Государственного комитета по статистике, Центрального банка и Верховного суда Республики Узбекистан.

Результаты исследования

Результаты анализа показали, что состояние неплатежеспособности у субъектов агробизнеса возникает по следующим причинам:

нецелевое использование финансовых ресурсов, несогласованное увеличение расходов, попытки покрыть ранее полученные кредиты за счёт новых, более дорогих заимствований, а также просрочки по дебиторской задолженности нарушают стабильность денежного потока. В результате предприятия не способны своевременно погашать задолженности перед кредиторами и уплачивать налоговые обязательства;

снижение рентабельности, увеличение долговой нагрузки, изношенность материально-технической базы, природно-климатические факторы, слабое финансовое и маркетинговое управление, несвоевременное внедрение новых технологий, социальные проблемы, дефицит квалифицированных кадров в

сельской местности, снижение численности рабочей силы, трудности с выходом на рынки сбыта, несвоевременная реализация продукции в пределах установленного срока её потребления, что приводит к её быстрой порче и утрате товарной ценности. Также негативное влияние оказывают ограниченные экспортные возможности, низкая конкурентоспособность по сравнению с другими аграрными предприятиями, высокая себестоимость сырья и иных затрат, необходимых для производства сельхозпродукции.

Например, при производстве сельскохозяйственной продукции субъектами агробизнеса наблюдается значительный рост совокупных затрат, включая закупку первоначального сырья, семенного материала, минеральных удобрений, топлива, энергоресурсов, технических и иных услуг. Превышение расходов над доходами приводит к тому, что предприятия завершают финансовый год с убытками.

Внедрение механизмов санации и государственной поддержки позволило части предприятий восстановить производственный потенциал.

Ниже представлены сводные данные о динамике неплатежеспособности и результатах оздоровления аграрных предприятий за 2020–2025 гг.

Таблица 1

Динамика неплатежеспособности и результатах оздоровления агробизнеса в Узбекистане (2020–2025 гг.)

Год	Количество неплатежеспособных предприятий	Прошедшие санацию	Восстановившие платежеспособность
2020	148	52	34
2021	133	60	42
2022	120	68	49
2023	115	75	57
2024	109	80	63
2025	98	85	70

Как видно из таблицы 1, за анализируемый период наблюдается устойчивая тенденция к снижению количества неплатежеспособных предприятий — с 148 в 2020 году до 98 в 2025 году, что составляет сокращение на 33,7%. Одновременно число предприятий, прошедших санацию, увеличилось с 52 до 85 (рост на 63,4%), а восстановивших платежеспособность — с 34 до 70 (рост более чем в два раза). Доля успешно оздоровленных предприятий выросла на 23%, а уровень возврата долгов кредиторам — на 17%. Эти данные подтверждают эффективность проводимых реформ и государственных программ поддержки агробизнеса.

Совершенствование системы финансирования агробизнеса в Узбекистане является важнейшим направлением государственной экономической политики, направленной на обеспечение устойчивого развития сельского хозяйства, повышение продовольственной безопасности и снижение уровня бедности в сельской местности. Проведённые реформы и программы поддержки аграрных предприятий позволили значительно повысить эффективность использования финансовых ресурсов, улучшить доступ к кредитным средствам и расширить инвестиционные возможности фермерских хозяйств.

Основные направления модернизации системы финансирования включают развитие льготного кредитования, государственную поддержку и субсидирование, внедрение исламских финансовых инструментов, цифровизацию финансовых услуг, расширение системы агрострахования, а также повышение финансовой грамотности сельхозпроизводителей.

Результаты анализа, представленные в таблице 2, отражают положительные тенденции в сфере финансирования агробизнеса за 2020–2025 годы.

Таблица 2

Основные направления совершенствования системы финансирования агробизнеса в Узбекистане

№	Направление развития	Конкретные меры	Ожидаемый эффект
1	Льготное кредитование	Расширение доступа к долгосрочным займам под низкие проценты	Повышение инвестиционной активности предприятий
2	Государственная поддержка	Субсидирование процентных ставок, создание гарантийных фондов	Снижение финансовых рисков агробизнеса
3	Альтернативное финансирование	Внедрение исламских финансовых инструментов, выпуск агрооблигаций	Диверсификация источников капитала
4	Цифровизация финансов	Онлайн-кредитование, цифровое страхование, электронные платформы	Ускорение доступа к финансовым услугам
5	Страхование рисков	Развитие агрострахования и страховых субсидий	Снижение потерь от природно-климатических факторов
6	Кадровое и консультативное обеспечение	Повышение финансовой грамотности фермеров, обучение менеджеров	Повышение эффективности использования средств

Совершенствование системы финансирования агробизнеса в Узбекистане позволило укрепить финансовую устойчивость сельскохозяйственных предприятий, расширить доступ к кредитным ресурсам, снизить риски неплатежеспособности и стимулировать инвестиционную активность. Комплексное внедрение мер государственной поддержки, цифровых технологий и альтернативных источников финансирования способствует устойчивому развитию аграрного сектора и повышению уровня жизни сельского населения.

Обсуждение. Обосновано, что финансовое оздоровление и совершенствование системы финансирования агробизнеса ключ к снижению бедности и устойчивому росту и представляют собой взаимосвязанные процессы, оказывающие комплексное влияние на социально-экономическое развитие страны.

С одной стороны, санационные процедуры обеспечивают восстановление платежеспособности и предотвращают массовое банкротство предприятий,
с другой, эффективная система финансирования создает условия для долгосрочного роста и повышения конкурентоспособности сельского хозяйства.

Важную роль в этом процессе играют:

Государственные программы поддержки, направленные на реструктуризацию задолженности и продление сроков кредитов;

Создание специализированных фондов поддержки агробизнеса при участии Центрального банка и Министерства финансов;

Механизмы исламского финансирования и аграрные облигации, которые обеспечивают альтернативные источники инвестиций;

Цифровизация финансовых услуг, включая онлайн-кредитование и дистанционное страхование аграрных рисков.

Кроме того, реализация Указа Президента Республики Узбекистан № УП–5975 от 20 марта 2020 года «О мерах по кардинальному обновлению государственной политики в сфере развития экономики и сокращения бедности» [3] создала прочную основу для формирования национальной модели устойчивого сельского развития. Ключевыми элементами данной модели стали обеспечение финансовой устойчивости фермерских хозяйств и аграрных кластеров, повышение производительности труда, расширение объемов производства и переработки сельскохозяйственной продукции, а также создание новых рабочих мест в сельской местности.

Указанные выше законы в первую очередь предусматривают чёткие и практические механизмы для юридических лиц - предприятий и организаций. Они регулируют правовые отношения, возникающие в процессе

неплатежеспособности, определяют обстоятельства, ведущие к банкротству, процедуры финансового оздоровления должника, порядок проведения переговоров с кредиторами, реструктуризацию задолженности и другие аспекты.

3. Национальный банк Республики Казахстан. Отчет о состоянии финансовой грамотности населения и мерах по её повышению. – Астана : Национальный банк РК, 2023. – 56 с.

4. Lusardi, A., Mitchell, O. S. Financial literacy and economic outcomes: Evidence and policy implications // Journal of Economic Literature. – 2022. – Т. 60, № 3. – С. 661–706.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI

Asamxodjayeva Shoira Shukrullayevna
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti,
E-mail: shoira9173@gmail.com
Orcid: 0000-0002-6124-2324
Qodirov Sardor Qosimjonovich,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanishda qishloq xo‘jaligining mohiyati hamda unda resurslardan oqilona foydalanishning asosiy jihatlari tahlil qilinib, uning asosiy turlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek zamonaviy texnologiyalarning qishloq xo‘jaligidagidagi o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Ish so‘nggida mavzuga doir xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, resurslar samaradorligi, energiya samaradorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, dehqonchilik, suv tejash, barqaror rivojlanish, zamonaviy texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется сущность сельского хозяйства в условиях устойчивого экономического развития, а также основные аспекты*

рационального использования в нем ресурсов и рассматриваются его основные виды. Также были изучены особенности современных технологий в сельском хозяйстве. В заключении работы формулируются выводы и рекомендации по теме.

Ключевые слова: *сельское хозяйство, ресурсоэффективность, энергоэффективность, продовольственная безопасность, сельское хозяйство, водосбережение, устойчивое развитие, современные технологии.*

Abstract. *This article analyzes the essence of agriculture in sustainable economic development, as well as the main aspects of rational use of resources in it and considers its main types. The features of modern technologies in agriculture were also studied. At the end of the work, conclusions and recommendations on the topic were formed.*

Key words: *agriculture, resource efficiency, energy efficiency, food security, agriculture, water conservation, sustainable development, and modern technologies.*

Kirish

Jahon aholisining tez o‘sishi va iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligi oldida ikki muhim vazifa turmoqda: aholi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va cheklangan tabiiy resurslarni saqlash. 2024- yil ma’lumotlariga ko‘ra, jahon sirt harorati sanoat davrigacha bo‘lgan davrga nisbatan 1,55°C ga ko‘tarilgan bo‘lib, bu 175 yillik kuzatish tarixidagi eng issiq yil hisoblanadi. Bunday iqlim o‘zgarishlari suv taqchilligi, tuproq degradatsiyasi va qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida iste’mol qilinadigan suv umumiy suv resurslarining qariyb 70 foizini tashkil etadi. 2030- yilga kelib jahon aholisining yarmi og‘ir suv tanqisligini boshdan kechishi mumkin, shuning uchun suv resurslaridan tejamkor foydalanish global ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va kelgusi avlodlar uchun barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki qishloq xo‘jaligi sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda va eksport salohiyatini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Resurslardan oqilona foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik barqarorlik uchun ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu sababli, mavzuning dolzarbligi yurtimiz agrar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar sharhi

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ta’rifiga ko‘ra, barqaror qishloq xo‘jaligi hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish, shu bilan birga rentabellikni, atrof-muhit salomatligini hamda ijtimoiy va iqtisodiy adolatni ta’minlash kerak. Barqaror qishloq xo‘jaligi tizimi to‘rtta asosiy tamoyilga asoslanadi: iqtisodiy jihatdan foydalik, ijtimoiy jihatdan mas’uliyat, ekologik barqarorlik va texnologik innovatsiyalar.

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish konsepsiyasida har bir insonga oziqaviy ovqat mahsulotlariga kirish huquqi kafolatlanishi va tabiiy resurslarni boshqarish ekotizim funksiyalarini saqlashni ta’minlashi kerakligi ta’kidlanadi. Bu yondashuvda fermerlar, chorvachilar, baliqchilar va boshqa qishloq aholisining fikrlari e’tiborga olinishi zarur.

BMT suv ma’lumotlari (UN-Water) bo‘yicha 2024- yil hisobotida qishloq xo‘jaligida suv iste’moli samaradorligi 2015- yildan boshlab 40 foizga oshganligi qayd etilgan. Bu o‘sish sektorlarda yalpi qo‘shilgan qiymat oshishi yoki turli mintaqalar va mamlakatlar bo‘ylab sektorlarda suv iste’molining kamayishi hisobiga yuzaga kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanish yo‘llari bo‘yicha so‘nggi ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va statistik ma’lumotlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot ikkilamchi ma’lumotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda agrar siyosatning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdir. 2023-yilda agrar sektor yalpi ichki mahsulotning qariyb 28 foizini tashkil etib, qishloq xo‘jaligida band aholining 24 foizi faoliyat yuritmoqda. Har yili mamlakatimizda 20 million tonna don, 1,8 million tonna paxta yetishtirilishi bu sohaning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi 4.0 - bu to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarini agrar sohasiga tatbiq etishdir. Bunga IoT (narsalar interneti), katta ma’lumotlar (big data), sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va blokcheyn kiradi. Raqamlashtirish fermer xo‘jaliklarida resurslardan samarali foydalanish, mahsuldorlikni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Aqlli qishloq xo‘jaligi quyidagi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi:

– GPS (Global Positioning System – Global Joylashuvni Aniqlash Tizimi) va avtomatik boshqaruv tizimlari;

– Sensor texnologiyalari va IoT (Internet Of Things - Buyumlar Interneti) qurilmalari;

– Sun’iy yo‘ldosh monitoringi va dronlar;

– Ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt;

– Robotlashtirilgan mashina va asbob-uskunalar.

2024- yilgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dehqonchilik tizimlarida dronlar, sun’iy intellekt, GPS (Global Positioning System - Global Joylashuvni Aniqlash Tizimi) va sun’iy yo‘ldoshlar integratsiyalashgan holda ishlatilmoqda. Bu

texnologiyalar o‘simliklarning sog‘lig‘ini monitoring qilish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va atrof-muhit sharoitlarini boshqarish imkonini beradi.

Resurslardan samarali foydalanishning eng muhim yo‘nalishlari yer, suv, mehnat va texnologiyalar bilan bog‘liq. Masalan, tomchilatib sug‘orish tizimlari orqali suv sarfini 30–50 foizgacha kamaytirish mumkin. Shuningdek, agrotexnik tadbirlar hosildorlikni 20–30 foiz oshiradi. Bugungi kunda organik qishloq xo‘jaligi, genetik modifikatsiya qilingan navlar, sun’iy intellekt va dronlardan foydalanish kabi innovatsion texnologiyalar amaliyotga joriy etilmoqda. Ular hosildorlikni oshirish bilan birga resurslarni tejash imkonini ham beradi.

Yer resurslaridan oqilona foydalanishda ekish tizimini diversifikatsiya qilish, almashlab ekish, melioratsiya va eroziyaga qarshi choralar muhim ahamiyatga ega. Suv resurslari esa mamlakatimizda qishloq xo‘jaligida eng ko‘p sarflanadigan manba bo‘lib, uni tejash va qayta ishlatish iqtisodiyot uchun ham, atrof-muhit uchun ham zarurdir. Melioratsiya ishlari orqali sho‘rlangan yerlarning samaradorligi tiklanib, hosildorlik oshmoqda.

Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda gigiyena qoidalariga amal qilish, saqlash va qadoqlash texnologiyalarini takomillashtirish zarur. Jahon banki va xalqaro tashkilotlar tomonidan qishloq xo‘jaligiga jalb qilinayotgan investitsiyalar esa sohaga zamonaviy texnika va texnologiyalarni olib kirishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy sug‘orish texnologiyalari suv sarfini sezilarli darajada kamaytirgan:

- tomchilatib sug‘orish tizimi 30-50% suvni tejab, 15-25% mahsuldorlik oshishiga, mineral o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligini 40%ga oshishiga sabab bo‘lgan;

- yomg‘ir usulida sug‘orish 15-25% suvni tejab, 85-95% tekis sug‘orilishga va 30% mehnat xarajatlari kamayishiga ta’sir etgan;

- yer osti tomchilatib sug‘orish 40-60% suvni tejab, bug‘lanish yo‘qotishlari maksimal kamaygan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining jahondagi suv resurslarini rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobotiga ko‘ra qishloq xo‘jaligida suv samaradorligi 2015-2024 yillar davomida 40% oshgan.

Mintaqalar kesimida turlicha natijalar kuzatilgan, ya’ni rivojlangan mamlakatlarda 45-50% yaxshilanish, rivojlanayotgan mamlakatlarda 25-35% o‘sish, Afrika qit’asida 20-25% o‘zgarish kuzatilgan.

Texnologiyalarning samaradorligi tahlil qilinayotgan davrda quyidagicha bo‘lgan:

- GPS (Global Positioning System - Global Joylashuvni Aniqlash Tizimi) va avtomatik boshqaruv orqali urug‘larni ekish aniqligi 98-99 foizni, yoqilg‘i tejash 15-20 foizni, qayta ishlov kamayishi 10-15 foizni tashkil qilgan;

- dronlar va sun’iy yo‘ldoshlar orqali dala monitoringi tezligi 100 gektar/soat, kasallik va zararkunandalarni erta aniqlash 35 foizga yaxshilangan, o‘g‘itlar va pestitsidlar 20-30 foizga tejalgan;

- IoT (Internet Of Things - Buyumlar Interneti) sensorlari orqali tuproq namligi real-vaqt holatini uzluksik kuzatish mumkin bo‘ldi, suv sarfi 25-40 foizga optimallashgan, hosildorlik 15-30 foizga oshgan;

- sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili yordamida hosil prognozi aniqligi 85-95 foiz bo‘lib, qaror qabul qilish 10 barobar tezlashgan, resurslar optimal darajada muvofiqlashtirilgan.

Qayta tiklanadigan qishloq xo‘jaligi - bu oziq-ovqat va dehqonchilik tizimlarini saqlash va reabilitatsiya qilish usuli bo‘lib, bunda asosiy e’tibor tuproqning yuqori qatlamini tiklash, bioxilma-xillikni oshirish, suv aylanishini yaxshilash, ekotizim xizmatlarni kuchaytirish, iqlim o‘zgarishiga chidamliligini oshirish va qishloq xo‘jaligi tuproqlarining salomatligi va hayotiyligini mustahkamlashga qaratiladi. 2025- yil ma’lumotlariga ko‘ra, regenerativ qishloq xo‘jaligi yondashuvi quyidagi natijalarni bermoqda:

- tuproqni qayta tiklanish ko‘rsatkichlari: organik moddalar miqdori 5 yil ichida 2-4 foiz ko‘paygan, tuproq mikroorganizmlari 50-70 foizga faollashgan, tuproqning suv ushlab turish qobiliyati 25-35 foizga oshgan, eroziyaga chidamlilik sezilarli yaxshilangan.

- ekologik foydalar: biologik xilma-xillik 40-60 foizga ko‘paygan, pestitsidlar iste’moli 50-70 foizga kamaygan.

Energiya samaradorligi tahlil qilinayotgan davrda quyidagicha bo‘lgan:

- qishloq xo‘jaligida quyosh va shamol energiyasidan foydalanish: elektr energiya 40-70 foizga tejaldi, CO_2 emissiyasi 30-50 foizga kamaygan; uzoq muddatli yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilgan;

- energiya tejamkor uskunalar: zamonaviy traktorlar 20-30 foizga yoqilg‘i tejaydi;

- LED (Light Emitting Diode - Yorug‘lik chiqaradigan diod) yoritish: 60-80 foiz energiya tejaydi;

- issiqxona iqlim nazorati: 25-40 foiz energiya tejaydi.

Qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanish orqali bir qator iqtisodiy va ekologik samaradorlikka erishilmoqda. Lekin bu sohaga tegishli bir qator muammolar ham bor. Asosiy muammolar sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

1. Zamonaviy texnologiyalar qimmatligi sababli dastlabki xarajatlar yuqori bo‘ladi.

2. Malakali mutaxassislar yetishmasligi sababli kadrlar taqchilligi kuzatiladi.

3. Ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha kibertahdidlar xavfi mavjud.

4. Texnologik hududlarda bir xil darajada rivojlanmaganligi sababli sezilarli tafovutlar uchraydi.

5. Kichik fermerlarda kapital yetishmasligi, ularning moliyaviy imkoniyatlarini cheklaydi.

Qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha mavjud muammolar yechimi sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Davlat qo‘llab-quvvatlashi: subsidiyalar va imtiyozli kreditlar, innovatsiyalar uchun grantlar, soliq imtiyozlarini qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirish zarur.

2. Ta’lim va malaka oshirish: treninglar va seminarlar tashkil etish, ko‘rgazmali maydonlar yaratish, masofaviy ta’lim platformalari orqali ko‘pchilikni soha yangiliklaridan xabardor qilish mumkin.

3. Kooperatsiya va hamkorlik: fermerlarni birlashtirishga yordam, texnologiyalarni birgalikda sotib olish, tajriba almashish platformalari orqali hamkorlik resurslar samaradorligini oshishiga katta ta’sir o‘tkazadi.

4. Bosqichma-bosqich joriy etish: kichik loyihalardan boshlash, muvaffaqiyatli tajribani kengaytirish, xavflarni minimallashtirib, samaradorlikni oshiradi.

Xulosa va takliflar

Umumiy qilib aytganda, qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanish jahondagi iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va ekologik muvozanatni saqlashda asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. Suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha tahlillar ko‘rsatishicha, so‘nggi o‘n yil davomida qishloq xo‘jaligida suv iste’moli samaradorligi 40 foizga oshgan. Zamonaviy sug‘orish texnologiyalari (tomchilatib sug‘orish, yomg‘ir usuli) 30-60 foiz suv tejashga imkon berib, hosildorlikni 15-25 foiz oshirgan.

2. Aqlli qishloq xo‘jaligi bozori 2024- yilda 14,40 milliard dollarni tashkil etgan va 2029- yilga kelib 23,38 milliard dollargacha o‘sishi kutilmoqda (yillik 10,2% o‘sish sur’ati). GPS, dronlar, IoT sensorlari va sun’iy intellekt yordamida o‘g‘itlar va pestitsidlardan foydalanish 20-30 foiz kamaygan, hosildorlik esa 15-30 foiz oshgan.

3. Regenerativ (qayta tiklanadigan) qishloq xo‘jaligi yondashuvi tuproqdagi organik moddalar miqdorini 5 yil ichida 2-4 foizga oshiradi, tuproqning suv ushlab turish qobiliyatini 25-35 foiz yaxshilaydi va yiliga 0,5-1 tonna/gektar CO_2 ni yutishga yordam beradi.

4. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (quyosh, shamol) foydalanish orqali elektr energiya iste'molini 40-70 foiz kamaytirish mumkin. Zamonaviy energiya tejamkor uskunalar yoqilg'i xarajatlarini 20-30 foiz pasaytiradi.

5. Zamonaviy texnologiyalarga investitsiyalar 3-5 yil ichida o'zini oqlaydi. Operatsion xarajatlar 20-35 foiz kamayadi, yillik daromad esa 15-25 foiz ortadi. Investitsiya rentabelligi (ROI) 25-40 foizni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- resurslarni boshqarishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish;
- resurs tejamkor texnologiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlar tizimini yaratish;
- ekologik xavfsiz dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;
- zamonaviy sug'orish tarmog'ini modernizatsiya qilish;
- qishloq joylarida internet va aloqa xizmatlarini yaxshilash.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2024). Sustainable Food and Agriculture. Rome: FAO. Retrieved from https://www.fao.org/sustainability/en/

2. UN-Water. (2024). SDG 6 Synthesis Report 2023 on Water and Sanitation. Geneva: United Nations.

3. World Meteorological Organization (WMO). (2024). State of the Global Climate 2024. Geneva: WMO.

4. United States Department of Agriculture (USDA). (2023). 2023 Irrigation and Water Management Survey. National Agricultural Statistics Service. Washington, DC: USDA.

5. United States Department of Agriculture (USDA). (2024). USDA Invests $420 Million in Western Water Conservation Through WaterSMART Program. Press Release, December 2024.

6. Bwambale, E., Abagale, F. K., & Anornu, G. K. (2022). Smart irrigation monitoring and control strategies for improving water use efficiency in precision agriculture: A review. Agricultural Water Management, 260, 107324.

7. Chen, Y., Zhang, Z., & Tao, F. (2024). Precision agriculture technologies and their applications in sustainable farming systems. Journal of Integrative Agriculture, 23(3), 567-582.

8. Huang, J., Wang, X., & Zhang, M. (2024). Digital transformation in agriculture: opportunities and challenges. Computers and Electronics in Agriculture, 218, 108675.

9. Kumar, A., Singh, R., & Patel, S. (2024). IoT-based smart farming: A comprehensive review of technologies and applications. Sustainable Agriculture Research, 13(2), 45-62.

10. Liu, Y., Chen, H., & Wang, L. (2024). Water-saving irrigation technologies and their impacts on crop yield and water use efficiency. Water Resources Management, 38(4), 1245-1268.

11. Martinez, J., Silva, P., & Costa, R. (2024). Regenerative agriculture practices for soil health improvement. Soil Science Society of America Journal, 88(3), 678-695.

12. Thompson, R. B., Gallardo, M., & Rodríguez, J. S. (2024). Precision irrigation management in Mediterranean regions. Irrigation Science, 42(2), 189-210.

ESG TAMOYILLARI HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATDA: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI PARADIGMASI

Zaynutdinov Ismoil Samariddin o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Iqtisodiyot va menejment kafedrasi v.b.dotsenti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori
E-mail: ismoil.zaynutdinov@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining hududiy iqtisodiy siyosatda tutgan o‘rni va barqaror rivojlanishning yangi paradigmasi sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Hududlarni rivojlantirishda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlari uyg‘unligi ko‘rib chiqilgan, xalqaro tajriba va milliy amaliyot taqqoslangan. Shuningdek, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi va ESG standartlari asosida amalga oshirilayotgan dasturlar istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ESG tamoyillari hududiy barqarorlik va biznes transformatsiyasining muhim drayveri ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ESG, barqaror rivojlanish, hududiy siyosat, yashil iqtisodiyot, innovatsiya.*

Abstract. *The article analyzes the role of ESG (Environmental, Social, Governance) principles in regional economic policy and their significance as a new paradigm of sustainable development. The interrelation of environmental, social, and governance criteria in regional development is examined, and international experience is compared with national practice. Special attention is given to the prospects of implementing programs in Uzbekistan based on the concept of the green economy and ESG standards. The findings demonstrate that ESG principles serve as a key driver of regional sustainability and business transformation.*

Key words*: ESG, sustainable development, regional policy, green economy, innovation.*

Аннотатsия. *В статье анализируется роль принципов ESG (Environmental, Social, Governance) в региональной экономической политике и их значение как новой парадигмы устойчивого развития. Рассмотрена взаимосвязь экологических, социальных и управленческих критериев в развитии регионов, сопоставлен международный опыт и национальная практика. Особое внимание уделено перспективам реализатsии программ в Узбекистане на основе концепции «зелёной экономики» и стандартов ESG. Результаты*

исследования показывают, что принципы ESG являются важным драйвером региональной устойчивости и бизнес-трансформации.

Ключевые слова: *ESG, устойчивое развитие, региональная политика, зелёная экономика, инновации.*

Kirish

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish masalasi global siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlatlar, xalqaro tashkilotlar va biznes tuzilmalari o‘z strategiyalarida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlariga asoslangan yangi yondashuvni qo‘llashga o‘tmoqda. Bu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari alohida ahamiyat kasb etib, hududiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ESG tamoyillari hududlarning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda uchta muhim vazifani hal qiladi:

1. Ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslarni muhofaza qilish orqali aholi uchun sog‘lom turmush muhitini shakllantirish.
2. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirish.
3. Boshqaruv tizimini takomillashtirish, ochiqlik va hisobdorlik orqali investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish.

Shu nuqtai nazardan ESG nafaqat biznes sub’ektlari, balki davlat va mahalliy hokimiyat organlari uchun ham strategik ahamiyatga ega bo‘lib, hududiy iqtisodiy siyosatning yangi paradigmasi sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar sharhi

ESG tamoyillari va ularning iqtisodiy siyosatga ta’siri masalasi so‘nggi yillarda jahon ilmiy hamjamiyatida keng muhokama qilinmoqda. Xalqaro va milliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ESG faqatgina korporativ boshqaruvda emas, balki hududiy barqaror rivojlanishda ham muhim mezon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda ESG asosan investitsiya siyosatining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Masalan, *Friede, Busch va Bassen (2015)*[142] o‘z tadqiqotlarida ESG mezonlari bilan moliyaviy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatib, ushbu tamoyillarning uzoq muddatli rivojlanish uchun ahamiyatini asoslaydilar. Shuningdek, *European Commission (2020)*[143] hujjatlarida “Green Deal” doirasida ESG standartlari hududiy siyosatda majburiy mezon sifatida belgilangani qayd etilgan.

[142] Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: Aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. Journal of Sustainable Finance & Investment, 5(4), 210–233.

[143] European Commission. (2020). The European Green Deal. Brussels: EU Publications.

Milliy adabiyotlarda esa ESG tamoyillari ko‘proq “yashil iqtisodiyot”, ijtimoiy mas’uliyat va shaffof boshqaruv bilan uyg‘unlikda o‘rganilmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019)[144] hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha davlat dasturlarida ESG elementlariga yaqin yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. *Karimov (2021)*[145] va *Nurmatov (2023)*[146] tadqiqotlarida ESGning mahalliy korxonalarda joriy etilishi iqtisodiy samaradorlik va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim omil sifatida qayd etilgan.

Ilmiy nazariya nuqtai nazaridan, ESG tamoyillari barqaror rivojlanishning integrativ modeli sifatida baholanadi. Ushbu yondashuvda iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik muhofaza uyg‘unlikda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotchilar ESGni “uchinchi avlod iqtisodiy siyosat tamoyili” deb atashmoqda, chunki u klassik iqtisodiy o‘sish nazariyasidan farqli ravishda, ko‘p o‘lchovli samaradorlikka asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy poydevori sifatida BMTning 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari[147], Yevropa Komissiyasining *“Green Deal”* dasturi[148] hamda Global Reporting Initiative (GRI)[149] standartlariga asoslanadi. Shu bilan birga, korporativ ijtimoiy mas’uliyat va ekologik iqtisodiyot nazariyalari ESG tamoyillarini tushuntirishda nazariy manba sifatida foydalanib kelinmoqda.

Deduktiv usul orqali ESG konsepsiyasining umumiy nazariy qoidalari ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirilmoqda, induktiv tahlilda esa xalqaro va milliy tajribalar asosida amaliy xulosalar shakllangan.

Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo davlatlarida ESGning hududiy siyosatda tatbiq etilishi tahlil qilinib, ularning afzal jihatlari va milliy sharoitda qo‘llanish imkoniyatlari baholangan. Benchmarking usulidan foydalagan holda, O‘zbekistonda ESG mezonlarini joriy etishda xalqaro tajribadan kelib chiqib qiyosiy modellar ishlab chiqildi.

Hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar (YaHM o‘sishi, investitsiya miqdori, ishsizlik darajasi, ijtimoiy infratuzilma holati) ESG mezonlari bilan uyg‘un holda tahlil etildi. Shu orqali iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga e’tibor qaratildi.

---

[144] Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. (2019). “Яшил иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”. Тошкент.

[145] Каримов, Ш. (2021). Ўзбекистонда ESG тамойилларини жорий этиш имкониятлари. Тошкент давлат иқтисодиёт университети илмий журналлари.

[146] Нурматов, Б. (2023). Ҳудудий иқтисодий сиёсатда экологик барқарорлик ва ESG мезонлари. “Иқтисодиёт ва инновациялар” журнали, №2.

[147] United Nations (2015) – Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development.

[148] European Commission (2020) – The European Green Deal.

[149] GRI (2021) – Sustainability Reporting Standards.

ESG tamoyillarini milliy iqtisodiyot va hududiy siyosatga integratsiya qilishning “inersiyali”, “modern” va “innovatsion” ssenariylari ishlab chiqildi. Bu ssenariylar orqali ESGning o‘rta va uzoq muddatli ta’siri (2030 yilgacha) prognoz qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Hududiy iqtisodiyotlarda ekologik mezonlarning ahamiyati ortib bormoqda. Masalan, atmosfera chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hududning iqtisodiy samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmoqda. Empirik tahlillar ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiya kiritgan hududlarda ishlab chiqarish xarajatlari o‘rtacha 12–15% ga pasaygan, eksport salohiyati esa o‘sgan[150]. Shuningdek, tabiiy resurslarni tejash va “yashil infratuzilma”ga o‘tish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki investitsion jozibadorlikni ham oshiradi.

ESGning ijtimoiy yo‘nalishi aholi turmush sifati va hududiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, ijtimoiy infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar (maktab, shifoxona, transport) mahalliy aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ishsizlik darajasini kamaytiradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, so‘nggi besh yilda ijtimoiy sarmoyalarni ko‘paytirgan hududlarda ishsizlik darajasi o‘rtacha 2,5–3% ga pasaygan, mehnat unumdorligi esa 8–10% ga oshgan[151][152]. Bu ESG tamoyillari ijtimoiy samaradorlik orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishini anglatadi.

ESGning boshqaruv komponenti hududiy siyosatda institutsional sifatni belgilaydi. Davlat boshqaruvida hisobdorlik va shaffoflikni kuchaytirish orqali investorlar ishonchi mustahkamlanmoqda. Masalan, mahalliy hokimiyatlarda elektron hukumat tizimining joriy etilishi investitsiya loyihalari ko‘rib chiqilish muddatini o‘rtacha 25–30% ga qisqartirgan. Shu bilan birga, ESG hisobotlari va reyting tizimlarini joriy qilish orqali hududlarda investitsiya oqimi 15–20% ga oshgan.

Yevropa Ittifoqi tajribasi ESGni huquqiy va institutsional asosga qo‘yishning samaradorligini ko‘rsatadi. AQShda esa bozor mexanizmlari (ESG indekslari, fondlar) asosiy drayver hisoblanadi. Osiyo mamlakatlari esa ESGni texnologik yangilanish va ijtimoiy innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirgan. O‘zbekistonda ESG hali huquqiy va institutsional asos sifatida to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, “yashil iqtisodiyot” dasturlari, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari va raqamli boshqaruv islohotlari ESGga qadamma-qadam yaqinlashishning amaliy ifodasi hisoblanadi.

[150] World Bank (2020) – World Development Report.
[151] Нурматов (2023) – Ҳудудий сиёсатда ESG мезонлари.
[152] Каримов (2021) – Ўзбекистонда ESG жорий этиш имкониятлари.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ESG tamoyillari hududiy siyosatda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishning uyg‘unlashuv nuqtasi hisoblanadi. Uning afzalligi shundaki, iqtisodiy samaradorlik nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarda, balki aholi turmush sifati va ekologik barqarorlikda ham ifodalanadi.

Biroq, amaliyotda qator cheklovlar mavjud: ESG baholash uchun milliy indikatorlar tizimi yo‘qligi, korxonalarning ESG hisobotini tayyorlash malakasi yetarli emasligi va moliyaviy resurslar cheklanganligi. Shu sababli, milliy siyosatda ESGni institutsionallashtirish, mahalliy korxonalar uchun ESG standartlari ishlab chiqish va xorijiy investitsiyalarni ESG mezonlari orqali jalb qilish zarur.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari hududiy iqtisodiy siyosatda barqaror rivojlanishning strategik asosi ekanini ko‘rsatdi. ESG orqali hududlarda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtiriladi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqladiki, ESGni huquqiy, institutsional va iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi sifatida qabul qilish hududiy rivojlanish modellarining uzoq muddatli samaradorligini oshiradi. O‘zbekistonda esa ESG tamoyillari hali to‘liq institutsionallashmagan bo‘lsa-da, “yashil iqtisodiyot” strategiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalari va raqamli boshqaruv tizimlari orqali amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Shu bilan birga, milliy siyosatda ESGni yanada samarali yo‘lga qo‘yish uchun qator takliflar ilgari surish mumkin.

Birinchidan, hududiy rivojlanish jarayonlarini baholashda yagona ESG indikatorlari va milliy hisobot standartlarini ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishda ESG mezonlarini asosiy talab sifatida joriy etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, yirik va o‘rta korxonalar uchun ESG hisobotini tayyorlash majburiy qilinadigan tizim yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Shu bilan birga, ijtimoiy innovatsiyalar dasturlari orqali aholi turmush sifati oshirilishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari modernizatsiya qilinishi zarur. Ekologik yo‘nalishda esa qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash va resurs tejamkor ishlab chiqarish sohalarida davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotdan olingan xulosalar shuni anglatadiki, ESG tamoyillarini institutsional va huquqiy asoslarda kuchaytirish, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ESG tamoyillari O‘zbekistonda hududiy barqaror rivojlanish va biznes transformatsiyasining kuchli drayveriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: Aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. Journal of Sustainable Finance & Investment, 5(4), 210–233.
2. European Commission. (2020). The European Green Deal. Brussels: EU Publications.
3. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: UN.
4. Global Reporting Initiative (GRI). (2021). Sustainability Reporting Standards. Amsterdam: GRI.
5. Carroll, A. B., & Brown, J. A. (2018). Corporate social responsibility: A review of current concepts, research, and issues. Business & Society, 57(1), 1–31.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. (2019). “Яшил иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”. Тошкент.
7. Каримов, Ш. (2021). Ўзбекистонда ESG тамойилларини жорий этиш имкониятлари. Тошкент давлат иқтисодиёт университети илмий журнали.
8. Нурматов, Б. (2023). Ҳудудий иқтисодий сиёсатда экологик барқарорлик ва ESG мезонлари. “Иқтисодиёт ва инновatsiялар” журнали, №2.
9. World Bank. (2020). World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. Washington, DC: World Bank.
10. OECD. (2021). Regional Development and ESG Integration: Policy Approaches and Best Practices. Paris: OECD Publishing.

ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SANOAT CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Yusupov Ulug‘bek Mamayusupovich
Angren universiteti “Iqtisodiyot va moliya” kafedra mudiri
E-mail: uyusupov076@gmail.com
Orcid: 0009-0000-1730-8173

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida tashkil etishning barqaror rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Dunyo miqyosida ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida chiqindilar miqdori ham keskin oshib bormoqda. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va hududlarning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada sanoat chiqindilarini qayta ishlashda sirkulyar iqtisodiyot yondashuvlari, yashil texnologiyalarni joriy etish, ESG standartlari asosida korxonalar faoliyatini baholash mexanizmlari hamda xalqaro tajribalar o‘rganiladi. Shuningdek, chiqindilarni energiya manbaiga aylantirish va ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlashning iqtisodiy va ijtimoiy samaralari yoritiladi. Tadqiqot natijalari, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ESG tamoyillarining muhim drayver sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ESG tamoyillari, barqaror rivojlanish, sanoat chiqindilari, chiqindilarni qayta ishlash, sirkulyar iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, ekologik xavfsizlik, biznes transformatsiyasi.

Аннотация. *В этой статье анализируется влияние организации процессов переработки отходов на промышленных предприятиях на основе принципов ESG (Environmental, Social, Governance) на устойчивое развитие. Вследствие роста мировых производственных объемов резко увеличивается количество отходов. Поэтому важное значение приобретают обеспечение экологической безопасности, рациональное использование ресурсов и поддержка устойчивого развития территорий. В статье изучаются подходы циркулярной экономики к переработке промышленных отходов, внедрение зеленых технологий, механизмы оценки деятельности предприятий на основе стандартов ESG, а также международный опыт. Также освещаются экономические и социальные эффекты от преобразования отходов в источники энергии и вторичное сырье. Результаты исследования показывают, что совершенствование системы управления отходами на промышленных предприятиях способствует достижению целей устойчивого развития в качестве важного драйвера применения принципов ESG.*

Ключевые слова: *принципы ESG, устойчивое развитие, промышленные отходы, переработка отходов, циркулярная экономика, зеленые технологии, экологическая безопасность, трансформация бизнеса.*

Abstract. *This article analyzes the impact of the organization of waste processing processes at industrial enterprises based on the principles of ESG (Environmental, Social, Governance) on sustainable development. Due to the growth of global production volumes, the amount of waste is increasing sharply. Therefore, ensuring environmental safety, rational use of resources, and supporting the sustainable development of territories are becoming important. The article explores the approaches of the circular economy to the processing of industrial waste, the introduction of green technologies, the mechanisms for evaluating the activities of enterprises based on ESG standards, as well as international experience. The economic and social effects of transforming waste into energy sources and secondary raw materials are also highlighted. The results of the study show that improving the waste management system at industrial enterprises contributes to achieving the goals of sustainable development as an important driver for the application of ESG principles.*

Keywords: *ESG principles, sustainable development, industrial waste, waste recycling, circular economy, green technologies, environmental safety, business transformation.*

Kirish

XXI asrda global miqyosda sanoat ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga kengayib bormoqda. Ushbu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, u keltirib chiqargan salbiy oqibatlar ham tobora keskinlashmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining ortishi chiqindilar miqdorining keskin ko‘payishiga olib kelmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2020- yilda dunyo bo‘yicha maishiy chiqindilar hajmi 2,1 milliard tonnani tashkil etgan. Agar mavjud tendensiyalar davom etsa,
2050- yilga kelib bu raqam 3,8 milliard tonnagacha oshishi prognoz qilinmoqda. Sanoat chiqindilarining o‘sishi ham tashvishli: faqatgina elektron chiqindilar (e-waste) hajmi 2010- yildagi 34 milliard kilogrammdan 2022- yilda 62 milliard kilogrammgacha yetdi va 2030- yilga borib 82 milliard kilogrammga chiqishi

mumkin. Bunday ko‘rsatkichlar atrof-muhit, inson salomatligi va barqaror rivojlanishga bevosita xavf tug‘diradi [1].

Chiqindilar muammosi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham jiddiy oqibatlarga sabab bo‘ladi. Yer resurslari va suv havzalarining ifloslanishi, havodagi zararli gazlarning ko‘payishi hududlarda yashash sifatini yomonlashtiradi. Shuningdek, chiqindilarni noqonuniy tashlash yoki ochiq yoqish natijasida karbonat angidrid va boshqa zararli gazlar chiqindilari ko‘payib, iqlim o‘zgarish jarayonlarini tezlashtiradi. Shu bois chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash masalasi bugungi kunda nafaqat ekologlar, balki iqtisodchilar, siyosatchilar va jamiyatning barcha qatlamlari diqqat markazida turibdi.

Ana shunday sharoitda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. ESG mohiyatan korxonalar faoliyatini faqat moliyaviy natijalar orqali emas, balki ekologik ta’sir, ijtimoiy mas’uliyat va boshqaruvning shaffofligi orqali ham baholashni nazarda tutadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, bugungi kunda yirik kompaniyalarning qariyb 95 foizi ESG bo‘yicha hisobotlarni e’lon qilmoqda. Investorlarning esa 90 foizdan ortig‘i o‘z qarorlarini qabul qilishda ESG ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratmoqda. Bu esa mazkur tamoyillarning nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishda, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ham strategik ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi [2].

Sanoat chiqindilarini qayta ishlash ESG tamoyillarining eng muhim tarkibiy qismidir. Qayta ishlash orqali nafaqat chiqindilar hajmi kamayadi, balki tabiiy resurslardan foydalanish bosimi ham yengillashadi. Masalan, Xalqaro Energetika Agentligi hisob-kitoblariga ko‘ra, qayta ishlash darajasini hozirgi 41 foizdan 2030 yilga kelib 47 foizga oshirish material ishlab chiqarish natijasidagi issiqxona gazlari chiqindilarini 20 foizga kamaytirishi mumkin. Bu raqamlar qayta ishlash jarayonining nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorligini ham yaqqol namoyish etadi [3].

O‘zbekiston sharoitida ham chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash masalasi dolzarbdir. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022- yilda mamlakat bo‘yicha 105 million tonnadan ortiq sanoat chiqindilari hosil bo‘lgan. Ulardan atigi 32 foizi qayta ishlangan yoki ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanilgan. Qolgan qismi esa chiqindixonalarga tashlangan yoki vaqtinchalik saqlash joylarida yig‘ilib qolgan. Bu esa iqtisodiy resurslarning samarasiz ishlatilishidan tashqari, ekologik xavflarni ham kuchaytiradi [4]. Shu bois O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ESG tamoyillarini keng tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy g‘oyasi “olish–ishlab chiqarish–foydalanish–tashlash” kabi chiziqli modeldan voz kechib, resurslarning qayta aylanishiga

asoslangan iqtisodiy tizimni shakllantirishdir. Bunda chiqindilar ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlanadi, energiya manbai sifatida foydalaniladi yoki boshqa sohalarda qayta iste'mol qilinadi. Bu nafaqat chiqindilar hajmini kamaytiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va mahalliy hamjamiyatlar uchun qo'shimcha foyda keltirish imkonini beradi.

Shunday qilib, sanoat chiqindilarini boshqarish masalasi bugungi global dunyoda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. ESG tamoyillari bu jarayonni yanada tizimli ravishda amalga oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va hududlarni yashil iqtisodiyot yo'nalishida rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaralmoqda. Ushbu maqola doirasida sanoat chiqindilarini qayta ishlashning ESG tamoyillari bilan uyg'unlashuvi, sirkulyar iqtisodiyotning amaliy ahamiyati va barqaror rivojlanishga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalari uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va biznesni transformatsiyalash borasida ilmiy va amaliy asoslarni taklif etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda ESG tamoyillari va sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinishi chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash masalalarining global darajadagi dolzarbligini ko'rsatmoqda. Turli tadqiqotchilar ESG tamoyillarini nafaqat investitsiya strategiyasi yoki korporativ boshqaruv mexanizmi sifatida, balki barqaror rivojlanishning asosiy drayveri sifatida baholashmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda birinchi navbatda ESG va chiqindilarni boshqarishning o'zaro bog'liqligi chuqur tahlil qilingan. Masalan, World Bank ning 2018-yilgi hisobotida qayd etilishicha, chiqindilar hajmi 2050-yilga kelib 70 foizga oshishi mumkin, shuning uchun ham davlat va xususiy sektor hamkorligida chiqindilarni qayta ishlash va ularni kamaytirish strategiyalari ishlab chiqilishi zarur. OECD tadqiqotchilari ham chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash choralarini ESG ko'rsatkichlarida aks ettirish korxonalarning ekologik mas'uliyatini oshirishini ta'kidlaydi [5].

Kapoor va Dhamija ESG tamoyillari va sirkulyar iqtisodiyot aloqalarini o'rganib, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining ESG reytingi yuqori bo'lishi nafaqat ularning moliyaviy natijalariga, balki ijtimoiy ishonch darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Ularga ko'ra, qayta ishlash orqali har yili dunyo bo'yicha 700 million tonnagacha karbonat angidrid ekvivalenti qisqartirilishi mumkin.

Shuningdek, Bocken va Short o'z tadqiqotlarida sirkulyar biznes-modellarning samaradorligini tahlil qilib, chiqindilarni qayta ishlash jarayonida innovatsion yondashuvlar – masalan, "industrial symbiosis" (korxonalar chiqindisini boshqa

korxona resurs sifatida ishlatishi) – iqtisodiy va ekologik foydani sezilarli darajada oshirishini isbotlaydi.

ESGning iqtisodiy ta’siri bo‘yicha ham adabiyotlarda ko‘plab qarashlar mavjud. Global Sustainable Investment Alliancening 2020-yilgi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalar hajmi 35 trillion AQSh dollaridan oshgan. Bu esa chiqindilarni qayta ishlash, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik xavfsizlikni kuchaytirish sohalariga qo‘shimcha kapital oqimini ta’minlamoqda [6].

Xalqaro Energetika Agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, qayta ishlash darajasini oshirish sanoatdagi issiqxona gazlari chiqindilarini 20 foizga kamaytirishi mumkin. Bu esa ESG tamoyillarini qo‘llagan korxonalar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi, balki iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ham faol rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo va O‘zbekiston olimlari ham bu masalaga e’tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, S. Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qayd etilishicha, O‘zbekistonda sanoat chiqindilarining hajmi yiliga 100 million tonnadan oshmoqda, ammo qayta ishlash ko‘rsatkichi hali past darajada – 30–35 foiz atrofida. Olimning fikricha, ESG tamoyillarini sanoat korxonalarida joriy etish chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida iqtisodiy aylanmaga qaytarish imkonini beradi [7].

Shuningdek, iqtisodchi olima D. Tursunova o‘z maqolasida sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasini O‘zbekiston sharoitida tatbiq etishning ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarini yoritib, chiqindilarni qayta ishlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, energiya resurslarini tejash va hududlarni barqaror rivojlantirish mumkinligini asoslaydi. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Yevropa Ittifoqi tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ham O‘zbekiston chiqindilarni boshqarish siyosatini takomillashtirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yayotgani, lekin texnologik va moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish zarurligi ta’kidlanadi. Jumladan, 2022-yilda chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha respublika miqyosida bir qator zamonaviy klaster loyihalari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali ham chiqindilarni to‘liq saralash va qayta foydalanishga yetarli infratuzilma mavjud emas [8].

Adabiyotlarda ESG tamoyillari va chiqindilarni qayta ishlashning ijtimoiy ta’siri ham keng yoritilgan. Masalan, Lozano o‘z tadqiqotida ESG mezonlariga amal qiluvchi korxonalarda xodimlarning ijtimoiy himoyasi yaxshilanishi, mehnat sharoitlari modernizatsiyalashishi va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik kuchayishini qayd etadi. Bu jarayon natijasida korxonalarning ijtimoiy kapitali ortadi, ularning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasi kengayadi [9].

Shuningdek, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoat chiqindilarini qayta ishlash va ESG tamoyillarini joriy etish nafaqat ekologik muammolarni kamaytirish, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim omil

hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar bu tamoyillarni amaliyotga joriy qilish global miqyosda katta foyda berishini isbotlagan bo‘lsa, milliy olimlar va tashkilotlar ularni O‘zbekiston sharoitida moslashtirish, tegishli texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ta’kidlamoqda. Demak, chiqindilarni qayta ishlashning barqaror rivojlanishga ta’siri haqida ilmiy adabiyotlarda keng qamrovli va dolzarb ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda analitik-tahliliy yondashuv asosida xalqaro va milliy ilmiy manbalar, statistik ma’lumotlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari o‘rganildi. Taqqoslash usuli yordamida O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi. Sistemali yondashuv asosida ESG tamoyillari va chiqindilarni boshqarish o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishi taraqqiyotning muhim drayveri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, uning ortidan hosil bo‘layotgan chiqindilar miqdori yil sayin ko‘payib, atrof-muhitga va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Dunyo miqyosida ekologik muammolarni kamaytirish uchun turli strategiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida chiqindilarni qayta ishlash jarayonini ESG tamoyillari asosida tashkil etish eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida ajralib turadi. ESG, ya’ni ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillari, sanoat korxonalarining nafaqat iqtisodiy samaradorligini, balki ijtimoiy mas’uliyatini va ekologik barqarorligini ham ta’minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Yevropa Ittifoqi davlatlari chiqindilarni qayta ishlash sohasida katta natijalarga erishganini ko‘ramiz. Masalan, 2020- yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Yevropada hosil bo‘layotgan chiqindilarning qariyb yarmi qayta ishlangan. Ayrim mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich yanada yuqori. Germaniyada chiqindilarning 67 foizi, Avstriyada 58 foizi, Niderlandiyada esa 56 foizi qayta ishlanmoqda. Bu yutuqlarga erishishda davlatning qat’iy siyosati, investitsiyaviy rag‘batlar va zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Bunday yondashuv nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy foydani ham ta’minlamoqda [10].

Moliyaviy jihatdan qaraganda ham chiqindilarni qayta ishlash sezilarli natija beradi. Xalqaro Energetika Agentligi hisob-kitoblariga ko‘ra, chiqindilarni samarali boshqarish global sanoatda issiqxona gazlari chiqindilarini 20 foizgacha kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, korxonalar qayta ishlangan xomashyo hisobiga o‘z xarajatlarini 25–30 foizgacha qisqartirish imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, alyuminiyni qayta ishlash yangi rudani qazib olishdan deyarli to‘qqiz

barobar arzon tushadi. Bu esa iqtisodiy jihatdan nafaqat korxonalar, balki butun mamlakatlar uchun katta foyda keltiradi.


1-jadval

Sanoat chiqindilari va qayta ishlash darajasi [11]

Davlat	Yillik chiqindi (mln tonna)	Qayta ishlash darajasi (%)	Qayta ishlangan chiqindi (mln tonna)
Germaniya	400	67	268
Avstriya	60	58	34.8
Niderlandiya	70	56	39.2
Yevropa Ittifoqi	2500	48	1200
O‘zbekiston	105	32	33.6

Yuqoridagi jadvalda turli davlatlarda sanoat chiqindilarining yillik hajmi va qayta ishlash darajalari ko‘rsatilgan. Germaniya, Avstriya va Niderlandiya kabi Yevropa davlatlarida chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori bo‘lib, Germaniyada 67 foiz, Avstriyada 58 foiz, Niderlandiyada esa 56 foizni tashkil etmoqda. Bu davlatlarda chiqindilarni qayta ishlash nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlamoqda, balki iqtisodiy foyda ham keltirmoqda. Masalan, Germaniyada yiliga 400 million tonna chiqindining 268 million tonnasi qayta ishlanadi. Bu natija zamonaviy texnologiyalar va qat’iy davlat siyosati samarasi hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 48 foizni tashkil qilmoqda, bu ham sezilarli daraja bo‘lib, chiqindilarning yarmi ikkilamchi aylanmaga qaytarilayotganini bildiradi. O‘zbekiston misolida esa chiqindilarni qayta ishlash darajasi atigi 32 foiz bo‘lib, bu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlarga qaraganda past hisoblanadi. Yillik 105 million tonna chiqindidan bor-yo‘g‘i 33,6 million tonnasi qayta ishlanmoqda, qolgan qismi esa chiqindixonalarda to‘planib qolmoqda.



1-rasm. Sanoat chiqindilarini qayta ishlash darajasi (%) [12]

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston uchun chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish dolzarb masaladir. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ESG tamoyillariga amal qilish va davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish orqali bu ko‘rsatkichlarni sezilarli oshirish mumkin.

O‘zbekiston sharoitida esa chiqindilarni qayta ishlash borasida muayyan muammolar saqlanib qolayotganiga qaramay, ijobiy o‘zgarishlar ham kuzatilmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda mamlakatda 105 million tonnadan ortiq sanoat chiqindilari hosil bo‘lgan. Ulardan atigi 32 foizi qayta ishlangan yoki ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanilgan. Qolgan qismi esa chiqindixonalar va poligonlarda saqlangan bo‘lib, bu nafaqat ekologik xavf tug‘diradi, balki katta iqtisodiy imkoniyatlarning yo‘qotilishiga ham sabab bo‘ladi.

Shunga qaramay, so‘nggi yillarda chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Masalan, 2021–2023 yillar oralig‘ida mamlakatimizda 200 ga yaqin qayta ishlash loyihalari ishga tushirilgan. Bu korxonalarning aksariyati plastmassa, qog‘oz va metall chiqindilarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Toshkent shahrida va ayrim viloyatlarda chiqindilarni dastlabki saralash tizimi joriy qilina boshladi. Bundan tashqari, chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha tajriba loyihalari ham yo‘lga qo‘yilmoqda. Bularning barchasi chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha davlat siyosati va xususiy sektor tashabbuslari uyg‘unlashayotganidan dalolat beradi.

Biroq mavjud vaziyat tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu sohada hali ko‘plab muammolar mavjud. Birinchidan, qayta ishlash quvvatlarining yetarli emasligi hamda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilmaganligi asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Ikkinchidan, chiqindilarni dastlabki saralash tizimi butun mamlakat bo‘ylab to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Uchinchidan, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi yangi loyihalarning keng joriy qilinishiga to‘sqinlik qilmoqda. Nihoyat, korxonalar darajasida ESG tamoyillarini tushunish va amaliyotda qo‘llash madaniyati hali ham shakllanish bosqichida.

Shu bilan birga, imkoniyatlar ham mavjud. ESG tamoyillari asosida ishlovchi korxonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi, chunki xalqaro moliya bozorida ekologik va ijtimoiy mas’uliyatli loyihalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Qayta ishlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholining bandligi oshadi va hududlar iqtisodiyoti jonlanadi. Ekologik muhit yaxshilangani sari hududlarning turizm salohiyati ortadi va yashash uchun qulayliklar kengayadi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chiqindilarni qayta ishlash ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bir vaqtning o‘zida foyda keltiradi. Ekologik tomondan, qayta ishlash atmosferaga chiqariladigan karbonat angidridni kamaytiradi, yer va suv resurslarini asraydi hamda ifloslanishni pasaytiradi. Iqtisodiy tomondan, ikkilamchi xomashyo yangi resurslarni qazib olishdan ko‘ra

ancha arzon bo‘lgani sababli korxonalar xarajatlarini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Ijtimoiy tomondan esa yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi, aholining turmush darajasi ko‘tariladi va jamiyatda ekologik mas’uliyat madaniyati shakllanadi.

Shunday qilib, ESG tamoyillarini sanoat chiqindilarini qayta ishlash jarayoniga tatbiq etish nafaqat ekologik muhitni yaxshilaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirib, hududlarni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlil va natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston uchun bu sohada imkoniyatlar keng bo‘lib, eng asosiy vazifa ularni to‘g‘ri yo‘naltirish va zamonaviy yondashuvlar orqali amalga oshirishdan iboratdir.

Xulosa

ESG tamoyillari asosida sanoat chiqindilarini boshqarish va qayta ishlash jarayonlari nafaqat ekologik muammolarni kamaytirishda, balki iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat korxonalarida chiqindilarni qayta ishlash orqali resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazishni minimallashtirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Germaniya, Niderlandiya va Avstriya kabi mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori bo‘lib, bu ularning sanoat samaradorligi va yashil iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda esa ushbu jarayon endigina rivojlanayotgan bo‘lsa-da, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik orqali ushbu ko‘rsatkichlarni oshirish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, ESG tamoyillarini joriy etish sanoat chiqindilarini qayta ishlashni jadallashtirib, mamlakatimizda barqaror iqtisodiyot qurilishining muhim drayveriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. United Nations. (2023). Sustainable Development Goals Report. New York: UN Publishing.

2. OECD. (2022). Circular Economy and Resource Efficiency. Paris: OECD Publishing.

3. World Bank. (2021). Waste Management and Recycling for Sustainable Growth. Washington DC.

4. Ellen MacArthur Foundation. (2020). Towards a Circular Economy. UK.

5. European Environment Agency. (2021). Waste Recycling in Europe. Copenhagen.

6. Porter, M., & Kramer, M. (2019). Creating Shared Value: ESG and Business Transformation. Harvard Business Review.

7. International Finance Corporation (IFC). (2022). ESG Standards in Emerging Markets. Washington DC.

8. Ministry of Ecology of Uzbekistan. (2023). Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha hisobot. Toshkent.

9. Karimov, A. (2022). “O‘zbekistonda chiqindilarni qayta ishlashning muammolari va istiqbollari.” TDIU Ilmiy Jurnali.

10. Ismoilova, N. (2021). “ESG tamoyillari va sanoat korxonalarida ularning qo‘llanilishi.” Moliya va Iqtisodiyot, №4.

11. PwC Global. (2022). ESG Reporting and Sustainable Finance. London.

12. Statista. (2023). Global Waste Generation and Recycling Statistics.

AGLOMERATSIYALARNING “YASHIL” IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Shohruh Mardonov
TDSHU tayanch doktoranti, o‘qituvchi
E-mail: shohruh_mardonov@tsuos.uz
Orcid: 0009-0002-2722-3231

Annotatsiya. *Aglomeratsiyalar, zich metropolitan va shahar klasterlari, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada aglomeratsiyalarning yashil rivojlanishga ta’sirini baholash uchun uchta asosiy ko‘rsatkich – CO_2 chiqindilari, yashil ish o‘rinlari va energiya intensivligi tahlil qilinadi. Jahon banki, OECD, BMT-Habitat, xalqaro ilmiy maqolalar va global ma’lumotlar bazalari asosida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aglomeratsiyalar energiya bilan bog‘liq chiqindilarning asosiy qismini ishlab chiqarsada, ular har bir kishiga to‘g‘ri keladigan chiqindilarni kamaytirish, ko‘plab yashil ish o‘rinlari yaratish va energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Faqat, infratuzilmaviy, institutsional va siyosiy omillar bunga moslashtirilgan bo‘lsa bu o‘z samarasini beradi. Maqola yakunida aglomeratsiyalarning yashil salohiyatini maksimal darajada oshirish bo‘yicha ijtimoiy iqtisodiy tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Aglomeratsiya, “yashil” iqtisodiyot, urbanizatsiya, iqlim, energetika, integratsiya, intensivlik, modernizatsiya.*

Аннотация. *Агломерации, плотные метрополитенские зоны и городские кластеры – играют важную роль в процессе перехода к «зеленой» экономике. В данной статье оценивается влияние агломераций на развитие «зеленой» экономики на основе трех ключевых показателей: выбросов CO_2, «зеленых» рабочих мест и энергоёмкости. Анализ, проведённый на основе данных Всемирного банка, ОЭСР, ООН-Хабитат, международных научных публикаций и глобальных статистических баз, показал, что, несмотря на то что агломерации производят основную часть энергозависимых выбросов, они также обладают потенциалом для снижения выбросов CO_2 в расчёте на душу населения, создания значительного числа «зеленых» рабочих мест и повышения энергоэффективности. Однако такие положительные результаты возможны лишь при наличии соответствующих инфраструктурных, институциональных и политических условий. В заключительной части статьи представлены социально-экономические рекомендации, направленные на максимальное раскрытие «зеленого» потенциала городских агломераций.*

Ключевые слова: *агломерация, «зеленая» экономика, урбанизация, климат, энергетика, интеграция, интенсивность, модернизация.*

Abstract. *Agglomerations - dense metropolitan areas and urban clusters–play a crucial role in the transition toward a green economy. This paper evaluates the impact of agglomerations on green economic development through three key indicators: CO_2 emissions, green employment, and energy intensity. Based on analyses of data from the World Bank, OECD, UN-Habitat, peer-*

reviewed scientific studies, and global statistical databases, the findings reveal that while agglomerations account for the majority of energy-related emissions, they also provide significant opportunities to reduce per capita CO_2 emissions, create a large number of green jobs, and improve energy efficiency. However, these positive outcomes are only achievable when infrastructural, institutional, and policy frameworks are properly aligned. The paper concludes with socio-economic recommendations aimed at maximizing the green potential of urban agglomerations.

Keywords: *agglomeration, green economy, urbanization, climate, energy, integration, intensity, modernization.*

Kirish

Aglomeratsiyalar - ya'ni mehnat bozorlari, infratuzilma va harakatlanish tizimlari o'zaro chambarchas bog'langan yirik metropolitan hududlar yoki shaharlardan iborat klasterlar - iqlim o'zgarishi va ekologik tanazzul sharoitida ham muammo, ham imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi (UN-Habitat, 2024). Bir tomondan, ular aholi, ishlab chiqarish va energiya iste'molini jamlaydi, bu esa chiqindilar hajmini oshiradi. Boshqa tomondan, aglomeratsiyalar iqtisodiy miqyos samarasi, texnologik almashuv va resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Aglomeratsiyalarning yashil iqtisodiyotga ta'sirini tushunish barqaror o'sishga intilayotgan mamlakatlar uchun juda muhimdir. Ayniqsa, quyidagi uchta ko'rsatkich asosiy ahamiyat kasb etadi:

CO_2 chiqindilari - umumiy va jon boshiga nisbatan ko'rsatkichlar shaharlarning ekologik yukini aks ettiradi;

Yashil ish o'rinlari - past uglerodli, qayta tiklanuvchi energiya va barqaror sohalarda bandlikni ko'rsatadi;

Energiya intensivligi - yalpi ichki mahsulot (YaIM) birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfini ifodalaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi - eng so'nggi ilmiy tadqiqotlar va rasmiy ma'lumotlar asosida aglomeratsiyalarning ushbu ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilish, ularni belgilovchi omillarni aniqlash va siyosiy choralar orqali ijobiy ta'sirni kuchaytirish yo'llarini aniqlashdir.

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotlar shuni ko'rsatadi: agglomeratsiyalar - ham xavf, ham imkoniyat manbai. Ularning chiqindilari katta bo'lishi mumkin, ammo to'g'ri rejalashtirish (transport-yo'naltirilgan, kompakt shahar), binolarni dekarbonizatsiya qilish va inkluziv mehnat siyosatlari yordamida ular yashil iqtisodiyot uchun engine (dvigatel)ga aylanishi mumkin. OECD va UN-Habitat kabi manbalar amaliy tavsiyalar va ssenariylarni taqdim etadi, World Bank esa shaharlardagi emissiyalarni yuqori rezolyutsiyada o'lchash vositalarini taqdim etadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi ikkilamchi ma’lumotlar tahlili, ilmiy adabiyotlar sintezi va empirik dalillarni taqqoslash asosida shakllantirilgan. Maqsad - aglomeratsiyalar (shahar klasterlari)ning yashil iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sirini tizimli ravishda aniqlash va bu jarayonda ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni ajratib ko‘rsatishdir. Turli tadqiqotlardan olingan asosiy sonli natijalar (ulushlar, o‘sish sur’atlari, ish o‘rinlari) solishtirildi; mintaqalar, daromad darajasi va shahar hajmi bo‘yicha farqlar tahlil qilindi; siyosiy omillar aniqlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

UN-Habitat ma’lumotlariga ko‘ra, yakuniy energiya iste’molining 71–76 foiz CO_2 chiqindilari shahar hududlariga to‘g‘ri keladi. Jahon banki tomonidan 1200 ga yaqin shaharlar bo‘yicha 2014–2020 yillarda olib borilgan tadqiqotlar bu natijani tasdiqlaydi.

Shunga qaramay, jon boshiga chiqindilar sezilarli darajada farqlanadi: ixcham, zich joylashgan aglomeratsiyalarda transport masofasi qisqa va binolar samaraliroq bo‘lgani sababli bu ko‘rsatkich past bo‘ladi. Ammo keng yoyilgan megashaharlarda chiqindilar yuqori.

1-jadval

Aglomertasiyalar va yashil iqtisodiyotni aloqasini ta’minlovchi elementlarga sharh


Tushuncha	Ta’rif	O‘lchov birliklari
Aglomeratsiya	Bir-biriga iqtisodiy, transport va ijtimoiy jihatdan bog‘langan shaharlar yoki metropolitan hududlar majmuasi.	Aholi zichligi (kishi/km²), transport aloqadorligi, YaIM ulushi.
CO_2 chiqindilari	Yakuniy energiya iste’molidan hosil bo‘ladigan uglerod chiqindilari.	Million tonna yoki jon boshiga kg/CO_2.
Yashil ish o‘rinlari	Qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik infratuzilma kabi sohalardagi bandlik.	Ish o‘rinlari soni, foiz ulushi umumiy bandlikdan.
Energiya intensivligi	YaIM birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi.	MJ/US$ (PPP) yoki MWh/aholi.

Manba: OECD va World bank ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ko‘pgina tadqiqotlar ixcham shaharlar energiya intensivligini kamaytirishini ko‘rsatadi. Ammo tez industriallashayotgan hududlarda umumiy energiya sarfi ortadi, natijada umumiy foyda cheklangan bo‘lishi mumkin (MDPI, 2022).

OECD modellashtirishlariga ko‘ra, yuqori darajadagi shahar dekarbonizatsiyasi (binolarni modernizatsiya qilish, ommaviy transportni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya joriy etish) natijasida 2030-yilga borib 87 milliongacha yashil ish o‘rni yaratilishi mumkin.

Ammo bu ish o‘rinlari notekis taqsimlanadi: aglomeratsiyalar infratuzilmasi rivojlanganligi sababli, ular sarmoyani ko‘proq jalb qiladi. Shu sababli past malakali yoki qishloq aholisi uchun qayta tayyorlash va inklyuziv siyosatlar muhim.



1-chizma. Aholi soni 4 milliondan ortiq aholisi OECD metropoliten hududlarida sektor bo‘yicha aholi jon boshiga CO2 issiqxona gazining sohalar bo‘yicha ulushi 2022 (T CO2-eq / inhabitant)[153]

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, aholi soni 4 mlnda oshga bir guruh OECD mamlakatlarida energiya va sanoat maxsulotlari ishlab chiqarishda issiqxona gazlari qolgan barcha sohalrning yig‘indisidan ham ko‘p. Buni 1-jadvaldagi ko‘rsatkichlardan ham anglab olishimiz mumkin. Chikago, Los-Anjeles shaharlarida transport sektori CO_2 chiqindilarining asosiy manbai bo‘lib qolmoqda. Milan, Parij, Berlin shaharlarida esa binolar va energiya sektori asosiy hissador, lekin energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi manbalarga o‘tish tufayli umumiy chiqindilar pasaygan. Anqara va Meksiko shaharlarida energetika va sanoat sektorlari yuqori, chunki elektr ishlab chiqarishda yoqilg‘i va sanoat energiya iste’moli yuqori hisoblanadi. Bogota shahrida qolganlaridan farqli o‘laroq chiqindilar sektori nisbatan yuqori hisoblanadi. Buning sababi esa chiqindilarni qayta ishlash tizimi yetarli emas.

Aglomeratsiyalar yashil iqtisodiyot uchun ikki yoqlama ta’sir ko‘rsatadi: ular chiqindilarni jamlaydi, biroq innovatsiya va investitsiyaning markazi sifatida ijobiy o‘zgarishlarga ham turtki beradi. Natija asosan urban rejalashtirish, iqtisodiy tuzilma va siyosiy choralarning uyg‘unligiga bog‘liq.

Mavzuning yakunlovchi muhokama qismi sifatida quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy tavsiyalar aytib o‘tisni joiz deb topdik:

1. Integratsiyalashgan urban rejalashtirish: Ixcham, transportga yo‘naltirilgan va aralash foydalanishga asoslangan shahar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

[153]**Manba:** https://www.oecd.org/en/topics/climate-and-resilience-in-cities.html?utm

2. Binolarni modernizatsiya qilish: Energiya tejamkor dizayn, izolyatsiya, toza isitish-sovitish tizimlari uchun soliq imtiyozlari va normativlar.

3. Barqaror transport: Ommaviy transport, piyoda va velosiped harakati uchun sarmoya kiritish; xususiy avtomobilga qaramlikni kamaytirish.

4. Inklyuziv yashil bandlik siyosati: Kasb-hunar o‘qitish, kam ta’minlangan qatlamlarni ish bilan ta’minlash, xususiy sektor bilan hamkorlik mexanizmlari.

5. Moliyaviy va tartibga soluvchi vositalar:

Uglerod soliqlari, yashil obligatsiyalar, energiya subsidiyalari va jamoatchilik ishtirokini ta’minlovchi boshqaruv tizimlari.

Xulosa

Aglomeratsiyalar yashil iqtisodiyotga o‘tishning markaziy sub’yektidir. Ular global chiqindilarning katta qismini ishlab chiqarsada, to‘g‘ri siyosat va infratuzilma orqali jon boshiga chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va yashil ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi. Barqaror va adolatli urban o‘sishni ta’minlash uchun aglomeratsiyalarni faqat muammo emas, balki yashil innovatsiya va inklyuziv rivojlanish dvigateli sifatida ko‘rish zarur. Aglomeratsiyalar samarasi natijasida markaziy shaharlardagi chiqindilar mummmosi bartaraf etib borilmoqda. Bundan tashgqari CO2 ni ham kamaytirish uchun shaharlardagi ishlab chiqarish korxonlari shahr chetiga chiqarilishi va ularning o‘rnida aholi uchun yaxshi ish o‘rinlarini yaratishga imkon bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. OECD. Green Growth in Cities: Key Findings and Policy Options. Paris: OECD Publishing, 2023.

2. OECD. Climate and Resilience in Cities. Paris: OECD Publishing, 2024.

3. OECD. Decarbonising Buildings in Cities and Regions. Paris: OECD Publishing, 2023.

4. UN-Habitat. World Cities Report 2024. Nairobi: UN-Habitat, 2024.

5. World Bank. Urban CO_2 Emissions: A Global Analysis (satellite-derived emissions mapping over ~1,200 cities, 2014-2020). Washington, DC: World Bank Publications, 2023.

6. MDPI. Ding, R., et al. (2022). “Does the Urban Agglomeration Policy Reduce Energy Intensity?” International Journal of Environmental Research and Public Health, 19(22), 14764. https://doi.org/10.3390/ijerph192214764

7. Yang, Z., et al. (2025). Scaling laws of CO_2 emissions during global urbanization. Urban Sustainability Review, 1(1), 50–68.

O‘ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT SAMARADORLIGIGA EKO-MARKETING TA’SIRINI TAHLIL QILISHDA SUN’IY INTELLEKT VA MASHINAVIY O‘RGANISHGA ASOSLANGAN YANGI EKONOMETRIYA YONDASHUVI

Usmonova Diyora Mahmud qizi
TDIU “Marketing kafedrasi” doktoranti
E-mail: usmonova.diyora@inbox.ru
Orcid: 0000-0001-6755-8779

Annotatsiya. *Hozirgi vaqtda O‘zbekiston uzumchilik korxonalarining eko-marketing strategiyasi yashil raqobatbardoshlikni oshirishda va eksportni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – eko-samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha eksport faoliyati regionlar va milliy miqyosda qanday prognoz qilinishi mumkinligini aniqlash: xususan, korrelyatsiya, regressiya tahlili va umumiy statistika modellari yordamida. Buning uchun so‘nggi besh yil ma’lumotlari va o‘nta operatsion o‘zgaruvchi – xlorofill indeksi, shakar to‘planishi, resurslardan foydalanish samaradorligi, eko-sertifikat ballari, eksport hajmi (EV), yog‘ingarchilik ma’lumotlari, harorat indeksi, ta’minot zanjiri kechikishi, sug‘orish chastotasi va tuproq sifat indeksi – modellarga kiritildi. An’anaviy ma’lumotlar to‘plamidan foydalanish o‘rniga, ushbu tadqiqotda moslashtirilgan sun’iy intellekt orqali yaratilgan o‘zgaruvchilar eksportning tebranishlarini yanada nozik xususiyatlarini ushlab qolish va yaxshiroq prognoz qilish imkonini beradi, garchi ushbu tizim faqat mos o‘rgatish (moslashtirilgan o‘rganish) jarayonining boshlang‘ich bosqichini taklif qilsa ham. Tadqiqot so‘nggi o‘n yillik (2013–2023) davomida longitudinal ma’lumotlar to‘plamini yig‘di va eksport korxonalari eko-ko‘rsatkichlari bilan turli marketing omillari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni tahlil qilish uchun regressiya va mashinaviy o‘rganish (machine learning) modellarini qo‘lladi. Mos prognoz tizimlarini loyihalashda asosiy metod – sun’iy intellekt (AI) yordamida moslashtirilgan tanlash sxemasi bo‘lib, eko-eksport tahlili uchun shu turdagi maxsus mos modellashtirish adabiyotda ilgari qayd etilmagan. Shu sababli, ushbu yondashuv ma’lumotlar assimetrikligi bo‘lgan hollarda prognoz xatosini kamaytirishga xizmat qiladi – ayniqsa namunaviy ma’lumotlar soni cheklangan bo‘lganda – eng kam korrelyatsiyaga ega prediktorlar bilan ishlashga ustunlik beradi. Ushbu tahlilda ma’lum darajada aniqlikka erishilgan bo‘lsa-da, uning mustahkamligini tasdiqlash uchun keyingi tekshiruvlar zarur.*

Kalit so‘zlar*: eko-marketing, eksport samaradorligi, uzum sanoati, moslashtirilgan o‘rganish, AI-ML prognozlash, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, ekonometriya modellashtirish.*

Аннотация. *В настоящее время экомаркетинговая стратегия винодельческих предприятий Узбекистана играет важную роль в повышении "зеленой" конкурентоспособности и стимулировании экспорта. Основная цель данного исследования - определить, как можно прогнозировать экспортную деятельность на региональном и национальном уровне по показателям экоэффективности, в частности, с помощью корреляционного, регрессионного анализа и общих статистических моделей. Для этого в модели были включены данные за последние пять лет и десять операционных переменных - индекс хлорофилла, накопление сахара, эффективность использования ресурсов, баллы экосертификации, объем экспорта (EV), данные о осадках, индекс температуры, задержка цепочки поставок, частота орошения и индекс качества почвы. Использование адаптированных к искусственному интеллекту переменных позволяет лучше уловить тонкие особенности колебаний экспорта и делать более точные прогнозы, хотя эта система пока предлагает только начальную фазу адаптивного обучения. Исследование собрало продольные данные за последнее десятилетие (2013–2023) и применило регрессионные и машинные модели обучения для анализа взаимодействий между*

экопоказателями экспортных предприятий и различными маркетинговыми факторами. Основным методом при разработке соответствующих прогнозных систем является адаптивная выборка с помощью искусственного интеллекта (AI), что не упоминалось ранее в литературе по анализу экоэкспорта. Таким образом, этот подход позволяет уменьшить ошибку прогноза в случае асимметрии данных, особенно когда количество образцов ограничено, и отдает предпочтение работе с предикторами с наименьшей корреляцией. Хотя в этом анализе достигнута определенная точность, для подтверждения ее устойчивости необходимы дальнейшие проверки.

Ключевые слова: *экомаркетинг, эффективность экспорта, винодельческая промышленность, адаптивное обучение, AIML-прогнозирование, сельское хозяйство Узбекистана, эконометрическое моделирование.*

Annotation. *At present, the eco-marketing strategy of Uzbekistan's grape processing enterprises plays an important role in increasing green competitiveness and promoting exports. The main purpose of this study is to determine how export activity can be forecast at the regional and national level in terms of eco-efficiency indicators: in particular, using correlation, regression analysis and general statistical models. To this end, the last five years' data and ten operational variables - chlorophyll index, sugar accumulation, resource use efficiency, eco-certification scores, export volume (EV), precipitation data, temperature index, supply chain delay, irrigation frequency, and soil quality index - were included in the models. Instead of using a traditional dataset, the use of variables created through adapted artificial intelligence in this study allows for the capture of more subtle features of export fluctuations and better forecasting, although this system only offers the initial stage of the adaptation (adapted learning) process. The study collected a longitudinal dataset over the past decade (2013-2023) and applied regression and machine learning models to analyze the interactions between the eco-indicators of export enterprises and various marketing factors. The main method in designing the corresponding forecasting systems is an adapted selection scheme with the help of artificial intelligence (AI), and this type of specialized appropriate modeling for eco-export analysis has not been previously recorded in the literature. Therefore, this approach serves to reduce the forecast error in cases of data asymmetry - especially when the sample size is limited - by favoring the use of predictors with the least correlation. Although a certain degree of accuracy has been achieved in this analysis, further testing is necessary to confirm its robustness.*

Keywords: *eco-marketing, export efficiency, grape industry, adapted learning, AIML forecasting, Uzbekistan agriculture, econometric modeling.*

Kirish

Ba’zi olimlar eksportni diversifikatsiyalash va agrobiznesning raqamli transformatsiyasini ekonometriya tahlil metodlari orqali muhim deb biladilar va gibrid modellar taklif qiladilar (Sultonova va boshq., 2024; Isokhujaeva, 2024). Eksport samaradorligi – bu murakkab, ko‘p o‘lchovli holat bo‘lib, atrof-muhit, texnologiya va marketing omillari bilan bog‘liq dinamika tomonidan shakllanadi; iqlim noturg‘unligi, resurslarning intensivligi, ta’minot zanjiri kechikishlari va ma’lumotlarning nozikligi kabi qator muammolar bilan birga keladi. Umuman olganda, eksport tizimini monitoring qilish va prognoz qilishda ikki asosiy yondashuv ishlatiladi: ekonometriya metodlari va mashinaviy o‘rganish usullari. Bundan tashqari, mashinaviy o‘rganish ekosistemaga mos ravishda eng mos

prediktorlarni tanlash imkonini beradi, boshqa modellarda esa odatda yagona koeffitsiyentlardan foydalaniladi (Gatou va boshq., 2024; Holasou va boshq., 2024).

Qishloq xo‘jaligida eko-marketing vositalarining barqaror qo‘llanilishi ortib bormoqda; ammo turli operatsion kontekstlarda va ekologik ko‘rsatkichlarda ba’zi yechilmagan muammolar bartaraf etilishi lozim (Alqudah va boshq., 2024; Solomon va boshq., 2024). An’anaviy modellar ko‘pincha mavjud standart ma’lumotlar to‘plamlari – yog‘ingarchilik, harorat, tuproq sifati, xlorofill indeksi, shakar to‘planishi, eksport hajmi va hokazo – bilan cheklanishadi; prediktor eksport tebranishi bilan yaxshi korrelyatsiyaga ega bo‘lishi-yoki bo‘lmasligi e’tiborga olinmaydi (Baev, 2023; Islamov va boshqa mualliflar, 2023). Eksport hajmining kutilmagan pasayishi yuzaga kelganda, uning sabablarini aniqliqlarsiz qoldirish hukumat va ishlab chiqaruvchilar uchun eng yomon vaziyat bo‘ladi. Bu mos siyosat choralarini joriy qilishni kechiktiradi va pasayishning yanada kuchayishiga olib keladi (Tukhtabaev va boshq., 2022).

Hozirgi tadqiqot yo‘nalishlari odatda yashil transformatsiya, bozor tuzilmasini qayta shakllantirish va raqamlashtirishga javoban reglamentlar, AI asosidagi prognoz vositalarini rivojlantirish, uzum turlarini tasniflash, eko-marketing kanallarini qo‘llash, past karbonli ishlab chiqarish ekologik tizimlarida manfaatdor tomonlarni rag‘batlantirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi (Durmanov va boshq., 2024; Arora va boshq., 2023). Eksportdagi beqarorlikni keltirib chiqaruvchi ko‘rsatkichlarni aniqlash uchun adabiyotda turli texnikalar – korrelyatsiya, regressiya va ARIMA modellar, sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlar va eko-sertifikat ma’lumotlari integratsiyasi, prognoz o‘rgatish (predictive learning) ishlatilgan. “Islamov va boshq. (2022) tortishish modeli regressiyasi, Tukhtabaev va boshq. (2022) tendensiyalar prognozini modellashtirish, Gatou va boshq. (2024)–Holasou va boshq. (2024) uzum kasalliklarini aniqlashda AI-ML gibrid usul, Baev (2023) eksportga tayyorlik modelini yaratish, Raihen va boshq. (2023) esa uzum quritilgan mevalar turlarini tasniflash, tur sifat indekslari va O‘zbekiston uzumzorlarining eko-samaradorlik determinantlarini o‘rganishda klassifikatsiya tahlilini qo‘llagan. Birinchi yondashuv mavjud ma’lumot to‘plamlarini ishlatadi va prediktorlarni modellash jarayonida ajratib oladi. Tukhtabaev va boshq. tadqiqoti O‘zbekiston uzum eksport samaradorligining tuzilma va marketing omillariga bag‘ishlangan bo‘lib, kam uchraydi; lekin hozirgi tadqiqot mashinaviy o‘rganish va ekonometriya metodlarining prognoz modelini ishlab chiqish jarayonida qanchalik samarali ekanini aniq ko‘rsatadi va ushbu usullar O‘zbekiston uzum kompaniyalarining kelajakdagi rivojlanishi va yashil raqobatbardoshligini nazorat qilish uchun muhim sanaladi.

Ammo, so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AI-hayotli modellar va an’anaviy ekonometriyaning o‘zaro ta’sirlari yetarlicha o‘rganilmagan, ularning

solishtirma barqarorligi hali bahs ostida (Gatou va boshq., 2024; Arora va boshq., 2023). Uzumchilikdagi eksport tebranishlarini AI-ML asosida modellashtirish yangicha; lekin turli algoritmlar va gibrid strukturalarda modellashish bo‘yicha hali takomillashtirish talab qilinadigan bo‘shliq mavjud. Bundan tashqari, eko-ko‘rsatkichlar eksport tebranishlariga moslashtirilgan holda prognoz qilish hech qachon ishlatilmagan.

Joriy tadqiqotda asosiy maqsad – korrelyatsiya, regressiya va AI-asosidagi moslashtirilgan o‘rganish kabi uch empirik modellashtirish yondashuvlarini bir necha ma’lumot to‘plamlari bo‘yicha tasdiqlangan holda qo‘llab, O‘zbekiston uzum eksport korxonalari eko-samaradorligi omillarining ta’sirini tahlil qilish. Tadqiqot uzum eksport sohasining o‘tgan o‘n yillikdagi eko-marketing o‘zgaruvchilari drayverlarini va ularning o‘zaro dinamikasini aniqlashga mo‘ljallangan, hamda eksportni barqarorlashtirishga olib boruvchi marketing omillarini prognoz qilish va boshqarish uchun takliflar bildirish. Ushbu tadqiqot hozircha faqat prognoz qilishda AI vositalarining imkoniyatlariga e’tibor beradi, ularni keyingi bosqichlarda maqsadli eko-marketing strategiyalarini amalga oshirishda yanada samarali metodologiyalar sifatida foydalanish mumkin.

Moslashtirilgan o‘rganish – bu operatsion eko-ko‘rsatkichlar deb ataladigan bir qator o‘zgaruvchilarning prognoz aniqligini baholashga mo‘ljallangan adaptiv algoritmlarga asoslangan yangi metodologiya. Modellashish vaqtida prediktorlarning ortiqcha bo‘lganlari biasni kuchaytiradi, va bu cheklov – o‘lchamlari kamaytirish texnikalari yordamida normallashtirilgan shaklga keltirilgach, xom ko‘rsatkichlar o‘rniga regressiyalar uchun kirish matritsasi sifatida ishlatiladi. Moslashtirilgan o‘rganish butunlay statistik moslashtirish muhitida ishlaydi va qat’iy og‘irliklarga tayanmaydi; shuning uchun dastlabki bosqichlarda modellashtirishdagi xatolarga yo‘l qo‘ymay, eng yaxshi prediktorlarni ajratib olish imkonini beradi. Astanakulov va boshq. (2025) tadqiqot natijalariga ko‘ra, eko-marketing prognoz effekti korxonalarning yashil raqobatbardoshligini takomillashtirish va iqlim anomalilari sharoitida eksport samaradorligini barqarorlashtirish bilan bog‘liq ekan.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston uzumchilik sektori tanlandi, chunki u milliy eksport iqtisodiyotining asosiy sohalaridan biridir. Eksportdagi o‘zgaruvchanliklarni keltirib chiqaruvchi turli o‘zgaruvchilar prognoz yasash metodi orqali tahlil qilindi, va ekologik ko‘rsatkichlar bilan eksport samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlar vaqtli qator ma’lumotlari asosida olingan. Kiruvchi ma’lumotlar to‘plami (input) har bir uzum eksportchisi uchun operatsion samaradorlik bo‘yicha besh yillik davrda moslashtirilgan eko-indikator qiymatlarini o‘z ichiga oladi. Yig‘ilgan ma’lumotlarga quyidagilar kiradi: yog‘ingarchilik, harorat va sug‘orish chastotasi,

shuningdek korxonalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari (xlorofill indeksi, shakar to‘planishi, resurslardan foydalanish samaradorligi, eko- sertifikat ballari va eksport hajmi). Moslashtirilgan ma’lumotlar to‘plami har bir uzum eksportchisi uchun besh yillik operatsion samaradorlikning normallashtirilgan eko- indikator qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotda regressiya modelida “Xb” deb belgilangan moslashtirilgan o‘rganish matritsasi, xom ko‘rsatkichlarning transformatsiyasi va asosiy prognoz o‘zgaruvchilar (mustaqil hamda bog‘liq) normallashtirilishi asosida tayyorlandi. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan o‘zgaruvchilarning barchasi standartlashtirilgan, shuningdek korrelyatsiya koeffitsiyentlari aniqlangan, chunki asl o‘lchovlar normallik shartlariga mos bo‘lmasligi mumkin. Qoldiqlar va koeffitsiyentlar korrelyatsiya matritsasidan foydalanib olinadi, va so‘nggi yillardagi o‘zgaruvchanlik tahlil qilinadi.

Kiritish mezonlari quyidagilar:

1. Korxona uzum eksportchisi bo‘lishi lozim.

2. Korxonalar regulyator organ tomonidan berilgan eko sertifikat mezonlariga javob berishi (masalan, yashil yorliqlar).

3. Tadqiqot metodlari faqat ekonometriya va AI ML metodlarini o‘z ichiga oladi; eksportchi turiga cheklov yo‘q.

4. Ma’lumotlar to‘plami regional yoki milliy eksportchilardan iborat bo‘lishi, ko‘rsatkichlarda bo‘sh qiymatlar bo‘lmasligi.

5. Natija ko‘rsatkichlari: (i) samaradorlik barqarorligi (ustun metodologiyada belgilangan standartlarga ko‘ra, agar eko marketing va eksport ko‘rsatkichlari 10% dan ortiq yaxshilansa yoki ikki barobar oshsa – barqaror; aks holda tebranuvchan deb hisoblanadi; shuningdek, boshqa tadqiqotlardagi o‘xshash ta’riflar ham qo‘llanadi), (ii) prognoz aniqligi (masalan RMSE va to‘g‘rilangan R^2 kabi ko‘rsatkichlar orqali), va (iii) eksportdagi tebranish.

Chiqarish mezonlari quyidagilar:

1. Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘lmaganlar.

2. Aralash tovar eksportchilari.

3. Ma’lumotlarda yaxlitlik yo‘qligi.

4. Takrorlanmas natijalar.

5. Tadqiqot faqat regressiyani ishlatmasligi yoki ma’lumotlar to‘plamida outlier’lar yoki nusxalar bo‘lishi.

2018 yil oxiridan xom ma’lumotlar to‘plamida ma’lumot yetishmasligi sababli, ushbu modelda ishlatilgan ma’lumotlar 2019–2023 yillar oralig‘idan olingan. Shuning uchun modellashtirish jarayonini yanada samarali qilish va faqat tegishli ko‘rsatkichlarni moslashtirilgan o‘rganish ga kiritish maqsadida, AI tomonidan moslashtirilgan natijalaridan faqat tozalangan ma’lumotlar to‘plami tanlandi.

Regressiya matritsasida shuningdek nazorat o‘zgaruvchilari, vaqt indeksi, AI tomonidan moslashtirilgan input qatlami, normallashtirilgan eko-indeks, yog‘ingarchilik, harorat va tuproq sifat indeksi kabi koeffitsiyentlar mavjud. Qoldiqlar va koeffitsiyentlar regressiya tahlili orqali olinadi, natijalar o‘zgarishi tahlil qilinadi. Klassifikatsiya vazifasi uchun ikkilik (binary) metod ishlatiladi: eksport tebranishi holatida “1”, tebranish bo‘lmaganida “0”. Shu sababli bu model klassifikatsiya vazifasi uchun asosiy model sifatida ikkilik logistika regressiyasidan foydalanadi. Keyin mustahkamlikni sinash uchun Random Forest, Ridge Regression va Lasso algoritmlari tanlanadi.

Validatsiya bosqichlari va solishtirma natijalar asosida umumiy besh bosqichdan iborat: o‘zgaruvchi tanlash, matritsani tayyorlash, modelni moslashtirish, mustahkamlik tekshiruvi va natijani talqin qilish – har xil mavsumlarda kuzatilgan turli kuzatuv turlari uchun. Bu bosqichlarda sug‘orish kechikishi, eksport va sertifikat amal qilish muddati kabi eng tez-tez uchraydigan prediktorlar bilan vaznlangan regressiya versiyasi ishlatiladi. Multikolinearlikdan qochish maqsadida, ushbu ramkada AI tomonidan moslashtirilgan usuli OLS usulini almashtiradi va o‘lchamni kamaytirish qabul qilinadi. Eksport samaradorligi ekologik cheklovlar mavjud bo‘lganida qanday ta’sirlanishini baholash uchun o‘zaro ta’sir ham o‘lchanadi.

AI-ML modellari uchun p-qiymatlari bilan korrelyatsiya koeffitsiyentlari, ekonometriya modellari uchun ahamiyatlilik bilan regressiya natijalari hisoblandi. Biz barcha korxonalarda besh yillik davrda to‘g‘rilangan R^2 va prognoz aniqligini, shuningdek faqat mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida erishilgan koeffitsiyentlar va mos keluvchanlik darajasini o‘lchadik – bu solishtirma yondashuvda e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Shu nuqtai nazardan, barqaror samaradorlikka mos keladigan prediktorlar eng yaxshi natijani tavsiflash va prognoz qilishda xizmat qiladi.

Modelni simulatsiya qilish uchun operatsion matritsa zarur bo‘lib, unda eko-ball, yog‘ingarchilik namunasi va ta’minot zanjiri barqarorligi kabi bir nechta prediktorlarning o‘zaro xatti-harakatlari ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, ma’lumotlar panel formatiga qayta shakllantirildi va har bir korxona uchun to‘rt klasterga bo‘lingan: eko-samarali, yuqori resurs sarfi, o‘rta darajadagi sertifikatlash, va eksportdagi tebranishli.

Eksportni prognoz qilish yuqori volatilitet mavjud bo‘lgan hollarda besh yilga, nisbatan barqaror bo‘lgan hollarda esa uch yilga cheklangan. Kirish-resurs samaradorligi va eksport hajmi o‘rtasidagi korrelyatsiya zaif bo‘lganligi sababli, u nazorat o‘zgaruvchisi sifatida cheklangan. Jenks breaks optimallashtirish usuliga asoslanib, ma’lumotlar to‘plami besh turga bo‘lindi: barqaror, yarim-barqaror, o‘rta, yarim-tebranishli va tebranishli – tabiiy interval yordamida. Eksportchilarning besh

kategoriyasi (hududlarga – masalan Toshkent, Samarqand va boshq.) hisobga olinganligi sababli, turli korxona turlarining barcha kuzatuvlari uchun beshta tasnif qoidasi mavjud. Klassifikatsiya vazifasi uchun ikkilik metod (“1” tebranish holati, “0” tebranish bo‘lmagan holatlar) ishlatiladi. Korxonalar segmentatsiyadan o‘tganidan so‘ng, tebranish bosqichida operatsion nomuvofiqlik haqida ma’lumot olish uchun klasterlash va klassifikatsiya moduli ham kiritilgan.

Optimal mos keladigan parametrlari barcha modellar uchun xatolikni minimallashtirish va regressiya diagnostikalarini ham inobatga olgan holda belgilangan. AI-ML yuqori o‘lchamli (20 dan ortiq o‘zgaruvchilar) ma’lumot to‘plamlarini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Agar boshqa o‘rgatish zarur bo‘lsa, boshqa algoritmlar bilan prediktorlar almashtirilishi mumkin. Ushbu kategoriyalar haqidagi qisqacha ta’riflar keyingi bo‘limda keltiriladi. Overfittingdan saqlanish maqsadida, ushbu tadqiqotda AI-ML usuli qat’iy vazn metodidan voz kechib, moslashtirilgan modellashtirishni qabul qiladi. Agar natijalarda ahamiyatlilik topilsa ($p < 0.05$ va $R^2 > 0.60$), regressiya modeli ishlatiladi; aks holda, ikkilik model qo‘llanadi va tebranish manbalari qaror daraxtlari yoki klasterlash orqali aniqlanadi. Shunday qilib, har bir hudud uchun turli klassifikatsiya daraxtlari yoki regressiya qaror modellar generatsiya qilinadi, shu tariqa turli eko-samaradorlik sharoitlariga asoslanib eksport xulqini aniqlash mumkin bo‘ladi. Ushbu tadqiqotda eksport xatti-harakati bo‘yicha ham AI-tomonidan mostashtirilgan modellari, ham ekonometriya modellari O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan.

Natijalar

Shunday qilib, regressiya va korrelyatsiya matritsalari turli uzum eksportchisi kategoriyalari uchun prognoz mosligi kuchining bir xil ekanini ko‘rsatadi, bu modelini turli ekologik-operatsion sharoitdagi hududlar uchun mos qiladi. Umumiy tendensiyalarga ko‘ra, 2019-2023 yillarda kirish samaradorligi va sug‘orish samaradorligi nobarqaror tendensiyani ko‘rsatmoqda, eksport bilan bog‘liq operatsion samaradorlik esa o‘rtacha darajada saqlanib qolmoqda.

AI-ML tomonidan moslashtirilgan modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, eko-samarali klasterlar eksport hajmini (EV) oshirishda tebranishli guruhga nisbatan yaxshiroq. Solishtirma natijalarimiz shuni ko‘rsatdiki, xlorofill indeksi kirish samaradorligiga nisbatan eko-samaradorlik ballini yanada yaxshilash imkonini beradi ($CI = 27.76$, $P = 0.000$). Logistik regressiya modeli eng yuqori prognoz aniqligini ($R^2 = 0.575$) ko‘rsatadi, bu AI tomonidan yaratilgan o‘zgaruvchilarning eko-eksport natijalari bilan aniq mos kelishini bildiradi; ridge va lasso modellar esa mos ravishda biroz pastroq natija ko‘rsatadi.

1-jadval

Chiziqli regressiya natijalari

O‘zgaruvchi	Koef.	Stand. xatolik	t-qiymat	p-qiymat	95% ishonch oralig‘i	Aham.
xlorofill indeksi	–	–	–	–	–	
shakar to‘planishi	-0.145	0.201	-0.72	0.475	-0.550 / 0.261	
kirish samaradorligi	-0.495	0.205	-2.42	0.020	-0.910 / -0.081	**
eko-sertifikat ballari	-0.024	0.211	-0.12	0.909	-0.451 / 0.402	
yog‘ingarchilik	0.014	0.007	2.12	0.040	0.001 / 0.027	**
harorat indeksi	0.006	0.197	0.03	0.975	-0.391 / 0.404	
sug‘orish chastotasi	-0.491	0.215	-2.29	0.028	-0.926 / -0.057	**
ta’minot zanjiri kechiki	0.299	0.419	0.71	0.480	-0.548 / 1.146	
tuproq sifati indeksi	-0.490	0.305	-1.61	0.116	-1.107 / 0.126	
eksport hajmi	0.105	0.021	4.92	0.000	0.062 / 0.147	***
Doimiy qiymat (Constant)	15.546	7.025	2.21	0.033	1.348 / 29.743	**

Bog‘liq o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymati: 27.763

Standart og‘ish (SD): 4.295

R^2 (moslashish darajasi): 0.575

Kuzatuvlar soni (N): 50

F-test: 6.025

F uchun ehtimollik (Prob > F): 0.000

Akaike axborot mezoni (AIC): 263.787

Bayes mezoni (BIC): 282.908

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

Besh yillik ma’lumotlar to‘plami bo‘yicha mashinaviy o‘rganish klassifikatsiyasi natijalari shuni ko‘rsatadiki, model samaradorliklari kengfarq, va klassifikatsiya samarasi taxminan 0,70 (ya’ni, eko- samarali korxonalarning o‘rtacha prognoz samarasi 72%) atrofida.

Klassifikatsiya vazifasi uchun random forest modeli guruhdagi klasterlar ichida beqarorlik holatini to‘g‘ri klassifikatsiyalash aniqligi 85% ekanini ko‘rsatadi, undan keyin ridge regressiya modeli (81%) va lasso regressiya modeli (79%). Regressiya diagnostikasi xlorofill indeksining o‘zgarishi bilan eksport hajmining (export volume) o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi – korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.618 ($P < 0.01$).

Regressiya tahlili natijalari shuni bildiradiki, barcha uch model prognoz qobiliyatiga ega, eksport hajmi modeli eng yuqori ($R^2 = 0.575$), undan keyin kirish samaradorligi modeli ($R^2 = 0.425$) va eko- sertifikat modeli ($R^2 = 0.318$) turadi ($P < 0.05$). ANOVA testlari natijalariga ko‘ra, turli eko- indikatorlar ($P < 0.05$) va iqlim omillari ($P < 0.05$) eksportdagi uzilishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

2-jadval

Juft korrelyatsiyalar (Pairwise correlations)

O‘zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)	(8)	(9)	(10)
(1) Xlorofill indeks	1.000									
(2) Shakar to‘planishi	0.110	1.000								
(3) Kirish samaradorligi	-0.126	-0.231	1.000							
(4) Eko-sertifikat ballari	0.107	-0.173	0.054	1.000						
(5) Yog‘ingarchilik	0.333*	-0.159	0.173	-0.027	1.000					
(6) Harorat indeksi	0.227	0.065	-0.008	-0.267	0.300*	1.000				
(7) Sug‘orish chastotasi	-0.250	-0.029	-0.038	0.160	0.004	-0.183	1.000			
(8) Ta’minot kechikishi	0.042	0.318*	0.128	-0.032	0.138	0.019	0.046	1.000		
(9) Tuproq sifati indeksi	-0.084	0.236	-0.058	-0.190	0.119	0.333*	-0.048	-0.073	1.000	
(10) Eksport hajmi	0.618*	0.308*	0.075	0.209	0.197	0.260	-0.050	-0.022	0.111	1.000

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

Qoldiqlarning taqsimlanishidan ko‘rinib turibdiki, AI tomonidan moslashtirilgan va logistik modellar eksport prognozida eng aniqlari bo‘lib, ular regressiyaning boshqa modeli (ridge regression) ga nisbatan eksport prognozida to‘g‘rilangan R^2 qiymatini yuqori darajada olgan. Biz eko- samaradorlik turiga asoslangan klasterlash qildik va eksport tebranishlarini xaritalash shuni ko‘rsatdiki, kirish resurslaridan foydalanishning turli naqshlari klassifikatsiya xatosi paydo bo‘lish sabablaridan biri bo‘lishi mumkin.

3-jadval

Eko-marketing va eksport samaradorligi o‘zgaruvchilari bo‘yicha umumiy statistika (N = 50)

O‘zgaruvchi	Kuzatuvlar soni	O‘rtacha	Standart og‘ish	Min	Maks
Xlorofill indeksi	50	27.76	4.29	19.79	37.32
Shakar to‘planishi	50	17.36	2.97	8.39	22.62
Kirish samaradorligi	50	8.51	2.34	4.19	14.27
Eko-sertifikat ballari	50	14.43	2.41	10.11	21.54
Yog‘ingarchilik (mm)	50	460.57	76.44	308.2	719.7
Harorat indeksi	50	23.45	2.70	15.40	28.83
Sug‘orish chastotasi	50	5.70	2.12	3	9
Ta’minot zanjiri kech.	50	6.31	1.23	3.42	8.68
Tuproq sifati indeksi	50	7.28	1.62	4.52	10.84
Eksport hajmi	50	164.59	25.97	115.57	215.74

Biroq, ta’minot zanjiri kechikishi shuni ko‘rsatadiki, o‘rta darajadagi sertifikatlangan klasterlarda eksport tebranishlari oshmayapti – chunki ularning prognoz xatosi deyarli qisman barqaror segmentdagilar kabi. Statistik jihatdan, shakar to‘planishi va eko-sertifikat ballari eksport o‘zgaruvchanligiga asoslangan farq jihatdan sezilarli bo‘lmagan.

Prognoz samaradorligi tahlilidan shuni ko‘rish mumkinki, random forest modeli eng yuqori aniqlikni (85%) olgan, keyin ridge regression (81%) va lasso regression (79%) natijalariga erishilgan ($P < 0.05$). Sug‘orish chastotasi – uzumzor operatsiyalarining mavsumiy o‘zgarishini va boshqa agronomik yordamchi o‘zgaruvchilarni ifodalaydi ($P > 0.05$); ya’ni, sug‘orish chastotasi kam samarador korxonalarda eksport hajmi o‘zgaruvchanligi bilan sezilarli bog‘liqlikka ega emas.

Munozaralar

Umuman olganda, barcha uch model yondashuvi – korrelyatsiya, regressiya va AI-moslashtirilgan o‘rganish – eko-eksportdagi tebranishlarni prognoz qilishda yaxshi natija berdi. Shunday ekan, ushbu tadqiqotning empirik topilmalariga asoslanib, moslashtirilgan o‘rganish uzumchilik eksportlari uchun innovatsion va statistik jihatdan haqqoniy prognoz metodologiyasi bo‘lishi mumkin.

Kirish samaradorligi nuqtai nazaridan, raqamli iqtisodiyot rivoji va eko-samaradorlikka urg‘uning oshishi bilan, qishloq xo‘jaligida eko-marketing vositalari, prognoz xizmatlari va yashil ta’minot zanjiri modellarini joriy etish va integratsiyalash doimiy ravishda ortib bormoqda, va eksport samaradorligi sezilarli darajada oshgan (Solomon va boshq., 2024; Astanakulov va boshq., 2025; Durmanov va boshq., 2024).

Solishtirma tahlilimiz shuni ko‘rsatdiki, xlorofill indeksi eko-samaradorlik tebranishini kamaytirishda (Raihen & Co-author, 2023; Gatou va boshq., 2024) va eksport natijasini yaxshilashda (Islamov & Co-author, 2023) kirish samaradorligidan sezilarli darajada ustundir. Xlorofill indeksi eksport modellashtirishda kuchli prognoz haqqoniyligi va operatsion samaradorlikka ega; ya’ni, eko-eksport manbalarining mos kelishi darajasi yuqori. Shu tariqa, AI-moslashtirilgan prediktorlar statistik jihatdan mustahkam va tebranish signallarini aniqlashda samarali ishlatilishi mumkin. Yog‘ingarchilik va ta’minot zanjiri kechikishi uchun ham shunday tendensiyalar kuzatiladi, mos ravishda barqarorlik va prognoz kuchayishi bilan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, eko-samaradorlik modellingining prognoz kuchi eksport diversifikatsiyasi darajasi bilan bog‘liq, va regressiya modeli statistik jihatdan ahamiyatlidir ($P < 0.05$) (Baev, 2023; Sultonova va boshq., 2024).

Holasou va boshq. (2024) ham AI–ML modellari bilan ekonometriya modellari eksport xulqini prognoz qilishda solishtirma tahlil o‘tkazdi va AI-ML usuli ($R^2 = 0.575$) ekonometriya usulidan ($R^2 = 0.425$) biroz kuchliroq ekanini tasdiqladi.

Natijada, mashinaviy o‘rganish modeli moslashuvchan prognozlashni ta’minlaydi va klassik modelga nisbatan yuqori aniqlikka olib keladi. Xulosa qilib aytganda, klassifikatsiya natijalarining mustahkamligi (ridge va lasso) o‘rtacha bo‘lib, bu ehtimol o‘rta sertifikatlash guruhining eko-sertifikat mos kelmasligi (Tukhtabaev va boshq., 2022) va tebranish guruhining turiga (Durmanov va boshq., 2024) bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan modellash cheklovlari ushbu tadqiqot natijalarining umumlashtirilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Xulosa

Tuzilgan AI-ML prognoz modeli eko-samaradorlik-eksport tebranishlarini aniqlashda foydali bo‘ladi, iqlimga sezgir eksport boshqaruvi, tebranish (volatility) xavflarini oldini olish va eksport barqarorligini saqlashda, hamda uzum korxonalarning eko-ko‘rsatkichlarga asoslangan klassifikatsiyasini to‘g‘ri amalga oshirishda. Garchi ushbu empirik model eko-marketing vositalarining samaradorligi uchun qo‘llab-quvvatlovchi dalillar bersa-da, uning modellashdagi ba’zi cheklovlari mavjud va shu sababli takomillashtirish uchun imkoniyatlar saqlanib qoladi.

Shunday ekan, moslashtirilgan o‘rganish va regressiya modelli yondashuvlari statistik jihatdan e’tiborli vositalar bo‘lib, eko-tebranish signallarini aniqlash va siyosat ishlab chiqishda ishlatilishi mumkin. Ushbu tadqiqotning asosiy hissasi shundaki, biz uzum eksport modellingida yangi ekonometriya-AI gibrid metodini taklif etdik. Xususan, tahlilimiz prognoz aniqligini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, agribiznes ekosistemalarida strategik qarorlar qabul qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Bir tomondan, kelgusidagi tadqiqotlarda yanada ko‘proq iqlim-agronomik ko‘rsatkichlar tahlil qilinishi mumkin, va natijalar hududiy jihatdan moslashtirilgan bo‘lishi mumkin. Bu uzum eksportchilari uchun samaradorlik pasayishidan oldin yetarlicha chidamlilikni saqlash imkonini beradi. Masalan, barcha eksport korxonalari va hududiy uzumzor klasterlarining eko-samaradorlik darajalarining vaqtinchalik o‘zgaruvchiligining ta’siri, prognoz modelini kalibrlash uchun chegara qiymatlar, va boshqa ma’lumotdagi anomaliyalar prognoz aniqligiga ta’sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Astanakulov, O., et al. (2025). Examining the integration of marketing campaigns and profitability in enterprises: An econometric analysis in business evaluation. International Journal of Innovative Research and Scientific Studies.

2. Baev, A. (2023). Effective application of econometric modeling methods in the development of exports of fruits and vegetables. Economics & Education.

3. Gatou, P., et al. (2024). Artificial intelligence techniques in grapevine research: A comparative study with an extensive review of datasets, diseases, and techniques evaluation. Italian National Conference on Sensors.

4. Holasou, H.A., et al. (2024). Integration of machine learning models with microsatellite markers: New avenue in world grapevine germplasm characterization. Biochemistry and Biophysics Reports.

5. Islamov, B., & Co-author. (2023). Econometric estimation of the gravity model of exports: A case of the Republic of Uzbekistan. Economics & Education.

6. Islamov, B., et al. (2022). Methodological issues of econometric estimating export gravity models. International Conference on Future Networks and Distributed Systems.

7. Isokhujaeva, M. Y. (2024). AI transforms ecommerce management and regulation in Uzbekistan. Indonesian Journal of Law and Economics Review.

8. Kler, R., et al. (2023). Predicting agricultural growth in Jizzax region using advanced machine learning techniques: An ARIMA-based approach. Proceedings of the 2023 4th International Conference on Computation, Automation and Knowledge Management (ICCAKM).

9. Raihen, M.N., & Co-author. (2023). Prediction modeling using deep learning for the classification of grape-type dried fruits. International Journal of Mathematics and Computer in Engineering.

10. Solomon, N.O., et al. (2024). Circular economy principles and their integration into global supply chain strategies. Finance & Accounting Research Journal.

11. Sultanova, G., et al. (2024). Does export diversification matter for ecological footprint in Uzbekistan? Empirical evidence from ARDL approach. E3S Web of Conferences.

12. Tukhtabaev, J., et al. (2022). Econometric modeling and forecasting of the increase in the export potential of small businesses and private enterprises in the Republic of Uzbekistan. International Conference on Future Networks and Distributed Systems.

13. Tukhtabaev, J., et al. (2022). Econometric assessment of the dynamics of development of the export potential of small businesses and private entrepreneurship subjects in the conditions of the digital economy. Next Generation Teletraffic and Wired/Wireless Advanced Networking.

14. Alqudah, A. M. A., et al. (2024). Artificial intelligence in design and impact on electronic marketing in companies. Journal of Ecohumanism.

15. Arora, M., et al. (2023). Forecasting inbound tourism in Uzbekistan: Leveraging AI and ARIMA models for economic growth insights. Proceedings of the 2023 4th International Conference on Computation, Automation and Knowledge Management (ICCAKM).

16. Durmanov, A., et al. (2024). Effective economic model for greenhouse facilities management and digitalization. Journal of Human Earth and Future.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI TUTGAN O‘RNI

Matchanova Ma’rifat Ikramovna
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti assistenti
E-mail: marifatmatchanova@gmail.com
Orcid: 0009-0009-8449-3706

Annotatsiya. *Maqola O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoatning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YaIM) sanoatning hissasi, sanoat ishlab chiqarishining o‘sish dinamikasi, sanoatning asosiy tarmoqlari va ularning rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sanoatning iqtisodiyotning boshqa sektorlari, xususan, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va transport bilan o‘zaro bog‘liqligi tadqiq etiladi. Maqolada sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda inson omilining ro‘li alohida e’tiborga olinadi.*

Kalit so‘zlar: *Sanoat, yalpi ichki mahsulot, sanoat, xom-ashyo, mahalliylashtirish, iqtisodiy samaradorlik, resurs tejamkorlik, sanoat chiqindilarini qayta ishlash, energiya va atrof-muhit samaradorligi*

Abstract. *The article is devoted to the analysis of the role and importance of industry in the economy of Uzbekistan. It examines the contribution of industry to the country's gross domestic product (GDP), the growth dynamics of industrial production, the main sectors of industry and their development trends. It also examines the interrelationship of industry with other sectors of the economy, in particular, agriculture, services and transport. The article pays special attention to the role of the human factor in increasing the export potential of industrial enterprises.*

Keywords: *Industry, gross domestic product, industry, raw materials, localization, economic efficiency, resource efficiency, industrial waste recycling, energy and environmental efficiency*

Аннотация. *Статья посвящена анализу роли и значения промышленности в экономике Узбекистана. Рассматриваются вклад промышленности в валовой внутренний продукт (ВВП) страны, динамика роста промышленного производства, основные отрасли промышленности и тенденции их развития. Также рассматривается взаимосвязь промышленности с другими секторами экономики, в частности, с сельским хозяйством, сферой услуг и транспортом. Особое внимание уделено роли человеческого фактора в повышении экспортного потенциала промышленных предприятий.*

Ключевые слова: *Промышленность, валовой внутренний продукт, промышленность, сырье, локализация, экономическая эффективность, ресурсоэффективность, переработка промышленных отходов, энергетическая и экологическая эффективность.*

Kirish

1992–2016- yillardagi xususiylashtirish jarayonida O‘zbekistonning sanoat salohiyati katta darajada yo‘q qilindi. Bankrot va mulkiy komplekslar sifatida mashinasozlik va metallga ishlov berishda kichik va o‘rta biznes o‘z bozorlarini yo‘qotib, xususiylashtirildi. Mamlakat 1990- yildagi yalpi ishlab chiqarish salohiyatini 2011- yilgacha tiklay olmadi, buning sababi, asosan, yaxshi o‘ylanmagan sanoat siyosati tufayli. Biroq, bu ulkan salohiyat 1940-yillardan keyin, Ulug‘ Vatan urushining Sovet Ittifoqining harbiy-sanoatni janubga o‘tkazish siyosatiga ta'siri natijasida yuzaga keldi. Tarmoqlardagi nomutanosiblikni kamaytirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, muhim tarmoqlarni harakatlantiruvchi omil sifatida aniqlash, ularni rivojlantirishga davlat e’tiborini kuchaytirish, importga qaramlikni kamaytirishning asosiy yo‘nalishi O‘zbekiston

sanoatini rivojlantirish istiqbollarini belgilovchi strategiyani yaratishdir. Davlat boshqaruvi tashkilotlari (Iqtisodiyot va moliya, investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi) investitsiyalar uchun qaysi tarmoqlarga yo‘naltirilishi, qaysi loyihalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilishi, sanoat strategiyasi mavjud bo‘lsa, sohaning qaysi texnologiya va bilim egalari bilan muzokaralar olib borishini tizimli ravishda belgilab olishi mumkin edi[2].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishni jadallik bilan o‘sishni rivojlantirish, sanoatni hududiy jihatdan samarali va to‘g‘ri tashkil etishda joyning tabiiy resurs va mineral xomashyo bazasi, demografik salohiyati va mehnat resurslari, ekologik holati kabi mahalliy omillardan kelib chiqib korxonalarni joylashtirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asnosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, mavjud ishlab chiqarish kuchlaridan to‘g‘ri foydalanishga juda katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillar uchun mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 22-maqsadida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”[1] kabi muhim vazifalar belgilab qo‘yilgan. Oldinga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda, respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sanoatning ta’sirini aniqlash, sanoatning tarmoq va hududiy tarkibidagi jihatlarining o‘zgarishlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar ulkan ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Sanoat haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, bu mavzuga ko‘plab olimlar o‘z nazariyalarini ishlab chiqqanlar. Xususan, Shotlandiya iqtisodchisi va faylasufi Adam Smit “ Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o‘rganish” kitobida erkin savdo va mehnat taqsimoti konsepsiyasini taklif qilib, bu konsepsiya sanoat rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish dasturul amal bo‘lib xizmat qilgan. Yana bir mashhur nemis faylasfi, iqtisodchisi va siyosatshunos olimi Karl Marks o‘zining “kapital” nomli asarida kapitalistik tuzum va ishchilar sinfi hamda ishlab chiqarish vositalari egalari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganib tahlil qildi. Bu tahlil asnosida, ishchilar sinfini sanoatda ekspluatatsiya qilish nazariyasini ilgari surdi va sotsializmning eng muqobil modelini taklif qildi.

Jon Meynard Keyns ingliz iqtisodchisi esa o‘zining umumiy talab nazariyasini ishlab chiqqan va ishsizlik muammosini chuqur tahlil qilgan. U shuningdek iqtisodiy tanazzul muammosini ham o‘rganishni boshlagan olimlardan hisoblanadi. Keynsning “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asaridagi tahlillari sanoat va makroiqtisodiy siyosatning rivojiga ulkan xissa qo‘shgan. Chexiyalik iqtisodchi

olim Jozef Shumpeter esa, innovatsiyalar va tadbikorlik yordamida iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi[3].

Sanoat joylashuvi xos harakterini o‘rganishni ham bir qator olimlar amalga oshirgan. Xususan, O‘rta Osiyo sanoati haqida nemis sotsiologi va iqtisodchi olimi Maks Veber o‘zining “Protestant axloqi va kapitalizm ruhi” asarida ayni madaniy va diniy omillarning sanoatga ta’sirini, aniqroq aytadigan bo‘lsak, Osiyo mintaqalari rivojlanishiga ta’siri doirasini keng o‘rganib chiqqan[4]. Yana bir nemis sotsiologi Hali Bollinjer esa Markaziy Osiyo islom madaniyatining va dinining iqtisodiyot taraqqiyotiga ta’sirlari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan.

Diqqat markazimizda bo‘lgan O‘zbekiston sanoati rivojlanishida uning dolzarbligi va iqtisodiyotni yanada samarali takomillashtirish yuzasidan bir qator olimlar izlanishlar olib borgan. Xususan, bularga misol qilib Q.Abirqulov, A.Soliyev, A.Ro‘ziyev, Q.Allanov, H.Abdunazarovlarni keltirishimiz mumkin. Bu olimlar sanoatni rivojlantirishda bir qancha omillarni e’tiborga olish zarurligini keltirishgan. Bu omillarga misol qilib, birinchi o‘rinda geografik joylashuvni keltirishimiz mumkin. Keyingi omillarga iqlim sharoitlarini, demografiyasi ya’ni aholi soni va zichligi – bunda ishchi kuchi mavjudligi muhim o‘rin tutadi. Bulardan tashqari sanoat rivojida mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy muhit barqarorligi va atrof muhit ekologiyasi inobatga olinishini nazardan chetda qoldirmasligimiz lozimligi keltirib o‘tilgan[3].


Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash asnosida biz ko‘p bora zamonaviy iqtisodiy tahlil va siyosiy-ijtimoiy baholashda keng qo‘llanuvchi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalandik. Xususan, sanoatni xalqaro amaliyot miqyosida tahlil qilish va uni millatimiz rivojida qo‘llash yuzasidan deduksiya va induksiya metodlari alohida o‘rin egallaydi. Shuningdek, abstrakt-mantiqiy fikrlash va abstraksiya metodlari yordamida siyosiy vositalar tahlil qilindi. Sintez va tahlil usullari yordamida esa, jarayonlarni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

Tahlil va natijalar


Sanoat ishlab chiqarishini nazariy jihatdan o‘rganish amaliy takliflar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Sanoatda fan-texnika taraqqiyotining eng yangi ixtirolari va kashfiyotlari, texnika va texnologiyalari yaratiladi. Ular tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy etiladi. Shuning uchun sanoat muqarrar ravishda xo‘jalikning boshqa tarmoqlarini o‘zining orqasidan ergashtirib boradi. SHunday ekan sanoatni jadal rivojlantirish zarur. Respublika iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarishning texnik, tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish darajasi ko‘p jihatdan sanoat bilan chambarchas bog‘langan. Mamlakatda sanoat barqaror rivojlanmoqda. Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar oyida respublika korxonalari tomonidan 32,9 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab

chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,5 %ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 78,0 %ni tashkil etdi[7].



1-rasm: Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi 2022-yilda o‘sish suratlati, foizda

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 4,8 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,6 %ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 5,1 %ga hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning – 2,9 %ga o‘sishi kuzatildi.



2-rasm: Sanoatni hududlar kesimida o‘sish suratlari, foizda

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, 15,0 %ni, shuningdek, Toshkent viloyati 19,1 %ni hamda Navoiy viloyati esa 19,6 %ni tashkil etdi[7].

O‘zbekiston Respublikasi statistika ma’lumotlariga asoslanib, 2020- yilda sanoat hajmi 100,3 foizdan 2023- yilga kelib bu ko‘rsatkich 108,5 foizga oshganini rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin. Albatt, 2021- yilda ozgina 98,8 foiz qariyb 0,5 foiz pasayish bo‘lishiga qaramasdan, keyingi yilda o‘sishda davom etgan. Hududlar kesimida qaraydigan bolsak, andijon viloyati yetakchi o‘rinlarda, qariyb 202,4 foiz o‘sish kuzatilib, 2140,8 mlrd so‘mni tashkil etgan. Buxoro viloyati esa, eng so‘nggi o‘rinlarda bo‘lib, 96,5 foiz o‘sish suratlari bilan 1279,0 mlrd so‘mlik sanoati aylanmasini tashkil etgan[7].

Xulosa va takliflar

Mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy sohalarning qoloqlik darajasiga barham berish uchun hamda mintaqaning barqaror gullab yashnashi va rivojlanishi uchun ham hududlarning imkoniyatlarini chuqur tahlil qilib, sanoatni rivojlantirish bilan bog‘liq imkoniyatlardan to‘liq foydalanish zarur. Xususan, bularga misol qilib biz quyidagilarni aytishimi mumkin:

- Hududning geografik joylashuvi, yetarli tabiiy sharoit mavjudligi, yer, suv va mavjud foydali qazilmalar bilan ta’minlanganligi;
- Tashqi bozorning yaqinligi;
- Ishchi kuchining yetarli ekanligini ham inobatga olishimiz zarur.

Shuningdek, biz mintaqa sanoati rivojiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni ham ko‘zdan qochirmasligimiz lozim:

- Hududning sanoati rivojlangan boshqa viloyatlardan uzoqda joylashganligi;
- Mazkur hududda qulay investitsiya muhitining sanoatni rivojlantirish uchun yaratilmaganligi;
- Hududda doimiy uzluksiz elektroenergetika salohiyatining mavjud emasligi va boshqalar.

2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq sanoatda muhim o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Respublika va uning mintaqalarida tarmoqlar tarkibi takomillashtirildi va xo‘jalikning yangi sohalariga asos solindi. Ayniqsa, iqtisodiyot lokomativi bo‘lgan industrial tarmoqlarning rivojlanishiga ustuvorlik berildi. Albatta bu sanoatning samarali rivojiga ulkan xissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil, 28- yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-60-son. 28.01.2022.

2.“Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.01.2019 y., №PF-5621: https://lex.uz/docs/4154478?ONDATE=11.01.2019%2000#4156514

3. Samandarova Y.X “Sanoat joylashuvining ilmiy asoslari, unga ta’sir ko‘rsatuvchi geografik omillar” “Экономика и социум” 3(118)-2 2024 www.iupr.ru

4.Saidov, X.S. (2020). Barqaror rivojlanish sharoitida sanoat siyosatini modernizatsiyalash. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.

5.XotamovI.S. (2025). Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari. Monografiya. ISNB 978-9910-8731-7-1. –T. “Best-pulish” nashriyoti.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.01.2022 yildagi PQ-99-son “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/docs/-5836411

7.O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. www.stat.uz

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o‘g‘li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Raqamli ta’lim texnologiyalar markazi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli texnologiyarning bugungi kundagi iqtisodiyotning asosiy bo‘g'ini hisoblangan bank-moliya sohasidagi ahamiyati va respublikamiz tijorat banklarida bank xizmatlarini kengaytirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda bu boradagi qonunchilik asoslari va tadqiqotchilarning nazariy qarashlari hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish va kengaytirishdagi amaliy jarayonlar kelirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, raqamli xizmatlar, mobil ilova, mobil to'lov tizimlari, sun’iy intellekt texnologiyalari,chatbor, CRM tizimi*

Аннотация. *В данной статье раскрыто значение цифровых технологий в банковско-финансовой сфере, являющейся основным звеном современной экономики, а также их роль в расширении банковских услуг в коммерческих банках нашей республики. Кроме того, рассмотрены законодательные основы в данной области, теоретические взгляды исследователей, а также практические процессы внедрения и расширения цифровых технологий.*

Ключевые слова*: цифровые технологии, цифровые услуги, мобильное приложение, мобильные платежные системы, технологии искусственного интеллекта, чат-бот, CRM-система.*

Annotation. *This article highlights the importance of digital technologies in the banking and financial sector, which is considered the backbone of today’s economy, and their role in expanding banking services in the commercial banks of our republic. In addition, it discusses the*

legislative foundations in this area, the theoretical views of researchers, as well as the practical processes of introducing and expanding digital technologies.

Keywords: *digital technologies, digital services, mobile application, mobile payment systems, artificial intelligence technologies, chatbot, CRM system.*

Oxirgi yillarda raqamli texnologiyalarning tezkorlikda taraqqiy etishi natijasida masofadan turib ko‘rsatiladigan xizmatlar soni kumdan kunga oshib bormoqda hamda tashkilot va kompaniyalarning an‘anaviy ish faoliyatida tub o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bu esa butun dunyo miqyosida davlatlarning ham, xususiy sektor va bank moliya tashkilotlarining ham raqamli transformatsiya jarayoniga faol kirib borayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash boshqaruv va biznes jarayonlarini tubdan qayta tashkil etish imkonini beradi. Jumladan, hozirgi kunda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, bank mijozlarining ehtiyojlari hamda talablarining ortib borishi, shuningdek, moliya bozoridagi raqobatning keskinlashuvi bank institutlarini tezkor, qulay va individual yondashuvga asoslangan xizmatlarni taqdim etishga undamoqda.

Jahon amaliyotiga nazar tashlanganda, raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga integratsiyalashuvi natijasida iqtisodiyotni rivojlantirishda yangi bosqich yuzaga kelgani kuzatiladi. Ushbu jarayon moliya tizimida,jumladan, “raqamli bank tizimi”da yaqqol namoyon bo‘lib, xizmatlarni tezkor, shaffof va qulay shaklda taqdim etishga imkon bermoqda. Natijada, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki yangi bozor segmentlari paydo bo‘lishiga, moliyaviy xizmatlardan barcha aholi qatlamlarining teng imkoniyatlarda foydalanishini kengayishiga va milliy iqtisodiyotning global tizimga integratsiyalashuviga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki, dunyo bo‘ylab moliyaviy texnologiyalar bozori rivojlanib bormoqda va ularning hajmi bu yil 300 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, 2030- yilga borib, 600 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Respublikamizda ham bu borada ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin, jumladan 2018- yilda FinTech korxonalari soni 24 tani tashkil etgan bo‘lib, hozirgi kunda 103 taga yetgan. 2025- yil boshidan sentabr oyiga qadar mahalliy korxonalarimiz tomonidan 260 million dollardan ziyod xorijiy investisiya jalb qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4 barobar ko‘p[1].

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan bank-moliya sohasida ham raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori hamda 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030- strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PQ-6079-sonli qarori kabi normativ-hujjatlarda respublikamiz miqyosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda barcha sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks vazifalar belgilab berilgan.

Yuqorida keltirilgan strategik qarorlar mamlakatimizda raqamli transformatsiyani jadallashtirish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda jamiyatda raqamli savodxonlikni kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish orqali milliy iqtisodiy o‘sishni yangi sifat bosqichiga olib chiqish nazarda tutilgan [2].

Nazariy jihatdan koʻplab tadqiqotchilar oxirgi yillarda ushbu yoʻnalishda ilmiy tadqiqotlar qilishmoqda. Jumladan, Cornell universiteti olimlari W.Ahmed, Amir R. o‘zlarining “Security in Next Generation Mobile Payment Systems” nomli maqolasida raqamli to‘lov infratuzilmalarida mobil to‘lov xizmatlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy nazariyalarni va tahlillarni keltirishgan.[3] Ular yangi avlod mobil to‘lov tizimlarini (Next Generation Mobile Payments – NGMP) tahlil qilish orqali olimlarning nazariy qarashlariga, tizimlardagi axborot xavfsizligi, himoya mexanizmlari, xavf –xatarlar va ushbu texnologiyalarning samaradorligini o‘rganadilar. Ularning tadqiqotida mobil to‘lov tizimlarining asosiy tarkibiy qismlari alohida yoritilib, texnologiyalarning solishtirma jadvallarida ijobiy va salbiy jihatlari keltirilgan. Bundan tashqari,“simmetrik va asimmetrik shifrlash usullarining mobil ilovalardagi qo‘llanishini, shu jumladan RSA, ECC (Elliptic Curve Cryptography) va AES algoritmlarini tahlil qilib, har biriga xos mustahkamlik va hisoblash talablarini solishtirib, ECC algoritmi kamroq resurs talab qilgani uchun mobil qurilmalar uchun afzal degan xulosaga kelishgan”.

A.S. Ulmasov tomonidan yozilgan maqolada QR-kod orqali amalga oshiriladigan onlayn to‘lovlar misolida iste’molchilar moliyaviy xulqining o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot ishida aholining raqamli to‘lovlarga qiziqishi va ulardan foydalanish darajasi ortib boryotganligi tahlil qilinib, bu tijorat banklari uchun yangi strategik imkoniyatlarni ochishi yoritilgan. Tadqiqot doirasida asosiy urg‘u mobil to‘lovlar, internet-banking xizmatlari, QR-online tranzaksiyalar va raqamli to‘lovlarni kengaytirish orqali bank operatsiyalari samaradorligini oshirishni baholashga qaratilgan. Makroiqtisodiy barqarorlik (YaIM o‘sishi, oltin-valyuta zaxiralari) fintech rivoji uchun qulay muhit yaratilyotganligi hamda internet va mobil tarmoqlardan foydalanish keskin ortib, masofaviy bank xizmatlari va elektron tijorat tez sur’atlarda rivojlanyotganligi ta’kidlangan.[4]

Raqamli texnologiyalarni banklarda takomillashtirish jarayonlariga nazar tashlaydigan boʻlsak, respublikamiz yirik banklaridan biri “Ipoteka Bank”da

bankning raqamli xizmatlari borasida strategik oʻzgarishlar qilinmoqda. Mobil ilova (“Ipoteka Mobile”) va internet banking xizmatlari joriy boʻlib, u orqali bir necha turdagi bank amaliyotlari – hisobvaraqlar, toʻlovlar, onlayn depozit va kredit ajratish amaliyotlari amalga oshiriladi. Masalan, bank “OTP Group” va Beelab AJ bilan hamkorlikda raqamli moliyaviy mahsulotlarni taklif qilishga yoʻnaltirilgan loyihalar tashkil etilgan. CRM va sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi orqali bankning mijozlar bilan aloqada tezkorligi va xizmat sifat oshgan hamda chatbot yoki onlayn yordam “support” kanallari orqali tezkor javob berishni ta’minlagan.Bank sistemasi ichida mobil ilova foydalanuvchilari soni va xizmatlar soni ortib borayotgani Markaziy bank hisobotlarida qayd etilgan boʻlib, jumladan masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar jami jismoniy va yuridik mijozlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 3 861 208 nafarga yetgan[5].

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar bank-moliya sohasida tezkor va qulay xizmatlarni joriy etish orqali mijozlar ehtiyojlarini qondirish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omilga aylandi. Respublikamiz banklarida mobil ilovalar, internet banking, CRM va sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy qilinmoqda va takomillashtirilmoqda. Bu esa xizmatlar sifatini yaxshilash, investitsiyalarni jalb etish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu yoʻnalaishda taklif va tavsiyalar sifatida bank tizimini yanada rivojlantirish uchun kredit skoringda AI texnologiyalarini qo‘llash, mobil to‘lov xavfsizligini kuchaytirish, fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirish va mijozlarga 24/7 tezkor xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishni ta’minlash taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://president.uz/uz/lists/view/8475

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son,

3. Ahmed W., Amir R. ва бошқалар “Security in Next Generation Mobile Payment Systems”. 2021 https://doi.org/10.1109/ACCESS.2021.3105450

4. Ulmasov A.S, “Revolutionizing Uzbekistan's Banking Sector Through Fintech Innovations”. Indonesian Journal of Law and Economics Review. May 2024.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti, https://cbu.uz

AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA IKKINCHI DARAJALI YETKAZIB BERUVCHILARNING O‘RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Qobilov Rustam Shuxrat o‘g‘li
“O‘zavtosanoat” AJ Mahalliylashtirish va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi,
Toshkent Davlar Iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Email: r.kobilov95@gmail.com
Orcid: 0009-0008-1532-6878

Annotatsiya. *Ushbu tezisda, avtomobilsozlikda butlovchi qismlarni mahalliylashda ikkinchi darajali (tier 2) yetkazib beruvchilarning o‘rni va ularni rivojlantirish masalalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *mahalliylashtirish, avtomobil butlovchi qismlari, avtomobilsozlik, ikkinchi darajali yetkazib beruvchi, tier 2.*

Аннотация. *В данном тезисе рассматривается роль поставщиков второго уровня (tier 2) в локализации комплектующих деталей для автомобилестроения и вопросы их развития.*

Ключевые слова: *локализация, автомобильные комплектующие, автомобилестроение, поставщик второго уровня, tier 2.*


Annotation. *This abstract discusses the role of tier 2 suppliers in the localization of automotive components and their development.*

Keywords: *localization, automotive components, automotive industry, tier 2 supplier.*

Kirish

Bugungi kunda dunyoda zamonaviy avtomobil sanoati aniq ishlab chiqilgan ta’minot zanjiridan iborat katta ‘‘mexanizm’’dir. Ta’minot zanjirining har bir bo‘g‘inining avtomobil ishlab chiqarishda, uning sifatini ta’minlashda va narxini optimallashtirishda muhim rol tutadi. Odatda mahalliylashtirish to‘g‘risida so‘z borganda, avvalambor e’tibor avtomobil ishlab chiqaruvchilari va birinchi darajali yetkazib beruvchilarga qaratilsa-da, aynan ikkinchi darajali yetkazib beruvchilar chuqur sanoatlashtirish, texnologik mustaqillik va sanoatning barqaror rivojlantirishga asos hisoblanadi. Hozirda, davlatning mahalliylashtirish va import o‘rnini bosish bo‘yicha olib borayotgan sharoitida ikkinchi darajali yetkazib beruvchilarning ahamiyati oshib bormoqda.

Avtomobil ishlab chiqarishda ta’minot tizimi quyidagicha shakllanadi:



Bunda:

Daraja	Nomi	Ma’nosi
OEM *(Original Equipment Manufacturer)*	Avtomobil ishlab chiqaruvchilar	Misol uchun, Hyundai, Toyota, UzAuto Motors
Tier 1	Birinchi darajali yetkazib beruvchi	Uzellar va tayyor detallarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodga yetkazib beradi
Tier 2	Ikkinchi darajali yetkazib beruvchi	Birinchi darajali yetkazib beruvchini yig‘ma detal qismlari va xomashyo bilan ta’minlaydi (masalan, polimer granulalar, similar, plastik yoki shtamplangan qismlar)
Tier 3	Uchinchi darajali yetkazib beruvchilar	Bazaviy xomashyo bilan ta’minlaydi (metall, rezina, kimyoviy moddalar)

Misol uchun,

- **Tier 1:** ‘‘UzKoram’’ MChJ korxonasi ‘‘UzAuto Motors’’ AJ ga yirik plastik qismlar yetkazib beradi;
- **Tier 2:** ‘‘UzAuto Cepla’’ MChJ QK ‘‘UzKoram’’ MChJ uchun polimer kompaundlar ishlab chiqaradi;
- **Tier 3:** ‘‘Uz-Kor Gas Chemical’’ MChJ QK avtomobilsozlikda ishlatiladigan polimer kompaundlarni tayyorlash uchun lozim bo‘lgan bazaviy polimer xomashyosini ishlab chiqaradi.

Avtomobilsozlikda ishlab chiqarishni mahalliylashtirishda aynan ikkinchi darajali yetkazib beruvchilar, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda eng zaif va kam rivojlangan bo‘g‘in hisoblanadi. Ya’ni:

- Avtomobil ishlab chiqaruvchi va birinchi darajali yetkazib beruvchi o‘z mahsulotini ishlab chiqarishni mahalliylashtiradi lekin ikkinchi darajali ishlab chiqaruvchi mahsuloti importligicha qoladi va logistika xarajatlari balandligi hisobiga avtomobilning narxi baland bo‘lishiga olib keladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, mahalliylashtirishni chuqurlashtirishda ikkinchi darajali yetkazib beruvchilarning o‘rni juda ham muhim.

Hozirgi kunda, mahalliy avtomobilsozlikda 300 dan ortiq ikkinchi darajali yetkazib beruvchi korxonalar faoliyat yuritadi. Ular asosan mayda plastik va shtamplangan qismlar, quyma alyumin qismlar, mis simlar kabi detallarni ishlab chiqaradi.

Yurtimizda ikkinchi darajali yetkazib beruvchilarda rivojlanish bo‘yicha quyidagi kabi muammoli masalalar mavjud:

Muammo	Tavsifi
Texnologik qoloqlik	Zamonaviy ishlab chiqarish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarining yetishmasligi
Moliyaviy manbalardan foydalanish imkoniyati cheklangan	Modernizatsiyaga sarmoya kirita olmaslik
Standartlashtirishning cheklanganligi	Ko‘p hollarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot Tier 1 va OEM talablariga javob bermaydi
Malakali kadrlar yetishmasligi	Muhandislar, materialshunoslar va texnologlar yetishmasligi
Bozorning cheklanganligi	Ikkinchi darajali yetkazib beruvchilar asosan bir mamlakatda joylashgan mijozlarning kam hajmli buyurtmasiga qarab qolgan

Mahalliy avtomobilsozlik oldida turgan ushbu muammolarni bosqichma-bosqich hal etish imkoni mavjud. Ikkinchi darajali yetkazib beruvchilarni rivojlantirish maqsadida, quyidagi tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

1. Janubiy Koreya va Turkiya tajribasidan kelib chiqqan holda, birinchi va ikkinchi darajali yetkazib beruvchilarni geografik jihatdan bir joyda jamlagan holda ‘‘sanoat klaster’’larini tashkil qilish masalasini o‘rganib chiqish lozim. Bunda, birinchi darajali yetkazib beruvchi ikkinchi darajali yetkazib beruvchini ‘‘shatak’’ka olgan holda, unda sifat standartlarini joriy qilish, kadrlarini o‘qitish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu korxonalarning bir joyda joylashtirish orqali butlovchi qismlarni yetkazib berishda transport-logistika xarajatlarini qisqartirishga erishiladi. Bundan tashqari, ‘‘klaster’’larning ‘‘Erkin Iqtisodiy Zonalar’’da joylashtirish davlat tomonidan qo‘shimcha soliq imtiyozlarini olish imkonini yaratadi.

2. Global butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchilarni ikkinchi darajali yetkazib beruvchi bilan qo‘shma korxona tashkil qilish yoki texnologiyani ‘‘transfer’’ qilishga jalb qilish kerak.

3. Ikkinchi darajali yetkazib beruvchilarning mahsulotlarini diversifikatsiya qilishga ko‘maklashish lozim. Avtomobil ishlab chiqarishda ikkinchi darajali yetkazib beruvchi bo‘lgan korxonalarning quvvatlarida odatda qishloq xo‘jaligi

mashinasozligi va maishiy texnika ishlab chiqaruvchilari uchun ham butlovchi qismlar tayyorlash imkoni bor.

Xulosa qilinganda, avtomobilsozlikda mahalliylashtirish siyosatini amalga oshirishda ikkinchi darajali yetkazib beruvchilarning o‘rni katta. Ikkinchi darajali yetkazib beruvchini rivojlantirish nafaqat investitsiya kiritish orqali, balki tegishli infratuzilma yaratish, xorijiy korxonalar bilan hamkorlik qilish va sifat nazoratini joriy qilish bo‘yicha tizimli ishni tashkil qilish orqali amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Автомобильная промышленность: экономика и организация производства: учеб. пособие / В.А. Калюжный, А.В. Бобров. – М.: Форум, 2017. – 256 с.

2. Гуляев В.С. Локализация производства как инструмент промышленной политики // Экономика и управление. – 2021. – № 2(40). – С. 55–61.

3. Белоусов А. Роль поставщиков второго уровня в индустриализации: вызовы и решения // Промышленная политика. – 2020. – № 4. – С. 34–39.

4. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Промышленность Республики Узбекистан 2023: стат. сб. – Ташкент: Узстатинформ, 2024. – 144 с.

5. Минэкономики РУз. Программа стимулирования локализации автокомпонентов на 2023–2026 гг. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://mineconomy.uz/ru/programs/localization2023 (дата обращения: 30.06.2025).

6. International Organization of Motor Vehicle Manufacturers (OICA). Production Statistics [Electronic resource]. – URL: https://www.oica.net/category/production-statistics/ (дата обращения: 30.06.2025).

7. World Bank. Local Content Policies in the Automotive Sector: Case Studies from Turkey, Brazil and South Korea. – Washington, D.C., 2019. – 96 p. – URL: https://documents.worldbank.org (дата обращения: 30.06.2025).

8. PwC. The global automotive supplier study 2023. [Электронный ресурс]. – URL: https://www.pwc.com/gx/en/industries/automotive/publications/global-supplier-study.html (дата обращения: 30.06.2025).

9. OECD. Global Value Chains in the Automotive Industry. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 112 p. – DOI: 10.1787/g2g9f533-en.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В КОМПАНИЯХ

Аділ Фарида Сабитқызы
Магистр ОП 7М04108 – «Управление и право» (eMBA)
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Аннотация. *В статье рассматриваются современные модели управления человеческими ресурсами и пути их совершенствования с целью повышения эффективности работы компаний. Анализируются инновационные подходы, технологии и практики, способствующие развитию персонала, мотивации и удержанию ключевых сотрудников. Особое внимание уделяется адаптации моделей к быстро меняющимся условиям рынка и цифровой трансформации.*

Ключевые слова. *Управление человеческими ресурсами, модели управления, эффективность, мотивация, развитие персонала, цифровая трансформация, удержание сотрудников.*

Annotatsiya. *Maqolada inson resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari va ularni kompaniyalarning samaradorligini oshirish maqsadida takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Innovatsion yondashuvlar, texnologiyalar va xodimlarni rivojlantirish, motivatsiya va asosiy kadrlarni saqlab qolishga qaratilgan amaliyotlar tahlil qilinadi. Maxsus e’tibor bozorning tez o‘zgaruvchan sharoitlariga va raqamli transformatsiyaga moslashishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Inson resurslarini boshqarish, boshqaruv modellari, samaradorlik, motivatsiya, xodimlarni rivojlantirish, raqamli transformatsiya, xodimlarni saqlab qolish.*

Abstract. *The article examines modern human resource management models and ways to improve them to enhance company performance. It analyzes innovative approaches, technologies, and practices that contribute to employee development, motivation, and retention of key personnel. Special attention is paid to adapting models to rapidly changing market conditions and digital transformation.*

Keywords. *Human resource management, management models, efficiency, motivation, employee development, digital transformation, employee retention.*

Введение

В условиях стремительного развития технологий, глобализации рынков и усиливающейся конкуренции особое значение для успешного функционирования компаний приобретает эффективное управление человеческими ресурсами (УЧР). Человеческий капитал является одним из главных факторов, определяющих конкурентоспособность и устойчивое развитие организаций. В современных реалиях, когда меняются требования к квалификации сотрудников, способы мотивации и организационные структуры, традиционные модели управления персоналом оказываются недостаточно адаптированными к новым вызовам. Это обуславливает необходимость совершенствования и адаптации моделей управления человеческими ресурсами с учётом инновационных технологий, изменений в корпоративной культуре и цифровой трансформации.

Совершенствование моделей УЧР направлено на создание систем, способных эффективно развивать потенциал сотрудников, обеспечивать их

мотивацию, удержание и развитие талантов, а также формировать позитивный психологический климат в коллективе. Особое значение приобретает интеграция цифровых инструментов, таких как системы электронного обучения, платформы для оценки эффективности и управления талантами, а также инструменты аналитики больших данных для прогнозирования потребностей в персонале.

Кроме того, современные модели управления человеческими ресурсами должны учитывать разнообразие и инклюзивность, гибкие формы занятости и удалённую работу, что становится особенно актуально в условиях меняющейся организационной среды и пандемических ограничений последних лет. Все это требует комплексного подхода, основанного на стратегическом видении развития компании и вовлечении всех уровней управления.

Цель данной статьи – проанализировать существующие модели управления человеческими ресурсами, выявить их сильные и слабые стороны, а также предложить направления и методы их совершенствования в современных условиях. Особое внимание уделяется роли цифровых технологий и инновационных практик в формировании эффективной системы управления персоналом, способствующей достижению стратегических целей компании.

Исследования

В последние годы тема управления человеческими ресурсами (УЧР) привлекает всё больше внимания как в научных кругах, так и в практике бизнеса. Это связано с пониманием того, что именно персонал является ключевым активом компании, определяющим её успех и конкурентоспособность. В рамках данного исследования проведён комплексный анализ современных моделей УЧР, а также выявлены перспективные направления их совершенствования.

1. Теоретический анализ существующих моделей управления человеческими ресурсами

Первым этапом исследования стал обзор и критический анализ основных моделей управления персоналом, включая классические и современные подходы:

Традиционная модель УЧР, ориентированная на административное управление, контроль и стандартизацию процессов найма и оценки. Несмотря на широкое применение, данная модель характеризуется низкой гибкостью и ограниченной адаптацией к изменениям.

Стратегическая модель управления человеческими ресурсами, которая рассматривает персонал как стратегический ресурс, интегрированный в

бизнес-процессы и долгосрочное планирование. Эта модель подчеркивает важность вовлечения сотрудников и развития их компетенций.

Модель развития талантов и компетенций, акцентирующая внимание на обучении, развитии и удержании ключевых сотрудников, а также формировании карьерных траекторий.

Цифровая модель управления человеческими ресурсами, включающая использование IT-инструментов, платформ электронного обучения, систем оценки эффективности и аналитики данных для принятия управленческих решений.

Обзор литературы и практических кейсов показал, что каждая из моделей обладает своими преимуществами и ограничениями, однако наиболее успешные компании используют комбинированные подходы, интегрирующие стратегическое планирование и цифровые технологии.

2. Эмпирическое исследование в компаниях разных отраслей

Для оценки эффективности различных моделей управления человеческими ресурсами было проведено эмпирическое исследование в 15 компаниях различных секторов экономики: промышленности, IT, финансов и торговли. В исследовании использовались методы опроса, интервью и анализа внутренних документов.

Основные направления исследования включали:

Анализ используемых моделей УЧР и инструментов мотивации.

Оценка влияния цифровых технологий на процессы управления персоналом.

Выявление факторов, способствующих удержанию сотрудников и развитию корпоративной культуры.

Анализ проблем и барьеров, возникающих при внедрении новых моделей.

Результаты исследования показали, что организации, активно внедряющие цифровые инструменты и комплексные модели развития персонала, демонстрируют более высокую продуктивность и уровень удовлетворённости сотрудников. При этом успешное внедрение моделей зависит от поддержки высшего руководства и культуры инноваций.

3. Влияние цифровой трансформации на управление человеческими ресурсами

Особое внимание уделялось влиянию цифровизации на процессы УЧР. Были изучены кейсы использования HR-аналитики, систем электронного обучения (e-learning), платформ для управления талантами и автоматизации рутинных задач. Исследование выявило, что цифровые технологии позволяют повысить точность и скорость принятия решений, улучшить адаптацию новых

сотрудников, а также повысить вовлечённость и мотивацию через персонализированные программы развития.

Однако одновременно были отмечены вызовы – необходимость подготовки кадров, изменение организационных процессов, а также риски, связанные с конфиденциальностью данных и цифровым разрывом между сотрудниками.

4. Роль корпоративной культуры и гибкости в современных моделях УЧР

Исследование подтвердило важность создания корпоративной культуры, поддерживающей инновации, открытость и постоянное обучение. Гибкие формы занятости, включая удалённую работу и гибкий график, становятся ключевыми факторами удержания талантов, особенно среди молодых специалистов. Организации, активно внедряющие такие практики, демонстрируют более высокую адаптивность и конкурентоспособность.

Подводя итог, можно отметить, что совершенствование моделей управления человеческими ресурсами требует интеграции стратегического, технологического и культурного подходов. Эффективные модели должны быть гибкими, адаптированными к изменениям внешней среды, и ориентированными на развитие персонала как ключевого ресурса. Внедрение цифровых технологий, развитие корпоративной культуры и поддержка инноваций являются залогом успешного управления человеческими ресурсами в современных компаниях.

Выводы

Проведённое исследование позволило всесторонне проанализировать современные модели управления человеческими ресурсами (УЧР) и выявить ключевые направления их совершенствования, обеспечивающие повышение эффективности работы компаний. На основании теоретического анализа и эмпирических данных можно сделать следующие основные выводы.

1. Необходимость комплексного и стратегического подхода к управлению человеческими ресурсами

Эффективное управление человеческими ресурсами требует комплексного подхода, который интегрирует стратегическое планирование, развитие персонала и использование современных технологий. Организации, ориентированные на долгосрочную перспективу и включающие УЧР в стратегию развития, достигают лучших результатов по мотивации сотрудников, повышению их компетенций и удержанию ключевых кадров. Следовательно, управление персоналом должно рассматриваться не только как административная функция, но и как важнейший элемент стратегического менеджмента.

2. Значимость цифровой трансформации и инновационных технологий

Внедрение цифровых инструментов в процессы управления человеческими ресурсами открывает новые возможности для оптимизации работы с персоналом. Использование систем электронного обучения, HR-аналитики, платформ управления талантами и автоматизации рутинных задач повышает оперативность и точность управленческих решений, способствует персонализации программ развития и мотивации. Однако успешное внедрение технологий требует соответствующей подготовки сотрудников и руководителей, а также адаптации организационных процессов.

3. Роль корпоративной культуры и гибких форм занятости

Корпоративная культура, ориентированная на инновации, открытость, поддержку и развитие сотрудников, является фундаментом успешного управления человеческими ресурсами. Гибкие формы занятости, такие как удалённая работа и гибкий график, становятся критически важными для привлечения и удержания талантливых сотрудников, особенно в современных условиях динамичных рынков и меняющихся ожиданий работников. Создание позитивного психологического климата способствует повышению лояльности, снижению текучести и улучшению командной работы.

4. Важность обучения и развития сотрудников

Обучение и развитие персонала играют ключевую роль в формировании конкурентоспособной и адаптивной организации. Компании, которые инвестируют в повышение квалификации, развитие профессиональных и личностных компетенций сотрудников, достигают более высоких показателей производительности и инновационности. Обучение также способствует формированию культуры непрерывного развития и готовности к изменениям.

5. Проблемы и барьеры в совершенствовании моделей УЧР

Несмотря на очевидные преимущества современных моделей управления человеческими ресурсами, многие организации сталкиваются с трудностями при их внедрении. К основным барьерам относятся сопротивление изменениям, недостаток квалифицированных кадров, ограниченные финансовые ресурсы, а также недостаточная поддержка со стороны руководства. Для преодоления этих проблем необходимы системные изменения, повышение компетенций управленцев и создание условий для инновационного развития.

Таким образом, совершенствование моделей эффективного управления человеческими ресурсами требует интеграции стратегического видения, цифровых технологий и развития корпоративной культуры. Такой подход обеспечивает устойчивое развитие компании, повышение её

конкурентоспособности и создание благоприятной среды для раскрытия потенциала сотрудников. Внедрение инновационных практик и гибких форм занятости способствует адаптации организаций к современным вызовам и потребностям рынка труда.

Список использованной литературы

1. Иванов, П.С. Управление человеческими ресурсами: теория и практика / П. С. Иванов. – М.: Юрайт, 2021. – 368 с.

2. Смирнова, Е.В. Современные модели управления персоналом в условиях цифровой трансформации / Е.В. Смирнова // Управление персоналом. – 2022. – №4. – С. 45–54.

3. Кузнецов, А.М. Стратегическое управление человеческими ресурсами / А.М. Кузнецов. – Санкт-Петербург : Питер, 2019. – 295 с.

4. Armstrong, M. Armstrong‘s Handbook of Human Resource Management Practice. – London : Kogan Page, 2020. – 832 p.

ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ И МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ В КОМПАНИЯХ

Жолдасова Аяулым Бақбергенқызы
Магистр ОП 7М04108 – «Управление и право» (eMBA)
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Аннотация*. В статье рассматриваются современные модели и методы управления качеством, применяемые в бизнес-компаниях. Анализируются преимущества их внедрения, влияние на эффективность производственных процессов и конкурентоспособность. Особое внимание уделяется интеграции систем качества с инновационными технологиями и цифровыми инструментами.*

Ключевые слова. *Управление качеством, модели управления, методы контроля, бизнес-компании, инновации, цифровые технологии.*

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy sifatni boshqarish modellar va usullari, ular biznes kompaniyalarda qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Ularning joriy etilishining afzalliklari, ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligiga va raqobatbardoshlikka ta’siri tahlil qilingan. Sifat tizimlarini innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar bilan integratsiyalashga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sifatni boshqarish, boshqaruv modellari, nazorat usullari, biznes kompaniyalar, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar.*

Abstract*. The article explores modern models and methods of quality management used in business companies. It analyzes the benefits of their implementation, impact on the efficiency of production processes, and competitiveness. Special attention is given to the integration of quality systems with innovative technologies and digital tools.*

Keywords. *Quality management, management models, control methods, business companies, innovation, digital technologies.*

Введение

В современном бизнесе качество продукции и услуг является одним из ключевых факторов, определяющих успех компании на рынке и её конкурентоспособность. В условиях динамично меняющейся экономики, усиления глобализации и возрастания требований потребителей к качеству, традиционные подходы к управлению качеством становятся недостаточными. Это диктует необходимость внедрения современных моделей и методов управления качеством, которые обеспечивают не только стабильность производства, но и способствуют инновациям, гибкости и адаптивности бизнеса.

Современные модели управления качеством включают комплексные системы и стандарты, такие как ISO 9001, TQM (Total Quality Management – всеобщее управление качеством), Lean management, Six Sigma и другие. Они направлены на улучшение процессов, снижение издержек, минимизацию брака и повышение удовлетворенности клиентов. Внедрение этих моделей требует системного подхода, глубокого анализа текущих процессов и активного вовлечения всего персонала компании.

Особую роль в современном управлении качеством играют цифровые технологии и автоматизация процессов. Использование больших данных, искусственного интеллекта, интернета вещей (IoT) и других инновационных инструментов позволяет компаниям не только контролировать качество на более высоком уровне, но и предсказывать возможные отклонения, оперативно реагировать на проблемы и оптимизировать производственные цепочки.

Цель данной статьи – проанализировать современные модели и методы управления качеством, оценить их преимущества и практическое применение в бизнес-компаниях различных отраслей. Особое внимание уделяется интеграции систем качества с цифровыми технологиями и инновационным подходам, что позволяет повысить эффективность управления, сократить издержки и улучшить удовлетворенность конечных потребителей.

Анализ примеров казахстанских компаний (Kaspi.kz, Бал Текстиль, КазМунайГаз) показал, что предприятия, которые строят комплексную систему управления изменениями, добиваются более устойчивого роста, оптимизации бизнес-процессов, улучшения HR-бренда и повышения лояльности клиентов. Те организации, где изменения проводятся стихийно и без методического сопровождения, чаще сталкиваются с провалами проектов, увеличением издержек и текучестью кадров.

7. Необходимость комплексной системы управления корпоративными изменениями

Современная система должна включать:

– стратегический блок – анализ внешней и внутренней среды, формирование дорожной карты изменений;

– организационный блок – создание команды изменений, распределение ролей и зон ответственности;

– коммуникационный блок – налаживание открытого диалога с персоналом, разъяснение целей и преимуществ трансформации;

– технологический блок – внедрение цифровых инструментов мониторинга и аналитики;

– оценочный блок – разработка KPI для измерения эффективности изменений и своевременной корректировки стратегии.

8. Практическая значимость результатов исследования

Разработанный подход к внедрению современной системы управления корпоративными изменениями может быть использован:

– руководителями предприятий для планирования и контроля трансформационных проектов;

– HR-подразделениями для снижения сопротивления персонала и формирования культуры изменений;

– консультантами и аналитиками для разработки программ цифровой трансформации и повышения эффективности корпоративного управления.

9. Основные риски и пути их минимизации

При внедрении системы изменений важно учитывать:

– риск потери ключевых сотрудников – смягчается через программы мотивации и карьерного роста;

– риск информационного вакуума – предотвращается за счёт открытой и регулярной коммуникации;

– риск технологических сбоев – снижается благодаря поэтапному тестированию и резервным планам;

– риск финансовых потерь – минимизируется через предварительный анализ ROI и контролируемое инвестирование.

В условиях современной экономики управление корпоративными изменениями перестало быть вспомогательной функцией и превратилось в стратегический инструмент развития предприятия. Системный подход, основанный на сочетании проверенных моделей change management, цифровых технологий, развитии корпоративной культуры и активном вовлечении персонала, позволяет организациям адаптироваться к динамичной внешней среде, снижать издержки, ускорять инновации и сохранять конкурентоспособность на долгосрочную перспективу.

Список использованной литературы

1. Бакулин, С.В. Искусственный интеллект и цифровая экономика: вызовы и возможности для бизнеса : монография. – М.: Инфра-М, 2022. – 312 с.

2. Коттер, Дж.П. Лидерство и перемены. Как добиться успеха в мире, где всё меняется. – М.: Альпина Паблишер, 2021. – 320 с.

3. Хейз, Дж. Теория и практика управления изменениями в организациях. – Санкт-Петербург : Питер, 2020. – 448 с.

4. Prosci Inc. Change Management: The People Side of Change. – Loveland : Prosci Learning Center Publications, 2023. – 289 p.

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI

Musulmonova Shahlo
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktaranti
Hikmatov Mirkomil
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aholiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordam shakllari va ularning hududiy rivojlanishga ta’siri statistik ma’lumotlar asosida tahlil etiladi. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy siyosat doirasida amalga oshirilayotgan dasturlar, hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan davlat qarorlari va strategik yo‘nalishlar tahlil qilinib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari hududlarda ijtimoiy-institutsional mexanizmlarni kuchaytirish davlat siyosati samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *Hududlarni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy-institutsional asoslar, ijtimoiy yordam, davlat siyosati, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya, statistika.*

Аннотация. *В данной статье на основе статистических данных анализируются формы социальной помощи, оказываемой населению, и их влияние на региональное развитие. Также рассматриваются вопросы совершенствования системы социальной защиты, усиления деятельности махалли и институтов гражданского общества. Анализируются реализуемые в Республике Узбекистан программы социальной политики, государственные решения и стратегические направления, направленные на устойчивое развитие регионов, выявляются существующие проблемы и выдвигаются практические предложения по их устранению. Результаты исследования показали, что укрепление социально-институциональных механизмов в регионах является важным фактором повышения эффективности государственной политики.*

Ключевые слова: *локализация, автокомпоненты, автомобильная промышленность, поставщик второго уровня.*

Abstract. *This article analyzes the forms of social assistance provided to the population and their impact on regional development based on statistical data. It also examines issues of improving the social protection system, strengthening the activities of mahalla and civil society institutions. The programs implemented within the framework of social policy in the Republic of Uzbekistan, state decisions and strategic directions aimed at sustainable regional development are analyzed, while existing problems and practical proposals for their solution are presented. The results of the study show that strengthening socio-institutional mechanisms is an important factor in increasing the effectiveness of state policy in the regions.*

Keywords. *Sustainable regional development, socio-institutional foundations, social assistance, state policy, civil society, social protection, statistics.*

Kirish

Hududlarni barqaror rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ijtimoiy tenglik, aholi farovonligi va samarali institutsional boshqaruvni ta’minlashga qaratilgan jarayon sifatida qaraladi. Globallashuv sharoitida hududlarning ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash hamda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu boisdan, ijtimoiy siyosatni yanada samarali amalga oshirish, yordam resurslarini adolatli taqsimlash va mahalla hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi uch asosiy ustunga tayangan holda shakllanadi. Birinchisi, iqtisodiy o‘sish bo‘lib, u hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish orqali aholining daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchi ustun ekologik muvozanat bo‘lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi. Uchinchisi esa ijtimoiy tenglik bo‘lib, barcha aholi qatlamlarining ijtimoiy himoya tizimidan teng foydalanishini ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish va turmush darajasini yaxshilashni o‘z ichiga oladi. Ushbu uch omil o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, faqat birgalikda amalga oshirilgan taqdirdagina hududlarning barqaror rivojlanishi va jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi mumkin. Aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi esa hududlarda barqaror rivojlanishning kafolatlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning tarkibiga nafaqalar, subsidiyalar, bandlikni ta’minlash mexanizmlari, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlari, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va keng ko‘lamli ijtimoiy himoya dasturlari kiradi. Bunday choralar aholining ijtimoiy faolligini oshirish, hududlarda kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ustunlari bir-biridan ajralmagan holda, o‘zaro uzviy bog‘liq ravishda amalga oshirilishi lozim. Shu ma’noda, davlat siyosati hududiy rivojlanishda faqat iqtisodiy o‘sish yoki ekologik barqarorlikni emas, balki ijtimoiy tenglikni ham ta’minlashga qaratilishi talab etiladi. Mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, aholining bandligini ta’minlash va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini kengaytirish hududiy rivojlanishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu umumiy tamoyillar asosida O‘zbekiston Respublikasida ham hududlarni barqaror rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, “Harakatlar strategiyasi”, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg‘un milliy dasturlar ushbu

yo‘nalishda asosiy hujjatlar sifatida maydonga chiqmoqda. Hududlarda aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, bandlikni ta’minlash va yangi ish o‘rinlari yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, so‘nggi uch yil davomida O‘zbekistonda 2 milliondan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi, 2024 yil yakuniga kelib esa kambag‘allik darajasi 17 foizdan 11 foizgacha kamaygani kuzatildi. Bu jarayonda hududiy investitsiya dasturlari, mahallabay ishlash tizimi va “Har bir oila – tadbirkor” kabi loyihalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda hududiy rivojlanishning ayrim ko‘rsatkichlari (2021–2024 yillar)[154]

Ko‘rsatkichlar	2021- yil	2022- yil	2023- yil	2024- yil
Kambag‘allik darajasi (%)	17,0	15,3	13,5	11,0
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari (ming)	480	560	620	700
Hududiy investitsiyalar hajmi (trln so‘m)	210	250	290	340

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda olib borilayotgan hududiy rivojlanish siyosati ijobiy natijalar bermoqda. Kambag‘allik darajasi izchil kamayib bormoqda, yangi ish o‘rinlari soni yil sayin ortmoqda va hududiy investitsiyalar hajmining oshishi iqtisodiy faollikning kuchayganidan dalolat beradi. Bu ko‘rsatkichlar ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi farovonligini oshirishda davlat siyosati samaradorligini tasdiqlaydi.

Hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash bilan cheklanmay, balki keng qamrovli ijtimoiy mexanizmlarni shakllantirishni ham talab etadi. Bu jarayonda aholining ijtimoiy muhofazasi, manzilli yordam tizimi, bandlikni ta’minlash, sog‘liqni saqlash va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, eng muhim bo‘g‘in sifatida mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki barqaror rivojlanish nafaqat davlat siyosati orqali, balki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish va jamoatchilik ishtirokida ham ro‘yobga chiqadi. Barqaror rivojlantirishda mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan so‘nggi yillarda qator hujjatlar qabul qilindi va ular ijtimoiy-institutsional asoslarni mustahkamlashga qaratildi. Jumladan, 2021 yilda tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da mahalla institutini davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Mahalla instituti hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda bevosita aholiga eng yaqin bo‘lgan tizim sifatida markaziy o‘rin tutadi. So‘nggi

[154] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

yillarda joriy etilgan “mahallabay ishlash” tizimi ana shu jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur tizim orqali har bir hududdagi oilalarning sharoitlari o‘rganilib, ularning muammolarini hal qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, aholining muhtoj qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” kabi mexanizmlar joriy etildi. Ularning yordamida yuz minglab oilalar moddiy yordam, kasb-hunar o‘rganish imkoniyatlari yoki tadbirkorlik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo‘ldi. Masalan, 2023- yilda mahallalar kesimida ehtiyojmand oilalarning 60 foizidan ortig‘i davlatning manzilli yordam dasturlaridan foydalandi, bu esa kambag‘allik darajasini qisqartirishda sezilarli natijalar berdi.

Statistik ma’lumotlarga tayangan holda, bugungi kunda mamlakatda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritmoqda, ularning qariyb 60 foizi hududiy ijtimoiy loyihalar bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, 2024- yil davomida “mahallabay ishlash” tizimi orqali 1 milliondan ortiq oilaning ehtiyojlari o‘rganilib, ularga turli ko‘rinishdagi moddiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatildi. Bu esa mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining hududlarda barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi rolini yaqqol tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat siyosati hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. Mahalla tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining kengayishi aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish hududlarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhitni shakllantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. – T., 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – T., 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallabay ishlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – T., 2021.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: 2021–2024 yillar” statistik to‘plami. – T.: Stat.uz, 2024.

5. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. “Hududiy rivojlanish dasturlari va investitsiya loyihalari hisobotlari (2021–2024)”. – T., 2024.

6. World Bank. Uzbekistan Country Economic Update 2024. – Washington, D.C., 2024.

7. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). “O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha milliy hisobot”. – Nyu-York – Toshkent, 2023.

SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING MILLIY VA XORIJIY TAJRIBASI

Toxirov Javohir Mansurbek o‘g‘li
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti magistranti
E-mail: javohir.toxirov.2990@gmail.com
Orcid: 0009-0000-3822-3128

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sanoat korxonalarida atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. ESG standartlarining sanoat tarmoqlariga ta’siri, ularni integratsiyalash amaliyoti hamda investitsion jozibadorlikdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ilg‘or xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston sanoat korxonalarida ESGni qo‘llash imkoniyatlari baholanadi*

Kalit so‘zlar: *ESG tamoyillari, sanoat korxonalari, ekologik boshqaruv, ijtimoiy mas’uliyat, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, xalqaro tajriba, investitsiyalar, sanoat siyosati*

Аннотация. *В данной статье рассматривается национальный и международный опыт внедрения принципов ESG (экология, социальная ответственность и корпоративное управление) в промышленных предприятиях. Анализируется влияние ESG-стандартов на промышленные отрасли, практика их интеграции, а также их роль в инвестиционной привлекательности. Кроме того, на основе передового международного опыта оцениваются возможности применения ESG в промышленных предприятиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *Принципы ESG, промышленные предприятия, экологическое управление, социальная ответственность, корпоративное управление, устойчивое развитие, международный опыт, инвестиции, промышленная политика.*

Abstract. *This article analyzes national and international practices of implementing ESG (Environmental, Social, and Governance) principles in industrial enterprises. It explores the impact of ESG standards on industrial sectors, their integration practices, and their role in investment attractiveness. Furthermore, based on leading international experience, the potential for applying ESG in Uzbekistan's industrial enterprises is evaluated.*

Keywords: *ESG principles, industrial enterprises, environmental management, social responsibility, corporate governance, sustainable development, international experience, investments, industrial policy.*

Kirish

Jahonda ro‘y berayotgan globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sanoat sektorining ahamiyatini tobora oshirmoqda. Ishlab chiqarish sanoati jahon iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo‘lib, iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu sektor millionlab insonlarni ish bilan

ta’minlabgina qolmay, boshqa ko‘plab tarmoqlar rivoji uchun ham mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Sanoatning innovatsiyalarni joriy etish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini oshirishdagi o‘rni tobora ortib bormoqda.

Sanoatning tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan sharoitida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG – Environmental, Social, Governance) tamoyillarining joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki barqaror rivojlanish siyosatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. ESG tamoyillari orqali sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish, xodimlar salomatligi va xavfsizligini ta’minlash, hamda boshqaruvda ochiqlik va halollik mezonlarini joriy etish kabi omillar global miqyosda dolzarb masalaga aylangan.

Xususan, 2023-yilda 96% yirik xalqaro kompaniyalar ESG hisobotlarini e’lon qilgan bo‘lib, ularning 60% dan ortig‘i bu tizimni strategik qarorlar qabul qilishda asosiy mezon sifatida ko‘rib chiqmoqda, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar sanoat korxonalarida ISO 14001, ISO 50001, va GRI kabi xalqaro standartlar asosida ekologik boshqaruv tizimlarini keng joriy etgan.

O‘zbekistonda ham barqaror sanoat siyosati doirasida ESG tamoyillarini joriy etishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu borada “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, “2023–2026 yillarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash dasturi” va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ekologik samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish va energiya tejamkorlikni ta’minlash kabi yo‘nalishlar belgilab olingan. Jumladan, Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmonida sanoatni modernizatsiya qilishda ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, xorijiy investorlar bilan ESG doirasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

Shunday qilib, sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini yanada chuqurlashtirish, milliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish, hamda xalqaro standartlar asosida barqarorlikka erishish yo‘llarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Ishlab chiqarish jarayonlarida ESG tamoyillarini joriy etish, ayniqsa, ekologik jihatlar bo‘yicha so‘nggi yillarda ko‘plab xalqaro ekspert va iqtisodchilar tomonidan chuqur tadqiq etilmoqda. Bu tamoyillar korxonalar faoliyatida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, iqlim o‘zgarishi xavfini kamaytirish va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

BMT Taraqqiyot Dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili “Matilda Dimovska” ESG tamoyillarining dolzarbligiga to‘xtalar ekan, quyidagicha ta’kidlaydi: “ESG tamoyillari ilgari “yaxshi bo‘lsa, bo‘ldi” deb qaralgan bo‘lsa, hozirda bu 'majburiy' bo‘lib bormoqda. Bu o‘zgarish nafaqat yirik kompaniyalar,

balki kichik va o‘rta bizneslar uchun ham dolzarbdir”

Mashhur iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori “Paul Krugman” esa ekologik barqarorlikni ta’minlashda ESG tamoyillarining ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: “Iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar global iqtisodiyotga jiddiy tahdid solmoqda. ESG tamoyillarini joriy etish orqali kompaniyalar bu tahdidlarga qarshi kurashishda faol rol o‘ynashi mumkin”

Boshqa yirik investorlar ham ekologik barqarorlikni iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida ko‘rmoqda. Masalan, “Jeremy Grantham” (GMO kompaniyasi asoschisi) ESG yondashuvidagi «E» – ekologiya muhimligini shunday ifodalaydi: “ESG konferensiyalarida men shunday deyman: 'S va G ajoyib, lekin E – bu omon qolish masalasi.' Agar siz 'E'ni e'tiborsiz qoldirsangiz, siz tarixdagi eng katta sanoat qiymati yo‘qotilishini ko‘rishingiz mumkin”

Yana bir taniqli jurnalist va muallif “Thomas L. Friedman” o‘zining “Hot, Flat, and Crowded” asarida quyidagicha deydi: “Kun oxirida, agar biz tabiatga e'tibor bermasak, hech qanday investitsiya, toza energiya yoki energiya samaradorligi tabiatni saqlab qololmaydi. Tabiat bizga bepul beradigan toza havo, suv, go‘zal manzaralar kabi boyliklarni qadrlashimiz kerak”

Boshqa tomondan, ESG tamoyillari kompaniya faoliyatini ekologik barqarorlik bilan birgalikda moliyaviy jihatdan ham mustahkamlaydi. “Sarah Walker-Smith” (Ampa Group bosh direktori) bunga misol qilib shunday deydi: “ESG tamoyillarini tashkilotning asosiy faoliyatiga integratsiya qilish orqali kompaniyalar nafaqat barqarorlikni ta'minlaydi, balki moliyaviy samaradorlikni ham oshiradi. Bu yondashuv kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi va uzoq muddatli muvaffaqiyatga olib keladi”

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda sanoat korxonalarida ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) tamoyillarini joriy etish bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish uchun tizimli yondashuv, taqqoslash va tahliliy metodlar qo‘llanildi. Maqolada xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, OECD, Morningstar va boshqalar) tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar, hisobotlar hamda ESGni qo‘llashga oid amaliy holatlar tahlil qilindi. Milliy tajriba esa O‘zbekiston sanoat korxonalarining ESG standartlarini joriy etishdagi real amaliyotlari asosida baholandi. Shuningdek, sifatli tahlil (qualitative analysis) orqali ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ESG tamoyillarini O‘zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar

ESG (Environmental, Social, Governance) – bu atrof-muhit, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruv mezonlarini o‘z ichiga olgan yondashuv bo‘lib, kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

E – Ekologik (Environmental). Ekologik mezonlar kompaniyalarning atrof-

muhitga ta’sirini baholaydi. Bu omillar ichida eng dolzarblaridan biri – “suv resurslarining tanqisligi” 1-chi rasmda ko‘rsatilganidek, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Afrika va Janubiy Amerika hududlarida “Baseline Water Stress” (asosiy suv bosimi) darajasi juda yuqori. Bu esa kompaniyalar zimmasiga suvdan foydalanishning barqaror, ekologik toza mexanizmlarini ishlab chiqish majburiyatini yuklaydi.

Kompaniyalar orasida bu borada Kering Group (Fransiya) yetakchi sifatida ajralib turadi. Ushbu kompaniya 2035-yilgacha “Water Stewardship Strategy” (Suv resurslarini boshqarish strategiyasi) orqali global miqyosda suv tanqisligini kamaytirishni maqsad qilgan. Kering direktori Marie-Claire Daveu bu haqda shunday deydi: “Suv – bu bizning eng muhim tabiiy resurslarimizdan biri. Uning qiymati moliyaviy emas, balki yashash uchun zarur bo‘lgan hayotiylikdir. Biz hozir choralar ko‘rmasak, sanoatimizning kelajagi xavf ostida qoladi.”

S – Ijtimoiy (Social). Ijtimoiy mezonlar kompaniyaning xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar va jamiyat bilan munosabatlarini baholaydi. Bu, masalan, mehnat sharoitlari, inson huquqlari, xilma-xillik va inklyuziya, hamda iste’molchilar xavfsizligi kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

McKinsey hisobotiga ko‘ra, ESG tamoyillariga amal qiluvchi kompaniyalar xodimlarni jalb qilish va ushlab qolishda yuqori ko‘rsatkichlarga ega, chunki ko‘proq mutaxassislar o‘z shaxsiy qadriyatlariga mos kompaniyalarda ishlashni xohlashadi.

G – Boshqaruv (Governance). Boshqaruv komponentasi korxonalarning rahbariyati, nazorat mexanizmlari, axloqiy tamoyillar, korrupsiyaga qarshi siyosat, aktsiyadorlar huquqlari va shaffoflik darajasiga doir yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu bo‘lim kompaniya ichki tuzilmasining qanday boshqarilishini, qanday strategik qarorlar qabul qilinishini, manfaatlar to‘qnashuvi qanday boshqarilishini hamda rahbarlar mas’uliyatini qanday ta’minlanishini baholaydi. Larry Fink – BlackRock kompaniyasi bosh direktori (dunyoning eng yirik aktivlar boshqaruvchisi), boshqaruv masalalarini shunday izohlaydi: “ESGning 'G‘ – bu bizning ishimizning asosi. Agar boshqaruv ishlamasa, atrof-muhit bo‘yicha majburiyatlar va ijtimoiy tashabbuslar samarasiz bo‘ladi.”


“KPMG 2024 Governance Trends” hisobotida keltirilishicha, kompaniyalarning 79% boshqaruv faoliyatini kuchaytirish uchun AI texnologiyalarini audit va rejalashtirishda qo‘llay boshlagan.

2024-yilda “Xalqaro barqarorlik hisobot standartlari kengashi (ISSB)” tomonidan ishlab chiqilgan “IFRS S1 va S2” standartlari kuchga kirdi. Bu standartlar korxonalarning barqarorlikka oid moliyaviy ma’lumotlarni oshkor qilishini talab qiladi. Hozirda 20 dan ortiq yurisdiktsiyalar, jumladan Kanada, Nigeriya, Singapur, Avstraliya va Buyuk Britaniya ushbu standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilmoqda.

Yevropa Ittifoqida esa “Korporativ barqarorlik hisobotlari direktivasi (CSRD)” kuchga kirib, 50,000 dan ortiq kompaniyani ESG hisobotlarini taqdim etishga majbur qilmoqda.

“KPMG”ning 2024-yilgi global ESG due diligence tadqiqotiga ko‘ra Investorlardan 80% ESG omillarini M&A qarorlarida muhim deb hisoblaydi. 55% respondentlar yuqori ESG yetukligiga ega aktivlar uchun 1–10% ko‘proq to‘lashga tayyor. 45% investorlar ESG tekshiruvi natijasida muhim kelishuvlarga ta’sir ko‘rsatgan holatlarga duch kelgan.

“NYU Stern Center for Sustainable Business” tadqiqotiga ko‘ra, ESGga sodiq kompaniyalar kuchliroq moliyaviy natijalarga erishmoqda. Bundan tashqari, aniq va shaffof ESG hisobotlari kompaniya obro‘sini oshirib, tartibga soluvchilar va aktsiyadorlar tomonidan da’volarning oldini olishga yordam beradi.



Manba: Environmental Finance Bond Database, S&P Global Ratings

S&P Global Ratings tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, global barqaror obligatsiyalar bozori so‘nggi yillarda sezilarli o‘sishni qayd etdi. 2020-yilda umumiy emissiya hajmi taxminan 650 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1.1 trillion dollardan oshib ketdi. Bu bir yil ichida deyarli 70% o‘sishni anglatadi.

Keyingi yillarda ham o‘sish tendensiyasi davom etdi. 2022-yilda emissiya hajmi biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da (970 milliard dollar atrofida), 2023-yilda bozor yana tiklanib, 1 trillion dollardan oshdi. 2024-yilda esa o‘sish davom etib, emissiya hajmi 1.05 trillion dollarga yaqinlashdi.

Turli xil barqaror obligatsiyalar turlari o‘rtasida yashil obligatsiyalar doimiy ravishda eng katta ulushni egallab kelmoqda. 2020-yilda yashil obligatsiyalar emissiyasi umumiy hajmining yarminidan ko‘prog‘ini tashkil etgan bo‘lsa, bu

tendensiya keyingi yillarda ham saqlanib qoldi. Ijtimoiy va barqarorlik obligatsiyalari ham sezilarli hajmda emissiya qilinmoqda va ularning ulushi yillar davomida o‘sib bormoqda. Barqarorlik bilan bog‘langan va o‘tish davri obligatsiyalari hozircha bozorning kichikroq segmentini tashkil etsa-da, ularning o‘sish sur’atlari ham e’tiborga molik.

S&P Global Ratings prognoziga ko‘ra, 2025-yilda global barqaror obligatsiyalar emissiyasi 1 trillion AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda. Prognoz diapazoni shuni ko‘rsatadiki, bozorning o‘sish potentsiali hali ham yuqori.

Ushbu statistik ma’lumotlar global moliya bozorida barqarorlikka bo‘lgan e’tiborning ortib borayotganini va ESG tamoyillarining investitsiya qarorlariga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Barqaror obligatsiyalar bozori nafaqat hajmi bo‘yicha o‘smoqda, balki turli xilligi bo‘yicha ham rivojlanib, investorlarga kengroq imkoniyatlar yaratmoqda.

Bu boradagi global tendensiyalar fonida O‘zbekiston ham ESG tamoyillariga mos keluvchi barqaror investitsiyalarni jalb qilish yo‘lida faol qadamlar tashlamoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi izchil o‘sib bormoqda. 2017–2024 yillar davomida mamlakatga jami 188 milliard AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritilgan bo‘lib, shundan 87 milliard dollari xorijiy investitsiyalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Faqat 2024-yilning to‘qqiz oyida 23,66 milliard dollarlik sarmoya jalb qilingan.

Mazkur investitsiyalarning muhim qismi aynan ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillariga mos sohalarga – yashil energetika, chiqindini energiyaga aylantirish, yashil moliyalashtirish, ESG transformatsiyasi va raqamli infratuzilma yo‘nalishlariga yo‘naltirilmoqda. Bu yo‘nalishlar bugungi kunda nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, yashil energetika sohasida Birlashgan Arab Amirliklarining Masdar kompaniyasi tomonidan Sherobod, Samarqand, Jizzax, Zarafshon va Buxoro viloyatlarida umumiy quvvati 1,6 gigavattdan ortiq bo‘lgan quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda. Ushbu loyihalar har yili million tonnalab karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Malayziyaning Sunview kompaniyasi tomonidan ikki yirik quyosh elektr stansiyasi loyihasi boshlangani e’lon qilindi. Xitoy, BAA va Janubiy Koreya bilan hamkorlikda 1,3 milliard dollarlik chiqindidan energiya olish loyihalari boshlangan bo‘lib, yillik 4,7 million tonna maishiy chiqindidan 2,1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.

Yashil moliyalashtirish sohasida esa Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan energiya samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan loyihalarga sarmoyalar jalb qilinmoqda. Masalan, Hamkorbankka $10 millionlik kredit ajratilib,

bu mablag‘lar iqlimga chidamli texnologiyalarni joriy etishga sarflanmoqda. Shuningdek, UzDIF jamg‘armasi “Green Hills Resort” kurorti tomonidan chiqarilgan ESG prinsiplariga asoslangan “yashil” obligatsiyalarni sotib olib, barqaror turizm va toza energiya tizimlarini qo‘llab-quvvatlamoqda.

ESG transformatsiyasi yo‘lida esa yirik davlat korxonalari – “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”, “Navoiy KMK” va “O‘zmetkombinat” tomonidan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), karbon chiqindilarini hisoblash, ekologik baholash va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekgidroenergo” esa xalqaro “Sustainable Fitch” reyting agentligi tomonidan 72 ball bilan mintaqadagi eng yuqori ESG reytingiga ega kompaniya sifatida e’tirof etildi.

Bundan tashqari, raqamli infratuzilma sohasida Saudiya Arabistonining DataVolt kompaniyasi bilan hamkorlikda $5 milliardlik ekologik barqaror ma’lumotlar markazlarini qurish rejalashtirilgan bo‘lib, loyiha ESG prinsiplariga asoslangan holda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy darajada esa Kapitalbank va Uzum ekotizimi tomonidan amalga oshirilgan “Havodek zarur” loyihasi orqali 30 dan ortiq hududda havo sifati sensorlari o‘rnatilib, 35 mingdan ortiq daraxt ekilgan bo‘lib, loyiha “Oltin Chinor” milliy mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Mazkur tashabbuslar O‘zbekistonning ESG tamoyillarini iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga izchil integratsiya qilayotganidan dalolat beradi va xalqaro sarmoyadorlar uchun yangi, barqaror va jozibador investitsion muhit shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa

Jahonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining joriy etilishi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish strategiyasida markaziy o‘rin egallamoqda. Global tajriba shuni ko‘rsatadiki, ESG standartlarini qo‘llayotgan kompaniyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlamoqda, balki moliyaviy natijalari, investitsion jozibadorligi va ijtimoiy ishonchliligi jihatidan ham ustunlikka ega bo‘lmoqda. PwC, KPMG, BlackRock va NYU Stern kabi xalqaro manbalar ESG yondashuvining iqtisodiy foydasini raqamlar orqali tasdiqlaydi.

Yevropa Ittifoqining CSRD direktivasi va ISSB tomonidan joriy etilgan IFRS S1–S2 standartlari esa korxonalarning barqarorlik hisobotlarini global darajada yagona tizimga keltirib, ularning mas’uliyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, yashil obligatsiyalar bozori 2024-yilda 1 trillion dollardan oshib, ESG investitsiyalarining jadal o‘sishini aks ettirdi.

O‘zbekiston kontekstida esa ESG tamoyillari tobora davlat siyosati darajasiga chiqmoqda. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, “O‘zbekiston – 2030” dasturi va PF–158-son farmoni asosida ekologik samaradorlik, resurslarni tejash, energiya

tejamkor texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishida amaliy chora-tadbirlar boshlangan. Yirik sanoat korxonalari – “Navoiy KMK”, “Olmaliq KMK”, “O‘zmetkombinat” hamda “O‘zbekgidroenergo”da xalqaro ESG reytinglari bo‘yicha faol ishlanmalar olib borilmoqda.

Shuningdek, Masdar, Sunview va DataVolt kabi xorijiy investorlarning ishtirokida amalga oshirilayotgan yashil energetika va raqamli infratuzilma loyihalari mamlakatda ekologik barqarorlikni mustahkamlab, iqlim o‘zgarishiga moslashuvni jadallashtirmoqda.

Umuman olganda, ESG tamoyillarini joriy etish O‘zbekiston sanoatini nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki xalqaro raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish yo‘nalishida yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, kelgusida ESG standartlarini huquqiy, institutsional va amaliy jihatdan yanada chuqurlashtirish, hisobot tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektorni faol ishtirokga jalb etish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. PwC. (2023). ESG Reporting 2023 Global Study. Retrieved from https://www.pwc.com/gx/en/services/sustainability/publications/esg-reporting.html

2. United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan. (2023). Statement by Matilda Dimovska at the ESG Business Transformation Panel, Tashkent International Investment Forum 2023. Retrieved from https://www.undp.org/uzbekistan/speeches/statement-matilda-dimovska-panel-session-esg-business-transformation-tashkent-international-investment-forum-2023

3. Krugman, P. (2010). Building a Green Economy. Grist. Retrieved from https://grist.org/technology/2010-04-08-paul-krugman-on-building-a-green-economy/

4. Morningstar. (2023). Green Linings: A Conversation on Climate Change with Jeremy Grantham. Retrieved from https://www.morningstar.com/sustainable-investing/green-linings-conversation-climate-change

5. Friedman, T. L. (2008). Hot, Flat, and Crowded: Why We Need a Green Revolution – and How It Can Renew America. New York: Farrar, Straus and Giroux. Quote retrieved from https://www.goodreads.com/quotes/180026-at-the-end-of-the-day-no-amount-of-investing

6. Walker-Smith, S. (2023). Join up Words and Actions to Make ESG Simply How You Do Things. The Times. Retrieved from https://www.thetimes.co.uk/article/join-up-words-and-actions-to-make-esg-simply-how-you-do-things-enterprise-network-mzrm2k8rb

7. BlackRock. (2022). Larry Fink’s Annual Letter to CEOs. Retrieved from https://www.blackrock.com/corporate/investor-relations/larry-fink-ceo-letter

8. KPMG. (2024). Governance Trends 2024: Insights from KPMG Board

Leadership Center. Retrieved from https://boardleadership.kpmg.us/research/publications/2024-governance-trends.html

9. IFRS Foundation. (2024). International Sustainability Standards Board (ISSB): IFRS S1 and S2 Standards. Retrieved from https://www.sustainabletradeandfinance.com

10. European Commission. (2024). Corporate Sustainability Reporting Directive (CSRD). Retrieved from https://www.ecoactiveesg.com

11. KPMG. (2024). Global ESG Due Diligence Survey 2024. Retrieved from https://www.kpmg.com

12. Impa Analytics. (2024). ESG Due Diligence Insights. Retrieved from https://www.impakanalytics.com

13. NYU Stern Center for Sustainable Business. (2023). Return on Sustainability Investment (ROSI) Report. Retrieved from https://www.jsheld.com/insights/articles/esg-performance-and-financial-outcomes

14. Environmental Finance & S&P Global Ratings. (2024). Green, Social and Sustainability Bond Market Update. Retrieved from https://www.spglobal.com/ratings

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). PF–158-son Farmon: “Sanoatni modernizatsiya qilishda ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 11 sentyabr 2023 y.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” va “2023–2026 yillarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash dasturi”. Toshkent.

17. Environmental Finance Bond Database. (2024). Global Green Bond Issuance Statistics. Retrieved from https://www.environmental-finance.com

18. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). Investitsiyalar hajmi va manbalari to‘g‘risida hisobot. Toshkent.

GREEN CAR: QISHLOQ XO‘JALIGIDA NAZORATNI YENGILLASHTIRUVCHI AQLLI ROBOT

Qurbonov Shuhratbek Bahtiyorjon o‘g‘li
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti talabasi
E-mail: slavadoriana@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orishdan so‘ng daladagi tuproq namligini o‘lchash va o‘simliklarning to‘liq hamda sog‘lom o‘sishini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan kichik robot – Green Car haqida fikr yuritiladi. Qurilma GPS orqali boshqariladi, quyosh paneli bilan jihozlangan bo‘lib, dala bo‘ylab yurib, yer namligi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu esa sug‘orish jarayonini nazorat qilishni osonlashtiradi, xatoliklarni kamaytiradi va hosildorlikni oshirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *Green Car, qishloq xo‘jaligi, tuproq namligi, GPS, quyosh paneli, aqlli robot, tomchilatib sug‘orish, hosildorlik.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается Green Car – небольшой робот, предназначенный для измерения влажности почвы в поле после капельного орошения в сельском хозяйстве и обеспечения полноценного и здорового роста растений. Устройство управляется по GPS, оснащено солнечной панелью и перемещается по полю, предоставляя данные о влажности почвы. Это упрощает управление процессом орошения, снижает количество ошибок и способствует повышению производительности.*

Ключевые слова: *Green Car, сельское хозяйство, влажность почвы, GPS, солнечная панель, умный робот, капельное орошение, производительность.*

Abstract. *This article discusses the Green Car, a small robot designed to measure soil moisture in the field after drip irrigation in agriculture and ensure full and healthy plant growth. The device is controlled by GPS, equipped with a solar panel, and moves around the field, providing information about soil moisture. This makes it easier to control the irrigation process, reduces errors, and helps increase productivity.*

Keywords: *Green Car, agriculture, soil moisture, GPS, solar panel, smart robot, drip irrigation, productivity.*

Kirish

Zamonaviy texnologiyalar qishloq xo‘jaligida ham keng qo‘llanila boshladi. Ayniqsa, suv resurslaridan samarali foydalanish va o‘simliklarning barqaror o‘sishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu maqsadda yaratilgan Green Car kichik robot mashinasi dala bo‘ylab harakatlanib, yerning namlik darajasini o‘lchaydi va fermerlarga kerakli ma’lumotlarni yetkazib beradi.

Green Car qanday ishlaydi?

Green Car quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan:

- GPS tizimi – robotning dalada aniq harakatlanishini ta’minlaydi;
- Namlik sensori – tuproqdagi suv miqdorini o‘lchaydi;
- Quyosh paneli – energiya manbai sifatida xizmat qiladi va qurilmani ekologik toza qiladi;
- Markaziy boshqaruv tizimi – o‘lchovlarni yig‘ib, real vaqt rejimida foydalanuvchiga uzatadi.

Robot sug‘orishdan so‘ng dalani aylanib chiqib, qaysi hududda suv yetarli, qaysi joyda kam ekanini aniqlaydi. Shu orqali fermer suvni oqilona taqsimlab, hosildorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Afzalliklari

Green Car texnologiyasining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Sug‘orish jarayonini nazorat qilish osonlashadi;
- Suv isrofini kamaytiradi;
- O‘simliklarning to‘liq va sog‘lom o‘sishini ta’minlaydi;
- Fermerning mehnatini yengillashtiradi;

- Quyosh paneli orqali ekologik toza energiyadan foydalanadi.

Bundan tashqari, Green Car dala maydonining umumiy monitoringini amalga oshirib, hosildorlikni barqarorlashtirishga katta hissa qo‘shadi.

Kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari

Green Car kelajakda yanada takomillashtirilishi mumkin. Jumladan, quyidagi qo‘shimcha imkoniyatlarga ega bo‘lishi kutilmoqda:

- Namlikka qarab sug‘orishni avtomatik yoqish yoki o‘chirish;
- O‘simliklarning holatini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish;
- Dronlar bilan integratsiya qilib, katta maydonlarni tezkor kuzatish;
- Ma’lumotlarni mobil ilova orqali fermerlarga yetkazish;
- Statistik tahlillar asosida kelgusi hosil prognozini chiqarish.

Bunday imkoniyatlar qishloq xo‘jaligida zamonaviy yondashuvni kuchaytiradi va samaradorlikni oshiradi.

Xulosa

Green Car – bu qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan aqlli robotdir. U nafaqat sug‘orish jarayonini nazorat qiladi, balki hosildorlikni oshirishga, vaqt va mehnatni tejashga ham xizmat qiladi. Yaqin kelajakda bunday texnologiyalar qishloq xo‘jaligida keng joriy etilib, ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Green Car kabi robotlar kelajakda qishloq xo‘jaligida fermerlarning eng ishonchli yordamchisiga aylanishi mumkin.

Yaqin kelajakda Green Car kabi aqlli robotlar raqamli qishloq xo‘jaligining ajralmas qismi bo‘lishi kutilmoqda. Ular yordamida dehqonlar va fermerlar ish unumdorligini oshirib, mahsulot yetishtirishda yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Shuningdek, bu kabi texnologiyalar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda, ortib borayotgan aholining ehtiyojini qondirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar

1. Mamatkulov N., Aminov R. Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/ index.php/GED/article/view/6125

2. Jiemuratov T.P. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish. Innovatsion rivojlanish instituti jurnali. https://zenodo.org/records/15050670

3. Ergasheva M.B. Qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari. Muhandislik-iqtisodiyot jurnali. https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/301

4. Sulaymonov M.A. Aqlli sug‘orish tizimlari yordamida suv resurslaridan samarali foydalanish: O‘zbekiston tajribasi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6122

5. Abasxanova H. The role of innovative technologies in remote monitoring of agricultural products. Iqtisodiyot va innovatsiyalar texnologiyalari jurnali. https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit /article/view/197

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING TAHLILI

Baxromov Asadbek Baxodirovich
Toshkent menejment va iqtisodiyot istituti
2-kurs magistranti
E-mail: asadbekbaxromov1917@gmail.com

Anotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini yo‘lga qoyish bo‘yicha Iqtisodiy-huquqiy asoslar tahlil qilingan . Jumladan Toshkent shaxrida tashkil etilgan kichik sanoat zonalar misolida taxlillar amalga oshirilgan va kelgusidagi rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kichik sanoat zonasi, Texnopark, Samaradorlik, Moliyaviy barqarorlik ,Innovatsiya, Investitsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются экономические и правовые основы создания и функционирования малых промышленных зон в Узбекистане. В частности, анализ проведен на примере малых промышленных зон, созданных в Ташкенте, и разработаны предложения по обеспечению их дальнейшего развития.*

Ключевые слова: *Малая промышленная зона, Технопарк, Эффективность, Финансовая устойчивость, Инновации, Инвестиции.*

Abstract. *This article analyzes the economic and legal foundations for the establishment and operation of small industrial zones in Uzbekistan. The study examines the activities of small industrial zones established in Tashkent City, provides analytical insights, and develops proposals aimed at improving their efficiency and ensuring sustainable future development.*

Keywords: *small industrial zone, technopark, efficiency, financial stability, innovation, investment.*

Kirish

Kichik sanoat zonalari O‘zbekistonda hozirgi sharoitda shakllanish jarayonidan o‘tmoqda. Kichik sanoat zonalarining barpo etilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31- dekabrdagi 2014- yildagi, 378-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilingandan keyin boshlandi [1].

Kichik sanoat zonalari Prezident qarori yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra barpo etiladi. 2024- yil holatiga ko‘ra respublikada jami 82 ta kichik sanoat zonalari faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy maydoni 1243,4 gektarni tashkil etadi. Amalga oshirilgan loyihalar soni– 987 ta, umumiy qiymati 2248,9 mlrd so‘m. Xorijiy investitsiya faqat Toshkent shaxriga to‘g‘ri keladi va u 13,35 mln AQSH dollariga teng. Yaratilgan ish o‘rinlari 38283 ta. Eng ko‘p kichik sanoat zonalari Toshkent viloyatiga – 17 ta, va Samarqand viloyatiga – 14 ta to‘g‘ri keladi. Eng kam kichik sanoat zonalari: Andijon va Sirdaryo viloyatlarida – 3 tadan, Farg‘ona

viloyatida – 4 ta, Jizzax va Xorazm viloyatlarida – 5 tadan kichik sanoat zonalari o‘z faoliyatini boshlagan. Buxoro, Namangan va Navoiy viloyatlarida kichik sanoat zonalarini barpo etish jarayonlari davom etmoqda [2].

Hududlar bo‘yicha ajratilgan umumiy yer maydonlari ham turlicha. Eng ko‘p yer maydoni Sirdaryo viloyatiga (546,5gektar), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (205,7 gektar) va Toshkent viloyatiga (104,9 gektar) to‘g‘ri keladi. Eng kam yer maydoni Andijon viloyatiga (17,4 ga), Farg‘ona (17,8 ga) va Xorazm (15,6 ga) viloyatlariga to‘g‘ri keladi. O‘rtacha har bir kichik sanoat zonasiga to‘g‘ri keluvchi umumiy yer maydonini o‘rgansak, bu ko‘rsatkich respublika bo‘yicha 15,2 gektarga teng. Ushbu ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida 29,4 gektarni tashkil qiladi, Sirdaryo viloyatida – 5,2 gektar va Xorazm viloyatida 3.2 ggektarni tashkil etadi [2].

Amalga oshirilgan loyihalar bo‘yicha o‘rgansak, eng ko‘p loyiha Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi (656 ta loyixa), va Andijon viloyatiga (38 loyixa). Yaratilgan ish o‘rinlari bo‘yicha ham Toshkent shahri yetakchi o‘rinni egallaydi (15897 ta).

1- jadval

Hududlar kesimida kichik sanoat zonalari holati[155]

	Asos: Prezident qarori, Vazirlar Mahkamasi qarori	**Faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalari soni**	**Umumiy maydon, Ga**	**Amalga oshirilgan loyihalar**			**Yaratilgan ish o‘rinlari soni**
				Soni	**Umumiy qiymati**		
					mlrd. So‘m	**mln. Dol.**	
Qoraqalpo-g‘iston Respublikasi	PQ-2803, 28.02.2017; PQ -3588, 06.03.2018.	7	205,7	8	8,7		154
Andijon	VMQ-588, 04.08.2017	3	17,4	38	83,4	8,3	10221
Jizzax	VMQ-352, 05.06.2017; VMQ-897, 08.11.2017.	5	33,6	41	295,7	29,5	1716
Qashqadaryo	PQ -3536, 29.03.2018	7	29,8				
Samarqand	PQ -3607, 16.03.2018	14	53,1				
Surxondaryo	PQ -3636, 29.03.2018	9	55,1				
Sirdaryo	PQ -2860, 30.03.2017; VMQ-589,	3	546,5	79	483,7	36,3	3058

[155] Muallif tomonidan tuzilgan.

	04.08.2017.						
Toshkent	PQ -3194, 10.08.2017	17	104,9	116	439,8	45,8	4710
Farg‘ona	VMQ-672, 25.08.2017	4	17,8	49	114,9		2527
Xorazm	PQ -3513, 06.02.2018	5	15,6				
Toshkent shaxri	PQ -2973, 18.05.2017; Toshkent shaxri hokimi q. № 1161,29.12.2016	8	163,9	656	822,7	13,35	15897
Jami		**82**	**1243,4**	**987**	**2248,9**	**133,25**	**38283**

AQSH dollarida kiritilgan investitsiyalar, asosan Toshkent viloyatiga (45,8 mln. dollar), Sirdaryo viloyatiga (36,3 mln. dollar), Jizzax (29,5 mln. dollar), Andijon (8,3 mln. dollar), viloyatlariga va Toshkent shahriga (13,35 mln. dollar) to‘g‘ri kelmoqda. Xorijiy investitsiyalar sanoati rivojlangan yoki rivojlanayotgan hududlarga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng ko‘p ish o‘rinlarining yaratilishi Toshkent shahriga – 15897 ta, Toshkent viloyatiga – 4710 ta, Sirdaryo viloyatiga – 3058 ta, Farg‘ona – 2527 ta va Jizzax – 1716 ta viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Jadvalga ko‘ra, hududlar kesimida loyihalarning yuqori qiymatiga, yuqori yaratilgan ish o‘rinlari to‘g‘ri keladi.

Growth poles have emerged along the route. As the first stop in Uzbekistan for the railway, Andijan Region had a foreign trade volume of $4.175 billion in 2024, accounting for 6.3% of the country's total. After the railway is completed, it will become the "bridgehead" for China-Kyrgyzstan-Uzbekistan trade. It is estimated that its foreign trade volume will exceed $10 billion by 2030, with its share rising to 12%. As the railway's terminus and the country's logistics hub, Tashkent City will further strengthen its function as a "land port hub". The foreign trade volume of $25.338 billion in 2024 is expected to double within five years.

The regional gap is narrowing. In the underdeveloped southern regions such as Surkhandarya Province, the proportion of foreign trade in 2024 was only 0.6%, mainly due to the poor logistics. The planned railway branch lines will connect these regions, driving the development of agriculture and mineral resources. It is expected that their GDP growth rate will increase from the current 4.2% to over 6%, and the regional economic gap coefficient will drop from 0.35 to 0.28.

4.3 Analysis of the challenges in the implementation of the China-Kyrgyzstan-Uzbekistan Railway

4.3.1 Geopolitical and international coordination challenges

In terms of external constraints in the game among major powers, Russia still has a strong influence on the transportation network in Central Asia. The Eurasian Economic Union led by Russia uses the broad - gauge standard, while the China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway uses the standard gauge. The difference in track gauges may increase the transfer cost. The "Central Asia - Caucasus - Europe Corridor" promoted by the United States tries to counter the influence of the China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway. Through plans such as the "Blue Dot Network", it tries to attract Central Asian countries to participate, which may divert some investment and freight volume. In terms of the internal difficulties in coordinating the interests of the three countries, Kyrgyzstan still has concerns about the financing model, worrying about bearing too high construction costs.

Uzbekistan hopes to prioritize the construction of the branch line connecting the Fergana Basin. The difference in the demands of the two sides may delay the project progress. Although the border dispute between Kyrgyzstan and Uzbekistan was resolved in 2024, details such as railway land acquisition compensation and environmental standards still need to be negotiated.

4.3.2 Challenges in domestic supporting facilities and institutional adaptation

In terms of insufficient connection of infrastructure, the electrification rate of the existing railways in Uzbekistan is only 31.6%. Moreover, the railway interface standards at the border with Kyrgyzstan are inconsistent, and about $2 billion of investment is needed for renovation. The logistics supporting facilities are lagging behind. There are only 3 modern freight stations in the whole country, and the storage capacity gap reaches 4 million tons, making it difficult to handle the incremental freight volume brought by the railways. Uncertainty in the institutional environment: The legal system in Uzbekistan is still imperfect. Presidential decrees frequently conflict with existing laws. The average time for enterprises to get tax refunds takes more than 3 months. Administrative intervention has led to the implementation rate of foreign - funded projects being only 60%. In 2024, the trade volume between China and Uzbekistan decreased by 9.7%, partly due to the instability of policy implementation.

4.3.3 Ecological and social adaptation challenges

The railway passes through the edge of the Pamir Plateau in Kyrgyzstan and the Fergana Basin in Uzbekistan. These areas have fragile ecosystems, which may lead to problems such as soil erosion and a reduction in biodiversity. The people in Uzbekistan have insufficient awareness of the railway construction, and there is resistance to land acquisition in some local areas. Long - term social communication work needs to be carried out.

4.4 Countermeasures and suggestions

4.4.1 Build a multi - level international coordination mechanism.

In deepening the core cooperation among the three countries, a joint management committee for the China-Kyrgyzstan-Uzbekistan Railway should be established, adopting the model of "Chinese financing + joint construction by the three countries + revenue sharing". The transit revenue of Kyrgyzstan should be used first to repay the construction loans, and Uzbekistan should use the revenue from resource development to make up for the funding gap. Promote the research and development of gauge-compatible technologies and build efficient transshipment hubs at border stations to keep the transfer time within 24 hours. Align with regional multilateral frameworks: strive for the Eurasian Economic Union to recognize the "green transit channel" status of the railway and reduce tariff barriers. Taking the railway project as a link, promote Uzbekistan to participate in the negotiation of the China-Central Asia Free Trade Area and sign the "Trade Facilitation Agreement" simultaneously to simplify the customs clearance process.

4.4.2 Improve the domestic supporting system.

In terms of upgrading the infrastructure network, apply for loans from the Asian Infrastructure Investment Bank and focus on renovating the Tashkent -

Andijan railway trunk line to achieve a 100% electrification rate by 2027. Build 5 modern logistics centers in Andijan and Samarkand, and construct cold - chain storage facilities to improve the fresh - keeping and transportation capacity of agricultural products. In terms of optimizing the system and business environment, revise the "Foreign Investment Law", establish a commitment mechanism for the stability of legal provisions, and compress the tax refund process to within 1 month. Set up a "Railway Special Economic Zone", grant 10 - year tax exemptions to textile and new energy enterprises that settle in, and replicate the regulatory innovation experience of the free trade zone in Xinjiang, China.

4.4.3 Promote the coordinated development of industries and railways.

Implement the precise layout of the "railway + industry". Build a textile industrial park in Andijan, relying on the railway to connect the cotton resources in Xinjiang with the Chinese consumer market. Create a new - energy equipment manufacturing base in Navoi Region and transport wind - power and photovoltaic equipment to Central Asian countries by rail. In terms of cultivating regional growth poles, set up the "Southern Regional Development Fund" to focus on supporting the construction of railway branches in underdeveloped areas such as Surkhandarya Region and develop the characteristic agricultural product processing industry. Learn from the entrepreneurship support experience of Tashkent, build 10 incubation centers for small and micro - enterprises in cities along the line to promote employment.

Conclusion and Recommendations

The China-Kyrgyzstan-Uzbekistan Railway affects the economy of Uzbekistan through a three-dimensional mechanism of "transport efficiency improvement - trade cost reduction - value chain reconstruction". Among them, trade cost reduction is the most direct driving factor, and value chain reconstruction is the core path to achieve long-term growth. The economic effects of the railway on Uzbekistan are manifested in multiple dimensions: at the macro level, it will boost the average annual GDP growth rate by 1.2 - 1.8 percentage points and significantly optimize the trade structure; at the industrial level, it will promote the upgrading of the textile and agricultural industries from primary exports to value-added processing and cultivate emerging growth poles such as logistics and new energy; at the regional level, it will form a growth axis from Andijan to Tashkent and narrow the development gap between the north and the south. The implementation of the project faces three major challenges: geopolitical game, insufficient supporting facilities, and institutional adaptation. These challenges need to be addressed through comprehensive countermeasures including international coordination, domestic upgrading, industrial collaboration, and ecological protection.

With the official launch of the project in 2024, future research can be deepened in three aspects: First, track the progress of railway construction and conduct dynamic effect measurement tests based on panel data. Second, focus on the micro - level of enterprises and analyze the heterogeneous impacts of the railway on enterprises of different scales and in different industries. Third, expand comparative research, compare the implementation experiences of similar projects

such as the China - Laos Railway, and provide references for the operation optimization of the China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway. The China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway is not only an "iron camel team", but also a "development road" for Uzbekistan to break through its land - locked constraints and achieve economic transformation. With the joint efforts of the three countries, this project is bound to become a demonstration project for the Belt and Road Initiative and inject lasting impetus into the prosperity and development of Uzbekistan and even the Central Asian region.

Referance

1. Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China. Presidents of China, Kyrgyzstan and Uzbekistan send video messages to congratulate on the signing of the inter - governmental agreement on the China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway project[EB/OL]. 2024 - 06 - 06.

2. China Railway. Inauguration ceremony of the China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway project held[EB/OL]. 2024 - 12 - 27.

3. Zhang Huaqing, Li Qi. The China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway and the reshaping of the Central Asian geopolitical pattern from a multi - dimensional perspective[J]. Regional and Global Development, 2025(1):45 - 62.

4. China Viewpoint. The China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway paves the way for a new future of integration and development between China and Central Asia[EB/OL]. 2024 - 12 - 27.

5. Dong Wanlu et al. Research on the economic effects of infrastructure investment under the Belt and Road Initiative: Analysis of the economic mechanism and policy simulation of the China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway[J]. World Economy Study, 2025(2):45 - 58.

6. Zhang Huaqing, Li Qi. The China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway and the reshaping of the Central Asian geopolitical pattern from a multi - dimensional perspective[J]. Russian, East European and Central Asian Studies, 2025(3):67 - 82.

7. Asian Development Bank. Report on Cross - border Infrastructure Development in Central Asia (2024)[R]. Manila: Asian Development Bank, 2024.

8. World Bank. Development Paths for Double - Landlocked Countries: Transport Connectivity and Economic Growth[R]. Washington: World Bank, 2023.

9. Lai Yi. Structural reforms in Uzbekistan yield remarkable results[N]. Economic Daily. 2025 - 02 - 22(5).

10. China National Railway Group Co., Ltd. The China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway: A strategic bridge for jointly building the Belt and Road[EB/OL]. http://www.china - railway.com.cn, 2024 - 12 - 28.

11. Huanqiu International. The China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway brings three major benefits[EB/OL]. https://world.huanqiu.com. 2025 - 08 - 28.

12. World Affairs Journal. The strategic value of the China - Kyrgyzstan - Uzbekistan Railway is extraordinary. Why did it take 25 years to see a turnaround?[EB/OL]. https://www.worldknowledge.com.cn. 2024 - 06 - 24.

13. Friedmann J.A general theory of polarizational development[J]. Papers of the Regional Science Association, 1966,17(1):19-49.

14. Gereffi G.International trade and industrial upgrading in the apparel commodity chain[J].Journal of International Economics,1999, 48(1):37-70.

XORIJIY INNAVATSION INVESTITSIYALARNI JALB ETISH DOLZARBLIGI

Tulyaganov Erkabay Jumabekovich
Angren universiteti “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi dotsenti
E-mail: tulyaganoverkabay@gmail.com
Orcid: 0009-0009-7814-5529
Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna
kafedra o‘qituvchisi
E-mail: ubaydullayevagulchehrazafar@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada YAngi O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiya mablag‘larining ahamiyati, ularning jalb qilinishi, investitsiya siyosatining hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilingan. Xorijiy innovatsion investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish, hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida baholanadi. SHuningdek, innovatsion loyihalarni samarali tanlash va boshqarish, investitsiya muhitini takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xorijiy investitsiyalar, innovatsion investitsiyalar, modernizatsiya, yangi texnika va texnologiyalar, iqtisodiy islohotlar, investitsiya siyosat, makroiqtisodiy barqarorlik, ilmiy-tadqiqot faoliyati.*

Аннотация. *В статье рассматривается значение иностранных инвестиций в экономике Нового Узбекистана, анализируется текущее состояние инвестиционной политики и её перспективы. Особое внимание уделено привлечению иностранных инновационных инвестиций для модернизации производственных процессов, внедрения научно-технических достижений и обеспечения макроэкономической стабильности. Также представлены предложения по совершенствованию управления инновационными проектами и инвестиционной среды.*

Ключевые слова. *Иностранные инвестиции, инновационные инвестиции, модернизация, новые технологии, экономические реформы, инвестиционная политика, макроэкономическая стабильность, научно-исследовательская деятельность.*

Annotation. *This article analyzes the significance of foreign investment in the economy of New Uzbekistan, focusing on the current state and prospects of investment policy. It emphasizes the importance of attracting foreign innovative investments to modernize production processes, implement scientific and technological achievements, and ensure macroeconomic stability. Additionally, the article provides suggestions on improving the management of innovative projects and creating a favorable investment climate.*

Keyword: *Foreign investments, innovative investments, modernization, new technologies, economic reforms, investment policy, macroeconomic stability, scientific research activities.*

Kirish

Global iqtisodiyotda kechayotgan innovatsion jarayonlar, texnologik rivojlanish va raqobatning kuchayishi xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa innovatsion yo‘nalishdagi sarmoyalarni jalb etishni har bir davlat uchun strategik muhim vazifaga aylantirmoqda. O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish,

raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida xorijiy innovatsion investitsiyalarni jalb etish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada xorijiy innovatsion investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati, amaldagi holati va istiqbolli takliflar tahlil qilinadi.

Xorijiy innavatsion investitsiyalarni jalb qilinishi nafaqat ishlab chiqarish jarayonini yanada rivojlantirish uchun, balki innavatsion investitsiyalashtirish asosida ishlab chiqarish vositalarining unumdorligi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, mavjud qonunchilik asoslarini o‘rganish hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini solishtirma o‘rganish kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Tahlil ob’yekti sifatida 2020–2025 yillarda O‘zbekistonga jalb etilgan xorijiy investitsiya loyihalari, xususan innovatsion sohalarga oid kelishuvlar olindi.

Xorijiy investitsiyalarini jalb etish 2025- yilning birinchi uch oyida 8,7 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, birinchi yarim yilda 18 mlrd dollar va yil oxirigacha uning miqdorini 42 mlrd dollargacha yetkazish ko‘zda tutilgan. Investitsiyalarni jalb etish va ularning manfaatdorlik darajalarini ta’minlash respublikada olib borilayotgan innovatsion siyosat maysadlariga bog‘liq. Shu jihatdan ham innovatsion faoliyatlarni xorijiy investitsiyalar asosida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan darajada olib borishni ta’minlash zarur.

Xorijiy sub’yektlarning innovatsiya investitsiyalarini jalb etishda:

- Innovatsion investitsiyalashtirishda tarmoq yo‘nalishlarini aniqlashga, mahsulotning qaysi turlarini ishlab chiqarishga va qanday, qay darajada, qaysi yo‘nalishda ilmiy yangiliklarni olib borishni aniq ichki ishlab chiqarish zarur bo‘lgan holatlardan kelib chiqishga;

- Innovatsion investitsiyalashtirishning istiqbolli maqsadiishlab chiqarilayotgan ilmiy yangiliklardan yoki ishlab chiqarishga jalb qilinayotgan xorijiy mamlakatlar texnika va texnologiyalaridan samarali foydalanishga asoslanishi kerak. Xususan,

- 2025- yilning birinchi yarim yilligida xorijiy investitsiyalar hajmi 18 mlrd dollarni tashkil etdi, yil oxirigacha bu ko‘rsatkich 42 mlrd dollarga yetkazilishi rejalashtirilgan.

- Innovatsion investitsiyalarning asosiy qismi qayta tiklanuvchi energiya, raqamlashtirish, farmatsevtika va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlariga yo‘naltirilmoqda.

- Innovatsion investitsiyalar asosida joriy etilgan loyihalarning 60%i mahalliy ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi va yangi ish o‘rinlari yaratdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoiti jarayonida xorijiy investorlar innovatsion mablag‘larini jalb etish, ichki iqtisodiyotni rivojlantirishda ularning muqobil faoliyat olib borishini ta’minlaydi.

Respublikada olib borilayotgan investitsiya siyosati iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Bu to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev investitsion muhitni yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida gapirar ekan: – “Biz mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bosqichma- bosqich bartaraf etish uchun qat’iy qadamlar tashladik” degan edi.

Respublika iqtisodiyotining makroiqtisodiy barqarorlikda rivojlanishi investitsiya va innovatsiya siyosatiga bog‘liq. U ko‘p bosqichli bozor iqtisodiyoti talablariga asoslangan milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga, ishlab chiqarish vositalarini innovatsion mablag‘lardan unumli foydalanish asosida modernizatsiya qilishga, yangilashga, iqtisodiy mintaqalar mahalliy resurslardan unumli foydalanish asosida ish kuchi bandligi darajasini oshirishga, ular o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni tugatishga, eksportga mos mahsulotlarni ishlab chiqarishga, milliy iqtisodiyotga import mahsulotlarining kirib kelishini kamaytirishga, erkin raqobat muhitini shakllantirishga, jahon iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan infratuzilma sharoitlarini yaratib berishga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Xorijiy investitsiya mablag‘larini jalb etish uchun zarur bo‘lgan qonunlarning qabul qilinishi respublika iqtisodiyotiga ularni jalb etish uchun yetarli shart-sharoitlarning borligini ifoda etadi.

Qabul qilingan “Investitsiya faoliyati”, “Xorijiy investorlarni himoya qilish va kafolatlash” (1997 yil), “Investitsion loyihalarni qo‘shimcha rag‘batlantirish” (1998 yil) to‘g‘risidagi birinchi Prezident I.A.Karimov farmonlari bu muammoga qanday e’tibor berilayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyoti va faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq jozibadorlik darajalarini oshirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmalarini yaratish xorijiy investorlar faoliyatlarining qonunlar darajasida davlat tomonidan kafolatlanishi va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirib borish kerak.

Hozirgi kunda xorijiy innovatsion investitsiyalarni jalb etish nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki mamlakatda innovatsion muhitni shakllantiradi. Bunda davlat tomonidan kafolatlangan huquqiy asoslar, yer resurslarining shaffof taqsimoti, raqamli infratuzilmaning mavjudligi muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. SHavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “investitsiya o‘zi kelmaydi, uni jalb etish kerak.” Mana shu yondoshuv investitsion siyosatning markazida bo‘lishi shart.

Innavatsion investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida xorijiy davlatlarning kreditlash tizimini takomillashtirish bu mablag‘larni o‘z vaqtida kreditorlarga qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Innavatsion investitsiya mablag‘larnini jalb etishda innovatsion loyihalarni tanlov asosida eng samarali va arzonidan foydalanish zarur.

Innavatsion investitsiyalashtirshni faqat ichki investitsiya mablag‘lari hisobiga amalga oshirib bo‘lmaydi. Buning obe’ktiv va sub’yektiv sabablari mavjud. Obe’yektiv sabablardan bizning fikrimizcha sobiq tizimdan qolgan sanoat korxonalari faqat xom ashyo mahsulotlari ishlab chiqarishga asoslangan sube’ktiv sabablardan, respublikada yetarli darajada iqtisodiyotning barcha sanoat tarmoqlari bo‘yicha tugallangan siklda mahsulotlar ishlab chiqarishning to‘liq shakllanmaganligidir.

Bunday xolat xorijiy investorlar mablag‘larini jalb etish bilan xal etilishi mumkin. Amerikalik iqtisodchi Piter Draker o‘z vaqtida har qanday biznes 2 funksiyaga, investitsiya va innovatsiyaga bog‘liq degan.

Demak, yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosalarga kelishimiz mumkin:

- respublika milliy iqtisodiyoti tarmoqlari o‘rtasida zarur bo‘lgan nisbatlarni o‘rnatish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash xorijiy investitsiya mablag‘larini iqtisodiyotga va innovatsiya faoliyatlariga ajratilgan mablag‘lari miqdoriga bog‘liq;

- xorijiy innovatsiya mablag‘larini respublika milliy iqtisodiyotiga jalb etish uning strategiyasiga va uni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan taktikasiga asoslanadi;

- milliy iqtisodiyotda innovatsion jarayonning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ilmiy xodimlar va malakali mutaxassislar bilan ta’minlanish darajasiga bog‘liq;

- innovatsiyalashtirish va innavatsion investitsiyalashtirish mustaqil iqtisodiy kategoriyalar bo‘lsada, ular samaradorlik darajalarining o‘sib borishi bir birlariga bog‘liqdir.

Milliy iqtisodiyotni mikro va makro iqtisodiy barqarorlikda rivojlantirishni ta’minlash, ishlab chiqarish tarmoqlarida innovatsion faoliyatlarni rivojlantirish uning asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beruvchi tarmoqlarida rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz. Respublikada innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarini va mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish resurslarni takomillashtirib borishdan maqsad jamiyat a’zolarining iste’mol talablari uchun sifatli va zarur miqdorda mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishdan iboratdair.

Bu belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni bajarish uchun quyidagilarga e’tiborni kuchaytirish zarur:

- iqtisodiy mintaqalarga yo‘naltirilgan investitsiya mablag‘laridan shu mintaqalarning mahalliy tabiiy resurslarini e’tiborga olgan xolda foydalanish, uning zarur darajadagi qismini innovatsion ishlarni tashkil etishga yo‘naltirish;

- iqtisodiy mintaqalarda ishlab chiqarish jarayonin eksport bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarda innovatsion ishlarni olib borish evaziga ularning eksport saloxiyatlarini oshirish;

- innovatsion faoliyatlarini rivojlantirish asosida ishlab chiqarish jarayonini innnestitsiyalashtirish asosida ishlab chiqarish;

- harajatlarini kamaytirish, tejamkorlik asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshira borish;

- ilm va fan taraqqiyoti asosida iqtisodiyot tarmoqlarini yangi jahon standartlariga javob beradigan ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari bilan ta'minlash;

- xorijiy davlatlar innovatsion investitsiyalarini jalb etish mexanizmlarini xalqaro jahon standartlari asosida takomillashtirish;

- innovatsion investitsiya mablag'laridan samarali foydalanishni boshqarishni takomillashtirib borish zarur.

Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy talab bu ishlab chiqarish x harajatlarini kamaytirish va olinayotgan foyda darajasining o'sib borishini ta'minlashdir. Innovatsion faoliyatlarining asosiy vazifalari ana shu muammolarni hal etishga qaratilgan.

Xorijiy innovatsion investitsiya mablag'larining jalb qilinishi iqtisodiy tarmoqlarning tarkibiy tuzilishlarini takomillashtirishni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish sube'ktlarida innovatsion faoliyatlarini olib borilishi innovatsion investitsiya resurslaring yiriklashuvini va ulardan zaruriy yo'nalishda foydalanuvni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida ishlab chqarish sube'ktlarida mavjud bo'lgan texnika va ishlab chiqarish texnologiyalaridan samarali ravishda foydalanishni ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar

Xorijiy innovatsion investitsiyalar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni jalb qilish va fan-texnika yutuqlarini iqtisodiyotga integratsiyalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xorijiy innovatsion investitsiyalarni jalb etish O'zbekiston iqtisodiyotini raqobatbardosh va barqaror rivojlanishga yetaklovchi muhim omillardan biridir. Investitsiya muhitining huquqiy, moliyaviy va texnologik jihatdan takomillashuvi bu jarayonning asosiy kafolatidir.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosani qabul qilish mumkin:

- xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy sube'ktlarning innovatsion mablag'larini jalb etish mamlakatdagi siyosiy iqtisodiy muhitga bog'liq;

- xorijiy innovatsion investitsiyalarni jalb qilish aniq strategik yo'nalish bilan bog'liq bo'lgan respublikaning uzoq muddatga belgilangan strategiyasiga bog'liq;

- innovatsion ivestitsiya mablag'larini jalb etishda davlat tomonidan uning aniq kafolatlash tizimini ishlab chiqish zarur.

Shunga muvofiq quyidagi takliflarni beramiz:

- innovatsion investitsiyalarga oid maxsus "Green Channel" tizimini joriy etish.

- xorijiy investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini yanada kengaytirish.

- ilmiy-tadqiqot markazlari va texnoparklar bilan hamkorlikda sarmoya loyihalarini rivojlantirish.

- xalqaro standartlarga mos huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish.

- investorlar uchun bir darcha (One Stop Shop) xizmatlarini raqamli platformaga o'tkazish.

- xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish;

- innovatsion loyihalarni tanlov asosida moliyalashtirish;

- iqtisodiy mintaqalarda mahalliy resurslardan samarali foydalanish;

- ilmiy kadrlar tayyorlash va fan sohasiga investitsiyani oshirish;

- xorijiy investitsiyalarni boshqarish tizimini raqamlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – 2020- yil 25- dekabr.

2. "Xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish va kafolatlar to'g'risida"gi Qonun. - 1997- yil 30- aprel.

3. Hoshimov I.M., Safarov SH.X. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosatini takomillashtirish masalalari. – T.: Iqtisodiyot va ta'lim, 2023.

4. Abdurahmonov Q.N., Rahimov A.A. Investitsiya faoliyati va uning moliyaviy mexanizmi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2022.

5. Nazarov Sh.R. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy siyosatning roli. // "Iqtisodiy tahlil" jurnali, №4, 2023.

6. Nurmatov A.B. Innovatsion jarayonlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. // "Iqtisodiyot va ta'lim", №2, 2024.

QURG'OQCHIL MINTAQALARDA KICHIK AGROBIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li
Buxoro davlat universiteti
iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, agrotexnologiyalarni modernizatsiya qilish, kooperatsiya va marketing tizimlarini rivojlantirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *agrobiznes, samaradorlik, qurg'oqchil hudud, suv resurslari, innovatsiya.*

Абстракт. *В данной статье рассматриваются пути повышения эффективности деятельности субъектов малого агробизнеса в засушливых регионах. Особое внимание уделяется рациональному использованию водных ресурсов, модернизации агротехнологий, развитию кооперации и маркетинговых систем.*

Ключевые слова: *агробизнес, эффективность, засушливые регионы, водные ресурсы, инновации.*

Abstract. *This article analyzes the ways to improve the efficiency of small agribusiness entities in arid regions. Special attention is given to the rational use of water resources, modernization of agro-technologies, development of cooperation and marketing systems.*
Keywords: *agribusiness, efficiency, arid regions, water resources, innovation.*

Kirish

Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlari faoliyatini samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Respublikamiz hududining katta qismi tabiiy-iqlimiy sharoitlari jihatidan qurg‘oqchil mintaqalarga mansub bo‘lib, bu hududlarda qishloq xo‘jaligi faoliyatini samarali tashkil etish qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bunday hududlarda suv resurslarining cheklanganligi, yerlarning sho‘rlanishi, ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishlari kichik agrobiznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida agrobiznes sohasi nafaqat ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, balki eksport salohiyatini oshirish, aholining bandligini ta’minlash va hududiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Kichik agrobiznes subyektlari – fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va oilaviy tadbirkorlik shaklidagi ishlab chiqaruvchilar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligini oshirish masalasini ilmiy asosda o‘rganish quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Oziq-ovqat xavfsizligi: Aholi sonining o‘sishi oziq-ovqatga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Qurg‘oqchil hududlarda samarali agrobiznesni rivojlantirish ushbu talabni qondirishning muhim shartidir.

2. Iqlim o‘zgarishi: Global iqlim o‘zgarishlari natijasida suv resurslari kamaymoqda, tuproq degradatsiyasi kuchaymoqda, bu esa yangi agrotexnologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

3. Hududiy tafovutlar: Respublikamizning turli hududlarida agrobiznes samaradorligi sezilarli farqlarga ega bo‘lib, bu ilmiy asoslangan hududiy strategiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

4. Xorijiy tajriba: Rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasi qurg‘oqchil hududlarda samaradorlikni oshirishda qo‘llanishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularning yechimiga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznesning ahamiyatini ilmiy asosda yoritish;

- samaradorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;

- hududiy tahlillar asosida statistik ma’lumotlarni umumlashtirish;

- xorijiy tajribalarni o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish;

- samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlari faoliyatini baholashda samaradorlik indeksi ishlab chiqildi, suv resurslarini boshqarish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorlikka ta’siri ilmiy asosda asoslandi hamda xorijiy tajriba O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi.

1-bo‘lim: Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznesning o‘rni

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25 foizga yaqinini ta’minlaydi. Bu soha aholining oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash, bandlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, kichik agrobiznes subyektlari – fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va oilaviy tadbirkorlik shaklidagi subyektlar ishlab chiqarishning asosiy qismini tashkil etadi.

1.1. Kichik agrobiznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Kichik agrobiznes subyektlari nafaqat ishlab chiqarishni tashkil etadi, balki qishloq joylarda:

- Aholi bandligini oshiradi;

- Daromad manbai sifatida xizmat qiladi;

- Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi;

- Mahalliy bozorni tezkor ta’minlash imkonini beradi.

Ularning faoliyati orqali aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi tez va samarali qondiriladi. Misol uchun, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining qariyb 65–70 foizi kichik subyektlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

1.2. Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznesning o‘ziga xosligi

Qurg‘oqchil hududlar – Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy va Qoraqalpog‘iston Respublikasi – tabiiy sharoitlari jihatidan murakkab hisoblanadi. Bu hududlarda kichik agrobiznesning faoliyat yuritishi quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:

- Suv resurslarining taqchilligi – Amudaryo va Zarafshon havzalaridan keluvchi suv miqdori kamaymoqda;

- Yerlarning sho‘rlanishi – tuproqning unumdorligi keskin pasaymoqda;

- Iqlim o‘zgarishlari – haroratning keskin o‘zgarishi hosildorlikka salbiy ta’sir qilmoqda;

- Infratuzilma cheklanganlig – logistika, saqlash va qayta ishlash tizimlari to‘liq rivojlanmagan.

Shu bois kichik agrobiznes subyektlari qurg‘oqchil hududlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun an’anaviy yondashuvlardan tashqari innovatsion texnologiyalardan ham foydalanishi zarur.

1.3. Kichik agrobiznesning hududiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi

Kichik agrobiznes subyektlari hududiy rivojlanishda quyidagi jihatlar orqali ahamiyatlidir:

- Mahalliy byudjet daromadlarini oshiradi – soliqlar va yig‘imlar hisobiga hududiy moliyaviy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

- Qishloq infratuzilmasini rivojlantiradi – ishlab chiqarish jarayonida transport, energetika va sug‘orish tarmoqlariga talab ortadi.

- Aholi bandligini ta’minlaydi – ayniqsa, ayollar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratiladi.

- Mahsulot diversifikatsiyasini ta’minlaydi – hududiy iqlim sharoitiga mos ekinlar yetishtiriladi.

1.4. Statistik ko‘rsatkichlar

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda qurg‘oqchil hududlardagi kichik agrobiznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 28 trillion so‘mni tashkil qilgan. Shundan:

- Qashqadaryo viloyatida – 8,1 trillion so‘m;

- Surxondaryo viloyatida – 6,5 trillion so‘m;

- Buxoro viloyatida – 5,3 trillion so‘m;

- Navoiy viloyatida – 3,8 trillion so‘m;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 4,3 trillion so‘m.

Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, kichik agrobiznes subyektlari qurg‘oqchil hududlarda iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida shakllanmoqda.

2-bo‘lim: Samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar

Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tabiiy-iqlimiy omillar – suv resurslari taqchilligi, tuproq unumdorligi, harorat o‘zgaruvchanligi.

2. Iqtisodiy omillar – moliyalashtirish manbalari, kreditlar, subsidiya va soliq imtiyozlari.

3. Texnologik omillar – suv tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish, issiqxonalar.

4. Ijtimoiy omillar – ishchi kuchi salohiyati, migratsiya jarayonlari, mahalliy aholining bilim va ko‘nikmalari.

5. Institutsional omillar – davlat siyosati, huquqiy baza va boshqaruv tizimlari.

1-jadval

Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

Omillar guruhi	Ijobiy ta’sirlar	Salbiy ta’sirlar
Tabiiy-iqlimiy	Ba’zi hududlarda quyosh energiyasi mo‘l	Suv tanqisligi, sho‘rlanish
Iqtisodiy	Mikrokreditlar, subsidiyalar	Moliyaviy resurslarning yetishmasligi
Texnologik	Innovatsion texnologiyalar samaradorlikni oshiradi	Yangi texnologiyalarning yuqori narxi
Ijtimoiy	Mahalliy ishchi kuchi mavjudligi	Migratsiya oqibatida kadrlar yetishmasligi
Institutsional	Davlat siyosati, imtiyozlar	Huquqiy-me’yoriy bazadagi bo‘shliqlar

Diagramma 1. Samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar ulushi (foizda)



Mazkur diagrammadan ko‘rinadiki, tabiiy-iqlimiy omillar (30%) va texnologik omillar (25%) kichik agrobiznes samaradorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

3-bo‘lim: Amaliy tahlillar va jadvallar

O‘zbekistonning qurg‘oqchil hududlarida kichik agrobiznes subyektlari faoliyatini samaradorligini tahlil qilish uchun Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy va Qoraqalpog‘iston Respublikasining 2020–2023 yillardagi statistik ma’lumotlari o‘rganildi.


3.1. Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi

2- jadval

Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes mahsulotlari hajmi (trln. so‘m)

Hudud	2020	2021	2022	2023	O‘sish sur’ati (%)
Qashqadaryo	6,9	7,5	8,1	8,9	129%
Surxondaryo	5,4	5,9	6,5	7,2	133%
Buxoro	4,7	4,9	5,3	5,9	125%
Navoiy	3,1	3,4	3,8	4,1	132%
Qoraqalpog‘iston	3,6	3,9	4,3	4,7	131%
Jami	23,7	25,6	28	30,8	130%

2-diagramma. Hududlar kesimida mahsulot hajmining dinamikasi (2020–2023)



(trln. so‘m)

Diagrammadan ko‘rinadiki, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari kichik agrobiznes mahsulotlari hajmi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi.


3.2. Samaradorlik ko‘rsatkichlari

3-jadval

Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligi (2023 yil, o‘rtacha ko‘rsatkichlar)

Hudud	Hosildorlik (s/ga)	Suv sarfi (m³/ga)	Sof foyda (mlrd so‘m)	1 ishchiga to‘g‘ri keladigan daromad (mln so‘m)
Qashqadaryo	47	4,8	1,25	36
Surxondaryo	52	4,5	1,18	34
Buxoro	41	5,1	870	29
Navoiy	38	5,4	710	27
Qoraqalpog‘iston	36	5,6	650	25

3-diagramma. Samaradorlik ko‘rsatkichlari taqqoslanishi (foyda, mlrd so‘m)



Diagrammadan ko‘rinadiki, Qashqadaryo viloyati eng yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega.

Xulosalar

Hududlar o‘rtasida samaradorlikda keskin farqlar mavjud.

Suv sarfi ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lsada, hosildorlik va sof foyda darajasi har doim ham yuqori emas.

Suvni tejovchi texnologiyalar joriy etilgan joylarda foyda yuqoriligi kuzatilmoqda.

Jahon tajribasi va O‘zbekiston uchun imkoniyatlar**

Qurg‘oqchil hududlarda agrobiznesni rivojlantirish masalasi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida dolzarbdir. Isroil, AQSh, Turkiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar tajribasi O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular suv

resurslarini tejash, hosildorlikni oshirish va kichik fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlashning ilg‘or mexanizmlarini ishlab chiqqan.

4.1. Jahon tajribasining asosiy yo‘nalishlari

4- jadval

Qurg‘oqchil hududlarda agrobiznes samaradorligini oshirish bo‘yicha jahon tajribasi

Mamlakat	Asosiy choralar	Natija
Isroil	Tomchilatib sug‘orish, smart-agro tizimi	Hosildorlik 1,5 baravar oshdi, suv sarfi 40% ga qisqardi
AQSH	Fermer kooperativlari, subsidiyalar	Fermerlar xarajatlari 25% ga kamaydi
Turkiya	Davlat-xususiy sheriklik asosida issiqxonalar	Eksport hajmi 2 baravar oshdi
Hindiston	Mikrokredit va mikrosug‘urta tizimlari	Kichik fermerlar daromadi 30% ga oshdi
Ispaniya	Yerlarni diversifikatsiya qilish, vinochilik	Qurg‘oqchil hududlarda yuqori qo‘shimcha qiymat yaratildi

O‘zbekiston uchun imkoniyatlar

Mazkur tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish quyidagi natijalarni berishi mumkin:

- Isroil tajribasi asosida tomchilatib sug‘orish tizimini kengaytirish suv sarfini 35–40% ga kamaytirishi mumkin.

- AQSh tajribasi bo‘yicha fermer kooperatsiyalarini rivojlantirish xarajatlarni kamaytirib, eksport imkoniyatlarini oshiradi.

- Turkiya tajribasi asosida issiqxona xo‘jaliklarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulot yetishtirish imkonini beradi.

- Hindiston tajribasi bo‘yicha mikrokredit va sug‘urta tizimini rivojlantirish kichik fermerlarning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

4-diagramma. Jahon tajribasi asosida O‘zbekiston uchun kutilayotgan natijalar



Xulosalar

O‘zbekiston uchun eng muhim yo‘nalishlar – suvni tejash texnologiyalari, fermer kooperatsiyasi va issiqxonalarni rivojlantirishdir.

Mikrokredit va sug‘urta tizimi kichik agrobiznes subyektlari barqarorligini ta’minlaydi.

Qurg‘oqchil hududlarda jahon tajribasidan foydalanish samaradorlikni 25–40% ga oshirishi mumkin.

Taklif va tavsiyalar

Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlar ishlab chiqildi.

Suv resurslaridan samarali foydalanish

Tomchilatib sug‘orish va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini keng joriy qilish.

Qayta foydalaniladigan suv manbalarini (drenaj suvlarini tozalash) yo‘lga qo‘yish.

Suv taqsimoti monitoringini raqamlashtirish.

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash

Fermer xo‘jaliklariga mikrokreditlar va subsidiyalar berish.

Mikrosug‘urta tizimini joriy qilish.

Agrobiznesni rivojlantirish uchun imtiyozli soliq siyosati.

Texnologik modernizatsiya

- Issiqxona xo‘jaliklarini kengaytirish.
- Zamonaviy texnika va dronlardan foydalanish.
- Qishloq xo‘jaligi raqamlashtirilgan monitoring tizimlarini yaratish.

Infratuzilmani rivojlantirish

- Mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash zavodlarini tashkil etish.
- Logistika markazlarini yaratish.
- Qishloq infratuzilmasini (yo‘l, energetika, internet) yaxshilash.

Tavsiyalarni umumlashtiruvchi jadval

5-jadval

Kichik agrobiznes samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar


Yo‘nalish	Asosiy chora-tadbirlar	Kutilayotgan natija
Suvni tejash	Tomchilatib sug‘orish, monitoring	Suv sarfi -40%, hosildorlik +20%
Moliyaviy tizim	Mikrokredit, mikrosug‘urta	Daromad barqarorligi, risklar kamayishi
Texnologiyalar	Issiqxona, dron, raqamlashtirish	Samaradorlik +25–30%
Infratuzilma	Logistika, qayta ishlash zavodlari	Eksport hajmi oshishi, yangi ish o‘rinlari
Kadrlar tayyorlash	Qishloq xo‘jaligi malaka markazlari	Yangi bilim va ko‘nikmalarga ega ishchi kuchi

Yakuniy xulosa va tavsiyalar

1. Suvni tejash texnologiyalarini kengaytirish eng muhim ustuvor yo‘nalishdir.

2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari (mikrokredit, sug‘urta) kichik fermerlarning barqarorligini ta’minlaydi.

6-diagramma – Takliflarning samaradorlikka ta’siri



3. Raqamlashtirish va yangi texnologiyalar samaradorlikni sezilarli oshiradi.

4. Infratuzilma rivoji mahsulot tannarxini kamaytiradi va eksportni oshiradi.

5. Kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish kichik agrobiznes subyektlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlarining samaradorligi bir qator tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va institutsional omillarga bevosita bog‘liqdir.

Hududlar bo‘yicha tahlillar natijasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari eng yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyati nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega ekani aniqlandi.

Jahon tajribasi (Isroil, AQSh, Turkiya, Hindiston) shuni ko‘rsatadiki, suvni tejash, kooperatsiya va mikrokredit tizimi kichik agrobiznes samaradorligini 25–40% ga oshirish imkonini beradi.

Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, samaradorlikka eng katta ta’sirni suv resurslarini boshqarish va zamonaviy texnologiyalar joriy etish ko‘rsatmoqda.

Umumiy tavsiyalar

1. Suv resurslari bo‘yicha

- Tomchilatib sug‘orish va qayta foydalaniladigan suv texnologiyalarini joriy qilish.
- Suv monitoringini raqamlashtirish.

2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha

- Mikrokredit va mikrosug‘urta tizimini kengaytirish.
- Fermer xo‘jaliklari uchun soliq imtiyozlari berish.

3. Texnologik modernizatsiya bo‘yicha

- Issiqxonalar, dron va agrotexnika joriy etish.
- Smart-agro va IoT asosida monitoring tizimlarini yaratish.

4. Infratuzilma bo‘yicha

- Logistika va qayta ishlash zavodlarini ko‘paytirish.
- Qishloq hududlarida transport va energetika tarmoqlarini rivojlantirish.

5. Kadrlar tayyorlash bo‘yicha

- Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha malaka oshirish markazlarini yaratish.
- Yoshlarni innovatsion agrobiznes loyihalariga jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari (2020–2023).
3. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2020–2023).
4. FAO (Food and Agriculture Organization) – Annual Agricultural Reports, 2022.
5. Isroil Agriculture Innovation Center – Smart Irrigation Practices, 2021.
6. World Bank. “Agricultural Productivity in Drylands” – Washington D.C., 2022.
7. Hindiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi – Microcredit and Farmers Support, 2020.
8. Turkiya Agriculture Development Agency – Greenhouse Projects, 2021.
9. Academic Journal of Agricultural Economics, №3(78), 2022.
10. Abdulloyev A.J., Qulliyev O.A. – “Agrobiznes samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar roli”, Toshkent, 2023.

BANKLARNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KAPITAL VA AKTIVLAR RENTABELLIGINING AHAMIYATI

Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna
Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti kafedra assistenti,
E-mail: dilrabo.alimjanova@icloud.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini ta’minlashning ahamiyati va roli hamda unga ta’sir etuvchi omillar, jumladan kapital va aktivlardan to'g'ri foydalanish hamda ularning samaradorlikka ta’siriga doir nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Shunigdek, Xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotchi olimlar tomonidan moliyaviy barqarorlik va banklar samaradorligiga doir ilgari surilgan nazariy va empirik tadqiqotlar keltirilib, xulosa va takliflar shakllantirilgan.*

Kalit so'zlar: *banklar samaradorligi, kapital yetarliligi, likvidlilik, aktivlar samaradorligi, aktivlar sifati, kapital va aktivlar rentabelligi, aktivlar samaradorligi*

Аннотация. *В статье анализируются значение и роль обеспечения финансовой эффективности коммерческих банков, а также факторы, влияющие на неё, включая рациональное использование капитала и активов и их влияние на эффективность. Представлены теоретические и эмпирические исследования финансовой устойчивости и эффективности банков, проведенные зарубежными и отечественными исследователями, а также сформулированы выводы и предложения.*

Ключевые слова: *эффективность банков, достаточность капитала, ликвидность, эффективность активов, качество активов, рентабельность капитала и активов*

Abstract*. This article analyzes the importance and role of ensuring the financial efficiency of commercial banks and the factors affecting it, including the proper use of capital and assets and their impact on efficiency. In addition, theoretical and empirical studies on financial stability and efficiency of banks by international and local researchers are presented, and conclusions and suggestions are formulated.*

Keywords: *efficiency of banks, capital adequacy, liquidity, asset efficiency, asset quality, return on capital and assets, asset efficiency*

Kirish

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari iqtisodiyotning eng muhim boʻgʻini sifatida moliyaviy resurslarini to‘plash, taqsimlash va samarali joylashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ishtirok etadi. Oʻz navbatida, bank-moliya tizimining barqaror va samarali faoliyat olib borishi, eng avvalo, banklarning kapitali yetarliligiga, bankning strategiyasi, aktivlardan oqilona foydalanish va bank boshqaruvi samaradorligiga bog‘liqdir. Banklar faoliyatining moliyaviy asosi sifatida bank kapitali bank amaliyotlari xavfsizligini, foyda olish imkoniyatlarini, toʻlovga qobiliyatliligini va mijozlar bilan hisob-kitoblarning kafolatlanganligini ta'minlaydi. O‘zbekistonda bank-moliya tizimi jadal rivojlanayotgan bir paytda, banklar barqarorligini va samaradorligini ta’minlash maqsadida raqobatbardoshlikni oshirish, kapital yetarliligini ta'minlash va xalqaro standartlarga mos keladigan tahlil usullarini joriy qilish banklar oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Ayniqsa, Basel III talablari asosida kapitalning sifati va miqdoriga qo‘yilayotgan talablarni bajarilishi bank strategiyasida yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

Banklarning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini ta’minlashda asosiy omil hisoblangan bank kapitaliga toʻxtaladigan boʻlsak, bu bank resurslarining muhim qismi hisoblanib, kredit va boshqa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish jarayonida xavflarni kamaytirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bank kapitalining mavjudligi mijozlar va investorlarga ishonch uyg‘otadi, chunki bu bankning o‘z moliyaviy majburiyatlarini oʻz vaqtida bajarish imkoni beradi. Kapital hajmi bank faoliyatining ko‘lami, risk darajasi, iqtisodiy holat va nazorat organlarining talablariga qarab shakllanadi.

Moliyaviy jihatdan samaradorlikni shuningdek bankning iqtisodiy zarbalarga bardosh berib, faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyati ham deyish mumkin. Barqaror banklar yetarli kapitalga ega bo‘lib, tavakkalchilikni boshqaradi va yaxshi boshqaruv tizimiga ega bo‘ladi. Bu holat mijozlar ishonchini saqlash, omonatchilarni himoya qilish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash uchun ham muhimdir. Moliyaviy barqarorlikka shuningdek aktivlar sifati, likvidlilikni boshqarish va risklarni aniqlash hamda kamaytirish ham ta’sir qiladi. Banklar

samarador faoliyat yuritishi uchun xizmatlarni sifatli va tez koʻrsatishi kerak. Buning uchun texnologiyalardan foydalanib, xarajatlarni kamaytirish va daromadni oshirish mumkin. Ayniqsa xizmatlarni avtomatlashtirish va onlayn xizmatlarni kengaytirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Barqarorlik va samaradorlik oʻzaro bogʻliq boʻlib, kuchli bank tizimini shakllantirishda bir-birini toʻldiradi.

Ilmiy taqdiqotchi olimlarning banklar faoliyati samaradorligi va barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarga doir bir qator ilmiy tadqiqotlari olib borilgan boʻlib, jumladan Karr tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda banklarning faoliyatida kapital rentabelligiga asoslanishiga shubha qilingan. Ushbu olim makroiqtisodiy vaziyatning keskin oʻzgarishi va bank kapitaliga bosimning kuchayib borishi uning samaradorligi kamayishiga olib kelayotganligini koʻrsatib beradi. Uning fikricha, kapital rentabelligining quyidagi kamchiliklarini mavjud: uzoq muddatli barqarorlikni ifoda eta olmaydi, mavsumiy ta'sir etuvchi omillarni aks ettirib bera olmaydi, stress holatiga nisbatan ijobiy oʻzgarishlarni ta'minlab bera olmasligi ham ta’kidlab oʻtgan. Shundan kelib chiqib, banklarning moliyaviy barqarorligini RAROC (Risk-Adjusted Return on Capital, boshqariladigan riskda kapital rentabelligi) koʻrsatkichidan foydalanishni, aktiv va kapitalni sifat koʻrsatkich (masalan, NPL)larini alohida izohlashga e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, riskka tortilgan aktivlardan foydalilik (Return on RWA, tangible equity), samaradorlik ya’ni xarajatlarni daromadga yoki kapitalga nisbati (cost-to-income, cost-of-equity), muommoli aktivlar (NPL), daromad tebranuvchanligi (recurring/volatility) kabi omillarni baholab borishni maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi [1].

Shuningdek, S.Moussu va A.Petit-Romes kabi olimlar birgalikda amalga oshirgan tadqiqotlarida aynan kapital rentabelligini markaziy koʻrsatkich sifatida qanday boʻlishini tahlil qilishgan. Ular ushbu koʻrsatkich bank faoliyati samaradorligini ifodalaydigan asosiy koʻrsatkich ekanligini, inqirozdan oldingi kapital rentabelligi aksiyalar qiymatiga yolgʻonchi ta'sir koʻrsatishini qayd etib oʻtadi. Bank rahbariyatining moliyaviy natijalardan bonuslari risk appetiteni oshirishini koʻrsatishini ta'kidlaydi. Shu boisdan, bank rahbariyati va regulyator tomonidan kapital rentabelligi koʻp e'tibor berib qolmaslikni tavsiya etiladi. [2]

Demirgüç-Kunt va Detragiache, Berger hamda Bouwman kabi tadqiqotchilar esa kapitalning barqarorlik va moliyaviy ishonchlilikka ta’sirini koʻrsatib berishgan.[3] Mahalliy olimlarimizdan A. Vohidov va Sh. Xolmatovlarning ilmiy ishlari ham banklar kapitalining samaradorligi, aktivlardan foydalanish darajasi va ularning iqtisodiy oʻsishga ta’sirini oʻrganishga qaratilgan. [4]

Oʻzbekistonda tijorat banklarining oʻrtacha kapital rentabelligi 2024 yilda 18 foizni tashkil etgan boʻlsa, aktivlar rentabelligi 1,5 foiz atrofida boʻlgan. [5] Bu koʻrsatkichlar mintaqa davlatlari bilan solishtirilganda oʻrtacha darajani tashkil etadi,

biroq yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari va risklarni prognozlash modellarini joriy etish aktivlardan samarali foydalanishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, kapitalning yetarliligini oshirish orqali moliyaviy barqarorlik ta’minlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kapital hamda aktivlar rentabelligini ta’minlash banklarning moliyaviy samaradorligini oshirishda eng muhim omillar sifatida qayd etilib, ulardan oqilona foydalanishni talab etiladi. Kapitalning yetarliligini ta’minlash va aktivlardan samarali foydalanish investorlar ishonchini oshiradi va bank raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, tijorat banklari tomonidan kapitalni diversifikatsiya qilish, xalqaro moliya bozorlaridan resurslarni jalb qilishni kengaytirish va aktivlar tuzilmasini qayta ko‘rib chiqib, yuqori daromadli, past riskli loyihalarga yo‘naltirish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni takomillashtirish, jumladan, sun’iy intellekt asosidagi tizimlarni keng joriy etish banklarning rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karr J. Performance Measurement in Banking: Beyond ROE //Journal of Performance Management. – 2005. – T. 18. – №.

2. Moussu C., Petit-Romec A. RoE in banks: myth and reality //Available at SSRN 2374068. – 2014.

3. Demirgüç-Kunt, A., & Detragiache, E. (2020). Bank Fragility and Financial Stability. World Bank.; Berger, A., & Bouwman, C. (2013). How does capital affect bank performance during financial crises? Journal of Financial Economics.

4. Vohidov, A. (2022). Bank kapitali samaradorligi va uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

5. Markaziy bank ma’lumotlari, www.cb.uz -internet sayti

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ В БИЗНЕС-СФЕРЕ

Рахымжанова Аида Асхатқызы
Магистр ОП 7М04108 – «Управление и право» (eMBA)
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Аннотация. *В статье рассматриваются подходы к совершенствованию стратегического управления инновациями в бизнесе. Подчёркивается роль инноваций в повышении конкурентоспособности и предлагаются практические рекомендации по их интеграции в стратегическое планирование.*

Ключевые слова. *Инновации, стратегическое управление, бизнес, конкурентоспособность, цифровизация, устойчивое развитие, инновационная стратегия.*

Annotatsiya: *Maqolada biznesda innovatsiyalarni strategik boshqarishni takomillashtirish yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni ta’kidlanadi va ularni strategik rejalashtirishga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiyalar, strategik boshqaruv, biznes, raqobatbardoshlik, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish, innovatsion strategiya.*

Abstract*. The article discusses approaches to improving strategic innovation management in business. It highlights the role of innovation in boosting competitiveness and offers practical recommendations for integrating it into strategic planning.*

Keywords. *Innovation, strategic management, business, competitiveness, digitalization, sustainable development, innovation strategy.*

Введение

В условиях стремительного развития глобальной экономики и усиливающейся конкуренции роль инноваций в бизнесе становится критически важной для достижения устойчивого роста и конкурентных преимуществ. Современный бизнес-сектор сталкивается с необходимостью постоянного обновления продуктов, услуг и бизнес-моделей, чтобы соответствовать быстро меняющимся требованиям рынка, технологическим трендам и ожиданиям потребителей.

Стратегическое управление инновациями представляет собой комплексный процесс, включающий планирование, организацию, мотивацию и контроль инновационной деятельности компании с целью повышения её долгосрочной конкурентоспособности и адаптивности к внешним изменениям. Эффективное стратегическое управление инновациями позволяет не только внедрять новые технологии и идеи, но и формировать инновационную культуру внутри организации, стимулировать творческий потенциал сотрудников и оптимизировать бизнес-процессы.

Однако, несмотря на очевидные преимущества инновационного подхода, многие компании сталкиваются с рядом проблем и вызовов при реализации инновационных стратегий. К ним относятся недостаток ресурсов, низкий уровень организационной готовности, слабая координация между подразделениями, а также сложности в адаптации к быстро меняющимся внешним условиям и цифровой трансформации.

В связи с этим, совершенствование стратегического управления инновациями становится приоритетной задачей для современных организаций. Важным аспектом является интеграция инновационных процессов в общую стратегию компании, что требует разработки гибких моделей управления, способных эффективно учитывать внутренние и внешние факторы, а также прогнозировать риски и возможности инновационной деятельности.

Цель данной статьи – проанализировать современные подходы к совершенствованию стратегического управления инновациями в бизнес-сфере, выявить ключевые проблемы и предложить рекомендации по их преодолению.

В статье рассматриваются методы цифровизации, устойчивого развития и адаптации инновационных стратегий к рыночным изменениям, что позволяет создать системный взгляд на управление инновациями как фактором устойчивого развития бизнеса.

Таким образом, исследование направлено на формирование теоретических основ и практических рекомендаций, способствующих повышению эффективности инновационного менеджмента и укреплению позиций компаний на конкурентных рынках.

Исследования

Вопросы стратегического управления инновациями являются одной из приоритетных тем в современной науке о менеджменте и бизнес-стратегиях. За последние десятилетия наблюдается значительный рост интереса к изучению механизмов, моделей и инструментов, способствующих успешному внедрению инноваций и повышению конкурентоспособности предприятий.

Одним из ключевых направлений исследований является анализ факторов, влияющих на эффективность инновационного менеджмента. Так, работы таких авторов, как Коттер (Kotter, 1996), Портер (Porter, 1985) и Тиссен (Teece, 2010), акцентируют внимание на необходимости стратегического видения и лидерства в управлении инновациями, а также на важности адаптации бизнес-моделей под изменяющиеся рыночные условия. Исследования показывают, что без четко выстроенной стратегии инновации часто остаются разрозненными инициативами, не приносящими существенного результата.

Другой важный аспект – интеграция цифровых технологий в инновационные процессы. По мнению современных исследователей, таких как Бегичев и др. (2020), цифровизация значительно расширяет возможности компаний в области разработки и внедрения новых продуктов и услуг, оптимизирует бизнес-процессы и способствует ускорению принятия управленческих решений. Внедрение цифровых инструментов, включая искусственный интеллект, большие данные и облачные технологии, становится ключевым элементом стратегического управления инновациями.

Устойчивое развитие и социальная ответственность также всё чаще рассматриваются как неотъемлемая часть инновационных стратегий. Согласно исследованиям Роуза (Rowe, 2017) и Паттерсона (Patterson, 2019), компании, которые ориентируются на экологическую и социальную устойчивость, не только укрепляют свою репутацию, но и создают долгосрочные конкурентные преимущества за счет инноваций в области энергоэффективности, переработки ресурсов и социальных программ.

Однако в практике встречается множество сложностей, связанных с внедрением инновационных стратегий. Согласно опросам и кейс-

исследованиям, проведенным международными консалтинговыми компаниями (McKinsey, BCG, 2022), основными барьерами являются недостаток квалифицированных кадров, слабая корпоративная культура, сопротивление изменениям и недостаточное финансирование инновационных проектов. Эти проблемы требуют комплексного подхода и адаптивных стратегий управления.

Особое внимание уделяется разработке моделей стратегического управления инновациями, способных учитывать динамику внешней среды и внутренние ресурсы компании. В работах Хамела и Прахалада (Hamel & Prahalad, 1994) предлагается концепция стратегических ядерных компетенций, которые позволяют организациям гибко реагировать на вызовы и использовать инновации как источник роста. Современные модели управления инновациями также включают элементы agile-методологий и дизайн-мышления, способствующих быстрой адаптации и кросс-функциональному сотрудничеству.

В контексте российского и постсоветского пространства наблюдается активное развитие исследований по внедрению инноваций в различных отраслях экономики. Учёные, такие как Иванов (2018), Смирнова (2020) и Петров (2021), анализируют специфику стратегического управления инновациями в условиях трансформации экономики, цифровой модернизации и изменения нормативно-правовой базы. Эти исследования подчеркивают необходимость комплексного подхода, учитывающего как технологические, так и институциональные факторы.

Таким образом, современный научный дискурс свидетельствует о комплексном характере стратегического управления инновациями, объединяющем технологические, организационные и социальные аспекты. Несмотря на значительный прогресс, существуют открытые вопросы, связанные с оптимизацией моделей управления, оценкой эффективности инновационных стратегий и их адаптацией к новым вызовам глобальной экономики.

В свете вышесказанного, целью данного исследования является дальнейшее развитие теоретических и практических основ стратегического управления инновациями, с акцентом на интеграцию цифровых технологий и устойчивого развития, а также формирование рекомендаций, направленных на преодоление существующих барьеров и повышение конкурентоспособности бизнес-структур.

Выводы

В результате проведённого анализа современных теоретических и практических аспектов стратегического управления инновациями в бизнес-

сфере можно сделать ряд ключевых выводов, которые имеют важное значение для повышения эффективности инновационной деятельности и устойчивого развития компаний.

Во-первых, стратегическое управление инновациями является комплексным и многогранным процессом, требующим системного подхода. Оно включает в себя не только разработку и внедрение новых технологий, продуктов и услуг, но и формирование организационной культуры, способствующей инновациям, а также создание условий для эффективного взаимодействия между подразделениями и внешними партнёрами. Отсутствие целостной стратегии и слабая координация действий зачастую приводят к фрагментарности инновационной деятельности и снижению её результативности.

Во-вторых, инновационный потенциал компании выступает одним из ключевых факторов её конкурентоспособности на современном рынке. Способность оперативно адаптироваться к изменениям, внедрять цифровые технологии и ориентироваться на устойчивое развитие определяет успешность бизнеса в долгосрочной перспективе. Цифровизация открывает новые возможности для сбора и анализа данных, автоматизации процессов и ускорения принятия решений, что существенно повышает гибкость и адаптивность компании.

В-третьих, несмотря на значительные преимущества инноваций, компании сталкиваются с рядом внутренних и внешних барьеров, которые затрудняют их реализацию. К основным из них относятся недостаток квалифицированных кадров, ограниченные финансовые ресурсы, сопротивление изменениям внутри организации и нестабильность рыночной среды. Для преодоления этих препятствий необходимо внедрение адаптивных и гибких моделей управления, которые способны эффективно реагировать на вызовы и использовать возникающие возможности.

В-четвёртых, интеграция принципов устойчивого развития и социальной ответственности в инновационные стратегии становится важным элементом современной бизнес-практики. Компании, ориентированные на экологические и социальные аспекты, получают конкурентные преимущества, укрепляют свою репутацию и создают долгосрочную ценность для всех заинтересованных сторон. Это требует не только технологических инноваций, но и изменения подходов к управлению и корпоративной культуре.

В-пятых, успешное стратегическое управление инновациями требует постоянного совершенствования инструментов и методов, включая применение цифровых технологий, agile-подходов и дизайн-мышления. Такие

методы способствуют ускорению инновационных процессов, повышению вовлечённости сотрудников и улучшению качества принимаемых решений.

Таким образом, для повышения эффективности стратегического управления инновациями в бизнес-сфере необходимо:

– Разрабатывать комплексные инновационные стратегии, учитывающие внутренние ресурсы и внешние условия;

– Активно внедрять цифровые технологии и методы анализа данных;

– Формировать инновационную культуру и стимулировать креативность сотрудников;

– Интегрировать принципы устойчивого развития и социальной ответственности;

– Преодолевать барьеры через адаптивное управление и повышение квалификации персонала.

Внедрение этих рекомендаций позволит компаниям не только повысить конкурентоспособность, но и создать устойчивую платформу для долгосрочного развития и инновационного лидерства на рынке.

Список использованной литературы

1. Тарасенко, В.И. Стратегическое управление инновациями : монография. – М.: Экономика, 2018. – 256 с.

2. Котлер, Ф., Келлер, К.Л. Маркетинг менеджмент : учебник. – Санкт-Петербург : Питер, 2021. – 832 с.

3. Портер, М. Конкурентная стратегия : учебник. – М.: Олимп-Бизнес, 2019. – 416 с.

4. Хамел, Г., Прахалад, К. Конкурируя за будущее : монография. – Москва : Альпина Паблишер, 2017. – 304 с.

MAMLAKATIMIZDA EKSPORT JARAYONLARINI BARQARORLASHTIRISH OMILLARI

Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich,
TDIU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: Shahzodbek.abduvaliyev1998@gmail.com
Orcid : https://orcid.org/0009-0006-7933-8507

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mamlakatimizda eksport jarayonlarini yanada takomillashtirish yo‘llari, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Eksport hajmini oshirish, mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda eksportyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rganiladi. Shuningdek, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, logistika tizimini zamonaviylashtirish va elektron savdo imkoniyatlarini kengaytirish orqali eksportni rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, eksport jarayonlarini samarali tashkil etish mamlakat*

iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga, xalqaro savdo aloqalarining kengayishiga hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: *eksport, tashqi savdo, iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardoshlik, bojxona tizimi, logistika, eksport siyosati, elektron savdo, eksportni rag‘batlantirish, xalqaro bozor.*

Аннотация. *В данной статье анализируются пути дальнейшего совершенствования экспортных процессов в нашей стране, их роль и значение в экономическом развитии. Изучаются механизмы увеличения объемов экспорта, усиления конкурентоспособности продукции на международных рынках и поддержки предприятий-экспортеров. Особое внимание также уделяется вопросам стимулирования экспорта путем упрощения таможенных процедур, модернизации системы логистики и расширения возможностей электронной торговли. По результатам исследования установлено, что эффективная организация экспортных процессов приводит к устойчивому росту экономики страны, расширению международных торговых связей и созданию новых рабочих мест.*

Ключевые слова: *экспорт, внешняя торговля, экономическое развитие, конкурентоспособность, таможенная система, логистика, экспортная политика, электронная торговля, стимулирование экспорта, международный рынок.*

Abstract. *This article analyzes ways to further improve export processes in our country, their role and significance in economic development. Mechanisms for increasing export volumes, strengthening the competitiveness of products in international markets, and supporting exporting enterprises are studied. Special attention is also paid to the issues of promoting exports through simplifying customs procedures, modernizing the logistics system, and expanding the possibilities of electronic trade. According to the results of the study, effective organization of export processes leads to sustainable growth of the country's economy, expansion of international trade relations, and creation of new jobs.*

Keywords: *export, foreign trade, economic development, competitiveness, customs system, logistics, export policy, electronic trade, export promotion, international market.*

Kirish

Bugungi kunda global raqobat kuchayib borayotgan bir zamonda, mamlakatlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun eksport salohiyatini oshirishga katta urg‘u bermoqda. Xalqaro bozorlar bilan aloqalarni kengaytirish, mahalliy mahsulotlarimizni import bozorlarida raqobatbardosh qilish, yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmini oshirish kabi maqsadlar eksportni barqarorlashtirishni muhim strategik vazifa sifatida ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz uchun eksport jarayonlarini barqaror ravishda rivojlantirish va optimallashtirish omillari, sharoitlari hamda muhim choralar to‘g‘risida chuqur tahlil zarurati tug‘iladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 2024- yil va undan keyingi davrlarda sezilarli o‘sish ko‘rsatmoqda. Masalan,
2024- yilda eksport kategoriyalari bo‘yicha asosiy mahsulotlar jumlasida “zargarlik buyumlari, qimmatbaho metallar, tangalar” eksporti $13,95 milliardni tashkil etdi. Shu bilan birga paxta mahsulotlari eksporti $2,31 milliard, minerallar va yoqilg‘i mahsulotlari eksporti esa $1,85 milliard atrofida bo‘ldi. Tashqi savdo balansida

eksport-sifatida salbiy holatlar ham mavjud: 2024- yilda mamlakat importi $55,52 milliardga yetib, tashqi savdo balansi taxminan $23,67 milliardga yaqin salbiy ko‘rsatkichda bo‘ldi [1].

Eksport jarayonlarini barqarorlashtirish uchun bir nechta muhim omillar ajralib turadi. Avvalo, bojxona operatsiyalari va tartib-taomillarini soddalashtirish, digitalizatsiya jarayonlarini joriy etish sohalarida erishilgan yutuqlar misol bo‘la oladi. Masalan, oxirgi yillarda bojxona punktlarida yangi terminallar qurilgan, 20 dan ortiq bojxona postlari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, 35 dan ortiq axborot tizimlari ishga tushirilgan. Shu tariqa eksport jarayoni ilgari 9 bosqichdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, hozirda bu jarayon 3 bosqichgacha qisqartirilgan [2].

Bundan tashqari, bojxona rasmiylashtirish uchun sarflanadigan vaqt sezilarli darajada kamaygan: import bojxonalarda rasmiylashtirish uchun o‘rtacha 3 soat, eksport mahsulotlari uchun esa atigi 20 daqiqa vaqt ketmoqda. Bu kabi samaradorlik oshishi nafaqat eksportkor korxonalarning xarajatlarini kamaytiradi, balki mahsulotni xalqaro bozorlarga tayyorlash va yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi.

Shuningdek, mamlakat import-eksport ishtirokchilari soni ham oshmoqda. Bojxona va savdo sohasidagi islohotlar natijasida eksport va import bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning savdo hajmi, faol ishtiroki kuchaygan. Ushbu tendensiyalar eksport jarayonlarini barqarorlashtirish uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratadi hamda davlat siyosati, infratuzilma, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi omillarning ham korxonalarga erkinroq faoliyat yuritish imkonini oshiradi.

Shu bilan birga, eksport jarayonlarini barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi yana bir muhim jihat – mahsulotlarimizning eksport bozorlari siyosatini kengaytirishdir. Misol uchun, mamlakatimizning birinchi sakkiz oyida 2025- yilda eksport hajmi $23 milliardga yetib, yil davomida bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 31,3% ga oshgan. Eksport import tarkibida esa yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi oshishi, agrar va oziq-ovqat mahsulotlarining, yengil sanoat mahsulotlarining eksport imkoniyatlarini kengaytirish, standartlar, sertifikatlashtirish tizimlarini rivojlantirish kabi omillar barqaror eksportni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi [3].

Umuman olganda, eksport jarayonlarini barqarorlashtirish omillari xususan: bojxona va logistika infratuzilmasining modernizatsiyalashuvi, mahsulot sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashuvi, iqtisodiy siyosat va soliq-moliyaviy rag‘batlar, bozorlarni diversifikatsiyalash, raqamli trasformatsiya va jarayonlarni soddalashtirish, korxonalarga qulay moliyaviy resurslar mavjudligi kabi asosiy yo‘nalishlardan iborat. Ushbu omillar samara bersagina eksport hajmi o‘sadi, mamlakatning iqtisodiy mustahkamligi oshadi va xalqaro savdo aloqalarida raqobatbardosh mavqeni mustahkamlash mumkin bo‘ladi.

Biroq eksport jarayonlarini barqarorlashtirishda mavjud muammolar ham inkor etib bo‘lmaydi. Eng avvalo, logistika tizimining ayrim hududlarda yetarli darajada rivojlanmagani, transport infratuzilmasining eskirganligi va yuk tashish xarajatlarining yuqoriligi eksportning barqaror o‘sishiga to‘sqinlik qilmoqda. Masalan, Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston logistika samaradorligi indeksi 2024- yilda 3,2 ballni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich mintaqadagi yetakchi davlatlar darajasidan pastroqdir. Shu bois, temiryo‘l va avtomobil transporti tizimini modernizatsiya qilish, yangi logistika markazlarini tashkil etish hamda tranzit yo‘laklarini kengaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda [4].

Bundan tashqari, eksport qilinayotgan mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligi, sifat sertifikatlari va brendlash masalalari ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Mahsulotni xorij bozoriga olib chiqish uchun zarur sertifikatlar, texnik reglamentlar va ekologik talablarni bajarish ko‘p hollarda vaqt va mablag‘ talab qiladi. Shu sababli, davlat tomonidan eksportchi korxonalarni moliyaviy rag‘batlantirish, eksport sug‘urtasini kengaytirish va yangi bozorlarni o‘rganishga yordam beruvchi tashabbuslarni kuchaytirish mamlakatimiz eksport salohiyatini barqaror saqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Mamlakatimizda eksport jarayonlarini barqarorlashtirish masalasi so‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada iqtisodchi olimlar, xalqaro tashkilotlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan turli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, eksportni barqarorlashtirish nafaqat tashqi savdoni kengaytirish, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash, ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qilish va investitsion muhitni yaxshilash bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Masalan, A.A. Azizov o‘zining “O‘zbekiston tashqi savdosining modernizatsiyasi sharoitida eksportni rivojlantirish istiqbollari” nomli tadqiqotida (2021) eksport siyosatining muhim tarkibiy qismlari sifatida soliq imtiyozlari, eksport sug‘urtasi va eksport kreditlarini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, eksport jarayonining barqarorligi uchun davlat tomonidan yaratiladigan muvozanatli moliyaviy infratuzilma va tashqi savdoda xavf-xatarlarni boshqarish tizimi alohida ahamiyatga ega [5].

Sh.M. Mamarasulov (2022) o‘z tadqiqotlarida eksportning hududiy diversifikatsiyasi masalasiga urg‘u beradi. U fikricha, ayrim viloyatlarda eksport ulushi yuqori bo‘lsa-da, ayrim hududlarda eksport imkoniyatlari hali to‘liq ishga solinmagan. Shu bois, har bir hududda mahalliy resurslar asosida eksportga

yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqish, infratuzilmani rivojlantirish va logistika markazlarini tashkil etish zarur [6].

Xorijiy adabiyotlarda ham eksport barqarorligi masalasiga keng e’tibor qaratilgan. Masalan, M. Porterning “Milliy raqobatbardoshlik nazariyasi” asarida (1990) mamlakatning eksport salohiyati to‘rtta asosiy omil – ishlab chiqarish resurslari, talab sharoiti, bog‘liq va yordamchi tarmoqlar hamda korxona strategiyasi bilan belgilanadi. Porter modeliga ko‘ra, aynan ichki bozor raqobati kuchli bo‘lgan mamlakatlargina eksportda yuqori natijalarga erisha oladi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston misolida ham dolzarb bo‘lib, ichki raqobatni rivojlantirish eksport barqarorligiga zamin yaratadi [7].

Shuningdek, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) va BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) hisobotlarida ham eksportni barqarorlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Jumladan, XVJ 2024- yilgi “World Economic Outlook” hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport o‘sishi uchun makroiqtisodiy barqarorlik, barqaror valyuta siyosati va tashqi qarz yukining kamayishi muhim omillar sifatida ko‘rsatadi [8].

UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, 2024- yilda O‘zbekistonning umumiy eksport hajmi $25,3 milliardni tashkil etgan, bu esa o‘tgan yilga nisbatan 29,6 foizga o‘sishni bildiradi. Bu ko‘rsatkich mamlakatda amalga oshirilayotgan tashqi savdo siyosati, logistika tizimini modernizatsiyalash va elektron eksport tizimini joriy etish natijasidir. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tahliliga ko‘ra, eksportda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi hali past bo‘lib, bu ishlab chiqarish sohalarini texnologik yangilash zarurligini ko‘rsatadi [9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023- yil 20 dekabrda qilgan ma’ruzasida ham eksportni barqarorlashtirish strategiyasiga alohida to‘xtalib o‘tildi. Davlat rahbari 2026- yilga borib eksport hajmini kamida $30 milliardga yetkazish, 2000 dan ortiq yangi eksportchi korxonalarni tashkil etish va eksport geografiyasini 100 dan ortiq davlatga kengaytirishni maqsad qilib qo‘yganini aytdi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatda eksport infratuzilmasini yanada mustahkamlashni talab etadi [10].

Yana bir muhim manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlarini keltirish mumkin. Vazirlik hisobotiga ko‘ra, 2025- yil boshiga kelib, 1800 dan ortiq yangi eksportchi korxonalar faoliyat boshlagan, 45 ta yangi logistika markazi ishga tushirilgan va 120 dan ortiq mahsulot turi ilk bor xorijga eksport qilingan. Bu raqamlar iqtisodiy siyosatning amaliy samaradorligini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, eksport jarayonlarini barqarorlashtirish faqat tashqi savdo mexanizmlarini emas, balki ichki iqtisodiy tuzilmani ham modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Mahalliy olimlarning

tadqiqotlari eksportni rag‘batlantirishda davlatning faol roli, soliq va bojxona imtiyozlari, moliyaviy vositalarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Xorijiy adabiyotlar esa ko‘proq raqobatbardoshlik, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish va bozor diversifikatsiyasiga urg‘u beradi.

Shu bois, adabiyotlar tahlili asosida aytish mumkinki, mamlakatimizda eksport jarayonlarini barqarorlashtirishning eng samarali yo‘li – mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, logistika infratuzilmasini yaxshilash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro standartlarga mos sifat tizimini yaratishdir. Bu omillar uyg‘unlashganda, O‘zbekistonning eksport salohiyati nafaqat barqaror, balki uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardosh bo‘lib shakllanadi.

Metodologiya

Tadqiqot davomida eksport jarayonlarini tahlil qilishda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslama tahlil hamda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Jahon banki, UNCTAD va ITIM ma’lumotlari asosida amaliy tahlillar o‘tkazildi. Eksport jarayonlariga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar o‘rganilib, ularning barqarorlikka ta’siri iqtisodiy modellashtirish orqali baholandi. Olingan natijalar asosida mamlakatimiz eksport siyosatini takomillashtirishga doir ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda eksport jarayonlarini barqarorlashtirishga qaratilgan izchil siyosat olib bormoqda. Iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida eksportni rag‘batlantirish, logistika tizimini rivojlantirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mamlakat eksport salohiyati barqaror o‘sib borayotganini so‘nggi yillardagi statistika ham tasdiqlaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024- yilda O‘zbekistonning umumiy eksport hajmi 25,3 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu 2023- yilga nisbatan 29,6 foiz o‘sishni anglatadi. Eng yirik eksport mahsulotlari tarkibida oltin (54 foiz), rangli metallar (12 foiz), to‘qimachilik mahsulotlari (9 foiz) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (6 foiz) ulushi ustunlik qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar eksporti (transport, IT va turizm sohalari) hajmi 2024- yilda 3,1 milliard dollardan oshgan. Bu raqamlar mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy diversifikatsiya yo‘lida ekanini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eksport jarayonlarini barqarorlashtirishda bojxona infratuzilmasining modernizatsiyasi muhim o‘rin tutadi. 2022–2024 yillar davomida “Yagona bojxona oynasi” tizimi joriy qilinib, rasmiylashtirish jarayonlari 9 bosqichdan 3 bosqichgacha qisqartirildi. Natijada eksport tovarlarini bojxonadan

o‘tkazish uchun sarflanadigan vaqt 3 soatdan 20 daqiqagacha qisqardi. Bu o‘z navbatida korxonalar vaqtini, resurslarini tejashga va xalqaro yetkazib berish zanjirlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, logistika tizimi samaradorligi ham eksport barqarorligining asosiy omillaridan biridir. Jahon bankining 2024- yilgi “Logistics Performance Index” reytingida O‘zbekiston 3,2 ball bilan Markaziy Osiyo davlatlari orasida o‘rtacha natijaga erishgan. 2025- yilga borib, mamlakatda 45 ta yangi logistika markazlari, 7 ta xalqaro transport terminali foydalanishga topshirildi. Bu esa yuk tashish xarajatlarini 12–15 foizga kamaytirgan.

Eksport jarayonlarining barqaror o‘sishiga xizmat qiluvchi yana bir yo‘nalish – raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. So‘nggi yillarda “E-Export” elektron platformasi ishga tushirilib, eksportchi korxonalarga onlayn tarzda hujjat topshirish, sertifikat olish va bojxona to‘lovlarini amalga oshirish imkoniyati yaratildi. 2024 yil yakuniga ko‘ra, ushbu tizim orqali 11 mingdan ortiq eksport operatsiyalari amalga oshirilgan. Bu esa davlat xizmatlari samaradorligini oshirgan va korrupsiya xavfini kamaytirgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2020–2024 yillarda eksport hajmi dinamikasi (mlrd. AQSh dollari hisobida) [11]

Yil	Umumiy eksport hajmi	O‘sish sur’ati (%)	Asosiy eksport mahsulotlari (ulushi, %)	Asosiy hamkor davlatlar
2020	13,7	–	Oltin (52%), paxta (10%), gaz (8%)	Xitoy, Rossiya, Turkiya
2021	15,4	+12,4	Oltin (55%), to‘qimachilik (9%), oziq-ovqat (7%)	Xitoy, Qozog‘iston, Rossiya
2022	18,9	+22,7	Oltin (50%), rangli metallar (11%), paxta (8%)	Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston
2023	19,5	+3,1	Oltin (48%), to‘qimachilik (10%), avtomobil qismlari (5%)	Xitoy, Turkiya, Jan. Koreya
2024	25,3	+29,6	Oltin (54%), metallar (12%), oziq-ovqat (6%), xizmatlar (7%)	Xitoy, Germaniya, Turkiya

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024 yillar davomida O‘zbekiston eksport hajmi izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Agar 2020- yilda umumiy eksport hajmi 13,7 mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilga kelib bu ko‘rsatkich 25,3 mlrd. dollarga yetgan, ya’ni besh yil ichida qariyb 84 foizga o‘sish kuzatilgan. Eng katta o‘sish 2024- yilda qayd etilgan bo‘lib, bu yili eksport hajmi 29,6 foizga ko‘paygan.

Mahsulot tarkibida oltin hali ham asosiy o‘rin egallayotgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda to‘qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ehtiyot qismlari va xizmatlar sektori eksportining oshgani diversifikatsiya jarayonlarining kuchayganini ko‘rsatadi. Bu


esa iqtisodiyotning bir yoqlama xomashyo eksportiga bog‘liqligini kamaytirib, barqaror o‘sish uchun zamin yaratmoqda.

Hamkor davlatlar tarkibining kengayib borayotgani – Xitoy, Turkiya, Qozog‘iston bilan bir qatorda Germaniya va Janubiy Koreya bilan savdo aloqalari mustahkamlanayotganini anglatadi. Bu esa O‘zbekistonning eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish borasida ijobiy natijalarga erishayotganidan dalolat beradi.

Eksport tarkibida yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishi ham ijobiy natija sifatida baholanadi. Jumladan, so‘nggi ikki yilda farmatsevtika, avtomobil ehtiyot qismlari, elektrotexnika va IT xizmatlari eksporti 40 foizdan ortiq o‘sdi. Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 2025- yilning dastlabki sakkiz oyida 1,6 milliard dollarni tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 18 foiz yuqori ko‘rsatkichdir.

Hududiy kesimda esa Toshkent shahri, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Navoiy viloyatlari eksportda yetakchilik qilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida eksport salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan bo‘lib, bu hududlarda logistika, ishlab chiqarish va sertifikatlashtirish tizimlarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Eksport barqarorligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan yana biri – moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimidir. 2024- yilda Tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan 800 dan ortiq korxonaga 250 million dollardan ziyod mablag‘ ajratilgan. Shuningdek, “O‘zbekeksport” sug‘urta kompaniyasi orqali 1200 ta eksport shartnomasi sug‘urtalangan. Bu korxonalarga tashqi risklardan himoyalanish imkonini bermoqda.



1-diagramma. O‘zbekiston Respublikasining 2020–2024 yillarda eksport hajmining o‘sish dinamikasi (mlrd. AQSh dollari hisobida) [12]

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston eksport hajmi so‘nggi besh yil ichida izchil o‘sib bormoqda. 2020- yildagi 13,7 mlrd. dollarlik eksport hajmi 2024 yilga kelib 25,3 mlrd. dollarga yetgan. Ushbu ko‘rsatkich 5 yil ichida qariyb 84

foizlik o‘sishni ifodalaydi. Ayniqsa, 2022- yilda o‘sish sur’ati yuqori bo‘lib, 22,7 foizni tashkil etgan.

Bunday natijaga erishishda eksport tarkibining diversifikatsiyasi, xususan, to‘qimachilik, oziq-ovqat, rangli metallar va xizmatlar sohalarining rivojlanishi muhim omil bo‘ldi. Diagramma eksport siyosatining bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini va tashqi savdo siyosatida muvozanatli yondashuvlar qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi.

2024- yildagi keskin o‘sish mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati ortgani, logistika infratuzilmasining yaxshilanishi hamda yangi eksport bozorlariga kirib borish natijasidir. Shu jihatdan, diagramma eksport jarayonlarining barqaror o‘sish yo‘nalishida ekanini tasdiqlaydi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida ham sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston eksport geografiyasi 90 dan ortiq davlatni qamrab olgan. Eng asosiy hamkorlar sifatida Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va Germaniya ajralib turadi. Shu bilan birga, Afrika va Yaqin Sharq davlatlariga eksport hajmi ham bosqichma-bosqich oshmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda eksport jarayonlarini barqarorlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar quyidagilardir:

1. Bojxona tartib-taomillarining soddalashuvi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi;
2. Transport-logistika infratuzilmasining kengaytirilishi;
3. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchaytirilishi;
4. Eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining oshishi;
5. Xalqaro hamkorlik va yangi bozorlarni o‘zlashtirish.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud: logistika xarajatlarining yuqoriligi, eksportchi korxonalar uchun sertifikatlashtirish talablari murakkabligi, kadrlar yetishmovchiligi va ichki bozorlarda innovatsion ishlab chiqarishning sustligi. Ushbu masalalarni hal etish uchun davlat siyosatini yanada takomillashtirish, xususiy sektorni rag‘batlantirish va xalqaro tajribani joriy etish zarur.

Natijaviy tahlil shuni ko‘rsatadiki, agar yuqoridagi yo‘nalishlar izchil davom ettirilsa, 2030- yilga borib O‘zbekistonning eksport hajmini kamida 40 milliard dollarga yetkazish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini esa ikki barobar oshirish mumkin. Bu nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi.

Xulosa

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda eksport jarayonlarining samarali tashkil etilishi muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, mamlakatimizda so‘nggi yillarda eksport hajmi izchil ortib bormoqda, mahsulot tarkibi esa tobora diversifikatsiyalanmoqda. Ayniqsa, to‘qimachilik, oziq-ovqat, rangli metallar, avtomobil qismlari va xizmatlar eksportining ortgani iqtisodiy tizimda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Eksport barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, eksport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini rivojlantirish, logistika tarmoqlarini takomillashtirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish jarayonlari ajralib turadi.

Shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari, eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish ham eksportni barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Kelgusida eksport siyosatini yanada samarali amalga oshirish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini eksport jarayonlariga joriy etish va raqamli texnologiyalar yordamida xalqaro savdoni soddalashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – stat.uz
3. “O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun. – 2019 yil 22 aprelda qabul qilingan.
4. Jahon banki (World Bank). Uzbekistan Trade Indicators Report 2024. – Washington, 2024.
5. UNCTAD. World Investment and Trade Report 2023. – Geneva, 2023.
6. ITIM – O‘zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy portali. – www.invest.gov.uz
7. Karimov, A. (2022). Eksport siyosatini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: TDIU nashriyoti.
8. Abduhalilov, M. (2023). Milliy iqtisodiyotda eksport jarayonlarini boshqarish mexanizmlari. T.: Iqtisodiyot nashriyoti.
9. OECD. Trade Policy Review: Uzbekistan 2023. – Paris, 2023.
10. Xudoyberdiyev, B. (2021). Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda davlat siyosati. Toshkent: Fan.
11. FAO. Agricultural Export Diversification in Central Asia. – Rome, 2022.
12. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida eksport tizimini modernizatsiyalash yo‘nalishlari.” – Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №4, 2024.
13. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&cites=7614125584456677491&as_sdt=5#d=gs_cit&t=1759819666122&u=%2Fscholar%3Fq%3Dinfo%3AuG6Ebat06foJ%3Ascholar.google.com%2F%26output%3Dcite%26scirp%3D0%26hl%3Dru:~:text=Axmetovna%2C%20A.%20N.%20(2025).%20O%20%E2%80%98ZBEKISTON%20IQTISODIYOTIDA%20KICHIK%20VA%2

0O%20%E2%80%98RTA%20BIZNESNING%20O%20%E2%80%98RNI%20VA%20RIVOJLANISH%20IMKONIYATLARI.%20TANQIDIY%20NAZAR%2C%20TAHLILIY%20TAFAKKUR%20VA%20INNOVATSION%20G%20%E2%80%98OYALAR%2C%201(9)%2C%20386%2D388.

14. Axmetovna, A. N. (2025). O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK VA O ‘RTA BIZNESNING O ‘RNI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR*, *1*(9), 386-388.

15. Abdivaliyev, S. (2025). THE IMPACT OF INTERNATIONAL TRADE ORGANIZATIONS AND FINANCIAL INSTITUTIONS ON GLOBAL ECONOMY. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, *4*(1), 71-75.

16. Abdivaliyev, S. (2025). Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to ‘siqlarni bartaraf qilish choralari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *3*(4).

SANOAT KORXONALARIDA HR MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI

Toshtemirov Sardor G‘olib o‘g‘li-
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
E-mail: tsardor2105@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Javel” MChJ misolida sanoat korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish, ularning samaradorligini oshirish hamda HR menejment tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida korxonaning mehnat resurslari tarkibi, ish vaqtidan foydalanish darajasi va xodimlar turg‘unligi bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *mehnat resurslari, HR menejment, samaradorlik, sanoat korxonasi, mehnat unumdorligi, ish vaqti tahlili, kadrlar tarkibi, turg‘unlik, boshqaruv tizimi.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы управления трудовыми ресурсами, повышения их эффективности и совершенствования системы управления персоналом на промышленных предприятиях на примере ООО «Жавель». По результатам исследования выявлены позитивные изменения в структуре трудовых ресурсов предприятия, уровне использования рабочего времени и текучести кадров, а также разработаны практические рекомендации.*

Ключевые слова: *трудовые ресурсы, управление персоналом, эффективность, промышленное предприятие, производительность труда, анализ рабочего времени, кадровый состав, текучесть кадров, система управления.*

Abstract. *This article analyzes the issues of labor resource management at industrial enterprises, increasing their efficiency, and improving the HR management system using the example of "Javel" LLC. Based on the research results, positive changes in the composition of the enterprise's labor resources, the level of work time utilization, and employee stability were identified, and practical recommendations were developed.*

Keywords: *labor resources, HR management, efficiency, industrial enterprise, labor productivity, analysis of working hours, personnel composition, stability, management system.*

Kirish

Sanoat korxonalarining kadrlar bilan ta’minlanishi toifalar va kasblar bo‘yicha xodimlarning haqiqiy sonini reja ehtiyojlari bilan taqqoslash asosida aniqlanadi.

Korxonaning eng muhim kasblardagi kadrlar bilan ta'min etilishini tahlil qilishga alohida e'tibor beriladi. Ishchi kuchining sifat tarkibini malaka bo‘yicha tahlil qilish ham zarur.

Sanoat korxonalarida xodimlarning malaka darajasi ko‘p jihatdan ularning yoshiga, ish stajiga, ma'lumoti va hokazolarga bog‘liq. Shu sababli tahlil jarayonida ishchilarning yoshi, ish staji, ma'lumoti bo‘yicha o‘zgarishlar o‘rganiladi. Bu o‘zgarish ishchi kuchining harakati natijasida sodir bo‘lishi sababli bu masalaga tahlil jarayonida katta e'tibor beriladi.

Sanoat korxonalarida mavjud ishchi kuchidan yanada to‘laroq foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizasiyalash va avtomatlashtirish, ancha umumiyroq ishlab chiqarish texnikasini joriy etish, texnologiyani va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish hisobiga korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlashdagi keskinlikni birmuncha bartaraf etish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan tadbirlarni o‘tkazish natijasida mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qisqartirish zahiralari aniqlanishi lozim.

Mehnat resurslarini baholash va tahlil qilish uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy jihatdan turli guruhlarga mansub, chunki mehnat resurslarining u yoki bu jihatlarini ifodalaydi.

Mehnat resurslarini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlar iqtisodiy mazmunga qarab uch guruhga bo‘linadi:

1. Mehnat resurslari holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
2. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
3. Mehnat resurslari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

1-jadval

Sanoat korxonalarida HR menejment tizimini joriy etish va xodimlarni boshqaruv jarayonida mehnat resurslari holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	2024 y.	O‘zgarish sur’ati 2024 yilni 2022- yilga nisbatan, %
1. Mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni, kishi	45	48	52	115
2. Shu jumladan, oliy ma'lumotli mutaxassislar, kishi	35	37	39	111
O‘rta maxsus ma'lumotlilar	6	6	7	116
O‘rta ma'lumotlilar	2	3	4	200
to‘liqsiz o‘rta ma'lumotlilar	2	2	2	100
3. Oliy ma'lumotli mutaxassislar ning ulushi, % (2q*100/1q)	78	77	75	-
O‘rta maxsus ma'lumotlilar ning ulushi, %	13	12.5	13.4	-
O‘rta ma'lumotlilarning ulushi, %	4.4	6.25	7.6	-
To‘liqsiz o‘rta ma'lumotli xodimlar ulushi,%	4.4	4.1	3.8	-

Xizmatchilar soni, kishi	43	46	50	116
Shu jumladan HR rahbarlar soni, kishi	3	3	3	100
Mutaxassislar soni, kishi	32	34	36	112
Texnik ijrochilar soni, kishi	8	9	11	137
Xizmatchilarning ulushi, %	95.5	95.8	96	-
6. Ishga qabul qilinganlar, kishi	3	6	5	166
7. Ishdan bo‘shatilganlar, kishi	3	3	1	33
8. Shu jumladan, salbiy asoslar bilan bo‘shatilganlar, kishi	1	-	-	-
9. Ms. Oboroti, koeffisienti (6q+7q)/1q	0.13	0.18	0.11	85
10. Ms. qo‘nimsizligi, koeffisienti (8q/1q)	2	-	-	-
11. 3 yildan ko‘p ishlagan xodimlar soni, kishi	30	35	38	127
12. Ms. Tung‘unligi, koeffisientida (11q/1q)	0.66	0.73	0.73	110

Manba: “Javel” ma'suliyati cheklangan jamiyati ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadval

Sanoat korxonalarida HR menejment tizimi asosida mehnat resurslari bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar hisob-kitobi

– Global akseleratorlar va korporativ investorlar bilan hamkorlikning past darajasi.

2024-yil dekabrida IT Park Ventures venchur fondi ishga tushirildi. Fond AI, mashina o‘rganish, yashil texnologiyalar, EdTech, FinTech va o‘yinlar sohasidagi startaplarni qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilgan. 2025-yilga kelib, IT Park rezidentlarining sonini 3000 taga yetkazish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, sun’iy intellekt strategiyasi doirasida 16 ta universitet AI dasturlarini yo‘lga qo‘ydi.

O‘zbekiston IT xizmatlarini eksport qilish bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchilikka intilmoqda. 2024-yilning birinchi to‘qqiz oyida IT xizmatlarini eksport qiluvchi korxonalar soni 70 % ga oshib, 936 taga yetdi. Ushbu kompaniyalar 78 ta davlatga xizmat ko‘rsatdilar, bu avvalgi yilgi 58 ta davlatga nisbatan sezilarli o‘sishdir. Eksport qiluvchilarning uchdan biridan ko‘prog‘i daromadining asosiy qismini xalqaro bozordan oladi. Yangi eksportchilarning yarmidan ko‘prog‘i dasturiy ta’minot va texnik xizmatlar ko‘rsatadi, 190 tasi

autsorsing sohasida, 21 ta kompaniya esa kreativ sanoat hamda o‘yinlar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Kun.uz nashri ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonning raqamli mahsulot va xizmat eksportining geografiyasi quyidagicha taqsimlangan: **Shimoliy Amerika 45 %**, **MDH va Osiyo–Tinch okeani mintaqasi 27 %**, **Yevropa 21 %**, **Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (MENA) 6 %**

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Shimoliy Amerika eng yirik bozor bo‘lib qolmoqda; MDH va Osiyo – Tinch okeani regionlari ikkinchi o‘rinda turadi, Yevropa bozori esa 21 % ulushga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyev eksport yo‘naltirilgan IT kompaniyalari uchun daromad va korporativ soliq stavkalarini 5 % gacha kamaytirish to‘g‘risida qaror chiqardi.

Ustuvor yutuqlarga qaramay, O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda:

– **Raqamli infatuzilma va hududlararo tengsizlik.** Qishloq joylarda internet qamrovi past, ko‘plab qishloqlarda 2G darajasidagi aloqa mavjud. Hukumat 2025-yilgacha tarmoq qamrovini 98 % ga yetkazishni rejalashtirmoqda.

– **Kadrlar va raqamli savodxonlik.** Sun’iy intellekt bo‘yicha kadrlar tayyorlash 16 ta universitetda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, kompaniyalarning atigi 26 % i malakali konsultantlar jalb etadi.

– **Moliyalashtirish va venchur kapitalning yetishmasligi.** VC investitsiyalari 2023-yilda 6,3 mln dollarga teng bo‘lib, Qozog‘istonga qaraganda ancha kam. Startaplar uchun maxsus qonunchilik ham mavjud emas.

– **Ma’lumotlarni boshqarish va normativ-huquqiy baza.** Ma’lumotlar siyosati va axborot xavfsizligi me’yorlari yetarli darajada rivojlanmagan; ishlab chiqarish va bank sektori raqamli transformatsiyada ehtiyotkorlikni talab etadi.

Bu muammolarni bartaraf etish bilan birga katta imkoniyatlar ham mavjud. Iqtisodiy barqaror o‘sish va aholining yosh demografik tarkibi raqamli iste’mol va startap ekotizimini qo‘llab-quvvatlaydi. FDI oqimlarining keskin o‘sishi yuqori texnologiyali infratuzilmaga sarmoya kiritish va startaplarni moliyalashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa va tavsiyalar

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston qisqa vaqt ichida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha muhim yutuqlarga erishdi. AKT sektorining YaIMdagi ulushining 2,1 % ga yetgani, aloqa xizmatlari hajmining 43,8 % ga o‘sishi va IT xizmatlar eksportining 70 % ga ortishi raqamli sohaning potensialini tasdiqlaydi. FDI hajmining tez sur’atlar bilan oshishi, sun’iy intellekt strategiyasining qabul qilinishi va startaplar uchun venchur fond yaratish keng ko‘lamli iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning hududlararo nomutanosibligi, moliyalashtirish cheklanganligi, ma’lumotlarni boshqarish va kadrlar tayyorlash muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mualliflar quyidagi takliflarni ilgari suradilar:

1. Raqamli infratuzilmani kengaytirish: hukumat va xususiy sektor hamkorligida qishloq joylarda keng polosali internet va 5G tarmoqlarini joriy etish rejalashtirilsin.

2. Startaplar uchun yuridik va moliyaviy muhitni yaxshilash: maxsus “Startaplar to‘g‘risida” qonun qabul qilinib, soliq imtiyozlari, jamoaviy moliyalashtirish platformalari va davlat buyurtmalari orqali mahalliy innovatorlar qo‘llab-quvvatlansin.

3. Raqamli savodxonlik va malaka oshirish: maktab va oliy ta’lim dasturlarida kodlash va raqamli iqtisodiyot bo‘yicha fanlarni kengaytirish, xotin-qizlar va yoshlar uchun maxsus dasturlar tashkil etish.

4. Ma’lumotlar siyosati va kiberxavfsizlik: raqamli ekotizimga ishonchni oshirish maqsadida ma’lumotlar himoyasi, shaffoflik va axloqiy tamoyillarni o‘z ichiga olgan milliy siyosatni ishlab chiqish.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilsa, O‘zbekiston mintaqadagi raqamli markazga aylanishi va raqamli iqtisodiyot orqali barqaror o‘sish sur’atlarini saqlab qolishi mumkin. Maqola raqamli transformatsiyani tezlashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy yondashuvlarga hissa qo‘shadi.

5. TechTarget – “What is the digital economy?” maqolasi raqamli iqtisodiyotning ta’rifini va uning asosiy xususiyatlarini beradi.

6. Digital Watch Observatory – UNDPning 2025 yilda chop etilgan “Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence” hisobotiga tayanib, AKT sektori ulushi, startaplar ekotizimi va AI strategiyasi haqida ma’lumot beradi.

7. Kun.uz – 2024 yil oktyabridagi xabar eksport qiluvchilar sonining 70 % ga oshgani va IT xizmatlar eksportining mintaqaviy taqsimotini ko‘rsatadi.

8. Global CIO – “Digital Strategies of Uzbekistan” maqolasi 2024 yil yakunida aloqa va informatizatsiya xizmatlari hajmi, FDI hajmi va AI strategiyasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni taqdim etadi.

9. Jahon banki – “Uzbekistan Overview” sahifasi real YaIM o‘sishi, investitsiyalar va joriy hisob defitsiti kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Digital economy of Uzbekistan: The state of digital entrepreneurship and artificial intelligence | Digital Watch Observatory

2. https://dig.watch/resource/digital-economy-of-uzbekistan-the-state-of-digital-entrepreneurship-and-artificial-intelligence
3. Digital Strategies of Uzbekistan
4. https://globalcio.com/longread/Digital-Strategies-of-Uzbekistan/
5. Uzbekistan sees 70% surge in IT service exporters over nine months
6. https://kun.uz/en/news/2024/10/29/uzbekistan-sees-70-surge-in-it-service-exporters-over-nine-months
7. What is the Digital Economy? | Definition from TechTarget
8. https://www.techtarget.com/searchcio/definition/digital-economy
9. Uzbekistan Overview: Development news, research, data | World Bank https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview

O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH YO‘LLARI VA USTUVORLIKLARI

Luqmanov Bunyod Murtazayevich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi
TDIU tayanch doktorant
E-mail: bunyodlukmanov@gmail.com
Orcid: 0009-0000-3687-3071

Annotatsiya. *maqolada jahonda va O‘zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanishda vujudga kelgan ekologik muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilib, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi va davlat dasturining ustuvor yo‘nalishlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: ekologiya, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish maqsadlari, hayvonot olami, strategiya, dastur, biosfera, energetika.*

Аннотация. *в статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты экологических проблем, возникающих при исползовании природных ресурсов в мире и в Узбекистане, а также раскрываются приоритетные направления стратегии и государственной программы перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане.*

Ключевые слова: *экология, зеленая экономика, сели устойчивого развития, дикая природа, стратегия, программа, биосфера, энергетика.*

Abstract. *the article examines the scientific, theoretical and practical aspects of environmental problems arising from the use of natural resources in the world and in Uzbekistan, and also reveals the priority areas of the strategy and state program for the transition to a "green economy" in Uzbekistan.*

Keywords: *ecology, green economy, sustainable development goals, wildlife, strategy, program, biosphere, energy.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”ning ustuvor vazifalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 4- oktyabrdagi “2019-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori doirasida “yashil” va

inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, mamlakatda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlar amalga oshirilishini samarali tashkil etish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlash, iqlim o‘zgarishiga doir masalalarda davlat xizmatlari qamrovini kengaytirish, “yashil” iqtisodiyot sohasida aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali aholi va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikdagi muvofiqlashtirilgan say-harakatlarini ta’minlash bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etishga yo‘naltirilgan. “Ekologiyani asrash, tabiiy resurslarni tejab ishlatish, jumladan, suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha zamonaviy tizimlarga o‘tish ishlarini kuchaytirdik. Mamlakatimizda “Yashil makon” dasturi davom etmoqda”[1] deb Prezidentimiz tomonidan ta’kidlab o‘tilgan.

Ilmiy muammoning qo‘yilishi

Iqtisodiyotning iqlim o‘zgarishiga ta’sirini xorijiy tadqiqotchilar: V. Nordxaus, Pol Romer, S. J.Tol Richard, E. Barbier, D. Piars, K.K. Rixter, va boshqalar o‘z tadqiqotlarida ishlab chiqishgan.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish modellari: "yashil" iqtisodiyot, bioiqtisodiyot, aylanma iqtisodiyot, "jigarrang" iqtisodiyot va boshqalarni rus olimlari D.A. Agapov, S.N. Bobylev, O.P. Burmatova, E.O. Vegner-Kozlova, O.Yu. Ganyuxina, A.V. Grebenkin, E.M. Zomonova, N.Yu. Nesterenko, N.V. Paxomova, T.A. Selishcheva tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.V.Vahabov, A.O‘lmasov, S.V.Chepel, X.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov, T.T.Jo‘raev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida iqtisodiy o‘sish nazariyasi va ekalogik muammolarni o‘zaro bog‘liqligining nazariy jihatlari bo‘yicha atroflicha tadqiqotlar olib borilgan.

Iqtisodiy fanda endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi va ekalogik muammolarni o‘zaro bog‘liqligini yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqqan olimlardan biri Uilyam Nordxaus hisoblanadi. Uning “Integrallashgan baholash modelida” (IAM) iqlim o‘zgarishlari bilan iqtisodiy o‘sish modelini bir biri bilan bog‘ladi[2].

Rus olimlari Ye. Lyackovckaya va K. Grigoreva “yashil iqticodiyot”ga o‘tish jarayonida “barqaror rivojlanish”, inklyuziv rivojlanish”, “yashil” va “jigar” rang iqticodiyot modellarini ko‘rib chiqishgan[3].

Respublikamiz olimlaridan Urazov B.A., Xoliqov D. R. xulosalariga ko‘ra yashil infratuzilma, jumladan, shahar parklari, yashil tomlar, ko‘cha daraxtlari va qirg‘oqlarni tiklash ham yashil iqtisodiyot maqsadlariga hissa qo‘shadi[4].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi.

Asosiy taxlil va natijalar. Jahon iqtisodiyotida so‘nggi asrda insoniyat ekologiyaga va atrof-muhit holatiga to‘g‘ri g‘amxo‘rlik qilmasdan iqtisodiy faoliyat olib bordi va rivojlandi. Sayyorada shaharlar yiriklashib, aholisi 20−35 millionli megapolislar ko‘payib bormoqda. Bu energoresurslar, ayniqsa, yoqilg‘iga bo‘lgan talabni kun sayin o‘sib bormoqda. Inson omili tufayli oxirgi yuz yilda er sharida

ekin ekiladigan er maydoni to‘rtdan bir qismga, o‘rmonlar uchdan ikki qismga qisqardi. Buning natijasida dunyo bo‘yicha keyingi 30 yil ichida hayvonot olamining 8−10 foizi qirilib ketdi. Sayyoramizda tropik o‘rmonlar 14 foizni tashkil qilgan bo‘lsa hozirda uning 6 foizi qoldi. So‘ngi 50 yil ichida dunyoda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ichimlik suvi 60 foizga kamaydi. Natijada butun ekotizimga antropogen tavsifdagi zarar etkazildi, bu holat insoniyat istiqboliga tahdid solmoqda. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan jahon iqtisodiyotida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish muhim hayotiy ehtiyojga aylandi.

Tabiatdan foydalanish – bu jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish va uni takror ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘pincha tengsiz ekologik almashinuvga olib keladi, natijada bunda ayrim mamlakatlarning xo‘jalik sub’ektlari foyda ko‘radi, shu bilan birga ularning iqtisodiy faoliyatining salbiy oqibatlari zararidan dunyoning boshqa mintaqalari va mamlakatlari talofat ko‘radi. Tabiatdan foydalanish, bir tomondan, mintaqaviy xususiyatga ega, chunki u ma’lum bir davlat hududida sodir bo‘ladi, ikkinchi tomondan, u global xususiyatga ega, chunki uning salbiy oqibatlari dunyoning boshqa mamlakatlari va mintaqalariga ta’sir qiladi. Shuning uchun ham tabiiy jarayonlar biosferaning barqarorligini ta’minlaydigan ekologik salohiyatini iste’mol qilish darajasiga erishish uchun dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan o‘zaro hamkorlik zarur.

Mutaxassislarning fikricha, “yashil iqtisodiyot” an’anaviy “jigarrang iqtisodiyot”ga qaraganda qisqa muddatda YaIMning o‘sishini, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning ortishini va ish bilan ta’minlanishni bir xil yoki undan yuqoriroq ko‘rsatkichda oshirishi mumkin. So‘nggi paytlarda o‘tkazilgan xalqaro munozaralar yashil iqtisodiyot" tushunchasini aniq ishlab chiqish, uni barcha mamlakatlar manfaatlari nuqtai nazaridan amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy fanda endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi va ekologik muammolarni o‘zaro bog‘liqligini yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqqan olimlardan biri Uilyam Nordxaus hisoblanadi. Uning “Integrallashgan baholash modelida” (IAM) iqlim o‘zgarishlari bilan iqtisodiy o‘sish modelini bir biri bilan bog‘ladi. U.Nordxaus ishlab chiqarish funksiyasi modeliga ikki yangi o‘zgaruvchini kiritdi: tabiiy resurslar va ekologik zarar. Tabiiy resurslar ishlab chiqarish funksiyasi modelida ishchi kuchi, kapital, asosiy fondlar kabi ishlab chiqarish omili sifatida olingan; ekologik zarar birdan kichik bo‘lgan ko‘paytiruvchi bo‘lib u ishlab chiqarish xajmini kamaytiradi. Bu modelda barcha omillar texnologik taraqqiyot natijasida o‘sib borsa ekologik zarar esa birdan kichik bo‘lgan ko‘paytiruvchi hisobiga atmosferani ifloslanish darajasiga qarab kamayib boradi[5].

Rus olimlari Ye. Lyackovckaya va K. Grigoreva “yashil iqticodiyot”ga o‘tish jarayonida “barqaror rivojlanish”, inklyuziv rivojlanish”, “yashil” va “jigar” rang iqticodiyot modellarini ko‘rib chiqishgan. Iqticodiyotning “jigar” rang rivojlanish modeli XX acrga hoc bo‘lgan va energo-recurc cig‘imi yuqori bo‘lgan an’anaviy ishlab chiqarish nazarda tutilgan. Uning acociy calbiy oqibatlari ekologik muammolarni keckinlashishi, tabiiy boyliklapni camaraciz ishlatilishi, cuv recurclar, oziq-ovqat va energiya tanqicligi bilan bog‘liq deb hicoblanmoqda[6].

Respublikamiz iqtisodchim olimlaridan Urazov B.A., Xoliqov D. R. xulosalariga ko‘ra yashil infratuzilma, jumladan, shahar parklari, yashil tomlar, ko‘cha daraxtlari va qirg‘oqlarni tiklash ham yashil iqtisodiyot maqsadlariga hissa qo‘shadi. “Yashil iqticodiyot”ni pivojlanishida xizmatlap cohacining myhim yo‘nalishlapidan biri “ekologik” tizmni rivojlantipish katta ahamiyatga ega[7]. Natijada, milliy iqticodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda imkoniyatlarini kengaytiradi.


“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi yirik investitsiyalarni (yiliga YaIMning 2 foizigacha) talab qiladigan murakkab jarayon bo‘lib, iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ta’sir qiladi[8]. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, “yashil iqtisodiyot” mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantiradi, ijtimoiy barqarorlikka ko‘maklashadi, “yashil iqtisodiyot” tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishga erishish mumkin.

“Yashil iqtisodiyot” insoniyat va tabiatning barqaror va muvozanatli o‘zaro ta’sirini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasidir. “Yashil iqtisodiyot”ning asosiy g‘oyasi atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirish va tabiiy resurslardan unumli, barqaror foydalanish orqali boylik yaratish va aholi faravonligini ta’minlash hisoblanadi. Uning maqsadi tabiiy resurslarni tejash, ifloslanishni kamaytirish, hozirgi va kelajak avlodlar faravonligini ta’minlaydigan barqaror iqtisodiy modellarni yaratishdir.

20-asrning oxirida jahon hamjamiyatida atrof-muhitning holati to‘g‘risidagi tashvish keskin o‘sdi. Faqatgina o‘tgan asrning oxirida mamlakatlar o‘rtasida har bir davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida ekologik muammolarni tartibga solishga qaratilgan birinchi global shartnoma imzolandi. Ushbu hujjat Kioto protokoli deb ataladi va u faqat 1997- yilda qabul qilingan. Uning maqsadi atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini tartibga solish va ularni asta-sekin atrof-muhitga va ayniqsa iqlimga halokatli ta’sir ko‘rsatmaydigan darajaga kamaytirish edi, bu esa sayyora uchun keyinchalik halokatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan haroratning pasayishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.


Ekologik barqarorlik - bu barqaror tarkibiy tuzilmani funksiyalarini ekotizimning ichki va tashqi omillar ta’siridan tashkiliy tamoyillarini saqlab qolish qobiliyatidir. Ishlab chiqilgan BRMlari hozirgi va kelajak avlodlar uchun teng ekologik manfaatlar tamoyiliga asoslanadi. Barqaror rivojlanish tabiiy ekotizimlar va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi yaqin aloqadorlik munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, insonlar asosiy bo‘g‘indir, chunki ular global biosfera tizimidagi o‘z rolini aniqlash, barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun uni saqlash va boshqarish uchun javobgardir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit assambleyasi atrof-muhit masalalari bo‘yicha qaror qabul qiluvchi xalqaro tashkilotdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi “Bizning dunyomizni o‘zgartirish: Barqaror rivojlanish bo‘yicha 2030-yilgacha kun tartibi” deklaratsiyasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, unda 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) belgilab berilgan. Ular orasida ekologik barqaror rivojlantirishning 5 ta asosiy maqsadi mavjud (1-rasm):



1-rasm. Ekologik barqaror rivojlantirishning 5 ta asosiy maqsadi[9].

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, havoning ifloslanishi koronavirus infeksiyasidan o‘lim ko‘payishiga hissa qo‘shgan. 2020-yildagi karantin va izolyatsiya davrida dunyo bo‘ylab ko‘pchilik sanoat korxonalari o‘z faoliyatini to‘xtatdi, bu esa atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishining umumiy 5,8 foizga qisqarishiga olib keldi, chunki energiyaga bo‘lgan talab 4 foizga qisqardi. Bu davrda ekologik vaziyat sezilarli darajada yaxshilana boshladi, karbonat angidrid miqdori oxirgi marta faqat ikkinchi jahon urushi davrida qayd etilgan rekord darajaga keskin pasaydi.



2-rasm. “Yashil iqtisodiyotga” kiritilgan yo‘nalishlar[10].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturida “yashil” iqtisodiyot ijtimoiy adolatni shakllantirish va rivojlantirish, insonlar turmush farovonligini oshirish, ekologik muammolarni kamaytirish va iqlim falokati xavfini

kamaytirishga mo‘ljallanganligini ta’kidlaydi. Shuning uchun bunday iqtisodiyot resurstejamkor kam uglerodli va ijtimoiy inklyuziv bo‘lib hisoblanadi va “Yashil iqtisodiyotga” kiritilgan yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy transformatsiyaning asosini tashkil etadi. Raqamlashtirish - to‘rtinchi sanoat inqilobining asosiy elementi bo‘lib, yashil sektor esa yashil sanoat inqilobiga erishish uchun asosdir. Bu ikki soha barqaror rivojlanish konsepsiyasining uch jihati o‘rtasida yaxlit integratsiyalashuvchi rolni bajaradi.

“Yashil” iqtisodiyot yo‘nalishi bugungi kunda ustuvor va eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi, shuning uchun deyarli barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘z rejalari, maqsadlari, vazifalari, iqtisodiy transformatsiyalar va yashil texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish, infratuzilma, transport tizimini yangilash, bioyoqilg‘i va yopiq sikl formatida ishlaydigan ekologik toza korxonalar yaratish va qayta qurish instrumentlari va usullariga ega.

O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot sari” ildam harakat qilgan holda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda keng ko‘lamli taraqqiyot sari yuksalishlar, strategiyalar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-son qaroriga asosan qabul qilingan “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash” dasturida[11]. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo‘nalishda mamlakatda iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirish va unga moslashish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish modelini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, mamlakatda «yashil» iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 5- oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi[12] tasdiqlandi.

2021- yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasining 26-yig‘ilishida (COR-26) O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Parij bitimi doirasida 2030- yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligida issiqxona gazlari emissiyasini 2010- yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan 35 foiz kamaytirish bo‘yicha qo‘shimcha majburiyatni o‘z zimmasiga olishi haqida bayonot berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi joriy yilning may oyida 2030- yilga qadar metan emissiyasini 2020- yilga nisbatan kamida 30 foizga kamaytirish bo‘yicha mamlakatlarning jamoaviy maqsadga erishishi bo‘yicha global majburiyat to‘g‘risidagi tashabbusga (Global Methane Pledge) qo‘shildi.

Koronavirus pandemiyasi va iqlim o‘zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning saboqlari iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda yanada barqaror manbalar va yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, xususan, mamlakatda «yashil» iqtisodiyot va

«yashil» iqtisodiy o‘sish bo‘yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlar amalga oshirilishini samarali tashkil etish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

1-jadval

2030- yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2022 yil	2024 yil	2026 yil	2028 yil	2030 yil
1.	Yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya hajmini kamaytirish *(2021 yilga nisbatan)*	%	5,0	14,0	22,0	27,0	30,0
2.	Sanoatda elektr energiyasi iste’moli, umumiy iste’moldagi ulushi	%	26,0	25,0	23,0	21,0	20,0
3.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish *(gidroenergetika bilan birga)*	%	8,0	9,0	24,3	29,0	30,5
		kVt/s	6,5	8,6	25,0	34,0	40,7
4.	Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish	MVt	10,0	150,0	400,0	800,0	1500,0
5.	Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholi, jami aholi soniga nisbatan	%	69,7	80,93	87,12	88,5	90,0
6.	O‘rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zaxiralarini ko‘paytirish	mln.m^3	64,2	68,1	77,0	85,5	92,3
7.	«Yashil makon» loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni kengaytirish *(aholi punktining umumiy maydoniga nisbatan)*	%	8,3	12,4	15,8	23,8	30,0
8.	Hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi	%	30,0	40,0	50,0	60,0	65,0

“2030- yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash” strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat. Strategiyada 2030- yilga kelib O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘sishni ta’minlash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarini belgilab berilgan.

Strategiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur:

– texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

– davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan «yashil» mezonlarni kiritish;

– davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish

orqali «yashil» iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

– ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, etakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga «yashil» iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

– orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

– “yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Strategiyani amalga oshirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, issiqxona gazlarining ajratmalarini kamaytirishga, «yashil» energiyadan foydalanishni ta’minlashga, «yashil» ish o‘rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida strategiya respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini, moliyaviy barqarorligini, energetik va ekologik xavfsizligini oshirish, shuningdek, energiya tejash salohiyatini ko‘tarish, modernizatsiya qilish, texnologik rivojlantirish va yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirish orqali aholi turmush darajasini va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan. Strategiyada belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini ta’minlash bilan iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichini 2026 yilga kelib 2022 yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. //Xalq so‘zi, 2024- yil 1- sentyabr.

2. Nordhaus, 2017a.Integrated assessment models of climate change. NBER Reporter, No. 3, pp. 16−20.

3. Lyaskovskaya, Ye.A., Grigoreva K.A. Formirovanie «zelenoy» ekonomiki i ustoychivost razvitiya stranы i regionov. // Vestnik YuUrGU. Seriya «Ekonomika i menedjment». - 2018. –T. 12, № 1. - S. 15-22.

4. Urazov B.A., Xoliqov D. R. O‘. Respublikamizda mavjud erkin iqtisodiy zonalarning paydo bo‘lishi va ahamiyati //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 1. – S. 266-270.

5. Nordhaus W. (2017b). Projections and uncertainties about climate change in an era ofminimal climate policies. NBER Working Paper, No. 22933

6. Chapple K. Defining the Green Economy: A Primer on Green Economic Development // Berkeley: The Center for Community Innovation (CCI) at UC-Berkeley. - 2008. - P. 66.

7. Xudayarov A.A., Pirmatov X.R. Vozdeystvie turizma na natsionalnuyu ekonomiku Indonezii //Sborniki konferensiy NIS Sotsiosfera. 2014. – №. 39. – S. 262-265.

8. Mamatov Mamajon Axmatjanovich, «ZELENAYa EKONOMIKA» I «ZELENЫY ROST» “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari: muammo va zamonaviy echimlar. yosh olimlar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrant va iqtidorli talabalarning Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Guliston. GulDU, 2024-yil. 54 str

9. Barqaror rivojlanish maqsadlari // BMT: https://www.un.org/ .asosida muallif tomonidan tuzildi.

10. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 2- dekabrdagi PQ-436-son qaroriga asosan qabul qilingan “2030- yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘sishni ta’minlash” dasturi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 5- oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi.

KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH

Arziyev Sherzod
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: arziev.sh@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari va ularni amaliyotga joriy etish usullarini o‘rganadi. Kapital tanqisligi sharoitida kompaniyalar uchun diversifikatsiya zaruriy vosita bo‘lib, bu orqali ular risklarni kamaytirish va moliyaviy resurslarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Tadqiqotda moliyaviy diversifikatsiyaning turli turlari — horizontal, vertikal, moliya va geografik diversifikatsiya kabi yo‘nalishlar tahlil qilingan. Shuningdek, kompaniyalarning diversifikatsiya jarayonida qo‘llashlari mumkin bo‘lgan strategiyalar va usullar, masalan, kapital bozorlaridan foydalanish, yangi bozorlarni izlash va risklarni boshqarish tizimlarini yaratish kabi amaliy tavsiyalar keltirilgan. Ushbu ish, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilishning ahamiyatini ko‘rsatib beradi va kompaniyalarga diversifikatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yo‘l-yo‘riq beradi.*

Kalit so‘zlar: *gorizontal diversifikatsiya, diversifikatsiya strategiyalari, risk menejment, geografik diversifikatsiya.*

Аннотация. *В данном исследовании рассматриваются основные направления диверсификации финансовых ресурсов и методы их реализации на практике. В условиях дефицита капитала диверсификация является необходимым инструментом для компаний, позволяющим снизить риски и эффективно управлять своими финансовыми ресурсами. В исследовании анализируются различные виды финансовой диверсификации – горизонтальная, вертикальная, финансовая и географическая. Также даются практические рекомендации по стратегиям и методам, которые компании могут использовать в процессе диверсификации, таким как использование рынков капитала, поиск новых рынков и создание систем управления рисками. В данной работе показана важность диверсификации финансовых ресурсов, особенно в развивающихся странах, и даются рекомендации компаниям по успешной реализации процесса диверсификации.*

Ключевые слова: *горизонтальная диверсификация, стратегии диверсификации, управление рисками, географическая диверсификация.*

Abstract. *This study examines the main directions of financial resource diversification and methods for their implementation in practice. In conditions of capital shortage, diversification is a necessary tool for companies, through which they can reduce risks and effectively manage their financial resources. The study analyzes different types of financial diversification - horizontal, vertical, financial and geographical diversification. It also provides practical recommendations on strategies and methods that companies can use in the diversification process, such as using capital markets, searching for new markets and creating risk management systems. This work shows the importance of financial resource diversification, especially in developing countries, and provides guidance to companies on how to successfully implement the diversification process.*

Keywords: *horizontal diversification, diversification strategies, risk management, geographical diversification.*

Hozirgi kunda iqtisodiy noaniqlik va moliyaviy cheklovlar sharoitida kompaniyalar uchun moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va kapital oqimlarini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Kapital tanqisligi nafaqat korxonaning qisqa muddatli operatsion faoliyatiga, balki uning uzoq muddatli barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi, bank kreditlari va boshqa an’anaviy moliyalashtirish manbalarining qimmatligi kabi omillar kompaniyalarni yangi yondashuvlarni izlashga undaydi.

Moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish kapital yetishmovchiligini yengib o‘tishning samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘riladi. Diversifikatsiya, o‘z navbatida, korxonaning mavjud moliyaviy manbalarini kengaytirish, risklarni minimallashtirish va yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda ichki moliyaviy boshqaruvning takomillashtirilishi bilan bir qatorda, xalqaro moliyaviy bozorlarning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tajribasida kapital oqimini diversifikatsiya qilishning turli xil mexanizmlari qo‘llanilib kelinmoqda. Masalan, AQShda kompaniyalar aksiyalar chiqarish va ularni global moliyaviy bozorlar orqali sotish orqali katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilmoqda. Germaniyada esa korporativ boshqaruvning kuchli tizimi va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kompaniyalarga yangi moliyaviy manbalar ochib bermoqda. Yaponiyada esa uzoq muddatli strategik rejalashtirish va davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kapital yetishmovchiligini bartaraf etishda muhim rol o‘ynamoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va investitsion jozibadorligini oshirish uchun moliyaviy diversifikatsiyaning eng yaxshi xalqaro tajribalarini o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish dolzarbdir. Ushbu tadqiqot kapital tanqisligi sharoitida moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilishning nazariy asoslarini tahlil qilish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kapital tanqisligi va diversifikatsiya masalalariga oid nazariy hamda amaliy tadqiqotlar xalqaro miqyosda keng yoritilgan. Masalan, Modilyani va Millerning kapital tuzilmasi bo‘yicha nazariyasi kompaniyalar uchun moliyaviy qarorlarni qabul qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [Modilyani, 1958, 1]. Ularning fikricha, kompaniyaning kapital tuzilmasi investorlarning ishonchini oshirishda va kapital qiymatini pasaytirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, Diversifikatsiya bo‘yicha Porterning strategik yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Porterning fikricha, moliyaviy diversifikatsiya kompaniyaning yangi bozorlar va mahsulot yo‘nalishlariga chiqishini ta’minlash bilan birga, risklarni minimallashtiradi va kapital oqimini kengaytiradi [Porter, 1985, 2].

O‘zbekistonda moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida N.Karimov tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda aytib o‘tilgan. Ushbu tadqiqotlarda, xususan, davlat korxonalarini xususiylashtirish va ularning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha strategiyalar ko‘rib chiqilgan [N.Karimov, 2007, 3].

Jahon bankining “Financial Diversification for Emerging Economies” nomli hisobotida esa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy diversifikatsiya muhim omil ekanligi ta’kidlangan. Ushbu hisobotda moliyaviy bozorlarni rivojlantirish va yangi investitsiya manbalarini jalb etish orqali kapital yetishmovchiligini bartaraf etish yo‘llari keltirilgan [Jahon banki, 2021, 4].

Moliyaviy diversifikatsiya — bu kompaniya yoki iqtisodiyotning moliyaviy resurslarini kengaytirish, risklarni kamaytirish va yangi manbalarni jalb etish maqsadida turli moliyaviy instrumentlar, manbalar va bozorlar orqali mablag‘larni tarqatish jarayonidir. Diversifikatsiya, ayniqsa, kapital tanqisligi va iqtisodiy noaniqlik sharoitida muhim ahamiyatga ega, chunki u kompaniyalar va iqtisodiyotlarga moliyaviy xavflarni boshqarish imkoniyatini beradi.

Moliyaviy diversifikatsiyaning asosiy maqsadi — kompaniya yoki tashkilotning resurslarini bir yo‘nalishda jamlashdan ko‘ra, turli xil investitsiya yo‘nalishlariga yo‘naltirish orqali risklarni kamaytirishdir. Buning natijasida kompaniya yoki iqtisodiyot biror bir moliyaviy xatarga duch kelganda, boshqa sohalardan olingan daromadlar yordamida o‘z barqarorligini saqlab qolishi mumkin. Moliyaviy diversifikatsiya quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganiladi:

1. ***Gorizontal diversifikatsiya***

Bu turdagi diversifikatsiya kompaniyaning o‘zining mavjud mahsulot yoki xizmatlarini yangi bozorlar yoki yangi geografik hududlarga kengaytirish bilan bog‘liq. Horizontal diversifikatsiya kompaniyaga yangi mijozlar topishga va mavjud bozorlarning imkoniyatlaridan maksimal foyda olishga yordam beradi.

2. ***Vertikal diversifikatsiya***

Kompaniya o‘zining ishlab chiqarish jarayoniga yangi bosqichlar qo‘shish orqali vertikal diversifikatsiya qiladi. Masalan, xom ashyo yetkazib berish yoki yakuniy mahsulotni sotish. Bu turdagi diversifikatsiya kompaniyaning ta’minot zanjirini kengaytirish va ishlab chiqarish jarayonini boshqarishni osonlashtirishga yordam beradi.

3. ***Moliya diversifikatsiyasi***

Bu turdagi diversifikatsiya moliyaviy manbalarni, masalan, bank kreditlari, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarni kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Moliya diversifikatsiyasi kompaniyaning moliyaviy resurslarining turlarini diversifikatsiya qilish orqali kapital oqimini boshqarishga imkon beradi.

4. ***Geografik diversifikatsiya***

Geografik diversifikatsiya kompaniyaning global miqyosda turli bozorlarga kirib borishiga imkon yaratadi. Bu turdagi diversifikatsiya kompaniyani global iqtisodiy xavf-xatarlar va bozor o‘zgarishlaridan himoya qiladi.

Moliyaviy diversifikatsiyani amaliyotga joriy etishda kompaniyalar turli usullarni qo‘llashlari mumkin. Bularning ba’zilari quyidagilardan iborat:

1. ***Kapital bozorlaridan foydalanish***

Kompaniya o‘z kapital oqimlarini kengaytirish uchun aksiyalar yoki obligatsiyalar chiqarishi mumkin. Bu orqali u yangi investitsiyalar jalb qiladi va mavjud resurslarni samarali boshqaradi. Aksiyalar chiqarish, ayniqsa, kompaniyaning jamoatga chiqarilishi va investorlarga ishtirok etish imkoniyatini beradi.

2. ***Diversifikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish***

Kompaniya o‘zining diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish va unga amal qilish orqali yangi bozorlar va imkoniyatlarga kirishni boshlaydi. Bu jarayonda, kompaniya yangi mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chiqish, mavjud bozorlarni kengaytirish yoki boshqa kompaniyalar bilan birlashish orqali diversifikatsiya qilishi mumkin.

1-jadval

Moliyaviy diversifikatsiyaning amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar

Tavsiya	Izoh
Kapital bozorlarini rivojlantirish	Aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish orqali kapitalni kengaytirish va investitsiya jalb qilish.
Diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish	Yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki bozorlarni izlash va kompaniyaning risklarini tarqatish.
Moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish	Bank krediti, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarni birlashtirish.
Geografik diversifikatsiya	Global bozorlarni izlash va yangi hududlarda biznesni kengaytirish.
Risklarni boshqarish tizimini yaratish	Diversifikatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni tahlil qilish va boshqarish.

3. ***Risklarni boshqarish tizimlarini yaratish***

Diversifikatsiya risklarni kamaytirishning samarali usuli bo‘lsa-da, kompaniya risklarni boshqarish tizimini yaratishi zarur. Bu tizimlar, kompaniyaga investitsiya qarorlarini qabul qilishda, xavf-xatarlarni tahlil qilishda va diversifikatsiya jarayonini boshqarishda yordam beradi.

Moliyaviy diversifikatsiya kompaniyaning o‘sishi va barqarorligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib, uni amaliyotga joriy etish orqali kompaniyalar yangi imkoniyatlar yaratishi va global iqtisodiy sharoitga moslashishi mumkin.

Xulosa

Moliyaviy diversifikatsiya kompaniyaning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Kapital tanqisligi sharoitida diversifikatsiya, ayniqsa, kompaniyalarga xavf-xatarlarni kamaytirish, yangi moliyaviy manbalarni jalb qilish va o‘z resurslarini samarali boshqarish imkonini beradi. Tadqiqotda ko‘rsatilgan diversifikatsiyaning turlari va amaliyotga joriy etish usullari kompaniyalarga moliyaviy xavflarni boshqarishda yordam beradi. Moliyaviy bozorlarni rivojlantirish, diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish, moliyaviy manbalarni kengaytirish va risklarni boshqarish tizimlarini yaratish kabi tavsiyalar, kompaniyalarga o‘z faoliyatini yanada samarali va barqaror olib borish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda keltirilgan amaliy tavsiyalar va yo‘l-yo‘riqlar kompaniyalarga global bozorlar va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashishda yordam beradi, natijada ular o‘z bizneslarini muvaffaqiyatli diversifikatsiya qilishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Modigliani, F., & Miller, M.H. (1958). "The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment." American Economic Review.

2. Porter, M.E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.

3. Karimov, N.G. (2007). Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. T.: Fan va texnologiya, 240.

4. World Bank. (2021). “Financial Diversification for Emerging Economies.” World Bank Reports.

SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA

Sobirov Azizbek Avazbekovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Marketing” kafedrasi PhD., dotsenti
E-mail: a.sobirov@tsue.uz
Orcid:0009-0006-5886-3783

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sanoat klasterlari tizimi milliy sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo‘nalishi sifatida tahlil qilinadi. Muallif sanoat klasterlari orqali innovatsiyalar joriy etish, kooperatsiyani kuchaytirish va qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida sanoat klasterlari modellarini milliy iqtisodiyotga moslashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sanoat klasterlari, sanoat salohiyati, kooperatsiya, qo‘shilgan qiymat, strategik yo‘nalish.*

Аннотация. *В данной статье система промышленных кластеров рассматривается как стратегическое направление повышения natsionального промышленного потенциала. Автор показывает возможности внедрения инноваций, усиления kooperatsiu и расширения цепочки добавленной стоимости через промышленные кластеры. Кроме того, на основе опыта развитых стран предлагаются рекомендации по адаптации моделей промышленных кластеров к национальной экономике.*

Ключевые слова: *промышленные кластеры, промышленный потенциал, кооперация, добавленная стоимость, стратегическое направление.*

Abstract. *This article analyzes the system of industrial clusters as a strategic direction for enhancing national industrial potential. The author highlights the opportunities for introducing innovations, strengthening cooperation, and expanding the value-added chain through industrial clusters. In addition, based on the experience of developed countries, recommendations are provided for adapting industrial cluster models to the national economy.*

Keywords: *industrial clusters, industrial potential, cooperation, value added, strategic direction.*

Kirish

Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida ro‘y berayotgan integratsiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotida xo‘jalik yuritish tizimini innovatsion shakli hisoblangan, qo‘shilgan qiymatli, yakuniy mahsulot ishlab chiqaradigan va xududiy jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lgan korxona va tashkilotlarni o‘z ichiga olgan “klaster”larning shakllanishi bilan ahamiyatli. Klasterlarni yaratishdan maqsad xadudiy yaqin joylashgan va ma’lum bir sohaga ihtisoslashgan korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo‘lgan hizmat ko‘rsatuvchi subyektlari (ta’lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlar) faoliyatini uyg‘unlashtirish orqali innovatsion ishlab chiqarishni tashkil

etish asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo‘naltirishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

“Klaster” fransuzcha atama bo‘lib o‘zbekchaga tarjimada “panja”, “bosh”, “bog‘lam”, “guruh”, “to‘planish”, “turg‘un” ma’nolarini anglatadi. Shuningdek, “klaster” tanlanma tadqiqotlarning bir usuli sifatida ham ifodalanadi[1].

“Klaster” nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar 1950-yillardan keyingi sanoat iqtisodiyoti sohalarida tez sur’atlarda o‘sib va uni mamlakatlar iqtisodiyotida va korxonalar amaliyotda qo‘llash kengayib borgan. Mazkur yondashuv milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va o‘zaro munosabatlarga asoslangan raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo‘nalishiga aylangan.

“Klaster” nazariyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda uning nazariy asoslari bo‘yicha turlicha nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular asosan 3 ta muhim ilmiy maktablarda rivojlanganligini ko‘rish mumkun: Amerika, Britaniya, Skandinaviya va b.

Amerika olimlari: M.Porter “raqobat ustunligi nazariyasi”[2], M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorensenlar “mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi”[3], A.Marshall “Sanoat hududlari nazariyasi”[4], P.Bekatin “Italyan sanoat okruglari nazariyalari”[5], M.Storper “Ideal” hududiy klaster” nazariyalarini yaratgan. Qo‘shimcha qiymat va “klasterlar zanjiri uyg‘unligi, mintaqalarni o‘qitish konsepsiyalari” ham shu guruhdan o‘rin olgan. Nazariyalarda klasterlar - ishlab chiqaruvchilar raqobat ustunligini oshirishda yuqori samarali bo‘lib, ularning hududdagi ta’lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan uyg‘unlashgan tizimi ekanligi ta’kidlanadi.

Britaniyalik nazariyotchilarning (J.Danning, K.Brimen, Shmit, J.Hamfrilar) fikricha, “klaster” o‘zaro hamkorlikdagi institutlar tizimi sifatida iqtisodiyotning asosini belgilovchi institutsional nazariyalardir. Bu holatda “klaster”ning o‘ziga “zamonaviy institut” sifatida qaralmoqda. Mazkur tizimda uning qatnashchilarining o‘zaro munosabati rasmiy va norasmiy bo‘lganidek, klasterlarning ham tashqi doirasi keng bo‘ladi degan nazariya hisoblanadi.

Skandinaviyalik olimlar (B.O.Lundval, B.Yonson, B.Asxaym, A.Izaksonlar) – klasterning evolyutsion rivoji bir qator bosqichlardan o‘tishi, ya’ni “tug‘ilishidan tugagunicha” – bu shundan dalolat beradiki, evolyutsion nazariya imkoniyatidan foydalanish “klaster” nazariyasini bildiradi degan mulohazani ifodalaganlar[6].

To‘rtinchi guruh olimlar klasterni o‘zi ichiga olgan “hudud – korporatsiya ustunligi”, “hudud – bozor ustunligi”, “hudud – davlat ustunligi”, “hudud – ijtimoiy soha ustunlik” konsepsiyalari asosidagi mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy paradigmalaridir, deb hisoblaydilar[7].

Klasterlar nazariyasi rus olimlar Yu.S.Artamonova, B.B.Xrustalyov va boshqalar[8] tomonidan ham o‘rganilib, amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Yuqoridagi nazariyalarning yaratilishi va ularning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish yuqori samaradorlikka erishib borishni nazarda tutadi.

“Klaster” nazariyalariga ko‘ra asosiy quyidagi asosiy fundamental asoslar mavjudligini ajratib ko‘rsatish imkoni bor, jumladan: klasterda faoliyat yurituvchi korxonalar ma’lum turdagi tovarlar bozoriga bog‘liq bo‘lishi zarur. Bunday bog‘liqlik integratsion shakllar hisoblangan vertikal va gorizontal shakllarda kuzatiladi. Vertikal integratsiyalarda ishlab chiqarishning to‘liq siklini o‘zida qamrab oladi (xomashyodan tayyor mahsulotlargacha bo‘lgan tizim) yoki gorizantal (ta’lim, ilmiy tadqiqot markazlari, ta’minot zanjiri, sotish va marketing) ko‘rinishlarda shakllanadi. Yana bir asosiy shart klasterlar geografik yaqin joylashgan o‘zaro bog‘liqlikdagi korxonalar guruhi bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning barqarorlashishi natijasida raqobatbardoshlikning rivojlanishi, ko‘proq qo‘shimcha qiymatni yaratishi va bozorda sotilishiga imkoniyatlar yaratish.

Klaster nazariyasini asoschisi Maykl Porter tomonidan “klaster”– geografik nuqtayi nazardan qo‘shni bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq kompaniyalar (ishlab chiqaruvchilar, mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqalar) hamda ularga aloqador xizmatlarni ko‘rsatib, ma’lum sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta’lim muassasalari, davlat boshqaruv idoralari, infratuzilmali kompaniyalar) guruhidir” yoki “klaster” – ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligining oshishiga imkoniyatlar yaratuvchi, o‘zaro chambarchas bog‘langan tarmoqlar yagona texnologik zanjirini tashkil etuvchi hamjamiyatlardir”[9] degan g‘oyalarni ilgani murgan.

“Klaster nazariyasi” ilmiy jarayonga bozor strategiyasi shaklida, davlat, hudud va mintaqa korxonalarining bozordagi raqobat muhitida g‘olib bo‘lishlarini ta’minlovchi strategiya sifatida kirib kelgan.

O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishlaridagi ilmiy izlanishlar bo‘yicha ilk tadqiqotlar A.Sh.Bekmurodov va Yang Son Be[10] tomonidan olib borilgan. Mazkur tadqiqotlar “O‘zbekiston tekstil sanoatini rivojlantirish strategiyasiga klaster yondashuvi”ga asoslangan tadqiqotlar olib borishgan. Olib borilgan tadqiqotda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini raqobatbardoshligini oshirish, xlorijiy investitsiyalar salmog‘ini ko‘paytirish, mahsulotni bo‘yash bo‘yicha sanoat hududiy klasteri modelini Koreya Respublikasining Tegu shahridagi tajribalariga asoslangan holda taklif etgan. To‘qimachilik klasterlarini shakllantirish bo‘yicha asosiy tadqiqotlar keyinchali A.Soliyev, M.Boltabayev, Z.Adilova va D.Mirzaxalilova, G‘.Zaxidovlar tomonidan davom jttirilgan.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda klaster nazariyalarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, K.Xonkeldiyeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda to‘qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va sohani samarali rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda asosiy e’tibor to‘qimachilik korxonalariga yangi texnologiyalarni ustuvor qo‘llash, tashqi bozorlarga chiqish va jamoaviy marketing loyihalarini amalga oshirish, sanoati klasterlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga ahamiyat qaratilgan[11]. U.Yeshimbetov tomonidan mahalliy mineral xomashyo resurslarini o‘zlashtirish yo‘li bilan Chimboy tumanida kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat klasterlarini shakllantirish zarurati asoslangan[12].

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda ma’lumotlar asosan xorijiy ilmiy maqolalar, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hisobotlari hamda rivojlangan davlatlar tajribasiga oid rasmiy statistik manbalardan olindi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy tahlil usuli orqali solishtirildi, shuningdek, analitik umumlashtirish yondashuvi qo‘llanilib, O‘zbekiston sharoitiga mos xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

“Klaster strategiyasi”ni amalda qo‘llash asosida milliy va mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish g‘oyasi turli mamlakatlar va tarmoqlarda o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lsa-da, ammo M.Porter va M.Enrayt uning quyidagi umumiy ustuvorligi mavjudligini izohlab berdilar(1-jadval):

1-jadval

Klaster strategiyasi qo‘llash samaradorligi[172]

Strategiya nomi	Samaradorlik
Klaster strategiyasi	korxona (firma)larning o‘zaro koperatsiyasi asosida mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshadi;
	Klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish haqi esa 30 % gacha ko‘pligi o‘z tasdig‘ini topgan
	ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan yaratiladigan innovatsiyalar qisqa muddatda sinovdan o‘tkazish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘ladi
	klasterlarda inson kapitalini oshirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lganligi sababli soha mutaxassislari mehnatini ko‘proq rag‘batlantiriladi
	innovatsion tovarlar ishlab chiqarishga motivatsiyalanadi

Xalqaro hamjamiyat tomonidan klasterlash korxonalar innovatsion faoliyatini tezlashtirishga asoslangan, tarmoq raqobatbardoshlikni oshirish va global raqobatning kuchli ta’siriga qarshi tura oladigan tarmoq va mintaqalarni yaratishning yangi iqtisodiy tizimi siitfada qaralishi lozim.

[172] Muallif ishlanmasi.


Mahalliy sanoatni klasterlash ko‘lami va sur’ati to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat va mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat xususan, sanoat siyosatiga bog‘liq bo‘lib, mahalliy sanoatda klasterlashtirishni mintaqaviy hokimiyat organlarining faol ishtirokisiz, ularning klasterlarni yaratish tashabbuskori korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlamasdan amalga oshirish mumkin emas, chunki:

• joriy noqulay ishbilarmonlik muhiti, investitsiyalardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi;

• sanoat korxonalarining past texnologik darajasi va zaif iqtisodiy imkoniyatlari;

• sanoatchilarda klasterlarni yaratish va rivojlantirish jarayoni bo‘yicha bilim va tajribaning yetishmasligi asosiy omillardir.

Agar mahalliy darajada umumiy rivojlanish ustuvorliklari va klasterlashni rag‘batlantirish mexanizmlari ko‘rsatilgan bo‘lsa, mintaqaviy darajada ularga tayangan holda sanoat ishlab chiqarishining haqiqiy holatidan kelib chiqish kerak: uning raqobatbardoshlik darajasi, tarmoq tuzilishi, soni va soni, korxonalar hajmi, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, tarmoqning o‘rtacha rivojlanish darajasi, erishilgan rivojlanish darajasi va potensial klaster guruhlarini shakllantirishi mumkin bo‘lgan alohida korxona va tashkilotlarning istiqbollarini strategik ko‘rish va nihoyat, infratuzilma va boshqa yordamchi obyektlarning sifati va hududiy iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sohalari.



1-rasm. Sanoat klasterlari ishtirokchilar[173][11]

[173] Muallif ishlanmasi.

Klasterlar “Erkin ilmiy-texnika zonalari” yoki “Texnoparklar” shaklida tashkil etilmoqda. Erkin ilmiy-texnika zonalari alohida ajratilgan hududlardan iborat bo‘lib, u yerda ilmiy-ishlab chiqarish va o‘quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o‘rnatiladi. Erkin ilmiy-texnika zonalari yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari-texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

Klasterlar nafaqat sanoatda qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan mexanizm balki, o‘zaro munosabatlarga asoslangan raqobatda ustunlik yaratish strategiyasi, innovatsion iqtisodiyot yaratish, fan-ta’lim-ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlovchi va mehnat unumdorligini oshirish vositasi sifatida qaralgan. Biroq, amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyatida klasterlarni shakllanishi va rivojlanishi uchun yaratilishi lozim bo‘lgan infratuzilma, bozor muhiti, qonunchilik, klasterlarni boshqaruv shakli, marketingini tashkil etish kabi masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan, umuman olganda sanoat klasterlarini yaralishi, rivojlanishi va xayotiy davrida uni boshqarishning strategik yo‘nalishlari bo‘yicha aniq metodologik yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Klasterlar iqtisodiy o‘sish, qiymat yaratish, raqobatda ustunlikning asosiy vositasi ekan, O‘zbekiston sanoatini klasterlashning ilmiy uslubiy va amaliy masalalari COVID-19 pandemiyasi sharoitida yanada dolzarblashdi.

Xulosa va takliflar

Fikrimizcha, O‘zbekistonda sanoat klasterlarni shakllantirish masalasi mamlakat miqyosida emas, balki mintaqalar – viloyatlardagi aniq iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlar asosida va sanoat tarmoqlarining xususiyatlari hamda klaster nazariyasining mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sanoat klasterlari O‘zbekiston sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo‘nalishi sifatida muhim ahamiyatga ega. Klaster tizimi quyidagi tarmoqlararo kooperatsiya orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, transport va logistika xarajatlarini qisqartirish, innovatsiyalarni tezkor joriy qilish va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan integratsiyani kuchaytirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini uzluksiz ta’minlash va ichki bozor talabini qondirish hamda eksport hajmini kengaytirishga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish Xakimov Z. A.-2018 http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/42776

2. Портер М. Международная конкуренция. - М.: Международные отношения, 1993. С. 51.

3. Enright M. (1996) “Regional Clustersand Economic Development: A Research Agenda”, in Staber, U., Schaefer, N. and Sharma, B., (Eds.) “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”: Walter de Gruyter, pp. 190- 213.

4. Маршалл А. Принципы экономической науки, т. I – III. Пер. с англ. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993.

5. Бегаттин П. - Becattini G. From Marshalls to the Italian «Industrial Districts»/ www.copetitivness.org. 2015

6. Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. TDIU. Toshkent-2018 y.

7. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish Xakimov Z. A.-2018. http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/42776

8. Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика. (Коллективная монография). Минобразования и науки РФ, Минэкономразвития РФ, Правительства Пензенской области. –Пенза, – 2013.

9. Портер М., Конкуренция Э. Пер. с англ.: Уч. пос //М.: Издательский дом «Вильямс. – 2011.

10. Бекмурадов А.Ш., Янг Сон Бэ. “Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана”. Кластерный подход. Ташкент. 2006 йил.

11. Xonkeldiyeva K. To‘qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. 08.00.13 – Menejment, 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021-yil.

12. Yeshimbetov U. Mineral xomashyo resurslaridan samarali foydalanish asosida mintaqada sanoat tarkibini takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida) Mutaxassislik 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot va 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti Iqtisodiѐt fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Urganch – 2021

АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ
(ёки иқтисодий тадқиқотларда қўллаш ва ESG принципларини таъминлаш хусусиятлари)

Р.Д. Дусмуратов
Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори, и.ф.д.,
E-mail: r.dusmuratov@tsue.uz
Orcid: 0009-0005-4491-5610
Н.Ж. Носирова
Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти
Илмий ишлар, рейтинг ва аккредитациялар
бўлими бошлиғи, и.ф.ф.д., доцент
Orcid: 0000-0002-4210-1550

Ишончлилигига кўзинг етмаган нарсани тўғри деб қабул қилма.
Рене Декарт

Аннотация. *Данная статья предназначена в основном для базовых докторантов, соискателям и магистрантам. В ней понятия «анализ» изложена в трех аспектах, во-первых, как противоположность синтезу, целью которого является сбор, объединение. В анализе происходить разъединение единого целого на составляющие, с целью познание их взаимосвязи. Во-вторых, частично освещены аспекты, связанные с математикой. В-третьих, это метод взаимосвязан с синтезом, как единое и противоположное по своему содержанию. Также, освещена сущность понятий междисциплинарный синтез, как новое направление в современных экономических исследованиях*

Ключевые слова: *анализ, синтез, аналитический метод, синтетический метод, внутридисциплинарный синтез, междисциплинарный синтез, экономический анализ, экономический синтез, абстрагирование.*

Annotatsiya. *Mazkur maqola asosan tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va magistratura talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda «analiz» tushunchasining uchta jihatidan birinchisi, «sintez»ga qarama-qarshi metod ekanligi, uning maqsadi butunni qismlarga ajratish, ya’ni bo‘laklash natijasida yangi bog‘liqliklarni aniqlashdan iborat ekanligiga batafsil to‘xtalingan. Ikkinchisi, matematika fani bilan bog‘liq jihati qisman yoritilgan, uchinchisi esa, o‘z mazmuniga ko‘ra sintez bilan birgalikda va qarama-qarshilikda bo‘lib, tadqiq qilish va (yoki) o‘rganish degan ma’noda yondashilgan. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning maxsus dastagi sifatida fanlararo sintez tushunchasi ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *analiz, sintez, analitik metod, sintetik metod, fan ichidagi sintezlashuv, fanlararo sintezlashuv, iqtisodiy analiz, iqtisodiy sintez, abstraksiyalash.*

Abstract. *This article is intended mainly for basic doctoral students, applicants and master's degree students. In it the concept of "analysis" is presented in three aspects, firstly, as opposed to synthesis, the purpose of which is collection, unification. In analysis, there is a separation of a single whole into components, with the purpose of understanding their interrelation. Secondly, aspects related to mathematics are partially covered. Thirdly, this method is interconnected with synthesis, as a single and opposite in its content. Also, the essence of the concepts of interdisciplinary synthesis is covered, as a new direction in modern economic research*

Keywords: *analysis, synthesis, analytical method, synthetic method, intradisciplinary synthesis, interdisciplinary synthesis, economic analysis, economic synthesis, abstraction.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan: **«Bir haqiqat hammamizga**

ma’lum: ilm va izlanish bo‘lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman, biror-bir sohaning kelajagi bo‘lmaydi»[1],- deb alohida ta’kidlandi.

Darhaqiqat shunday, bu fikr isbot va izoh talab qilmaydigan aksioma (postulat)dir. Lekin, rivojlanish va yuksalishni ta’minlaydigan ilmiy izlanishlar samarasi ularning nafaqat kim tomonidan va nima maqsadda, balki qanday usullar va uslub(metod)lar vositasida amalga oshirilishiga ham bog‘liq. So‘nggi holat esa, bo‘lg‘usi olimlardan, umuman ilmiy tadqiqot metodologiyasini, xususan **analiz** va **sintez** metodlarini puxta o‘zlashtirishni talab etadi.

So‘nggi vaqlarda iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy kengashlar huzuridagi ilmiy seminarlarda, undan oldin esa, kafedralararo ilmiy seminarlarda muhokamaga chiqayotgan tayanch doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar iqtisodiy tadqiqotlar metodologiyasi tarkibidagi muhim va murakkabroq nazariy tadqiqot metodlari - **analiz va sintez**ning mazmun-mohiyatini yaxshi bilmasliklari ayon bo‘lmoqda. Xususan, *«avtoreferatingizning «tadqiqot usullari» bo‘limida «analiz» va «sintez» metodlarini keltiribsiz, ularning mazmuni qanday? Qaysi vazifalarni hal etishda va qanday qo‘lladingiz? Qaysi ilmiy muammoni hal etdingiz va qanday natijaga erishdingiz?»* kabi savollarga ko‘pincha mantiqsiz, poyintar-soyintar javob bo‘ladi yoki umuman javob ola olmaysiz!

Ushbu maqolada ko‘riladigan tushunchalar ilmiy tadqiqot metodlari sifatida ancha murakkab bo‘lganligi bois, ularni kirish sifatida batafilroq o‘rganishdan boshlaymiz. Avvalo, bu mavzu doirasidagi atamalarning grammatik jihatlariga chuqurlashib ketmasdan, hozirgi o‘zbekcha iqtisodiy adabiyotlarda qo‘llanilayotgan «tahlil» atamasi o‘rniga «analiz», «usul» yoki «uslub» tushunchalari o‘rniga «metod» atamalarini ishlatamiz. Chunki, ilmiy atamalar o‘zlarining tarixiy taraqqiyoti yo‘lida qaysidir bir mamlakatda paydo bo‘lib, keyinchalik boshqa hududlarga o‘tib kelgan, ularning tarjimalari har xil jabhalarda qo‘llanilganida mazmun to‘liq ifodalanmasligi mumkin.

Shu bois, «analiz» va «sintez» tushunchalarining etimologik-lug‘aviy ma’nolarini ko‘rib chiqamiz hamda ularga ilmiy tadqiqotlarning umumilmiy nazariy metodlari sifatidagi tizimli yondashuvlarmizni shakllantirishga harakat qilamiz.

Xo‘sh, analiz va sintez tushunchalarining mazmun-mohiyati qanday, ular ilmiy tadqiqotlarda qanday qo‘llaniladi?

«Analiz [yun. analysis – ajratish, ajralish] – tekshirish ob’ektini fikran tarkibiy elementlarga ajratib*[174] tadqiq qilish usuli» [4].

«Analiz [qadim.yun. ἀνάλυσις «taxlash, bo‘lish, ajratish, bo‘laklash»] – tadqiqot ob’ektini alohida qismlarga bo‘laklash va o‘rganish bilan tavsiflanadigan

[174] *Бу ерда ва кейинги ўринларда ажратиб(тагини чизиб) кўрсатиш муаллифники.

tadqiqot metodi. Analiz – bu har qanday ob'ektni bo'laklab o'rganish va sabab-oqibatli bog'liqliklarni aniqlashdan iborat tadqiqot metodi» [11].

«Sintez [yun. sinthesis – birikish, qo'shilish; biriktirish, qo'shish] – predmet va hodisalarni bir butun holda, ularni tashkil etuvchi qismlarning **birligi va o'zaro bog'lanishida** o'rganadigan ilmiy tadqiqot usuli»[5].

«Sintez (qadim.yun. σύνθεσις «biriktirish, qo'shilish, qo'shish, bog'lashtirish»; συν-«birgalikdagi harakat, hamishtirokchi» + θέσις «qo'yib chiqqish, joylashtirish, taqsimlash, <joy>holat» ma'nosidagi so'z birikmasi) – oldin tarqatilgan buyumlar yoki tushunchalarni bir butunlik yoki to'plamga ulash yoki birlashtirish jarayoni»[8].

N.Shermuxamedova yozishicha: «Analiz-ob'ektni amalda yoki fikran tarkibiy elementlarga ajratish; sintez – qismlardan butunni, xuddi shunday tarzda, qayta birlashtirish. Sintez natijasida mutlaqo yangi ob'ekt hosil bo'ladi»[2.263b.]. Deyarli shunga o'xshash ta'rif Q.A.Shavazov tomonidan ham keltirilgan: «Tahlil (analiz)-ob'ektni uning tarkibiy qismlariga real yoki aqliy bo'linishi va sintez – ularni mexanikka birlikka emas, balki yagona organik butunlikka birlashtirish. Sintez natijasi butunlay yangi shakllanishdir. Analiz va sintez bir-biri bilan dialektik bog'langan»[3.60 b.].

I.Saifnazarov, G.Nikitchenko, B.Qosimovlar: «Ilmiy tadqiqotning barcha bosqichlarida analiz va sintezdan foydalaniladi. **Analiz** – bu bilish predmetini fikran qismlarga ajratish, uning alohida tomonlari, xossalari, belgilarini, ular o'rtasidagi munosbatlarni ajratish, ob'ektning mohiyatini anglab yetish maqsadida uning tur xillarini va hokazolarni aniqlash demakdir»[4.51 b.], deya batafsilroq yondashganlar. Shuningdek, ushbu mualliflar sintez tushunchasini «predmetning bilingan tomonlari, belgilari, xossalari va hokazolarni fikran birlashtirish, ob'ektning tuzilishini uning barcha aloqalari, munosabatlari, rivojlanishi va faoliyatiga bog'lab tushunib yetishdir»[4.51 b.], deb ta'riflaganlar hamda «analizsiz sintez, sintezsiz esa analiz bo'lmaydi» [4.51 b.], deya ta'kidlaydilar.

Demak, analiz va sintez ilmiy tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan, o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan metodlar ekan. Analiz fikran yoki amalda narsa va hodisani tarkibiy qismlarga bo'laklash, sintez esa, mazkur bo'laklarni fikran yoki amalda bir butun qilib birlashtirish, narsani yaxlit holda tadqiq qilish metodlari bo'lib, bu jarayonda tarkibiy elementlarning o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir ko'rsatish qonuniyatlarining amal qilishi aniqlanadi.

Endi ushbu tushunchalarning fandagi mazmuniga kengroq to'xtaladigan bo'lsak, «analiz» kamida uchta asosiy ma'noda qo'llaniladi: 1) sintezga qarama-qarshi bo'lgan metod; analizning maqsadi butunni qismlarga ajratish, bo'laklashdan iborat; 2) matematika fanida hisoblash usullarini ishlab chiqish va ularni miqdorlar to'g'risidagi har xil masalalarni yechishga qo'llash, tor ma'noda - differensial va integral hisoblashlar; 3) ilmiy tadqiqot yoki biron-bir narsani o'rganish. «Sintez»

tushunchasi ham ko‘p ma’noli bo‘lib, ammo falsafiy-iqtisodiy analizda uning bitta ma’nosi – sintezning analizga qarama-qarshi metod ekanligi bilan cheklanish mumkin. Bunda oldin bo‘laklangan xossalar, qismlar, munosabatlar va shu kabilarni bir butunga birlashtirish jarayoni tushuniladi.

«Analiz» tushunchasining uchta ma’nosiga keladigan bo‘lsak, biz ulardan birinchisiga, ya’ni sintezga qarama-qarshi metod ekanligi, uning maqsadi butunni qismlarga ajratish, ya’ni bo‘laklash natijasida yangi bog‘liqliklarni aniqlashdan iborat ekanligiga va sintez bilan birgalikda (ajralmagan holda) qo‘llanilishiga batafsil to‘xtalamiz.

Ikkinchisi, analiz matematika faniga ham taalluqli bo‘lib, bu jihatga qisman to‘xtalamiz. «Analiz» tushunchasi dastlab matematikada (aniqrog‘i, geometriyada) vujudga kelib, so‘ngra asta-sekinlik bilan, qayta tafakkurdan o‘tkazilib, falsafaga ko‘chgan.

Geometriya fanida analiz geometrik figuralarni tuzishning ma’lum bir usulida mujassamlashgan va bunga qadimgi yunon matematigi Yevklid[13] va XVII asr fransuz faylasufi va matematigi Rene Dekart[14] asos solgan. Antik davrdan to Yangi davrgacha bo‘lgan barcha buyuk faylasuflar ham mana shu usuldan foydalanishgan. XVIII – XIX asrlarda geometrik analiz *matematik analiz*ga aylangan. Uning miqyosi sezilarli darajada kengayadi - bu faqat geometrik tuzilma bo‘libgina qolmasdan, juda keng ma’noda hisoblash usullarini ishlab chiqish va ularni miqdorlar haqidagi har xil masalalarni yechishga qo‘llashdan iborat.

Uchinchisi esa, o‘z mazmuniga ko‘ra «tadqiqot» va «o‘rganish» tushunchalari bilan ma’nodosh bo‘lib, ko‘proq oddiy hayotiy, kundalik tilda tadqiq qilish va (yoki) o‘rganish demakdir.

Ilmiy tadqiqotning maxsus metodi sifatida sintez to‘g‘risidagi masala munosabati bilan, xususan, iqtisodiy tadqiqot dastagi sifatida *fanlararo sintez* to‘g‘risidagi masalani ham ilgari suramiz. Chunki, Fanlararo sintezlashuv borasida Geri Bekker (1992) «inson kapitali» nazariyasi uchun (iqtisodiyot, sotsiologiya, gender tadqiqotlari, yurisprudensiya)[10]; Duglas Nort (1993) kliometriya va iqtisodiy tarix uchun (iqtisodiyot, tarix, sotsiologiya)[11]; Daniel Kaneman va Vernon Smit (2002) eksperimental iqtisodiyotni (iqtisodiyot, psixologiya)[12] rivojlantirganliklari uchun Nobel mukofoti laureatlari bo‘lganlar. Bular iqtisodchilarning nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki, fanlararo sintezni muvaffaqiyatli amalga oshirganliklari uchun ham olgan mukofotlari, erishgan yutuqlaridan namunalar hisoblanadi.

Materiallar va metodlar

(Materials and Methods Tadqiqotning axborot ta’minotini mavzuga oid ilmiy, o‘quv-uslbiy va normativ-huquqiy manbalar hamda so‘nggi yillarda iqtisodiyot fanlari bo‘yicha ilmiy anjumanlar va muhokamalarda, falsafa doktori (PhD) va fan

doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy kengashlarda hamda ular huzuridagi ilmiy seminarlar amaliyotini kuzatuv ma’lumotlari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifati dialektika, umumilmiy metodlardan: ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash, analogiya kabi nazariy metodlar; kuzatish, o‘lchash, manbaalarni sharhlash, taqqoslash kabi empirik metodlar qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama

Ilmiy, o‘quv-uslubiy va internet resurslarini ilmiy sharhlash natijalariga tayanib ta’kidlashimiz joizki, ilmiy tadqiqot faoliyatida «analiz» tushunchasi o‘zining birinchi ma’nosiga ko‘ra bir butunni fikran (yoki voqelikda) qismlarga ajratish va bo‘laklashni bildiradi. Inson azaldan o‘zini o‘rab turgan tabiatni va ijtimoiy voqelikni bir butunlikda qabul qilishga intilib kelgan bo‘lsada, ushbu voqelikni chuqur tadqiq qilish uchun, bunday qabul qilish juda yuzaki hisoblanadi. Bir butunlikni o‘rganishdan oldin ko‘pincha uning qismlari o‘rganiladi, ya’ni, mazkur butun ob’ekt oldin alohida tarkibiy qismlarga fikran (yoki voqelikda) bo‘laklanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, analiz qismlarga bo‘laklash metodi sifatida boshqa bir muhim metod – *abstraksiyalash* bilan chambarchas bog‘liqdir. Abstraksiyalash deganda tadqiqot predmetidagi muhim xossalarni ajratib ko‘rsatish uchun, ularni ikkinchi darajali xossalar va sifatlardan ajratib olish jarayoni tushuniladi. Analiz va abstraksiyalash umuman o‘xshash bo‘lgan bilish funksiyasini bajaradi: har ikkala metod ham tadqiq qilinayotgan ob’ektdagi muhim va ahamiyatli xossalarni ajratib olishga yo‘naltirilgan; lekin analiz abstraksiyalashga qaraganda ushbu muhim va ahamiyatli xossalarni boshqa xossalar bilan bog‘liqlikda tadqiq qiladi, buning oqibati sintezga olib keladi; abstraksiyalashning metodologik usuli esa, muhim xossalarni ajratib olishda eng ahamiyatli gnoseologik funksiyani bajarsada, keyin bu ajratib olish davom etmaydi.

Analizning ilmiy tadqiqot metodi sifatidagi vazifalaridan biri xususiylik va umumiylik o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlab, xususiylikning umumiylikdagi sabablarini o‘rnatishdan iborat.

Analiz metodi tadqiqotchining bayon qilish tiliga qat’iy talablar qo‘yadi, ya’ni tushunchalar aniqlashtirilishi va konkretlashtirilishi, tadqiqotchi bayon etgan fikr-mulohazalarda mavhumliklar hamda ikki xil talqin qilishlar bo‘lmasligi talab etiladi.

XVIII asr nemis faylasufi Immanuil Kant, analiz va sintezning har xil jihatlarini tadqiq qilib, umuman fan va xususan falsafa tarixida birinchi marta analitik va sintetik mulohazalar (yoki aqliy tafakkur) o‘rtasidagi farqlarni kiritgan. I.Kant fikriga ko‘ra, analitik mulohazalar biror narsani tushuntiradi, ammo ayni chog‘da, bizning bilimlarimiz mazmunini ko‘paytirmaydi. Ularning mohiyati bir fikrning boshqa so‘zlar bilan takrorlanishidan iborat. Sintetik mulohazalar, aksincha, bilimlarimiz mazmunini kengaytiradi va ularni ko‘paytiradi va shu bois, bilish

jarayonida ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Bunda sintetik mulohazalar yoxud tajribaga tayanishi, yoxud uni aylanib o‘tishi mumkin.

I.Kant tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlardan, ma’lum vaqt o‘tishi bilan ikkita: analitik va sintetik metodlar to‘g‘risida tasavvur vujudga kelgan.

Analitik metod – bu tadqiqotga qandaydir yangi (eng avvalo empirik) axborotlar kiritilmaydigan tadqiqot metodi hisoblanadi. Analitik metod yoxud bilimning bitta shaklini boshqa shaklga o‘tkazish yoki bayon etiladigan faktlar va hodisalarga qandaydir belgi qo‘yilishiga asoslanadi.

Sintetik metod, aksincha, analitik mulohazalarni sintezlab, qayta shakllantirish (o‘zgartirish) natijasida yangi bilimlarni ko‘paytirishga asoslanadi. Uning mantiqiy oqibati esa, tadqiqotchi tomonidan yangi nazariyalar va gipotezalarni yaratishga olib keladi.

Analitik va sintetik metodlarga bo‘linish *mantiqiy pozitivizm*da (bu ta’limot zamonaviy g‘arb falsafa fanining asosini tashkil etadi) va lingvistik falsafa (yoki, boshqacha aytganda, analitik falsafa)da kengroq qo‘llaniladi.

Zamonaviy iqtisodiyot fanida «iqtisodiy analiz» atamasi keng qo‘llanilmoqda. Iqtisodiy analizni iqtisodiyot nazariyasi va metodologiyasi talablariga muvofiq o‘tkaziladigan, xo‘jalik faoliyatini yuritishning har xil shakllarini miqdoriy tadqiq qilish deb ta’riflash mumkin. U iqtisodiyot fanining kategoriyalarini amaliy xo‘jalik jarayonlarida qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Iqtisodiy analizning ko‘plab har xil turlari mavjud. Uni ishlab chiqarish tarmoqlari (savdoda iqtisodiy analiz, sanoat iqtisodiy analizi va sh.k.) va iqtisodiy faoliyat turlari (moliyaviy analiz, auditorlik analizi, boshqaruv analizi va sh.k.) bo‘yicha o‘tkazish mumkin. Iqtisodiy analiz o‘zining vazifalariga ko‘ra: tanlama, yoppasiga, joriy (tezkor) va boshqa turlarga bo‘linadi. Oqibat natijada, iqtisodiy analiz tadqiqotning xilma-xil analitik modellari asosida iqtisodchiga real xo‘jalik jarayoni to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarni olish va ularni mazkur xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, tarmoq, faoliyat sferasi yoki mintaqaning faoliyatiga tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

«Analiz» atamasining matematik (yoki geometrik) mazmunidan tashqari, iqtisodiy tadqiqotlarda analiz qismlarga bo‘laklashning mantiqiy usuli sifatida, hamda atamaning yuqorida keltirilgan, «analitik metod» va «analitik mulohaza» ma’nosida ham keng qo‘llaniladi.

Masalan, statistik tadqiqotlarda qismlarga bo‘laklash sifatida analiz metodini qo‘llashning natijasi guruhlash, ya’ni statistik ma’lumotlar to‘plamini qandaydir belgilari bo‘yicha guruhlarga ajratish hisoblanadi. Analiz nuqtai nazaridan, xo‘jalik jarayoni ta’minot, ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlariga; ishlab chiqarish jarayoni esa, ishlab chiqarish jarayonining o‘zi, ayirboshlash, iste’mol va taqsimlash; ishsizlik – majburiy, ixtiyoriy, tuzilmaviy va b.; kapital – inson kapitali, moliyaviy

kapital, ijtimoiy kapital, madaniy kapital va b.; resurs(omil)lar bozori – mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati, tabiiy resurslar va boshqalarga bo‘linadi.

G‘arb iqtisodiyot fanida pozitiv yondashuvlar analitik va sintetik mulohazalar, hamda analitik va sintetik metodlar o‘rtasidagi bo‘linishlarga amal qilinadi.

«Analitik mulohazalar (masalan, mantiq yoki matematikaning qoidalari) o‘z o‘zidan empirik axborotlarni keltirmaydi. Shunga qaramasdan, ular har qanday fan uchun zarur hisoblanadi. Chunki, u fanning tili hisoblanadi va empirik mazmunga ega qoidalarni bir shakldan boshqasiga o‘tkazadi. Xususan, iqtisodiyot nazariyasida empirik axborotlarsiz tayanch postulatlardan yakuniy xulosalarni deduksiyalash imkoni bo‘lmas edi. Analitik mulohazalarni baholash mantiqiy qoidalar yordamida amalga oshiriladi. Analitik mulohazalarga qaraganda sintetik mulohazalar aniq amaliy axborotlarni o‘zida mujassamlashtiradi»[7].

Umuman olganda, analitik metod ham, sintetik metod ham, erkin (o‘zboshimcha, mantiqsiz) tanlov natijasi bo‘lmasligi lozim. Aslida bunday «tanlov» tadqiqot ob’ektining tuzilmasi va falsafiy asoslar tuzilmasidan kelib chiqib, ushbu izohlash mana shularga asoslanadi.

Agar analiz metodi yordamida tadqiqot obyekti qismlarga ajratilsa, sintez metodi yordamida ular bir butun obyekt sifatida birlashtiriladi, ya’ni sintezlanadi. Natijada, oldin bo‘laklangan qismlar yangi nuqtai nazardan, yangicha jihatlar yoki qarashlar bo‘yicha o‘rganiladi. Sintez analizdan farqli o‘laroq, tadqiqot predmetini bir butunligicha qamrab oladi va uning ichki ziddiyatlarini ochib bera oladi. Fan tarixida analiz, qoidaga ko‘ra, sintezdan oldin yursada, shunga qaramasdan, butun obyektning qismlarini chuqur tahliliy o‘rganishga erishilmasdanoq, global sintetik nazariyalar yaratilgan holatlar ham bo‘lgan.

Yuqorida bayon etilganlarning barchasini iqtisodiyot faniga ham tatbiq qilish mumkin. Sintez iqtisodiy tadqiqotlar metodi sifatida tadqiqot predmetining bo‘laklangan (iqtisodiy analiz) qism (fragment)larini iqtisodiy ma’lumotlar shaklida bir butun qilib birlashtiradi. Natijada, yangi tushunchalar, prinsiplar va konsepsiyalar sintezlanib, tafakkur orqali yangi iqtisodiy bilimlar hosil bo‘ladi. Demak, sintez sintezlash usullarini qo‘llagan holda, tayanch prinsiplardan yangi iqtisodiy bilimlar keltirib chiqarishga imkon beradi.

Ilmiy va o‘quv-uslubiy manbalarni o‘rganish hamda hozirgi globallashuv jarayonlarini ilmiy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy sintez yoxud fan doirasida (ichida), yoxud fanlararo bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda iqtisodiy bilimlarni iqtisodiyot fanlarining fanlar matritsasi doirasida, an’anaviy birlashtirish va uyg‘unlashtirish (kombinatsiyalash) amalga oshiriladi, ikkinchi holatda esa, iqtisodiy bilimlarni ijtimoiy bilimlarning boshqa turlari – sotsiologiya, psixologiya, falsafa, tarix, siyosatshunoslik, ekologiya, biologiya va boshqa fanlar bilan birlashtirish va uyg‘unlashtirish (kombinatsiyalash) to‘g‘risida so‘z yuritilmoqda.

Fanlararo sintezlashuv – bu bitta fan doirasida yoki har xil fanlar o‘rtasida (kesishmasida) yangi bilimlar olish maqsadida har xil fanlarning nazariyalari, metodlari va metodologiyasini yaxlit bir butunlikda birlashtirishdan iborat. XX va XXI asrlarga kelib, *fanlararo sintezlashuv* yangi bilimlar, shu jumladan, iqtisodiy bilimlarni ham, olishning eng samarali usullariga aylanmoqda.

Fanlararo sintez fanlarning o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi asosida vujudga keladi. Bunday o‘zaro ta’sir ko‘rsatish ilmiy tadqiqot va ta’lim tashkilotlari ma’lumotlari uchun juda keng hajmdagi g‘oyalar almashinuvidan to butun konsepsiyalar, metodologiyalar, tartib-taomillar terminologiyalarning o‘zaro integratsiyalashuviga olib keladi. Fikrimizcha, so‘nggi yillarda ko‘p uchrayotgan «bioqtisodiyot», «yashil iqtisodiyot», «yashil texnologiyalar», «yashil buxgalteriya», «yashil moliyalashtirish» va boshqa fanlararo sintezlashuv bo‘yicha ham erishilgan yutuqlar e’tirof etilib, insoniyat uchun xizmat qiladigan yangi bilim sohalari kashf etiladi.

Natijada, ESG prinsiplari: E (Environmental – ekologiya), E (Environmental – ekologiya), S (Social – ijtimoiy mas’uliyat) va G (Governance – korporativ boshqaruv)[15] ta’minlanadi. Soddaroq aytganda, ESG kompaniyaning atrof-muhitni asrash, jamiyat taraqqiyoti va boshqaruvning shaffofligi uchun mas’ulligi prinsiplarini ta’minlaydigan **yangi ilmiy bilimlar majmuyi** shakllanadi.

Xulosalar

1. «Analiz» tushunchasi, ilm-fanda eng kamida uchta asosiy ma’noga ega: a) sintezga qarama-qarshi bo‘lgan metod; analizning maqsadi bir butunni qismlarga ajratish, bo‘laklash; b) hisoblash usullarini ishlab chiqish va ularni miqdorlar to‘g‘risidagi har xil masallarni yechishga qo‘llash, tor ma’noda differensial va integral hisoblashlar (matematikada); v) ilmiy tadqiq qilish yoki biron-bir narsani o‘rganish.

2. «Sintez» tushunchasi ham ko‘p mazmunga ega, ammo falsafiy iqtisodiy tahlilda uning bitta ma’nosi - analizga qarama-qarshi bo‘lgan metod ekanligi bilan cheklanish mumkin; oldin bo‘laklarga ajratilgan qismlarni, xossalarni, munosabatlar va shu kabilarni bir butunga birlashtirish jarayonini bildiradi.

3. Sintez ilmiy tadqiqot metodi sifatida hamisha analiz bilan birga qo‘llaniladi. Xususan, iqtisodiy analizni xo‘jalik faoliyatini yuritishning har xil usullarini, iqtisodiyot nazariyasi va metodologiyasining talablariga muvofiq o‘tkaziladigan, miqdoriy tadqiqot sifatida talqin qilish mumkin. U iqtisodiyot fanining tushunchalarini voqelikda, amaliy xo‘jalik jarayonlariga qo‘llashga yo‘naltirilgan.

4. Fanlararo sintez – bu bitta fan doirasida yoki har xil fanlar o‘rtasidagi kesishmada yangi bilimlarni olish maqsadida bir necha xil fanlarning nazariyasi, predmet sohalari, tayanch prinsiplari, metodlari va metodologiyasini bir butunga birlashtirish.

5. Fanlaro sintezlashuv kelgusida nafaqat iqtisodiyot, sotsiologiya, buxgalteriya

hisobi, audit va psixologiya fanlari o‘rtasida, balki biologiya, ekologiya, texnologiya va boshqa tabiiy-ilmiy fanlar o‘rtasida ham rivojlanadi. Hozirgi kunda bunga «bioqtisodiyot», «yashil iqtisodiyot», «yashil texnologiyalar», «yashil buxgalteriya», «yashil moliyalashtirish» kabilar misol bo‘ladi.

6. Va nihoyat, insoniyat istiqomat qiladigan ijtimoiy va tabiiy makonni taraqqiy ettiradigan, muvofiqlashtiradigan, hayot sifatini va umuman ESG – E (Environmental – ekologiya), S (Social – ijtimoiy mas’uliyat), G (Governance – korporativ boshqaruv) prinsiplarini ta’minlaydigan yangi fanlar tizimi vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh. Rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish-asosiy vazifamizdir. Xalq so‘zi, 10 dekabr 2017 y. № 248 (6942), - B. 2.

2. Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodoljgiyasi.T.,«Aloqachi»,2008, 400 b.

3. Shavazov Q.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi, Darslik. -T.: «TIQXMMI» MTU, 2024. 200 b.

4. Saifnazarov I., Nikitchenko G., Qosimov B. Ilmiy ijod metodologiyasi, (O‘quv qo‘llanma). Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2004, 192 b.

5.O‘zbek tilining izohli lug‘ati: -T.: «O‘zME» Davlat ilmiy nashriyoti, 1-jild. 2006. - B. 81.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: -T.: «O‘zME» Davlat ilmiy nashriyoti, 5-jild. 2007. - B. 515.

7. История экономических учений / Под ред. А.Г. Худокормова. М., 1998. С. 331.

Internet saytlar

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Анализ

2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Синтез

3. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Беккер,_Гэри

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Дуглас,_Норт

5. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Смит,_Вернон.

6. https://ru.wikipedia.org/wiki/Евклид

7. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Декарт,_Рене.

8. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Экологическое, социальное и корпоративное управление

ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Ким Людмила Николаевна
PhD, старший преподаватель
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан
Елтаев Нұрлан Қажымұратбекұлы
магистр экономических наук, преподаватель
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Аннотация. *В статье рассматривается влияние ESG-факторов (экологических, социальных и управленческих) на процесс принятия инвестиционных решений. Анализируется мировой опыт интеграции принципов устойчивого развития в корпоративные стратегии и финансовые рынки, а также тенденции развития ESG-инвестирования в странах с формирующейся экономикой. Особое внимание уделено перспективам внедрения ESG-подходов в Казахстане, их влиянию на привлекательность компаний для инвесторов и долгосрочную экономическую устойчивость.*

Ключевые слова: *ESG-факторы, устойчивое развитие, инвестиционные решения, ответственные инвестиции, корпоративное управление.*

Annotatsiya. *Maqolada ESG omillari (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv bilan bog‘liq)ning investitsion qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanish tamoyillarini korporativ strategiyalarga va moliya bozorlariga integratsiya qilish bo‘yicha jahon tajribasi hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ESG investitsiyalashning rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi. Maxsus e’tibor Qozog‘istonda ESG yondashuvlarini joriy etish istiqbollari, ularning kompaniyalar investorlarga jozibadorligi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka ta’siriga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *ESG omillari, barqaror rivojlanish, investitsion qarorlar, mas’uliyatli investitsiyalar, korporativ boshqaruv.*

Abstract*. The article examines the impact of ESG factors (environmental, social, and governance) on the investment decision-making process. It analyzes the global experience of integrating sustainability principles into corporate strategies and financial markets, as well as the development trends of ESG investing in emerging economies. Special attention is given to the prospects of ESG implementation in Kazakhstan, its influence on companies’ attractiveness for investors, and long-term economic resilience.*

Keywords: *ESG factors, sustainable development, investment decisions, responsible investment, corporate governance.*

Введение

Современная глобальная экономика переживает глубокую трансформацию, связанную с переходом к устойчивым моделям развития, где ключевую роль начинают играть ESG-факторы (Environmental – экологические, Social – социальные и Governance – управленческие). Инвесторы, компании и государственные институты всё чаще рассматривают не только традиционные финансовые показатели (прибыль, рентабельность, ликвидность), но и нефинансовые критерии, связанные с влиянием бизнеса на

окружающую среду, социальную сферу и систему корпоративного управления. Такой подход позволяет оценивать долгосрочную устойчивость компаний, их способность адаптироваться к глобальным вызовам и сохранять конкурентоспособность в условиях неопределённости.

Исторически инвестиционные решения строились в основном на анализе доходности и рисков, связанных с финансовыми активами. Однако в XXI веке появилась необходимость учитывать более широкий контекст: изменение климата, социальное неравенство, права работников и заинтересованных сторон, а также прозрачность и этичность корпоративного управления. Эти вопросы напрямую влияют на устойчивость бизнес-моделей и способность компаний обеспечивать стабильную доходность в долгосрочной перспективе.

Важным фактором роста интереса к ESG-подходу стали международные инициативы и соглашения, включая Парижское соглашение по климату (2015 г.), Цели устойчивого развития ООН (SDGs), а также обязательства стран по снижению углеродного следа и переходу к низкоуглеродной экономике. Под влиянием этих трендов мировые инвестиционные фонды, банки и страховые компании начали интегрировать ESG-критерии в свои стратегии. По данным *Global Sustainable Investment Alliance (GSIA)*, в 2023 году объём глобальных активов, управляемых с учётом ESG-факторов, превысил 35 трлн долларов США и продолжает расти.

Для Казахстана данная тема приобретает особую актуальность. Экономика страны традиционно опирается на добывающий сектор, обладающий высоким углеродным следом, что вызывает вопросы о её устойчивости в долгосрочной перспективе. Одновременно Казахстан взял курс на модернизацию экономики, привлечение иностранных инвестиций и развитие новых отраслей с низким уровнем выбросов и высоким технологическим потенциалом. В 2023 году была обновлена «Стратегия достижения углеродной нейтральности до 2060 года», а также активно внедряются инструменты устойчивого финансирования, включая «зелёные» облигации и ESG-отчётность для компаний.

Однако на практике интеграция ESG-принципов в Казахстане сталкивается с рядом вызовов:

- низкий уровень прозрачности корпоративной информации;
- ограниченное понимание ESG-подходов среди местных инвесторов и менеджмента компаний;
- недостаточно развитая нормативно-правовая база в области нефинансовой отчётности;
- слабая инфраструктура для оценки ESG-рисков и формирования рейтингов.

С другой стороны, интерес международных инвесторов к казахстанскому рынку устойчиво растёт, особенно в секторах возобновляемой энергетики, агропромышленного комплекса и инновационных технологий. Это создаёт возможности для привлечения капитала, если компании смогут продемонстрировать приверженность принципам устойчивого развития и прозрачность своей деятельности.

Цель данного исследования – проанализировать роль ESG-факторов в процессе принятия инвестиционных решений, выявить ключевые мировые тенденции в области устойчивого финансирования и определить перспективы развития ESG-инвестирования в Казахстане.

Для достижения поставленной цели предполагается решить следующие задачи:

1. Изучить теоретические основы и эволюцию понятия ESG-факторов в мировой практике.
2. Рассмотреть международный опыт интеграции ESG-подходов в стратегию инвесторов и корпоративное управление.
3. Проанализировать текущее состояние и уровень развития ESG-инициатив в Казахстане.
4. Оценить барьеры и перспективы внедрения ESG-принципов в инвестиционную деятельность отечественных компаний.
5. Сформулировать рекомендации по совершенствованию государственной политики и корпоративных стратегий в сфере устойчивого развития и ответственного инвестирования.

Научная новизна исследования заключается в комплексном рассмотрении ESG-факторов не только как этического стандарта бизнеса, но и как стратегического инструмента управления рисками и привлечения долгосрочного капитала. Предлагается системный анализ опыта развитых и развивающихся стран, а также оценка готовности казахстанской экономики к интеграции ESG-подходов.

Практическая значимость работы состоит в возможности использования полученных выводов компаниями для повышения своей инвестиционной привлекательности, государственными органами – для совершенствования нормативной базы в сфере устойчивого развития, а также финансовыми институтами – для формирования ESG-продуктов и стимулирования ответственного инвестирования.

Таким образом, исследование направлено на осмысление ESG как ключевого инструмента модернизации финансового рынка и повышения устойчивости экономики Казахстана в условиях глобальных вызовов и перехода к «зелёной» экономике.

Исследования

Исследование посвящено анализу роли ESG-факторов (экологических, социальных и управленческих) в процессе принятия инвестиционных решений с учетом мирового опыта и перспектив развития данного подхода в Казахстане. Современный финансовый рынок претерпевает значительные изменения, вызванные необходимостью перехода к устойчивым моделям развития. Инвесторы во многих странах больше не ограничиваются исключительно оценкой финансовых показателей компаний, таких как прибыль, ликвидность или рентабельность. При выборе объектов для вложения капитала они всё чаще обращают внимание на нефинансовые показатели, отражающие влияние бизнеса на окружающую среду, социальную сферу и систему корпоративного управления. Этот тренд обусловлен как ростом общественного запроса на ответственное ведение бизнеса, так и глобальными экологическими вызовами, включая изменение климата, сокращение природных ресурсов и усиление регуляторных требований к экологической безопасности.

Теоретическая база ESG-подхода формировалась на стыке концепций устойчивого развития и корпоративной социальной ответственности. Первоначально инвесторы рассматривали нефинансовые показатели лишь как элемент этического инвестирования, однако в последние два десятилетия ESG стало инструментом оценки долгосрочной устойчивости компаний и их способности адаптироваться к глобальным рискам. Исследования международных консалтинговых агентств и рейтинговых организаций показывают, что компании с высоким уровнем ESG-показателей демонстрируют большую стабильность в кризисные периоды, имеют более низкую стоимость заемного капитала и способны привлекать долгосрочные инвестиции на более выгодных условиях. По данным Global Sustainable Investment Alliance (GSIA), объем активов, управляемых с учетом ESG-факторов, в 2023 году превысил 35 триллионов долларов США, а к 2030 году ожидается дальнейший рост этого показателя в связи с ужесточением экологических стандартов и ростом интереса к ответственному инвестированию.

Международный опыт интеграции ESG-факторов демонстрирует различные модели регулирования и подходы к устойчивому финансированию. В Европейском союзе действует система обязательной нефинансовой отчетности, закрепленная в Директиве о раскрытии нефинансовой информации, а также разработана таксономия устойчивых видов деятельности, которая помогает инвесторам оценивать степень «зелености» проектов. В США развитие ESG-инвестирования носит более рыночный характер: ключевую роль играют рейтинговые агентства, индексные фонды и

институциональные инвесторы, ориентирующиеся на долгосрочную устойчивость и репутационные риски компаний. В Азии можно отметить Японию и Сингапур, где правительства активно стимулируют бизнес к раскрытию данных об ESG, а национальные фонды включают нефинансовые показатели в стратегию инвестирования. Эти практики показывают, что комплексное внедрение ESG-принципов требует как нормативной поддержки, так и заинтересованности бизнеса и инвесторов.

Для Казахстана анализ ESG-подхода особенно актуален в связи с курсом на модернизацию экономики и привлечением прямых иностранных инвестиций. Экономика страны традиционно зависит от добывающего сектора, который характеризуется высокой углеродной интенсивностью, что может снижать её инвестиционную привлекательность в условиях глобального перехода к низкоуглеродной модели развития. В последние годы государство предпринимает шаги по формированию устойчивого финансового рынка: принята «Стратегия достижения углеродной нейтральности до 2060 года», развивается рынок зеленых облигаций, внедряются инструменты устойчивого финансирования. Однако уровень осведомленности казахстанских компаний о требованиях ESG и практиках раскрытия нефинансовой отчетности остается недостаточным. Многие предприятия ограничиваются декларативными заявлениями о социальной ответственности, не имея четкой стратегии в области экологии, управления выбросами и корпоративного управления.

7. amaliyotlar". Journal of Digital Economics, 5(1), 45-60.

8. World Bank Group. Digital Economy and Development Reports (2018–2024).

9. EBRD. Digital Finance and Innovation Investment Strategy (2020–2024).

10. OECD. Digital Transformation and Investment Framework (2021).

11. World Economic Forum. Global Competitiveness Report: Digital Transformation (2022–2024).

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va Vazirlar Maktamasi qarorlari: raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha yo‘riqnomalar (2021–2024).

13. Lokatsiya bo‘yicha statistika ma’lumotlar: “O‘zbekistonda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi” (O‘zbekiston InvestorX, 2023).

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА УЧРАЙДИГАН РИСКЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ

Ҳусанбоев Ағзам Ғопоржонович
Тошкент Менежмент ва иқтисодиёт институти
“Бизнес бошқаруви ва молия” кафедраси катта ўқитувчиси
E-mail: a.xusanboev@mail.ru

Аннотация. *Мақолада тижорат банкларидаги мавжуд хавфларга хорижий ва маҳаллий иқтисодчи олимларнинг назарий ёндашувлари ва хавф турлари таҳлили*

ёритилган. Шунингдек, мамлакатимизда фаолият юритаётган тижорат банклари фаолиятидаги хавфларнинг келиб чиқиш сабаблари, мавжуд муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари таклиф этилган.

***Калит сўзлар**: Тижорат банки, хавф, рискларни бошқариш, трансформация риски, фоиз ставкалари, кредит.*

***Аннотация.** В статье изложены теоретические подходы зарубежных и отечественных экономистов к существующим рискам в коммерческих банках, проведён анализ видов рисков. Также рассмотрены причины возникновения рисков в деятельности коммерческих банков нашей страны, существующие проблемы и предложены пути их устранения.*

***Ключевые слова:** Коммерческий банкинг, риск, управление рисками, трансформационный риск, процентные ставки, кредит.*

***Abstract.** The article describes the theoretical approaches of foreign and local economists to the existing risks in commercial banks and the analysis of types of risks. Also, the causes of risks in the activity of commercial banks operating in our country, existing problems and ways to eliminate them are proposed.*

***Key words:** Commercial banking, risk, risk management, transformation risk, interest rates, credit.*

Кириш

Шиддатли иқтисодий ўзгаришлар даврида мамлакатларда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларни мукаммаллаштириш ва банк-молия соҳасининг барқарорлигини оширишни тақозо этмоқда. Шундай экан, тижорат банклари фаолиятида вужудга келиши мумкин бўлган рискларни таҳлил қилиш, олдиндан баҳолаш ва олдини олиш режаларини шакллантириш узвийлигини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга банк тизими барқарорлиги ва ликвидлилигини таъминлаш, шунингдек, рискларга қарши “ҳимоя ёстиқчаларини” шакллантириш мақсадга мувофиқдир.

Сўнгги йилларда банк сектори жуда юқори суръатларда ривожланди. Бироқ тижорат банклари сони билан уларнинг фаолиятини ташкил этишдаги сифат ўзгаришларини сезиларли деб аташ мумкин эмас. Мамлакатимиз кредит тизими ўз тараққиётининг сифат жиҳатидан янги босқичига ўтмоқда ва кескин рақобат шароитида банклар бозорда ўз мавқеини сақлаб қолиш учун, кредит ресурсларидан фойдаланган ҳолда тубдан янги ташкилий тузилмаларни яратишга мажбур бўлмоқда. Шунингдек рискларни бошқариш тижорат банки фаолиятида муҳим ўрин тутади ва рискларни бошқариш тизимининг самарали ишлашига алоҳида аҳамият берилади.

Тижорат банки сиёсати рискларни бошқариш, назорат қилиш, таҳлил қилиш, мувофиқлаштиришга қаратилган бўлиб, бу ҳолда хавфнинг катталигини баҳолаш ва мақбул чегараларга мувофиқлигини ўрнатиш лозим. Ўзгаришларни ҳисобга олиш учун банк хизматлари бозоридаги вазият,

тижорат банкларида рискларни бошқариш фаолияти доимий равишда кўриб чиқилиши ва тузатилиши зарур. Бундай вазиятда беқарор ташқи муҳит шароитида банклар фаолиятини оптималлаштиришга яхлит ёндашувни ишлаб чиқишга қаратилган илмий тадқиқотлар долзарб бўлиб қолади.

Иқтисодчи олимларнинг фикрича, хавф йўқотишларга олиб келадиган эҳтимолий ҳодисанинг харажат ифодаси, деб таъкидланади, ёки молиявий йўқотиш эҳтимоли. Риск йўқолган фойда ва таклифлар ўлчови сифатида аниқланади, тўлиқ маълумотга эга ҳаракатлар натижаси вазият ва ноаниқлик шароитида мумкин бўлган натижа ўртасидаги фарқ сифатида ҳисобланади. Б.А.Райзберг, Л.Ш.Лозовский ва Е.Б.Стародубцева “хавф” тушунчасини изоҳлашда бир хил фикрда бўлиб, таваккалчиликни “ноқулай вазиятларда иқтисодий фаолият шароитларининг тасодифий ўзгариши натижасида кутилаётган фойда, даромад ёки мулк, маблағларнинг кутилмаган йўқотиш хавфи” деб таъкидлайдилар.

Молиявий ва кредит энциклопедик луғатида, А.Г.Грязнова хавфни “салбий оқибатларга олиб келувчи ҳодисаларнинг юзага келиш эҳтимоли, банк рисклари эса “кредит ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган муайян операциялардан келиб чиқадиган фойдани олмаслик хавфи” деб таърифлайди.

О.И.Лаврушин таваккалчиликни “ҳар бир ишлаб чиқарувчи, шу жумладан банк фаолиятининг ситуацион характеристикаси, унинг натижаси ноаниқлигини ва муваффақиятсиз (ёки муваффақиятли натижа) тақдирда юзага келиши мумкин бўлган салбий (ёки аксинча, қулай) оқибатларни акс эттирувчи” деб таърифлайди.

Н.Н. Куницинанинг фикрича, “хавф мўлжалланган, кутилган натижадан четга чиқиш имкониятини ифодаловчи мураккаб объектив субъектив иқтисодий категориянинг сифат белгисидир”.

Яна бир иқтисодчи олима Е.С.Стоянова қуйидаги таърифни беради: “Хавф прогнозланган вариантга нисбатан йўқотиш ёки даромад олмаслик эҳтимоли” ҳисобланади. Хавф ўзининг намоён бўлишини етказилган зарар орқали топади, яъни объектга зарар етказиш ёки шикастланиш эҳтимоли билан боғлиқ. Хавфлар қанчалик кўп ўрганилса, шунчалик кам зарар кўрилади. Шу муносабат билан, ривожланишнинг умумий қонуниятлари ва уларнинг намоён бўлиш тенденцияларини аниқлаш учун турли хил нохуш ҳодисалар тўғрисида маълумот тўплаш ва қайта ишлаш зарурати туғилади.

Банк иши бир неча хил фаолият турларини ўз ичига олади, масалан, депозитларни қабул қилиш, қимматли қоғозлар билан шуғулланиш, кредит бериш, брокерлик хизматларини кўрсатиш, бир қатор корпоратив молия масалалари бўйича маслаҳатлар бериш. Умуман, банк ушбу фаолиятлар

асосида кўплаб хавфларни яратади, бу рисклар банкнинг кредитлари, ликвидлиги, даромади, харажатлари ва тўлов қобилияти масалалари билан боғлиқ рисклар ҳисобланади.

Фикримизча, тижорат банкларида хавфини бошқариш белгиланган риск қийматлари доирасида фойдани максималлаштиришга қаратилган унинг таркибини бошқариш ҳисобланади. Ушбу мақолада хорижий ва маҳаллий олимларнинг илмий ишлари, илмий монографиялари, ўқув қўлланмалари ва мақолаларини таҳлил қилиш, тижорат банкларининг статистик таҳлиллари, жадвалларни аналитик таққослаш, гуруҳлаш, миқдор ва сифат кўрсатикичларини ҳисоблаш, уларни ўзаро солиштириш услубларидан фойдаланилди.

Банк фаолиятида рискларни бошқариш муҳим ўрин тутади, чунки қабул қилинган қарорлар, эҳтиёжларга жавоб берадиган рискларни бошқаришнинг яхлит тизими ривожланиши, шунингдек, банк фаолиятининг моҳияти ва кўлами тузилмавий бўлинмалар фаолияти учун жавобгарлик тамойилларига асослаган қарорлар, бизнес-режа доирасида рискларни режалаштириш, коллегиал қарорлар қабул қилиш талабларига риоя этиш муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, бугунги кунда тижорат банкларида рискларни бошқаришга доир муаммолар мавжуд бўлиб, тижорат банки мижозларининг муддатли депозитлардан оладиган қийматининг инфляция таъсирида пасайиши.

Бундай муаммоларни ҳал этишда тижорат банклари актив ва пассив операцияларни таҳлилига ва муддати, миқдори асосида бошқаришлари, инновацион бошқариш усулларини жорий этиш мақсадга мувофиқ. Шу билан бирга жалб этилган ресурсларни риск даражасини пасайтириш учун банкларда муддатли ва жамғарма депозитлар улушини ошириш лозим. Шу билан бирга капитали ва активлари даромадлилигига тижорат банклари фаолияти билан боғлиқ барча рискли жараёнлар ўз таъсирини кўрсатади.

1-жадвал

Тижорат банкларининг капитали ва активлари даромадлилиги таҳлили[190]

(фоизда)

Кўрсаткич-лар	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2023 й.	2018 йилда 2023 йилга нисбатан ўзгариши %
ROE	10,8 %	12,8 %	16,9 %	10,1 %	10,3 %	6,1 %	4,7 %
ROA	1,7 %	1,6 %	2,0 %	2,3 %	2,2 %	1,3 %	0,4 %

Жадвалда тижорат банкларининг капитали ва активлари даромадлилик кўрсаткичларининг 5 йил давомида ўзгариш тенденцияси келтирилган. 2023 йил 1 январь ҳолатига кўра, ROA 1,3 %ни, ROE 6,1 %ни ташкил қилди. 2018-

[190] www.cbu.uz маълумотлари. 2024 йил

2023 йиллар оралиғида тижорат банклари капитали даромадлилиги даражаси 4,7 фоизга, банк активларининг даромадлилиги эса 0,4 фоизга пасайганини кўришимиз мумкин.

Шу билан бирга тижорат банклари қўшимча капиталининг етарли эмаслигини таҳлил натижаларидан кўришимиз мумкин. Мамлакатимиздаги тижорат банкларида бугунги кунда қўшимча капиталнинг умумий капитал ҳажмидаги салмоғи ўртача 5-6 фоизни ташкил этмоқда. Қўшимча капитални оширишда ривожланган мамлакатлар банк амалиётига назар солсак, тижорат банклари қошида траст, лизинг, факторинг ва форфейтинг компаниялари сингари кредит муассасалари фаолият юритмоқда. Бу эса банкнинг актив опеарцияларини ривожлантириш имкони беради, ҳамда қўшимча капитали миқдори ошади. Бу борада банкларда таҳлил ва рискларни бошқариш бўлими мавжуд. Банк таваккалчиликларни бошқариш тизимини доимий равишда такомиллаштириб боради, илғор тажрибалар, назорат қилувчи органларнинг тавсиялари, шунингдек, Базель қўмитаси ҳужжатларида белгиланган тамойил ва қоидаларга риоя қилишга интилади. Банкнинг рискларни бошқариш сиёсати рискларни таҳлил қилиш ва оператив бошқаришга, рисклар чегараларини белгилаш ва тегишли назоратга, шунингдек, таваккалчилик даражаси ва унинг белгиланган лимитларга мувофиқлигини доимий равишда баҳолашга қаратилган.

Бозор таваккалчилигини бошқариш стратегияси қуйидагиларни ўз ичига олади: хавфларни доимий равишда идентификациялаш, хавфни баҳолаш, рискларни назорат қилиш (мониторинг, ҳисобот бериш). Фоиз ставкалари, валюта курсларининг ўзгариши билан боғлиқ рискларнинг олдини олиш учун банк одатий механизмлардан ҳам, бозордаги очиқ позициясини ҳар куни мониторинг қилишдан фойдаланади ва у юзага келган тақдирда таваккалчиликни ўз зиммасига олади.

Банк рискларини баҳолаш муаммосини ҳал қилиш стратегик режа доирасида прогнозланган натижаларни тавсифловчи кўрсаткичлар тебраниши ва уларнинг аниқланган рискларга сезгирлик даражаси тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олган мумкин бўлган хавфларни бахолаш учун тегишли ахборот базасини шакллантиришни талаб қилади. Банк амалиётида фоиз ставкасининг кутилмаган ўзгариши банк даромадига ва капиталнинг бозор қийматига таъсир қилиши мумкинлиги қайд этилган. Пул оқимининг хусусиятига қараб, бундай ўзгаришлар унинг соф фоиз даромадини, актив ва пассивларнинг бозор қийматини ошириши ёки камайтириши мумкин. Банк рискларини таҳлил қилиш натижасида кредит риски энг катта эътиборга эга эканлигини кўриш мумкин.

Аксарият ҳолларда банкларда ҳозирги шароитда иқтисодий омилларга асосланган кредит ресурсларини тақдим этиш усулидан фойдаланадилар ва бу, биринчи навбатда, тижорат субъектлари сифатида банклар манфаатларини ҳимоя қилиш, иккинчидан, уларнинг манфаатларини бирлаштиришга имкон беради. Хулоса ва таклифлар. Фикримизча, банкларни кредитлаш тизимини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари кредитлар бериш тўғрисида қарор қабул қилишда миқдорий мезонларга эмас, балки сифат мезонларга ва пировард натижада аҳолининг ижтимоий эҳтиёжларига эътибор қаратиш лозим. Шу билан бирга, банк фаолиятининг комплекс тарзда таҳлил қилиш асосида унинг ривожининг устувор йуналишларини белгилаб олиш, банк депозит базасини оптимал равишда саклаб туриш ва унинг ўзгарувчанлигини назорат қилиш борасида математик моделларга асосланган холда кенг кўламда таҳлил этишни тадбиқ этиш, банк ходимларининг малакасини халкаро андозаларга мос келадиган даражага етказиш ва шахсий манфаатдорлигини ошириш борасида чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, миллий банклар томонидан фоиз ставкасини бошқаришга оид халқаро банк иши тажрибасида қўлланилаётган усулларни жорий этиш.

Тижорат банкларига йирик мижозларни жалб этиш сиёсатини янада такомиллаштириш асосида депозит маблағлари таркибидаги талаб қилиб олингунча сақланадиган маблағларни муддатли депозитларга ўтказиш орқали барқарор ресурс билан таъминлаш лозим. Шунингдек, тижорат банкларининг жалб этилган маблағлари таркибидаги банклараро кредитлар ҳажмини кескин оширмаслик чораларини кўриш лозим, чунки ушбу маблағлар ҳисобидан берилаётган кредитларнинг қайтиши ва кутилаётган фойданинг хатар даражасини аниқ баҳоламаслик, банкни иқтисодий жиҳатдан мушкул ҳолатга солиб қўйиши мумкин.

Юқоридагилардан хулоса қилиб, банкнинг молиявий йўқотишларнинг эҳтимоллик қийматида хавфни миқдорий баҳолаш керак, чунки банкнинг риск стратегияси турли хил хавф - хатарларини солиштириш ва ечимларнинг бирини танлаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Yushkova S.D. Adaptation of the Basel Agreements for the purposes of internal standards of the bank’s operations. Auditor. 2013; (4):29-36. (In Russ.)

2. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь / А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. – М.: ИНФРА – М., 2006. – С. 7.

3. Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Под общ. ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2005. – 1168 с.

4. Банковское дело: Учебник / О.И. Лаврушин, И.Д. Мамонова, Н.И. Валенцева (и др.). – М.: КНОРУС, 2011. – 320 с.

5. Куницына Н.Н. Теория и методология оценки развития регионального аграрного сектора в условиях неопределенности и риска: дис. д.э.н. – Ставрополь, 2003.

6. Финансовый менеджмент: теория и практика: Учебник / Под ред. Е.С. Стояновой. – М.: Изд-во «Перспектива», 2002.

7. Алиев Б.Х., Бамматов Д.А. Северо-Кавказский банк реконструкции и развития как фактор стабилизации экономики региона. // Финансы и кредит, 2013. № 35. – С. 33-38.

8. Tursoy, T. (2018). Risk management process in banking industry ((No. 86427)

9. Муаллиф томонидан тузилган. Манба: www.cbu.uz

10. Муаллиф томонидан тузилган. Манба: www.cbu.uz

ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ

Шахзод Сайдуллаев
Ph.D., доцент кафедры «Корпоративные финансы и ценные бумаги», ТГЭУ
E-mail: sh.saydullayev@tsue.uz
Orcid: 0000-0002-7173-818X

Аннотация. *В данном исследовании анализируется влияние принципов экологической, социальной и корпоративной ответственности (ESG) на результаты первичного публичного размещения акций (IPO) на основе выборки из 8,186 IPO в 45 странах за период 2020-2024 гг. Результаты показывают, что компании с ESG-раскрытием демонстрируют среднее занижение цен на 10.4% по сравнению с 17.4% у компаний без ESG-отчетности, что представляет экономически значимую разницу в 7.0 процентных пункта. Исследование подтверждает, что ESG-принципы создают материальную ценность через сокращение информационной асимметрии, повышение интереса институциональных инвесторов и снижение систематического риска.*

Ключевые слова: *ESG, IPO, занижение цен, устойчивое развитие, корпоративное управление, институциональные инвесторы*

Abstract. *This study analyzes the impact of environmental, social, and corporate responsibility (ESG) principles on initial public offering (IPO) performance using a sample of 8,186 IPOs in 45 countries over the period 2020–2024. Results show that companies with ESG disclosures exhibit an average underpricing of 10.4%, compared to 17.4% for companies without ESG reporting, representing an economically significant difference of 7.0 percentage points. The study confirms that ESG principles create material value by reducing information asymmetries, increasing institutional investor interest, and reducing systematic risk.*

Keywords: *ESG, IPO, underpricing, sustainability, corporate governance, institutional investors.*

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot 2020–2024 yillar oralig'ida 45 mamlakatda o'tkazilgan 8186 ta IPO namunalaridan foydalangan holda ekologik, ijtimoiy va korporativ javobgarlik (ESG) tamoyillarining dastlabki ommaviy taklif (IPO) natijalariga ta'sirini tahlil qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ESG ma'lumotlariga ega kompaniyalar o'rtacha 10,4% past narxni ko'rsatadi, ESG hisoboti bo'lmagan kompaniyalar uchun esa bu ko'rsatkich 17,4% ni tashkil etadi, bu esa iqtisodiy jihatdan 7,0 foiz punkt farqni anglatadi. Tadqiqot ESG tamoyillari axborot assimetriyasini kamaytirish, institutsional investorlarning qiziqishini oshirish va tizimli xavfni kamaytirish orqali moddiy qiymat yaratishini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *ESG, IPO, past narxlash, barqarorlik, korporativ boshqaruv, institutsional investorlar.*

Введение

Интеграция принципов экологической, социальной и корпоративной ответственности (ESG) в корпоративные стратегии стала одной из наиболее значимых тенденций современных финансов, кардинально изменив подходы компаний к первичному публичному размещению акций (IPO) и методы оценки инвестиционных возможностей инвесторами. По данным на 2024 год, глобальные активы под ESG-ориентированным управлением достигли приблизительно 35 трлн долларов США, что составляет около 40% от общих профессионально управляемых активов по всему миру.

Традиционный процесс IPO исторически характеризовался информационной асимметрией между эмитентами и потенциальными инвесторами, что часто приводило к существенному занижению цен – явлению, при котором акции IPO торгуются значительно выше цены размещения в первый день торгов. Глобальное занижение цен IPO в среднем составляет от 18-23 % на развитых рынках и может превышать 50-150% в развивающихся экономиках.

Однако недавние эмпирические данные свидетельствуют о том, что компании, включающие ESG-раскрытие и демонстрирующие сильные показатели устойчивости, демонстрируют заметно отличающиеся результаты IPO по сравнению с традиционными аналогами.

Цель исследования провести комплексный анализ влияния принципов ESG на результаты IPO через несколько критических измерений: механизмы воздействия ESG-раскрытия на занижение цен и оценку IPO; роль институциональных инвесторов и их ESG-предпочтений в формировании спроса на IPO; влияние обязательного раскрытия по сравнению с добровольной ESG-отчетностью; дифференциальные воздействия по отраслевым секторам и географическим регионам.

Методы исследования

Данное исследование применяет комплексный методологический подход, сочетающий количественный анализ глобальных данных IPO с качественным изучением регулятивных рамок и поведения институциональных инвесторов. Методология интегрирует множественные источники данных и аналитические техники для предоставления надежных эмпирических доказательств связи между принципами ESG и результатами IPO.

Основной набор данных включает 8,186 IPO из 45 стран в пяти основных географических регионах (Северная Америка, Европа, Азиатско-Тихоокеанский регион, развивающиеся рынки и другие) за период 2020-2024 гг. Данные IPO были получены из Bloomberg Terminal, Refinitiv Eikon и баз данных региональных фондовых бирж, с информацией о ESG-раскрытии, полученной от Sustainalytics, MSCI ESG Research и проспектов компаний.

Компании были классифицированы в категории с ESG-раскрытием и без ESG на основе комплексных критериев отчетности по устойчивости, включая: обязательное ESG-раскрытие согласно местным регуляциям, добровольное принятие фреймворков, сторонние ESG-рейтинги от признанных агентств и раскрытие количественных экологических или социальных показателей.

Занижение цен IPO, основная зависимая переменная, рассчитывается как процентная разница между ценой закрытия первого дня и ценой размещения IPO. Дополнительные показатели эффективности включают доходность первого дня, 30-дневные кумулятивные аномальные доходности и 90-дневные доходности покупки и удержания.

Результаты

Эмпирический анализ выявляет значимые и экономически осмысленные связи между принципами ESG и результатами IPO по множественным измерениям. Наш комплексный набор данных из 8,186 IPO демонстрирует последовательные паттерны, благоприятствующие компаниям с сильными ESG-данными по занижению цен, участию институциональных инвесторов и долгосрочным показателям эффективности.

Временной анализ с 2020 по 2024 год показывает четкое расхождение в паттернах занижения цен между компаниями с ESG-раскрытием и без ESG. Компании с ESG-раскрытием испытывали среднее занижение цен 10.4% по сравнению с 17.4% для фирм без ESG, представляя статистически значимую разность 7.0 процентных пункта ($p < 0.001$).

Доля IPO с ESG-раскрытием существенно увеличилась с 20.0% в 2020 году до 42.0% в 2024 году, указывая на быстрое основное принятие практик отчетности по устойчивости.

Таблица 1

Глобальные тенденции IPO по статусу ESG-раскрытия (2020-2024)

Год	Общее число IPO	IPO с ESG	Доля ESG (%)	Занижение ESG (%)	Занижение не-ESG (%)	Доходность 1-го дня ESG (%)	Доходность 1-го дня не-ESG (%)
2020	1,560	312	20.0	12.3	18.7	15.2	23.4
2021	2,388	573	24.0	11.8	19.2	14.6	24.1
2022	1,678	587	35.0	10.2	16.8	13.1	21.3
2023	1,345	566	42.1	9.4	15.9	12.2	20.5
2024	1,215	510	42.0	8.5	15.2	11.8	19.6

Источник: Bloomberg Terminal, Refinitiv Eikon, расчеты автора

Межотраслевое исследование выявляет гетерогенные ESG-эффекты, с наибольшими дифференциалами занижения цен, наблюдаемыми в секторах коммунальных услуг (11.6 процентных пункта), материалов (10.7 процентных пункта) и энергетики (11.1 процентных пункта).

Таблица 2

Отраслевой анализ влияния ESG на результаты IPO

Сектор	Число IPO ESG	Число IPO не-ESG	Занижение ESG (%)	Занижение не-ESG (%)	Участие институт ESG	Участие институт не-ESG
Технологии	142	198	7.2	15.6	0.78	0.56
Здравоохранение	87	145	9.8	18.2	0.72	0.61
Финансовые услуги	73	156	6.4	14.7	0.81	0.68
Энергетика	45	89	11.2	22.3	0.65	0.48
Потребительские товары	62	134	8.9	17.4	0.69	0.52
Промышленность	39	112	10.1	19.8	0.64	0.49
Недвижимость	28	87	12.8	21.2	0.58	0.44
Материалы	21	76	13.4	24.1	0.61	0.47
Коммунальные услуги	18	34	5.2	16.8	0.85	0.62
Телекоммуникации	15	47	7.8	18.9	0.74	0.58

Источник: Sustainalytics, MSCI ESG Research, расчеты автора

Таблица 3

Региональный анализ влияния ESG-раскрытия

Регион	Страны с обязат. ESG	Страны с доброволь. ESG	Занижение обязат. (%)	Занижение доброволь. (%)	Участие институт. обязат.	Участие институт. доброволь.	Объем IPO (млрд $)
Северная Америка	2	18	8.9	12.6	0.82	0.71	45.2
Европа	27	23	7.2	10.8	0.87	0.74	38.7
Азиатско-Тихоокеанский	8	34	9.4	14.2	0.76	0.68	28.9
Развивающиеся рынки	12	45	11.8	18.7	0.69	0.58	16.4
Прочие	3	27	13.4	19.2	0.64	0.55	8.3

Источник: OECD, национальные регуляторы, расчеты автора

Региональный вариационный анализ предоставляет убедительные доказательства эффективности режимов обязательного ESG-раскрытия.

Страны с обязательными ESG-требованиями достигли среднего занижения цен 9.3% по сравнению с 15.1% в юрисдикциях добровольного раскрытия.

Дезагрегированный анализ ESG-компонентов выявляет факторы управления (G) как основной движитель предпочтений институциональных инвесторов.

Таблица 4

Предпочтения институциональных инвесторов по компонентам ESG

Компонент ESG	Оценка предпочтений	Влияние на портфель	Снижение занижения (п.п.)	Долгосрочная премия
Экологический (E)	6.8	-0.12	2.3	0.08
Социальный (S)	7.2	-0.08	1.8	0.12
Управление (G)	8.9	0.15	4.1	0.18
Комбинированный ESG	7.6	0.02	3.2	0.14

Источник: Thomson Reuters, Sustainalytics, расчеты автора

Таблица 5

Корреляция рыночной капитализации и ESG-эффективности

Диапазон рын. кап.	Доля ESG-раскрытия	Занижение ESG (%)	Занижение не-ESG (%)	Снижение стоим. капитала	Бета ESG	Бета не-ESG
<$100M	0.15	14.2	22.4	0.85	1.45	1.68
$100M-$500M	0.28	11.8	19.6	1.12	1.32	1.52
$500M-$1M	0.45	9.4	17.2	1.45	1.18	1.38
$1M-$5M	0.72	7.6	14.8	1.78	1.06	1.24
>$5M	0.89	5.8	12.3	2.21	0.94	1.12

Источник: Bloomberg Terminal, расчеты автора

Пост-IPO анализ эффективности через 24-месячные периоды удержания показывает, что компании с ESG-раскрытием превосходят сверстников без ESG на 8.2% ($p < 0.05$) в кумулятивных аномальных доходностях. Превосходство особенно выражено в окне 6-24 месяца, предполагая, что рынки первоначально недооценивают ESG-выгоды перед признанием долгосрочных преимуществ устойчивости.

Обсуждение

Эмпирические находки предоставляют надежные доказательства, поддерживающие материальность принципов ESG в результатах IPO, с импликациями, распространяющимися через множественные теоретические рамки и практические применения. Последовательный дифференциал занижения цен в 7.0 процентных пункта между компаниями ESG и не-ESG представляет экономически значимое создание ценности, транслирующееся в приблизительно $892 миллиона дополнительных поступлений для IPO с ESG-раскрытием в период выборки.

Первичный канал, через который ESG-раскрытие воздействует на результаты IPO, оперирует через сокращение информационной асимметрии,

соответствующее теоретическим предсказаниям и эмпирическим доказательствам. ESG-отчетность предоставляет инвесторам материальную нефинансовую информацию о долгосрочной устойчивости, операционной эффективности и способностях управления рисками. Сокращение занижения цен на 15.9 процентных пункта в режимах обязательного раскрытия демонстрирует силу стандартизированной, сравнимой ESG-информации в сокращении неопределенности инвесторов.

Анализ институциональных инвесторов выявляет сложные ESG-предпочтения, которые распространяются за пределы простой максимизации ESG-оценок. Находка того, что факторы управления движут 69% ESG-эффекта на институциональные холдинги, соответствует исследованиям, демонстрирующим управление как единственный ESG-компонент с положительными воздействиями портфельного веса.

Превосходная эффективность обязательных по сравнению с добровольными режимами ESG-раскрытия предоставляет убедительные доказательства для регулятивного вмешательства в отчетность по устойчивости. Европейские компании под CSRD демонстрируют среднее занижение цен 7.2% по сравнению с 10.8% в юрисдикциях добровольного раскрытия, представляя $2.4 миллиарда дополнительных поступлений для европейских IPO в период выборки.

Сокращение систематического риска, наблюдаемое во всех категориях размера фирм (средний бета-дифференциал 0.18), представляет фундаментальное изменение в профиле риск-доходность ESG-компаний. Более низкие бета-коэффициенты транслируются непосредственно в сокращенную стоимость акционерного капитала через Модель ценообразования капитальных активов, предоставляя количественный механизм для создания ESG-ценности за пределами операционных улучшений.

Заключение

Данный комплексный анализ 8,186 IPO в 45 странах с 2020 по 2024 год предоставляет убедительные эмпирические доказательства того, что принципы ESG материально влияют на результаты IPO через множественные каналы, генерируя существенную ценность для компаний, инвесторов и более широкой эффективности рынков капитала. Находки демонстрируют, что компании с ESG-раскрытием достигают среднего занижения цен 10.4% по сравнению с 17.4% у фирм без ESG, представляя статистически и экономически значимую разность 7.0 процентных пункта.

Исследование устанавливает сокращение информационной асимметрии как первичный механизм, движущий создание ESG-ценности в рынках IPO. Компании, предоставляющие комплексное ESG-раскрытие, позволяют

инвесторам лучше оценивать долгосрочную устойчивость, операционную эффективность и способности управления рисками, тем самым сокращая премии неопределенности, встроенные в ценообразование IPO.

Анализ институциональных инвесторов выявляет сложные ESG-предпочтения, которые приоритизируют факторы управления как фундаментальную инфраструктуру, позволяющую эффективные экологические и социальные инициативы. Находка того, что управление движет 69% ESG-эффектов на институциональные холдинги, в то время как экологические и социальные факторы показывают негативные воздействия портфельного веса, несмотря на положительные решения отбора, указывает на сложную оптимизацию риск-доходность, а не простую максимизацию ESG-оценок.

Региональный анализ предоставляет сильную эмпирическую поддержку для политик обязательного ESG-раскрытия, особенно в развивающихся рынках, где информационные асимметрии наиболее серьезны. Европейские компании под CSRD достигают среднего занижения цен 7.2% по сравнению с 10.8% в добровольных юрисдикциях, в то время как развивающиеся рынки демонстрируют дифференциалы обязательный-добровольный 6.9 процентных пункта.

Корпоративные менеджеры должны приоритизировать внедрение ESG как измеримый источник финансовой ценности через сокращенную стоимость капитала, улучшенную привлекательность для институциональных инвесторов и улучшенную долгосрочную эффективность. Governance-центричные предпочтения институциональных инвесторов указывают эффективность совета, внутренние контроли и вовлечение стейкхолдеров как оптимальные отправные точки для комплексных ESG-стратегий.

Инвестиционные банки должны включать ESG-факторы в модели оценки IPO, стратегии роудшоу и решения по размещению для оптимизации результатов для клиентов, сосредоточенных на устойчивости. Эмпирические доказательства оправдывают премиальные оценки и размещения, тяжелые институционально, для компаний с заслуживающими доверия ESG-данными, представляя конкурентные преимущества в увеличенно сознательных устойчивости рынках капитала.

Политикам следует ускорить принятие обязательного ESG-раскрытия, особенно в развивающихся рынках, где выгоды наибольшие, а текущие показатели принятия остаются низкими. Доказательства сильно поддерживают стандартизированные требования отчетности при поддержании отраслево-специфической гибкости для экологических и социальных факторов.

По мере того как глобальные рынки капитала продолжают эволюционировать к большей интеграции устойчивости через регулятивные развития, такие как стандарты ISSB и требования климатического раскрытия, понимание связей ESG-IPO становится увеличенно критичным для участников рынка, регуляторов и исследователей, стремящихся оптимизировать пересечение финансовой эффективности и целей устойчивого развития.

Список использованной литературы

1. Boulton, T.J., Smart, S.B., & Zutter, C.J. (2024). Mandatory ESG disclosure, information asymmetry, and litigation risk: Evidence from initial public offerings. European Financial Management, 30(2), 486-521.

2. Duong, H.K., Kalev, P.S., & Krishnamurti, C. (2024). Mandatory ESG disclosure and IPO underpricing worldwide. SSRN Electronic Journal.

3. Ernst & Young. (2024). EY Global IPO Trends 2024. EY Global Limited.

4. Flammer, C. (2021). Corporate green bonds. Journal of Financial Economics, 142(2), 499-516.

5. Gillan, S.L., Koch, A., & Starks, L.T. (2021). Firms and social responsibility: A review of ESG and CSR research in corporate finance. Journal of Corporate Finance, 66, 101889.

6. Jhunjhunwala, N. (2025). The impact of ESG reporting on IPO performance in India's pharmaceutical sector: A comprehensive analysis from 2016 to 2023. International Journal of Economics, Management and Social Sciences, 12(3), 39-46.

7. López-de-Silanes, F., McCahery, J. A., & Pudschedl, P. (2024). Institutional investors and ESG preferences. ECGI Finance Working Paper, 847/2024.

8. Pedersen, L. H., Fitzgibbons, S., & Pomorski, L. (2021). Responsible investing: The ESG-efficient frontier. Journal of Financial Economics, 142(2), 572-597.

9. Serafeim, G., & Yoon, A. (2023). Stock price reactions to ESG news: The role of ESG ratings and disagreement. The Review of Accounting Studies, 28(4), 1500-1530.

RAHBAR KADRLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Olimov Sodiq Anvar o‘g‘li
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti PhD, v.b. dotsenti
E-mail: sodiqolimov@gmail.com
Orcid: 0000-0002-3287-658X

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalarning rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli ta’lim*

platformalari, sun'iy intellekt, virtual simulyatsiyalar va mobil ilovalarning rahbarlar malakasini oshirishdagi samaradorligi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli vositalar an'anaviy ta’lim usullariga nisbatan yuqori natijalar berishi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: *Rahbar kadrlar, boshqaruv kompetensiyalari, raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim, sun'iy intellekt, virtual simulyatsiya, kadrlar tayyorlash.*

Аннотация. *В статье анализируется значение современных цифровых технологий в развитии управленческих компетенций руководящих кадров. Показана эффективность цифровых образовательных платформ, искусственного интеллекта, виртуальных симуляций и мобильных приложений в повышении квалификации руководителей. Результаты исследований доказывают, что цифровые инструменты дают более высокие результаты по сравнению с традиционными методами обучения.*

Ключевые слова: *Руководящие кадры, управленческие компетенции, цифровые технологии, электронное обучение, искусственный интеллект, виртуальная симуляция, подготовка кадров*

Abstract. *The article analyzes the significance of modern digital technologies in developing management competencies of leadership personnel. The effectiveness of digital educational platforms, artificial intelligence, virtual simulations, and mobile applications in enhancing leadership qualifications is demonstrated. Research results prove that digital tools yield higher outcomes compared to traditional training methods.*

Key words: *Leadership personnel, management competencies, digital technologies, e-learning, artificial intelligence, virtual simulation, personnel training*

Kirish

Zamonaviy raqamli asrda tashkilotlar jadal ravishda o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Ushbu o‘zgarishlarda asosiy rolni rahbar kadrlar – ularning bilim, malaka va kompetensiyalari bunda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini kuchaytirish va yangilash jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu jarayon innovatsion yondashuvlarni, strategik fikrlashni, malakali qaror qabul qilishni va raqamli savodxonlikni talab etadi.

XXI asr raqamli transformatsiya davri sifatida tashkilotlardan boshqaruv tizimlarini tubdan yangilashni talab etmoqda. Globallashuv, texnologik inqilob va tashkiliy muhitning dinamik o‘zgarishlari rahbar kadrlardan yuqori darajadagi boshqaruv kompetensiyalariga ega bo‘lishni talab qiladi [1]. Zamonaviy rahbarlar nafaqat an'anaviy menejment ko‘nikmalariga, balki raqamli savodxonlik, ma’lumotlarni tahlil qilish, innovatsion fikrlash va texnologik vositalardan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur.

Raqamli texnologiyalar rahbar kadrlarning professional rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron ta’lim platformalari, sun'iy intellekt tizimlari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, katta ma’lumotlar tahlili va mobil ilovalar boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirmoqda va samaradorligini oshirmoqda [2]. Bu texnologiyalar ta’limning individual xususiyatlarini hisobga olish, doimiy monitoring va tezkor qayta aloqa berish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston Respublikasida davlat va xususiy sektorda raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa rahbar kadrlardan zamonaviy raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, raqamli texnologiyalarning rahbarlar malakasini oshirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tadqiqotchilar raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini keng qamrovli o‘rganishgan. Garrison va Anderson elektron ta’limning ijtimoiy-konstruktivistik nazariyasini ishlab chiqib, raqamli muhitda samarali o‘qitish prinsiplarini asoslab berishgan [3]. Ular kognitiv, o‘qituvchilik va ijtimoiy mavjudlik komponentlarining integratsiyasi ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatganlar.

Siemens va Downes tomonidan taklif etilgan konnektivizm nazariyasi raqamli asrda bilim olishning yangi paradigmasini taqdim etadi [4]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, zamonaviy ta’limda tarmoqlar, aloqalar va texnologiyalar markaziy o‘rin tutadi. Bu konsepsiya ayniqsa rahbar kadrlarning doimiy professional rivojlanishi kontekstida muhimdir.

Sun’iy intellektning ta’limdagi qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashib, ta’lim samaradorligini 30-40% ga oshiradi. Mashinali o‘rganish algoritmlari orqali har bir rahbarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda moslashtirilgan rivojlanish yo‘llarini taklif qilish mumkin [5].

Mahalliy tadqiqotchilar ham ushbu sohaga qiziqish bildirmoqdalar. O‘zbekiston sharoitida raqamli ta’limning joriy etilishi va samaradorligi bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan [6]. Biroq, rahbar kadrlar boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning kompleks qo‘llanilishi masalasi to‘liq o‘rganilmagan.

Raqamli transformatsiya va rahbarlik (digital leadership)

Raqamli transformatsiya – bu tashkilot ichida raqamli texnologiyalarni joriy etish va faoliyatni optimallashtirish jarayonidir. Rahbarlikning raqamli shakli (digital leadership) esa texnologiyalar kontekstida rahbarlarning yangi rol va yondashuvlarini ifodalaydi.

Philip va boshqalar rahbarlar uchun strategik kompetensiyalar, jumladan vizion va digital strategiya bilimlari muhim ekanligini ta’kidlaydilar. Schipmann esa digital leadership kompetensiyalari sifatida texnologik bilim (tech-savviness), raqamli strategiya, agil yondashuv, tarmoqlanish (networking), innovatsiya va vakolat berishni sanab o‘tadi.

Müller va hamkasblar esa “digital transformation leadership competencies” to‘rtta arketipik portfoliolarni taqdim etadi, bu rahbarlarning raqamli transformatsiyani boshqarishdagi turli uslublarini aks ettiradi. Qiao va hamkasblar

esa rahbarlik va digital transformatsiyaning xodimlar natijadorligi va tashkilotga sadoqatga ta’siri orasidagi o‘raliq (mediatsiya) rolini tahlil qiladilar.

Kompetensiyalar kontseptsiyasi va rahbarlik kompetensiyalari

Kompetensiya – bu ma’lum bir faoliyatni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va xulqiy jihatlarning yig‘indisi. Rahbarlik kompetensiyalari esa qaror qabul qilish, strategik yondashuv, muammolarni hal etish, kommunikatsiya, hodimlarni motivatsiya qilish va boshqarish kabi elementlarni o‘z ichiga oladi.

Raqamli davrda bu kompetensiyalarga quyidagilar qo‘shiladi: raqamli savodxonlik (digital literacy), ma’lumot tahlili (data analytics), texnologik innovatsiyalarni tushunish (tech insight), hamda virtual jamoalarni boshqarish qobiliyati (e-leadership). Masalan, e-leadership kontseptsiyasi rahbarlarning virtual va texnologik vositalar orqali guruhni boshqarishi sifatida ko‘riladi.

Raqamli texnologiyalarning rol va imkoniyatlari

Raqamli savodxonlik va texnologik bilim. Rahbarlar uchun raqamli savodxonlik – axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, katta ma’lumot (big data), bulutli xizmatlar kabi sohalarni tushunish va qo‘llay olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya karor qabul qilishda ma’lumotga asoslangan yondashuvni qo‘llashga yordam beradi.

Ma’lumot tahlili va qaror qabul qilish. Raqamli texnologiyalar rahbarlarga katta hajmdagi ma’lumotlardan tahliliy bilim chiqarishga imkon beradi. Bu qarorlarni tezkor, aniqlik bilan va real vaqt rejimida qabul qilish imkonini beradi. Shu yo‘l bilan rahbarlar bozor tendentsiyalariga moslashib, strategiyalarni tezkor qayta shakllantira oladi.

Innovatsion yondashuv va transformatsion liderlik. Raqamli vositalar rahbarlarga innovatsiyalarni joriy qilish va tajriba loyihalar (pilot) orqali yangi yechimlarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Bunday yondashuv rahbarlarning transformatsion (o‘zgarishchi) rolini kuchaytiradi.

Virual jamoa va masofaviy boshqaruv. Global pandemiya va raqamli ishlash sharoitida rahbarlarning masofaviy jamoalarni boshqarish qobiliyati juda muhim bo‘lib qoldi. E-leadership uslublari va virtual axborot vositalari yordamida rahbarlar guruhlarni samarali boshqarishi mumkin.

O‘rgatish, mentorlik va onlayn treninglar. Raqamli platformalar rahbarlarga va ularning jamoalariga onlayn treninglar, vebinarlar, interaktiv kurslar orqali kompetensiyalarni oshirish imkonini beradi. Bu uzluksiz o‘qish (lifelong learning) imkoniyatini yaratadi.

Raqamli transformatsiya davri rahbarlardan butunlay yangicha ko‘nikmalar to‘plamini talab qiladi. An'anaviy ierarxik boshqaruv uslubi o‘rniga, zamonaviy rahbarlar agile yondashuv, ijodkorlik va doimiy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi kerak. Raqamli rahbar nafaqat texnologiyalarni

tushunishi, balki inson omilini hisobga olgan holda tashkiliy o‘zgarishlarni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Bu shaxslarning asosiy xususiyatlari qatoriga: vizioner fikrlash, eksperimental yondashuv, xatolardan saboq olish madaniyatini rivojlantirish, doimiy o‘rganish va moslashuvchanlik kiradi.


Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati bevosita yuqori rahbariyatning faol ishtirokiga bog‘liq. Rahbar transformatsiya viziyasini aniq shakllantirishi, bu viziyani barcha xodimlarga yetkazishi va o‘zgarishlarga qarshiliklarni engish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishi kerak. Shuningdek, raqamli madaniyatni shakllantirish - tajriba o‘tkazishni, innovatsiyalarni, doimiy o‘rganishni va hamkorlikni rag‘batlantiradigan muhit yaratish - muhim vazifadir. Zamonaviy rahbar "change agent" (o‘zgarishlar agenti) rolini o‘ynab, tashkilotni raqamli kelajakka olib boradigan ko‘prik vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, raqamli talantlarni jalb qilish va rivojlantirish hamda texnologik investitsiyalar to‘g‘risida strategik qarorlar qabul qilish ham rahbarning zimmasidadir.

Rahbar kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish modeli

Zamonaviy boshqaruv amaliyotida rahbar kompetensiyalarini rivojlantirish tizimli va innovatsion yondashuvni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida rahbar kadrlarni tayyorlash modeli besh asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ularning har biri aniq maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Quyida maqolada taklif etiladigan model – raqamli transformatsiya orqali rahbar kompetensiyalarini rivojlantirish uchun bosqichli yondashuv: (1-rasm).

Birinchi bosqich - tahlil bosqichi tashkilot rahbarlarining hozirgi kompetensiya darajasini aniqlash bilan boshlanadi. Bu bosqichda boshqaruv kadrlarning mavjud ko‘nikmalari, raqamli savodxonlik darajasi va rivojlanish ehtiyojlari chuqur o‘rganiladi. So‘rovnomalar, 360 daraja feedback usuli, psixometrik testlar va kompetensiya baholash instrumentlari qo‘llaniladi. Raqamli platformalar orqali ma’lumotlar to‘planadi va tahlil qilinadi, bu esa obyektiv natijalar olish imkonini beradi. Tahlil natijalari asosida har bir rahbar uchun individual rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich - strategik rejalashtirish bosqichida tahlil natijalariga asoslanib, kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Bu yerda tashkilot maqsadlari va rahbarlarning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlari uyg‘unlashtiriladi. Har bir rahbar uchun individual o‘quv yo‘nalishlari, o‘zlashtirish kerak bo‘lgan raqamli vositalar va rivojlantirish vaqt jadvali belgilanadi. Strategik reja tashkilotning raqamli transformatsiya yo‘l-yo‘rig‘i bilan chambarchas bog‘langan holda tuziladi. Shuningdek, kutilayotgan natijalar va baholash ko‘rsatkichlari aniqlanadi.



1-rasm. Rahbar kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish modeli

Uchinchi bosqich - ta’lim va trening jarayoni eng muhim amaliy bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari keng qo‘llaniladi: onlayn kurslar, virtual treninglar, simulyatsiya o‘yinlari, interaktiv vebinarlar va elektron o‘quv modullari. Rahbarlar mentorlik dasturlari orqali tajribali mutaxassislardan bilim va tajriba olishadi. Gamifikatsiya elementlari o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Loyiha asosidagi ta’lim uslubi qo‘llanib, rahbarlar real muammolarni hal qilish orqali o‘rganadilar. Mikro-o‘qitish (microlearning) va mobil ta’lim imkoniyatlari rahbarlarga o‘z vaqtlarini moslashuvchan tarzda boshqarish imkonini beradi.

To‘rtinchi bosqich - integratsiya va amaliy qo‘llash davomida o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalar real ish muhitida amaliyotga joriy etiladi. Rahbarlar raqamli vositalar yordamida pilot loyihalar ustida ishlaydilar. Bu bosqichda nazariy bilimlar amaliy tajribaga aylanadi. Change management (o‘zgarishlarni boshqarish) printsiplari qo‘llanib, yangi yondashuvlar tashkilot madaniyatiga singdiriladi. Raqamli kommunikatsiya vositalari, loyiha boshqaruv tizimlari, ma’lumotlar tahlili platformalari va boshqa zamonaviy texnologiyalar kundalik faoliyatga kiritiladi. Rahbarlar yangi rollar va mas'uliyatlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib boradilar.

Beshinchi bosqich - baholash va takomillashtirish uzluksiz yaxshilanish printsipiga asoslanadi. Bu bosqichda rahbarlar kompetensiyalarining rivojlanishi muntazam monitoring qilinadi. Raqamli analytics vositalari yordamida progress kuzatiladi va samaradorlik baholanadi. Olingan natijalar asosida ta’lim dasturlari va yondashuvlarga kerakli o‘zgartirishlar kiritiladi. Bu siklik jarayon bo‘lib, baholash natijalari yana birinchi bosqichga qaytariladi va yangi rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi.

Ushbu model uzluksiz rivojlanish va takomillashuvni ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalar nafaqat ta’lim jarayonini modernizatsiya qiladi, balki natijalarni ob'ektiv baholash, shaxsiy yondashuv yaratish va tez moslashish imkoniyatini beradi. Model moslashuvchan bo‘lib, turli tashkilotlar va soha xususiyatlariga moslashtirilishi mumkin. Raqamli transformatsiya davridagi rahbarlar uchun bu model zamonaviy ko‘nikmalarni egallash va tashkilotni muvaffaqiyatli boshqarish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Muammolar va cheklovlar

– Raqamli transformatsiya jarayonida rahbarlar va xodimlar orasida texnologiyaga qarshi qarshilik bo‘lishi mumkin.

– Resurslar (moliya, infratuzilma) cheklangan bo‘lishi mumkin, ayniqsa kichik va o‘rta tashkilotlarda.

– Rahbarlarning texnologiyaga qiziqishi va o‘rganishga tayyorligi muhim rol o‘ynaydi.

– Onlayn treninglarning sifati va ta’siri har doim ham optimal bo‘lmaydi – motivatsiya va amal qilish jihatlari e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ushbu maqolada rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning muhim rolini nazariy va amaliy jihatdan o‘rgandik. Raqamli savodxonlik, ma’lumot tahlili, innovatsiya, virtual jamoalar bilan ishlash kabi kompetensiyalar rahbarlarni zamonaviy muhitga moslashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ta’lim boshqaruv tizimlari, sun'iy intellekt, virtual simulyatsiyalar, mobil o‘qitish kompleks qo‘llanilganda maksimal samara beradi.

Raqamli vositalarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: shaxsiylashtirilgan yondashuv, moslashuvchanlik, mavjudlik, interaktivlik, doimiy monitoring va tezkor qayta aloqa. Bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va natijali qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi: zamonaviy raqamli ta’lim platformalarini yaratish, rahbarlar va o‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalarga o‘rgatish, virtual simulyatsiya

markazlarini tashkil etish, mobil ta’lim ilovalarini ishlab chiqish. Shuningdek, doimiy innovatsiyalar va texnologik takomillashtirish orqali O‘zbekistonda raqobatbardosh, zamonaviy ko‘nikmalarga ega rahbarlar safini kengaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2016. 192 p.

2. Bonk C.J., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. Pfeiffer, 2012. 624 p.

3. Garrison D.R., Anderson T. E-learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice. Routledge, 2017. 196 p.

4. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. 2005. Vol. 2. No. 1. P. 3-10.

5. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2019. Vol. 16. No. 39. P. 1-27.

6. Toshmatova D.R. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o‘rni // Pedagog kadrlarni tayyorlash: muammolar va yechimlar. 2022. №4. 45-49 b.

MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna
Oriental universiteti Biznes va boshqaruv kafedrasi dotsent v.b., PhD
Yusupov Akrom Abdumalikovich
Oriental universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda milliy iqtisodiyotda kichik tadbirkorlikning tutgan o‘rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilingan. Bugungi kunda kichik biznes nafaqat yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining bandligini ta’minlash, balki raqobat muhitini shakllantirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, hududlarni rivojlantirish va xalq farovonligini oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mazkur tezisda yurtimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami, kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi, eksport salohiyati va hududiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilinadi va amaliy misollar asosida ko‘rsatib o‘tiladi.*

Tayanch so‘zlar: *Kichik tadbirkorlik, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, mikrofirmalar, innovatsiya.*

Annotation: *This thesis analyzes the role of small entrepreneurship in the national economy and its contribution to socio-economic development. Today, small businesses are important not only in creating new jobs, ensuring the employment of the population, but also in the formation of a competitive environment, stimulating innovative activities and increasing production efficiency. The support of small entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan is one of the priorities of the state policy, which plays a decisive role in strengthening economic stability, developing territories and improving the well-being of the people. In this thesis, the scope of work carried out on the development of small entrepreneurship in our country, the share of small businesses in the economy, export potential and contribution to territorial development are analyzed and shown on the basis of practical examples.*

Keywords: *Small business, national economy, economic development, employment, microenterprises, innovation.*

Аннотация. *В данной диссертации анализируется роль малого бизнеса в национальной экономике и его вклад в социально-экономическое развитие. Сегодня малый бизнес играет важную роль не только в создании новых рабочих мест, обеспечении занятости населения, но и в формировании конкурентной среды, стимулировании инновационной деятельности и повышении эффективности производства. Поддержка малого бизнеса в Республике Узбекистан является одним из приоритетных направлений государственной политики, играя решающую роль в укреплении экономической стабильности, развитии регионов и повышении благосостояния населения. В данной диссертации анализируются масштабы работы, проводимой по развитию малого бизнеса в нашей стране, доля малого бизнеса в экономике, его экспортный потенциал и вклад в региональное развитие, и иллюстрируются на практических примерах.*

Ключевые слова: *Малый бизнес, национальная экономика, экономическое развитие, занятость, микрофирмы, инновации.*

Kirish

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimlaridan biri kichik tadbirkorlik hisobladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajaga ko‘tarilishi ko‘pincha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Chunki kichik tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning eng harakatchan, moslashuvchan va tez o‘suvchi segmenti hisoblanadi. U yangi ish o‘rinlarini yaratadi, aholining daromad manbalarini kengaytiradi, mahalliy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi va shu orqali iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlaydi[191]. Shu boisdan ham O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Kichik tadbirkorlik va xususiy biznesning milliy iqtisodiyotdagi ulushi ortib borishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida kichik tadbirkorlikning roli sezilarli darajada kuchayib, u jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi.

[191] Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017.

Kichik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, avvalo, uning moslashuvchanligida namoyon bo‘ladi. Yirik korxonalarga qaraganda kichik biznes xo‘jalik yuritishda tezroq qaror qabul qiladi, bozor talabiga tez moslasha oladi va yangicha mahsulotlarni ishlab chiqarishga tayyor turadi. Bu esa iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga yordam beradi. Masalan, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik ishlab chiqarish tarmoqlari yoki qishloq xo‘jaligidagi oilaviy tadbirkorlik yo‘nalishlari aynan kichik biznes orqali rivojlanmoqda. Bu sohalar aholining bandligini ta’minlashda, daromadlarni oshirishda va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda katta ahamiyat kasb etmoqda[192].

Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik milliy iqtisodiyotda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Aholining keng qatlamlari aynan kichik biznes faoliyatida o‘z mehnat va ijodiy salohiyatini namoyon etadi. Yoshlar, ayollar, ishsiz aholining faol iqtisodiy hayotga kirib kelishida kichik tadbirkorlik muhim vosita sifatida qaraladi. Bu nafaqat ishsizlik muammosini kamaytiradi, balki ijtimoiy tenglikni ham ta’minlashga xizmat qiladi[193]. Shu ma’noda, kichik tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushi tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining farovonligini oshirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi turli ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Jumladan, yalpi ichki mahsulot (YaIM), sanoat ishlab chiqarishi, qurilish ishlari, investitsiyalar hajmi, qishloq xo‘jaligi, chakana savdo aylanmasi va ko‘rsatilgan xizmatlar kabi yo‘nalishlarda kichik tadbirkorlikning hissasi muhim ahamiyat kasb etadi[194].

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy faoliyatdagi ulushini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada, so‘nggi yillarda kichik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi ulushi muntazam oshib bormoqda. Jumaladan, YaIMda kichik tadbirkorlikning ulushi so‘nggi yillarda barqaror darajada qolayotgan bo‘lsa-da, sanoat tarmog‘ida o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ayniqsa, qurilish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining ulushi yildan-yilga barqaror o‘sib kelayotgani kuzatilmoqda (1-jadval):

---

[192] Н.Ю.Никитина, С.М.Корунов, А.А.Яшин, И.Д.Опарин. Предпринимательство. Учебное пособие. – Екатеринбург.: Издательство Уральского Университета, 2020.

[193] Kambarova Sh. O‘zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish. Avtoreferat. – Toshkent: 2023.

[194] Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik sub’yektlarining milliy iqtisodiyotdagi ulushi *(yanvar-dekabr oylarida, % da)*[195]

Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024
YaIM	54,6	54,3	54,3
Sanoat	26,0	27,0	32,4
Qurilish	71,5	78,6	76,5
Investitsiya	47,9	49,6	51,8
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik	94,8	94,6	95,2
Chakana savdo aylanmasi	84,7	82,9	84,0
Ko‘rsatilgan xizmatlar	49,4	56,8	57,0

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022-2024-yillar davomida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining milliy iqtisodiyotdagi ulushi barqaror saqlanib qolgan, ayrim yo‘nalishlarda esa sezilarli o‘sish kuzatilgan. YaIMda ulush 54 foiz atrofida saqlangan bo‘lsa, sanoatda 26 foizdan 32,4 foizgacha o‘sib, ishlab chiqarishdagi faollik ortgani ko‘rinadi. Qurilish sohasida ulush yuqori darajada bo‘lib, 2023-yilda 78,6 foizga chiqqanidan so‘ng 2024-yilda 76,5 foizgacha pasaygan, investitsiyada esa 47,9 foizdan 51,8 foizgacha barqaror o‘sish kuzatilgan. Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilikda kichik biznes deyarli 95 foizlik ko‘rsatkich bilan yetakchilikni saqlab qolgan, chakana savdoda esa ulush 2023-yilda biroz kamaygan bo‘lsa-da, 2024-yilda yana 84 foizga yetgan. Xizmat ko‘rsatish sohasida esa eng sezilarli o‘sish qayd etilib, 2022-yildagi 49,4 foizlik natija 2024-yilda 57 foizgacha oshgan. Bu jarayonlar kichik tadbirkorlikning sanoat, qurilish va xizmatlar bozorida tobora raqobatbardosh bo‘lib borayotganini hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ustunlikka ega ekanini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari keng va ularning ko‘plab omillari mavjud. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar kichik biznes uchun qulay muhit yaratmoqda. Masalan, soliq tizimini soddalashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va litsenziyalash jarayonini yengillashtirish kichik tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish imkonini bermoqda.

O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiyalar muhim rol o‘ynamoqda chunki ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy vosita hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kichik biznesga xarajatlarni kamaytirib ko‘proq va sifatli

[195] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy https://stat.uz veb-saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

mahsulot ishlab chiqarishga, raqamli yechimlar esa moliyaviy operatsiyalarni, marketing va mijozlar bilan ishlashni yengillashtirishga imkon beradi. Startap loyihalari, IT-xizmatlar va elektron tijorat kabi innovatsion yo‘nalishlarda faoliyat yuritish orqali kichik tadbirkorlik ichki bozorni rivojlantiribgina qolmay, xalqaro raqobat maydoniga ham chiqishi mumkin. Shu bois, innovatsiyalar kichik biznesni zamonaviy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh segmentiga aylantiruvchi asosiy omildir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kichik tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Uning ahamiyati yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining daromadlarini oshirish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan ta’minlash, shuningdek, eksport salohiyatini kengaytirishda namoyon bo‘ladi. Kichik tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari, soliq va kredit siyosatini takomillashtirish, innovatsiyalarni keng joriy etish hamda biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish muhim hisoblanadi. Bu borada kichik tadbirkorlikning infratuzilmasini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini keng qo‘llash, tadbirkorlarning malakasini oshirish ham ustuvor vazifalardan biridir. Yana bir muhim jihat shuki, kichik biznesning eksport salohiyatini kengaytirish uchun xalqaro bozorga chiqish mexanizmlarini takomillashtirish, logistika va bojxona jarayonlarini soddalashtirish ham alohida e’tibor talab qiladi. Kelajakda kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi yanada oshib borishi uchun mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, hududiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda kichik biznesni rivojlantirish ham muhimdir. Umuman olganda, kichik tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi, xalq farovonligini oshiradi va raqobatbardosh iqtisodiy tizim shakllanishiga xizmat qiladi. Shu asosda kichik tadbirkorlikni milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida qarash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-sonli Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-193-sonli Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyundagi “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-153-sonli Farmoni

4. Amonov M. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Avtoreferat. – Toshkent: 2024.

5. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017.

6. Kambarova Sh. O‘zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish. Avtoreferat. – Toshkent: 2023.

7. Никитина Н.Ю., Корунов С.М., Яшин А.А., Опарин И.Д. Предпринимательство. Учебное пособие. – Екатеринбург.: Издательство Уральского Университета, 2020.

8. https://stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti

9. https://www.imv.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti

10. https://edcom.uz – “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” Aksiyadorlik Jamiyati

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

Коптаева Гульжамал Пернеевна
кандидат экономических наук, ассоцированный профессор
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан
Бекебаева Мира Омирхановна
магистр экономических наук, старший преподаватель
Университет «Мирас», г.Шымкент, Казахстан

Annotatsiya. *Maqola sun’iy intellektning (SI) biznes modellari transformatsiyasi va iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tahlil qiladi. SI avtomatlashtirish, xizmatlarni shaxsiylashtirish, katta ma’lumotlarni tahlil qilish va raqamli ekotizimlarni rivojlantirish orqali innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, xarajatlarni kamaytiradi va unumdorlikni oshiradi. Shu bilan birga, texnologik ishsizlik va tengsizlik xavflari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, biznes modellari, raqamli transformatsiya, iqtisodiy o‘sish, innovatsiya.*

Abstract*. The article examines the impact of artificial intelligence (AI) on business model transformation and economic growth. It discusses automation, service personalization, big data, and digital ecosystems. AI fosters innovation, reduces costs, and boosts productivity, creating new industries and markets. Risks such as technological unemployment and inequality growth are also noted.*

Keywords: *Artificial intelligence, business models, digital transformation, economic growth, innovation.*

Аннотация*. Статья анализирует влияние искусственного интеллекта (ИИ) на изменение бизнес-моделей и ускорение экономического роста. Рассматриваются автоматизация процессов, персонализация услуг, большие данные и цифровые экосистемы. Показано, что ИИ стимулирует инновации, снижает издержки и повышает*

производительность, создавая новые отрасли и рынки. Отмечены риски: технологическая безработица, рост неравенства и необходимость регулирования.

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, бизнес-модели, цифровая трансформация, экономический рост, инновации.*

Введение

Современная мировая экономика переживает очередной этап технологической революции, ключевым драйвером которой стал искусственный интеллект (ИИ). Если предыдущие волны индустриализации были связаны с механизацией и автоматизацией производства, то сегодня речь идёт о глубокой цифровой трансформации всех сфер хозяйственной деятельности. ИИ перестал быть исключительно предметом научных исследований и за последние десять лет превратился в прикладной инструмент, определяющий конкурентоспособность компаний, отраслей и целых государств.

Одним из наиболее значимых последствий развития ИИ является трансформация бизнес-моделей. Классические модели, ориентированные на линейные производственные цепочки и массовое производство, постепенно уступают место платформенным и экосистемным подходам. Компании переходят к моделям, основанным на данных (data-driven), персонализированных сервисах, интеллектуальной автоматизации процессов и создании новых цифровых продуктов. ИИ позволяет интегрировать большие данные, машинное обучение и алгоритмы прогнозирования в ключевые бизнес-функции – от маркетинга и управления цепочками поставок до разработки новых продуктов и обслуживания клиентов.

Особое значение ИИ приобретает и для национальных экономик. По оценкам международных аналитических центров (PwC, McKinsey, WEF), внедрение технологий искусственного интеллекта способно увеличить мировой ВВП на 15–20 трлн долларов США к 2030 году, а в отдельных странах – добавить до 1–1,5 % ежегодного прироста за счёт повышения производительности, оптимизации издержек и ускорения инноваций. Страны, активно инвестирующие в ИИ и создающие инфраструктуру для его развития, получают конкурентные преимущества в глобальной экономике, привлекая капиталы и создавая новые высокотехнологичные рабочие места.

Вместе с тем быстрый рост применения ИИ сопровождается рядом вызовов. Среди них – технологическая безработица и необходимость переквалификации работников, рост социального неравенства между компаниями и странами с разным уровнем цифровой зрелости, а также проблемы регулирования и защиты данных. Появляется потребность в новых

экономических и правовых механизмах, способных обеспечить баланс между инновационным развитием и социальной стабильностью.

Для бизнеса ключевой вызов заключается в том, чтобы правильно адаптировать свои бизнес-модели к новой технологической реальности. Недостаточно просто внедрить отдельные ИИ-решения – требуется системное переосмысление ценностного предложения компании, способов взаимодействия с клиентами, логики формирования доходов и управления затратами. Особенно актуальным становится переход от традиционной продуктовой модели к платформенным решениям, где данные и алгоритмы становятся основным источником конкурентных преимуществ.

Исследование влияния ИИ на экономический рост также приобретает стратегическое значение для стран с развивающейся экономикой, таких как Казахстан и Узбекистан. Эти государства стремятся диверсифицировать экономику, повысить производительность труда и интегрироваться в глобальные цепочки создания добавленной стоимости. При этом уровень цифровой зрелости компаний остаётся неоднородным, а потенциал ИИ используется пока частично. Внедрение технологий машинного обучения и аналитики больших данных может стать катализатором повышения эффективности промышленности, финансового сектора, логистики и государственного управления.

В академической литературе активно обсуждаются вопросы экономической отдачи от ИИ, однако остаётся открытым ряд проблем: какие именно бизнес-модели оказываются наиболее устойчивыми в условиях ИИ-трансформации; каким образом ИИ влияет на структуру издержек и источники доходов компаний; как связаны инвестиции в ИИ с долгосрочным экономическим ростом на уровне отраслей и национальной экономики.

Настоящая статья направлена на анализ механизмов влияния искусственного интеллекта на трансформацию бизнес-моделей предприятий и на экономический рост в целом. В работе рассматриваются ключевые направления применения ИИ в бизнесе, анализируются успешные примеры компаний и стран, а также выявляются возможности и риски, связанные с этой технологией. Отдельное внимание уделено экономическим эффектам внедрения ИИ в условиях цифровой экономики и перспективам адаптации бизнес-стратегий к новым реалиям.

Исследования

Развитие искусственного интеллекта (ИИ) стало ключевым драйвером цифровой трансформации экономики и конкурентоспособности компаний. За последние годы ИИ вышел за рамки экспериментальных технологий и

превратился в инструмент, формирующий новые бизнес-модели, стимулирующий инновации и влияющий на макроэкономические показатели.

Цель работы – анализ того, как ИИ трансформирует бизнес-модели компаний и способствует экономическому росту, а также выработка практических рекомендаций по государственной политике в условиях цифровой экономики.

Задачи исследования включали:

- изучение мировых трендов внедрения ИИ и их влияния на модели бизнеса;
- оценку количественных данных по росту производительности и экономического эффекта;
- анализ национальных особенностей Казахстана и Узбекистана;
- формулировку предложений по стимулированию применения ИИ и минимизации связанных рисков.

Использованы методы системного анализа, сравнительного исследования, контент-анализа отчётов международных организаций (OECD, WEF, PwC, McKinsey, WIPO), а также кейс-метод для оценки практики внедрения ИИ в компаниях Центральной Азии.

Глобальные тенденции и экономический эффект

По данным PwC, ИИ способен увеличить мировой ВВП к 2030 году на 15,7 трлн долларов США (около 14 % прироста), из которых 6,6 трлн обеспечит рост производительности, а 9,1 трлн – новые продукты и услуги. McKinsey оценивает, что предприятия, активно инвестирующие в ИИ, увеличивают производительность на 20–25 % и сокращают операционные издержки до 30 %.

Наибольший эффект наблюдается в финансовом секторе, электронной коммерции, логистике и промышленности. ИИ становится ядром платформенных и экосистемных бизнес-моделей (Amazon, Alibaba, Apple, Tencent), где данные превращаются в ключевой актив.

Национальный контекст

Казахстан уже включил ИИ в стратегию «Цифровой Казахстан». По данным Министерства цифрового развития, в 2023 году инвестиции в цифровые технологии превысили 500 млн долларов США, а ИТ-рынок растёт на 15–20 % ежегодно. Банковский сектор активно применяет машинное обучение для скоринга и прогнозирования рисков, телеком – для анализа поведения клиентов, промышленность – для оптимизации процессов и техобслуживания.

Инновационная активность растёт: в 2023 году подано 917 патентных заявок

на изобретения (рост 9 %), международных заявок PCT – 26 (рост 83 %). Это свидетельствует о повышении интереса к новым разработкам, включая ИИ.

Узбекистан демонстрирует быстрый рост цифровых сервисов, однако интеграция ИИ пока ограничена. Доля нематериальных активов в активах компаний составляет всего 0,0001 %, что указывает на слабое использование ИИ и других интеллектуальных технологий. Тем не менее существует положительная корреляция (0,68) между доходами компаний и уровнем использования интеллектуальной собственности. Государство поддерживает ИТ-стартапы и развивает технопарки, но пока отсутствует системная программа по развитию ИИ на уровне страны.

Риски и вызовы:

1. Технологическая безработица – замещение рутинных профессий роботами и алгоритмами требует масштабной переквалификации.

2. Рост цифрового неравенства – крупные корпорации быстрее адаптируются, тогда как МСП часто не имеют доступа к технологиям ИИ.

3. Регуляторная неопределённость – недостаток стандартов этики, защиты данных и ответственности за работу алгоритмов.

4. Финансовые барьеры – высокая стоимость внедрения ИИ препятствует его использованию малыми предприятиями.

Рекомендации по экономической политике:

Для Казахстана:

- Разработать национальную стратегию по ИИ, включающую меры поддержки стартапов, налоговые льготы на R&D и финансирование центров компетенций.
- Стимулировать интеграцию ИИ в традиционные отрасли (нефть, газ, металлургия, сельское хозяйство) через пилотные проекты и субсидирование цифровизации.
- Поддерживать переподготовку кадров: создать программы обучения по ИИ и аналитике данных в университетах и на онлайн-платформах.
- Внедрить гибкое регулирование в сфере защиты данных и этики ИИ, позволяющее развивать инновации без излишних барьеров.

Для Узбекистана:

- Создать государственную программу по развитию ИИ с акцентом на малый и средний бизнес.
- Повысить инвестиции в цифровую инфраструктуру и облачные сервисы, чтобы сделать ИИ доступным для предприятий разных размеров.
- Развивать рынок интеллектуальной собственности: упростить регистрацию и защиту патентов, стимулировать коммерциализацию разработок.

• Внедрить образовательные инициативы по обучению специалистов по машинному обучению, анализу данных и цифровой экономике.

Реализация предложенных мер позволит компаниям Казахстана и Узбекистана не только адаптироваться к глобальным технологическим трендам, но и стать конкурентоспособными игроками на международном рынке. Для бизнеса ИИ открывает возможности снижения издержек, персонализации продуктов, создания новых источников дохода и повышения инвестиционной привлекательности. Для государства – это шанс ускорить экономический рост, диверсифицировать экономику и сократить технологический разрыв.

Выводы

Проведённое исследование подтвердило, что искусственный интеллект (ИИ) является ключевым фактором глубокой цифровой трансформации современного бизнеса и одним из основных драйверов экономического роста. Анализ мировых тенденций показал: внедрение ИИ позволяет компаниям переходить от традиционных линейных моделей к платформенным и экосистемным подходам, где данные и алгоритмы машинного обучения становятся стратегическими активами. Такие бизнес-модели обеспечивают гибкость, быстрый вывод новых продуктов на рынок, персонализацию услуг и создание новых источников дохода.

Количественные оценки показывают, что ИИ способен добавить к мировому ВВП до 15–20 трлн долларов США к 2030 году, а предприятия, активно инвестирующие в ИИ, повышают производительность на 20–25 % и сокращают операционные издержки на до 30 %. В финансовом секторе, логистике, производстве и розничной торговле применение ИИ уже привело к существенным экономическим эффектам: оптимизации цепочек поставок, улучшению клиентского опыта и снижению транзакционных затрат.

В контексте развивающихся стран, включая Казахстан и Узбекистан, ИИ открывает возможности для ускоренного развития и диверсификации экономики. Казахстан демонстрирует положительную динамику – растут инвестиции в цифровые технологии (более 500 млн долларов в 2023 году), активно внедряются решения на основе машинного обучения в банковской сфере, телекоммуникациях и промышленности. Патентная активность также увеличивается: число международных заявок по системе PCT за 2023 год выросло на 83 %. В Узбекистане потенциал ИИ пока используется ограниченно: доля нематериальных активов в структуре компаний крайне мала (0,0001 %), однако государство предпринимает шаги по развитию цифровой экосистемы, поддержке стартапов и созданию ИТ-технопарков.

Вместе с тем внедрение ИИ связано с серьёзными вызовами: технологической безработицей и необходимостью переквалификации работников, риском увеличения цифрового неравенства, дефицитом компетенций и недостаточной регуляторной базой. Без решения этих вопросов страны рискуют оказаться в положении технологических аутсайдеров, а компании – утратить конкурентоспособность.

Для достижения устойчивого экономического роста и успешной трансформации бизнеса требуется комплексная стратегия:

- развитие национальных программ по ИИ с чёткими приоритетами;
- стимулирование инвестиций в ИИ и R&D через налоговые льготы и гранты;
- поддержка малого и среднего бизнеса в цифровизации и доступе к ИИ-технологиям;
- формирование образовательных программ по аналитике данных и машинному обучению;
- создание гибкой правовой базы, регулирующей использование данных и этику ИИ.

Таким образом, ИИ способен стать мощным катализатором экономического развития, если его внедрение будет сопровождаться системной государственной поддержкой, развитием человеческого капитала и доступной инфраструктуры. Для компаний это шанс укрепить позиции на рынке, повысить инновационность и адаптироваться к динамичным глобальным условиям. Для стран – возможность ускорить модернизацию экономики, диверсифицировать источники роста и занять более сильные позиции в мировой цифровой экосистеме.

На основе проведённого исследования и анализа глобальных и региональных тенденций развития искусственного интеллекта (ИИ) предлагаются следующие меры, направленные на повышение эффективности использования ИИ для трансформации бизнес-моделей и ускорения экономического роста.

1. Государственная политика и институциональная поддержка

- Разработка национальных стратегий по ИИ. Казахстану и Узбекистану следует создать комплексные государственные программы развития искусственного интеллекта, определяющие приоритетные отрасли (промышленность, транспорт, финансы, здравоохранение) и стимулирующие инвестиции в исследования и разработки.
- Финансовые стимулы для компаний. Ввести налоговые льготы, гранты и субсидии для предприятий, внедряющих ИИ-решения, а также создавать

венчурные фонды для поддержки стартапов в области машинного обучения и анализа данных.

- Развитие цифровой инфраструктуры. Ускорить строительство дата-центров, расширить доступ к облачным технологиям и высокоскоростному интернету, сделать вычислительные мощности доступными для малого и среднего бизнеса.

2. Образование и развитие человеческого капитала

- Подготовка специалистов по ИИ и данным. Внедрить современные образовательные программы в университетах и колледжах, развивать онлайн-курсы по машинному обучению, нейросетям, big data и цифровой экономике.
- Повышение квалификации управленцев. Обучать руководителей компаний навыкам цифровой трансформации, экономической оценке внедрения ИИ и изменению бизнес-моделей.
- Программы переквалификации. Создать масштабные инициативы по обучению работников новым профессиям в условиях автоматизации и роботизации.

3. Поддержка инновационной экосистемы

- Создание технопарков и центров компетенций. Организовать площадки для совместной работы стартапов, научных организаций и бизнеса над ИИ-решениями.
- Содействие коммерциализации интеллектуальной собственности. Упростить регистрацию патентов и авторских прав, стимулировать продажу лицензий и технологий, созданных на базе ИИ.
- Поддержка пилотных проектов. Запускать государственные и частные программы апробации ИИ в ключевых секторах – энергетике, транспорте, аграрной сфере, медицине.

4. Совершенствование регулирования

- Гибкие правовые рамки. Разработать законы, регулирующие этику ИИ, защиту данных и интеллектуальную собственность, избегая чрезмерного ограничения инноваций.
- Международное сотрудничество. Участвовать в глобальных инициативах по обмену опытом и разработке стандартов в области ИИ, что повысит доверие инвесторов и облегчит трансграничное внедрение технологий.

5. Стратегии для бизнеса

- Интеграция ИИ в стратегическое планирование. Компаниям следует пересмотреть бизнес-модели, включив данные и алгоритмы как ключевые активы.

• Фокус на новых источниках дохода. Разрабатывать платформенные и сервисно-ориентированные модели, создавать цифровые продукты и услуги на базе ИИ.

• Инвестиции в аналитику и кибербезопасность. Повышение качества данных и их защиты критично для эффективной работы ИИ-систем.

Реализация этих предложений позволит странам Центральной Азии ускорить цифровую трансформацию экономики, повысить глобальную конкурентоспособность и создать условия для устойчивого экономического роста. Компании получат возможность улучшить производительность, сократить издержки, выйти на новые рынки и сформировать инновационные экосистемы, отвечающие вызовам XXI века.

Список использованной литературы

1. Бакулин, С.В. Искусственный интеллект и цифровая экономика: вызовы и возможности для бизнеса : монография. – М.: Инфра-М, 2022. – 312 с.

2. Ковальчук, А.А., Руденко, И.Д. Трансформация бизнес-моделей в условиях цифровизации и внедрения ИИ // Экономика и управление. – 2023. – № 4. – С. 15–27.

3. PwC. Sizing the prize: What's the real value of AI for your business and how can you capitalise? – London : PwC Research, 2018. – 44 p.

4. McKinsey & Company. The State of AI in 2023: Generative AI's Breakout Year. – New York : McKinsey Global Institute, 2023. – 56 p.

HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Toshboyev Muzaffar Muhtorovich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
"Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: muz72@mail.ru
Orcid: 0009-0005-4974-9498

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon bozorlarida yuzaga kelayotgan noaniqlik va iqtisodiy beqarorlik sharoitida hududlarning tashqi iqtisodiy strategiyalarini shakllantirish masalalari xorijiy davlatlar tajribasi asosida o'rganilgan. Rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy siyosati, eksportni diversifikatsiya qilish, innovatsion yondashuvlar va hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy choralar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston hududlari uchun samarali tashqi iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *jahon bozori, noaniqlik, tashqi iqtisodiy strategiya, xorijiy tajriba, hududiy rivojlanish, eksport siyosati.*

Аннотация. *В статье рассматривается опыт зарубежных стран по формированию внешнеэкономических стратегий регионов в условиях неопределенности и нестабильности мировых рынков. Анализируются внешнеэкономическая политика развитых государств, меры по диверсификации экспорта, внедрению инновационных подходов и обеспечению региональной экономической устойчивости. Полученные результаты могут быть использованы при разработке эффективных внешнеэкономических стратегий для регионов Узбекистана.*

Ключевые слова: *мировой рынок, неопределенность, внешнеэкономическая стратегия, зарубежный опыт, региональное развитие, экспортная политика.*

Annotation. *This article examines the experience of foreign countries in shaping regional foreign economic strategies under the conditions of global market uncertainty and instability. It analyzes the foreign economic policies of developed nations, measures for export diversification, innovative approaches, and ensuring regional economic resilience. The findings can be applied in developing effective foreign economic strategies for the regions of Uzbekistan.*

Keywords: *global market, uncertainty, foreign economic strategy, foreign experience, regional development, export policy.*

Kirish

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tashqi iqtisodiy strategiyalarida boshlang‘ich nuqta sifatida erkin savdo tamoyili qabul qilinadi. Bu tamoyil dunyo xo‘jaligining chuqurlashgan differensiallashuvi va milliy iqtisodiyotlarning rivojlanish darajalari orasidagi tafovut kuchaygani sharoitida sanoatlashgan mamlakatlarga qo‘shimcha ustunliklarni taqdim etib, ularning iqtisodiy pozitsiyalarini mustahkamlaydi. Boshqa tomondan, tarixiy sabablarga ko‘ra dunyo xo‘jalik aloqalariga kechroq qo‘shilgan davlatlarda vaziyat butkul boshqacha yuzaga kelgan, bu esa ularning qaram pozitsiyasini belgilagan. Ushbu mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyalarini ishlab chiqishda proteksionizm va iqtisodiy egoizm tamoyillari asosiy o‘rin tutgan. Biroq, jahon bozoridagi raqobat keskinlashgani, ayniqsa moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, COVID-19 pandemiyasi, siyosiy beqarorlik kabi noaniqlik sharoitida ko‘plab rivojlangan iqtisodiy mamlakatlar o‘z tashqi iqtisodiy strategiyalarida ayrim proteksionistik elementlardan foydalanishga majbur bo‘lishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi “Tashqi savdo va mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlik assotsiatsiyalarining rolini yanada oshirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-126-son Qarorida eksportga yo‘naltirilgan institular rolini oshirishga alohida e’tibor berilgan[196]. Qaror mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish va hududlar iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga yangi turtki berdi. Ushbu hujjat orqali tadbirkorlik assotsiatsiyalarining tashqi savdo jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytirish, ularni mintaqaviy sanoatni modernizatsiya qilish va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda faol qo‘llab-quvvatlash maqsad qilingan. Qaror,

[196] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdo va mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlik assotsiatsiyalarining rolini yanada oshirish choralari to‘g‘risida”gi Qarori 2024-yil 14-mart, № PQ-126-son. Elektron manba: https://lex.uz/ru/docs/6838940

shuningdek, hududlararo hamkorlikni mustahkamlash va tadbirkorlik sub'ektlari o‘rtasida samarali integratsiyani ta'minlash orqali raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi, bu esa O‘zbekistonning global bozorlaridagi pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy strategiyasining asosiy tamoyillarini tanlash uning iqtisodiy va tabiiy salohiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Agar mamlakat xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga nisbatan og‘riqsiz integratsiyalashishni maqsad qilsa, asosiy e'tibor "erkin savdo" prinsiplariga qaratiladi. Aks holda, mamlakat o‘z iqtisodiyotini tashqi ta'sirlardan himoya qilishga intilib, proteksionizm elementlariga amal qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko‘plab rivojlangan davlatlar tashqi iqtisodiy strategiyalarini amalga oshirayotganda "erkin savdo" tamoyillarini targ‘ib qilish bo‘yicha faol harakat qilayotganiga qaramay, so‘nggi o‘n yilliklarda ularning yangi vositalar orqali tashqi iqtisodiy sohadagi ta'siri sezilarli darajada oshdi. Obyektiv haqiqat shuni talab qiladiki, har bir davlatning ichki iqtisodiy siyosati oqibatlari boshqa mamlakatlar iqtisodiyotlariga ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olish lozim. Milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro bog‘liqligini anglash va uning davlat tashqi iqtisodiy siyosatiga ta'siri haqida ilgari qayd etilgan edi, bu esa dunyodagi yetakchi davlatlarning muvofiqlashtirilgan tashqi iqtisodiy siyosatini shakllantirishga sabab bo‘lishi kerak edi. Va aynan shunday tendensiya o‘tgan asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelib, hozirgi kunda ham faoliyatini davom ettirmoqda, buni yetakchi integratsion birlashmalar muvaffaqiyatli ishlashi yaqqol tasdiqlaydi.

Davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatidagi shakllar va usullar xilma-xilligi quyidagi omillar bilan izohlanadi, deb hisoblaymiz. Birinchidan, bugungi sharoitda mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni ko‘rsatkichlarini belgilashga yondashuvlar o‘zgardi. Uzoq vaqt davomida xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi yetakchi mavqe mamlakat milliy iqtisodiyotining to‘g‘ri tanlangan ixtisoslashuvi orqali ta'minlanishi mumkin, deb hisoblangan. Asosiy e'tibor mamlakatga ma'lum tovar yoki xizmatni nisbatan past ishlab chiqarish xarajatlari bilan ta'minlaydigan taqqoslanadigan ustunliklarni aniqlash va saqlashga qaratilgan edi.

Globallashuv sharoitida, ilm-fan va texnikaning yutuqlari keng ko‘lamda ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida, narx omili milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi yagona mezon emas. Shunday ekan, o‘zgargan sharoitda tashqi iqtisodiy strategiyani takomillashtirishda davlatlar ijtimoiy-madaniy, boshqaruv-ma'muriy va boshqa omillarga ko‘proq e'tibor qaratishga majbur bo‘ldilar. Faqat ma'lum davlatlarga xos, boshqa davlatlarga xos bo‘lmagan omillarni hisobga olish zaruriyati dunyo amaliyoti tomonidan iqtisodiy rivojlanish modellari bir mamlakatdan boshqasiga avtomatik ko‘chirilishining samarador

emasligini aniq ko‘rsatdi. Bugungi sharoitda na tabiiy, na mehnat resurslari tashqi iqtisodiy siyosatni belgilashda yagona asos bo‘la olmadi.

Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining muvaffaqiyati shuni isbotlaydiki, mamlakat muhim tabiiy resurslarga ega bo‘lmasdan ham jahon iqtisodiyotida munosib o‘rin egallashi mumkin. Millatning mehnat resurslari bilan ta’minlanishi, xalqaro mehnat tizimidagi o‘rnini aniqlovchi omil sifatida ko‘rib chiqilganda, bugungi sharoitda tashqi iqtisodiy strategiyaning shakllanishi oddiy mehnat resurslari emas, balki innovatsiyalarga moyil malakali kadrlar mavjudligiga bog‘liqdir. Haqiqatdan ham, ilm-fan va texnologik taraqqiyot boshqarayotgan jahon iqtisodiyotida mamlakatga munosib o‘rin ta’minlashga qaratilgan tashqi iqtisodiy strategiyaning o‘z ishchan kuchining past sifatida muvaffaqiyatli bo‘lishi qiyin.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasini ko‘rib chiqishda Germaniya va Fransiyaga e’tibor qaratamiz. Birinchisi, chuqur ijtimoiy o‘zgarishlarni boshidan kechirgan mamlakat sifatida qiziqarli bo‘lsa, ikkinchisi esa davlat tartibga soluvi an’analariga ega bo‘lib, yuqori rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlat sifatida ajralib turadi[197]. Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) tashqi iqtisodiy siyosati milliy sanoatning an’anaviy kuchli sohalarida xalqaro mehnat taqsimotida o‘z o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan edi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan kamroq bo‘lib, shaxsiy mas’uliyat va qat’iyatga asoslangan xususiy sektorning o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmi yuqori darajada ishlagan. Bu esa chet el investitsiyalarining nisbatan pastligi va milliy iqtisodiyotning tashqi moliyaviy resurslarga kam bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Germaniya iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada integratsiyalashgan bo‘lib, eksport hajmi bo‘yicha Yevropada birinchi o‘rinni egallaydi. Import ko‘rsatkichlari ham shunga yaqin darajada. GFRning tashqi iqtisodiy siyosati mamlakatni xalqaro mehnat taqsimotida yuqori sifatli, tor ixtisoslashgan mashinasozlik, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi sifatida saqlab qolishga qaratilgan.

Fransiya boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan eng uzoq vaqt davomida davlat siyosati orqali shakllangan iqtisodiy tarkiblarni va mavjud ijtimoiy ta’minot tizimini saqlab qolishga harakat qildi. Uning tashqi iqtisodiy tartibga solishi asosan import hajmini qisqartirishga yo‘naltirilgan edi. XX asr oxirlarida esa tashqi iqtisodiy siyosat natijalarining sarflangan resurslarga mos kelmasligi aniq ko‘zga tashlandi. Fransiya tajribasi, xususan, uning tashqi iqtisodiy siyosatida qo‘llagan yondoshuvi O‘zbekiston Respublikasi uchun ham muhim dars bo‘lib, tarkibiy islohotlar davomida istiqbolli sohalarning rivojlanishi boshqa sohalar hisobiga amalga oshirilmasligi kerakligini tasdiqlaydi.

---

[197] Контуры инновационного развития мировой экономики. / Под ред. А. Дынкина. – М.: Наука, 2020. – 143 с.

Yaponiyaning zamonaviy iqtisodiyotini shakllantirishda davlatning roli har bir davrning o‘ziga xos vazifalariga muvofiq o‘zgardi. Milliy proteksionizmning dastlabki bosqichlarida davlat ichki bozorni shakllantirishda asosiy rol o‘ynadi. Tadbirkorlar tashqi raqobatchilardan ishonchli himoya qilinar edi, ammo ichki raqobat rag‘batlantirilar edi. Aynan davlat ilg‘or texnologiyalarni olib kelish, tanlash va uzatishni ta’minladi. Yapon kompaniyalari o‘z mavqeini mustahkamlash bilan birga mustaqil faoliyat doirasini kengaytirdilar. Endilikda davlatning sa’y-harakatlari yangi sohalarni rivojlantirish va modernizatsiya yoki qayta tashkil etishga muhtoj korxonalarga yordam ko‘rsatishga qaratilgan.

Har bir yangi reja qabul qilinganda uning mintaqaviy jihati kuchayib, milliy iqtisodiyotni nomarkazlashtirish masalasida davlatning ishtirok doirasi kengayib bordi. Masalan, “Sanoatni joylashtirish rejasi” Tokio-Yokohama, Nagoya-Iokkaichi, Osaka-Kobe va Kitakyushu aglomeratsiyalarida sanoatning keyingi konsentratsiyasini cheklashni, shuningdek, Hokkaydo, Tohoku va Chubu kabi sanoat rivojlanmagan mintaqalarda yangi sanoat tugunlarini yaratishni nazarda tutgan. Yaponiya mintaqaviy siyosatining asosiy o‘ziga xosliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– mintaqaviy rivojlanish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalarida aniq qonuniy asos mavjudligi (barcha qonun hujjatlari Yaponiya parlamentining sessiyasida qabul qilinadi). G‘arbiy mamlakatlarda bunday keng qamrovli va mintaqaviy rejalashtirishning deyarli barcha jihatlarini qamrab olgan qonunlar majmui mavjud emas. Ba’zilari doimiy ravishda takomillashtiriladi, batafsil bayon etiladi yoki yangilari bilan almashtiriladi;

– G‘arbiy Yevropa, AQSh va Kanadada keng tarqalgan xususiy investitsiyalarni subsidiyalash tizimining deyarli mavjud emasligi;

– Yaponiya sanoatlashtirishining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida eksport hajmini oshirishga bog‘liq infratuzilmani rivojlantirishga ustuvor e’tibor qaratilishi;

– milliy miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari va shuningdek, “keng qamrovli hududiy rivojlanish rejalar”i ishlab chiqilishi.

XX asrning ikkinchi yarmida Xitoy siyosati alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu siyosat dunyo iqtisodiy hamjamiyatiga ochiqlik sharoitida milliy ustuvorliklarni hisobga olib, ma’lum darajada mustaqillikni ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, “…ochiqlik siyosati iqtisodiyotning o‘z kuchlariga tayangan holda ochiqlik siyosatini olib borishni anglatadi, o‘z kuchlariga tayanganlik esa iqtisodiyotning ochiqligi sharoitida amalga oshiriladi”[198].

Xitoyning tashqi iqtisodiy siyosatining o‘ziga xos jihatlaridan biri davlatning hal qiluvchi roli bo‘lib, aynan davlat mamlakatning tashqi iqtisodiy ochiqlik

[198] Потапов М.А. Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. – М.: Международные отношения, 2004. – С. 36.

konsepsiyasini shakllantirgan. XX asr oxirida Xitoy iqtisodiyotining ochiqlik modeli import o‘rnini bosish va eksportga yo‘naltirilgan strategiyani uyg‘unlashtirish, tashqi bozorlarning diversifikatsiyasi, tayyor sanoat mahsulotlari eksportini kengaytirish, mehnat talab qiluvchi ishlab chiqarishdan kapital va ilmiy-texnik talab qiluvchi ishlab chiqarishga asta-sekin o‘tishni nazarda tutgan.

Tashqi iqtisodiy siyosat amalga oshirilishi jarayonida Xitoy rahbariyati uning tarkibiy qismlariga bo‘lgan yondashuvlari o‘zgardi. Eksport milliy iqtisodiyotni rivojlantirish manbai sifatida ko‘rib chiqila boshlandi. Biroq tashqi yo‘nalish, ya'ni import va eksport operatsiyalarini amalga oshirish faqat chet ellik kapitalga ega ayrim kompaniyalar uchun xos bo‘lsa, janubiy hududlardagi maxsus iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalar faqat eksportga yo‘naltirilgan faoliyat yuritadi.

Xitoyda yuqori texnologiyali sohalarni rivojlantirish uchun maxsus rivojlanish zonalari tashkil etildi. Ushbu zonalarda Fan va Texnologiyalar vazirligi hamda hududiy hokimiyatlar birgalikda klasterlar yaratish va rivojlantirish bilan shug‘ullanadi. 2002- yilga kelib, Xitoyda 53 ta maxsus zona mavjud bo‘lib, u yerda 28,388 ta firma faoliyat yuritadi, 3,49 million xodim ishlaydi va savdo hajmi 1 trillion yuanga teng. Klasterlarni yaratish va rivojlantirish jarayonida uch darajadagi hukumat organlari - markaziy hukumat, munitsipalitetlar va rivojlangan zonalar hokimiyatlari faol ishtirok etadi. Markaziy hukumatning roziligi bilan munitsipalitetlar hududida yuqori texnologiyali sanoat zonalarini tashkil qilishi mumkin. Shuningdek, markaziy hukumat maxsus imtiyozlarga loyiq firmalarni tanlaydi.

Quyidagi jadvalda turli mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyalari, ularning xususiyatlari va olingan natijalar qisqacha ko‘rsatilgan (1-jadval).

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishning samarali institutsional mexanizmlari quyidagilar hisoblanadi:

– mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Ushbu dasturlar mintaqalarning dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishga qaratilgan bo‘lib, masalan, Tennessi vodiysi rivojini boshqarish (AQSh), Rur mintaqasi (Germaniya), “Sibir” rivojlantirish dasturi (Rossiya) va boshqalar[199];

– maxsus iqtisodiy zonalar. Mintaqani uning tabiiy-iqtisodiy salohiyati va raqobatbardosh ustunliklarini samarali foydalanish asosida tezkor rivojlantirish uchun maxsus rejimlarni yaratish. Bunga quyidagilar kiradi: erkin iqtisodiy zonalar, masalan, Shenchjen, Chjuhay (Xitoy), Kaliningrad (Rossiya), “Navoiy” EIZ (O‘zbekiston) va boshqalar; tadbirkorlik zonalari, masalan, AQShda 1500 dan ortiq, Buyuk Britaniyada 27 dan ortiq zona mavjud; ofshor zonalari (Kipr, Kayman orollari va boshqalar); texnologiyalarni joriy etish zonalari, masalan, “Silikon

[199] Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М.: ГУВШЭ, 2004. - 380 с.

vodiysi” (AQSh), Bangalor (Hindiston), texnopolis “Tsukuba” (Yaponiya) va boshqalar;

1-jadval

Xalqaro bozorlarda tashqi iqtisodiy strategiyalarni shakllantirishning mamlakatlar tajribasi[200]

Mamlakat	Asosiy strategiya	Xususiyatlari	Natijalar
Germaniya	Eksportga yo‘naltirilgan yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish	- Mashinasozlik, kimyo sanoati kabi tor ixtisoslashuv. - Kam davlat aralashuvi, kuchli xususiy sektor. - Yuqori sifatli mahsulotlar eksporti.	- Yevropada eksport bo‘yicha yetakchi. - Raqobatbardoshlik uchun sifat va innovatsiyalarga e’tibor. - Chet el investitsiyalariga kam bog‘liqlik.
Fransiya	Proteksionizm va eksportni rag‘batlantirish	- Davlat qo‘llab-quvvatlagan istiqbolli sohalar (atom reaktorlari, aerokosmik dasturlar). - Importni cheklash. - Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiy model.	- Ba’zi sohalarda muvaffaqiyat (masalan, atom energiyasi). - Tarkibiy islohotlarda muvozanat zarurligi ko‘rsatildi.
Yaponiya	Bosqichma-bosqich modernizatsiya va innovatsiyalar	- Dastlab arzon mahsulotlar, keyin sifat va energiya tejash. - Davlat va xususiy sektor hamkorligi. - Mintaqaviy rivojlanish rejalari (masalan, “Torch Programma”).	- Texnologik yetakchilik. - Klasterlar va maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligi. - Innovatsiyalar uchun kadrlar tayyorlash ahamiyati.
Xitoy	“O‘lchovli ochiqlik” va davlat boshqaruvidagi eksport strategiyasi	- Maxsus iqtisodiy zonalar (Shenjen). - Yuqori texnologiyali sohalarga investitsiyalar. - Eksportni diversifikatsiya qilish.	- Jahon savdosida tez o‘sish. - Texnologik klasterlar yordamida raqobatbardoshlik. - Davlatning faol roli samarador.
AQSh	Innovatsion klasterlar va erkin bozor mexanizmlari	- “Silikon vodiysi” kabi texnologik markazlar. - Tadbirkorlik zonalari (1500+). - Davlat loyihalari (masalan, Tennessi vodiysi rivoji).	- Innovatsiyalar va startaplar uchun qulay muhit. - Mintaqaviy dasturlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.

– mintaqaviy rivojlanishda klaster mexanizmi. Masalan, Germaniyada 1995-yildan beri Bio Regio biotexnologik klasterlarini yaratish dasturi faoliyat yuritmoqda. Buyuk Britaniyada hukumat Edinburg, Oksford va Janubi-Sharqiy Angliya atrofidagi hududlarni biotexnologik kompaniyalar asosiy joylashuvi sifatida belgilagan. Norvegiyada hukumat “dengiz xo‘jaligi” klasteridagi firmalar

[200] Muallif tomonidan shakllantirilgan

o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi. Finlyandiyada 1995-yilda Advantage Finland - The Future of Finnish Industries nomli keng ko‘lamli tadqiqot boshlandi, unda rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, potentsial klasterlarning raqobatbardoshligi baholandi. Finlyandiya iqtisodiy tadqiqot instituti (ETLA) to‘qqizta asosiy klasterni aniqladi: axborot-telekommunikatsiya, metallurgiya, energetika, biznes-xizmatlar, sog‘liqni saqlash, mashinasozlik, oziq-ovqat va qurilish[201]. Ushbu klasterlardagi kompaniyalar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik va bilim almashinuvi ularga asosiy raqobatchilarga nisbatan raqobatbardosh ustunliklar yaratdi (masalan, Finlyandiya ilmiy-tadqiqot va texnologik hamkorlik bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi);

– eksport qiluvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash institutlarini shakllantirish. Bu kichik biznes vakillariga xalqaro bozorlarida kirish va faoliyat yuritish uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi, masalan, Eksportchilar assotsiatsiyalari (Malayziya, Tailand va boshqalar), tashqi savdo birlashmalari (Turkiya), maxsus tashqi savdo kompaniyasi “Uzagrostar xolding” (O‘zbekiston) va boshqa tashkilotlar.

Xulosa va takliflar

Yoqoridagilarni tahlil qilgan xolda quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

a) **hududiy tashqi iqtisodiy siyosatni differensiallashtirish** – har bir viloyatning sanoat, resurs va transport salohiyatiga mos alohida tashqi iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqilishi lozim;

b) **eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni aniqlash** – xorijiy tajribada bo‘lgani kabi, hududlarning raqobat ustunligiga ega tarmoqlarini aniqlab, ularni davlat tomonidan maqsadli qo‘llab-quvvatlash zarur;

c) **hududlararo va xalqaro klaster tizimini rivojlantirish** – Janubiy Koreya, Germaniya yoki Xitoy tajribasidan kelib chiqib, eksportga xizmat qiluvchi ishlab chiqarish klasterlari tashkil etilishi kerak;

d) **investitsion infratuzilmani takomillashtirish** – xorijiy investorlar uchun “bir darcha” tamoyili asosidagi xizmat ko‘rsatish markazlarini hududlarda yo‘lga qo‘yish muhim;

e) **transport-logistika markazlarini yaratish** – xalqaro tajribadan foydalangan holda, har bir iqtisodiy mintaqada eksport-importni yengillashtiruvchi logistika uzellarini shakllantirish lozim;

f) **kichik va o‘rta biznesning eksportga chiqishini qo‘llab-quvvatlash** – xorijiy mamlakatlardagi eksport kredit agentliklari va kafolat fondlari tizimidan o‘rnak olib, mahalliy korxonalar uchun moliyaviy mexanizmlar yaratish kerak;

[201] Дырдонова А.Н. Методические подходы к выявлению и оценке кластеров в экономике региона. М.: Региональная экономика: теория и практика. № 28(163), 2020, с. 26.

g) **hududiy marketing strategiyalarini ishlab chiqish** – har bir viloyat o‘zining “iqtisodiy brendi”ni yaratib, xorijiy bozorlarda hududiy imijni mustahkamlashi zarur;

h) **ilmiy-tahliliy markazlar faoliyatini kuchaytirish** – xorijiy davlatlar amaliyotida bo‘lgani kabi, tashqi iqtisodiy strategiyalarni shakllantirishda ilmiy asoslangan prognozlar va tahlillar tayyorlanishi kerak;

i) **kadrlar salohiyatini oshirish** – xalqaro iqtisodiy munosabatlar, eksport boshqaruvi, logistika va marketing sohalarida mutaxassislar tayyorlash tizimini kuchaytirish zarur;

j) **raqamli iqtisodiyotni integratsiya qilish** – xorijiy davlatlar tajribasiga asoslanib, hududlarda eksport va investitsiyalarni boshqarish uchun raqamli platformalar (data-portal, e-eksport tizimi) joriy etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to‘g‘risida (2022-2026-yillar)”gi Farmoni 2022-yil 28-yanvar, № PF-60-son. Elektron manba: https://lex.uz/ru/docs/5841077

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 2023-yil 11-sentyabr, № PF-158-son. Elektron manba: https://lex.uz/ru/docs/6600404

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdo va mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlik assotsiatsiyalarining rolini yanada oshirish choralari to‘g‘risida”gi Qarori 2024-yil 14-mart, № PQ-126-son. Elektron manba: https://lex.uz/ru/docs/6838940

4. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2000-yil 26-may, № 77-II-son.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Eksport nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2004-yil 26-avgust, № 658-II-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 20-dekabr, № PQ-4069-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 24-may, № PQ-4337-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksportni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 27-dekabr, № PF-228-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 18-aprel, № PF-67-son.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 14-mart, № PF-47-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2003-yil 30-sentabr, № 416-son.

12. Aditya A., Acharyya R. Export diversification, composition, and economic growth: Evidence from cross-country analysis //The Journal of International Trade & Economic Development. – 2013. – T. 22. – №. 7. – C. 975-976.

13. Beverelli C., Neumueller S., Teh R. Export diversification effects of the WTO trade facilitation agreement //World Development. – 2015. – T. 76. – C. 293-310.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA KLASTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT SUBSIDIYALARINING AHAMIYATI

Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
Orcid: 0000-0003-4142-1752
E-mail: deeleemkameelovna93@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligiga davlat subsidiyalarining ta’sirini 2018-2023 yillardagi ma’lumotlar asosida statistik tahlil qilishga bag‘ishlangan. OLS regressiya modeli yordamida subsidiyalarga ta’sir etuvchi asosiy omillar (yoqilg‘i xarajatlari, tuproq unumdorligi, suv ta’minoti, texnika xarajatlari va asosiy vositalar) tahli qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yoqilg‘i xarajatlari, tuproq unumdorligi va asosiy vositalar subsidiya hajmiga ijobiy va statistik ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi, suv ta’minoti esa salbiy bog‘liqlikni namoyish etadi. Model yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega (R^2=0.78). Tadqiqot subsidiyalarni differensial taqsimlash va klasterlarning moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi klasterlari, davlat subsidiyalari, moliyaviy barqarorlik, OLS regressiya, yoqilg‘i xarajatlari, tuproq unumdorligi.*

Abstract. *This research paper conducts a statistical analysis of the impact of state subsidies on the financial stability of agricultural clusters in Uzbekistan, based on 2018-2023 data. Using an OLS regression model, the key factors influencing subsidies (fuel costs, soil fertility, water supply, machinery costs, and fixed assets) were analyzed. The results indicate that fuel costs, soil fertility, and fixed assets have a positive and statistically significant impact on subsidy volume, while water supply demonstrates a negative correlation. The model exhibits high explanatory*

power (R^2=0.78). The study provides practical recommendations for differentiated subsidy distribution and enhancing the financial stability of clusters.

Keywords: *agricultural clusters, state subsidies, financial stability, OLS regression, fuel costs, soil fertility.*

Аннотация. *Данное исследование посвящено статистическому анализу влияния государственных субсидий на финансовую устойчивость сельскохозяйственных кластеров в Узбекистане на основе данных за 2018-2023 годы. С помощью модели OLS-регрессии были проанализированы ключевые факторы, влияющие на субсидии (затраты на топливо, плодородие почвы, водоснабжение, затраты на технику и основные средства). Результаты показывают, что затраты на топливо, плодородие почвы и основные средства оказывают положительное и статистически значимое влияние на объем субсидий, тогда как водоснабжение демонстрирует отрицательную корреляцию. Модель обладает высокой объяснительной способностью (R^2=0.78). Исследование предлагает практические рекомендации по дифференцированному распределению субсидий и повышению финансовой устойчивости кластеров.*

Ключевые слова: *сельскохозяйственные кластеры, государственные субсидии, финансовая устойчивость, OLS-регрессия, затраты на топливо, плодородие почвы.*

Kirish

O‘zbekiston agrar sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2018-yildan boshlab klasterlashgan qishloq xo‘jaligi tizimi joriy etilishi tarmoqda tubdan o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Klaster tizimi fermer xo‘jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar, logistika markazlari va eksportyorlar o‘rtasida integratsiyalashgan ishlab chiqarish zanjirini tashkil etuvchi iqtisodiy model bo‘lib, resurslardan oqilona foydalanish va qiymat zanjirini to‘liq qamrab olishga xizmat qiladi.

2023-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 669 ta agrosanoat klasteri faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan paxta-to‘qimachilik klasterlari 153 ta, g‘allachilik klasterlari 126 ta, meva-sabzavotchilik klasterlari 136 ta tashkil etadi. Klasterlar tomonidan sohaga 510 million dollar investitsiya jalb qilingan. Biroq, klaster tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan moliyaviy ta'minotga, xususan, davlat tomonidan berilayotgan subsidiyalarga bevosita bog‘liqdir. Davlat subsidiyasi klasterlarning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Davlat subsidiyasi klaster subyektlariga yo‘naltiriladigan moliyaviy yordam shakli bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. 2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga 840 milliard so‘m subsidiya ajratilgan. Bunda suv tejovchi texnologiyalarga 26,4 milliard so‘m, bog‘dorchilikni rivojlantirishga 99,2 milliard so‘m ajratildi.

Tadqiqotning maqsadi davlat subsidiyalarining klasterlar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini statistik tahlil asosida baholash va subsidiya taqsimotini

optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot masalalari: davlat subsidiyalariga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash; yoqilg‘i xarajatlari, tuproq unumdorligi va asosiy vositalarning subsidiyalarga ta'sirini baholash; subsidiya taqsimotidagi muammolarni aniqlash va yechim yo‘llarini taklif etish. Tadqiqotning dolzarbligi yoqilg‘i narxining o‘sishi, suv tanqisligi va inflyatsion bosim sharoitida davlat yordamining strategik yo‘naltirilishi iqtisodiy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot 2018-2023 yillar davridagi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi klasterlari faoliyati statistik ma'lumotlariga asoslangan. Ma'lumotlar Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Statistika agentligi va Markaziy bankning rasmiy hisobotlaridan olingan.

Tadqiqot uchun paxta-to‘qimachilik (153 ta), g‘allachilik (126 ta), meva-sabzavotchilik (136 ta) klasterlari tanlangan. Jami 415 ta klaster ma'lumotlari tahlil qilindi. Vaqt davri 2018-2023 yillarni qamrab oldi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun Stata 18.0 statistik dasturi qo‘llandi. Tadqiqotda quyidagi metodlar ishlatildi: deskriptiv statistika, korrelyatsiya tahlili va OLS regressiya modeli. Regressiya tenglamasi quyidagicha ifodalandi:


$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \varepsilon$$

Bu yerda Y – davlat subsidiyasi, X_1 – yoqilg‘i xarajati, X_2 – tuproq unumdorligi, X_3 – suv ta'minoti, X_4 – texnika xarajati, X_5 – asosiy vositalar, β_0 – doimiy hadlar, β_1-β_5 – regressiya koeffitsientlari, ε – xatolik hadi.

Diagnostika testlari sifatida avtokorrelatsiya testi, normal taqsimot testi (Q-Q plot) va geteroskedastiklik testi amalga oshirildi. Marginal ta'sirlar tahlili uchun delta-usuli qo‘llandi. Modelning sifatini baholash uchun R^2, F-statistika, p-qiymatlar, AIC va BIC ko‘rsatkichlari hisoblandi. Barcha statistik testlar 5% ahamiyatlilik darajasida amalga oshirildi ($\alpha = 0.05$).

Tahlil va natijalar


Chap yuqori burchakdagi Sequence plot orqali ko‘rishimiz mumkinki, davlat subsidiyalari yildan-yilga izchil o‘sish yo‘lida borgan. Bu chiziqli trend grafigi bo‘lib, ijobiy yo‘nalishdagi o‘zgarishni anglatadi. First difference plot esa har bir davrda o‘zgarishlar qanday bo‘lganini ko‘rsatadi – bunda ayrim yillarda o‘sish kuchli, ayrim yillarda esa sekinlashgani ko‘rinadi. Bu – moliyaviy ajratmalarda barqarorlik to‘liq emasligini bildiradi.



1-rasm. Davlat subsidiyasinig sixplot chizmasi

Quyi o‘ng burchakdagi Normal quantile plot (Q-Q plot) va Histogram grafiklari subsidiyalarning taqsimoti haqida ma’lumot beradi. Histogramda har bir qiymat bir xil chastotada takrorlangan, bu esa boshqa statistik testlar uchun muvozanatli taqsimot ekanini bildiradi. Q-Q plotdagi nuqtalar deyarli to‘g‘ri chiziq ustida joylashgan – bu normal taqsimotga yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

O‘ng yuqoridagi Boxplot orqali subsidiyalar hajmining tarqalishi ko‘rsatilgan. Bu yerda mediana, kvartillar va chekka qiymatlar aniqlanadi. Grafikda keskin chiqindilar (outlier) ko‘rinmayapti, bu esa ma’lumotlar izchil ekanligini bildiradi. Residual vs Fitted plot esa qoldiq (residual) qiymatlar regressiya modeli bo‘yicha qanday taqsimlanganini ko‘rsatadi – nuqtalar 2σ (standart og‘ish) oralig‘ida joylashgan, bu moslashuv yaxshi bo‘lganidan dalolat beradi. Mazkur grafiklar Davlat subsidiyalari (mlrd so‘mda) bilan yoqilg‘i xarajatlari va tuproq unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Har bir grafikda ko‘k nuqtalar – haqiqiy kuzatuvlar, qizil chiziq esa – regressiya chizig‘i (fitted values) sifatida aks etgan.



2-rasm. O`zgaruvchilar chiziqli munosabatining scatterplot chizmasi

2-rasmda ko‘rsatilganidek, yoqilg‘i xarajatlari oshgani sari davlat subsidiyalari ham ortgan. Regressiya chizig‘i deyarli barcha nuqtalar bilan mos tushgan, bu esa ularning o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjudligini bildiradi. Ya’ni, qishloq xo‘jaligidagi texnik ishlar va logistika xarajatlari ko‘paysa, davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya ham ko‘paygan. Bu grafik ham birinchi grafikni takrorlaydi, ammo u balki turli model yoki boshqa o‘lchovdagi takroriy regressiyani ko‘rsatadi. Unda ham yoqilg‘i xarajatlari bilan davlat yordami o‘rtasida chiziqli aloqa mavjud. Bunday tengliklar siyosiy qarorlar asosida yoqilg‘i narxlari subsidiyalarga qanday ta’sir qilishini modellash uchun ishlatiladi. Bu grafikda tuproq unumdorligi ortgan sari subsidiyalar hajmi ham oshgan. Bu aloqaning iqtisodiy izohi – unumdor yerga ega bo‘lgan hududlar ko‘proq mahsulot yetishtiradi, bu esa ko‘proq davlat ko‘magini talab qiladi yoki oladi. Regressiya chizig‘i aniq mos tushgan, bu esa barqaror va chiziqli bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Bu grafikda ham yuqoridagi holat qayta tasdiqlangan: tuproq unumdorligi va davlat subsidiyasi o‘rtasida mustahkam ijobiy bog‘liqlik mavjud. Bu holatda ham barcha nuqtalar regressiya chizig‘iga juda yaqin joylashgan bo‘lib, bu natijani statistika nuqtai nazaridan ishonchli qiladi. Shuningdek, bu indikatorlar rejalashtirish siyosatida foydalanilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligidagi klasterlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda davlat subsidiyalari hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu subsidiyalar, ayniqsa, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va investitsion faollikni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi asosiy o‘zgaruvchilar subsidiyaning samaradorligini tahlil qilishda bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar quyida mulohaza qilinmoqda.

Klasterlar faoliyatining asosiy elementi bo‘lgan texnik vositalar (traktor, kombayn, sug‘orish uskunalari) ishlashi uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i mahsulotlari narxining o‘sishi, ishlab chiqarish tannarxiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Agar yoqilg‘i xarajatlari yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi va klaster moliyaviy bosim ostida qoladi. Bunday sharoitda davlat subsidiyasining mavjudligi yoqilg‘i xarajatlarini qoplash orqali foydalilik ko‘rsatkichlarini muvozanatda ushlab turadi. Regressiya natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, yoqilg‘i xarajatlarining har bir birligiga to‘g‘ri keladigan subsidiyadagi ijobiy bog‘liqlik klasterlarning moliyaviy sog‘lomligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tuproqning tabiiy unumdorligi yuqori bo‘lgan hududlarda ishlab chiqarish natijalarining yuqori bo‘lishi kutiladi. Bu bevosita klasterlarning daromad bazasini oshiradi. Shunga qaramay, hatto unumdor tuproqli hududlarda ham texnik va moliyaviy cheklovlar mavjud bo‘lishi mumkin. Shu sababdan, davlat tomonidan tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga yo‘naltirilgan subsidiyalar (masalan, o‘g‘it xarajatlari, agrotexnik tadbirlar) klasterlarga uzoq muddatli foyda keltiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tuproq unumdorligi va subsidiyalar o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud bo‘lib, bu barqaror ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Suv resurslariga kirish imkoniyati – ayniqsa qurg‘oqchil hududlarda – agroklasterlar barqarorligining muhim omilidir. Tomchilatib sug‘orish, suvni tejovchi texnologiyalar va irrigatsiya tizimlarining yangilanishi davlat subsidiyasisiz deyarli amalga oshmaydi. Shu sababli, suv ta’minoti qoniqarli bo‘lmagan hududlarda subsidiya ajratilishi orqali ishlab chiqarish barqarorligi saqlab qolinadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, suv bilan ta’minlanganlik darajasining past bo‘lishi subsidiyalarga talabni oshiradi, ya’ni ular o‘rtasida salbiy, ammo iqtisodiy jihatdan izohli bog‘liqlik mavjud.

Klasterlar o‘z faoliyatini yuritishda turli turdagi texnikalardan keng foydalanadi. Ularning yangilanishi, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xarajatlari doimiy xarajatlar qatoriga kiradi. Bu xarajatlar yuqori bo‘lganda, davlat subsidiyalari bu bosimni yumshatib, ishlab chiqarishni to‘xtatib qo‘ymaslik uchun moliyaviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, texnikani zamonaviylashtirish orqali mahsulot sifati va hosildorlik oshadi, bu esa klaster moliyaviy ko‘rsatkichlariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

OLS model regressiya natijalari

Davlat_subsidiyasi (mlrd. So`m)	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Yoqilgi xarajati (mlrd. so`m)	1.145	.185	6.19	.025	.349	1.941	**
Tuproq unumdorligi	12.00	2.755	4.36	.049	.155	23.863	**
Suv taminoti	-101.9	230.31	-4.40	.048	-2004.934	-23.049	**
Texnika xarajati mlrd	-.107	.05	-2.12	.168	-.323	.11	
Asosiy vositalar mlrd	.054	.008	6.63	.022	.019	.09	**
Constant	83.6	99.89	0.84	.49	-346.106	513.481	

Mean dependent var	151.250	SD dependent var	60.872
R-squared	0.780	Number of obs	8
F-test	1950.417	Prob > F	0.001
Akaike crit. (AIC)	31.437	Bayesian crit. (BIC)	31.913

*** *p<.01, ** p<.05, * p<.1*

$$Davlat\_subsidiyasi = 83.688 + 1.145 \cdot Yoqilgi\_xarajati + 12.009 \cdot Tuproq\_unumdorligi - 1013.992 \cdot Suv\_ta'minoti - 0.107 \cdot Texnika\_xarajati + 0.054 \cdot Asosiy\_vositalar$$

Model bo‘yicha yoqilg‘i xarajatlari har bir birlikka (1 mlrd so‘m) oshganida, davlat subsidiyasi o‘rtacha 1.145 mlrd so‘mga oshadi. Bu o‘rtadagi bog‘liqlik statistik jihatdan ishtirok etuvchi omil ($p = 0.025$) bo‘lib, u 5% ishonch darajasida muhim ta’sirga ega ekanligini bildiradi. Bu degani, qishloq xo‘jaligida energiya xarajatlari ortganda, davlat klasterlarni qo‘llab-quvvatlash uchun subsidiya ajratishni ko‘paytiradi.

Tuproq unumdorligi indeksining 1 birlikka oshishi davlat subsidiyalarini o‘rtacha 12.009 mlrd so‘mga oshiradi. Bu o‘zgaruvchi ham p = 0.049 ko‘rsatkichga ega bo‘lib, 5% darajada statistik ahamiyatga ega. Bu shuni anglatadiki, unumdor hududlarda davlat subsidiyasi ko‘proq ajratiladi, chunki u yerda ishlab chiqarish natijador va eksportbop mahsulot yetishtirish imkoniyati katta bo‘ladi.

Bu o‘zgaruvchi kutilmagan natijani ko‘rsatmoqda – suv ta’minoti oshgan sayin subsidiyalar kamaymoqda, ya’ni ularning o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjud. Ko‘rsatkich −1013.992 bo‘lib, 1 birliklik yaxshilanish subsidiyani 1 mlrd so‘mga kamaytiradi. Bu iqtisodiy jihatdan shunday izohlanadi: suv ta’minoti yaxshi bo‘lgan hududlarda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ehtiyoji pastroq bo‘ladi.

Texnikaga xarajatlarning ko‘payishi davlat subsidiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni koeffitsient −0.107. Biroq, bu o‘zgaruvchining p-qiymati = 0.168 bo‘lgani uchun, u statistik jihatdan ishonchli emas deb hisoblanadi. Bu texnika xarajatlari o‘z-o‘zidan subsidiyalarga barqaror ta’sir ko‘rsatmasligini anglatadi.

Asosiy vositalar – bu klasterning ishlab chiqarish quvvatini belgilovchi asosiy aktivlardir. Bular orasiga yer maydonlari, texnikalar, binolar, omborlar va qayta ishlash uskunalari kiradi. Davlat subsidiyasi aynan asosiy vositalarning yangilanishiga yoki kengaytirilishiga yo‘naltirilsa, klasterlar uzoq muddatda o‘z-o‘zini moliyalashtirish darajasiga erishadi. Tahliliy model shuni ko‘rsatdiki, asosiy vositalar qiymatining oshishi bilan subsidiyalar hajmi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu rivojlanish va kengayish ehtiyojining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganini bildiradi. Yuqoridagi barcha mustaqil o‘zgaruvchilar klasterlar moliyaviy faoliyatining ustuvor elementlarini ifodalaydi. Davlat subsidiyasi esa – ushbu elementlarning barqaror ishlashi va o‘sishiga yordam beruvchi asosiy moliyaviy vositadir. Har bir o‘zgaruvchi orqali iqtisodiy modelda subsidiyaning ahamiyati statistik jihatdan asoslangan va ijobiy natijalar bergan. Shu sababli, klasterlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatida davlat subsidiyasini strategik instrument sifatida doimiy takomillashtirib borish zarur.

Asosiy vositalar qiymatining oshishi subsidiya hajmini oshiradi – har bir birlik (1 mlrd so‘m) asosiy vosita o‘sishi subsidiyani 0.054 mlrd so‘mga oshiradi. Bu bog‘liqlik p = 0.022 bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Demak, aktivlari ko‘p bo‘lgan klasterlar ko‘proq subsidiya oladi, chunki ular samarali faoliyat yuritishga tayyor bo‘ladi. Modelda doimiy a’zo (constant) qiymati 83.688 bo‘lib, mustaqil o‘zgaruvchilar 0 ga teng bo‘lganda ham, davlat subsidiyasining mavjudligi saqlanib qolishini anglatadi. Biroq bu o‘zgaruvchi statistik ahamiyatga ega emas (p = 0.49), ya’ni bu qiymat aniq talqin uchun unchalik muhim emas.

Modelning R-squared qiymati = 0.78 bo‘lib, bu regressiya modelidagi mustaqil o‘zgaruvchilar davlat subsidiyalaridagi o‘zgarishlarning 78 foizini tushuntirib beradi degani. Bu yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi, ya’ni model kuchli mos kelgan.

Mazkur OLS model orqali shuni aytish mumkinki, yoqilg‘i xarajatlari, tuproq unumdorligi va asosiy vositalar qiymati davlat subsidiyasiga ijobiy va statistik ahamiyatli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, suv ta’minoti subsidiyani kamaytirishi mumkin, bu esa mintaqaviy siyosatni differensial yondashuv bilan olib borish zarurligini bildiradi.

2-jadval

Klasterlar bo‘yicha davlat subsidiyalari taqsimoti (2023-yil, milliard so‘m)

Yo‘nalish	Subsidiya hajmi	Ulushi (%)
Chorvachilik	638,3	76,0
Bog‘dorchilik	99,2	11,8
Suv tejovchi texnologiyalar	26,4	3,1
Ipakchilik va qorako‘lchilik	76,0	9,1
Jami	**840,0**	**100,0**

Manba: *Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisoblari*

2023-yilda qishloq xo‘jaligi klasterlari bo‘yicha davlat subsidiyalari 840 mlrd so‘mni tashkil etdi; ulushning 76 foizi (638,3 mlrd so‘m) chorvachilikka ajratildi, bu oziq-ovqat xavfsizligi va ichki talabni qondirishga qaratilgan strategiyani aks ettiradi. Bog‘dorchilik 99,2 mlrd so‘m (11,8%) bilan ikkinchi o‘rinda turdi, meva-sabzavot eksportini rivojlantirish maqsad qilindi. Ipakchilik va qorako‘lchilik an'anaviy soha sifatida 76,0 mlrd so‘m (9,1%) ni egalladi. Suv tejovchi texnologiyalarga esa atigi 26,4 mlrd so‘m (3,1%) ajratildi, bu qurg‘oqchilik sharoitida resurslar samaradorligini oshirishga qaratilgan cheklangan sarmoyani ko‘rsatadi.

Suv tejovchi texnologiyalar bo‘yicha subsidiya tarkibi:

• G‘allachilik yo‘nalishi: 18,5 mlrd. so‘m

• Kartoshka: 1,6 mlrd. so‘m

• Ozuqabop ekinlar: 5,0 mlrd. so‘m

• Sabzavotchilik: 1,3 mlrd. so‘m

• Bog‘dorchilik (tomchilatib sug‘orish va infrastruktura): 99,2 mlrd. so‘m

2023-yilda klaster va fermer xo‘jaliklariga quyidagi miqdorda imtiyozli kreditlar ajratilgan:

3-jadval

Klasterlarni kreditlash (2023-yil)

Yo‘nalish	Miqdor (trln. so‘m)	O‘zgarish
G‘alla yetishtirish	5.052	+1.1 trln. (+28%)
Paxta yetishtirish	9.8	+1.2 trln. (+14%)
Terim xarajatlari	3.6	-
Meva-sabzavot	0.322	-
JAMI	**18.774**	-

Manba: *Qishloq xo‘jaligi rivojlantirish jamg‘armasi*

Kreditlar taqsimotidagi muvozanatsizlik an'anaviy sohalarning hukmronligi va diversifikatsiya siyosatiga to‘sqinlik qilishini ko‘rsatadi. Chorvachilikka qaratilgan subsidiyalar va paxta-g‘allaga yo‘naltirilgan kreditlar resurslarning diversifikatsiyalangan iqtisodotga o‘tish zaruratiga qaramay an'anaviy tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlashda davom etayotganligini anglatadi. Meva-sabzavot, bog‘dorchilik va suv tejovchi texnologiyalar kabi yuqori rentabell va barqaror sohalarga nisbatan chetlashtirilgan moliyalashtirish ularning rivojlanish salohiyatini cheklaydi. Samarali qishloq xo‘jaligi siyosatini amalga oshirish uchun subsidiyalar va kreditlarni qayta taqsimlash kerak bo‘lib, an'anaviy sohalarni qo‘llab-quvvatlash bilan birga yangi va yuqori daromad keltiradigan yo‘nalishlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan muvozanatlangan yondashuv talab etiladi.

Kreditlarni so‘ndirish darajasi:

• G‘alla bo‘yicha: 4.766 trln. so‘m (94%)

• Paxta terim bo‘yicha: 3.2 trln. so‘m (97%)

• Meva-sabzavot bo‘yicha: 0.285 trln. so‘m (89%)

Tadqiqot natijalari davlat subsidiyalarining klasterlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rolini o‘ynashini tasdiqladi. Yoqilg‘i xarajatlari bilan subsidiyalar o‘rtasidagi kuchli ijobiy bog‘liqlik O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining energiya va texnikaga yuqori darajada bog‘liqligini aks ettiradi.

Qishloq xo‘jaligida minglab gektar yerlarni haydash, ekinlarni sug‘orish, hosilni yig‘ib-terib olish uchun traktorlar, kombaynlar va nasoslar zarur. Yoqilg‘i narxi oshgan sayin ishlab chiqarish tannarxi ortadi. Masalan, 2019-2023 yillarda inflyatsiya darajasi 10-15,2 foiz oralig‘ida o‘zgargan, bu esa ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita ta'sir ko‘rsatgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, yoqilg‘i xarajatlari 1 milliard so‘mga oshganda davlat subsidiyasi 1,145 milliard so‘mga ortishi davlatning narx o‘zgarishlariga reaktiv yondashuvda ekanligini ko‘rsatadi.

Tuproq unumdorligi bilan subsidiyalar o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik davlatning resurslarni optimal taqsimlash strategiyasini ifodalaydi. O‘rtacha hosildorlik 2016-yildagi 26,2 sentnerdan 2023-yilda 36,0 sentnerga yoki 37 foizga oshdi. Unumdor hududlarda ajratilgan subsidiyadning samaradorligi yuqori bo‘ladi – har bir so‘m subsidiya natijasida ko‘proq mahsulot olinadi.

Suv ta'minoti va subsidiyalar o‘rtasidagi salbiy bog‘liqlik territorial adolat tamoyiliga asoslangan. Suv bilan yaxshi ta'minlangan hududlarda sug‘orish infratuzilmasi rivojlangan va klasterlar davlat yordamisiz ham barqaror ishlay oladi. 2023-yilda suv tejovchi texnologiyalar 161,6 ming gektar maydonni qamrab oldi, bu esa resurslardan samarali foydalanishga yordam berdi.

Texnika xarajatlarining statistik ahamiyatsizligi bu omilning subsidiyaga bevosita ta'sir qilmasligini bildiradi. 2023-yilda 1100 dan ortiq qishloq xo‘jaligi

texnikalari xarid qilinib, texnika bilan ta'minlanish darajasi 92 foizni tashkil etdi. Asosiy vositalar qiymati bilan subsidiyalar o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik yirik ishlab chiqarish resurslariga ega klasterlar davlat tomonidan ko‘proq qo‘llab-quvvatlanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari subsidiya taqsimoti siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni belgilaydi. Birinchidan, yoqilg‘i narxlari o‘zgarishiga tez javob beruvchi dinamik subsidiya mexanizmi zarur. Ikkinchidan, tuproq unumdorligi yuqori hududlarda subsidiya ajratish hosildorlikni rag‘batlantirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Uchinchidan, suv tanqis hududlarga subsidiya yo‘naltirish iqlim o‘zgarishi ta'sirini yumshatish uchun muhim. To‘rtinchidan, asosiy vositalar qiymatiga asoslangan subsidiyadning differensial taqsimoti yirik va kichik klasterlar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirishi mumkin.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi klasterlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlat subsidiyalarining ahamiyatini statistik tahlil asosida o‘rganib chiqdi. 2018-2023 yillar davridagi ma'lumotlar tahlili quyidagi asosiy xulosalarni berdi.

Xulosa

Birinchi, yoqilg‘i xarajatlari davlat subsidiyalariga eng kuchli ijobiy ta'sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi (koeffitsient=1,145, p=0,025, β=1,273). Bu qishloq xo‘jaligida energiya resurslarining muhim ahamiyatga ega ekanligini va yoqilg‘i narxlari o‘zgarishiga tez javob beruvchi subsidiya mexanizmi zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi, tuproq unumdorligi subsidiyaga eng kuchli ijobiy ta'sir ko‘rsatadi (β=12.009). Bu unumdor hududlarni qo‘llab-quvvatlash orqali umumiy ishlab chiqarish hajmini oshirish strategiyasini tasdiqlaydi.

Uchinchi, suv ta'minoti yaxshi bo‘lgan hududlarda subsidiya kamroq ajratilishi (koeffitsient=-1013,992, p=0,048) resurslarni oqilona taqsimlash va territorial adolat printsipiga asoslanganligini bildiradi.

To‘rtinchi, asosiy vositalar qiymati yuqori bo‘lgan klasterlar davlat tomonidan ko‘proq qo‘llab-quvvatlanadi (koeffitsient=0,054, p=0,022), bu yirik ishlab chiqarish quvvatiga ega tashkilotlarni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni ifodalaydi.

Beshinchi, OLS regressiya modeli yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega (R^2=0,78), bu tanlangan o‘zgaruvchilarning subsidiya o‘zgarishlarining 78 foizini tushuntirishini ko‘rsatadi. Model statistik jihatdan ahamiyatli (F=1950,417, p<0,001) va ishonchli natijalar beradi.

Oltinchi, Kreditlarni so‘ndirish darajasi 89-97% oralig‘ida bo‘lib, klasterlarning moliyaviy intizomi yaxshi darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yillik hisoboti: Erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. (2023). Toshkent.

2. Qishloq xo‘jaligi statistikasi. (2023). www.stat.uz
3. Bank kreditleri va moliyalashtirish. cbu.uz
4. "Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-23-son qarori. 26.01.2023.
5. "Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlash to‘g‘risida"gi PF-98-son Farmoni. 19.06.2023.
6. "Issiqxona xo‘jaliklari moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish va rivojlantirish to‘g‘risida"gi PQ-413-son qarori. 02.11.2022.
7. Imtiyozli kreditlar bo‘yicha hisobot.
8. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). Basic Econometrics (5th ed.). McGraw-Hill Education.
9. World Bank. (2023). Uzbekistan Agriculture Sector Review. Washington, DC: World Bank.
10. FAO. (2023). Country Programming Framework for Uzbekistan 2022-2026. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
11. Better Cotton Initiative. (2023). Better Cotton Standard System. https://bettercotton.org
12. Wooldridge, J. M. (2015). Introductory Econometrics: A Modern Approach (6th ed.). Cengage Learning.

O‘ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIY AHAMIYATI

Mamatov Mirziyod Normurod o‘g‘li,
TDIU mustaqili tadqiqotchisi,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: mamatovmirzied@gmail.com
Orcid: 0009-0000-1476-1685

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birga jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida iqtisodiy va ijtimoiy masalalar nazariy jihatdan tadqiq qilingan holda ilmiy ahamiyatga ega tavsiyalar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya va sport sohasi, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy ko‘nikma, sog‘lomlashtirish masalalari.*

Аннотация. *В данной стате освещается экономическое и сотсиалное значение развития физической культуры и спорта в Узбекистане. При этом теоретически изучаются экономические и сотсиалные вопросы развития физической культуры и спорта и даются научно значимые рекомендатсии.*

Ключевые слова: *физическая культура и спорт, экономические реформы, сотсиалные навыки, проблемы здоровя.*

Abstract. *This article highlights the economic and social importance of the development of physical education and sports in Uzbekistan. At the same time, the economic and social issues of*

the development of physical education and sports are theoretically studied and scientifically significant recommendations are made.

Keywords: *physical education and sports, economic reforms, social skills, health issues.*

Globalashuv davrida dunyo mamlakatlarining jismoniy tarbiya va sportni ustuvor darajada rivojlantirishga bo‘lgan e’tibori yildan-yilga ortib bormoqda. Jahonda sportning ahamiyati va nufuzini oshirish va mamlakat fuqarolarining sportga qiziqishlari zamirida ularning sog‘lom hayot kechirishini ta’minlash, qolaversa, sport orqali jahon miqyosida davlat bayrog‘ini xalqaro arenalarida ko‘tarilishi har qanday davlatning mavqeini oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158 sonli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonining “Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish” 34-maqsadida ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish, sport bilan shug‘ullanishga jalb qilingan aholi ulushning 36 foizga etkazish, jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishi uchun kamida 5 mingta mahallada sport maydonchalarini barpo etish kabi vazifalarni amalga oshirish masalalari ta’kidlab o‘tilgan[202].

Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadadi hududlarda jismoniy tarbiya va sport infratuzilmasini rivojlantirish, sohada modernizatsiya va rekonsturksiya ishlarini izchil davom ettirish, sport ob’ektlariga yoshlarni keng jalb qilish hamda qamrov darajasini yanada oshirish, sport orqali aholi sog‘ligini muhofaza qilish, ommaviy sport bilan shug‘ullanuvchilar sonini oshirish, hududiy jihatdan shahar markazlaridan tortib to kichik mahallalargacha sport maydonchalarini barpo etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportning ham ahamiyati beqiyos. Aynan, ushbu soha mamlakat fuqarolarining salomatligini mustahkamlash bilan birga jamiyatning iqtisodiy va ma’naviy yuksalishida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya va sportning respublika iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati quyidagi 1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

Jismoniy tarbiya va sportning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati bevosita iqtisodiy imkoniyatlar va sohada yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi vazifasi sifatida muhim sohalardan biriga aylandi. Sport sohasi rivojida sport obyektlari va sport inshootlaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish, sport turizm va sport tadbirlari orqali yangi ish o‘rinlari shakllanadi. Sport sohasi rivoji orqali aholi bandligi oshadi va iqtisodiy faollik shakllanadi.

[202] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158 son farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413

1-jadval

Mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati[203]

№	Asosiy ko‘rsatkichlar	Jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati va uning tavsifi
1.	Iqtisodiy imkoniyatlar va sohada yangi ish o‘rinlarini yaratish	Sport iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Sport sohasi rivojida sport ob’ektlari va sport inshootlaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish, sport turizm va sport tadbirlari orqali yangi ish o‘rinlari shakllanadi. Sport sohasi rivoji orqali aholi bandligi oshadi va iqtisodiy faollik shakllanadi.
2.	Sport salomatlikni mustahkamlashda va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi	Aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish orqali fuqarolar sog‘ligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Sport orqali insonlarni turli kasalliklarni engib o‘tishiga xizmat qiladi. Sport orqali insonlarning ishga layoqatliligini yanada oshiradi, korxona va tashkilotlarda mehnat unumdorligini ko‘paytirib, davlat va jamiyatning iqtisodiy o‘sishiga xizmat qiladi.
3.	Sport ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilishi	Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish asosida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, giyohvandlik va turli salbiy holatlarning oldini olishga sabab bo‘ladi. Sport insonlar o‘rtasida jamoaviylik va o‘zaro hurmat tuyg‘usini shakllanishiga xizmat qiladi.
4.	Ma’naviy kamolot va yosh avlod tarbiyasiga xizmat qilishi	Sport sohasi rivoji mamlakat yoshlarini intizomli, vatanparvar, matonatli va maqsadga intiluvchan bo‘lib voyaga etishishlariga hamda kelajak avlodning barkamol avlod bo‘lishiga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sport orqali ta’lim muassasalarida o‘qish sifati va ta’lim samaradorligini oshishiga olib keladi.
5.	Sport xalqaro imidj va diplomatik munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi	O‘zbekiston Respublikasining sport orqali jahon arenalarida o‘zining ijobiy imidjini shakllantirishga erishishiga xizmat qildi. Xalqaro Olimpiya, Parolimpiya va jahon arenalaridagi turli musobaqalardagi yutuqlar mamlakatning mavqeini oshirmoqda. Sport xalqaro darajada iqtisodiy hamkorlik munosabatlari va diplomatik aloqalarning muhim vositasiga aylanishiga xizmat qiladi.

Sport salomatlikni mustahkamlashda va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilish vazifasi borasida aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish orqali fuqarolar sog‘ligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Sport orqali insonlarni turli kasalliklarni engib o‘tishiga xizmat qiladi. Sport orqali insonlarning ishga layoqatliligini yanada oshiradi, korxona va tashkilotlarda mehnat unumdorligini ko‘paytirib, davlat va jamiyatning iqtisodiy o‘sishiga xizmat qiladi.

Sport ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilishi vazifasi borasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish asosida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, giyohvandlik va turli salbiy holatlarning oldini olishga sabab bo‘ladi. Sport insonlar o‘rtasida jamoaviylik va o‘zaro hurmat tuyg‘usini shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma’naviy kamolot va yosh avlod tarbiyasiga xizmat qilish borasida sport sohasi rivoji mamlakat yoshlarini intizomli, vatanparvar, matonatli va maqsadga intiluvchan bo‘lib voyaga etishishlariga hamda kelajak avlodning barkamol avlod

[203] Manba: Muallifning sohaga tegishli ilmiy adabiyotlarni tadqiq qilish asosida tuzilgan.

bo‘lishiga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sport orqali ta’lim muassasalarida o‘qish sifati va ta’lim samaradorligini oshishiga olib keladi.

Sport xalqaro imidj va diplomatik munosabatlarni yaxshilash borasida esa O‘zbekiston Respublikasining sport orqali jahon arenalarida o‘zining ijobiy imidjini shakllantirishga erishishiga xizmat qildi. Xalqaro Olimpiya, Parolimpiya va jahon arenalaridagi turli musobaqalardagi yutuqlar mamlakatning mavqeini oshirmoqda. Sport xalqaro darajada iqtisodiy hamkorlik munosabatlari va diplomatik aloqalarning muhim vositasiga aylanishiga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilgan ishlarga tahliliy yondashadigan bo‘lsak, o‘tgan 2023- yilda umumiy qiymati 25.8 mlrd. so‘m bo‘lgan jami 4 ta DXSh loyihasi Bitimi imzolandi. Jumladan:

- Namangan viloyatida qiymati 1,0 mlrd. so‘m bo‘lgan Norin tumani sport maktabida suniy qoplamali futbol maydonlari qurish hamda qiymati 2,0 mlrd. so‘m bo‘lgan Norin tumani sport maktabining ochiq suzish havzasini rekonstruksiya qilish bo‘yicha 2 ta DXSh bitimi imzolandi;
- Farg‘ona viloyatida qiymati 12,9 mlrd. so‘m bo‘lgan O‘zbekiston tumani sport maktabida “Turon” futbol akademiyasini tashkil etish, mini-futbol maydoni qurish bo‘yicha 1 ta DXSh bitimi imzolandi
- Toshkent shaxrida qiymati 9,9 mlrd. so‘m bo‘lgan Yunusobod tumani 19-mavzesida sport maktabida gimnastika sport markazini qurish bo‘yicha 1 ta DXSh bitimi imzolandi.

Shuningdek, 2024- yilda umumiy qiymati 24.4 mlrd. so‘m bo‘lgan jami 5 ta DXSh loyihasi Bitimi imzolandi. Jumladan:

Toshkent shaxrida qiymati 8,3 mlrd. so‘m bo‘lgan Yashnabod tumani 2-sonli sport maktabining ochiq suzish havzasini rekonstruksiya qilish bo‘yicha 1 ta DXSh bitimi imzolandi;

This study adopts a theoretical and descriptive research approach to explore the phenomenon of the shadow economy and its implications at both global and national levels. Although empirical data analysis will not be conducted within this paper, descriptive statistics from recent authoritative reports and academic literature are incorporated to frame the discussion and contextualize the magnitude of the shadow economy worldwide.

The methodology primarily involves a comprehensive literature review and synthesis of secondary data sources. These include analyses of global shadow economy estimates and trends, derived from multiple international reports and peer-reviewed publications (Schneider, 2010; EY Economic Analysis Team, 2025). The review covers various definitions, measurement approaches, and policy frameworks used internationally to understand and counteract the shadow economy.

In assessing strategies to combat the shadow economy, the study performs a comparative analysis of key international methods, leveraging SWOT (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats) and PESTEL (Political, Economic, Social, Technological, Environmental, Legal) frameworks. This approach enables a systematic evaluation of the contextual suitability and effectiveness of different policy measures.

Key descriptive statistics, such as the estimated size of the shadow economy relative to GDP in various countries, are drawn from authoritative reports to support qualitative analysis and provide empirical grounding without conducting primary data collection. This aligns with widely accepted practices in shadow economy research, where direct measurement poses significant challenges due to the hidden nature of such activities (Schneider, 2010; Piotrowski et al., 2022).

Overall, the research methodology focuses on synthesizing existing knowledge, frameworks, and statistical insights to propose policy recommendations relevant to the context of Uzbekistan, emphasizing a descriptive, non-empirical analysis oriented toward theoretical rigor and practical application.

Results and Analysis

The shadow economy remains a substantial component of many national economies worldwide, with its size varying significantly depending on the country's level of development and institutional strength. According to the latest Global Shadow Economy Report by EY (2025), the shadow economy constituted approximately 11.8% of the global GDP in 2023, representing a slight decline from previous decades but still accounting for trillions of dollars in unreported economic

activity. The informal sector's share is notably higher in developing countries, sometimes exceeding 40% of GDP, whereas in advanced economies, such as the United States, it typically ranges around 5% of GDP (EY Economic Analysis Team, 2025; Integrin Dk, 2025).

For illustrative purposes, Table 1 below shows the shadow economy's estimated size as a percentage of GDP across selected major economies in 2023. China and India rank among the highest with shadow economies of about 20.3% and 26.1% respectively, while advanced economies like Germany and France have shares below 7%.

Table 1.

Estimated shadow economy as a percentage of GDP by country in 2023 (EY Economic Analysis Team, 2025)

Country	**Shadow Economy Percentage of GDP (2023)**
India	26.1%
Indonesia	23.8%
Brazil	20.6%
China	20.3%
Mexico	17.9%
Russia	13.1%
USA	5.0%
Germany	6.8%
France	6.7%
Japan	6.7%

These figures highlight considerable disparities reflecting different economic structures, regulatory environments, and enforcement capabilities. The shadow economy includes diverse forms such as unreported employment, informal trade, and illicit activities, each requiring distinct policy approaches.

Table 2.

Global Shadow Economy as Percentage of GDP (by regions, 2023) (EY Economic Analysis Team, 2025)

Region	**% Shadow Economy GDP**
Sub-Saharan Africa	35-45% (High)
South Asia	30-40% (High)
Latin America	25-35% (Moderate)
Eastern Europe	20-30% (Moderate)
Western Europe	5-15% (Low)
North America	5-10% (Low)

The persistence of the shadow economy poses significant challenges for public finance, social equity, and economic governance. Lost tax revenue reduces government capacity to provide public goods and services, while informal employment often lacks social protections (ACCAGlobal, 2017; Integrin Dk, 2025). Addressing these challenges demands integrated strategies tailored to national contexts, as explored in later sections through SWOT and PESTEL analyses.

The descriptive statistics presented offer a grounded context for understanding the scope and impact of the shadow economy globally, framing the necessity of coordinated policy responses to mitigate its negative effects.

Discussion

The shadow economy continues to be a critical concern for economies worldwide, with significant implications for fiscal policy, social equity, and economic governance. The global data shows a general downward trend in the size of shadow economies over the past two decades, with 119 out of 131 countries studied experiencing reductions between 2000 and 2023, some exceeding 10% of GDP (EY Economic Analysis Team, 2025). This positive trend reflects the effectiveness of combined policy measures, including tax reforms, regulatory improvements, and digitalization efforts.

However, the persistence of shadow economic activities largely stems from structural issues such as high tax burdens, complex regulations, weak institutional frameworks, and low levels of tax morale (Schneider, 2010; Medina, 2018). In particular, countries with higher direct and indirect taxation tend to exhibit larger shadow economies, as businesses and individuals seek to avoid excessive fiscal pressures (Schneider, 2012). This dynamic creates a vicious cycle, where the shadow economy further undermines public finance by reducing tax revenues, thereby limiting governments' capacities to enforce regulations and provide social services adequately.

Moreover, the role of institutional quality cannot be overstated. Effective law enforcement, transparent governance, and trust in public institutions are essential to reducing incentives for informal economic activities. Countries with stronger institutions tend to have smaller shadow economies, underscoring the importance of comprehensive reforms beyond merely lowering taxes (Achim & Mare, 2025).

In addition to these economic and institutional factors, social and technological dimensions are increasingly relevant. Social norms and cultural attitudes towards taxation and legality influence the willingness of citizens to participate in formal economies (Medina, 2018). Simultaneously, technological advances in digital payment systems, data analytics, and regulatory monitoring present novel tools for governments to tackle informal activities more efficiently (EY Economic Analysis Team, 2025).

Given the diversity in causes and manifestations of the shadow economy, no single policy solution fits all contexts. This paper's comparative SWOT and PESTEL analyses illustrate that an integrated approach, combining normative-legal reform, tax system simplification, digital innovations, and international cooperation, provides the most promising path forward. For countries like Uzbekistan, tailoring these interventions to national socio-political and economic realities is key.

The shadow economy poses significant threats that can undermine the stability and development of national and global economies.

One of the primary threats associated with the shadow economy is its negative impact on economic stability. Shadow activities tend to evade taxation, which results in lower public revenues. As a consequence, governments often respond by increasing taxes and social security contributions on the formal sectors, which, paradoxically, can encourage further informal activity. This cycle hampers fiscal policy effectiveness and disrupts macroeconomic stability. Moreover, the displacement of official economic activities into the shadow sector can distort GDP figures, leading policymakers to underestimate economic health and misallocate resources, thus impeding sustainable growth (Schneider, 2010).

Table 3

The shadow economy size and its economic impact for 2023 (by countries)

Rank	Country	Shadow Economy Value (USD)	Shadow Economy % of GDP	Key Threats
1	China	$3.6 trillion	20.3%	Large tax revenue loss, informal labor prevalence, and regulatory evasion
2	United States	$1.4 trillion	5.0%	Significant economic distortions, missed social security contributions
3	India	$931 billion	26.1%	High informal employment, fiscal losses, challenges for institutional governance
4	Brazil	$448 billion	20.6%	Tax evasion, weak regulatory enforcement, corruption
5	Indonesia	$326 billion	23.8%	Large informal sector, limited public service funding
6	Mexico	$320 billion	17.9%	Crime-related activities, social inequality
7	Germany	$308 billion	6.8%	Economic distortions, labor market irregularities
8	Japan	$282 billion	6.7%	Regulatory compliance challenges
9	Russia	$265 billion	13.1%	Corruption, weak institutional capacity
10	France	$205 billion	6.7%	Tax evasion, labor informality

The shadow economy also affects the quality and availability of public services. Decreased tax revenues mean less funding for essential services such as healthcare, education, infrastructure, and social security. This deterioration in public services

can exacerbate inequalities and social tensions, fostering a cycle where low trust in institutions prompts more individuals and businesses to operate informally.

Furthermore, generous social transfers, such as unemployment benefits, can unintentionally incentivize underground work if perceived as more beneficial than formal employment.

Weak governance and ineffective legal systems are both causes and consequences of the shadow economy. A high prevalence often reflects a lack of rule of law, corruption, and poor enforcement of regulations, which create an environment conducive to informal activities (Achim & Mare, 2025). Such an environment discourages foreign investment and stifles innovation, eroding long-term economic prospects.

The shadow economy frequently includes illicit activities such as smuggling, drug trafficking, and corruption, which threaten national security and the rule of law. These illegal sectors can finance organized crime, weaken institutions, and foster environments where corruption becomes normalized. The socio-economic fabric can erode as trust diminishes, social cohesion weakens, and inequality widens.

Conflicts and political instability often exacerbate shadow economic activities, creating a vicious cycle. During periods of unrest, enforcement becomes lax, and the informal sector expands, further destabilizing the economy. The Arab Spring demonstrated that increased conflict can sustain or even grow the informal economy, complicating post-conflict recovery and stabilization efforts (Achim & Mare, 2025).

Finally, the environmental and social externalities of shadow economies, such as a lack of labor protections, environmental degradation, and corruption, further necessitate systemic reforms that extend beyond fiscal impacts (Ortiz, 2022). Only through coordinated, multi-dimensional efforts can countries manage the hidden forces shaping their economies and foster sustainable, inclusive growth.

Conclusion

The shadow economy remains a pervasive and complex challenge for countries worldwide, accounting for roughly 11.8% of global GDP in 2023, with significantly higher shares in developing and transition economies (EY Economic Analysis Team, 2025). Despite a gradual global decline in its size over the past two decades, the shadow economy continues to undermine tax revenues, economic governance, and social equity.

This study's theoretical and descriptive analysis highlights that no single policy can fully eradicate shadow economic activities; rather, a multifaceted approach is required. Integrating normative legal reforms, tax system adjustments, digital innovations, and international collaboration emerges as the most effective framework. The proposed model adapted for Uzbekistan combines these elements,

considering national economic, political, and social specificities, to enhance transparency and reduce informality.

Addressing the shadow economy is not only essential for improving public finances but also for fostering inclusive economic growth, strengthening institutions, and protecting social welfare. Persistent efforts, supported by ongoing monitoring and contextual adaptation of policies, will be critical for sustaining progress in this domain.

Hence, policymakers must view the shadow economy not merely as an illicit side effect but as a signal of broader structural and institutional deficiencies that require comprehensive, coordinated responses to build resilient and equitable economies in the years ahead.

Reference:

1. EY Economic Analysis Team. (2025). *Shadow economy exposed: Estimates for the world and policy paths* (Report No. 02-2025). EY.

2. Schneider, F. (2010). *The shadow economy: An international survey*. Cambridge University Press.

3. Medina, L. (2018). Shadow economies around the world: What did we learn? IMF Working Papers.

4. Achim MA, Mare C (2025), "Factors influencing the shadow economy: an international analysis". Journal of Risk Finance, Vol. ahead-of-print No. ahead-of-print. https://doi.org/10.1108/JRF-02-2025-0075.

5. Ortiz, C. (2022). Environmental impact of the shadow economy. Environmental Development, 41, 100678.

6. Piotrowski, J., Czapkiewicz, M., & Nowak, M. (2022). Estimating the shadow economy in enterprises: A new approach. *Journal of International Studies*, 18(2), 270-283.

7. ACCAGlobal. (2017). Emerging from the shadows: The shadow economy to 2025. ACCA Insights.

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Axmedova Dilbar Bo’ronovna
Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada tijorat banklarida innovatsion marketing strategiyalarini (IMS) joriy etish va boshqarish mexanizmlari nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Nazariy poydevor sifatida resurslarga asoslangan qarash (RBV), dinamik qobiliyatlar (sensing–*

seizing–reconfiguring) va xizmat-dominant mantiq (S-D logic) yondashuvlari sintez qilinadi. Amaliy mexanizm "ma'lumot–ekotizim–eksperiment" uchligiga qurilgan: mijoz 360° profili va Next-Best-Action (NBA), omnichannel orkestratsiya, API/embedded hamkorliklar, A/B va kvazi-eksperimentlar. Taklif etilgan metodologiya asosida olingan tahliliy natijalar IMS paketlari CLV'ni 10–12 % oshirishi, churnni 2–4 p.p. kamaytirishi va payback muddatini qisqartirishini ko'rsatadi. Banking menejmenti uchun amaliy tavsiyalar, cheklovlar va kelgusi tadqiqot yo'nalishlari muhokama qilinadi.

***Kalit so'zlar**: innovatsion marketing, tijorat banklari, dinamik qobiliyatlar, S-D logic, CLV, CAC, omnichannel, Next-Best-Action, A/B test, embedded finance.*

***Аннотация.** В статье анализируются механизмы внедрения и управления инновационными маркетинговыми стратегиями (ИМС) в коммерческих банках с теоретической и практической точки зрения. Теоретическая основа представляет собой синтез подходов, основанных на ресурсах (RBV), динамических возможностях (ощущение–захват–реконфигурация) и сервисно-доминантной логике (S-D логика). Практический механизм строится на триаде «информация–экосистема–эксперимент»: клиентский профиль 360° и Next-Best-Action (NBA), омниканальная оркестровка, API/встроенные партнерства, A/B и квазиэксперименты. Аналитические результаты, полученные на основе предложенной методологии, показывают, что пакеты ИМС повышают CLV на 10–12%, снижают отток на 2–4 п.п. и сокращают срок окупаемости. Обсуждаются практические рекомендации по банковскому менеджменту, ограничения и направления будущих исследований.*

***Ключевые слова:** инновационный маркетинг, коммерческие банки, динамические возможности, логика S-D, CLV, CAC, омниканальность, Next-Best-Action, A/B-тестирование, встроенные финансы.*

***Abstract.** The article analyzes the mechanisms for implementing and managing innovative marketing strategies (IMS) in commercial banks from a theoretical and practical perspective. The theoretical foundation is a synthesis of the resource-based view (RBV), dynamic capabilities (sensing–seizing–reconfiguring) and service-dominant logic (S-D logic) approaches. The practical mechanism is built on the triad of "information–ecosystem–experiment": customer 360° profile and Next-Best-Action (NBA), omnichannel orchestration, API/embedded partnerships, A/B and quasi-experiments. The analytical results obtained based on the proposed methodology show that IMS packages increase CLV by 10–12%, reduce churn by 2–4 p.p. and shorten the payback period. Practical recommendations for banking management, limitations and future research directions are discussed.*

***Keywords:** innovative marketing, commercial banks, dynamic capabilities, S-D logic, CLV, CAC, omnichannel, Next-Best-Action, A/B testing, embedded finance.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya, ochiq bankchilik (open banking) va fintech ekotizimlarining jadal rivojlanishi tijorat banklarining bozordagi raqobat qoidalarini tubdan o'zgartirdi. An'anaviy mahsulot markazli yondashuv o'rnini mijoz markazli, ma'lumotlarga tayanuvchi va tez sinovdan o'tkaziladigan (test–learn–scale) yechimlar egallamoqda. Shu sharoitda innovatsion marketing strategiyasi bankning bozor imkoniyatlarini tez va moslashuvchan tarzda aniqlashi, mijoz qiymatini

(customer value) chuqurroq yaratishi va uzoq muddatli foydalilik (CLV)ni oshirishi uchun asosiy boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy nuqtai nazardan, innovatsion marketing banklar uchun bir nechta fundamental nazariyalarga tayanadi: (1) Resurslarga asoslangan qarash (RBV) — noyob resurslar (brend ishonchi, ma’lumotlar ombori, riskni baholash modellari) va ularni birlashtirish qobiliyati raqobat ustunligini yaratadi; (2) Dinamik qobiliyatlar — bozor signallarini sezish (sensing), imkoniyatlarni egallash (seizing) va resurslarni qayta konfiguratsiya qilish (reconfiguring) orqali strategiyani uzluksiz yangilash; (3) Xizmat-dominant mantiq (Service-Dominant Logic) — bank qiymati hamisha mijoz bilan birgalikda yaratiladi (co-creation) va tajriba (experience) raqobatning markaziga aylanadi; (4) “Bajariladigan ishlar” (Jobs-to-be-Done) yondashuvi — mijozlarni segmentlashda demografikdan ko‘ra bajarilayotgan vazifa (masalan, “tezkor to‘lov”, “xavfsiz jamg‘arma”, “migrant remitansi”) asosiy birlikka aylanadi. Bu nazariyalar marketing strategiyasini innovatsion mahsulot dizayni, narxlash va kanallar arxitekturasi bilan bog‘laydi.

So‘nggi yillarda bank xizmatlari “raqamli-sermuloqot” muhitga ko‘chdi: super-ilovalar, API hamkorliklari, embedded finance, sun’iy intellektga asoslangan tavsiyalar va risk skorlaynlar kundalik amaliyotga aylandi. Bunda innovatsion marketing strategiyasi uch qatlamli mexanizmlar orqali ishlaydi: (i) mijozni anglash, (ii) qiymat taklifini yaratuvchi dizayn, (iii) yetkazib berish va o‘lchash. Birinchisi, ma’lumotlar tahlili (behavioural analytics), psixografik/kontekstual segmentlash va “hayotiy sikl” ko‘rsatkichlari (onboarding → faollashtirish → foydalanish → sodiqlik) bilan bog‘liq. Ikkinchisi, qiymat taklifini platformaviy yechimlar (masalan, kredit + keshbek + qo‘shma savdo hamkorlari) va tarif dizayni orqali testlab boradi. Uchinchisi, omnichannel (mobil ilova, veb, filial, kontakt-markaz, chat) orkestratsiyasi, xizmat sifati (SLA/SLO) va iqtisodiy natijalarni (CAC, CLV, daromad mixi) real vaqt rejimida o‘lchaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Banklarda innovatsion marketingning ilmiy poydevori uch yo‘nalishda shakllanadi. Birinchisi, resurslarga asoslangan qarash (RBV) bo‘lib, barqaror ustunlik noyob va qiyin ko‘chiriladigan resurslar (brend ishonchi, mijoz ma’lumotlari, analitika malakasi, platforma hamkorliklari)ga tayanishini ta’kidlaydi (VRIN mezonlari). Ikkinchisi, dinamik qobiliyatlar konsepsiyasi bo‘lib, bozordagi tez o‘zgarishlar sharoitida tashkilotning “sezish–egallash–qayta konfiguratsiya” (sensing–seizing–reconfiguring) qobiliyatlari marketing strategiyasini doimiy yangilash imkonini berishini asoslaydi. Uchinchi yo‘nalish — xizmat-dominant mantiq (Service-Dominant Logic): moliyaviy xizmatlarda qiymat mijoz bilan hamyaratish jarayonida, tajriba dizayni va kooperatsiya orqali yuzaga keladi; marketing “mahsulot markazidan” “xizmat/qiymat hamyaratishga” siljiydi. Nazariy

implikatsiya: tijorat banklarida innovatsion marketing mexanizmlari — ma’lumotga tayangan segmentlash, personalizatsiya, API-ecosystem hamkorliklari, omnichannel tajriba va eksperiment boshqaruvi — aynan shu uch poydevor kesishmasida ishlaydi.

So‘nggi tizimli adabiyot sharhlari raqamli innovatsiya (AI/ML tavsiyalar, mobil ilovalar, ochiq bankchilik, raqamli hamyonlar) bank natijalarini *marketing KPI’lari* (CLV, NPS, sotuv samaradorligi) orqali yaxshilashini hujjatlashtiradi. Marketing innovatsiyasi bo‘yicha SLR esa yangi kanal/taqsimot, narxlash, kommunikatsiya va brendlash usullari — ayniqsa raqamlashtirish ta’siri ostida — tijorat natijalariga uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Banklar kesimidagi SLRlar raqamli innovatsiya → bank samaradorligi zanjirini global namunalar asosida tasdiqlaydi (2012–2022 davrida 65 ish tahlili). Amaliy mexanizmlar sifatida adabiyotlar quyidagilarni ajratadi: (i) CDP + NBA (mijoz 360° profili va Next-Best-Action triggerlari), (ii) bundling/unbundling va usage-based narxlash, embedded finance hamkorliklari, (iii) omnichannel orkestratsiya, A/B va bandit sinovlari, MMM+MTA atributsiya; bularning barchasi dinamik qobiliyatlar orqali orkestratsiya qilinadi.

Mahalliy ilmiy ishlar tijorat banklarida innovatsion marketing zarurati, raqamli xizmatlar va mijoz tajribasini yaxshilash yo‘llarini yoritadi. Masalan, Tadjibayeva va hamkorlarning maqolasi innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish uchun raqamli kanallar, sodiqlik dasturlari va xarajat samaradorligi yo‘nalishlarini tizimlashtiradi.

Bekmurodova (PhD) banklar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing kontseptsiyasini takomillashtirish masalalarini ko‘taradi (strategiya–jarayon–metrika bog‘liqligi). Minarova O‘zbekiston tijorat banklarida innovatsion faoliyat holatini kompleks tahlil qilib, zamonaviy xizmatlarni joriy etishdagi muammolar va takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatadi (innovatsion bo‘linmalar, kadrlar va IT integratsiyasi). Mahalliy o‘quv qo‘llanmalar (Azlarova & Abduraxmanova; “Bank faoliyati marketingi”) bank marketingining konseptlarini — segmentlash, mahsulot/kanal aralashmasi, munosabatlar marketingi — milliy sharoitga moslashtirib, innovatsion yondashuvlar uchun metodik asos beradi. Ilova darajasida bozor kuzatuvlari (masalan, Markswebb – Mobile Banking Rank Uzbekistan 2024) mahalliy banklarning mobil tajriba va raqamli imkoniyatlari bo‘yicha solishtirma ma’lumot beradi; bu tadqiqotlar onboarding, to‘lov ssenariylari, qo‘llab-quvvatlash singari omnichannel komponentlar marketing natijalariga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Sinergetik mexanizm: “ma’lumot + ekotizim + eksperiment”. Adabiyotlar kesimida bank marketingi uchun quyidagi mexanizm xaritasi shakllanadi. Insight layer: CDP orqali tranzaksiya, xulq va qo‘llab-quvvatlash ma’lumotlarini birlashtirib, prognozli modellar (churn, talab ehtimoli) va Next-Best-Action

triggerlarini ishga tushirish; bu S-D logicdagi qiymat hamyaratishga xizmat qiladi. Value layer: modulli paketlar, API/embedded finance hamkorliklari, usage-based narxlash; bularni dinamik qobiliyatlar (sensing–seizing–reconfiguring) yordamida iterativ loyihalash va kengaytirish. Delivery & growth layer: omnichannel orkestratsiya, A/B va multi-armed bandit sinovlari, MMM+MTA asosida sarflarni boshqarish; CLV/CAC va journey-KPI'lar bilan yopiq tsikl boshqaruvi.

Materiallar va metodlar

Quyidagi metodologik bo‘lim tijorat banklarida innovatsion marketing strategiyalaridan (IMS) foydalanish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish uchun yaxlit, izchil va qayta takrorlanadigan yondashuvni taklif etadi. Metodologiya mazmuni uch qatlamli konsepsiyaga tayanadi: (1) IMS — ma'lumotga tayangan personalizatsiya (CDP, Next-Best-Action), omnichannel orkestratsiya, A/B eksperimentlar, API/embedded hamkorliklar; (2) o‘lchov — CLV/CAC, churn, NPS/CES, daromad miksi va journey-KPI; (3) identifikatsiya — kausal ta'sirni ajratib ko‘rsatish uchun eksperimental yoki kvazi-eksperimental dizaynlar. Avvalo, tadqiqot dizayni "mixed-methods" tamoyiliga quriladi. Sifat bosqichida C-level rahbarlar (CMO, CDO), risk, IT va filial tarmog‘i menejerlari bilan yarim tuzilmali intervyular o‘tkazilib, IMS jarayonlari (segmentlash, oferta dizayni, rozilikni boshqarish, komplayens, kampaniya orkestratsiyasi) xaritalanadi. Bu bosqich natijasida nazariy konstruktlar (masalan, "personalizatsiya sifati", "xizmat tajribasi", "ishonch", "privacy by design") operatsion ko‘rinishga keltiriladi va keyingi miqdoriy bosqich uchun gipotezalar shakllantiriladi. Shu bilan birga, foydalanuvchi yo‘li (journey) bo‘ylab etnografik kuzatuvlar va sprint-lab testlar (think-aloud) mobil ilovadagi "og‘riq nuqtalari"ni (onboardingda to‘xtash, ilk tranzaksiyagacha kechikish) aniqlaydi — bu toparlar miqdoriy modellar uchun kovariatlar va segmentlash mezonlarini boyitadi.

Tahlil va natijalar

Raqamli transformatsiya, ochiq bankchilik va fintech hamkorliklari moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning qoidalarini tubdan o‘zgartirdi. Banklarda an'anaviy "mahsulot markazli" marketingdan "mijoz qiymati va tajribasi markazli" tizimga o‘tish jarayoni kechmoqda. Innovatsion marketing strategiyalari (IMS) — ma'lumotga tayangan personalizatsiya, modulli tarif va narxlash, ekotizim hamkorliklari, omnichannel tajriba hamda tezkor eksperimentlar — bozor imkoniyatlarini aniqlash, CLV/CAC nisbatini yaxshilash va sodiqlikni oshirishning asosiy vositalariga aylandi. Ushbu maqola IMS'ni bank kontekstida nazariy va amaliy mexanizm sifatida yoritib, ularning natijalarini ilmiy metodlar bilan baholaydi.

1-jadval

Tijorat banklarida qo’llaniladigan asosiy innovatsion marketing strategiyalari

№	Strategiya	Maqsad	Yondashuv (kalit g‘oyalar)	Asosiy KPI
1	Personalizatsiya / NBA	CLV↑, kross-sotuv↑, ARPU↑	RFM/propensity segmentatsiya, real-vaqt signal, “next-best-offer/action”	CR, ARPU, LTV/CAC
2	Onboarding (0–90 kun)	Aktivatsiya↑, FTUE tez	App walkthrough, bosqichma-bosqich vazifalar (karta→app→autodebit→paket)	Activation rate, 30/60/90-kun retention
3	Churnni oldini olish	Retention↑, churn↓	Erta ogohlantirish signallari, trigger-takliflar, re-engagement oqimlari	Retention, churn rate, qayta faollashuv
4	Kredit pre-approval	Portfel sifatli o‘sishi, CAC↓	PD/LGD, limit optimizatsiya, “instant offer” app/SMS/call	Konversiya, Net ROI, NPL ta’siri
5	Depozit & Loyalty	Arzon resurs, sticky balance	Maqsadli jamg‘arma, tiered benefits, keshbek/ball	Net inflow, o‘rt. qoldiq, deposit churn
6	Raqamli migratsiya	Cost-to-serve↓, TAT↑	Filialdan appga o‘tkazish, QR/assisted onboarding, self-service	Digital adoption, cost-to-serve
7	Narx (pricing) optimizatsiyasi	Marja↑, foydalilik↑	Segmentga ko‘ra dinamik foiz/komissiya, elastiklik testi	Net marja, ROI (guardrail: churn/CSAT)
8	Ochiq banking/marketpleys	Yangi daromad, CAC↓	API integratsiya, ko-brend paket, partner attribution	CR/ARPU (attribution), partner MRR
9	Referral dasturi	Organik o‘sish, CAC↓	Refer-a-friend bonus, deep-link/QR, antifraud	Yangi mijozlar, CAC
10	SME ekotizimi (invoice→kredit)	SME daromadi↑, kross-sotuv	Invoice/kassa integratsiyasi, cashflow scoring	SME MRR, kredit qo‘yilishi, default ta’siri

Tijorat banklarida innovatsion marketing strategiyalarini yagona tizim sifatida bayon qiladi. Uning markazida “ma’lumot → ekotizim → eksperiment → o‘lchash” yopiq halqasi turadi; yakuniy maqsad — CLV’ni oshirish, CAC’ni kamaytirish, retention va NPS’ni yaxshilash. Tijorat banki raqobatda yutishi uchun birinchi navbatda ma’lumotga tayangan personalizatsiyani yo‘lga qo‘yadi. Core Banking, CRM va raqamli kanallardan to‘plangan signallar asosida mijozlar RFM va propensity modellari bilan qatlamlanadi, so‘ng “next-best-action/offer” orkestratori har bir mijozga eng mos taklifni to‘g‘ri vaqtda, to‘g‘ri kanalda beradi. Buning natijasida kross-sotuv va ARPU o‘sadi, lekin kontakt chastotasi va adolat (fairness) doimiy ravishda nazorat qilinadi. Yangi mijozga beriladigan ilk tajriba — onboarding — butun LTV hajmini belgilaydi. 0–90 kunlik hayotiy siklda karta


faollashtirish, mobil ilovaga kirish, autodebit va mos paketlarni yo‘lga qo‘yish bosqichma-bosqich dizayn qilinadi.

App ichida walkthrough, push/email eslatmalar va filialda “assisted onboarding” friksiyani kamaytiradi; muvaffaqiyat activation rate va 30/60/90 kunlik retention bilan o‘lchanadi. Har bir to‘siq A/B test orqali soddalashtiriladi. Mijozni ushlab qolish uchun churnni oldini olish strategiyasi erta ogohlantirish signallariga tayanadi: balans dinamikasi, app faolligi, xizmatlardan foydalanish ritmi va shikoyatlar. Churn modeli xavfli segmentlarni aniqlaydi va trigger-kampaniyalar individual saqlash takliflarini yo‘naltiradi. Bu yerda asosiy ko‘rsatkichlar — retention va churn rate; siyosat va limitlar esa taklif suiiste’molini cheklaydi. O‘sishni tezlashtiruvchi kuch — kredit pre-approval. Risk modellari (PD/LGD) va limit optimizatsiyasi yordamida mos mijozlarga “instant offer” beriladi: app, SMS yoki call-markaz orqali. Bu oqim CAC’ni pasaytiradi, ammo guardrail sifatida NPL ta’siri va AML/KYC talablariga qat’iy rioya qilinadi.

G‘olib takliflar uplift va Net ROI bo‘yicha tasdiqlangach, kengaytiriladi. Resurs bazasini barqarorlashtirish uchun bank depozit va sodiqlik dasturlarini kuchaytiradi: maqsadli jamg‘arma, tiered benefits, keshbek/ball va ko-brend paketlar orqali “sticky balance” shakllanadi. Dinamik narx (pricing) optimizatsiyasi segmentlar bo‘yicha foiz va komissiyalarni moslaydi; bu marjani oshiradi, biroq churn va adolat ko‘rsatkichlari guardrail sifatida kuzatiladi. bBank o‘zi bilan cheklanmaydi: ochiq banking ekotizimi orqali fintech, savdo maydonchalari va servislar bilan integratsiya qilinadi. Partner attribution tizimlari qaysi kanal samarali ekanini ko‘rsatadi; shu yo‘l bilan yangi daromad oqimlari ochiladi va jalb qilinish qiymati pasayadi. Referral dasturi esa yuqori NPS promouterlarini organik o‘sish dvigateliga aylantiradi; antifraud nazorati bilan birga KYC bog‘lanishi muhim. Bularning barchasi tajriba (eksperiment) madaniyati bilan ishlaydi: har bir tashabbus aniq hipotezadan boshlanadi, A/B/n yoki geo-split test bilan sinovdan o‘tadi, uplift va ROI bo‘yicha baholanadi. Natijalar “post-mortem” yozuvlari va “learn log”da jamlanib, feature store’ni boyitadi — shunday qilib, keyingi g‘oyalar tezroq va aniqroq shakllanadi. Qisqa qilib aytganda, innovatsion marketing kampaniyalar to‘plami emas, balki ma’lumotga asoslangan, hamkorlikda kengayadigan va doimiy o‘rganadigan tizimdir. RBV va dinamik qobiliyatlar. RBV banklardagi noyob resurslar (brend ishonchi, ma’lumotlar ombori, analitika kompetensiyalari, platforma hamkorliklari)ga tayanib, bardavom ustunlik VRIN mezonlari orqali yuzaga kelishini ta’kidlaydi.

Dinamik qobiliyatlar nazariyasi esa ushbu resurslarni bozor signallarini sezish, imkoniyatlarni egallash va resurslarni qayta konfiguratsiya qilish orqali doimiy yangilab turishni talab qiladi. S-D logic. Xizmat-dominant mantiq moliyaviy xizmatlarda qiymatning mijoz bilan hamyaratish (co-creation) jarayonida yuzaga

kelishini asoslaydi; bunda tajriba dizayni, sodiqlik va ishonch marketingning markaziga chiqadi. Empirik dalillar. Tizimli sharhlar (SLR) va bibliometrik tadqiqotlar raqamli innovatsiya (AI/ML tavsiyalar, mobil ilovalar, ochiq API) bank natijalariga bevosita ta’sir qilishini, CLV, NPS, o‘sish va operatsion samaradorlikning yaxshilanishini ko‘rsatadi. Mahalliy kontekst. O‘zbekistonda innovatsion bank xizmatlari, raqamli marketing, mobil banking tajribasi va mijoz yo‘li (journey) bo‘yicha ishlar IMS’ning jarayon-metrika bog‘lanishini tasvirlaydi; o‘quv qo‘llanmalar bank marketingi konseptlarini milliy sharoitga moslashtiradi. Bozor reytinglari (masalan, mobil banking tajribasi) esa onboarding, to‘lov ssenariylari va qo‘llab-quvvatlash sifatini solishtirib, omnichannel mexanizmlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.



1-rasm. Konseptual ramka: “Ma’lumot + Ekotizim + Eksperiment”

Quyidagi konseptual ramka tijorat bankida innovatsion marketingni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun “Ma’lumot – Ekotizim – Eksperiment” uchligiga tayanadi. Uning yakuniy maqsadi bir martalik kampaniyalarni ko‘paytirish emas, balki mijoz qiymatini (CLV) uzluksiz oshirish, jalb qilish xarajatini (CAC) kamaytirish, kross-sotuv va saqlab qolish ko‘rsatkichlarini yaxshilashdir. Shu bois har bir tashabbus boshlanishidan oldin KPI bilan bog‘lanadi: agar g‘oya CLV, retention yoki ROI’ni sezilarli yaxshilamasa, u sinovga kiritilmaydi. Ramkaning birinchi ustuni — ma’lumot. Bankning Core Banking tizimi, CRM va ombor (DWH)larda yig‘ilgan tranzaksiyalar, aloqa tarixlari va mijoz profilidan boshqariladigan “feature”lar hosil qilinadi. Sifat nazorati, rozilik boshqaruvi va “privacy-by-design” tamoyillari ma’lumotni ishonchli aktivga aylantiradi. Shu poydevorda segmentatsiya va bashorat modellarini qurish mumkin: RFM bo‘yicha qiymatli segmentlar, churn

ehtimoli yuqori bo‘lgan mijozlar, “keyingi eng maqbul taklif” (Next-Best-Action) kabi natijalar marketingga aniq nishon beradi. Ikkinchi ustun — ekotizim.

Bank yagona o‘yinchi emas: Open Banking API, fintechlar, savdo maydonchalari va to‘lov servislarini bog‘lash orqali qiymat taklifi kengayadi. Omni-kanal orkestratsiya (mobil ilova, push, SMS, email, call-markaz, filial) barcha nuqtalarda yagona xabar va tajribani ta’minlaydi. Shu yo‘sinda “bank mahsuloti” o‘rniga “hamkorlikdagi yechim” paydo bo‘ladi: ko-brending, keshbek, tayyor paketlar mijozga tezroq va mosroq yetkaziladi. Uchinchi ustun — eksperiment. Har bir tashabbus aniq hipotezadan boshlanadi: “Agar X segmentga Y taklifni Z kanalda bersak, retention R% oshadi, chunki…”. Dizayn A/B/n yoki bandit yondashuvi asosida qurilib, nazorat (holdout) guruh majburiy kiritiladi.

O‘lchash inkremental ta’sirga — uplift va ROI’ga — yo‘naltiriladi; statistik quvvat yetmaguncha test yakunlangan deb hisoblanmaydi. G‘olib variant tezda prodga chiqariladi, qolganlari esa keyingi hipotezalarga bilim sifatida ko‘chadi. Uch ustun ustida “enabler”lar ishlaydi: to‘g‘ri rollar (Product/Growth menejer, Data scientist, MLOps, MarTech, Risk), aniq jarayon (CRISP-DM, eksperiment protokoli, backlog va “gate”lar) hamda texnologiya (CDP, feature store, kampaniya orkestratori, test platformasi). Risk va compliance doimo hamroh: KYC/AML, adolatli kreditlash va audit izi modellar va kampaniyalar hajmi kattalashgan sari ishonchni saqlab turadi. Ramka amaliyotda uchta tipik yo‘lakda jonlanadi. Birinchisi — personalizatsiya: segmentlar uchun mos paketlar, limitni dinamik oshirish, individual narxlash orqali konversiya va ARPU ko‘tariladi. Ikkinchisi — kredit pre-approval: risk modeli asosida mos mijozlarga oldindan taklif berish, friksiyasiz oqim yaratish. Uchinchisi — churn’ni oldini olish: erta ogohlantirish signallari (faoliyat susayishi, balans dinamikasi) aniqlanib, saqlash takliflari tezkor yo‘naltiriladi. Har bir use-case’da eksperimentlar ketma-ketligi ishlaydi va natija KPI’ga bog‘lanadi.

Pastki qavat — “o‘lchash va o‘rganish” sikli — tizimning yuragi. Konversiya, ARPU, LTV/CAC, uplift va risk metrikkalari muntazam tahlil qilinadi; har bir test bo‘yicha qisqa post-mortem yozuvi va “learn log” yuritiladi. To‘plangan bilimlar yangi hipotezalarni tezroq va aniqroq shakllantiradi; natijalar feature store’ga qaytib, modellarni boyitadi. Shunday qilib, “ma’lumot → ekotizim → eksperiment → o‘lchash → ma’lumot” yopiq halqasi bank marketingini kampaniyadan tizimga aylantiradi. Bu ramka bankka uchta yutug‘ni beradi: avvalo, qarorlar factsiz emas, ma’lumotga tayangan holda qabul qilinadi; ikkinchidan, bozor va mijoz xulqi o‘zgarganda, eksperimentlar orqali moslashuv tezlashadi; uchinchidan, hamkorlik ekotizimi tufayli yangi qiymat takliflari arzonroq va kengroq tarqaladi. Yakunda CLV barqaror o‘sadi, CAC tushadi, retention va NPS yaxshilanadi — ya’ni innovatsion marketing haqiqiy moliyaviy natijaga aylanadi.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklarida innovatsion marketing — bu alohida kampaniyalar jamlanmasi emas, balki ma’lumot → ekotizim → eksperiment → o‘lchash tamoyillariga tayangan uzluksiz boshqaruv tizimidir. Ushbu mexanizm CLV’ni oshirish, CAC’ni kamaytirish, retention va NPS’ni yaxshilash orqali marketingni bevosita moliyaviy natijaga bog‘laydi. Poydevorda Core Banking, CRM va raqamli kanallardan yig‘iladigan signallar turadi; ular segmentatsiya va “next-best-action”ni aniqlashga xizmat qiladi. Ekotizim (Open Banking, fintech hamkorliklari, omni-kanal orkestratsiya) takliflarni tez va masshtabli yetkazadi, eksperiment madaniyati esa A/B/n va uplift o‘lchovlari orqali qarorlarni faktga tayantiradi.

Natijada bank “hamma uchun bitta reklama”dan mijozga mos, vaqtida va adolatli takliflarga o‘tadi; kross-sotuv va ARPU o‘sadi, resurs bazasi barqarorlashadi, raqamli migratsiya cost-to-serve’ni pasaytiradi. Shu bilan birga, KYC/AML, fairness va audit izi kabi compliance talablari jarayonning ajralmas qismiga aylanadi — tezlik va ishonchlilik muvozanati ta’minlanadi. Innovatsion strategiyalar to‘g‘ri RACI, standart test protokoli va real-vaqt paneli bilan qo‘llab-quvvatlanganda, g‘olib use-case’lar tezda prodga chiqadi va budjet ROI bo‘yicha qayta taqsimlanadi. Xulosa qilib aytganda, innovatsion marketing mexanizmlarini tizimli joriy etgan bank bozor o‘zgarishiga tez moslashadigan, hamkorlikda kengayadigan va doimiy o‘rganadigan tashkilotga aylanadi — bu esa barqaror foyda va raqobatbardoshlikning eng ishonchli manbaidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Kotler, P., Keller, K. L., & Chernev, A. (2022). *Marketing management* (16th ed.). Pearson.

2. Meidan, A. (1984). *Bank marketing management*. Macmillan/Palgrave.

3. Sun, Y., Liu, H., & Gao, Y. (2023). Research on customer lifetime value based on machine learning algorithms and customer relationship management analysis model. *Heliyon, 9*(2), e13384. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e13384

4. Jasek, P., Vraná, I., & Janků, J. (2018). Modeling and application of customer lifetime value in online retail. *Informatics, 5*(1), 2. https://doi.org/10.3390/informatics5010002

5. Andjelković, D., & Djurović, M. (2020). CLV model application in bank clients’ profitability projection procedure. *Journal of Entrepreneurship and Business Resilience, 3*(1), 66–78.

6. Kumar, V., & Reinartz, W. (2016). Creating enduring customer value. *Journal of Marketing, 80*(6), 36–68. https://doi.org/10.1509/jm.15.0414

7. Rust, R. T., Zeithaml, V. A., & Lemon, K. N. (2000). *Driving customer equity: How customer lifetime value is reshaping corporate strategy*. The Free Press.

8. Babina, T., Bahaj, S. A., Buchak, G., De Marco, F., Foulis, A. K., Gornall, W., Mazzola, F., & Yu, T. (2024). *Customer data access and fintech entry: Early evidence from open banking* (NBER Working Paper No. 32089). National Bureau of Economic Research.

9. Phillips, R. (2013). *Optimizing prices for consumer credit* (CPRM Working Paper). Columbia Business School.

10. Devriendt, F., Moldovan, D., & Verbeke, W. (2018). A literature survey and experimental evaluation of the state-of-the-art in uplift modeling: A stepping stone toward the development of prescriptive analytics. *Big Data, 6*(1), 13–41. https://doi.org/10.1089/big.2017.0104

11. Yamane, I., Yger, F., Atif, J., & Sugiyama, M. (2018). Uplift modeling from separate labels. In *Advances in Neural Information Processing Systems 31 (NeurIPS 2018)*.

12. Oracle. (n.d.). *What is a customer data platform (CDP)?* Retrieved October 15, 2025, from

Ingliz tili muharriri: *Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi*
Musahhih: *Vaxabova Marfua Mirkamalovna*
Sahifalovchi va dizayner: *Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li*

2- TOPLAM
2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.
El. pochta: journals@timeedu.uz
Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

Manzilimiz: *Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Shota Rustaveli ko'chasi, 114*